MARKAZIY OSIYODA ISLOM SIVILIZATSIYASI: O‘TMISH VA HOZIRGI ZAMON

VI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil sentabr, Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi

PROCEEDINGS OF THE 6th INTERNATIONAL
SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

ISLAMIC CIVILIZATION IN CENTRAL ASIA: PAST AND PRESENT

September 2025, Tashkent, Republic of Uzbekistan

“O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi”
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2025

UO‘K: 28(5-191.2)(093)(06)
KBK: 85.657.317
M 99

“Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasi: o‘tmish va hozirgi zamon” [Matn]: VI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami / tuzuvchilar guruhi. – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2025. – 476 b.

Proceedings of the 6th International Scientific-Practical Conference “Islamic Civilization in Central Asia: Past and Present” / Foreword by Muzaffar Kamilov and Preface by Mahmud Erol Kılıç. Editor: Jasurbek Abduqodirov. - Tashkent: International Islamic Academy of Uzbekistan, 2025. 476 - p.

Mas’ul muharrirlar/Chief Editors:
Irgash Daminov, Ashirbek Mo‘minov, Ne’matullo Muhamedov

Tahrir hay’ati/Editorial Board:
M.E.Kılıç, M.Kamilov, A.Mo‘minov, D.Maxsudov, G‘.Rasulov, N.Muhamedov, A.Hasanov, S.Agzamxodjayev, A.G‘aniyev, N.Nasrullayev, T.Xatamov, Sh. Toxtiyev, H.Lutfullayev, O. Tangirov, M.Usmonov, S.G‘aybullayev, Z.Ziynatullayev, G, Sharipova, G.Ahmadjonova, J.Abduqodirov

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son buyrug‘iga muvofiq O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida Islom tarixi, san’ati va madaniyatini tadqiq etish markazi – IRCICA bilan hamkorlikda 2025-yil 16-sentabrda **“Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasi: o‘tmish va hozirgi zamon”** VI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilindi.

Ushbu to‘plamda an’anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari o‘rin olgan. Unda xorij va respublikamizdagi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi professor-o‘qituvchilar, tarixchilar, islomshunoslar, dinshunoslar, sharqshunoslar, manbashunoslar, san’at va madaniyat tarixi tadqiqotchilari, shuningdek, yosh ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistr va bakalavrlarning ilmiy ishlari asosida yozilgan maqolalar jamlangan.

To‘plamga kiritilgan maqolalarda keltirilgan sana, raqam, fakt va boshqa ma’lumotlar uchun mualliflar javobgardir.

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2025-yil 9-sentabrdagi 02-07/5654-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

ISBN 978-9910-9309-6-6

© “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi”
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2025

KIRISH SO‘ZI

FOREWORD

Др. Камилов Музаффар Муродович,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси ректори, т.ф.н., доцент

Ассалому алайкум ҳурматли анжуман иштирокчилари!
Азиз меҳмонлар!

Сизларни “Марказий Осиёда ислом цивилизацияси: ўтмиш ва ҳозирги замон” мавзусидаги халқаро конференция доирасида Ўзбекистон халқаро исломшунослик академиясида кўриб турганимиздан мамнунмиз.

Ҳақиқатда, тарих ва замон, унинг қиёси зарур хулосалар чиқариш учун ҳам долзарб бўлиб келган.

Бу, шунингдек, Ўзбекистон диёридан етишиб чиққан буюк алломаларнинг бой тарихий меросини илмий асосда тадқиқ этиш, ислом цивилизациясининг Марказий Осиёдаги ўрни ва аҳамиятини чуқурроқ англаш, шунингдек, унинг замонавий тараққиётдаги ўрнини белгилашда улкан аҳамиятга эга.

Уч минг йиллик бой тарихга эга, ўзига хос маданий ва илмий мероси билан энг қадимий цивилизация бешикларидан бири ҳисобланган Ўзбекистон Буюк ипак йўлининг чорраҳасида жойлашган. Бу ҳудуд маърифат, илм-фан ва таълим, шунингдек, фикр, эътиқод, билим ва ҳунармандчилик алмашинуви маркази ҳам бўлган.

Халқимизнинг бой ва бетакрор меросига оид нодир манбалар, дунёнинг кўплаб мамлакатларининг нуфузли фондларида сақланаётгани, ҳали-ҳануз ўз тадқиқотчиларини кутаётгани маълум.

Ўзбекистон Республикаси Президенти муҳтарам Шавкат Мирзиёев Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси марказига ташрифи чоғида, жумладан, шундай деган эдилар: “Ўзбекистон улуғ тарихга эга. Буюк аждодларимиз томонидан яратилган илмий ва маданий мерос инсоният тарихида ўчмас из қолдирган. Улар билан дунё ҳамжамиятини хабардор қилишда ушбу марказнинг ўрни беқиёс бўлишига ишонаман”.

Бу ишонч, шубҳасиз, буюк тарих, улуғ алломалар ҳамда бой илмий-маънавий, маърифий мероси билан боғлиқ.

Шу боис мазкур қимматли сўзлар бугунги анжуман учун ҳам асосий йўналиш бўлиб хизмат қилади. Зеро, биз ислом цивилизациясининг нафақат ўтмишдан мерос қолган тарихини, балки унинг маънавий ва фан оламидаги мустаҳкам асосларини илмий равишда тушуниш ва тарғиб этиш зарурлигини чуқур англаймиз.

Бугун улуғ аждодларимиз меросини чуқур тадқиқ қилиш, *мазмун-моҳиятини* ёшларимиз қалбига сингдириш, уни бугунги куннинг ўткир муаммоларига жавоб бера оладиган ҳаётбахш кучга айлантириш асосий *мақсадимиз бўлиши* зарур.

Мазкур анжуман Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича қўмитаси ҳамда Ислом тарихи, санъати ва маданиятини тадқиқ этиш маркази (IRCICA) томонидан ташкил этилаётгани Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси билан амалий ҳамкорликнинг янги саҳифасини очишга

хизмат қилади. Анъанавий тарзда 6 йилдан бери ўтказилаётган халқаро конференция нафақат Ўзбекистон, балки Марказий Осиё маданий меросини ўрганиш ва оммалаштириш ҳамда минтақа халқлари ўртасидаги маданий-гуманитар ҳамкорликни янада ривожлантиришга хизмат қилиши шубҳасиз.

Бугунги конференция илмий тажрибаларни, маданий-тарихий омилларни ва замонавий тараққиётда ислом цивилизациясининг ўрнини мустаҳкамлаш учун катта имкониятлар яратади.

Муҳтарам анжуман қатнашчилари!

Ислом цивилизацияси — бу фақат тарих эмас, балки замонавий тараққиёт, тинчлик ва маърифат йўлида ҳам беқиёс аҳамият касб этади. Биз Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида ҳам айнан маънавий тараққиётни таъминлаш, ушбу соҳани тубдан ислоҳ этиш ва янги босқичга олиб чиқишни устувор йўналиш сифатида белгилаб олганмиз.

Шу муносабат билан, ушбу анжуман илмий изланишларимизни янада чуқурлаштиришга, дунё олимлари билан фикр алмашишга ва Марказий Осиёда ислом цивилизациясининг ўрнини жаҳон миқёсида кенг тарғиб қилишга мустаҳкам замин яратади.

Ишончим комилки, анжуман доирасида илмий муҳокамалар амалга оширилади, чуқур илмий хулосалар, амалий таклифлар ишлаб чиқилади.

Шунингдек, сиздек соҳасининг етук мутахассислари томонидан илгари сурилган илғор фикрлар ушбу йўналишдаги янги тадқиқотлар учун манба бўлишига қатъий ишонаман.

Барчангизга самарали, мазмунли муҳокамалар ва янги ютуқлар тилайман, конференция ишига муваффақият тилайман!

Эътиборингиз учун ташаккур.

PREFACE

Prof. Mahmud Erol Kılıç,
Director General of IRCICA

Excellencies, dear colleagues,

It is a pleasure to address the opening of the sixth conference on Islamic Civilization in Central Asia. I am honored to greet the Religious Affairs Committee of the Republic of Uzbekistan, the International Islamic Academy of Uzbekistan and the IRCICA Chair for Islamic History and Source Studies. I welcome the distinguished participants. The conference has reached its sixth edition today, having established a remarkable tradition in its field as an annual international academic event. It has five large-scale editions on its record with their resulting publications. With the support of the Government of Uzbekistan, the cooperation of the International Islamic Academy of Uzbekistan, and the dedicated works of the Chair, the success of the conference series is enhanced by its inter-disciplinary scope within the framework of the history and cultural heritage of Central Asia. The aim is to provide a joint platform where diverse topics, outlooks, sources and methods would be communicated by participants from different fields, to reflect the wide scope of Islamic civilization under its historical and contemporary aspects. The resulting interaction has maintained a growing dynamism throughout the annual editions of the conference. This achievement matches with the mission of our Centre IRCICA, which has the task of organizing platforms to encourage exchanges and collaboration among researchers working in its fifty-seven member countries and among the global academic community. IRCICA's work covers the heritage of Islamic civilization related to the Muslim countries and communities in Asia, Africa, the Mediterranean, Eastern Europe, the Caribbean and Latin America. Through these efforts, we are obtaining favorable results for international academic cooperation and also within the respective subjects of research and with regard to methodology. For example, we are emphasizing the development of regional perspectives in the humanities that would benefit from the contributions of scholars within each cultural region, to be operated in combination with an awareness of global developments of research. Furthermore, we are trying to ensure that studies in the humanities provide a full periodical and geographical coverage of each region and each period of Islamic history and civilization, to give each of them its worthy place in the world of knowledge and to help to build integral visions for researchers. I believe that this conference will continue to contribute to these objectives in the context of Central Asia, which is one of the most important components of the history and heritage of Islamic civilization.

I would like to thank the co-organizers and the distinguished participating scholars and researchers for their cooperation.

Thank you.

PLENAR MAJLIS MA’RUZALARI

PLENARY SESSION’S PAPERS

ИСЛАМСКИЕ ИНСТИТУТЫ В ЭПОХУ КАРАХАНИДОВ

ISLAMIC INSTITUTIONS DURING THE KARAKHANIDS PERIOD

Муминов Аширбек Курбанович
ИРСИКА, советник генерального директора, д.и.н.

Введение

Погребальная эпиграфика является самостоятельным и надежным источником. Надпись, выгравированная однажды на камне, в отличие от памятников на бумаге уже не переписывалась. Поэтому эпиграфический текст обладает высокой степенью достоверности и является надежным письменным отпечатком своего времени. Мусульманские эпиграфические памятники составляют самую оригинальную часть письменных памятников, культурного наследия народов Центральной Азии. Самарканд славится особенным обилием кайраков (намогильная речная галька), появившиеся здесь в эпоху Караханидов (999–1211). Как показывают публикации исследователей, эта традиция была заимствована из регионов Ферганской долины и Семиречья.[1] Временные рамки распространения кайраков в Самарканде предварительно были установлены с начала V/XI по VIII/XIV вв., однако огромное большинство могильных галек принадлежит VI/XII веку. Время правления Чагатаидов (1227–1370) фиксирует резкое сокращение количества кайраков – нам известны намогильники VIII/XIV века в незначительном количестве.

Изучение кайраков

Давно была известна коллекция кайраков В. Л. Вяткина (1869–1932), собранная в Самарканде. Она была опубликована доктором Лолой Додхудоевой.[2] В ней находился 131 кайрак.

В рамках подготовки к проведению 1130-летнего юбилея Абу Мансура ал-Матуриди (ум. в 944–945 г.) на части археолого-архитектурного комплекса Чакар-Диза (Самарканд) в 1999–2000 гг. были произведены археологические раскопки. Здесь находилось старинное кладбище, которое было уничтожено в 1940–1950-х годах. Собственно кладбище, начиная с эпохи Караханидов, чаще связывалось с личностью богослова и правоведа (*мутакаллим, факих*) Абу Мансура ал-Матуриди. Во время раскопок были обнаружены 38 надгробий (керамических брикетов и, большей частью, кайраков), основную часть которых решено было оставить внутри вновь возведенного мавзолея на территории комплекса (директор – Улугбек Амиров).

Все доселе известные кайраки Самарканда в количестве 239 единиц надгробий, принадлежащих в основном центральноазиатским богословам-правоведам X–XIV веков, были изданы в 2019 году со стороны ИРСИКА.[3] Годом позже совместная экспедиция ИРСИКА и Международного научно-исследовательского центра Имама Бухари (проф. Ш.Ю. Зиёдов и доктор О.Б. Мухаммадиев) обнаружила еще 15 кайраков и опубликовала их в совместном с

[1] Настич В.Н. Средневековая эпиграфика Ферганы и Семиречья. Источниковедческий анализ арабографических эпитафий XII–XV вв. с территории Киргизии. Автореферат кандидатской диссертации. Москва, 1990. – 17 с. Там же ссылки на остальные публикации автора по данной теме.

[2] Додхудоева Лола. Эпиграфические памятники Самарканда XI–XIV вв. Том I. Душанбе: Издательство «Дониш», 1992.

[3] Эпитафии мусульманских ученых Самарканда (X–XIV века) / Введение, подготовка к изданию оригинальных текстов, переводы, комментарии: Б. М. Бабаджанов, Л. Н. Додхудоева, А.К. Муминов, У. Рудольф. Стамбул: ИРСИКА, 2019.

Международной исламской академией Узбекистана сборнике статей.[4] Работа по обнаружению кайраков продолжается, ибо еще три четверти площади кладбища еще предстоит вскрывать и изучать.

Широкомасштабные мероприятия по восстановлению надгробий для ранее умерших представителей матуридитской школы (предшественников и последователей Абу Мансура ал-Матуриди – Абу-л-Касима ал-Хакима ас-Самарканди, Абу-л-Хасана ар-Рустуфагни, Абу Салама ал-Хубайракасси ас-Самарканди), возведение мавзолея самому основателю школы, по созданию и благоустройству комплекса вряд ли были возможны без ведома и поддержки власти, которая, в свою очередь, не могла не учитывать социальный и религиозный авторитет богословов. Вышесказанное позволяет нам сделать вывод о том, что в кладбище Чакардиза большей частью были похоронены улемы, которые пользовались авторитетом среди правящих кругов той эпохи.

Правители и улемы

Тексты эпитафий дают оригинальный материал для исследований. Они оформлены пышно и принадлежали носителям высоких духовных должностей – «садр ал-ислам», «кади ал-кудат», «имам-хатиб», «муфти» и т. д. Видно, что усопшие пользовались влиянием в политических структурах того времени. Об этом также свидетельствует целый набор схожих по смыслу эпитетов покойных богословов, к которым прилагались высокие титулы (вроде «опора султанов», «избранник царей и султанов», «угодный великим правителям»). Можно отметить другие почетные титулы рассматриваемого сословия богословов Самарканда. Они отражают очевидные социальные и политические контексты их статуса: «поводырь, проводник народа», «украшение набожных», «опора ислама и мусульман», «принятый со стороны правителей»; «украшение царей и султанов», «царь судей Востока и Запада» и т.п. Видно, что стараниями богословов и юристов создавался правовой фундамент жизни общества, учитывая, естественно, особенности идеологии и политических традиций того времени. Эта база данных показывает особенности религиозной ситуации того времени и место богословов в социальной и политической жизни общины. Она отражает видимые методы, какие применяла династия Караханидов для налаживания отношений с авторитетными богословами, используя их как важный инструмент для внутриполитических регуляций, каковое обстоятельство тоже облекалось в особую титулатуру упокоившихся богословов: «глаголящий истину», «наставник своего народа», «аргумент истины на возвещение правды», «светоч мусульман», «победитель тех, кто вершит разврат и вносит в религию новшества» и т.п.

На таком фоне немножко странным выглядит наличие статуса «шахид» («мученика за веру») в текстах десяти надгробий – Q–012; Q–015; Q–065; Q–069; Q–070; Q–084; Q–110; Q–114; Q–115; Q–189. Неужели отношения между официальными властями и улемами в иные моменты приобретали столь драматический характер?

Слово «гариб» в текстах эпитафий

Для понимания такого противоречия важное значение имеет слово «гариб». мы обратили внимание на частое использование слова «гариб». При работе с текстами эпитафий в начале работы мы переводили это слово в его обыденном значении – «смиренный», «беспомощный». Однако близкое ознакомление с текстами 25 эпитафий, где встречалось слово «гариб» (по нашей классификации: Q–004; Q–012; Q–015; Q–054; Q–065; Q–069; Q–070; Q–082; Q–084; Q–089; Q–097; Q–109; Q–110; Q–111; Q–112; Q–114; Q–115; Q–124; Q–125; Q–132; Q–152;

[4] Муминов А.К., Зиёдов Ш.Ю., Мухаммадиев О.Б. Кайраки Самарканда: новые открытия // Proceedings of the International Workshop on Islamic Studies in Uzbekistan: Achievements and Perspectives, June 2020, Tashkent / Edited by Halit Eren and Ashirbek Muminov; prepared to publication by Shukhrat Yovkochev and Zokhidjon Islamov. Istanbul: Research Centre for Islamic History, Art and Culture, 2020, c. 321–360.

Q–160; Q–174; Q–181; Q–189; Q–210), потребовало серьезного к нему внимания. Такая частота и смысловые контексты заставили нас пересмотреть его грамматическое значение, и заставили думать об использовании термина в его религиозном и социальном значениях («чужестранец, странник»).[5]

Действительно, в авторитетные сборники *хадисов* включены изречения пророка Мухаммада по поводу статуса «гариб»: 1) первый *хадис* гласит: «Будь в этом мире (таким), будто ты чужеземец или путник»; 2) второй *хадис* заявляет: «Кто умрет на чужбине, тот умрет как мученик, и каждый, кто в этом мире из людей веры Божьей, тот странник». Примечательно, что в десяти случаях из всех 28 текстов эпитафий за смерть на чужбине (*маут фи-л-гурба*) покойным присвоен почетный статус «шахида» («мученика за веру»).[6]

Приглашенные улемы

По *нисбам* усопших можно выделить несколько регионов происхождения улемов странников (*гураба'*):

1. Южный Согда (Кеш и Насаф, 11 человек). К ним можно причислить авторитетных ханафитов из Насафа, выселенных из Самарканда в 1089 г. в результате политических коллизий – Садр ал-Ислама Абу-л-Йусра Мухаммада ибн Мухаммада ал-Паздави ан-Насафи (ум. в Бухаре в 1100 г.), Абу-л-Му'ина Маймуна ибн Мухаммада ал-Макхули ан-Насафи (ум. в 1114-1115 г.) Абу-л-Хасана 'Али ибн Мухаммада ибн ал-Хусайна ибн 'Абд ал-Карима ал-Паздави ан-Насафи (ум. в Кеше в 1089 г.).

Главным результатом их деятельности в Самарканде стали упорядочение учения Абу Мансура ал-Матуриди, содержащегося в основном в сочинениях последнего – «Китаб ат-таухид» и «Китаб ат-та'вилат», превращение ал-Матуридийа в официально поддерживаемое теологическое учение.

Затем Абу-л-Йуср и Абу-л-Му'ин со своими семьями и учениками перебрались в Бухару. Переезд этой группы ученых, особенно ученика двух вышеупомянутых богословов – 'Ала' ад-дина Мухаммада ибн Ахмада ибн Аби Ахмада ас-Самарканди (ум. около 1144–1145 г.) сыграл главную роль в распространении и последующем успехе учения ал-Матуридийа среди бухарских теологов.

2. Туркестан (8 человек). К ним также можно отнести туркестанских улемов, авторов известных сочинений, чьи могилы в Самарканде пока не обнаружены: Абу Тахира Давуда ибн Са'ида ибн Ахмада ал-Усбаникаси (*кади* Самарканда), Абу Мухаммада 'Абд ар-Рахмана ибн Йахйа ибн Йунуса ал-Джикили (*хатиба* Самарканда, ум. в Самарканде в 1122 г.; похоронен у святого места Машхад Кусам), 'Ала' ад-дина Абу-л-Хасана 'Али ибн Мухаммада ибн Исма'ила ал-Исбиджаби (*шайх ал-ислама* Самарканда, ум. в 1141 г.), автора «Шарх Мухтасар ат-Тахави», Баха' ад-дина Абу-л-Ма'али Мухаммада ибн Ахмада ибн Йусуфа ал-Исбиджаби, автора «Зад ал-фукаха' фи шарх Мухтасар ал-Кудури» и др.

3. Ферганская долина (7 человек).

4. Балх (6 человек).

5. Мерв (7 человек).

6. Нишапур (4 чел.).

7. Хорезм (2 человека).[7]

---

[5] Также оно встречается в трех текстах в двух других формах: «гурба» («нахождение на чужбине», Q–037; Q–061) и «игтираб» («нахождение в состоянии чужестранца», Q–181).

[6] Муминов А.К., Додхудоева Л. Н., Бабаджанов Б. М. Религиозная политика в эпоху Караханидов // Актуальные вопросы истории кыргызского народа: прошлое, настоящее и будущее. Сборник статей в честь 70-летия кыргызского историка и востоковеда Мокеева Анварбека Мокеевича. Бишкек, 2019, с. 114–124.

[7] Muminov A.K. Karahanlılar Döneminde Matürîdîlik Tarihi Üzerine Yeni Bir Kaynak: Kayraklar (Türkçeden çev. Betül Ayaz) // Hatice K. Arpaguş, Mehmet Ümit, Bilal Kır (Editörler). İmâm Mâtürîdî ve Te'vîlâtü'l-Kur'ân. 1. Baskı. İstanbul: Marmara Üniversitesi, 2019, S. 131-144 (Marmara Üniversitesi İlâhiyat Fakültesi Vakfı Yayınları, No 439).

Смена властей при Караханидах

Известно, что Самарканд неоднократно попадал под власть различных династий: 1) Сельджукидов (1038–1194), установивших свой протекторат над Караханидами в 1089–1141 гг.; 2) Кара-Китаев (1141–1211); 3) Хорезмшахов; 4) Чагатаидов. Это дает основание полагать, что именно династии проводили разные политики и были инициаторами приглашения улемов в столицу.

Делать более подробный обзор особенностей религиозной политики – дело будущего. Однако нужно заметить, что эпиграфика дает ценный материал для проведения таких исследований. Следует заметить, другие виды источников не располагают таким материалом.

Вкратце можно отметить, что наследие Абу Мансура ал-Матуриди обладало качеством эффективного инструмента, пришедшегося «ко двору» как обычным верующим, так и политической элите. Оно со временем превратилось в символ этнокультурной и религиозной толерантности, высокой духовности, осознанного и всесторонне аргументированного политического конформизма.

Формирование новой парадигмы

Два титула, приложенные к именам некоторых усопших богословов, имеют особое значение для констатации изменения парадигмы, происходящего в религиозной жизни Самарканда. Речь идет о титулах «Знаток [методов] двух мазхабов» или «Обладатель [знаний] двух школ» (надгробия Q–102, Q–142, Q–197, Q–202).

Можно понимать эти титулы покойных как обладателей методов разных школ (здесь Ханафийа и Шафи‘ийа) именно в контексте текущих в средневековом обществе процессов, когда умение богословов апеллировать к достижениям своих естественных конкурентов (*Манша’ ан-назар* – культура ведения поисков по теологическим и философским вопросам) считалось достоинством, но не предметом для осуждений. За ними заметна внутриконфессиональная (или межмазхабная) толерантность.

Это значит, что сформированная на основе взглядов Абу Ханифы школа *фикха* достаточно свободно использовала достижения и методы других направлений, видимо, сознательно оставаясь открытой влияниям, поскольку они серьезно поднимали конкурентные возможности школы и особенно способность ее к эволюции и адаптациям («прививание достоинств ислама и его столпов», «воскреситель сунны», «поборник шари‘ата»).

Данная постановка проблемы открывает новые горизонты для изучения высокой адаптивной способности этой школы. Если посмотреть на упомянутые эпитеты в свете этого предположения, мы должны понимать их в контексте непростых условий, в которых формировалась и эволюционировала школа ал-Матуридийа.

Заключение

Нам представляется, что продолжение раскопок на комплексе Чакардиза и введение в широкий научный оборот ценных и аутентичных источников, каковыми являются эпитафии Самаркандского региона, внесет в научное поле много новых и свежих идей по лучшему пониманию реалий Караханидского времени. Эпиграфика была рассчитана на выполнение своей прямой функции – поддержание коллективной памяти общины, наполняя ее конкретными именами, информируя членов социума о выдающихся предках, становилась средством внушения этических предписаний, поддерживая их религиозную, а шире – культурную идентичность.

* * *

АБУ МУИН НАСАФИЙ – АБУ МАНСУР МОТУРИДИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ ЙИРИК НАМОЯНДАСИ

ABU MU'IN AL-NASAFI – A PROMINENT REPRESENTATIVE OF THE TEACHINGS OF ABU MANSUR AL-MATURIDI

Irgash Daminov
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi prorektori

Қадим Мовароуннаҳр – ҳам диний, ҳам дунёвий илмлар бешиги. Маълумотларга қараганда, ўрта асрларда юртимизда илм-фаннинг 36 тури ривож топиб, улар бўйича тугал, мукаммал кашфиётлар қилинган.

Шундан ҳам кўриниб турибдики, ватанимиз том маънодаги буюк алломалар юртидир. У ерда ҳар қандай илмга ислом нуқтаи назаридан ёндашилгани, улардан фақат фойдалилари билан шуғулланилгани эътиборлидир.

Жумладан, манбаларда ислом фалсафаси номи билан ҳам юритилувчи ҳанафийлик фиқҳига асосланган мотуридийлик ақидавий мазҳабининг инсонпарвар ғоялари Мовароуннаҳр минтақасида кенг миқёсда тарқалди. Юртимиз мусулмонлари эътиқод борасида бу мазҳабни дастуруламал қилдилар. Унга тўла амал қилдилар.

Айтиш керакки, ҳанафийлик фиқҳ, яъни ислом ҳуқуқшунослигининг алоҳида кенг тарқалган йўналиши бўлиб, унинг асосида мотуридийлик ақидавий мазҳаби вужудга келган. Бундан ташқари, суннийлик йўналиши мазҳабларидан яна бири шофиийлик асосида ашъарийлик ақида мазҳаби шаклланган.

Уларнинг ҳар иккиси турли адашган, деструктив, экстремистик руҳдаги оқимларга қарши кураш жараёнида вужудга келган бўлиб, бирламчи мақсади ҳам айни шу вайронкор кучларга ғоявий зарба бериш, халқни, айниқса, ёшларни ҳидоят йўлига бошлашдир.

Мотуридийлик мазҳабига юртимизда – Самарқанд шаҳрида буюк аллома, "бутун дунё мусулмонлари ақидасини тузатгувчи" номи билан маълуму машҳур Абу Мансур Мотуридий томонидан асос солинган.

Бу мазҳаб маълум сабабларга кўра ўз даврида кенг тарқалмади. Шу боис, алломанинг қарашлари унинг вафотидан сўнг мотуридийлик издошлари томонидан ривожлантирилди, ёйилди.

Айтиш жоиз бўлса, мазкур йўналишда ҳал қилувчи роль ўйнаган алломалардан бири, шубҳасиз, мақҳулийлар сулоласининг йирик намояндаси Абу Муин Насафий (1027-1114)дир.

Абу Муин Насафий Насаф (ҳозирги Қарши) шаҳрида дунёга келиб, умрининг асосий қисмини Самарқанд шаҳрида ўтказган. У ҳаётини ақида – калом илми ривожига бағишлади; бу борада қатор асарлар яратди. Ёзма манбаларда унинг 15 та асар ёзгани қайд этилса-да , бизгача фақат учта асаригина етиб келган, деб ҳисобланади, холос.

Илм аҳли орасида аҳли сунна вал жамоа мутакаллими сифатида маълум бу алломанинг бизгача етиб келган асарларидан бири "Баҳрул калом"("Сўзлар денгизи") барча замонларда ҳам аксар кўпчилик олимларда катта қизиқиш уйғотган. Тўлиқ номи "Баҳрул калом фи илмил калом" ("Калом илмида сўзлар денгизи") бўлган бу нодир манба алломанинг бизгача етиб келган асарларидан энг биринчи нашр этилгани ҳам ҳисобланади .

Эътиборга молик жиҳати, мазкур асар 2013 йил ўзбек тилига ҳам таржима қилиниб, айрим изоҳлар билан, кам нусхада бўлса ҳам, “Имом Бухорий халқаро маркази” нашриётида чоп этилди .

Бу асар учун мотуридийлик таълимоти асосчиси Абу Мансур Мотуридийнинг “Ат-Тавҳид”, ашъарийлик ақидавий мазҳаби етакчиси Абу Ҳасан Ашъарийнинг “Ал-Лумаъ” ва “Мақолотул исломиййин”, Имомул Ҳарамайн Абу Маолий Абдул Малик Жувайнийнинг “Ал-Иршод” асарлари манбавий асос вазифасини бажарган .

“Баҳрул калом”да юқорида зикр этилган асарлар сингари илмул усул ҳақида сўз боради. Аммо улар ўртасидаги фарқ режа, боблар, фасллар ҳамда ёзилиш услубида кўзга ташланадики, “Баҳрул калом”да ўрганилаётган масалалар ҳақидаги жиддий, кўпчилик оддий мусулмонларни ҳам қизиқтирган муаммоларга кўпроқ эътибор қаратилган. Муаллиф ўзининг ушбу асарида аввал аҳли суннага рақиб саналган олимларнинг бирор масала хусусидаги фикрларини зикр этади ва кейин уларга нақлий, яъни Қуръони карим оятлари ҳамда ҳадиси шарифларга таянган раддиялар беради. Баъзи ўринларда ақлий далил билан фикрини қувватлайди.

Насафий, шу тариқа, ҳар бир масала бўйича аҳлус сунна вал жамоанинг қарашларини кўрсатади. Аллома ҳатто бу асарнинг бўлимларида берилган сарлавҳалари остидан “Муътазила шундай деган”, “Қадарийлар шундай деган”, “Рофизийлар шундай деган”, “Бизнингча, шундай” каби ибораларни келтириб, шу фирқаларнинг у ёки бу масаладаги қарашларини баён қилади ва лозим топса, улар билан мунозарага киришади.

“Баҳрул калом” мазкур йўналишда яратилган асарлардан бир неча жиҳати билан аҳамиятли.

Аввалambор, “Баҳрул калом” динда мунозара ва муноқашанинг жоизлиги, илм ва унинг чегара доираси, илмнинг ақлдан афзаллиги, кимга ваҳий етказилади, ваҳий учун танланган инсоннинг ақл-идрок соҳиби экани, имон келтирмаган инсон узрга лойиқми ёки йўқ, имон шартларини билмаган инсон мўъмин ҳисобланадими, йўқми, Аллоҳнинг сифатлари ва унинг исмлари, борликдаги мавжудотлар ва уларнинг турлари, Қуръони карим махлуқми, исм ва мусамма, ризқ-рўз, имон камаядими, мушрикларнинг болалари ҳақида қандай ҳукм жоиз, шайтон васвасаси борми, фақирлик афзалми ёки бойлик, бандаларнинг аъмол (хатти-ҳаракат) лари, самъиёт, авлиёларнинг карометлари, имомат, саҳобалар ичида афзаллари борми каби масалалар таҳлил этилган муҳим ақидавий асардир.

Унинг тили содда, равон. Осон тушунилади. Далиллари қатъий ва ишончли. Насафий ўзининг аввал нақлий, кейин ақлий тартибидаги далилларини қатъий кетма-кетликда келтиради.

Иккинчидан, асарда ўрта асрларга хос ботинийлик, ибоҳийлик, санавийлик, жабарийлик, жаҳмийлик, хорижийлик, даҳрийлик, рофизийлик, шиа, қадарийлик, карромийлик, мафруғийлик, мутақашшифийлик, мужассимийлик, мушаббиҳийлик, муътазилийлик, муаттилийлик, нажжорийлик сингари адашган тоифалалар билан бир қаторда аҳли суннадн бўлган ашъарийлик ақидавий мазҳаби ҳақидаги маълумотлар келтирилган бўлиб, уларга ҳам керакли ўринларда зарурий раддиялар берилган.

Бундан асарнинг ислом номи остида фаолият кўрсатиб, бузғунчилик билан шуғулланган фирқалар, уларнинг қарашларидаги ўзига хос жиҳатлар, айниқса, улардан таъсирланиб, ғояларини қабул қилган кейинги давр оқимлари ҳақида муҳим маълумотларни билишдаги қиммати кўзга ташланади.

Асарнинг айрим ўринларида баъзи фирқаларга бир жумла орқали тўлиқ таъриф берилади. Насафий, жумладан, рофизийларнинг “Абу Бакр ва Умар халифалигини инкор этувчи асли шиа йўналишига мансуб” фирқа эканини таъкидлайди ва бу билан узундан-узун таърифдан чекинади. Аммо кўриниб турганидек, мана шу биргина ифода рофизийларнинг асли кимлигини тўла англатиб турибди.

Бундан ташқари, Насафий таърифи шиа йўналишининг рофизийларга мансуб ҳисоблайдиган баъзи қарашларни инкор этиб, аксинча экани аён бўлади ҳамда шу билан мазкур масаладаги чалкашликларга ҳам барҳам берилади.

Шунингдек, Абу Муин Насафий ғоявий яқин бўлган бир нечта фирқани бирлаштириб, уларнинг асл мақсадлари инсонлар томонидан осон тушунилишига эришган: “Хорижийлар катта гуноҳ (гуноҳи кабира) содир қилган одам кофир бўлишини таъкидлайдилар. Шунингдек, улар: “Али боғийларни ўлдиргани учун кофир бўлди”, – дейишади”.

Муржиийлар эса гуноҳ имонга, тоат эса куфрга зарар ҳам, фойда ҳам етказмаслигини таъкидлайдилар.

Жабарийлар фикрига кўра, банда куфру исёнга мажбур қилингандир.

Муътазилийларнинг қарашлари бўйича, инсон ўзи содир этган катта гуноҳ орқали имондан чиқади, аммо куфрга кирмайди , яъни кофир бўлмайди” .

Юқоридагилардан мазкур фирқаларнинг бир – катта гуноҳ ва унинг имонга таъсири масаласи бўйича баҳсу мунозаралар натижасида вужудга келгани маълум бўлади.

Бундан ташқари, асарда Пайғамбаримиз алайҳиссалом томонларидан тириклигидаёқ жаннатий экани башорат қилинган 10 та буюк зотнинг бири бўлмиш – Али ибн Абу Толибни куфрда айблашга ботингани хорижийлар фирқасининг жоҳиллардан эканини англатиши алоҳида таъкидланади.

Учинчидан, асарда 244 ўринда Қуръон оятлари, шунингдек, 84 ўринда ҳадис далил сифатида келтирилган.

Зикри келган оятларнинг барчаси аҳли сунна эътиқоди ҳимоясига хизмат қилган. Насафий далилларидаги ҳадиси шарифларнинг кўпчилиги саҳиҳ бўлиб, уларни “Саҳиҳу Бухорий”, “Саҳиҳу Муслим”, “Сунан Ибн Можа”, “Сунан Абу Довуд”, “Сунани Термизий”, “Сунан Дор Қутний”, “Сунан Насоий” каби дунё илм аҳли тан олган мўътабар манбаларда учратиш мумкин.

Бундан кўриниб турибдики, Абу Муин Насафий ўзи ифодалаётган фикрларга асосан нақлга таянган ҳолда далил келтирган. Акс ҳолда, Насафий манбаларда “ҳақиқат қиличи” номи билан зикр қилинмас эди.

Тўртинчидан, асар библиографик жиҳатдан ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Унда 52 шахс номи зикр этилган бўлиб, улар орасида Умар ибн Аби Толиб, Усмон ибн Аффон, Али ибн Абу Толиб, Оиша бинт Аби Бакр Сиддиқ, Абу Ҳанифа ибн Нуъмон, Анас ибн Молик, Абу Мансур Мотуридийдек ислом дини равнақига буюк ҳисса қўшган сиймолар, шунингдек, тарихда муносиб из қолдирган Ҳорун Рашид каби халифалар билан бир қаторда динимизнинг асл манбаига ўзининг вайронкор ғоялари билан путур етказган Жаҳм ибн Сафвон, Восил ибн Ато Ғаззол сингари шахслар бор.

Муаллиф ўз асарида бу инсонлар ҳақида қимматли маълумотларни келтириб ўтган. Жумладан, Абу Мансур Мотуридийни ҳидоят байроғи (аламул ҳудо) деб атар экан, буюк мутакаллимнинг “Имон фақат тасдиқнинг ўзидан иборат” экани ҳақидаги фикрларини келтириб, унинг далили сифатида Яъқуб (ас)нинг ўғиллари хабари ҳақидаги “Рост гапирсак ҳам, (барибир) Сиз бизга ишонувчи эмассиз” оятини келтиради.

Асарда муътазилиянинг пайдо бўлишига тегишли қизиқ маълумотларни ҳам учратиш мумкин: “Биринчи бўлиб, муътазила мазҳабини ташкил қилган киши Восил ибн Атодир. Унинг издоши Амр ибн Абиддир. Булар Ҳасан Басрийнинг шогирдларидир. Ҳорун Рашид ҳукмронлиги даврида Абу Хузайл Аллоф номли муътазилий чиқиб, уларга бир қанча китоблар ёзиб берди. Шу билан, муътазилий қарашларини баён этувчи анча илм тўплади. Бу “беш усул” деб номланади. Бирорта инсонни кўриб қолишса, дарров сўрашарди: “Усули хамса” – “Беш усул”ни ўқиганмисан? “Ҳа”, – деса, демак, ўзларининг мазҳабидан эканини билишар эди”.

Беш усул: адолат, тавҳид, ваъд ва ваид, оралиқ (байн-байн), ал-амру бил маъруф ван наҳйи анил мункар масаласидир” .

Бешинчидан, асар этимологик жиҳатдан ҳам муҳимдир. Насафий Арш масаласида фикр юритиб, шундай ёзади: “Карромийлик фирқаси: “Аллоҳ Аршга ўрнашганда Арш тўлди”, – дейишади. Бунга “(У) Арш узра “муставий” бўлмиш Раҳмондир” оятини далил келтиради.

Аммо аҳли тафсир “иставо”ни “ғола”, яъни “ғолиб бўлди” маъносида шарҳлайди. Форсча “бар Арш Подшоҳаст” – “Арш узра шоҳдир” дейилган... Молик ибн Анасдан ривоят қилинади, у киши айтади: “Баробар бўлиш мажҳул, яъни номаълум, қандай содир бўлиши ақлга сиғмайди. Шу сабаб унга ишониш вожиб, у ҳақида сўраш эса бидъатдир”. У зот иставо ҳақида сўраган кишига қараб: “Сени адашган деб ўйлаяпман”, – дедилар ҳамда уни ўлдиришга буюрдилар. У кофир Жаъд ибн Дирҳамнинг шогирди Жаҳм ибн Сафвон бўлиб чиқди.”

Калом илмига оид истилоҳларнинг изоҳ ва маънолари билан шарҳланиши бугунги кун учун ҳам ўта аҳамиятли ҳисобланиб, масалага бу тарздаги ёндашув тадқиқотчиларга муайян енгиллик яратади.

Хуллас, Абу Муин Насафийнинг асарлари, хусусан, “Баҳрул калом фи илмил калом” мазмун-моҳияти, аҳамияти ва долзарблиги жиҳатидан ҳозирда ҳам ўз муҳимлигини йўқотган эмас. Шу сабаб, тадқиқотчи олимлар ўз изланишлари, олиб бораётган тарғибот-ташвиқот ишларида бу каби нодир манбалардан унумли фойдаланишлари мақсадга мувофиқдир.

Абу Муин Насафий асарларининг аксариятини Имом Мотуридий илмий меросига таянган ҳолда ёзди. Алломанинг “Табсиратул адилла фи усулид дин ало тариқати Аби Мансур ал-Мотуридий” (“Дин усул (асос)ларини Абу Мансур Мотуридий таълимоти (тариқати)га асосан далиллар билан шарҳлаш”) деб аталувчи йирик асари (бундан кейин “Табсиратул адилла”) имомул ҳудо Абу Мансур Мотуридийнинг таълимотига кўра дин усуллари ҳақида баҳс юритувчи йирик ва муҳим манбадир.

Унинг Имом Мотуридий асарларига қараганда бирмунча тушунарли ва содда баёнга эга экани эътиборга молик . Асар турли каломий масалаларга тааллуқли бўлгани ҳамда аҳлус сунна вал жамоанинг алломаларидан Имом Мотуридий тариқатига биноан ёзилгани учун юксак аҳамиятга эга.

Ашъарийлик деярли бутун ислом оламига тарқалиб, етакчи мазҳабга айланган ҳолда Абу Жаъфар Таҳовий асарлари ва мотуридийликнинг аҳамиятини анча пасайтирган бир вақтда Абу Муин Насафий бу асари билан мотуридийлик ғояларини мукаммал баён этди.

Насафий ўз асари ҳақида шундай дейди: “(Асардан мақсад) аниқ далилларга таяниб, иш юритиш, турли масалалардан тўғри хулосалар чиқариш, ибораларда ўртача йўлни тутиш, умумманфаат йўлини тутиш ва китобнинг иборалари қандай маъноларни ўзида жамлагани билан ўқишни хоҳлаган кишиларни таништиришдир” .

Ҳожи Халифа “Кашфуз зунун” (“Эҳтимолларнинг кашф этилиши”)ида ушбу асарнинг аҳамияти тўғрисида тўхталиб, шундай дейди: “Ҳақиқатдан ҳам, кимки “Табсиратул адилла”ни диққат билан ўрганса, тушунадики, Нажмиддин Умар Насафийнинг “Ал-Ақоид” асарининг матни бу китобга нисбатан бир фиҳрист мисолидир” .

Шунингдек, Ҳожи Халифа бу асар номини бир қадар ўзгартириб, “Табсиратул адилла фи калом” (“Калом илмида далиллар шарҳи”) тарзида келтиради .

Нажмиддин Умар Насафий (1068-1142) бир муддат Абу Муин Насафийдан кейин яшаган. Шу боис, юқоридаги фикр муайян асосга эга. Умар Насафий “Ал-Қанд фи зикри уламои Самарқанд” (“Самарқанд олимлари зикрида қанддек (ширин) китоб”) номли бошқа бир асарида Абу Муин Насафий ҳақида (бу ҳақда “Табақотул ҳанафия” асарининг муаллифи ҳам қайд этади): “Шарқ ва Ғарбнинг олимлари унинг (илм) денгизидан баҳраманд бўлиб, унинг нуридан зиё топадилар”, – деб ёзган. Бу фикрлар Умар Насафийнинг устози Абу Муинга нисбатан юксак эҳтиромидан далолат беради.

Абу Муин Насафий “Табсира”да илм ва маърифат масаласига тўхталиб, уларнинг таърифини келтиради. Аҳлул ҳақ қарашларига кўра илм ва маърифатга етишиш йўлларини баён қилади. Шундан кейин, тақлид қилувчининг имони (имони муқаллид) ҳақидаги суҳбатга ўтади. Сўнг оламнинг пайдо бўлиши исботи орқали вужудуллоҳнинг исботи, Аллоҳнинг ягоналиги масаласига тўхталади ва мажусийлар, мужассима, мушаббиҳанинг гапларини рад қилади.

Шу тариқа, адолат ва ноҳақлик, пайғамбарлик, бандаларнинг амаллари, қодирлик, туғилиш ва ўлим, ризқ-рўз, ирода, қазо ва қадар, ҳидоят ва залолат масалалари ҳақида тўхталади. Муътазилийларнинг нотўғри сўзларини тузатиш ва шунингдек, қадария ҳақидаги фикрдан кейин самъият, қабр азоби, ваъдага вафо ва ваъдага хилоф, шафоат, имон ва имомат хусусидаги қарашларини баён этади.

Ушбу асарнинг қўлёзма нусхалари дунёнинг бир қанча мамлакатлари, шунингдек, мамлакатимиз кутубхона фондларида сақланмоқда.

Жумладан, бу нодир асарнинг юртимиздаги ЎзФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида ҳам қўлёзма нусхаси мавжуд.

Уларнинг энг қадимийси 266 варақдан иборат бўлиб, 3268 рақами билан белгиланган. Саҳифанинг ҳажми 15,5х22,5 сантиметр, матннинг ҳажми эса 11х18 сантиметрга тенг. Ҳар бир саҳифадаги матнлар 27 қатордан иборат.

Қўлёзманиг қоғози оч сариқ рангда бўлиб, насх хатида ёзилган. Бу қўлёзманинг қачон ва ким томонидан кўчирилгани номаълум. Аммо варақларининг тури ва сифати асарнинг қадимий нусхалигидан шаҳодат беради.

Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондидаги иккинчи қўлёзма 5887 рақами билан сақланади. Қўлёзма умумий 289 варақдан иборат бўлиб, ҳар бир саҳифа ҳажми 18х29,5, матнлар ҳажми эса 10х20 сантиметрга тенг. Бир варақда 29 қатор матн жойлаштирилган.

1734 йили хаттот Али ибн Шариф Титлавий томонидан Мисрда насх хатида кўчирилган .

Асарнинг ушбу қўлёзма нусхаси энг мукаммал ва фойдаланишга қулайидир.

Асарнинг нашр ва қўлёзмалар фаслларининг матнида ихтилоф ва ноқис жиҳатлари кўзга ташланмагани боис, айтиш мумкинки, юртимизда сақланаётган №3268 ва №5857 рақамли манбалар асарнинг тўлиқ ва мукаммал нусхаларидир.

Ўзбекистон мусулмонлари идорасига қарашли қўлёзмалар фондида №2360 рақам остидаги қўлёзмалар мажмуасида асарнинг яна бир қўлёзма нусхаси сақланади.

Ушбу мажмуада юқорида зикр этилган асарлар каби тўлиқ ҳолда берилмай, балки қисқартирилган шаклда ёзилган. Қўлёзманинг охирги саҳифасида ўтган асрнинг ўрталарида Ўзбекистон мусулмонлари идораси кутубхонасининг ходими Устоз Алоуддин Махдум домланинг ўғли Нодирхон Маҳдумнинг имзоси қўйилган ва 1951 йил 3 апрель санаси кўрсатилган.

Бундан, шарқшунос олим С.Оқилов юқоридагиларга таянган ҳолда, ушбу мажмуадаги асарлар аввал кутубхонада алоҳида-алоҳида ва тўлиқ бўлмаган ҳолда сақланган, Устоз Нодирхон Маҳдум ушбу қўлёзма нусхаларини калом илмига оидларини жамлаб, мажмуа ҳолига келтирган ва “Табсира” деб номлаган, деган хулосага келади.

Китобнинг муқоваси ҳам ушбу китоб ўтган асрнинг ўрталарида қайта таъмирланганидан далолат беради. Саҳифасининг ҳажми 17.5х 11.5 см, асарнинг матни 12.5 х 7 см бўлиб, ҳар бир варақ 21 қатордан иборат.

Ушбу қўлёзма “Табсира”нинг нашри билан солиштирилганда, қўлёзмада асарнинг мавзуларидан айримлари танлаб жамлангани маълум бўлди. Қўлёзмада ҳар бир мавзунинг фаслларидан айримлари берилган, холос.

Шунинг учун ушбу қўлёзмани “Табсира”нинг қисқаритилган шарҳи, деб ҳисоблаш мумкин.

Юқоридаги фикрлардан аён бўлаётирки, Абу Муин Насафий илмий мероси нафақат ўз даври, балки бугунги кун учун ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ундан замонавий экстремистик оқимларга қарши самарали кураш олиб боришда унумли фойдаланиш мумкин.

* * *

ÖZBEK HANLARININ OSMANLI PADİŞAHLARINA HEDİYE ETTİKLERİ MUSHAFLAR

MUSHAFS PRESENTED BY UZBEK KHANS TO OTTOMAN SULTANS

Orhan M. Çolak[8]*
IRCICA Chief of Archive and Technological Services Section,

Osmanlı Devleti ile Özbek Hanlıkları arasında ilk ilişkiler XVI. yüzyılın başlarında Buhara Hanlığı (1500-1868) ile başlamıştır. Her iki devletin de Şii Safevilerle mücadele halinde olması, bu ilişkilerin olumlu yönde bir ittifak esası dahilinde ilerlemesini sağlamıştır. Zamanla bu ittifak Çarlık Rusya'ya karşı da devam etmiştir.

Osmanlı Devleti, Buhara Hanlığı dışında Hive Hanlığı (1512-1873) ve Hokand Hanlığı (1710-1865) ile de zamanla iyi ilişkiler kurmuştur.

Özbek hanlıklarıyla ilişkiler sadece siyasi olmayıp ilmî, ticarî ve hac ile ilgili faaliyetleri de kapsamıştır. Bu sebeple Özbek hanlıklarından İstanbul'a pek çok elçilik heyeti gelmiş ve İstanbul'da saygıyla karşılanmış ve çok iyi ağırlanmışlardır[9].

İlk ilişkiler Sultan II. Bayezid döneminde başlamışsa da Yavuz Sultan Selim'in 1514'te Buhara Hanı Ubeydullah Han'a yazdığı mektup resmi temasın başlangıcı sayılır. Yavuz, Çaldıran Savaşı'ndan sonra Köçküncü Han'a (saltanatı: 1510-1530) Muhammed Bey aracılığıyla 1516 tarihli bir mektup göndermiş ve Köçküncü Han buna cevap yazmıştır[10]. Bu şekilde başlayan ve karşılıklı name, mektup ve hediyelerin takdim edildiği elçilik heyetleri uzun yıllar devam etmiştir.

Tebliğimizde; Özbek Hanlıklarından gelen elçilik heyetlerinin hediye olarak takdim ettikleri kitapları özellikle Mushafları, Osmanlı Arşivi'nde tespit edebildiğimiz bir grup belge üzerinden anlatmaya çalışacağız.

A. BUHARA HANLIĞI

1. III. Murat Zamanı:

Sultan III. Murad, oğlu Şehzade Mehmed'in sünnet töreni için 1582'de yapılan şenliklere dünyanın bütün hükümdarlarını davet etmişti. Bu hükümdarlardan Özbek Hanı Abdullah Han (saltanatı: 1583-1598) da bir elçi ile, altın yaldızlı hatt-ı Yâkut ile yazılmış, ciltli ve kılıflı iki *Kur'ân-ı Kerim*, ciltlenmiş halde süslü ve resimli Fuzûlî'nin (ö. 963/1556) *Şâh u Gedâ* mesnevîsini, 63 kutu içinde misk-i Tatar, yedi deste miktarı has samur ile dokuz altın levhadan ibaret hediyeler göndermişti[11].

---

[8] İslam Sanat Tarih ve Kültür Araştırma Merkezi (IRCICA), orhancolak@ircica.org

[9] Mustafa Can, "Osmanlı Devleti'nde Özbek (Buhara) Elçilerinin Ağırlanışı ve Huzura Kabulleri", Yitik Hafızanın Peşinde, Mehmet Dursun Erdem, Necip Fazıl Kurt, Özcan Güngör (edit.), Ankara 2019, s. 241; Mehmet Akif Erdoğru, "Osmanlılar Döneminde Türkistan Hanlıklarından İstanbul'a Gönderilen Özbek Elçileri", Uluslararası Kültürel Miras ve Turizm Kongresi-International Congress on Cultural Heritage and Tourism, ICCHT 2018, Necmi Uyanık v.d. (edit), Konya 2018, s. 397-398.

[10] Halil Ülker, "Osmanlı-Özbekistan Siyasi İlişkileri (1514-1873)", *MANAS Sosyal Araştırmalar Dergisi*, VIII/4 (2019)s. 3983.

[11] Ayhan Pala, "Bir Osmanlı Saray Düğününe Türkistan ve İran'dan Gönderilen Hediyeler", *Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi-Journal of Turkish World Studies*, 21/2 (2021), s. 299.

2. III. Ahmed Zamanı:

Buhara Hanı Ubeydullah Han (saltanatı: 1702-1711) 1709'da, Sultan III. Ahmed'e gönderdiği elçisi vasıtasıyla takdim ettiği hediyeler arasında "Orta büyüklükte Özbek hattı ile yazılmış bir cilt *Kur'an-ı Kerim* vardı. Bunun dışında hediyelerin çoğunu çeşitli kumaş ve giyim eşyaları oluşturuyordu[12].

Ubeydullah Han'ın halefi Seyyid Ebulfeyz Han (saltanatı: 1712-1747), 1712'de elçisi vasıtası ile bir cilt Mushaf-ı şerif göndermişti. Bunun dışındaki hediyelerin çoğu yine bogası, kutni, alaca gibi kumaşlar, Semerkant kâğıdı ve bıçaktı[13].

Ebulfeyz Han 1713'te elçi olarak Abdüssemi Yasavul Han'ı İstanbul'a göndermişti[14]. Bu elçi de bir adet Mushaf-ı şerif getirmişse de Padişah bu mushafı, Musahib Abdurrahman Ağa vasıtasıyla Harem'de bir cariyeye ihsan etmiştir (Şaban 1125/Eylül 1713)[15].

Ebulfeyz Han, 1721'de iki elçi göndermiştir. Bunlardan Seyyid Mir İvaz, Acem hattıyla bir cilt Mushaf ve nesih hatla yazılmış bir cilt *Kadı Beyzavi Tefsiri* takdim etmiş, İvaz Mehmed Bey ise yakutlu bir hançer, 18 adet Özbek bıçağı, bogası, alaca gibi kumaşlar ile Semerkant kâğıdı getirmişti[16].

3. III. Selim Zamanı:

Buhara Hanlığı'nın Mangıtlardan ilk hanı olan Muhammed Masum Han (saltanatı: 1785-1800), 1789'da III. Selim'e Muhammed Bedi'yi elçi olarak göndermiş ve bir de Mushaf yollamıştır. Sefaret heyetinin Rusya üzerinden geliş yolu emniyetli olmadığından Mushafın bir tarafına Padişaha gönderilen name, bir tarafına da sadrazama gönderilen mektup konup, üzerlerine kâğıt ve deri yapıştırılmış, Mushaf bu şekilde III. Selim'e takdim edilmiştir[17].

Muhammed Masum Han'dan sonra Buhara Hanı olan Haydar Han (saltanatı: 1800-1826), cülusunu bildirmek üzere Divan Beyi İş Muhammed ve Muhammed Yusuf adlı iki elçiyi name ve hediyelerle III. Selim'e göndermiştir. Elçiler İstanbul'da 7 Rebiülevvel 1219/16 Haziran 1804'te Divan'da III. Selim tarafından kabul edilmiş, name ve hediyelerini takdim etmiş, kendilerine hilat giydirilmiş ve samur kürk hediye edilmiştir[18].

Özbek Hanlarından gelen Mushafların dolaşımı hakkında da bazı bilgilerimiz mevcuttur. Mesela 1799'da Özbek hattıyla orta büyüklükte bir cilt Mushaf Harem'den, Zeyrek Kilise Camii'ne, yine Özbek hattıyla orta büyüklükte bir cilt Mushaf, Gül Camii'ne vakfedilmiştir. Özbek hatlı başka bir Mushaf ise Darüssaade Ağası Bilal Ağa'ya ihsan edilmiştir[19]. Bilal Ağa'nın vefatından sonra devlet tarafından el konulan mallarının satışı esnasında bu Mushaf da 10 Ramazan 1206/2 Mayıs 1792'de Ahmed Ağa adlı biri tarafından 5050 akçeye satın alınmıştır[20].

4. II. Mahmud Zamanı:

Buhara Hanı Haydar Han (saltanatı: 1800-1826), kendisine menşur gönderilmesi ve bazı dini kitaplar talebini iletmek üzere 1816'da Mirza Muhammed Yusuf adlı bir elçi göndermiştir. Elçi, 2 Zilkade 1231/24 Eylül 1816'da Divan-ı Hümayun'da name ve mektuplarıyla iki cilt *Mecmûa-i Vezâifü'l-Mukarrebîn* ve bir şişe ıtriyat, büyük bir zümrüt ve özellikle Hint kumaşlarından oluşan çok sayıda hediyelerini takdim etmiştir[21]. Elçinin İstanbul'dayken vefat etmesi üzerine varislerine

12 *Belgelerle Türkiye Özbekistan İlişkileri*, Numan Yekeler, Mesut Demir (yay. haz.), İstanbul 2022, s. 110-112.
13 BOA, TS.MA.e. 802-5.
14 Can, a.g.m., s. 225.
15 BOA, TS.MA.e. 2353-34.
16 BOA, TS.MA.d. 2365-2.
17 BOA, HAT 256-14620.
18 Mütercim Ahmed Âsım Efendi, *Âsım Efendi Tarihi*, Ziya Yılmazer (yay. haz.), İstanbul 2015, c. 1, s. 103-104.
19 BOA, TS.MA.d. 10524.
20 BOA, TS.MA.d. 2305
21 BOA, TS.MA.d. 2462.

ulaştırılmak üzere malı satılmış ve nakit parası ile Haydar Han'ın istediği kitaplar Bağdat Valisi Davud Paşa aracılığıyla Buhara'ya ulaştırılmıştır. Bu kitaplar şunlardır[22]:

Sıra No	Kitap Adı	Cilt Adedi
1.	Tefsîr-i İbni Abbas	1
2.	Tatarhâniyye	1
3.	Sa'di Çelebi	1
4.	Tuhfetü'l-fukahâ	1
5.	Şerhü'l-kebîr li'i-İsfahanî	1
6.	Fetâvâ-i Velvâliciyye li-İshak bin Ebubekir el-Velvalici	1
7.	Mecmû'u'n-nevâzil	1
8.	Şerh-i Câmi'ü's-sagîr	1
9.	Edebü'l-Kadı	1
10.	Mahzenü'l-esrâr	1
11.	Şerh-i Cevhere	1
12.	Şerh-i Siyerü'l-kebîr	1
13.	Eş-Şerhân alâ Edebi'l-Kâdı	1
14.	Nevâdir	1
15.	Câmi'ü'l-kebîr	1
16.	Şeyhzâde	1
17.	Tabakatü's-sünniye	1
18.	Muhatarâtü'n-nevâzil	1
19.	Câmi'ü's-sagîr	1
20.	Bahrü'l-muhît	1
21.	Mebsût	2
22.	Nihâye fi şerhi'l-Hidâye	4
23.	Buharî-i şerîf şerhi Aynî	6
24.	Müsned	1
	Toplam	32

Haydar Han, bu sefer 1235/1819'da Hacı Muhammed Şerif Bey'i elçi olarak II. Mahmud'a göndermiştir. Elçi, hediye olarak bir adet Mushaf, bir çini kâse ve 9 adet çini lengeri takdim etmiştir. Ayrıca Haydar Han, Buhara'da olmayan bazı dini kitapların ve biatının kabul edilerek kendisine menşur gönderilmesini istemiştir[23]. Özbek Hanlarının Osmanlı Devleti'nin ve doğal olarak halifenin desteğini ısrarla istemelerinin en büyük nedeni, kendi aralarındaki mücadelelerde üstünlük sağlama çabalarıydı[24].

[22] BOA, A.DVNMSNMH.d. 10-132.; HAT. 761-35972; HAT. 781-36558; *Belgelerle Osmanlı-Türkistan İlişkileri (XVI-XX. Yüzyıllar)*, Cevat Ekici, Kemal Gurulkan (edit.), Ankara 2005, s. 14-20.
[23] BOA, HAT. 781-36552.
[24] Ülker, a.g.m, s. 3995.

Haydar Han'ın istediği kitapların, yeni vefat eden Mora Valisi Ahmed Şakir Paşa'nın muhallefatındaki henüz satılmayan kitaplarından[25] temin edilmesi, kalanların ise Yasincizade Abdülvehhab Efendi vasıtasıyla sahhaflardan satın alınması istenmiştir[26].

Haydar Han'a iletilmek üzere toplam 35 cilt kitap elçi Hacı Muhammed Şerif Bey'e teslim edilmiştir[27]:

Sıra No	Kitap Adı	Cilt Adedi
1.	Tefsîrü'l-kebir li'l-İmami'l-Fahr er-Razı	7
2.	Câmi'ü's-sagîr fi'l-fürûi'l-Hanefiyye	1
3.	Şeyhzâde şerh-i Ferâiz	1
4.	Mecma'ü'l-fetâvâ	1
5.	Kitâbü'l-fetâvâ el-müsemmâ bi'z-Zahîreti'l-burhâniyye	1
6.	Fetâvâ-i Velvâliciyye li-İshak bin Ebubekir el-Velvalici	1
7.	Kitâbü'l-bedâyi fi şerhi Tuhfeti'l-İmâm el-Kaşanî	3
8.	Kitâbü'l-Musaffâ li'l-Ahmed en-Nesefî	1
9.	Câmi'ü's-sagîr Itabî	1
10.	Mustafsa	1
11.	Fetâvâ-i Hayriyye	1
12.	Kubbetü'l-müniyye li-tetmîmi'l-fenniye	1
13.	Şerh-i Tarikat-i Receb Efendi	1
14.	Kitâbü'n-nevâzili'l-fürû li-Ebulleys es-Semerkandî	1
15.	Hâşiye-i Şihab Efendi alâ Tefsîri'l-Kadı Beyzâvi	3
16.	Kitâb-ı şerhi'l-Hidâye	1
17.	Nisâbü'l-ihtisâb	1
18.	Şerh-i Miftâh	1
19.	Muhît-i Razıyeddin es-Sarahsî	6
20.	Kitâbü't-tecînin ve'l-mezîd fi'l-fetâvâ	1
	Toplam	35

Haydar Han'dan sonra Buhara Hanı olan Nasrullah Han, 1827'de elçi olarak Mirza Muhammed Fazıl'ı göndermiştir. Muhammed Fazıl, bir nameyle birlikte bir cilt Mushaf-ı şerif getirmiş ve 27 Cumadelahire 1242/26 Ocak 1827 tarihinde toplanacak Divan-ı Hümayun'da bunları arz etmiştir.

B. HOKAND HANLIĞI

Hokand veya Fergana Hanlığı, 1710'da Şahruh tarafından kurulmuştur. Osmanlılar başta bu bölgedeki en büyük devlet olan Buhara Hanlığı'yla iyi ilişkiler içinde olduğundan Hokand Hanlığı'na karşı soğuk durmuş, daha sonra ilişkiler düzelmiştir.

Hokand Hanı Muhammed Ömer Han (saltanatı: 1809-1822), Buhara Hanı Haydar Han'ın padişaha elçiler göndererek biat ettiğini bildirmesi üzerine, 1820'de el-Hac Seyyid Kurban Efendi adında bir elçi göndermiş ve kendisinin de biat ettiğini bildirmiştir[28]. Ayrıca hediye olarak bir de Mushaf göndermiştir.

Бухоро бўйсундирилгач, Қутайба ибн Муслим ўз юришини давом эттирди. 712 йилда у Самарқандни, 713 йилда эса Фарғонани забт этди. Унинг юришлари минтақада араб ҳокимиятининг тўлиқ ўрнатилишига йўл очди, гарчи кейинчалик ҳам исёнлар ва қаршиликлар узоқ вақт давом этган бўлса-да.

Демак, Пойканд ўз кучига ишонган ва Бухоро ҳукмдорларига бўйсунмаган. Бу минтақанинг сиёсий жиҳатдан тарқоқ тузилиши ҳақида маълумот беради. Пойканд исёнидан сўнг, Қутайба музокаралар ўрнига қамал, ҳужум ва оммавий қатллар билан жавоб берди, бу эса бошқа шаҳарлар учун дарс бўлди. Пойканддан тортиб олинган катта миқдордаги бойликлар арабларни минтақанинг бой савдо шаҳарлари жалб қилганини тасдиқлайди.

Суғдликлар, турклар ва Фарғона аҳолиси ўз савдо йўлларини ҳимоя қилиш учун бирлашишди, аммо уларнинг кучи етарли бўлмади, ва Бухорога ёрдам бериш учун келган кучлар доим ҳам самарали бўлмади.

Бухорода Қутайба амалда ҳокимиятни бошқариб келган Ҳотуннинг ўрнига вояга етмаган ўғли Тухшодани ҳукмдор қилиб қўйди ва Бухорони кейинги босқинлар учун муҳим таянчга айлантирди.

* * *

ЭПОХА ХОРЕЗМШАХОВ: РАСЦВЕТ НАУКИ И КУЛЬТУРЫ

THE ERA OF KHWARAZMSHAHS: THE FLOURISHING OF SCIENCE AND CULTURE

Матибаева Разия Балтабаевна,
Международная исламоведческая академия Узбекистана,
и.о.проф. Кафедры «Арабский язык и литература ал-Азхар»,
доктор исторических наук

Рысбекова Лаззат Касымбековна,
Международный казахско-турецкий университет имени Х.А.Яссави,
Старший преподаватель кафедры «Русский язык и литература»

XI–XII века в истории Хорезма, ознаменованные правлением династии Хорезмшахов, стали периодом исключительного подъёма. В сравнении с другими тюркско-исламскими государствами Средневековья, Хорезм занимал уникальное положение, а начало XIII века стало временем его наивысшего расцвета. Несмотря на свою удалённость от центра мусульманского мира, это государство отличалось динамичным развитием, особенностями в структуре армии и внутренней организации.

Первая половина XI века стала золотым веком науки в Хорезме. Культурно-просветительская деятельность активно развивалась, а при дворе правителя собрались выдающиеся учёные и мыслители. Среди них были такие великие умы, как Абу Сахл аль-Масихи (ум. 977–1011), Ибн Мискавейх (ум. 1030), Абу Райхан аль-Бируни (973–1048), Абу Наср ибн Ирак Джади (ум. 1036) и Абу-ль-Хайр Хаммар (941–1048). Примерно в 1005 году к ним присоединился и великий Абу Али ибн Сина (980–1037), прибывший из Бухары.

Именно этот научный подъём стал основой для создания в Хорезме научного и просветительского центра, известного как «Академия Маъмуна», тесно связанного с династией Маъмунидов (992–1017). Эта академия не была случайным явлением, а стала отражением социального, экономического и культурного подъёма, а также политической стабильности Хорезма. Хотя по современным меркам это сообщество учёных не было академией в прямом смысле слова, оно по праву считалось крупнейшим научным центром своей эпохи. По свидетельствам Ибн Сины, науку в Хорезме активно поддерживал визирь Абу-ль-Хусайн ас-Сахли, который покровительствовал учёным[112].

В конце X и начале XI века политическая стабильность, экономический и социальный подъём страны, а также щедрость и уважение Хорезмшахов из династии Мамунидов к учёным привели к тому, что самые известные и выдающиеся учёные того времени собрались в Гурганче[113].

Правители Хорезма, в частности Абу Али Мамун (пришедший к власти в 992 году), его сын Абу-ль-Хасан Али ибн Мамун (999–1009) и Абу-ль-Аббас Мамун ибн Мамун (1009–1017), создали в своих дворцах благоприятные условия для научных изысканий. Тот факт, что визирь двора Абу-ль-Хусейн Ахмад ибн Мухаммад ас-Сахли был образованным человеком, ценившим литературу, поэзию и науку, способствовал ещё большему расширению научного сообщества. Именно в этот период при дворе Хорезмшахов было создано научное учреждение — «Академия Мамуна».

Академия в Хорезме продолжала свою деятельность до тех пор, пока её территория не была захвачена Газневидами[114]. В своём произведении «Памятники минувших поколений» Абу Райхан аль-Бируни упоминает переписку с Ибн Синой, которая, вероятно, и стала одной из причин, по которой Ибн Сина посетил Хорезм[115]. Оба великих учёных продолжили свою работу именно в стенах этой академии.

Учёные вносили вклад не только в науку, но и в решение политических проблем. Например, усилия Аль-Бируни по смягчению напряжённости, возникшей между Мамуном ибн Мамуном и Султаном Махмудом Газневи (998–1030) в период с 1014 по 1017 год, принесли положительные результаты.

Академия Мамуна функционировала до 1017 года, когда Султан Махмуд установил свою власть над Хорезмом. По его требованию некоторые учёные переехали в Газну, а другие рассеялись по разным странам[116].

Хотя Академия Мамуна просуществовала недолго, в ней развивались как естественные науки (астрономия, математика, медицина, химия, география, минералогия), так и гуманитарные (история, философия, литература, языкознание, право)[117].

Абу Али ибн Сина к 24 годам стал знатоком всех наук, успешно участвовал в диспутах и преподавал в Хорезме в течение семи лет. Среди учёных-медиков при дворе хорезмшахов можно назвать Абу Сахля аль-Масихи, Абу аль-Хайра Хаммара, Ибн Сину и аль-Бируни[118].

---

[112] Ирисов А. Жизнь и творческое наследие Абу Али ибн Сины. – Т.: «Фан», 1980. – С. 57-58.
[113] «Хорезмская академия Мамуна / Ответственный редактор Б.А. Абдухалимов. – Т.: ФАН, 2005. – 425 с.
[114] Босворт К.Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. П.А.Грязневича. – М.: Наука, 1971. – 324 с.
[115] Абу Райхан аль-Бируни. Памятники минувших поколений. Избранные произведения. – Т. I. / Перевод с арабского А. Расулова. Ответственный редактор И. Абдуллаев. – Т.: «Фан», 1968. – 488 с.
[116] Бартольд. В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия: Сочинения. Т. I. – М.: Издательство восточной литературы. 1963. – 760 с.
[117] Гибб. Х.А.Р. Арабская литература (классический пнриод). – М.: Издательство восточной литературы, 1960. – 187 с.
[118] Ирисов А. Жизнь и творческое наследие Абу Али ибн Сины. – Т.: «Фан», 1980. – С. 57-58.

Абу аль-Хайр Хаммар, автор «теоремы Хаммара» в математике, был удостоен звания «Второй Гиппократ» в медицине. Он занимался теоретическими аспектами медицины, описывая анатомию, диеты для пожилых, методы диагностики и вопросы, связанные с питательными веществами и эпилепсией. В отличие от него, Абу Сахль аль-Масихи специализировался на практической медицине и медицинском образовании[119].

Тот факт, что в Академии Мамуна работали учёные-христиане, такие как Абу Сахл аль-Масихи, свидетельствует о царившем в стране духе религиозной терпимости.

В области астрономии были внесены поправки в более ранние таблицы, создавались астрономические инструменты и рассчитывались координаты звёзд. В июне 1004 года Аль-Бируни наблюдал лунное затмение. Работы по математике связаны с именами Абу Мансура ибн Ирака, Аль-Бируни и Абу-ль-Хайра Хаммара. Учитель Аль-Бируни, Ибн Ирак, написал около 30 трудов по математике и астрономии. Из примерно 150 работ самого Аль-Бируни значительную часть составляют труды по этим дисциплинам.

Наряду с точными науками в Хорезме развивались и социальные, такие как философия и история. Учёные уделяли особое внимание художественному творчеству и литературоведению. Многие известные литераторы того времени, включая Аҳмада ибн Муҳаммада ибн Саҳрий, Абдуллоҳ ибн Ҳамида, Абу Саида ибн Шабиба, создавали поэтические сборники и касыды. Министр ас-Саҳлий, сам любитель поэзии, поддерживал литературные вечера при дворе. В этот период лингвисты систематизировали грамматику арабского языка и создавали словари.

Хорезмшахи, в частности Абу-л-Музаффар Отсыз, сыграли большую роль в распространении ислама и ханафитского мазхаба среди соседних тюркских народов. Расположенный на Великом шёлковом пути, Хорезм, один из крупнейших очагов цивилизации, был важным научно-просветительским и культурным центром с древних времён. Именно благодаря этому такие учёные, как Абу-л-Муайяд аль-Хорезми, смогли всесторонне расширить свои знания и создать труды, способствовавшие решению важнейших религиозных и социальных проблем. Хорезм был одним из ключевых центров распространения и развития ислама в Мавераннахре, чему способствовала прочная научная основа, имевшаяся в этом регионе.

* * *

KHARAJ COLLECTION SYSTEM IN THE BUKHARA EMIRATE BEFORE THE INVASION OF THE RUSSIAN EMPIRE

ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINIDAN OLDINGI BUXORO AMIRLIGIDAGI XAROJ YIG‘IMI TIZIMI

GANIYEV Avazbek,
International Islamic Studies
Academy of Uzbekistan, Islamic History and Source Studies
Associate Professor of the IRCICA Department
Email: avazganiyev@gmail.com

Zerafshan valley lands were divided into *amlaki, Waqf, mulki-kharaj, mulk-ushri* and *mulk-hurra-khalis* land tenure types. The afore-mentioned lands are discussed, in more details below in this paragraph. *Amlaki* lands were taxed *kharaj* in full amount. Under the Bukhara Emirate, *kharaj*

[119] «Хорезмская академия Мамуна / Ответственный редактор Б.А. Абдухалимов. – Т.: ФАН, 2005. – С. 5.

rate varied depending on the location and it was collected in the rate ranging from 20% to 33% (in high fertile locations) of the produce.

The *kharaj* rate for the *Waqf* lands was according to the prescribed rate in the contract of *Waqf*. *Mulk-hurra-khalis* lands, which switched into *waqf* lands, were free from *kharaj*. Mejov in his work explains, *"Kharaj* collected from the *Waqf* lands were according to the contract. Allocation of the collected *kharaj* amount in some cases half went to the state treasury and half-allocated to the religious establishments. However, there are other *Waqf* contracts where the ratios of allocation of the collected *kharaj* were different, for instance, there was a case where 2/5 was allocated to the state budget and 3/5 was used by the owners' will. Another case was where 1/8 of the collected *kharaj* went to the state treasury and 7/8 allocated to the religious establishments."[120]

Kharaj is collected from the *mulki* lands as well. *Kharaj* collected was of the same rate as from the *amlaki* lands. These lands belonged to the state and collected *kharaj* served as a payment for the usage of the land of the state. Grebenkin points out that the "*Kharaj* collected from the *mulki* lands were in two types, first is *kharaj-muvazef,* which is definite and unchangeable. Second is *kharaj-maqasima,* its rate depends on the size of the produce. The first type of *kharaj* was taken from all lands whether; they are used or not used. This type of *kharaj-muvazef* was collected in the higher Zerafshan valley. Only in the Fan *beglik*, *kharaj-maqasima* and *kharaj-muvazef* existed at the same time."[121] In the higher Zerafshan, *Kharaj-maqasima* was collected in the rate of 20% of the produce. In the Falgar, Fan, and Yagnaob *begliks* this type of *kharaj-maqasima* was collected in cash and fixed amount, according to the market prices for wheat. In the *beglik* of Machinsk, half of the *kharaj* was paid in cash. However, due to a bad harvest, it was collected not in cash, but instead, they paid zakat due either in cloth or silk material, which they produced. Because of bad weather conditions, this region was always experiencing low crop yields.

In Zerafshan valley, *Mulk-kharaj* lands were also obliged to pay *kharaj-muvazef.* The rates were from one *tanab*[122] land of wheat produce 2 *Tenge*[123] or 40 *kopeek* and plus 15 pounds (6.1 kilograms) of wheat grains. From one *tanab* of lucerne 2 *Tenge* and from one *tanab* fruit produce 12 *Tenge* and from one *tanab* of grape 18 *Tenge.* Zakat was collected from the *mulk-ushri* lands as well and the rate fixed at 10% of the produce. *Mulk-hurra-khalis* lands were not obliged to pay any type of taxes.

Kharaj collections[124] during the colonial rule were practised in Central Asia same way as prior to imperialists arrival. However, the Russian authorities made some changes in the system of the collection. Before these changes, the local authorities calculated *kharaj* lands. Group of people such as *mulla* (literate person)*, aryk-aksakal* (elderly person) and *mirab* (water supplier) examined every piece of land in order to assign to the owner a certain amount to pay as a *kharaj.* In this way, the so-called team of collectors made a list of records of the whole area that were required to pay *kharaj* for the upcoming term. This complete *kharaj* payment due list of records was then sent to *Bek* (Governor of the District). During his possession of the records list, any person who was on this listhad the chance to ask with a valid reason (usually financial problems) to omit his obligation to pay *kharaj* for that term, from him directly. After the *Bek* issued the final ordinance for *kharaj* collection, no one could change it.

---

[120] Mejov, V. N. (1874). Notes of the Russian Emperors' geographic society, department of Statistics. *Turkestanskiy Sbornik Vol. 4.* Saint Petersburg. Edited by Yanson E. Y. P.357

[121] Grebenkin, A. D. (1868). Notes on Kogistan (in Samarkand department). Turkestanskiy Sbornik Vol. 2. Saint Petersburg. p. 57)

[122] *Tanab*-land measurement in Central Asia, usually 1 *tanab* equals to 40 meters square. Internet Source: http://n.ziyouz.com accessed on 12.09.2017

[123] One *tanga* equals to 3.36 grams of silver. Internet source accessed on 30.10.2017. https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxoro_Amirligi

[124] Collected *kharaj* was 1/10 of the yield from mainly wheat and other grains. It was collected in kind, not in cash until the Russians made changes starting from 1871 in the collection methods. Russians established *kharaj* payments in cash, which was determined by the average prices of the yield (wheat, rice, etc.,) in the markets.

The *kharaj* collection during 1866 in Tashkent reduced dramatically, compared to the previous year. Its amount fell from 180,000 Roubles in 1865 to 80,000 Roubles in 1866. The reason why there was such a drastic change was due to structural changes that Russians brought into this collection system.[125] After a few years of decline in the collections of the *kharaj* amount, results started to increase and the revenue in budget ascended as well. The reason why collections were few, it was due to Russians' strictness in the demand for the tax collection. They never omitted anyone from the payers' due list. The Other reason for the increase was due to a reduction of the labour cost during the collections. As Mejov points out: "Some changes occurred and it was characterized by the appointment of the *aksakals* (elderly of the village) who now, were directly passing collected money to the Russian authorities."[126] Prior to 1871, before the Russians brought changes into the *kharaj* collections system, it was managed by the *amlakdars* (local leaders to collect zakat) appointed by the *Bek*.

* * *

ТАСАВВУФ ТАЪЛИМОТИГА ОИД МАНБАЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

THE STUDY OF SOURCES RELATED TO SUFI DOCTRINE

Т.А.Хатамов
ЎзХИА доценти, т.ф.н.

Истиқлол йилларида олимлар, тадқиқотчилар ва зиёлилар қатлами тасаввуф алломалари меросини таржима қилиш, шарҳлаш, оммавий ахборот воситаларида тарғиб этишда, бир қатор ижобий ютуқларга эришдилар. Жумладан, кўплаб монографиялар, китоблар, илмий-оммабоп рисолалар, мақолалар чоп этилди ва 100 дан ортиқ диссертациялар ҳимоя қилинди, шунингдек, республика ва халқаро миқёсда анжуманлар ташкил этилиб, алломаларнинг таваллуд саналари умумдавлат миқёсида нишонланди.

Бироқ, юртимиз ва хорижий давлатлар архивлари, кутубхоналари, музей ва фондларида сақланаётган тасаввуф таълимоти меросига оид қўлёзмалар, илмий электрон реестрлар ҳажмининг катталиги, бу соҳада ҳали қилиниши керак бўлган ишлар кўлами жуда катта дея тахмин қилишимиз учун асос бўлмоқда.

Жумладан, юртимизда сақланаётган қўлёзмалар реестрларининг ўзида жуда улкан мерос жамлаганини кўришимиз мумкин. Жумладан, мусулмон дунёсида машҳур бўлган Нақшбандийлик тариқати бўйича истиқлолнинг дастлабки йилларида "Нақшбандия тариқатига оид қўлёзмалар фиҳристи" "Мовароунаҳр" нашриётида Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти ва Ўзбекистон Республикаси Ислом ҳамкорлик фонди кўмагида Шамсуддинхон Зиёвуддинхон ўғли Бобохонов, Абдулазиз Дадажон ўғли Мансуровлар муаллифлигида тайёрланиб 1993 йилда 1000 (минг)та нусхада нашр этилди.

Мазкур фиҳристда 197 та тасаввуфий асар нусхалари ҳақида маълумотлар тўпланган бўлиб, бу нусхалар ҳақида 5-10 тагача кодикологик маълумотлар тақдим этилган. Жумладан,

[125] Mejov, V. N. (1874). Notes of the Russian Emperors' geographic society, department of Statistics. Turkestanskiy Sbornik Vol. 4. Saint Petersburg. Edited by Yanson E. Y.
[126] Ibid. See.p.37

“Анису-т-толибийн ва уддату-с-соликийн” (Толиблар ошноси ва соликлар раҳномаси) асарининг 27 та нусхаси ҳақида маълумотлар тақдим этилган бўлиб, бу асар ҳақида кўпи билан 9 тагача кодикологик маълумотлар берилган. Шунингдек, СВР да рўйхатга олингани ҳам алоҳида қайд этиб ўтилган.

Ўзбекистон Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фондида XVIII-XX асрлардаги тасаввуф алломалари меросига оид 2009 та (икки минг тўққиз) қўлёзма асарлар (2000 йил ҳолатига кўра) рўйҳатга олинган.

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академиясидаги Манбалар хазинаси бўлимида сақланаётган қўлёзмалар фондида Тасаввуф алломалари меросига оид 70 та асар сақланмоқда (2023 йил ҳолатига кўра). Умуман олганда юртимизнинг 80 дан ортиқ муассасаларида 45 мингга яқин қўлёзма ва 70 мингдан зиёд тошбосма асарлар сақланмоқда. Ушбу асарларнинг қанчаси тасаввуф таълимотига оид эканлиги ҳозирча ноаниқ бўлиб, бугунги кунда ҳам етарлича тадқиқ этилмаган. Шунингдек, халқимиз хонадонларида сақланиб қолаётган қўлёзма ва тошбосма асарларнинг аниқ миқдорини айтиш ҳам мураккаб жараён ҳисобланган сабабли ҳам юқоридаги рақамлар ҳам нисбий аҳамият касб этиб, янада ортиб бориш хусусиятига эга ҳисобланади.

Шу билан биргаликда, 40 дан ортиқ хорижий давлатларда сақланаётган Ўзбекистонга оид 10.000 (ўн минг)дан ортиқ маданий бойликлар аниқлангани юртимиз илм-фан соҳасидаги ижобий ютуқлардан бири бўлмоқда. Тадқиқотлар натижасида кўплаб хориждаги асарларнинг илмий тавсифи тузилди ва улар электрон реестрга киритилди. Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигининг лойиҳаси доирасида “Ўзбекистонга оид хориждаги қўлёзма асарлар реестри”нинг I-III жилдлари нашр этилди. Ушбу реестрда жами 3159 та асар рўйҳатга олиниб ўзбек, инглиз, рус тилларида нашр этилди. Рўйҳатга олинган асарлар орасида бевосита тасаввуф таълимотига оид асарлар 100 дан ортиқни ташкил этиб, бу ҳақида мақолани асосий қисмида кенгроқ тўхталиб ўтилган.

Тарихий-маданий бойликларимиз, бир неча асрлардан буён жаҳоннинг турли минтақаларида, жумладан, Америка, Африка, Европа, Осиё ва ҳатто Австралияга ҳам тарқалгани, ушбу минтақалардаги меросимизни алоҳида эътибор билан тадқиқ этишимизни талаб этмоқда. Бугунги кунда тарихий меросимиз инсониятнинг маданий бойлиги сифатида жаҳоннинг 40 дан ортиқ мамлакатидаги илмий муассаса, музей, архив, кутубхона, жамғарма(фонд) ва жамланмалар(коллекция)да сақланмоқда. Президент Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 20 июнда “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистонга оид хориждаги маданий бойликларни тадқиқ этиш марказини ташкил этиш тўғрисида”ги қарори дунё илм-фанига катта хизматларни қўшган маънавий-маданий меросимизни яна ўрганиш, халқимизга унутилган тарихимизни янги манбалар асосида тақдим этиш ва бу соҳада амалга оширилаётган ишларни янги босқичга кўтариш имконини берди.

Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ҳузуридаги Ўзбекистонга оид хориждаги маданий бойликларни тадқиқ этиш маркази томонидан, А-ВМ-2019-15 рақамли “Ўзбекистонга оид хорижда сақланаётган маданий бойлик реестрини яратиш, нодир қўлёзма асарларнинг факсимилесини нашр этиш” лойиҳаси доирасида тайёрланиб, кенг жамоатчиликка 2020 йилда тақдим этилган “Ўзбекистонга оид хориждаги қўлёзма асарлар реестри”нинг I-жилди Ўзбекистонга оид хориждаги қўлёзма асарларга тааллуқли маълумотларни қамраб олган. Тадқиқотлар натижасида тузилган реестр республикамизда биринчи бор ўзбек, инглиз ва рус тилларида нашр этишдан асосий мақсад ундан кенг миқёсда Ўзбекистон халқи ва илмий жамоатчиликка, жаҳонда Ўзбекистон маданий бойликларига оид тадқиқот олиб бораётган олимлар ҳамда миллатимиз вакиллари томонидан инсоният цивилизациясига қўшган ҳиссаси билан қизиқувчи барча маърифат эгалари фойдаланиши учун мўлжалланган ҳолда нашр этилган.

Реестрнинг илмий ишончлилик даражаси, манбавий асослари ҳам муҳим аҳамият касб этиб, лойиҳа доирасида бу масалага ҳам эътибор қаратилганини кўришимиз мумкин. Асарлар ҳақида маълумотларни аниқлаш ва тўплашда турли манбалар, хусусан, юртимиз ва хориждаги турли нашрлар, мақолалар, рисолалар, катологлар, маданий бойликларимиз сақланаётган муассасаларга илмий хизмат сафарлари ва уларнинг веб-сайтларидан фойдаланган ҳолда чет элда сақланаётган мамлакатимиз тарихи ва маданиятига оид маданий бойликларнинг илмий тавсифига доир тўлиқ маълумотлар базаси асосида – ушбу реестр тайёрлангани, манбаларни ўрганиш борасида юртимиз олимлари ва тадқиқотчилари томонидан кенг доирада илмий-амалий тадқиқот ишлари амалга оширилганлигини кўрсатади.

Реестрдаги тасаввуф таълимоти алломалари томонидан ёзилган ёки уларнинг ҳаёти ва фаолиятига бағишланган асарлар бевосита мазкур мақолада белгилаб олинган тадқиқот объекти бўлиб, реестрдаги тасаввуфий манбаларни ўрганиш мақолада устуворликни касб этади.

Тасаввуф таълимоти алломаларига оид тўлдирилган янги маълумотларни реестрдан қидиришда, реестрнинг ўзига хос жиҳатларини ҳам эътиборга олиш муҳим ҳисобланади. Жумладан, реестрда қўлёзма асарлар ҳақидаги маълумотлар баён қилишда, асарлар олинган манбаларда келтирилган барча параметрларни(жиҳатларни) ўзгартирмасдан, яъни берилган маълумотларни айни шаклида сақлаган ҳолда қайд этишга асосланган. Қўлёзмалар ҳақидаги маълумотлар ўз ичига қатор жиҳатларни қамраб олгани боис улар муайян тартибда берилишини тақозо қилиши эътиборга олиниб барча маълумотларни: қўлёзма сақланаётган мамлакат, у ердаги ташкилот ёки муассаса, жамғарма(фонд) ёки жамланма (коллекция), олимнинг исми, асарнинг номини ўзбек тили алифбоси тартиби асосида келтирилган. Ҳар бир тавсифда тартиб рақами ва бу услуб нашрда бошидан охиригача узлуксиз кетма-кетликда давом эттирилган, яъни бир мамлакатдаги бир ташкилот тугаганидан сўнг иккинчи ташкилотга ёки кейингги мамлактдаги қўёзмага оид тавсиф навбатдаги тартиб рақами билан белгиланган.

* * *

ALLOMALAR MEROSI-BEBAHO XAZINA

THE SCHOLARS’ HERITAGE — A PRICELESS TREASURE

Xodjayeva Mavluda Sabirovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbek zaminidan yetishib chiqqan mutafakkirlarlar merosi va ularni o‘rganishning ahamiyati haqida so‘z boradi., Buyuk allomalarimizning ilm-u fan rivojiga qo‘shgan hissalari va ularning bugungi kundagi ahamiyati keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Ilm-fan, Buxoriy, Xorazmiy, Ibn Sino, ma’naviy jasorat(1).

Nihol qanday o‘sishi uning ildiziga bog‘liq. Agar biz yoshlar nihol bo‘lsak bizning ildizimizchi?!

O‘zbekiston tarixda ilm-fan rivojiga beshik bo‘lgan, va ta’kidlab o‘tish joizki, millatimiz bunday allomalar soni va fanga qo‘shgan ahamiyati jihatdan dunyoda yetakchi o‘rinlarda turadi.

Zaminimizdan yetishib chiqqan olim-u fuzalolarning ilm-u fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi necha asrlarki beqiyos e‘tirof etilmoqda.Ularning ilmlari o‘rganilib, asrlar oshgan bo‘lsa-da o‘z salmog‘ini yo‘qotib ulgurgani yo‘q.Ular o‘z ilmiy kashfiyotlari bilan tamaddunga sabab bo‘la olganlar.

Musulmon olamida “muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy ham bizning millatdan kamol topgan.Ishonchliligi bo‘yicha Qur’ondan keyingi o‘rinda turuvchi manba “Sahihul Buxoriy”(al-jome’ as-sahih) hadislar to‘plami muallifi bo‘lgan Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy.Bobomiz taxminan 600 000 hadisni yoddan bilganlar va ulardan 7000dan ortig‘ini saralab olib ushbu kitobga kiritganlar. Uning bu asari 30dan ziyod tillarga tarjima qilingan

Hozir ilm-fan dunyosini algoritmlarsiz tasavvur qilish qiyin.Fanga algoritm kabi ko‘plab yangi muhim tushunchalarni olib kirgan, algebra fanining asoschisi bo‘lmish bobomiz Muhammad Al-Xorazmiy, astronomiya va geografiya fanlariga ham salmoqli hissa qo‘shganlar.Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo‘lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo‘ldi

Tabobat fanining sultoni deya ta’rif beriladigan bobomiz Ibn Sino ham turli fanlarga o‘z hissalarini qo‘shganlar.Bugungi kunda ham dolbzarligini yo‘qotmagan “Davolash kitobi” va “Kanun at-tib” kabi mshhur tibbiyot asarlari muallifi. Uning “Tibbiyot qonuni” kitobi o‘z davrining eng nufuzli tibbiyot asarlaridan biriga aylandi. Kitob besh jilddan iborat bo‘lib, anatomiya va fiziologiyadan tortib, turli kasalliklarni tashxislash va davolashgacha bo‘lgan o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan barcha tibbiy bilimlarni qamrab olgan.

O‘zbek xalqi ana shunday faqihlarning avlodi, millatimiz ildizi ana shunday bir necha renessanslarga qadam qo‘yib bergan ma‘rifat ildizi orqali sug‘orilgan.

O‘zbek xalqi dunyo maydonida kuni kecha tasodifan paydo bo‘lib qolgani yo‘q. Biz — boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma’naviyat vorislarimiz. Qadimiy tariximizga nazar solar ekanmiz, har qanday vaziyatda ham millatimizga ishonch va umid bergan, uni yovlarga qarshi kurashishga undagan, ajdodlarimizni turli sohalarda zafarlarga, ma’rifat ziyosiga chorlagan kuch ham ma’naviy jasorat- ilmga tashnalik ekanligini bilamiz.

“Xalqimiz doimo ma’naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug‘ tuyg‘u uning

hayotida yillar, asrlar o‘tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalq ma’naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g‘ayrat va ilhom olib, o‘zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi.” degan edilar 1-prezidentimiz Islom Karimov.

Demak ildiz mustahkam ekan nihol ham to‘g‘ri o‘sishi kerak. Nihol kelajakda mustahkam daraxtga asos bo‘ladi, xuddi har tomonlama bilimli, ma‘naviy va aqliy jihatdan yuksalgan va yuksalayotgan, yangiliklarga chanqoq, doimiy o‘z ustida ishlaydigan yoshlar yurtning asosiy kuchini tashkil etishi kabi. Biz poydevorni qanchalik mustahkam qilsak, u shunchalik chidamli,har qanday vaziyatda qulamaydigan,yillar o‘tsa-da o‘z haybati bilan lol qoldiradigan bir ko‘rinish kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak.”

Ha, biz ana shunday mutafakkirlarning avlodimiz, lekin faqatgina bizning buyuk bobolarimiz bo‘lgan deb cheklanib qolishimiz to‘g‘ri emas, shunday emasmi?! Biz ulardan ilhomlangan holda, o‘sha Renessansni o‘zimizga qaytarishimiz, dunyo hamjamiyatiga Xorazmiylar-u Sinolar, Ulug‘beklar hozir ham yetishib chiqa olishiga ishonchimiz komil.

Buxoriy, Termiziy, Farg‘oniy, Beruniy, Navoiylar o‘z o‘zidan yetishib chiqmaydi, albatta. Buning uchun kuchli bilim olish, bilan birga uularning hayot yo‘llarini o‘rganish orqali ular bu yuksak maqomga qanday qilib erishganliklarini o‘qib-o‘rganib, tahlil qilgan holda o‘rnak olish xar bir yosh avlodning burchidir. Zero, bu ilmlar bizga ulug‘ ajdodlarga munosib avlod sifatida buyuk maqsadlar, ulkan ishlarni amalga oshirishga undaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Ma’naviyat T:2008
2. I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” Sharq T:1998
3. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruza xs.uz
4. Wikipedia.org

* * *

МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ КОРЕЯ БИЛАН АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИ

HISTORY OF CENTRAL ASIA’S RELATIONS WITH KOREA

Низомиддинов Нажмиддин Ғуломович
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси профессори, тарих фанлари доктори.

Корейс яримороли тарихи ҳақидаги мавжуд маълумотларни ҳатто ҳозир ҳам аниқ ва муфассал дейиш қийин. Чунки биз танишган корейс ва хорижий нашрларда ер куррасининг бу гўшасида ўтган тош асридан то кейинги давр-ларга доир илмий хулосаларда ҳали ҳам ўзаро зиддий талқинлар учраб ту-ради. Шу боис Шарқий Осиёдаги бу йирик яриморолининг тарихини аниқлаш хусусидаги асосий саволлардан бири – бу шуки:

«Яриморолида қачондан одамлар яшай бошлаган ва улар кимлар эди?»

Ўтган асрнинг 60-йилларидаги маълумотлар бўйича, яриморолида одам-ларнинг яшаганлиги неолит давридан тахмин қилинади. Ҳолбуки, бундан муқаддам, яъни 1933 йили японлар ҳам ***Тэдонган*** дарёсининг юқори оқими-даги ***Тенгванчжин*** деган жойда неолит даври жониворлари ва баъзи бир иш қуроллари борлигини аниқлаган эдилар, лекин бу топилмаларни улар сир тутганлар[127].

Бундан кўзланган асосий мақсад, адабиётларда ёзилишича, японлар ўз маданиятининг корейслар маданиятига нисбатан қадимий эканлигини кўрса-тиш бўлган. Ниҳоят, XX асрнинг сўнги чорагидан Кореяда олиб борилган археологик қазилмалар натижасида наинки неолит, балки ҳатто ўрта палео-лит даврида яримороп да яшаган одамлар ҳаёти ва фаолиятига доир унсурлар борлиги аниқланган.

Агар энди корейсларнинг Марказий Осиё билан алоқалари тарихи маса-ласига келсак, «Афросиёб деворида акс этган Самарқанд ҳукмдорининг қа-димги Чосон элчисини қабул қилдиш маросими халқларимиз ўртасидаги муносабатларнинг узоқ тарихга бориб тақалишидан далолат беради».

Борди-ю, Афросиёб деворида акс этган тасвирнинг тарихига чуқурроқ ёндашсак, Марказий Осиёнинг қадимдан тасвирий санъатга доир бетакрор намуналарга бой минтақалар сирасидан эканлиги маълум бўлади. Хусусан, «бу санъат турининг ривожи VI-VIII асрларга тўғри келади».

Мазкур тасвирий санъатга мансуб Афросиёб саройи деворларида чизил-ган расмлар, Суғд подшолари саройи ҳаёти, хорижий элчилар ташрифи ҳамда бошқа воқеалар силсиласидан хабар бериши билан муҳим тарихий аҳамият касб этади.

[127] Курбанов С.О. История Кореи: с древности до начала XXIв. Изд-во. С.Петрбургского университета. 2009. -С.1.

Мавжуд сюжет унсурлари гарчи мутахассислар томонидан турли талқин-ларда тавсифланса ҳам, аммо улар Ўрта ва Марказий Осиёнинг тарихи, мада-нияти, этногенези ва этнографиясига доир ниҳоятда қимматли манбадир.

Афросиёб деворий тасвирлари 1965 йили, уч йил давомида олиб борилган археологик изланишлар натижасида топилган эди. Бу топилма фрескаларида акс этган икки кишининг бош кийимидаги укпарлар қадимги корейсларни эс-латувчи ўз тасвири билан характерли. Бинобарин, «Афросиёб саройининг ғарбий деворида чизилган кишилар кийим-бошини, хитойлик сулолалар хро-никаси ва бошқа манбалардаги маълумотлар ҳақиқатдан ҳам корейс элчила-рига тегишли эканлигини тасдиқлайди».

Афросиёб деворий тасвирларига ўхшаш чизгиларни Когурё даври қабр фрескаларида ҳам учратиш мумкин. Ҳозирча, элчиларнинг Афросиёбга Ко-гурё ё Силладан келганлигини аниқ айтиш қийин. Лекин шуниси аёнки, ко-рейс элчилари Марказий Осиёга араблар юришидан олдин келганлар, яъни 712 йилгача[128].

Бас, тарихимизда шундай қадим ўтмишга тааллуқли маълумотлар мав-жуд экан, демак, илм-фан олдида турган навбатдаги вазифа, бу – ўзбек ва ко-рейс халқларининг Афросиёб даври ва ундан кейинги дипломатик ҳамда сав-до-тижорат муносабатлари тарихи манбаларини излаб топиш ва чуқурроқ ўрганишдан иборат бўлиши керак. Чунки мазкур мавзудаги келгуси тадқи-қотларни амалга ошириш учун диёримизнинг Жанубий Корея билан мавжуд дўстона маданий-маърифий ришталари кенг имкониятлар эшигини очиб бе-риши мумкин.

Шу жиҳатдан «Икки мамлакат раҳбарларининг мулоқотлари ва халқла-римизнинг муштарак иқтисодий интилишлари самараси боис муносабатла-римиз тобора мустаҳкамланиб ва мазмунан бойиб бормоқда». Бу хайрли жа-раённинг ўз маънавий асослари бўлиб, унинг қай даражада ҳар икки халқ учун мазмун-моҳиятга эгалигини Жанубий Корея Республикасининг Ўз-бекистондаги собиқ элчиси жаноб Ли Ук Хёнинг «Халқ сўзи» рўзномасида берган интервьюсидан англаш қийин эмас:

«Жуғрофий жиҳатдан узоқ масофада жойлашган бўлишига қарамай, ўз мамлакатига садоқат, аждодлар мероси ҳамда қадриятларини қадрлаш ва уларни авайлаб асрашга бўлган интилиш ҳамда меҳр-муҳаббат, меҳнаткаш-лик, фидокорлик, кексаларга ҳурмат, ёшларга ғамхўрлик сингари хусусият-лар халқларимизга бирдек хос. Ва бундай маънавий яқинлик мамлакатлари-миз ва халқларимиз ўртасидаги муносабатларнинг муҳим асосларидан би-ридир»[129].

Тезиснинг сўнгида, яна бир муҳим масала ҳақида маълумот бериб ўтиш илмий нуқтаи назардан ҳам қарз, ҳам фарз.

Аёнки, ўтган асрнинг биринчи ярми охирида дунёдаги икки мухолиф тузумнинг таъсири ва тазйиқи остида ягона Корея икки мустақил давлатга ажралган эди. Ҳолбуки, Корея Халқ Демократик Республикаси ва Корея Рес-публикаси дея аталган мамлакатларнинг халқлари азалдан ўз қадим тарихи, эътиқоди ва маданиятига эга бўлган ягона миллатдир.

Шу ҳақиқатдан келиб чиқиб, биз Марказий Осиё ва қадимги Кореяга до-ир мухтасар маълумот ва кейинчалик махсус қадимги Корея тарихига бағиш-ланган монографияда корейс халқининг миллий тарихи, менталитети ва қад-риятларини азалдан бир халққа тегишли эканлиги руҳида баён этишга ҳа-ракат қилдик.

* * *

[128] Ким В.С., Каримова Н.Э. Центральная Азия и Корея: истоки и нынешные состояние исторических связей. Челябинск. 2914. -С. 18-19.

[129] «Халқ сўзи». 28 май, 2015й. №106. -Б.2.

MOVAROUNNAHRNING ISLOM SIVILIZATSIYASIDAGI O‘RNI

MOVAROUNNAHR’S ROLE IN ISLAMIC CIVILIZATION

Agzamova Muhabbatxon Mirtoxirovna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Islomshunoslik va islom sivilizasiyasini
o‘rganish ICESCO” kafedrasi mudiri
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, dotsent

Islom sivilizatsiyasi tarixi faqatgina diniy e’tiqodlar tarixi emas, balki ilm-fan, madaniyat, falsafa, adabiyot, san’at va ijtimoiy hayot sohalarida yuzaga kelgan beqiyos yutuqlarning ham tarixidir[130]. Bu taraqqiyotda turli mintaqalarning o‘ziga xos hissasi bo‘lgan bo‘lsa-da, Movarounnahr o‘ziga xos ilmiy-ma’naviy muhitga ega bo‘lgan, islom dunyosining eng muhim ilm markazlaridan biri sifatida ajralib turgan. Movarounnahr – qadimiy So‘g‘diyona va Baqtriya zaminlarining vorisi bo‘lib, Islom sivilizatsiyasining g‘oyat muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Movarounnahr tarixiga oid muhim ma’lumotlar IX-XV asrlarda yozilgan arab tilidagi qator yozma manbalarda aks etgan. Jumladan, Madoiniyning “al-Axbor al-xulafo”, Ya’qubiyning “Kitob al-buldon”, Balazuriyning “Kitob futuh al-buldon”, Tabariyning “Tarix ar-rusul val-muluk”, Ibn Fazlonning “Risola”, Mas’udiyning “Muruj az-zahab”, Utbiyning “Tarixi Yaminiy”, Abu Abdulloh Xorazmiyning “Mafotih al-ulum”, Abu Rayhon Beruniyning “al-Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon al-lug‘at at-turk”, Sam’oniyning “Kitob al-ansob”, Ibn Asirning “al-Komil fi at-tarix”, Yoqut Hamaviyning “Mu’jam al-buldon”, Muhammad Nasaviyning “Sirat as-sulton Jaloliddin”, Jamol Qarshiyning “Mulhaqat as-suroh” asarlarida kelgan.

IX-XV asrlar tarixiga oid forsiy yozma manbalar Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Nizomi Aruzi Samarqandiyning “Chor maqola”, Gardiziyning “Zayn al-axbor”, Abulfazl Bayhaqiyning “Tarixi Mas’udiy”, Avfiyning “Javome’ al-hikoyot”, Juvayniyning “Tarixi jahongushoy”, Mirzo Olim Tashqandiyning “Ansob as-salotin va tavorix al-xavoqin”, Abu Hafs Nasafiyning “Kitob al-qand fi ma’rifat ulamoi Samarqand” asarlarida ma’lumotlar keladi[131].

VIII-XII asrlar oralig‘ida bu hudud musulmon dunyosining ilmiy va madaniy hayotida yetakchi o‘rinni egallab, ilm-fan, falsafa, diniy bilimlar va san’atning markaziga aylangan. Movarounnahr – Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi tarixiy-geografik hudud bo‘lib, qadimdan Yevrosiyo mintaqasining savdo, siyosiy va madaniy markazi hisoblangan. Yunon tarixchilari bu hududni Sog‘diyona, Baqtriya va Marg‘iyona deb ataganlar. Buyuk Ipak Yo‘li ustida joylashganligi va o‘z davrida ko‘plab xalqlar va madaniyatlar chorrahasiga aylanganligi sababli, Islom sivilizatsiyasi nuqtai nazaridan Movarounnahr markaziy o‘rinni egalladi. Movarounnahr VIII asrda Abbosiylar xalifaligi tarkibiga kirganidan so‘ng, yangi ilmiy hamda madaniy rivojlanish bosqichi boshlandi. Buxoro, Samarqand, Marv, Nasaf, Termiz, Balx kabi hududlarda yirik ilmiy markazlar shakllanib, bu yerda madrasalar, kutubxonalar va ilmiy maktablar faoliyat yurita boshladi[132].

“Sivilizatsiya” so‘ziga ilmiy soha vakillari tomonidan turlicha ta’riflar berilgan[133]. Biroq ular ichida kengqamrovli va umumiy xususiyatga ega bo‘lgan quyidagi ta’rifni alohida aytish mumkin:

---

[130] *Nasr, Seyyid Hossein. Science and* Civilization in Islam. *Harvard University Press, 1968.* https://www.academia.edu/44409131/SCIENCE_AND_CIVILIZATION_IN_ISLAM_Seyyed_Hossein_Nasr

[131] Abu Bakr Narshaxiy. Tarixi Buxoro // tarj. A. Muhammadjonov, – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2000. – B. 10-12.

[132] B.Qosimov. *O‘rta asrlar tarixida Movarounnahrning o‘rni*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. – B. 112.

[133] M.Abdullaev. *Sivilizatsiya tushunchasining falsafiy talqini*. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi. 2020. – B. 34-36.

"Sivilizatsiya – taraqqiyot va e'tiqodiy asoslar, insonning ilmiy tafakkuri, ilmfan, adabiyot, odobaxloq kabi turli sohalardagi faoliyati hamda bularning natijasida paydo bo'ladigan hayot yo'li, tafakkur mahsulidir". Ushbu ta'rifning xususiyati shundaki, bu erda sivilizatsiyani insoniyat faoliyati bilan bir qatorda tabiiy in'om etiladigan hayot qonuniyatlari, diniy asoslar ham natijasi sifatida baholangan.

Hozirda asosiy qismi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Movarounnahr geografik mintaqa sifatida IX asrdan boshlab tarixiy manbalarda "Movarounnahr" nomi bilan tilga olinadi. XI asrdan esa g'arbiy manbalarda bu hudud "Transoksiana" yoki "Transoksaniya" atamalari bilan ma'lum bo'lgan. Movarounnahrning chegaralari turli davrlarda o'zgarib turgan bo'lsa-da, u doimo Markaziy Osiyoning muhim madaniy, ilmiy va dini markazi sifatida tanilgan. Movarounnahr islomdan avvalgi davrda so'g'dlar, turklar va arablar kabi turli etnik guruhlarga mansub xalqlarning yashash joyi bo'lib, buddizm, zardushtiylik, xristianlik, yahudiylik, shomonizm, majusiylik va mazdakiylik kabi dini va e'tiqod tizimlarining uzviy uyg'unlashgan hududi sifatida ajralib turgan. Termiz, Nasaf, Toshkent, Farg'ona, Buxoro va Samarqand kabi shaharlar islomdan avval ham, islomdan keyin ham turli din va madaniyatlarning chorrahasi vazifasini bajargan.

Ushbu qadimiy zamin asrlar davomida "ilmu ma'rifat o'chog'i" bo'lib, Buxoro kabi "Islom dinining quvvati", Samarqand singari "Yer yuzining sayqali", Kesh (Shahrisabz) kabi "Islom gumbazi" deb ulug'langan shaharlar bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Movarounnahr hududi Xorazmiy, Termiziy, Shoshiy, Farg'oniy, Marg'iloniy kabi yuzlab allomalarning vataniga aylangan. Bu yuksak ilmiy-ma'naviy salohiyat tufayli mintaqa islom sivilizatsiyasi tarixida betakror iz qoldirgan. Ayniqsa, IX-XII asrlar orasi islom sivilizatsiyasining "oltin davri" sifatida e'tirof etilib, aynan shu davrda Movarounnahr musulmon ilm-fanining yetakchi markazlaridan biriga aylangan[134].

Movarounnahr Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida mintaqa o'zining yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilib, iqtisodiy, madaniy va ilmiy yuksalish davrini boshdan kechirgan. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Termiz, Toshkent va Farg'ona kabi shaharlar yirik ilmiy va madaniy markazlarga aylangan. Hududda tibbiyot, falsafa, tafsir, hadis, kalom, astronomiya, tilshunoslik, adabiyot hamda tabiiy fanlar sohalarida yirik asarlar yaratilgan. Bu ilmiy meros bugungi kungacha yetib kelgan bo'lib, islom olami ilmiy tafakkurining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Movarounnahr diniy va dunyoviy ilm-fanni uyg'unlashtirgan holda, islom sivilizatsiyasining tarixiy taraqqiyotida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan mintaqa sifatida tarixda muhrlanib qolgan.

Movarounnahr – "Daryoning narigi tomoni" ma'nosini anglatib, Buxorodan Samarqandgacha, Farg'onadan Marg'inongacha, Saraxsdan Shoshgacha, Toshkentdan O'zkent va O'shgacha bo'lgan keng hududni qamrab olgan. Ushbu hududda hanafiylik mazhabi mustahkam ildiz otgan bo'lib, islom ilm-faniga katta hissa qo'shgan ko'plab allomalar yetishib chiqqan[135]. Jumladan, hadis, fiqh va kalom sohalarida Imom Buxoriy, Imom Maturidiy, Darimiy, Kaffol Shoshiy, Abu Lays Samarqandiy, Abu Yusr Pazdaviy, Abu Muin Nasafiy, Najmiddin Nasafiy, Alauddin Samarqandiy va Nuriddin Sobuniy kabi ulug' olimlar faoliyat ko'rsatgan. Aniq fanlar sohasida esa Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek va Ali Qushchi kabi allomalar yetishib chiqqan bo'lsa, tarixshunoslikda Narshahiy, Shihobiddin Ibn Arabshoh va Abdurazzoq Samarqandiy kabi tarixchilar alohida o'rin egallagan. Tasavvuf sohasida esa Hakim Termiziy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor va Ya'qub Charxiy kabi buyuk tasavvuf namoyandalari faoliyat ko'rsatgan. Movarounnahr tarixan ilm, madaniyat va dini tafakkurning yorqin maskani bo'lib, islom sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutgan va tutishda davom etmoqda.

Movarounnahrda islom ilmlari alohida yuksak darajaga ko'tarilib, bu yerda paydo bo'lgan ilmiy an'analar keyinchalik butun musulmon dunyosiga tarqaldi.

[134] *V.V.Barthold.* Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya. – *Moskva: Nauka, 1963.* – B. 35.
[135] A.A.Saidov. *Islom tamadduni va O'rta Osiyo olimlari*. – Toshkent: Ma'naviyat. 2004. – B. 24-28.

Movarounnahr hadis ilmi rivojida dunyo miqyosida taniqli maktablardan biriga aylandi. Bu sohaga eng katta hissa qo‘shganlardan biri – *Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy* (810-870) bo‘lib, u o‘zining “Sahih al-Buxoriy” nomli asarida 600.000 ga yaqin hadis ichidan eng ishonchli 7000 hadisni tanlab to‘plagan. Bu kitob islom olamida Qur’ondan keyin eng muqaddas manba sifatida qabul qilingan. U hadislarni tanlashda nihoyatda qat’iy mezonlarga amal qilgan va shariat ilmini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan.

Fiqh ilmi rivojida *Burhoniddin Marg‘inoniy* (XII asr) hanafiy mazhabining eng nufuzli faqihlaridan biri bo‘lib, “Al-Hidoya” asari muallifi hisoblanadi. Ushbu kitob musulmon dunyosida fiqh ta’limining asosiy darsliklaridan biri sifatida asrlar davomida o‘qitildi. Marg‘inoniy fiqhda faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy masalalarni ham mukammal tahlil qildi. Bu asar nafaqat Movarounnahrda, balki keng musulmon olamida yuridik amaliyot uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Movarounnahr tasavvuf, ya’ni islomiy ruhiy hayot va ma’naviyat sohasida ham muhim markazlardan biri bo‘lib, *Ahmad Yassaviy* (1103-1166) o‘zining hikmatlari orqali tasavvuf g‘oyalarinin mahalliy xalqlarning qalbiga singdirgan. U diniy-ma’naviy hayotni chuqurlashtirishda, musulmonlarning axloqiy tarbiyasini yuksaltirishda katta hissa qo‘shdi. Yassaviy tariqati keyinchalik Markaziy Osiyo, Volgabo‘yi va Anadolu hududlarida keng tarqaldi.

Movarounnahr faqat islom ilmlari bilan chegaralanib qolmadi, balki matematika, astronomiya, tibbiyot kabi an’anaviy fanlarda ham buyuk taraqqiyot sari intildi.

Matematika sohasida Movarounnahr dunyoga *Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy* (783-850) kabi buyuk olimni tarbiyaladi. Al-Xorazmiy *“Kitab al-jabr val-muqobala”* (“Algebra va tenglamalarni yechish kitobi”) asarida zamonaviy algebra asoslarini yaratdi. Shuningdek, “Algoritm” atamasi ham aynan uning nomidan kelib chiqqan. Al-Xorazmiy kiritgan matematik uslublar keyinchalik Yevropa ilm-fanining rivojiga kuchli ta’sir o‘tkazdi.

Astronomiya sohasida Movarounnahr olimlari Markaziy Osiyo va G‘arb ilmiy markazlari o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajargan *Ahmad Farg‘oniy* (798-865) o‘zining *“Samoviy harakatlar va yulduzlar ilmi haqida”* asari bilan musulmon va g‘arbiy dunyoda astronomiya rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Ahmad Farg‘oniyning asarlari lotin tiliga tarjima qilinib, Kopernik, Kepler kabi yevropalik astronomlar ishiga turtki bo‘lib xizmat qildi.

Abu Rayhon Beruniy (970-1048) – O‘rta asrlarning buyuk qomusiy olimi hisoblanadi. U o‘z davrida astronomiya, astrologiya, matematika, geologiya, geografiya, etnografiya, biologiya, botanika, mineralogiya, tarix, dinshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa, mantiq, ilohiyot va she’riyat kabi ko‘plab sohalarda chuqur iz qoldirgan. Beruniy jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga o‘zining yirik ilmiy kashfiyotlari bilan katta hissa qo‘shgan[136]. Beruniyning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, u asrlar davomida avlodlar tomonidan qadrlab o‘rganilmoqda. Ayniqsa, uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Saydana” va “Geodeziya” kabi asarlari alohida e’tiborga loyiqdir.

Beruniy yozgan har bir asar o‘ziga xos ensiklopediya darajasidagi manba hisoblanadi. Uning birinchi yirik asari – “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”da Xorazmda yashagan qadimgi yahudiylar, nasroniylar, majusiylar va musulmonlarning urf-odatlari, an’analari, bayramlari, taqvim tizimlari, dinlari, payg‘ambarlari hamda muqaddas kitoblari haqida batafsil ma’lumotlar jamlangan. Bu asar Yevropada “Xronologiya” nomi bilan mashhur bo‘lib, Beruniy uni 27 yoshida yozib tugatgan.

Tibbiyot ilmining ravnaqi Abu Ali ibn Sino (980-1037) xizmatlari katta. U buyuk tabib va faylasuf sifatida bir qator asarlar yozib qo‘ldirdi. Uning “Al-Qonun fit-tibb” (“Tibb qonuni”)

[136] Nasr, Seyyid Hossein. *Science and Civilization in Islam.* Harvard University Press, 1968. – P. 50-51. https://www.academia.edu/44409131/SCIENCE_AND_CIVILIZATION_IN_ISLAM_Seyyed_Hossein_Nasr

asari Yevropa universitetlarida asrlar davomida asosiy tibbiy darslik sifatida o‘qitilgan. Ibn Sino shifobaxsh o‘simliklar, kasalliklar diagnostikasi va jarrohlik amaliyoti bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan. Bugungi kunda Movarounnahrning boy madaniy va ilmiy merosi dunyo ahli tomonidan qadrlanmoqda.

O‘rta asrlarning mashhur musulmon olimi Ibn Xaldun o‘zining “Muqaddima” kitobida Markaziy Osiyo va xususan, Movarounnahr haqida gapirib, ushbu hududning islomgacha ham yuksak madaniyatga egaligini, bu din kirib kelgach esa, u yanada rivojlangani, ulkan ma’rifiy tamaddunga aylangani, islom madaniyati yuqori cho‘qqiga chiqqanini tilga oladi.

Hududdagi qadimiy madrasalar, masjidlar, maqbaralar va kutubxonalar Movarounnahr sivilizatsiyasining yorqin namunalaridan hisoblanadi. Movarounnahr islom sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida beqiyos o‘rin tutgan. U ilm-fan, madaniyat, tasavvuf, fiqh va kalom sohalarida buyuk allomalarni yetishtirib bergan va musulmon olamiga ulkan ma’naviy boyliklar baxsh etgan. Movarounnahrda yetishib chiqqan olimlar va ularning asarlari nafaqat musulmon olamida, balki Yevropa uyg‘onish davrida ham katta ahamiyat kasb etgan. Bugun ham Movarounnahr o‘zining boy ilmiy va madaniy merosi bilan insoniyat tarixida o‘z o‘rnini saqlab kelmoqda.

III-XII asrlarda Movarounnahr ilm-fan va madaniyatda islom olamining poytaxtiga aylandi. Bu hududda yetishib chiqqan olimlar nafaqat o‘z davrining, balki butun insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Fan, ta’lim, madaniyat masalalari bo‘yicha Islom tashkiloti – ISESCO bosh direktori ham 2017 yilning avgust oyida O‘zbekistonga tashrifi asnosida mamlakatimizning islom tsivilizatsiyasi rivojidagi roliga alohida urg‘u berib, islom dini Arabistonda vujudga kelgan bo‘lsa ham, biroq uning rivoji boshqa diyorlarda, jumladan, Movarounnahrda kechganini alohida ta’kidlab o‘tdi hamda yurtimizdan etishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mahmud Zamaxshariy kabi allomalarning xizmatlariga to‘xtaldi. Bu borada gapirganda, ayniqsa yurtimizda xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan e’tirof etilib, madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan qo‘lyozma asarlar soni 100 mingdan ziyodni tashkil etishi, bebaho durdonalarning katta bir qismi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida, shuningdek O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Manbalar xazinasida saqlanishini alohida ta’kidlash kerak. Yana bir muhim jihat shundaki, barcha musulmonlarning eng muqaddas kitobi – Qur’oni karimning eng qadimiy qo‘lyozma nusxasi sanalgan Usmoni Mushafi Toshkentda saqlanadi.

Mustaqil O‘zbekistonda 300 dan ortiq ilmiy tadqiqot muassasalari, ilmiy ishlab chiqarish korxonalari, innovatsiya markazlari faoliyat olib bormoqda. Hozirda “Jaholatga qarshi – ma’rifat” shiori ostida Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilmoqda. Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari respublikada sohaga oid ilmiy faoliyatni yanada rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadi. O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tarkibida Islomshunoslik va islom sivilizasiyasini o‘rganish ICESCO ning maxsus kafedrasi faoliyat olib bormoqda. Umuman olganda, bugungi kunda asrlar mobaynida islom sivilizasiyasi rivojiga katta ta’sir etgan ulkan ma’naviy merosni o‘rganish va uni yanada boyitish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Ali ibn Sino. *Al-Qonun fit-tibb.* Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyyah, 1993.
2. Ahmad Donish. *Nafahat ul-uns.* – Toshkent: Fan nashriyoti, 1989.
3. Bartold, V.V. *O‘rta Osiyoda islom tarixi.* – Moskva: Nauka, 1966.
4. Bobojonov A. Movarounnahr va islom madaniyati. – “Sharq yulduzi”, ilmiy-adabiy jurnal, 2019.

5. Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. *Al-Jome’as-Sahih (Sahih al-Buxoriy).* – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyah, 1997.
6. Olimov Sh. Movarounnahrda ilm-fan taraqqiyoti va uning islom sivilizatsiyasidagi o‘rni // O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
7. Sagdullayev, A.S., Saidov, A.H. *Islom tamadduni va O‘zbekiston.* – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2013.
8. Sultonov O‘.A. Toshkent masjidlari tarixi. – Toshkent: 2010.
9. To‘xtabaev Sh. Movarounnahr: Islom olamining ilm-fan poytaxti // Tarix va madaniyat jurnali, 2021.
10. Xayrullaev M. O‘rta Osiyoda IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyot (Uyg‘onish davri madaniyati). Fan, – Toshkent:, 1994

* * *

ERONDA SAFAVIYLAR DAVLATI TASHKIL TOPISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

После Октябрьской революции 1917 года и установления советской власти, исламская цивилизация столкнулась с беспрецедентным вызовом. С 1920-х годов проводилась политика государственного атеизма, которая была направлена на полное искоренение религии. Были разрушены и закрыты тысячи мечетей, медресе и мавзолеев, конфисковано имущество вакфов (религиозных фондов), а религиозные деятели подвергались репрессиям. Казалось, что цивилизация обречена. Однако ислам не исчез. Он ушёл в «тень», сохранившись в самых основах общественной жизни. Семейные обряды, такие как обрезание (суннат), никах (мусульманский брак) и похоронные ритуалы, продолжали соблюдаться. Народная культура, включая суфийские практики и почитание святых мест (мазаров), стала убежищем для религиозности. Нелегальные медресе, где знания передавались из уст в уста, поддерживали

[180] https://shosh.uz/mutafakkirlar-mahmud-zamahshariy-1075-1144/

преемственность религиозного образования. Исламская цивилизация в Центральной Азии доказала свою жизнеспособность, адаптируясь к жестоким условиям и сохраняясь на бытовом и культурном уровне, что стало фундаментом для её последующего возрождения.

С обретением независимости в 1991 году начался процесс религиозного возрождения. Были восстановлены тысячи мечетей, возобновилось религиозное образование, а ислам вернул себе статус одного из ключевых факторов национальной идентичности. Тем не менее, этот процесс столкнулся с новыми вызовами, такими как религиозный экстремизм, и необходимостью государственного регулирования для сохранения баланса между традицией и современностью. В этом контексте особую роль играет восстановление и развитие религиозного образования. С 2017 года в различных регионах страны были открыты научные школы, носящие имена великих предков: школа калама имени Имама Матуриди в Самарканде, школа акъиды имени Абу Муина Насафи в Кашкадарье, школа хадисов при научном центре Имама Бухари и школа тасаввуфа имени Бахауддина Накшбанда в Бухаре, а также школа исламского права имени Бурхануддина Маргинани в Фергане[181]. В рамках мер по возрождению духовного наследия, 15 февраля 2018 года было принято постановление Кабинета Министров «О мерах по эффективной организации работ по благоустройству священных мест, зияратгохов, мечетей и кладбищ». В результате, только в 2019 году было открыто 10 новых мечетей, что довело их общее число до 2066. Кроме того, 30 мечетей[182] были отстроены заново, а 60 прошли капитальный ремонт.

Исламская цивилизация в Центральной Азии — это уникальный феномен, который не только сформировал духовный и культурный облик региона, но и внес неоценимый вклад в мировую сокровищницу знаний. От Золотого века науки и философии до возрождения в современности, ислам остаётся живым и развивающимся явлением. Изучение этого наследия позволяет глубже понять не только историческую динамику региона, но и его современное положение на пересечении культурных и политических процессов, а также его роль в формировании будущего.

Список использованной литературы:

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Наука, 1963.

2. Наср С.Х. Исламская философия с её истоков до наших дней. – М.: Восточная литература, 2002.

3. Ходжаев А. История ислама в Средней Азии. – Ташкент: Университет, 2010.

4. Бобоев Х. Центральная Азия в исламской цивилизации. – Самарканд: СамГУ, 2018.

5. https://shosh.uz/mutafakkirlar-mahmud-zamahshariy-1075-1144/

6.http://muslim.uz/index.php/maqolalar/item/6828-az-zamakhsharij-arablarga-arab-tilini-rgatgan-olim

7. http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/3349/mod_resource/content/0/DINSHU NOS LIik %20 OQUV%20 QOLLANMA.pdf

8. https://masjid.uz/

* * *

[181] http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/3349/mod_resource/content/0/DINSHUNOSLIik%20OQU20QOLLANMA.pdf
[182] https://masjid.uz/

ҲАДИС ИЛМИ ТАРИХИДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ

THE ROLE OF WOMEN IN THE HISTORY OF HADITH SCHOLARSHIP

Дониёр Муратов,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
Исломшунослик ва ислом цивилизациясини
ўрганиш ICESCO кафедраси доценти,
тарих фанлари номзоди

Аёлларнинг ҳадисларни тарқатишда қилган хизматларини беқиёс. Аёллар ҳадисга оид ривоятларни ёд олиш ва уларни ўргатишда ҳамда ҳадис қоидалари ҳамда уларнинг қимматини мусулмон жамиятида аниқлашда муҳим ўрин эгаллаганлар. Улар ислом илмлари таълими, даъват ишларида ўзларининг фаоллигини намоён қилганлар.

Пайғамбар (с.а.в.)нинг мажлислари фақат эркаклардан иборат бўлмай, балки кўпгина аёллар ҳам мажлисда ҳозир бўлиб ҳадисларни эшитганлар. Ҳайит намози каби оммавий тадбир ёки байрамларда аёллар жамоат бўлиб Пайғамбар (с.а.в.) маърузаларини эшитиш учун масжидга чиққанлар. Пайғамбар (с.а.в.) ҳайит куни олдинги сафдаги эркакларга хутба қилиб бўлганларидан сўнг орқа тарафга, яъни аёллар томонига ўтиб сўзлар эдилар. Ваъз-насиҳат хутбалари эркакларга кўп бўлар, аёллар эса орқа қаторда аксарият ҳолларда эшитмасдан қолардилар. Сўнг улар Пайғамбар (с.а.в.)га вакиллар юбориб, аёлларга ҳам бир кунни ажратиб хутба қилишларини талаб қилишди. Мана шундан сўнг аёлларга алоҳида хутба ўқиладиган бўлган.

Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг аёллар билан бундай илмий мажлислари кам бўлгани учун, аёллар кўп шаръий масалаларни очиқ-ойдин билишга қизиқиб, у кишининг ҳузурларига бир неча аёлни элчи тариқасида юборар, улар керакли зарур масалаларга ойдинлик киритиб, яхши тушуниб бошқаларга ҳам тушунтириб берардилар. Баъзи аёллар эса уларнинг жавобларига қониқмасдан ўзлари Расулуллоҳ (с.а.в.) ҳузурларига борардилар, илм ўрганишда аёлларга хос бўлган баъзи масалаларни очиқ-ойдин сўрардилар.

Бироқ бу каби савол-жавобларнинг барчаси ҳам хоссатан аёллар масалаларига бағишланмаган бўлиб, кўпинча ижтимоий-ахлоқий мавзуда бўлар эди. Айниқса, аёллар ўзларига тегишли бўлган нарсаларни уялмасдан, «динда (илм олишда) ҳаё йўқ», деган қоидага асосланиб, «Эй Расулуллоҳ (с.а.в.) Аллоҳ ҳақиқатни айтишдан ҳаё қилмайди» (Имом Бухорий ривояти) дер эдилар ва ўз ҳожатларини айтиб, сўраб масаланинг жавобини билиб олар эдилар. Саҳобия аёлларнинг кўпчилиги илм олиш йўлида ғайратли эдилар ва уларга ҳеч нарса бу йўлда тўсқинлик қилмасди. Ҳатто мана шундай журъатли аёллар ҳақида Оиша (рз.а.): «Ансорларнинг аёллари қандай яхши, дин илмини ўрганишда улар ҳаё қилиб ўтирмайдилар», деб мақтов сўзларини айтганлар.

Шунингдек, Расулуллоҳнинг аёллари оилада у киши билан бирга бўлиб, эр-хотин орасидаги муносабатлар билан боғлиқ масалаларни ўрганганлар ва бошқаларга етказганлар, аёллар билан маслаҳатлашиб, улардаги муаммолардан бохабар бўлганлар. Айниқса, бу ишда Расулуллоҳнинг аёллари Оиша (р.а.) алоҳида ўрин тутади. У Расулуллоҳдан ўз ўткир зеҳни ва фаҳми билан зарурий масалаларни сўраб олган, ўрни келганда Расулуллоҳ билан муноқаша қилган. Қуръон оятлари ва ҳадисларни кўп ҳолларда шарҳлаб маъносини тушунтириб беришни талаб қилган. Қизиққан масалани охиригача аниқ билиб олишга интилган.

Аёллар эркаклар билан бир қаторда илмий масалаларни таҳқиқ қилишда, ҳадис ҳукмларини билишда ва илмда иштирок этганлар. Масалан, Умму Фазл бинт Ҳорис ривоят қилади: бир куни одамлар Пайғамбар (с.а.в.) билан рўза тутиш ёки ифтор қилиш масаласида ихтилоф қилишди. У Пайғамбар соллаллоҳу алайҳи васаллам ҳузурига келиб, айтди: “Бугун одамлар рўза тутиш ёки ифтор қилиш ҳақида тортишиб қолишди”. Шунда Расулуллоҳ (с.а.в.): “Мен рўза тутдим”, дедилар. Шу билан Умму Фазл бу масалани ҳал қилди.

Ибн Абу Мулайка айтади: «Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг аёллари Ойша (рз.а.) ўзи билмаган нимани эшитса, то уни батафсил билмагунича Расулуллоҳ (с.а.в.)га мурожаат қилаверар эди. Расулуллоҳ (с.а.в.): «Ким ҳисоб қилинса азобланади», дедилар. Ойша (рз.а.): «Эй Аллоҳнинг Расули, Аллоҳ таоло: «Яқинда улар енгил ҳисоб қилинур», демаганми?», деб эътироз билдирдилар. Расулуллоҳ (с.а.в.): «Бу (енгил ҳисоб қилиниши итоатли мўмин учун) обрў, аммо кимнинг ҳисоби қаттиқ қилинса, у ҳалок бўлади», деб жавоб берганлар (Имом Бухорий ривояти).

Пайғамбар (с.а.в.)дан кейин саҳобалар ғусл, ҳайз ва шунга ўхшаш нарсалар хусусида баҳс қилиб қолишса, дарҳол «мўминлар оналари», яъни Пайғамбарнинг аёллари ҳузурларига боришар ва улардан керакли жавобни олиб қайтар эдилар. Расулуллоҳ (с.а.в.)дан ҳаё қилиб масала сўрай олмаган аёллар учун эса «уммаҳот ал-муъминин» («мўминлар оналари»), яъни Пайғамбар (с.а.в.)нинг турмуш ўртоқлари устозлик қиганлар.

Аёлларнинг илмга ташналиги ва талаблари уларнинг шижоати ва ҳақиқатга интилиши билан боғлиқ эди. Шунинг учун аёллар илмий суҳбатларда иштирок этишган, фиқҳий масалаларни муҳокама қилганлар ва Пайғамбар соллаллоҳу алайҳи васалламдан ҳамда саҳобалардан илм олишга ҳаракат қилганлар. Имом Заҳабий айтади: «Ҳеч бир саҳобий аёл ёки тобеий аёлдан илмда эътиборсизлик ёки амалда сустлик ривоят қилинмаган».

Аёллар шарий манбаларни ёд олиб, уларнинг фикҳий маъноларини ўрганган, ҳадисни Пайғамбар (с.а.в.)дан қабул қилган, илм мажлисларида қатнашган ва маслаҳатларда иштирок этган. Уларнинг саъй-ҳаракатлари саҳиҳ ҳадисларни танлашда саҳобийлар ва тобеийлар қаторида алоҳида ўрин эгаллаган. Улар кўплаб саҳобийлардан ривоят қилиб, ҳадисларни тарқатишда асосий манба сифатида хизмат қилганлар.

Аёллар саҳобалар, олимлар ва буюк муҳаддислар қаторида илмга хизмат қилишган. Уларнинг сафидан Оиша бинт Талҳа, Уммул Вало бинт Саъд каби муҳаддис аёллар чиққан. Шунингдек, имом Шофеий, имом Молик ва имом Аҳмад каби муҳаддислар улардан ҳадис ривоят қилганлар. Қуръон ва ҳадисни ёдлаш, китобларни ёзишда улар алоҳида ўрин тутган.

Аёлларнинг илмдаги мақоми улуғ бўлиб, улар ҳадис, фиқҳ, Қуръон ва таълимда энг юксак даражага эришганлар. Уларнинг илмдаги саҳнаси эркаклардан кам эмасди. Улар уламоларнинг наздида катта обрўга эга эдилар.

Аёлларнинг хизмати исломнинг дастлабки асрларида ёркин намоён бўлган. Қатор манбаларда, жумладан саккизинчи, тўққизинчи ва ўнинчи асрларда, аёлларнинг илмда фаол иштирок этишлари қайд қилинган.

* * *

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI TUZILMASIDAGI QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI MUZEYIIDA DIN VAKILLARI HAQIDA

ABOUT RELIGIOUS FIGURES IN THE MUSEUM OF VICTIMS OF REPRESSION WITHIN THE STRUCTURE OF KARAKALPAK STATE UNIVERSITY

Gulistan Karamanova
Berdaq nomidagi QQDU, Arxeologiya kafedrasi professori v.b.,
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Xalqlarimizning ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy ongining oshishi, dunyoqarashining shakllanishi, o‘zligini anglashi, ma’naviy olamining boyishida, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni Vatanga, milliy qadriyatlarga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muzeylarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni beqiyosdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev, ayniqsa Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi haqida, «ushbu muzey – muzeylarning muzeyi» deb yuksak baho bergan edilar.

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 noyabr kuni «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 936-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 28 noyabrdagi 869-sonli buyrug‘i chiqarilib, unga muvofiq Qoraqalpog‘istonda muzeyni tashkil qilish Qoraqalpoq davlat universitetiga yuklandi.

Muzeyning asosiy vazifasi - bobolarimizning Vatanimiz tinchligi va ozodligi yo‘lidagi kurashi, mustabid tuzum davridagi qatag‘on siyosatining sabablari va fojiali oqibatlarini chuqur o‘rganish hamda ularni haqqoniy yoritish maqsadida muzey ekzpozitsiyasini tashkil etishdan iborat bo‘ldi[183].

Muzeyni tashkil qilish bo‘yicha Qoraqalpoq davlat universiteti rektorining 2017 yil 4 dekabrdagi №649 D/1 buyrug‘i asosida ishchi guruh tarkibi tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining 936-sonli qarorining tegishli bandlarini bajarish yuzasidan 2017 yili 6 dekabrda universitetning chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Muzey uchun 77,63 hamda 81,41 m.kv. maydonga ega ikkita xona ajratildi.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyining ochilish marosimi 2018 yil 28 avgustda bo‘lib[184], dastlabki tamoshabinlarini qabul qildi. 2021 yili muzeyga yana bitta ekspozitsiya zali, fond saqlash va muzey xodimlari uchun xonalar ajratilib, muzeyning umumiy maydoni 357,1 m.kv. maydonga yetdi[185].

Qoraqalpog‘iston tarixida sho‘rolar hukumatining o‘rnashi bilan unga qarshi kurashgan mahalliy xalq vakillari qatag‘onga uchradi. Ularning ko‘pchiligi otildi, qolganlari eldan surgun qilindi. Bu Qoraqalpog‘istonda yurgizilgan birinchi qatag‘on bo‘lsa, ikkinchi qatag‘on 1928-1930 yillari bo‘ldi. Ushbu yillarda bolsheviklar o‘rta hol dehqonlarni, ya’ni dehqonlarning eldagi o‘ziga to‘q qismini, kulak boylarni sinfiy dushman deb hisoblab, mol-mulklarini majburiy tortib olish siyosatini olib bordi. Uchinchi qatag‘on xalqimizning ma’naviy boyligini yo‘q etishga yo‘naltirildi. 1928-1930 yillarda yurtimizda lotin alifbosiga o‘tishga binoan bolsheviklar barcha arab alifbosida yozilgan

[183]Ембергенова Ж. Жаңа музей ашылды // «Қарақалпақстан жаслары». 30-август, 2018-жыл.
[184] Салтанатлы ашылыў мәресими // «Қарақалпақ университети». - № 15-16, август 2018-жыл.
[185] Кудияров А., Караманова Г., Алимбетоа А. Репрессия курбанларын еслеў музейи. – Ташкент: «METODIST NASHRIYOTI», 2023. – Б. 56.

kitob va qo‘lyozmalarni yo‘q qila boshladi. Shu bahona ulamo eshonlar qamoqqa olindi. Masalan Iniyat eshon Bahawatdinov, Xalila oxun Atawillaev, Paxratdin eshon Munaydarov, Tansiq xo‘ja Orumbaev, Karimberdi oxun Nurillaevlar RSFSR jinoyat kodeksining 58-moddasi 2-bo‘limining jinoyat belgilari bilan ayblanib, eng oliy jazo-otish jazosiga hukm etilgan.

Bu siyosat, musulmon xalqlarining chuqur tafakkurli va siyosiy faol vakillarini yo‘q qilishga yo‘naltirilgan edi[186].

Ommaviy qatag‘on yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 20 mingdan ortiq azamatlar jazoga tortilgan bo‘lsa, ularning yarmiga yaqini eshon-ulamolar, diniy savodli kishilar, er egalari, boylar, qozi-kalonlar bilan imom-mo‘llalar tashkil qiladi[187].

To‘rtinchi qatag‘on 1932-1933-yillarda bo‘ldi. Bu «paxta masalasiga», ya’ni Qoraqalpog‘istonda dehqonlarni avvalgi an’anaviy ekinlari bo‘lgan bug‘doy, jo‘hori va boshqa ekinlarni ekishni to‘qtatib, uning o‘rniga ommaviy paxta ekishga majburlashga bog‘liq o‘tkazildi. Beshinchi qatag‘on 1934-1936 yillarda ommaviy kolxozlashtirish siyosatiga bog‘liq yuritilsa, oltinchi qatag‘on 1937-1938 yillarda bolsheviklarning trotskiychil va buxarinchilarni halq dushmani sifatida yo‘qotish siyosatiga bog‘liq o‘tdi. Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng davom etgan ettinchi qatag‘onda birinchi navbatda urushda asirga olinib, yurtga qaytib kelganlar, ikkinchi navbatda bir qator «normasini bajarmagan» deb ayblangan minglab «kolxozchilar» Sibirga surgunga haydaldi.

Sho‘ro hukumatining qayta qurish davrida ham qatag‘on choralari amalga oshirildi. Bu sakkizinchi qatag‘on 80-yillarda Qoraqalpog‘istonda «Paxta ishiga» binoan bir necha yuzlagan odamlar gunohi bo‘lish - bo‘lmasligiga qaramasdan jazoga tortildi.

Muzeyda yo‘qorida keltirilgan qatag‘on davrlariga oid materiallar to‘plangan. Muzey ekspozitsiyasidan joy olgan nafaqat 30-yillarda, balki urushdan keying davrlarda ham qatag‘on qilingan din vakillari taqdirlari haqida adabiyotlar o‘rganilib[188], bugungi kunda ham ma’lumotlar yig‘ilmoqda.

1929 yili Kegeyli, Chimboy va Taxtako‘pir tumanlarida bug‘doy mahsulotlarini dehqonlardan yig‘ib olish jarayonida sovet hukumatining noto‘g‘ri agrar siyosati qurolli to‘qnashuvlarga olib keldi. Bu qo‘zg‘olonning siyosiy yo‘lboshchilari Abdujalil maqsum Ismetullayev, Karimberdi oxun Nurillayev, Barliqboy Nurimovlar edi. Muzey ekspeditsiyasi davomida Chimboy tumani Kengash QFY aholisi Orinbay Sulaymanovdan 1950-yillarda diniy ulamolarni quvg‘in qilish paytida o‘zga yurtlarga ketishga majbur bo‘lgan mahalliy insonlar haqida ma’lumotlar, Tazg‘ara QFY aholisi Abdujalil maqsum Ismetullayevning avlodlari 1926 yili tug‘ilgan Abdireymov Jamal, 1927 yili tug‘ilgan Abdireymov Ziratdindan 1930-yillardagi voqealar haqida o‘zining otasidan eshitganlarini va o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlarini, Abdikerim oxunning bolalari o‘qigan masjid qoldiqlarining suratlari olindi. 1928-1929-yillarga oid arab alifbosida yozilgan kitob, qo‘lyozmalar Hamid Abulfayz o‘g‘lidan (Purxon maqsumning ukasi Almen so‘fining farzandi) muzey fondiga olindi.

Nukus tumanida yashovchi Sharipov Maqsudning 1930-yillari diniy ulamolarni quvg‘in qilish paytida chet elga chiqib ketgan ota-bobolari Yahyo va Bekbosinning yozgan xatlari, «Taqirko‘l»

---

[186] Изимбетова Г.Т. Политика советской власти в Каракалпакстане в отношении духовенства// Вестник ККО АН РУ. - №1. – Нукус, 1999. – С. 40.

[187] Бабашев Ш. Дөҳмет дегиши. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2009. – Б. 321.

[188] Әбдимуратов Т. Репрессияға ушыраған уламалар. - Нөкис: «Қарақалпақстан», 1992. - 84 б.; Өтеўлиев Ө. Хүждан ҳәм хүким. - Нөкис: «Қарақалпақстан», 1992. - 128 б.; Usha muallif. Сәлмен ийшан ҳәм басқалар. - Нөкис: «Qaraqalpaqstan», 2023. – 64 бет.; Дәўлетмуратов Д. Сәлмен ийшан. - Нөкис: Қарақалпақстан, 2008. - 32 б.; Дәўлетмуратов Д. Нурымбет ахун. - Нөкис: «Qaraqalpaqstan», 2015. - 60 б.; Дәўлетмуратов А. Ҳәр заманға бир заман. - Нөкис, «Қарақалпақстан», 2005. - 380 б.; Үсенов Е. Ийшан қала. Ғайры журтлардағы қарақалпаклар. - Нөкис: «Қарақалпақстан», 1992. - 48 б.; Бабашев Ш. Өлимге хүким етилген Абдижамий ахун ақланды. - Нөкис, 2011. - 24 б.; Қощанов Б.А., Изимбетова Г.Т., Зинатдинов Н.К. Политика советской власти в отношении мусульманского духовенства в Каракалпакстане (1917-1941 гг.). - Нукус: «Ilimpaz». 2021. - 148 с.

QFY hududida joylashgan «Qaroqchi qum» qabristonidan quvg‘in davridan saqlanib qolgan eski arab tilidagi kitoblar muzey fondiga olindi[189].

1950-yillarda yana ulamolarni ta’qib qilish boshlandi. Ushbu davrda ulamolardan Salmen eshon Kamalov, Bakir eshon Razov, Purxan oxun Qayipnazarov, Niyazimbet oxun Mamutov, Qalimbet oxun Utemuratov, Allanazar oxun Qosnazarovlar “Germaniya fashistlari va Yaponiya josuslari” deb ayblanib surgun azoblarini boshidan o‘tkazgan[190].

Salmen eshon Kamalov qoraqalpoq xalqi orasida hurmat qozongan ulamolardan bo‘lgan. S.Kamalov 1884 yili Chimboy tumanida tug‘ilgan. Chimboydagi “Xon” masjidining imom xatibi bo‘lib ishlagan. 1943-yil 31-iyulda tashkil etilgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari Diniy boshqarmasi - SADUMning Qoraqalpog‘istondagi vakili bo‘lgan. Biroq bu lavozim 1947-yilda bekor qilinadi[191]. Salmen eshon Kamalov urushdan oldin bir necha bor hibsga olingan, 1951-yil 11-aprelda uchinchi marta hibsga olingan va O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 58, 66 va 67-moddalari, 2-qismi bo‘yicha ayblangan va mulkni musodara qilish bilan otuvga hukm qilingan. Biroq, SSSR Oliy sudining 1952 yil 31 maydagi qarori bilan hukm 25 yilga ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirildi. S.Kamalov 1952 yilda tergov vaqtida qamoqxonada vafot etadi. 1958 yil 1 aprelda oqlandi. Muzeyda bu insonga tegishli babaho hujjatlar va suratlar bo‘lib, ularni 2018 yili Salmen eshonning nabirasi Abdiqadir Abdug‘abbarov muzeyga topshirgan.

Purxan oxun Qayipnazarov 1928 yili ta’qiblar sababli Eronga qochib o‘tishga muvaffaq bo‘ladi. Biroq, u vataniga deportatsiya qilingan va 1951 yil avgustgacha kolxozchi bo‘lib ishlagan. 1951 yil 9 avgust kuni hibsga olingan va 1952 yil 10 aprel kuni, u mol-mulkini musodara qilish bilan «otuvga» hukm qilingan. Ko‘plab murojaatlar va shikoyatlardan so‘ng uning ishi ko‘rib chiqilib, 1958 yil 1 aprelda to‘liq oqlangan. U 1977 yili Qorao‘zak tumanida olamdan o‘tgan. Bu insonga tegishli buyumlar uning o‘g‘li Purxanov Miratdin va nabirasi G‘ayratdinov Nuratdin tomonidan 2020 yilda muzeyga berilgan[192]. Buyumlar orasida 1333 yilga oid arab tilidagi kitob, Purxan oxunning otasi Qayipnazarga tegishli “muhr” muzeyning bebaho eksponatlariga aylandi.

Qalimbet oxun Utemuratov 1890 yili Chimboy tumanida tug‘ilgan. U Buxoro madrasasini bitirgan va 1951 yilgacha Chimboydagi masjidning imom mo‘llasi bo‘lgan. U “xalq dushmani” atalib, 3 marta qatag‘onga uchradi. Dastlab 1930 yili, ikkinchi marta 1938 yilda, uchinchi marta 1951 yil 2 fevralda qamoqqa olingan. Qalimbet axun 1956 yilda to‘liq oqlangan. Tabarruk bu inson 100 yoshdan oshib, 1991 yilda olamdan o‘tgan. 2019 yili Qalimbet oxunning o‘g‘li Qalimbetov Alimjan tomonidan otasiga tegishli bo‘lgan mexanik soat, pichoq kabi butumlar va hujjatlar topshirilgan[193].

Tabarruk insonlar hayotini o‘rganish, ular haqida ma’lumotlar berib borish, bukletlar ishlash, anjumanlar o‘tkazish kabi ishlar muzeyning ibrat maktabi sifatidagi ahamiyatini, tinchlik qadriyatimizni mustahkamlashga xizmat qiladi.

* * *

[189] Алимбетов А. Илимий сапар // «Қарақалпақ университети». - № 4 (444) февраль, 2020-жыл.

[190] Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX әсирдиң екинши ярымынан XXI әсирге шекем. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2003. – Б. 245.

[191] Ramatullaev M.A. Qoraqalpog‘istonda sovet hukumatining 1943-1964-yillardagi islom diniga qarshi olib borgan siyosati.: Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus, 2024. – B. 15.

[192] Уснатдинова Н. Жазықсыз жазаланған уламалар //“Қарақалпақ университети”. - №16 (504) август, 2022-жыл..

[193] Кудияров А., Караманова Г., Алимбетоа А. Репрессия курбанларын еслеў музейи. – Ташкент: «METODIST NASHRIYOTI», 2023. – Б. 70.

ТРАНСФОРМАЦИЯ И СТАНОВЛЕНИЕ ИСЛАМСКИХ НАУК В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

THE TRANSFORMATION AND FORMATION OF ISLAMIC SCIENCES IN CENTRAL ASIA

Сагдиев Хабибулло
доцент кафедры Исламоведение и ICESCO по изучению исламской цивилизации
Международная академия исламоведения
Узбекистана, PhD. eagle75@mail.ru
Узбекистан, Ташкент, 100011, А.Кадири, 11.

История исламских наук в Центральной Азии представляет собой один из наиболее ярких примеров долговременной интеллектуальной традиции в исламском мире. Уже в X–XI вв. регион выдвигает целую плеяду мыслителей и ученых — от богословов и правоведов до математиков и астрономов, чьи труды повлияли на формирование классического корпуса исламского знания. Под «исламскими науками» понимается исторически сложившийся комплекс дисциплин, связанных с религиозным знанием (усулу-д-дин, фикх, усулу-л-фикх, науки хадисов, науки Корана, тафсир, тасаввуф), а также взаимодействующие с ними области — философия, логика, филология, математико-астрономические исследования как часть интеллектуальной культуры региона.

Ранняя исламизация Мавераннахра сопровождалась включением региона в трансрегиональные сети учености. Уже в IX–X вв. формируются центры по наукам хадиса, фикха и калама в Бухаре, Самарканде, Термезе и Хорезме. «Сахих» имама Мухаммада ал-Бухари (ум. 870) стала символом авторитета школы хадиса региона, а труды ат-Тирмизи (ум. 892) закрепили репутацию местных мухаддисов. Параллельно развивается ханафитская правовая традиция, опирающаяся на наследие Ирака, но получившая в Центральной Азии «вторую родину» благодаря деятельности таких авторов, как ал-Маргинани (ум. 1197), чья «ал-Хидайа» позднее стала ядром учебного канона медресе. Ключевым феноменом этого периода становится становление матуридитской школы калама: труд «Китабу-т-таухид» Абу Мансура ал-Матуриди (ум. 944) и его коранический комментарий «Та›вилат ахли-с-сунна» заложили основы теологической доктрины, сочетающей рациональные аргументы с авторитетом откровения[194].

В X–XII вв. Центральная Азия выступает важнейшим полюсом богословско-правовой мысли. Матуридитская теология получает дальнейшее развитие в трудах Абу-л-Йусра ал-Баздави (ум. 1099) и Абу-л-Муина ан-Насафи (ум. 1114), утверждая рационально-апологетическую линию калама. В праве оформляется редакция ханафитской доктрины, синтезирующая иракское наследие с местными правовыми практиками; в учебный оборот входят «Канзу-д-дакаик» ан-Насафи, «ал-Викайа» Тадж аш-Шариа, комментарии к «ал-Хидайе». Филологические и логические дисциплины (наху, сарф, баляга, мантик) служили пропедевтикой к богословско-правовым наукам; широкое распространение получили учебники по грамматике и логике, позволяющие стандартизировать обучение.

[194] Мухаммад ибн Исмаил ал-Бухари. Сахиху-л-Бухари. – Дамаск: Дар ибн Касир, 2002; Мухаммад ибн Иса ат-Тирмизи. Ал-Джами`у-л-кабир. – Бейрут: Дару-л-гарби-л-ислами, 1996; Али ибн Абу Бакр ал-Маргинани. Ал-Хидайа. – Медина: Дару-с-сирадж, 2019; Абу Мансур ал-Матуриди. Китабу-т-таухид. – Бейрут: Дар Садр, 2001; Абу Мансур ал-Матуриди. Тавилат ахли-с-сунна. – Бейрут: Дару-л-кутуби-л-илмийа, 2005.

Монгольское завоевание не прервало интеллектуальные линии, а к эпохе Тимуридов наблюдается новый подъем. Самарканд становится астрономо-математическим центром мирового уровня: обсерватория и «Зидж» Улугбека (ум. 1449), работы Гиясуддина ал-Каши (ум. 1429) демонстрируют высокий уровень математической культуры региона. Одновременно усиливается роль суфийских братств — прежде всего, Накшбандийа, связанная с Бухарой и именем Бахауддина Накшбанда (ум. 1389). Суфийские сети становились каналами распространения знания и социализации ученых, способствуя устойчивости институций в условиях политических перемен.

В XVI–XIX вв. в государствах Бухары, Хивы и Коканда формируется устойчивая сеть медресе, где ядром учебных программ оставались ханафитский фикх и матуридитский калам, а также языкознание и логика. Учебный «канон» включал «ал-Хидайю», «Шарх ал-Викая», «Канзу-д-дакаик», «Манар» по усулу-л-фикх, «Аджуррумийа» и «Кафийа» по грамматике, трактаты по логике («Исагаджи» и комментарии к нему). Состав канона и принцип иерархии дисциплин обеспечивали сопоставимость подготовки выпускников разных центров.

Во второй половине XIX – начале XX вв. разворачивается джадидизм — движение за обновление мусульманского образования и общественной жизни, связанное с именами Махмудхаджи Бехбуди, Абдурауфа Фитрата, Абдуллы Авлани и др. Джадиды стремились сочетать классический исламский канон с современными дисциплинами и новыми педагогическими методами («усул джадид»), расширяя горизонты исламских наук и их социальную роль. Советский период привел к резкому сокращению религиозных институций, однако часть традиции сохранялась в подпольных кружках и в официальном Ташкентском исламском институте, поддерживавшем минимальную преемственность.

После 1991 г. наблюдается институциональное возрождение исламских наук: создаются профильные учебные заведения и научно-исследовательские центры, активизируется издание классических текстов и подготовка критических изданий. Особую роль сыграли центры по изучению наследия имамов Бухари и Тирмизи, матуридитской школы, а также проекты по каталогизации рукописей и цифровизации фондов. Современная повестка включает методологическую рефлексию над региональными особенностями суннитской теологии и права, роль суфийских сетей в истории знания, а также интеграцию исламской учености в международные исследовательские пространства.

Современная исследовательская повестка ставит несколько задач: подготовка критических изданий ключевых текстов матуридитской и ханафитской традиции по рукописям Центральной Азии; реконструкция учебных программ региональных ученых сетей; включение рукописного наследия в цифровые корпусы с разметкой; аналитика взаимодействия религиозных дисциплин с естественно-математическими науками в разные периоды; исследование трансрегиональных связей (Индия, Османский мир, Иран) и их влияния на локальные каноны. Решение этих задач позволит точнее увидеть специфику центральноазиатских исламских наук и их вклад в общую картину интеллектуальной истории ислама.

Суммируя приведенные информации, можно заключить, что история исламских наук в Центральной Азии — это история устойчивости и инновации, локальности и открытости. Формирование регионального «профиля» — матуридитского калама и ханафитского права — сопровождалось постоянными контактами с иными центрами исламского мира и развитием вспомогательных дисциплин. Учебные каноны медресе, суфийские сети и институциональные реформы обеспечивали преемственность знания на протяжении столетий. Постсоветское возрождение и современная институционализация исследований открывают новые перспективы для комплексного изучения и актуализации богатейшего наследия региона.

* * *

ҒАРБ ВА ШАРҚ ИРРАЦИОНАЛ ФАЛСАФАСИДА ИЖОД МАНБАЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SOURCES OF CREATIVITY IN WESTERN AND EASTERN RATIONAL PHILOSOPHY

Кабулниязова Гулчеҳра Тошпўлатовна,
Ўзму ижтимоий фанлар факултети,
“Фалсафа” кафедраси проф., ф.ф.д. Тел: (90) 799 93 83.

Илмий-техник тараққиётнинг замонавий ривожланиши инсониятнинг ҳаёти ва соғлиғига хавф туғдирадиган кутилмаган ҳодисаларни вужудга келтирди. Кўплаб олдиндан айтиб бўлмайдиган воқеаларга тўла бу янги вазиятда баъзи Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг бир қатор ўхшаш жиҳатларига эга бўлган муайян тасаввурларига мурожаат қилиш уринлидир. Бундай ғояларга табиатнинг руҳий характерга эга эканлиги ғояси, модда ва руҳнинг бирлиги ва ўзаро қоришиб кетиши, онг муаммоси киради.

Ушбу масалани таҳлил қилиш учун биз машҳур немис файласуфи Фридрих Ницше ва ҳинд мутафаккири Шри Ауробиндо Гхошларнинг ижодкорлик мавзусидаги қарашларини таҳлил қиламиз.

Европа маданиятининг ривожланиши Ницше фикрига кўра, инсоннинг ижодий қобилиятларини сусайтирадиган, унинг руҳий табиатини бузадиган цивилизациянинг пайдо бўлишига олиб келади. Ницше маданий ривожланиш даврида инсон ҳали табиат билан боғлиқлигини йўқотмаганини ва шу сабабли ижодий мавжудот эканини таъкидлаган. Ницшенинг ижодида табиат руҳий кучга эга тирик организм сифатида тасвирланади, бу куч инсонда ҳам мавжуд бўлиб, у табиатни руҳга эга тирик мавжудот сифатида ҳис қилиб, идрок этади, бу эса онгни белгилайди. Табиатнинг бундай пантеистик тушуниши Ницшенинг машҳур “Хукмронликка интилиш иродаси” асарида мавжуд, унда ибтидоий ўрмон дарахтлари ҳам ҳукмронликка интилиш иродасига эга эканини ёзади[195]. Баъзи муаллифлар бу асарни нотўғри талқин қилиб, унда сиёсий фалсафани кўрадилар. Ҳолбуки, бу асарда Ницше Ғарб фалсафаси тарихининг рационал табиатини батафсил танқид қилади. Антик фалсафани, хусусан Милет мактаби таълимотини кўриб чиқиб, уни модда ва руҳ бирлигини тасдиқловчи қадимги натурфалсафий таълимот сифатида характерлайди. Кейинчалик фалсафий пантеизм Италия гуманизми даврида Николай Кузанский ва Джордано Брунонинг натурфалсафий пантеизмида ривожланади.

XX асрнинг бошларида илм-фан ва техниканинг жадал ривожланиши натижасида инсон табиатни тирик биологик организм сифатида тушуниш ва мулоҳаза қилиш қобилиятини йўқотади, табиат энди унга фақат моддий эҳтиёжларини қондириш воситасига айланади. Руҳий оламда инқироз юзага келади, бу оламда эволюция ва тараққиёт, аслида, фақат моддий-техник ривожланиш билан тенглаштирилади[196]. Замонавий инсоннинг рационал онгида табиат онгга эга тирик мавжудот бўлишдан тўхтайди. Табиатга бундай механик, руҳсиз муносабатнинг натижаси инсон онгининг роботлашуви, фикрлаш жараёнини инсон ақли томонидан ишлаб чиқилган стереотиплар ва шаблонларнинг тор доирасига қамаб қўйилишига олиб келади, бу ақл ўзининг интуитив психик табиатидан узилиб чиққан. Инсон онгида уйғун

[195] Ницше, Фридрих. *Воля к власти. Посмертные афоризмы*. – Минск: Попурри, 1999. – 35 с.
[196] Карл, Ясперс. Всемирная история философии. – Санкт-Петербург: Наука, 2000. – 272 с.

равишда бирлашиши керак бўлган интуиция ва интеллект бу бирликни йўқотади, натижада интеллект инсон онгининг бошқарувчи ва назорат қилувчи кучига айланади. Сусайган ва сўнган интуиция инсоннинг психик ҳаётининг онгсиз соҳасига ўтади ва фақат баъзан унинг чуқурликларидан кўтарилиб, ёркин чақмоқдек ёниб туради. Тирик табиатдан узилган ва руҳ билан боғлиқлигини йўқотган инсон онги уни жамиятнинг ижтимоий механизмининг муруватига айлантиради. Цивилизация оламига мансуб инсон ўзининг ҳақиқий моҳиятини яширадиган кўплаб ранго-ранг ниқобларни тақиб юради.

«Дарҳақиқат, сизлар, замондошларим, ўз юзларингиздан кўра яхшироқ ниқоб тақиб юра олмас эдингизлар! Сизларни ким – таниб билар эди!»

Ўтмиш белгилари билан ёзилган, бу белгилар устидан эса янги белгилар билан бўялган – шундай қилиб, сизлар барча шарҳловчилардан яшириндиз!

Агар ҳатто ички дунёингиз бўлса ҳам, ким ишонар эдики, сизларда ички дунё бор. Сизлар бўёқлардан бўялган ва ёпиштирилган парчалардан яратилгандек кўринасиз. Барча асрлар ва халқлар сизларнинг пардаларингиз остидан ранг-баранг холатда кўзга ташланади; барча одатлар ва эътиқодлар сизларнинг ишораларингизда ранг-баранг тилларда сўзлайди.

Агар кимдир сизларни пардалар, мантиялар, бўёқлар ва ишораларингиздан озод қилса, унда ҳам қушларни қўрқитиш учун етарлича бўлар эди.

Дарҳақиқат, мен ўзим бир марта сизларни яланғоч ва бўёқсиз кўрган ва қўрққан қушман ва бу ўлик мурда менга муҳаббат ишораларини бергач, мен учиб кетдим[197].

Ницшенинг аълоинсони замонавий цивилизациянинг маҳсули бўлган инсондан бутунлай фарқ қилувчи бошқача онгга эга. Ницшенинг аълоинсони қадим замонларда мавжуд бўлган, ўша пайтда инсоннинг руҳий табиати тоғлар, дарёлар ва денгизларни ҳаракатга келтирувчи космик руҳ табиати билан бирликда эди. Ирода руҳнинг етакчи кучи сифатида намоён бўлади, бу иродага эга бўлган руҳ ўзи устидан ҳукмронлик қилади ва барча мавжудотларда намоён бўлиб, уларга ҳаётий куч, ижодий илҳом бағишлайди. Инсон жамиятининг ривожланиши бу руҳий иродани сусайтиради, унинг кучи ва энергиясини инсоннинг интеллектуал фаолиятига ўтказади. Инсон ақлининг ривожланиши парадоксал вазиятга олиб келди: бир томондан, ақл инсонга табиий объектларни эгаллаш, табиий кучларни ўз утилитар манфаатлари учун ишлатишда кўрилмаган имкониятлар ва кучлар берди, лекин бошқа томондан, бу инсоннинг руҳий иродасини сусайтирди, уни ўзининг техник “қўлтиқ таёқлари”га жуда қарам қилди ва глобал ахборот тизими матрицасига қамаб қўйди. Бу жараён Европа халқларининг ижтимоий ривожланишида энг юқори даражага етди, Ницше фикрига кўра, бу келажакда уларни руҳий таназзулга олиб келади.

Бундай фикрларни биз Гхош ижодида ҳам учратамиз.

Россиялик файласуф Костюченко Гхош ижодига бағишланган тадқиқотида шундай ёзади: «Шри Ауробиндо учун инсон – ўтиш даври мавжудотидир. Эволюция жараёнидаги энг юқори босқич, унинг кулминацияси ва ғалабали якуни – олий инсон, яъни «гностик мавжудот»дир. Бу ерда Шри Ауробиндо (бутун классик ҳинд анъанасида бўлгани каби) инсоннинг энг олий мақсади руҳий озодликка (муктига) эришиш деб ҳисоблайди. Лекин бу – ер юзи оламидан чиқиб кетиш эмас. Бу – унинг ўзгаришидир. Бундай ўзгариш жоҳилликни (авидья) бутунлай енгиш натижасида мумкин бўлади. Бу эса (Шри Ауробиндонинг инсон концепциясига кўра) уч хил ўзгаришни талаб қилади: (И) «психик» ўзгариш, бу жараёнда кичик ташқи «мен» (эго)дан ҳақиқий ва чуқур «Мен»га ўтиш содир бўлади, бу «Мен» индивидуал ҳаётнинг барча жиҳатларини тартибга солувчи ва уларни ўзига бўйсундирувчи марказ сифатида хизмат қилади; (ИИ) «руҳий» ўзгариш – юқорида зикр қилинган олий онг поғонаси орқали мавжудликнинг юксак принципларига кўтарилиш, бу поғона Олий Ақлгача чўзилади; ва

[197] Ницше, Фридрих. *Так говорил Заратустра. Книга для всех и ни для кого*. – Минск: Интербук, 1990. – 128 с.

ниҳоят, (ИИИ) «супраментал» ўзгариш – Олий Ақлнинг мавжудликнинг пастки соҳасига тушиши, инсон ўзини ва табиатни ўзгартирувчи мавжудотдир»[198].

Ауробиндо Гхош шунингдек, ақлий ривожланиш Европа халқлари маданиятида энг юқори даражага етганини, бу эса уларнинг табиатида космик руҳ кучининг сўнишига олиб келаётганини таъкидлар эди. Бу сўнишга даво сифатида Гхош медитация санъатини, эътиборни жамлаш, кузатиш ва мулоҳаза қилишни кўрди. Интеграл йога асосчиси бўлган Гхош коинотдан пастга қараб харакат қилаётган руҳ кучи, «Шакти» деб аталган куч ҳақида таълимот ишлаб чиқди. Ницше эса индивидуал ирода ҳақидаги таълимотни марказга қўйган фалсафани яратди, бу ирода космик табиатга эга куч сифатида тасвирланади. Агар Ғарб фалсафаси тарихида руҳ моддий дунёдан, моддадан ажратиб қўйилган бўлса, Ницше кўп йиллардан сўнг биринчи марта руҳ ва модда бирлиги ҳақида таълимотни илгари суради. Ғарб фалсафаси арсеналига яна бир бор ҳамиша ёш, сўнмас Шарқ пантеизм таълимоти қайтиб келди.

Шри Ауробиндо инсонни макрокосмоснинг барча сирлари мужассам бўлган микрокосмос сифатида кўради. Унинг йога амалиёти ақлнинг сукути ёрдамида инсон руҳининг илоҳий космик руҳга юксалиш жараёнига ўтишни, сўнгра илоҳий руҳнинг инсон онгига тушишини амалга оширади, бу эса онгни ўзгартириб, уни супраментал даражага кўтаради.

Шундай қилиб, супраментал онгнинг энг муҳим элементлари бу ранг гаммаларини кўриш ва спонтан-образли хотирадир. Спонтан-образли хотира ҳақида Анри Бергсон каби файласуфлар, шунингдек, Наджмиддин Кубро ва Жалолиддин Руми каби Шарқ мутафаккирлари ёзган. «Анри Бергсон ижодида спонтан-образли хотира онгсизлик соҳасида жойлашган бўлиб, тўғридан-тўғри руҳ билан боғлиқдир. Сўфийликда эса интуитив ақл ёки «ақли кул» ёрдамида, руҳ кучидан фойдаланиб, сўфийлар «канз ул асрор» деб атаган сирлар хазинасини очиш мумкин. Бу образлар, рамзлар ва аломатлар хазинаси бўлиб, у оламдаги барча нарса ва ҳодисаларнинг яширин моҳиятини тушунишга ёрдам беради»[199].

Шри Ауробиндо Гхошнинг йога фалсафасида супраментал онг бу руҳ фаолияти орқали намоён бўладиган космик онгдир.

Шарқ файласуфлари ва мистиклари кўпинча медитация ҳолатида спонтан-образли хотира даражасига эришиб, ўзларининг фалсафий асарларини шеър ва поэма шаклида яратганлар, бу хусусан Ҳиндистон файласуфлари ва йогинларига хос эди.

Ишлатилган адабиётлар рўйхати

1. Ницше, Фридрих. *Воля к власти. Посмертные афоризмы*. – Минск: Попурри, 1999. – 35 с.

2. Карл, Ясперс. Всемирная история философии. – Санкт-Петербург: Наука, 2000. – 272 с.

3. Ницше, Фридрих. *Так говорил Заратустра. Книга для всех и ни для кого*. – Минск: Интербук, 1990. – 128 с.

4. Владислав, Костюченко. *Шри Ауробиндо. Многообразие наследия и единство мысли.* – Санкт-Петербург: «Адити», 1998. – 13 с.

5. Гульчехра, Кабулниязова. Спонтанно-образная память в творчестве Анри Бергсона и в суфизме (сравнительный анализ). *Вопросы философии.* – 2022. – № 12. – 163 с.

* * *

[198] Владислав, Костюченко. *Шри Ауробиндо. Многообразие наследия и единство мысли.* – Санкт-Петербург: «Адити», 1998. – 13 с.

[199] Гульчехра, Кабулниязова. Спонтанно-образная память в творчестве Анри Бергсона и в суфизме (сравнительный анализ). *Вопросы философии.* – 2022. – № 12. – 163 с.

ХОРАЗМ – БУЮК СИЙМОЛАР ДИЁРИ

KHWAREZM – THE LAND OF GREAT FIGURES

Нигора Мулласодиқова
ЎзХИА Араб тили ва адабиёти
ал-Азҳар кафедраси доцент в.б.

Марказий Осиё, хусусан, Ўзбекистон замини дунё тамаддунига салмоқли ҳисса қўшган машҳур алломаларнинг юртидир. Тиббиётда тенгсиз даҳо деб ҳисобланган Абу Али ибн Сино ва “ҳадис илмининг султони” имом Бухорий Бухоро вилоятидан, математик ва астроном Муҳаммад ибн Мусо Хоразмий, “Маъмун” академияси сардори Абу Райҳон Беруний ва нақшбандия тариқати асосчиси Нажмиддин Кубро Хоразм вилоятидан, астрономия, математика ва география фанлари билан шуғулланган олим Аҳмад Фарғоний эса асли Фарғонадан бўлган. Ҳаким Термизий ва Абу Исо Муҳаммад Термизийлар диний илмларнинг етук уламоларидан бўлган ва улар Сурхондарё вилоятида туғилган. Мотурудий таълимотининг асосчиси Абу Мансур Мотурудий эса асли самарқандлик экани барчага маълум. Бугунги кунда халқ орасида “Ҳастимом” номи билан машҳур бўлган мажмуа аслида “Ҳазрати Имом” деб улуғланган Абу Бакр Қаффол Шоший номи билан боғланади ва бу буюк олим Тошкент шаҳрида таваллуд топган.

Ўзбекистоннинг биргина кўҳна Хоразм замини жаҳон илм-фани ва маданиятига улкан ҳисса қўшган кўплаб буюк сиймоларни етиштириб чиқарган. Одамларнинг кундалик ҳаётига сингиб кетган алгебра фанига Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий асос солган. Глобусни ихтиро қилган олим бизнинг ватандошимиз Абу Райҳон Беруний ҳам хоразмлик буюк алломалардан биридир. Қуръон ва унинг тили, яъни араб тилига оид илмларнинг ривожида беқиёс ҳисса қўшган олимлардан деб ҳисобланган Маҳмуд Замахшарий ва Юсуф Саккокий ҳам Хоразм диёрида туғилган. Маҳмуд Замахшарийнинг туғилиб ўсган юртига “дунёдаги барча қишлоқлар жамланиб, Хоразмнинг биргина Замахшар қишлоғига фидо бўлса арзийди. Чунки бу қишлоқ минг йилларда бир марта дунёга келиши мумкин бўлган Маҳмуд Замахшарийдек алломани дунёга келтирди”, деб таъриф берилган[200].

“Хоразм фахри”, “Жоруллоҳ”, “Араблар ва ғайри араблар устози” каби юксак номларга сазовор бўлган олим Маҳмуд Замахшарий араб тилшунослиги, адабиётшунослиги, аруз илми, луғатшунослик, тафсир, ҳадис, фиқҳ, геграфия, дидактика ва бошқа соҳаларга оид қатор асарлар муаллифидир. Уларнинг орасида тилшунослик бўйича “المفصل في النحو” асари, ҳадислар матнида учрайдиган мураккаб ва кам қўлланадиган сўзларни шарҳлашга оид “الفائق في غريب الحديث” луғати, сўзларнинг луғавий ва мажозий маънолари таржимасини тақдим қилган “أساس البلاغة” луғати, арабча сўзларнинг туркий, форс ва мўғил тилларида таржималари берилган “مقدمة الأدب” луғати ва илм аҳли орасида “Кашшоф” номи билан машҳур Қуръони каримнинг филологик нуқтаи назардан тафсир қилинган “الكشاف عن حقائق غوامض التنزيل وعيون الأقاويل في وجوه التاويل” асари энг йирик ва машҳур асарларидан деб ҳисобланади.

Замахшарий юксак ақл-идрок ва илм соҳиби бўлган. У танқидий таҳлил ва мантиқий фикрлашда тенги йўқ олимлардан бўлган. Илмининг кучлилигидан бошқа олимлар ҳис қила олмайдиган энг нозик масалаларгача эътибор қаратган ва уларни моҳирона ҳал қилиб берган. Биргина “المفصل” асарини шу даражада мукаммал ёзганидан унга қўшимча қўшиш ёки бирор

[200] Уватов У. Маҳмуд Замахшарий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 16.

ўзгартириш киритиш имкони қолмаган, аксинча асарни турли усулларда тушунтириш учун кўплаб шарҳлар ёзилган, уларнинг орасида Ибн Яъишнинг шарҳи энг машҳур шарҳ деб ҳисобланади.

Замахшарий "الكشاف" асарини ёзгандан кейин унинг довруғи бутун оламга тарқалган. Асар бугунги кунгача ўз аҳамиятини сақлаб келмоқда, чунки у Қуръони каримни бошқа тафсирлардан буткул фарқ қилувчи янги йўналишда шарҳлаган. Мазкур асар дунёнинг энг нуфузли университетларида таълим жараёнида бугунги кунгача фойдаланилмоқда. Бу асар балоғат илмининг мукаммал илм даражасига етишида ҳам муҳим аҳамият кашф этган. "الكشاف" асарида Қуръон оятлари маъносини бошқа муфассирлардан буткул фарқли йўналишда балоғат илмининг энг нозик ва ҳис қилиш қийин бўлган қирраларигача ҳисобга олган ҳолда тафсир қилган. Шунинг учун "...Замахшарийгача ва ундан кейин бу тафсир каби мукаммал тафсир ёзилмаган" деб баҳо берилган[201].

Хоразмлик олимлардан яна бири Замахшарийдан кейин яшаган Сирожиддин Абу Яъқуб Юсуф ибн Абубакр ибн Муҳаммад ибн Али ас-Саккокий Хива шаҳрида туғилган. У 30 ёшигача темирчилик билан шуғулланган, Хоразм хонига ясаган туҳфасига хоннинг эътиборини тортмаган, аксинча хон олимларга эҳтиром кўрсатишини гувоҳи бўлиб, илм олишга қатъий қарор қилади. Узоқ ва машаққатли меҳнатлари эвазига етук олим бўлиб етишади. У тилшуносликка оид бир нечта рисола ва асарлар ёзган. Жумладан Абдулқоҳир Журжонийнинг "الجمل" рисоласига ёзган шарҳи, сарф, наҳв ва балоғат илмларига оид "مفتاح العلوم" асарини мисол тариқасида келтириш мумкин.

Юсуф Саккокий "مفتاح العلوم" асари сабаб илм оламида ном қолдирган. Асарнинг муқаддимасида "Замонамизнинг фузалолари, фазлда камолотга етган зотлар мендан услуби барча зийрак киши тушуниб, ундан хурсанд бўладиган қисқагина китоб ёзиб беришимни сўраб қаттиқ туриб олдилар. Мен бу гапларни эшитгач, шундай китобни ёзиб, пухта ўзлаштирган кишига илмий мақсадларнинг барчасини очиб беришига кафил бўлдим ва китобни "Мифтаҳул-улум" яъни, илмларнинг калити – деб номладим" деб таъриф беради[202].

Юсуф Саккокийнинг ижодида балоғат илми мукаммаллик кашф этди. Дастлаб санъат деб қаралган бу илм Абдулқоҳир Журжоний, Маҳмуд Замахшарий ва Юсуф Саккокийларнинг шарофати билан мукаммал илм даражасига чиқди. Саккокий "مفتاح العلوم" асарида балоғат илмининг қонуниятларини тугал даражага келтириб, якуний қоидаларини ишлаб чиқган. Ундан кейин яшаган олимлар асарни турли услублар билан ўрганишган, аммо бирор қоидасини ўзгартира олмаганлар. Яъни Саккокий XII асрда араб балоғат илми қоидаларини камолига етказиб берган[203] хоразмлик олимдир. Бунга унинг Журжоний, Замахшарий ва Розийнинг илмий назарияларини мантиқий ўргангани ва барча зарур таъриф ва таҳлилларни келтириб, гуруҳларга ажратиб, ўз ғояларини қатъий далиллар билан исботлаб якуний хулоса қилгани сабаб бўлди.

Хоразмлик буюк алломалардан яна бири Мусо ал-Хоразмий "Ал-жабр вал-муқобала" номли рисола муаллифи бўлиб, унинг номи "алгоритм" шаклида фан оламида абадийлашган. Асарда биринчи ва иккинчи даражали тенгламаларни ечиш усулларини тизимли равишда баён қилган. У тенгламаларни геометрик усуллар билан исботлаб, уларга амалий ечимлар топган. Хоразмийнинг яна бир китоби "Ҳинд ҳисоби ҳақида китоб" деб номланиб, ҳинд рақамлари тизимини очиб берган, жумладан, ноль рақамининг аҳамиятини кашф қилган. Бу китобда ҳисоб-китоб ишларини босқичма-босқич бажаришга оид қоидаларни баён этган. Бу қоидалар мантиқий ва аниқ изчил ҳаракатлар занжири бўлиб, кейинчалик замонавий информатика ва дастурлаш соҳасидаги алгоритмларнинг асоси бўлиб хизмат қилган.

---

[201] شوقي ضيف. البلاغة: تطور وتاريخ . الطبعة التاسعة. – القاهرة: دار المعارف ، ١٩٩٥ م. – ص. ٢٤٢

[202] https://islom.uz/maqola/20114

[203] Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. – Москва-Ленинград: Наука, 1960. – T.VI. – С. 172.

Хоразмий математикадан ташқари, астрономия ва география соҳаларида ҳам чуқур из қолдирган. У “Зиж” (астрономик жадваллар) тузган ва осмон жисмларининг ҳаракатларини ҳисоблаш усулларини ёритиб берган. Географияга оид “كتاب صورة الأرض” (Ернинг кўриниши ҳақида китоб) асари дунё харитасини ва шаҳарларнинг географик координаталарини тасвирловчи энг қадимги асарлардан бири деб ҳисобланади.

Ал-Хоразмийнинг асарлари асрлар давомида Европа университетларида асосий дарслик сифатида ўқитилган. Унинг ғоялари ва кашфиётлари замонавий математика, информатика ва бошқа аниқ фанларнинг шаклланишига улкан ҳисса қўшган.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон замини нафақат ўзига хос маданий меросга, балки жаҳон фани ва цивилизациясига асос солган, илмнинг турли соҳаларида ноёб асарлар яратган даҳоларни тарбиялаган “МУҚАДДАС ЗАМИН” деб ҳисобланади.

* * *

ИСЛОМ ҲУҚУҚИНИНГ МЕРОС ИЛМИГА ОИД БАЪЗИ МАНБАЛАР ТАҲЛИЛИ

AN ANALYTICAL STUDY OF SELECTED SOURCES ON THE SCIENCE OF INHERITANCE IN ISLAMIC LAW

Бегматова Бузаҳро Маъруфжановна,
Тошкент давлат шарқшунослик университети
“Арабшунослик олий мактаби” доценти, юридик фанлар номзоди

Ислом ҳуқуқи (фиқҳ) дунёнинг кенг кўламда ривожланган ҳуқуқий тизимларидан бири сифатида, узоқ муддатли тараққиёт босқичларини босиб ўтиб, барча ислом дунёси халқларининг ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳаётида унутилмас из қолдириб келган. Ислом ҳуқуқи шарқ халқлари ва ислом маданияти эришган буюк қадриятлардан ҳисобланади. У нафақат диний муаммоларни, балки мўминмусулмонларнинг бутун турмуш тарзини ҳам ўз ичига олган.

X асрнинг биринчи ярмигача фиқҳ илми ўз тараққиёт поғоналарига кўтарилди ва унда тўртта сунний, учта шиалик ҳуқуқий мазҳаблари вужудга келди. Ҳар бир мазҳаб ўз асосчиси исми билан аталди. Турли жойларда вужудга келган ушбу мазҳаблар ҳар бири ўзига хос ижтимоийиқтисодий шароит таъсири остида ривожланиб, маҳаллий урфодатларни эътиборга олиш билан бирбиридан фарқ этган.

Ислом ҳуқуқи ва унинг соҳалари тўғрисида ҳар бир мазҳабнинг ўз ҳуқуқий назариялари мавжуд бўлиб, улар бир-бирларидан фарқ қилганлар.

Масалан, ҳанафий мазҳаби кўпроқ раъй (фикр)га таяниб иш олиб борган ва шу сабаб «аҳли раъй» номини олган. Шунингдек, бу мазҳаб бошқалардан фарқли ўлароқ шахс эркини ҳурматлаган. Шунинг учун ҳам ҳанафийлик ислом давлатларида энг кенг тарқалган мазҳабдир.

Ҳуқуқий муаммоларни ечишда асосан Қуръон ва ҳадисларга мурожаат қилганликлари туфайли моликий, шофеъий, ҳанбалий мазҳаблари «аҳли ҳадис» номини олганлар.

Маълумки, ислом ҳуқуқи бир қанча ҳуқуқий масалалар, замонавий термин билан ифодалайдиган бўлсак “ислом ҳуқуқи институт”ларини ўз ичига олади. Мана шундай масалалардан бири мерос масаласи бўлиб, у яна фароиз илми **(علم الفرائض)**, деб ҳам номланади.

Ислом ҳуқуқи шаклланганидан сўнг фақиҳлар унинг ҳар бир масаласини синчковлик билан ўрганиб, унга оид кўплаб асарлар ёздилар. Ана шундай ҳуқуқий масалалар орасида мерос тақсимлаш ўта нозик, аниқҳисоб китобларни талаб қиладиган масала бўлиб, у бошқа илмларни пухта эгаллашни ҳам талаб қилади. Чунончи бу масалани ҳал қилишда киши Қуръони каримнинг оятларини шарҳлаш учун тафсир илмини, ҳадисларни тўғри танлаш учун ҳадис илмини, ҳисобкитоб қилиш учун эса математиканинг барча амалларини жуда яхши эгаллаган бўлиши керак. Шу сабабли фароиз илми ҳатто янги бир илмнинг яратилишига туртки бўлган, десак хато қилмаймиз. Чунки айнан шу илм «алгебра» номли фаннинг пайдо бўлишига асос бўлган. Ҳаммамизга маълумки, ватандошимиз, мутафаккир Муҳаммад ибн Мусо алХоразмий ўзининг «алЖабр валмуқобала» («Тенгламалар ва қаршилаштириш») асари билан биринчи бўлиб математика тарихида «алгебра» фанига асос солган. Бу асарни эса Мусо алХоразмий мерос тақсимлаш билан шуғулланиб, уни янада осонроқ ҳал қилиш йўлларини излаши натижасида яратган. Бу ҳақда алломанинг ўзи шундай деган: «Мен арифметиканинг содда ва мураккаб масалаларини ўз ичига олувчи алжабр вал муқобала ҳисоби ҳақида қисқача китоб ёздим. Чунки у одамларга мерос тақсимлаш, васиятнома ёзиш, бойлик тақсимлаш ва адлия ишлари, савдосотиқ, геометрик ҳисоблашлар, шунингдек турли муносабатларда жуда ҳам зарур»[204]. Шу сабабли ҳам бир қанча машҳур фақиҳлар бу масалани бошқаларидан фарқли ўлароқ алоҳида эътибор билан ўрганганлар. Жумладан, Имоми Аъзам Абу Ҳанифа ва унинг изидан борган ватандошимиз Бурҳониддин Марғиноний мерос масаласига бир мустақил фан сифатида қараган. Имом Абу Ҳанифа биринчи бўлиб мерос илми бўйича «Китоб алфароиз» номли асар ёзган[205]. Бу масалага ўта жиддийлик билан ёндашган буюк ватандошимиз Бурҳониддин Марғиноний ҳам имом Абу Ҳанифа сингари бу масалани бир мустақил фан «фароиз илми» деб атаган ва ўзи ҳам бу масалага оид «Китоб фи алфароиз» («Мерос ҳуқуқи бўйича китоб») номли асарини ёзган[206].

Худди мана шу даврда яшаб фиқҳ илмининг ривожига ўз ҳиссасини қўшган фақиҳ Бадри Девон ҳам «Меросни ҳисоблаб чиқариш анча қийин ишлардан биридир», - деб ўзининг «Мажмуъат аларқом» номли асарида унга махсус бўлим ажратган[207].

Лекин шуни таъкидлаш лозимки, мерос илми ҳақидаги илк асарлар тобеъинлар даврида ёзилган. Тобеъинлардан биринчи бўлиб Абу Бакр Айюб ибн Абу Тамима Сижистоний «Фароизи Айюб ал Басрий» номли китобини ёзган бўлиб, бу китоб фароиз ҳақидаги илк асарлардан ҳисобланади.

Айюб Сижистонийдан сўнг бу соҳада кўплаб асарлар яратилди. Улардан энг машҳурлари қуйидагилар:

- Абу Жаъфар ибн Муҳаммад алМисрий алҲанафий (в. 932)нинг «алФароиз атТаҳовия» асари;
- Юсуф ибн Абдуллоҳ алҚуртубий алМоликийнинг «Фароизи Ибн Абд алБарр» асари;
- Аҳмад ибн Муҳаммад Алий алБағдодий алҲанафийнинг «Фароизи Абу Наср» китоби;
- Абулфазл ибн Алий алАшнаҳий ашШофеъийнинг «алФароиз алАшнаҳия» китоби;
- Муваффиқуддин Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али арРаҳабийнинг «алФароиз арраҳабия» асари;
- Аҳмад ибн Мустафо Тош Кўпризода (в. 1560)нинг «Фароизи Тош Кўпризода» китоби;

---

[204] Ҳамидов Ҳ. Олис яқин юлдузлар. -Т.: Чўлпон, 1990. -Б. 14.
[205] Исҳоқов С. Бурҳониддин Марғиноний ва фиқҳ илми. Т.: Адолат, 2000. -Б. 18.
[206] Бурҳониддин Марғиноний. Ҳидоя. Т.1. -Т.: Адолат, 2000. -Б. 24.
[207] Муқимов З. Мовароуннаҳр фиқҳ мактаби. - Самарқанд: Зарафшон, 1997. -Б. 45.

- Сирожиддин Муҳаммад ибн Маҳмуд ибн Абдуррашид Сажовандийнинг «алФароиз ас-Сирожия» асари. Ушбу китоб ҳозиргача ҳанафий мазҳабида, хусусан диёримизда ҳам фароиз илми бўйича асосий қўлланма вазифасини ўтаб келган[208].

Ислом ҳуқуқи тизимида мерос илми — фароиз илми — мустақил равишда шаклланиб, у ҳуқуқий-назарий ҳамда амалий жиҳатдан юксак аҳамият касб этган соҳалардан бири сифатида намоён бўлади. Мерос масаласи нафақат ҳуқуқий, балки математик, мантиқий ва илоҳиёт соҳалари билан ҳам чамбарчас боғлиқ бўлиб, унинг ривожи ҳатто “алгебра” фанининг яратилишига туртки бўлгани бу соҳанинг илмий қийматини янада оширади. Шу тариқа, мерос илми ислом ҳуқуқининг энг мураккаб ва шу билан бирга энг зарур соҳаларидан бири бўлиб, унинг ривожида маҳаллий ва минтақавий фиқҳ мактабларининг ҳиссаси беқиёсдир. Ушбу илмнинг тараққиёти нафақат ҳуқуқий амалиёт, балки ислом цивилизациясининг умумий илмий ва маънавий меросини бойитган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Бурҳониддин алМарғиноний. Ҳидоя. Биринчи жилд / Масъул муҳаррирлар А. Х. Саидов, М. Нуриддинов. Т.: Адолат, 2000. 848 б.
2. Исҳоқов С. Бурҳониддин Марғиноний ва фиқҳ илми. Т.: Адолат, 2000. 136 б.
3. Муқимов З. Мовароуннаҳр фиқҳ мактаби. Самарқанд.: Зарафшон нашриёти, 1997. 50 б.
4. Ҳамидов Ҳ. Олис яқин юлдузлар. Т.: Чўлпон, 1990. – 480 б.

* * *

УСМОН МУСҲАФИНИНГ ЧОП ЭТИЛГАН ФАКСИМИЛЕ НАШРИ ВА УНИНГ ТАРҚАЛИШИ

THE PUBLISHED FACSIMILE EDITION OF THE UTHMAN MUSHAF AND ITS DISSEMINATION

Эркин Миркомилов
ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги
Шарқшунослик институти Илмий ходими

Руслар Самарқандни 1285/1868 йили ишғол қилишгач, Усмон Мусҳафи бўлмиш қимматли гавҳарга қизиқиб қолдилар. Шундан сўнг, Самарқанд шаҳридаги Усмон Мусҳафи Санкт-Петербургдаги подшоҳ кутубхонасига олиб кетилган. Лекин Октябрь инқилобидан кейин мусулмонларнинг талаби билан Ўзбекистонга қайтарилган. Усмон Мусҳафининг узоқ йиллик, яъни 50 йиллик ғариблик сафаридан яна Ўзбекистон заминига қайтарилиши воқеаси 1924 йил 18 августда ниҳоясига етди.

Усмон Мусҳафининг Россияга бориб қолиши ҳамда 1905 йили эллик нусхада кўпайтирилиши ҳақида Шайх Исмоил Махдум бу ҳақда рисола ёзган[209]. Ўзбекистон миллий энциклопедиясига ҳам шу каби маълумотлар киритилган[210].

Шайх Исмоил Махдум ўз китобида: “Шундай қилиб, Мусҳафни олиб, бутун эҳтиёт чоралари кўрилиб, ҳурмат билан Петербургга юборилди ва император кутубхонасининг

[208] Ҳомидов М. Фароиз фанидан маърузалар матни. -Т.: Мовароуннаҳр, 2004. -Б. 910.
[209] Шайх Исмоил Махдум. Тошкентдаги Усмон Мусҳафининг тарихи. Арабчадан Абдуллоҳ шайх Исмоил Махдум ўғли таржимаси. “Мовароуннаҳр”:-Тошкент, 1995 й.
[210] Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. “Қуръони карим”га қаралсин.

нодир қўлёзмалар бўлимига қўйилди. У билан бирга шарқшунос олим А. Кун (1840 – 1888) томонидан тартибга солинган ва Мулла Абуджалил, Мулло Муъин муфтий ва бошқалардан олинган маълумотлар, протокол ва хабарнома ҳам бор эди,"-дейди[211].

Россияга етказилгандан кейин машҳур рус шарқшунос олими А.Ф.Шебунин (1867 – 1937) Усмон Мусҳафини ўрганиб чиқиб, у ҳақда "*Куфий Қуръон*" номли бир китоб ёзади. Китобда Мусҳафга тегишли бўлган ҳужжатлар, ташқи кўриниши, сураларнинг жойлашиши, хати ва бошқалар ҳақида батафсил маълумотлар келтиради. Мусҳаф икки бетига ёзилган 353 варақдан иборат бўлиб, саҳифалар сони 706 та эди. Варақлар бўйи 68 см, эни 53 см ҳажмда эди. Йўқолган ва чириб кетган варақларнинг ўрнида оддий қоғоздан иборат 69 саҳифа қўшимча бор эди[212].

"Мана шу аҳволда Мусҳаф Петербург кутубхонасида, уни билган мусулмонлар ва қадимий осори-атиқалар билан қизиқувчилар учун зиёрат манбаи бўлиб то 1917 йилга қадар сақланади. Унинг тўғрисида вақти-вақти билан газета ва журналларда мақолалар чиқиб турди. "*Миръот*" мажалласининг юқорида зикр қилинган сонидаги "*Усмон Мусҳафи ва куфий Қуръон*" сарлавҳали мақолада А.Ф. Шебуниннинг 1891 йилда Петербургда чоп қилинган тадқиқотлари хулосаси келтирилиб, шундай дейилади: "Мазкур Мусҳафи шариф Петербург босмахоналаридан бирида археология институти томонидан чоп қилинмоқчи ва ундаги тузатиш ишлари қримлик Илёс Мирзо Бураганийга (1852 – 1938) топширилган"[213].

Археология институти томонидан олим С.И. Писарёв ташаббуси билан Мусҳаф бутунлигича чоп қилингани айтилади. С.И. Писарёв Мусҳаф нусхаларини аслига монанд 68х53 см ҳажмида ва тери рангига ўхшаш қоғозга бостирди. Олинган нусхалар сони 50 та эди. Шулардан Эрон шоҳига, Султон Абдулҳамид, Бухоро, Афғонистон ва Форс амирларига ҳамда бошқа кўзга кўринган мусулмон арбобларга нусхалар ҳадя қилинди. 25 та нусха 500 рубл баҳо билан сотувга чиқарилди. Бундан олдин 1895 йилда "Аъроф" сурасидан бир саҳифа 2000 нусхада босиб чиқарилиб, Ислом мамлакатларида сотилган эди"[214].

Резван Е.А. ҳам ўзининг "Қуръоншуносликка кириш" китобида 1905 йил Усмон Мусҳафининг С.И. Писарев томонидан факсимиле нусхаси чоп этилгани ҳақида тўхталиб ўтган. "У китобнинг бир оз қисми китоб дўконларига қўйилди. Қолганлари эса Россия билан мусулмон дунёси орасидаги халқаро муносабатлари учун совға сифатида қўлланилди. Асосан уни совға сифатида Туркия, Эрон, Афғонистон ва Бухоро раҳбарлари олишди. Нусхалардан бири императорнинг ўзига ҳам тортиқ қилинди"-дейди[215].

Ирина Османова ва Марат Сафаровлар ўзларининг китобларида 1905 йил чоп қилинган Усмон Мусҳафи нусхалари кимларга тортиқ қилинган ҳамда қайси жойларда сақланаётганлиги ҳақида маълумотлар келтириб ўтган. Улар қуйидагича:

"Бу жараён жуда қизиқарли тарихга эга. Биринчи навбатда С. Писаровнинг исми эсга олинади. С. Писаров замонасининг буюк арабшунос олими эди. Семён Иванович Писаров Санкт-Петербургнинг Старо-Невский проспектида ўзининг мато дўконида савдо қилган. Аслида, у иккинчи гильдия савдогари бўлиб, тадбиркор ҳам эди. У Василий Иванович Успенский, Археология институтининг директори ва археологлар билан дўстлашган. В.И.Успенский жуда таниқли мутахассис бўлиб, биринчи навбатда, православликка оид қўлёзмалар бўйича ишлаган ва кўплаб қизиқарли матнларни нашр этган.

---

[211] Шайх Исмоил Махдум. Тошкентдаги Усмон Мусҳафининг тарихи. Арабчадан Абдуллоҳ шайх Исмоил Махдум ўғли таржимаси. "Мовароуннаҳр":-Тошкент, 1995 й. Б.40.

[212] Шебунин А.Ф. Куфический Коран. Императорский Санкт-Петербургской публичной библиотеки. "Типография Императорской академии наук":-Санкт-Петербург, 1891. С.71.

[213] Шайх Исмоил Махдум. Тошкентдаги Усмон Мусҳафининг тарихи. Арабчадан Абдуллоҳ шайх Исмоил Махдум ўғли таржимаси. "Мовароуннаҳр":-1995. Б.40-41.

[214] Шайх Исмоил Махдум. Тошкентдаги Усмон Мусҳафининг тарихи. Арабчадан Абдуллоҳ шайх Исмоил Махдум ўғли таржимаси. "Мовароуннаҳр":-1995. Б. 41.

[215] Резван Е.А. Введения к коранистики. "Казан":- Казань, 2014. С. 276-277.

Қандайдир тарзда улар иккаласи келишиб, Усмон Қуръони қўлёзмасининг литографик нашрини тайёрлаш таклифини илгари суришган ва бу ғоя маъқулланган. Натижада, қўлёзма Археология институти томонидан қўллаб-қувватлаш орқали нашр этилиши режалаштирилган. Уларга 50 нусхани нашр этишга рухсат берилган, улардан иккитаси Россия Жамоат кутубхонасига юборилган. Шартлар бажарилган ва ваъдага биноан, бир нусхаси дарҳол Тошкентга юборилган. Аслида, нашр жараёнлари Д.М. Рудневнинг картографик заводида амалга оширилган.

Россия Миллий кутубхонаси архивида 1905 йил 16 июль куни вазир В. Г. Глазов томонидан Кутубхона директори Д. Ф. Кобекога ёзилган мактуб сақланиб қолган. Бу мактубда Успенский ва Писарев номзодлари кўрсатилган нашрдан икки нусхани Ташқи ишлар вазирлиги ихтиёрига топширганликлари қайд этилган.

Ташқи ишлар вазири граф В.Н. Ламсдорф[216] мазкур нашрни илмий жиҳатдан муҳим деб билиб, Успенский ва Писаревни юқори даражада мукофотлаш учун император олдига мурожаат қилишни сўраган.

Бу ҳужжат Самарқанд Қуръонининг (Усмон Мусҳафи) илмий аҳамиятини ва унинг нашрида иштирок этганлар ҳақида давлат даражасидаги эътирофни кўрсатади. Успенский ва Писарев нафақат ушбу нодир қўлёзмасини оммалаштиришга, балки уни сақлаш ва ўрганишга катта ҳисса қўшганлар”[217].

“Олиб борилган тадқиқотлар натижасида Усмон Мусҳафи нусхаларининг кимларга совға қилинганини санаб ўтиш мумкин. Усмон Мусҳафининг факсимиле шакли совға тариқасида Бухоро амири Абдулаҳадхон (1859 – 1911; Бухоро амири 1885 – 1910) ва унинг вориси Мир Муҳаммад Алимга (Алимхон) тақдим қилинган.

Бугунги кунда Ўзбекистонда Петербургда чоп этилган Усмон Мусҳафи нусхасининг камида тўртта нусхаси сақланмоқда. Улар қуйидаги муассасаларда жойлашган:

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси;

Ўзбекистон тарихи давлат музейи;

Темурийлар тарихи давлат музейи;

Ўзбекистон Мусулмонлари идораси кутубхонаси.

Демак, Ўзбекистон ҳудудида Петербург нусхасининг тўртта намунаси мавжуд бўлиб, бу мамлакатимизда мазкур муқаддас мероснинг тарихий-маданий аҳамияти нақадар юксак эканидан далолат беради.

Усмон Мусҳафи нашри, шунингдек, қуйидаги йирик сиёсий арбобларга ҳам совға қилинган:

форс шоҳи Музаффар ад-Дин,

Усмонийлар императори султони Абдулҳамид II,

Россия императори Николай II.

Айтиш мумкинки, Николай II га тақдим этилган нусха ҳозирда Россия Давлат Эрмитажининг илмий кутубхонасида сақланмоқда.

Ҳозирги кунда Санкт-Петербург шаҳрида Усмон Мусҳафининг (Петербургда чоп этилган) қуйидаги муассасаларда сақланаётганлиги маълум:

Дин тарихи давлат музейида 4 та нусха;

Россия Фанлар академиясининг Шарқ қўлёзмалари институти кутубхонасида 1 та нусха;

Россия миллий кутубхонасида 2 та нусха (улардан бири И.Ю. Крачковский фондида, иккинчиси Осиё ва Африка мамлакатлари адабиёти бўлимида).

---

[216] Туғилиши 6 январь 1845 йил – вафоти 19 март 1907 йил. Россия ташқи ишлар вазири 1900 – 1906 йил.

[217] Османова И. Сафаров М. Коран Османа в России: очерки истории. “Читай”:-Москва, 2024. С.63.

Шунингдек, Усмон Мусҳафининг нусхалари Россиянинг қуйидаги жойларида ҳам мавжудлиги маълум:

Москва Жомеъ масжиди,

Москва шаҳри Отрадное туманидаги «Ярдам» масжиди,

Нижний Новгороддаги масжид,

Озарбайжон Миллий санъат музейи,

Колумбия университети (АҚШ),

Берлин давлат кутубхонаси (Германия).

Шу тариқа, тадқиқотлар натижасида ҳозирча 20 дан ортиқ нусха ҳақида маълумотлар аниқланди. Умумий 50 нусхадан ярмидан кўпроғининг тақдири бизга маълум. Инқилоб, фуқаролар уруши, Иккинчи жаҳон уруши ва қамал каби тарихий синовлар шароитида тиражнинг 50 фоизининг сақланиб қолганини юқори даражадаги сақланиш деб ҳисоблаш мумкин”[218].

Шунингдек, Исмоил Махдум китобида “Қозонда чиқадиган “*Дин ва маишат*” мажалласининг 1327/1909 санасининг 14 сонида бир мақола чоп этилиб, унда Мусҳафнинг “Ёсин” сураси 1905 йилда Илёс Мирзо томонидан босиб чиқарилган,”-дейилади[219].

Исмоил Махдум келтирилган мажаллада 1905 йил босиб чиқарилди дейилса-да, айнан китобнинг ўзида 1324/1906 йил қайд қилинган. Бунда чоп этишга рухсат берилган санаси айтилган бўлиши мумкин. Бундай хулосага келишимиздан мақсад тўлиқ нусхаси ҳам 1904 йили Археология институти директори профессор Н. Покровский томонидан чоп этишга рухсат берилган[220]. Чоп бўлиб чиқиши 1905 йил амалга ошган.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида “Ёсин” сурасининг нашр қилинган тўртта нусхаси мавжуд. Асосий фондда иккитаси №20922; 20923 рақами остида ҳамда Ҳамид Сулаймон фондида иккитаси №1305; 2556 рақами остида сақланиб келмоқда. Ўлчами 40х36. Илёс Мирзо нашриётида чоп қилинган. Йили 1324/1906 кўрсатилган. Қанча нусхада чоп этилгани ёзилмаган. Маълумотлар шуни кўрсатмоқдаки, эҳтимол олдин тўлиқ нусхаси нашр бўлиб, кейин “Ёсин” сураси чоп этилган бўлиши ҳам мумкин[221].

“Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонларининг диний идораси таъсис топиш муносабати билан 1943 йилда чақирилган қурултойга Мусҳафи шариф олиб келинди ва зиёрат маросими уюштирилди. Иккинчи марта унинг зиёратига 1948 йилда мазкур идоранинг 2-қурултойи муносабати билан муваффақ бўлинди. Бир қанча йиллар ўтгандан сўнг диний идора фотография усули билан Мусҳафдан уч нусха олдирди. Улардан бири Покистоннинг собиқ президенти маршал Айюбхоннинг[222] диний идора қароргоҳига 1964 йилда қилган ташрифи муносабати билан унга ҳадя қилинди. Иккинчиси Ҳиндистоннинг марҳум собиқ президенти Зокир Ҳусайн[223] жанобларига тортиқ қилинди. Диний идоранинг кутубхонасида (бу кутбхонада нодир мусҳафлар, адабий девонлар, қўлёзмалар ва исломий китоблар мавжуд) Петербург археология институти 1905 йилда олдирган нусхаларидан иккитаси бор эди. Улардан бирини диний идора Марокко подшоҳи Ҳасан II[224] ҳазрати олийларига тортиқ қилган.

---

[218] Османова И. Сафаров М. Коран Османа в России: очерки истории. “Читай”:-Москва, 2024. С. 66.

[219] Шайх Исмоил Махдум. Тошкентдаги Усмон Мусҳафининг тарихи. Арабчадан Абдуллоҳ шайх Исмоил Махдум ўғли таржимаси. “Мовароуннаҳр”:-1995. Б. 41.

[220] И.Османова. М.Сафаров. Коран Османа в Росси: очерки истории. “Читай”:-Москва, 2024. С.122.

[221] Исмоил Махдум китобида аввал “Ёсин” сураси чоп қилиниб кейинчалик тўлиқ нусхаси чоп этилган деган маълумотларни келтирган. Шунга биноан чоп этилган нусхаларни кўрганимизда тўлиқ нусҳа 1905 йил, кейинчалик “Ёсин” сураси эса 1906 йил чоп этилган.

[222] Туғилиши 14 май 1907 йил – вафоти 19 апрель 1974 йил. Покистон президенти 1958 – 1969 йил.

[223] Туғилиши 8 февраль 1897 йил – вафоти 3 май 1969 йил. Ҳиндистон президенти 1967 – 1969 йил.

[224] Туғилиши 9 июль 1929 йил – вафоти 23 июль 1999 йил. Марокко подшоҳи 1961 – 1999 йил.

Бу нусхалар хорижга чиқиши натижасида Ислом юртларида Усмон Мусҳафининг бизда сақланаётгани ҳақидаги хабар кенг тарқалди. Унинг тўғрисида матбуотда мақолалар чиқа бошлади. Мусҳафи шариф саёҳатчилар орасида ҳам машҳур бўлди. Диний идора билан кўпгина хорижий кутубхоналар, ташкилотлар, идиний ва дунёвий фан олимлари орасида ёзишмалар бўлиб ўтди”[225].

Аҳаджон Ҳасановнинг “Тошкентдаги муқаддас Усман Мусҳафининг тарихи” мақоласида ҳам Усмон Мусҳафи Самарқанддан Россияга 1868 йили олиб кетилгани ва у ерда 55 йил қолиб кетганлиги ҳақида гапирилади. Шунингдек, С. Писарев томонидан 50 нусхада чоп этиланлиги ҳамда бу нусхалардан 25 донаси сотувга қўйилиб, қолганлари давлат раҳбарлари ва катта амалдорларга совға тариқасида тарқатилгани айтилган. Шу билан бирга айнан 1905 йил чоп бўлган нусхадан 1981 йили АҚШда ҳам “Хайдаробод Хаус” нашриёти орқали чоп этилгани хабари берилган[226].

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Усмон Мусҳафи Россияга бориб қолгандан кейин олимлар томонидан ўрганилган ҳамда уни чоп этиш ишлари амалга оширилган. Улар қуйидагича:

1895 йилда “Аъроф” сурасидан бир саҳифаси 2000 нусхада босиб чиқарилган;

1905 йил С.И. Писарев томонидан тўлиқ шаклида 50 та нусха;

Фақат “Ёсин” сураси Илёс Мирзо томонидан 1906 йил нашр қилинган, адади номаълум;

Диний идора фотография усули билан Мусҳафдан уч нусха олдирган;

1981 йили Россияда нашр қилинган 1905 йилги факсимиле нусхадан АҚШнинг “Хайдаробод Хаус” нашриёти ҳам чоп қилган.

Россияга олиб кетилиши ва у ердан қайтариб олиб келиниши ҳамда нашр ишлари дунё олимлари назаридан четда қолмади. У ҳақда олимлар ўз фикрларини қадамба-қадам баён қилиб туришган. Газета-журналларда мақолалар эълон қилиниб турган. Бир қанча адабиётларни ўқиб кўрганимизда ҳам уларнинг ҳаммасида бир хил маълумотлар. Ўртадаги тафовутлар деярли йўқ. Ҳозирги кунда Усмон Мусҳафига бўлган эътибор янада кучайиб кетган. Уни сақлаш-авайлаш, кўз қорочиғидай асрашга ҳамма шарт-шароитлар яратилмоқда. Умидвормизки, яна узоқ йиллар давомида ўзига мусулмон оламини ҳамда дунё олимларини жалб қилиб, илм-маърифатни кенгайтиришда ўрни беқиёс бўлади.

Адабиётлар:

1. Ислом энциклопедияси. Зуҳриддин Ҳусниддинов таҳрири остида. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти:-Тошкент, 2004 й.
2. Шайх Исмоил Махдум. Тошкентдаги Усмон Мусҳафининг тарихи. Арабчадан Абдуллоҳ шайх Исмоил махдум ўғли таржимаси. “Мовароуннаҳр”:-Тошкент, 1995.
3. Усмонхон Алимов. “Ҳазрати Имом” мажмуаси. “Мовароуннаҳр”:-Тошкент, 2018.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти:-Тошкент, 2005 й.
5. Шебунин А.Ф. Куфический Коран. Императорский Санкт-Петербургской публичной библиотеки. “Типография Императорской академии наук”:-Санкт-Петербург, 1891.
6. Шмидт А.Э. Биография, Научная переписка, Избранные труды, Библиография. «Садра»:-Москва. 2018.
7. O‘zbekiston respublikasi FTDK byulleteni (Бюллетень ГКНТ Республики Узбекистан) 1997 й. журнал №1.

[225] Шайх Исмоил Махдум. Тошкентдаги Усмон Мусҳафининг тарихи. Арабчадан Абдуллоҳ шайх Исмоил Махдум ўғли таржимаси. “Мовароуннаҳр”:-Тошкент, 1995. Б. 51.

[226] O‘zbekiston respublikasi FTDK byulleteni (Бюллетень ГКНТ Республики Узбекистан) 1997 й. журнал №1. Б. 31.

8. Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционным совестком востоковедении (Ўрта Осиёнинг революциядан олдинги ва совет даври шарқшунослигида ўрганилиши). “Фан”:-Тошкент, 1965.
9. Османова И. Сафаров М. Коран Османа в России: очерки истории. “Читай”:-Москва, 2024.
10. Резван Е.А. Введение в коранистику. “Казан”:- Казань, 2014.
11. **https://ru.wikipedia.org/wiki/** Самаркандский куфический Коран.

* * *

ИСЛАМСКАЯ ФИЛОСОФИЯ В СРЕДНЕВЕКОВОЙ ПОЭЗИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ISLAMIC PHILOSOPHY IN MEDIEVAL POETRY OF CENTRAL ASIA

Вахабова Дилфуза Разиковна
Преподаватель кафедры «Исламская история и источниковедение, философия» Бухарского государственного университета, докторант (PhD) город Бухара. Узбекистан.

ВВЕДЕНИЕ

Средневековая поэзия Центральной Азии – это не только художественное выражение чувств, но и глубокое философское наследие, тесно переплетённое с исламским мировоззрением. На пересечении различных культур, религий и цивилизаций, Центральная Азия стала уникальной площадкой, где исламская философия была не просто предметом размышлений учёных и представителей искусство, но и живым фундаментом поэтических произведений. Средневековая поэзия Центральной Азии – это выдающееся культурное явление, в котором глубоко переплелись элементы духовности, философии, мистицизма и эстетики. На территории современных Узбекистана, Казахстана, Туркменистана и Кыргызстана с IX по XV века развивалась богатая литературная традиция, в основе которой лежали исламские ценности и философские идеи, пришедшие из арабо-персидского мира, но адаптированные к местной культуре. Поэтическое слово становилось не просто средством художественного выражения, но формой философского познания мира и человека.

Цели и задачи работы:

Данная работа ставит своей целью исследование влияния исламской философии на средневековую поэзию Центральной Азии, выявление ключевых тем, образов и философских концепций, нашедших отражение в творчестве таких поэтов, как Аль-Фараби, Ибн Сина (Авиценна), Ахмад Ясави, Навои и других.

Историко-культурный контекст

С IX по XV век Центральная Азия была важнейшим центром исламской науки и культуры. Такие города, как Самарканд, Бухара, Ургенч, Термез и Мерв стали колыбелью научных школ и суфийских орденов. Здесь активно развивались: *калам* (исламская теология), *фальсафа* (исламская философия, в значительной степени под влиянием античной мысли), *тасаввуф* (суфизм - мистическая традиция ислама). Поэты и мыслители Центральной Азии, использовали персидский, арабский и тюркский языки для выражения духовных и философских концепций, что привело к формированию уникального литературно-философского синтеза. Центральная

Азия была важнейшим интеллектуальным центром мусульманского Востока. Такие города, как Бухара, Самарканд, Мерв, Термез и Ургенч, служили местами расцвета науки, религии и искусства. В этих городах работали философы, поэты, богословы и суфийские шейхи, которые объединяли исламскую теологию с наследием античной философии и восточного мистицизма. Исламская философия, в своём разнообразии, проникала в сердца поэтических произведений, придавая им не только духовную глубину, но и мировоззренческую цельность.

Основные философские направления в исламской мысли.

Исламская философия опиралась на следующие ключевые направления: Фальсафа рационалистическая традиция, продолжавшая античную философию (особенно Аристотеля и Платона), адаптированную к исламскому мировоззрению. Её представители: Аль-Кинди, Аль-Фараби, Ибн Сина. Калам - богословское направление, сосредоточенное на защите и рациональном объяснении догматов веры. Тасаввуф (суфизм) - мистическое течение, в котором философия переплеталась с личным духовным опытом и поэтической символикой.

Суфизм и поэзия как выражение философии. Суфийская поэзия является наиболее ярким примером соединения исламской философии с художественным словом. В суфизме человек стремится к духовному очищению и единению с Богом. Эти идеи выражаются через образы любви, вина, красоты, тоски по Истине и символического пути.

Наиболее заметное влияние на поэзию оказал суфизм - мистическое течение в исламе, которое стремилось к прямому, внутреннему переживанию Бога через очищение души и любовь. Суфийская философия в стихах выражалась через аллегории, символы и метафоры, в которых образ возлюбленного олицетворял Творца, а душа поэта - его вечного ищущего странника. Поэты в своих произведениях размышляли о смысле жизни, страданиях человеческой души, боли разлуки с Абсолютом и надежде на соединение с Истиной.

Одним из первых великих представителей этой традиции был Ахмад Ясави - тюркоязычный поэт и духовный наставник XII века, чьи произведение написаны простым языком, но наполнены глубоким философским содержанием. Его «Диван-и Хикмет» написан на тюркском языке и полон философских размышлений о сущности бытия, вере, страданиях души. Центральная идея - путь к Богу через любовь, покаяние, аскезу. В них он рассуждает о пути человека к Богу, об очищении сердца от земных привязанностей и страстей, о смирении, покаянии и служении людям. Его поэзия пронизана духом народной религиозности, но в то же время несёт в себе наследие исламской философии, особенно в её этическом и аскетическом аспектах. «Ҳақни топмай, хикмат айтмоқ - бул бир нуқсон иш бўлар» (Не найдя Истину, философствовать - дело пустое.)[227]

Несколько столетий спустя, Алишер Навои (1441–1501) великий узбекский поэт, мыслитель и государственный деятель XV века, внёс особый вклад в развитие философской поэзии и внёс в поэзию ещё более глубокое философское измерение. В его творчестве гармонично сочетаются: гуманизм (ценность человека), этика (идеалы справедливости, щедрости, смирения), мистицизм (поиск божественного через любовь). Его творчество отражает не только суфийские идеи, но и гуманистические взгляды, сочетающие исламскую духовность с верой в высокое предназначение человека. В его поэмах можно увидеть философские размышления о свободе воли, ответственности, природе зла и добродетели, о смысле любви и самопознания. Через символику пути, страданий, стремления и озарения Навои раскрывает внутреннюю борьбу души за постижение Истины. Поэма Алишера Навои «Лисон ут-Тайр» это суфийская аллегория, вдохновлённая трудом Фаруддина Аттара. Фаруддин Аттар был выдающимся персидским поэтом-суфием, родившимся в Нишапуре. Он жил во второй половине XII века и считается одним из величайших мастеров персидской поэзии. Его

[227] Яссави Ходжа Ахмед. Хикметы / Излож.пер. на рус. яз. Н. Ж. Сагандыковой; Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – 208 с.

наиболее известными произведениями являются поэмы «Беседа птиц» (Мантық-ут-тайр) и «Жизнеописания святых» (Тазкират ал-авлиё).

Поэма Алишера Навои «Лисон ут-Тайр», что в переводе означает «Язык птиц», является аллегорическим произведением, написанным в конце XV века (1499 год). В основе поэмы лежит идея о том, что разные птицы, каждая со своим характером и особенностями, отправляются на поиски мифической птицы Симург, символизирующей божественную мудрость и совершенство. В поэме Навои использует аллегорический язык, чтобы передать сложные идеи о духовном поиске, самопознании и достижении высшей истины. Птицы, каждая из которых символизирует определенный человеческий тип или качество, сталкиваются с трудностями и испытаниями на своем пути, что отражает сложности и противоречия человеческой жизни и духовного развития.

В поэме Алишера Навои «Лисон ут-Тайр», птицы (души) ищут Симу́рга (Бога) – это путь человеческого самопознания, преодоления самого себя, очищения духа. «Кто ищет Истины - пусть сначала найдет Себя».[228]

Философия разума у Аль-Фараби и её поэтические отголоски

Аль-Фараби (872–950), хотя и писал в основном научные трактаты, оказал огромное влияние на последующую исламскую мысль. Его концепция «Счастья» как цели жизни, роль разума в приближении к Богу, теория идеального общества [229]– всё это стало темами, проникающими в поэзию. В труде «О взглядах жителей добродетельного города» Аль-Фараби описывает идеальное общество, где каждый гражданин стремится к благу и счастью, а во главе стоит философ-правитель. Этот добродетельный город, по мнению Аль-Фараби, является противоположностью невежественным, порочным городам, где люди стремятся к богатству как к конечной цели.[230] Аль-Фараби, опираясь на античную философию и традиции своей эпохи, создал концепцию идеального общества, в котором человек может достичь счастья, следуя разуму и действуя во благо всего сообщества.

Ибн Сина (980–1037), родом из Бухары, был не только философом, врачом и учёным, но и поэтом. В его философии центральное место занимали вопросы сущности, бытия и души. Он считал, что разумное постижение Бога возможно и необходимо. В его философских поэмах встречаются образы света, разума, небесного движения, души, стремящейся к возвышенному миру.

Душа, подобно пленнице, в теле заключена,
Мечтает вернуться к родине - миру света.[231]

Эта строка перекликается с неоплатонической идеей, что душа - изгнанница из мира форм, стремящаяся к возвращению в высшее бытие.

Необходимо также отметить влияние таких философов, как Аль-Фараби и Ибн Сина (Авиценна), на формирование интеллектуального фона, в котором создавалась поэзия Центральной Азии. Хотя они сами писали в основном философские трактаты, их идеи проникали в культуру через учеников, суфийские ордена и образовательные центры. Идея о разуме как свете, ведущем к Богу, представление о душе как вечной сущности, стремящейся вернуться в мир высших форм – всё это находило отражение в стихах, где поэт становится путником, а поэзия картой духовного восхождения.

---

[228] Алишер Навои. Язык птиц. — Ташкент: Фан, 1970. Перевод С. Иванов. - С. 106.

[229] Фараби. Трактат о взглядах жителей добродетельного города // Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. М.: Изд-во АН СССР, 1960, С.156-195

[230] Статья опубликована в энциклопедическом словаре «Этика» Москва.: Гардарики, 2001 (с) А. Смирнов. 2001.

[231] Ибн-Сина. Исцеление: теология: в 2 томах: пер. с араб., примеч. и послеслов. Т. Ибрагима; Ин-т востоковедения Рос. акад. наук, Центр араб. и ислам. исслед. – Москва. ИВ РАН. – 2022. – С 187.

Поэты позднейших веков, вдохновлённые идеей о разуме как средстве духовного возвышения, описывали внутренние состояния души, разумную дисциплину и поиск Истины.

Поэзия этого периода неотделима от философии, потому что сама философия в мусульманском мире часто выражалась художественным языком. В условиях, когда философские трактаты могли быть труднодоступны или запрещены, поэтическая форма давала возможность передавать тонкие размышления о бытии, добре и зле, о вечности и бренности, об истине и иллюзии. Так, под покровом любовных историй, образов вина и виночерпия, странствий и разлуки поэты передавали мистические и метафизические смыслы.

Результаты исследования:

Средневековая поэзия Центральной Азии являет собой яркий пример того, как исламская философия, далеко не всегда абстрактная или схоластическая, становилась живой, одухотворённой и эмоциональной. Она не только воспитывала, но и вдохновляла, давала ответы на важнейшие вопросы человеческого существования, способствовала внутреннему преображению человека и общества. Это наследие и сегодня продолжает звучать, напоминая о том, что слово может быть не просто украшением, но и путеводной звездой в поиске истины.

Заключение и выводы:

Средневековая поэзия Центральной Азии – это мощный синтез искусства, философии и религии. Исламская философия, особенно в её суфийском и рационалистическом выражении, стала неотъемлемой частью поэтического языка, через который выражались идеи о смысле жизни, пути к Богу, сущности души и идеалах человеческого бытия. Такие поэты, как Ахмад Ясави, Аль-Фараби, Ибн Сина и Навои, не просто писали стихи - они философствовали, воспитывали, вели читателя за собой по пути духовного совершенствования. Их творчество остаётся актуальным и сегодня, служа мостом между наукой, верой и культурой.

Список литературы:

1. Алишер Навои. Язык птиц. — Ташкент: Фан, 1970. Перевод С. Иванов. - с. 106.
2. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Т. 3. Суфизм и суфийская литература. М., 1965
3. Бертельс Е.Э. Очерк о происхождении суфизма и зарождение суфийской литературы / Суфии. - М., 2000.- 485 с;
4. Ибн-Сина. Исцеление: теология: в 2 томах: пер. с араб., примеч. и послеслов. Т. Ибрагима; Ин-т востоковедения Рос. акад. наук, Центр араб. и ислам. исслед. – Москва. ИВ РАН. – 2022. – с 187.
5. Мекерова М. Суфизм как мистико-аскетическое течение в мусульманской культуре. Ставрополь. 2005.-209 с.
6. Seyyed Hossein Nasr - Islamic Philosophy from its Origin to the Present - SUNY 2006 - 395 p.
7. Смирнов. А. Статья опубликована в энциклопедическом словаре «Этика» Москва.: Гардарики, 2001 (с) 2001.
8. Фараби. Трактат о взглядах жителей добродетельного города // Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. М.: Изд-во АН СССР. 1960. с.156-195
9. Яссавий Ходжа Ахмед. Хикметы / Излож. пер. на рус. яз. Н. Ж. Сагандыковой; Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – 208 с.

* * *

MARKAZIY OSIYODA ISLOMIY ILMLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF ISLAMIC SCIENCES IN CENTRAL ASIA

Zulfiya Ermatova,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Dilshodaxon Muminova,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda islom ilmlarining shakllanishi va taraqqiyoti tahlil qilinadi. Unda fiqh, hadis, tafsir va tasavvuf kabi asosiy ilmiy yo‘nalishlarning rivojlanishi, madrasalarning faoliyati hamda ilmiy maktablarning o‘rni yoritib beriladi. Shuningdek, bu hududda yetishib chiqqan buyuk olimlarning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi va ularning merosi bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. Maqola islom sivilizatsiyasida Markaziy Osiyo olimlari tutgan o‘rinni ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, islom ilmlari, ilmiy meros, fiqh, hadis, tafsir, tasavvuf, ilmiy maktablar, madrasalar, ma’naviy meros, ilmiy taraqqiyot, olimlar, islom sivilizatsiyasi.

Markaziy Osiyoning Islom dini bilan tanishuvi xalifa Umar roziyallohu anhu davrida musulmon qo‘shinlarining Xuroson tomon yo‘nalishi bilan boshlandi. Shu tariqa bu mintaqa ilk bor Islom dini bilan yuzma-yuz keldi. Keyinchalik xalifa Usmon davrida ham fath harakatlari davom etdi, ayniqsa Muoviya ibn Abu Sufyon hukmronligi davrida butun Xuroson va Movarounnahr hududlari Islom tasarrufiga kirdi. Shundan so‘ng Movarounnahrda mashhur diniy olimlar yetishib chiqa boshladi. Qoraxoniylar davrida, ayniqsa Buxoro va Samarqand shaharlarida ilmiy faoliyat yuksak darajaga ko‘tarilib, ular yirik ilmiy markazlarga aylandi . Ilmiy harakatlar va xususan, Islomiy ilmlarning taraqqiyoti natijasida deyarli har bir shaharda olimlar yetishdi. Buning oqibatida, boshqa islomiy hududlarda bo‘lgani kabi, bu mintaqadagi ayrim shaharlar ham mashhur allomalar bilan bog‘langan muhim ilm markazlari maqomiga erishdi. Bu markazlarning eng mashhurlari qatorida Buxoro, Samarqand, Termiz, Shosh, Niso, Saraxs, Nasaf, Bust, Hirot, Balx, Isfaroyon, Tus, Marv va Nishopur shaharlarini sanash mumkin. Shunday ekan, Markaziy Osiyoda umumiy ma’noda ilm va ta’lim, xususan, islomiy ilmlar masalasini hududning Islom sivilizatsiyasi doirasiga kirgan davridan boshlab tahlil etish lozim. Chunki Islomdan avval bu mintaqada muntazam ta’lim maskanlari mavjud bo‘lmagan.

Islom qabul qilinganidan keyin esa Markaziy Osiyo xalqlari o‘zlarini islomiy tamaddunning ajralmas qismi sifatida his qilib, ilmiy izlanishlarga katta e’tibor qaratdilar va deyarli barcha sohalarda yirik allomalar yetishtirdilar. Ayniqsa, Islomiy ilmlar nuqtayi nazaridan qaralganda, bu yurtlardan ko‘plab buyuk olimlar yetishgani, shuningdek, Buxoro va Samarqand madrasalarida minglab talabalar islomiy bilimlarni egallagani ma’lumdir.

Tarixiy manbalar va dalillarga nazar tashlaganimizda, islom ilmlarining tarqalishi va shakllanishida o‘z fikr-mulohazalari hamda asarlari bilan muhim rol o‘ynagan ko‘plab allomalar aynan Markaziy Osiyodan yetishib chiqqanini ko‘ramiz. Bu olimlar fiqh, hadis, kalom, tafsir va tasavvuf kabi islomiy fanlarda mashhur bo‘lib, bu ilmlarning taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganlar.

Islomiy ilmlar deganda, Qur’on va Sunnatdan kelib chiqqan tafsir, hadis, kalom, fiqh va tasavvuf kabi fanlarni tushunish lozim. Markaziy Osiyoda bu ilmlarning har birida yirik siymolar yetishgan bo‘lib, ular yozgan asarlar, ilgari surgan g‘oya va qarashlari orqali o‘z sohalariga ulkan hissa qo‘shganlar.

Tafsir ilmi nuqtayi nazaridan qaralganda, dastlabki mufassirlar avlodning rivoyatlarini to‘plash uslubida asarlar yaratganlari kuzatiladi. Bu jihat ularning faoliyati umumiy islomiy ilmlar shakllanishi jarayoni bilan hamohang kechganidan dalolat beradi. Markaziy Osiyo zaminida yozilgan ilk to‘liq tafsir asarlaridan Imom Moturidiy qalamiga mansub Ta’vilotu-l-Qur’on, Zamaxshariyning al-Kashshof asari hamda Nasafiyning at-Taysirini tilga olish mumkin . Biroq bu mufassirlar ichida tafsir ilmi tarixida eng katta ta’sir ko‘rsatgan siymo – Zamaxshariydir. Shu bilan birga, Imom Moturidiy o‘zining Qur’onni aql mezonida sharhlashga intilgan eng dastlabki mufassirlardan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa-da, uning asari yetarlicha keng tarqalmagan. Xuddi shu holat Nasafiyning tafsiriga ham taalluqlidir.

Hadis ilmi sohasiga nazar tashlaganda esa, islomning mintaqaga yoyilishidan ko‘p o‘tmay Movarounnahr va Turkiston hududida yetuk muhaddislar paydo bo‘ldi . Hadislarni yig‘ish va ularni mavzular asosida tartibga solish borasida eng muhim ilmiy ishlar aynan shu yurtlarda amalga oshirilgan. Qiziq jihati shundaki, hadisning vatani Hijoz bo‘lsa-da, bu borada eng yirik va eng nufuzli asarlar aynan Xuroson – Movarounnahr hududida yaratildi. Islom olamida “Kutub as-sitta” (olti asosiy hadis to‘plami) nomi bilan mashhur bo‘lgan nodir asarlarning mualliflari ham aynan shu mintaqaning farzandlari edi .

Markaziy Osiyo islom ilm-fani markazlaridan biri bo‘lish bilan birga, tasavvuf ta’limotining shakllanishi va keng tarqalishida ham muhim o‘rin tutgan. Tasavvufning ilk ko‘rinishlari VIII–IX asrlarda Qur’oni karim va hadis ilmlari asosida ruhiy poklanish, Allohga yaqinlashish, nafsni tarbiyalash g‘oyalari bilan bog‘liq holda vujudga keldi. Xususan, Buxoro, Samarqand, Termiz va Xorazm kabi shaharlarda tasavvufiy maktablar shakllandi.

XI–XII asrlardan boshlab, tasavvuf nafaqat diniy-falsafiy oqim sifatida, balki ijtimoiy-ma’naviy harakat sifatida ham kuchaydi. Bu davrda Xoja Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi mashhur mutasavviflar faoliyat yuritib, keng xalq ommasini ma’naviy tarbiyalash, ularni odob-axloq va poklikka chaqirishda katta rol o‘ynagan. Ayniqsa, Ahmad Yassaviy “Hikmatlar” asari orqali turkiy xalqlar orasida tasavvufiy fikrlarni keng yoydi.

XIII–XIV asrlarda esa tasavvufiy tariqatlar yanada mustahkamlanib, Naqshbandiya, Qodiriya, Kubraviya kabi mashhur suluklar shakllandi. Ularning ichida Bahouddin Naqshband asos solgan Naqshbandiya tariqati Markaziy Osiyo va undan tashqarida ham katta ta’sir kuchiga ega bo‘ldi . Ushbu tariqatning “dil ba yoru, dast ba kor” (diling Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin) tamoyili xalq orasida diniy va dunyoviy uyg‘unlikning yoyilishini ta’minladi.

Tasavvuf Markaziy Osiyo xalqlarining adabiyoti, san’ati, falsafasi va ma’naviy hayotida chuqur iz qoldirdi. Mutasavvif shoirlar — Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi allomalar tasavvufiy g‘oyalarni o‘z ijodida yuksak badiiy darajaga olib chiqdi. Natijada, tasavvuf nafaqat diniy hayotning bir qismi, balki madaniy-ma’naviy taraqqiyotning ajralmas yo‘nalishiga aylandi.

* * *

ISLOM ILMLARIDA SHARIAT TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA MAZMUN-MOHIYATI

THE FORMATION AND ESSENCE OF THE CONCEPT OF SHARIA IN ISLAMIC SCIENCES

Xakimova Nigora Alisherovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish
ICESCO kafedrasi dotsenti, PhD

Shariat so‘zi arab tilidan odatda “islom huquqi” yoki “islom qonunchiligi” deb tarjima qilinadi. Sha-ra-a (عرش) o‘zagidan hosil bo‘lgan bu so‘z turli ma’nolarda ishlatiladi. “So‘ngra (ey, Muhammad!) Biz Sizni (diniy) ishdan iborat shariat uzra (barqaror) qildik”[232], Josiya surasining 18-oyatida shariat so‘zi islomning tartib-qoidalariga ishora qiladi. Chunki islom dini ta’limoti hech qanday to‘siqlarsiz ravon yo‘l ma’nosiga uyg‘un tartib-qoidalarga egadir[233]. Sho‘ro surasi 13-oyatda shunday deyiladi: “(Ey, imon keltirganlar! Alloh) sizlar uchun din bo‘yicha Nuhga buyurgan narsani va Biz sizga (Muhammadga) vahiy qilgan narsani, (shuningdek) Biz Ibrohim, Muso va Isoga buyurgan narsani – shariat qildi: Dinni barpo qilingiz va unda firqa-firqaga bo‘linmangiz!”[234].

Josiya surasining 18-oyatidagi kabi sha-ra-a qolipida ishlatilganda shariat so‘zi usul, yo‘l, diniy ta’limotlarning eng to‘g‘risi ma’nosini anglatadi. Suv oqib ketadigan yo‘l ma’nosini bildirish uchun “shar’a”[235] so‘zi ishlatilgan bo‘lib, “shir’atul-maa” suv yo‘li mazmunida qo‘llanilgan. Bu so‘z arablar tomonidan “doimiy suv manbaiga olib boradigan yo‘l”, yana ham aniqroq aytsak, katta suv havzasi yoki katta daryo bo‘yiga tushadigan qiyalik ma’nosida ham ishlatilgan.

Bu so‘zning fe’l shakli hayvonlarning suv manbaiga yetib borishini ifodalash uchun ham qo‘llanilgan. Bundan tashqari, hayvonlarning suvni ichish uchun boshini pastga egishi yoki odamning og‘ziga suv olish maqsadida egilishini ifodalash uchun ham qo‘llanilgan[236]. Sahobalar hamda tobe‘inlar bu fe’lni idishlardan suv olib, tahorat paytida tananing ba’zi qismlarini yuvish ma’nosida ham ishlatganlar[237].

Shariat so‘zi doimiy suv manbaidan ichish yoki suv manbaiga kelish mazmunini anglatgan bo‘lib, vahiy davridagi arablar uchun bu hayot ma’nosini bildirgan. Qur’onda suv hayotning asosi sifatida quyidagicha ta’riflanadi: “… va barcha tirik mavjudotni suvdan (paydo) qilganimizni ko‘rmadilarmi?!”[238]. Shara’a fe’lining aks ma’nosini ifodalash uchun arablar “qamaha” fe’lini qo‘llagan bo‘lib, odatda bu fe’l boshini yuqoriga ko‘targan holda suv manbaidan ichishni rad qilgan hayvonga nisbatan ishlatilgan. Qur’onda bu so‘z faqat bir marta uchraydi. Oyatda Allohning xabarini qabul qilishni rad etganlar “muqmaḥun” deb tasvirlanadi: “Bas, ular kekkayuvchidirlar”[239].

Hayvonning suv ichish uchun boshini pastga egishi va musulmonning qalbiga hayot baxsh etish uchun Alloh tomonidan o‘rnatilgan meyorlarga bo‘ysunishi o‘rtasida ramziy bir o‘xshashlik mavjud bo‘lib, bu namozdagi ruku va sajda harakatlari orqali jismoniy shaklda aks etadi[240].

---

[232] Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. – Toshkent: TIU, 2009. – B. 500.
[233] Ibn Manzur. Lison al-arab. – Bayrut: Dor Sodir, 1900. – J. VIII. – B. 176-179.
[234] Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. – Toshkent: TIU, 2009. – B. 484.
[235] Ibn Manzur. Lison al-arab. – Bayrut: Dor Sodir, 1900. – J. VIII. – B. 176-179.
[236] Samer Dajani. Sufis and Sharia. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2023. – B. 78.
[237] Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – Qohira: Dor at-tasil, 2012. – J. IX. – B. 286.
[238] Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. – Toshkent: TIU, 2009. – B. 562.
[239] O‘sha manba. – B. 562.
[240] Samer Dajani. Sufis and Sharia. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2023. – B. 78.

Qur’onda shariat so‘zining boshqa shakli bo‘lgan shir’at so‘zi ilohiy yo‘l ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lib, bu yo‘l Allohning hukmlariga ergashishda o‘z aksini topadi: “… Sizlardan har bir (ummat) uchun (alohida) shariat va yo‘l (tayin) qilib qo‘ydik”[241]. Sahobiylarning ko‘pchiligi, masalan, Ibn Abbos (r.a.) shariat so‘zini “yo‘l” ma’nosini bildiruvchi “sabil” so‘zi bilan bir ma’noda ekanini qayd qilgan[242].

To‘g‘ri yo‘l, suv manbai, dinning ma’nolari, haqiqatga eltadigan eng to‘g‘ri yo‘l ma’nolaridan tashqari, shariat so‘zi majoziy talqinda bu yo‘lni tutganlarning ma’naviy chanqog‘i qonishi, ularning poklanishi mazmunida ham qo‘llaniladi. Yusuf Homid Olim (vaf. 1988 y.) shariat atamasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Bu Allohning payg‘ambarlari orqali sog‘lom e’tiqod tamoyillari, ijtimoiy munosabatlar va inson amallarida mavjud manfaatlarni odamlarga yetkazishdir”[243].

Bu istiloh mazmunini tushunishda uning faqatgina “qonun”, “qonun chiqaruvchi” yoki “huquqiy nazariya” kabi birlamchi mazmunlardan foydalanish shakliy tushunish hisoblanib, so‘z mohiyatini aniq va chuqur anglashni qurbon qilish evaziga amalga oshiriladi. Shariat atamasi “qonun” ma’nosi bilan chegaralanib qolmay, balki kengroq mazmunni ifodalaydi. U axloq meyorlarini ham qamrab olib, Allohga qay tarzda mukammal ibodat qilish tartibini o‘rgatadi.

Huquqshunoslarning fikriga ko‘ra, ilohiy taqiqlar yoki buyruqlarni huquqiy jihatdan meyorlar deb atash mumkin, chunki meyorlar aslida nima qilish yoki qilmaslik kerakligi haqidagi ko‘rsatmalar hisoblanib, ular shaxslarning xatti-harakatlarini shunday yo‘naltiradiki, ularga rioya qilishdan boshqa chora qolmaydi. Lekin, tavsiya qilingan yoki maqbul bo‘lmagan amallarning tasnifi bunday majburlovchi xususiyatga ega emas, bu qoidalar inson xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatishga intiladi, lekin amal qilmaslik imkoniyatini ham beradi. Shu sababli, ular huquqiy meyorlardan tubdan farq qiladi[244].

Shariatda buyurilgan yoki taqiqlangan amallarning aksariyati yuqori turuvchi biror tashkilot tomonidan nazorat qilinmaydi, balki musulmonning qalbi va ongiga xavola etiladi. Shariatda sanoqli ijtimoiy xavfli qilmishlar uchungina hudud deb nomlangan jazo choralari, ya’ni inson xulq-atvori cheklanishi mumkin bo‘lgan eng yuqori chegaralar belgilab qo‘yilgan. Lekin shaxsiy va ibodat masalalari musulmon bilan uning Rabbisi o‘rtasidagi masala bo‘lib qoladi[245].

Shariat huquqiy mazmundagi buyruq va taqiqlardan iborat ta’limot hisoblangani uchun ahli hadis ulamolari har bir ilohiy ko‘rsatmani majburiy, tavsiya etilgan, joiz, maqbul bo‘lmagan va harom ko‘rinishida besh turkumga ajratib o‘rganadilar.

Islom dinining asl mazmuni shakl va mohiyat uyg‘unligida aks etgan bo‘lib, islom ilmlari taraqqiyoti ham asl manbalar asosida o‘rganilsa mazkur mohiytga erishish mumkin hisoblanadi.

* * *

[241] Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. – Toshkent: TIU, 2009. – B. 562.
[242] Ibn Kasir. Tafsir. – Qohira: Maktaba at-turos, 2000. – J.V. – B. 247.
[243] Yusuf Homid Olim. Al-Maqosid al-omma li-sh-shariat al-islomiya. – Ar-Riyod: Dor al-olamiya li al-kutub al-islomiya, 1994. – B. 68.
[244] Bernard Weiss. The Search for God’s Law. – Utah: University of Utah Press, 1992. – P. 3.
[245] W. Hallaq. What is Sharia? – P. 151-80.

“SUNAN”DAGI TAFSIR BOBINING ILMIY-USLUBIY XUSUSIYATLARI

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FEATURES OF THE COMMENTARY (TAFSIR)CHAPTER IN “SUNAN”

Ahad Raymberdiyev
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasi tayanch doktoranti

Islom tarixida hadis ilmi Qur’oni Karimdan keyingi eng muhim manba sifatida e’tirof etilgan. Chunki hadislar Qur’oni Karim oyatlarining ma’nolarini sharhlashda, diniy hukmlarni aniqlashda va ularni hayotga tatbiq etishda asosiy manba hisoblanadi. Shu boisdan ilk davrlardanoq hadislarni jamlash, tasniflash va tartibga solish ishlari keng ko‘lamda amalga oshirilgan. Hadis ilmining yirik namoyandalaridan biri Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209–279 h./824–892 m.) bo‘lib, u o‘zining mashhur “Al-Jome’ as-Sunan” asari bilan hadis ilmi tarixida beqiyos iz qoldirgan[246].

Imom Termiziyning “Sunan” asari “Kutub as-Sitta” — oltita mashhur hadis to‘plami qatoriga kirib, musulmon olamida keng o‘rganib kelinmoqda. Mazkur asarda faqatgina fiqhiy hukmlar yoki axloqiy ko‘rsatmalar emas, balki Qur’oni Karim tafsiriga oid boblar ham joy olgan. Bu esa asarning qimmati va ilmiy-uslubiy ahamiyatini yanada oshiradi. Ushbu tezisda “Sunan” asaridagi Tafsir bobining ilmiy-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

“Sunan” asarining umumiy tuzilishida Imom Termiziy hadislarni jamlashda o‘ziga xos tartibni qo‘llagan. U fiqhiy masalalar asosida hadislarni bob-bob qilib tasniflagan bo‘lsa-da, boshqa muhaddislar singari Qur’oni Karim oyatlariga ham alohida e’tibor qaratgan. Shu sababli “Sunan” asarida Qur’on tafsiriga oid alohida boblar mavjud. Asar tuzilish jihatidan nafaqat fiqhiy hukmlarni, balki aqida, axloq, Qur’on tafsiri, qiyomat alomatlari va boshqa diniy masalalarni ham o‘z ichiga olgan. Ayniqsa, Tafsir boblari Qur’oni Karimni hadislar asosida izohlashda juda katta ilmiy manba hisoblanadi. Imom Termiziy Qur’oni Karim oyatlarini sharhlashda bevosita hadislarni asos qilib olgan. Bu uslub tafsir ilmining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Masalan, “Niso” surasidagi meros masalalariga oid oyatlar hadislar bilan izohlangan. Bu orqali Qur’oni Karimdagi umumiy hukmlar tafsilotli ravishda bayon etilgan.

حَدَّثَنَا قُتَيْبَةُ، حَدَّثَنَا جَرِيرٌ، عَنِ الأَعْمَشِ، عَنْ أَبِي الضُّحَى، عَنْ مَسْرُوقٍ، قَالَ قَالَ عَبْدُ اللَّهِ: « إِذَا كُنْتُ أُحَدِّثُكُمْ حَدِيثًا مِثْلَ هَذَا، إِنَّ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ قَالَ: «مَنْ أَحْسَنَ فِي صَلاَتِهِ فَلَمْ يُتِمَّهَا، كَانَ لَهُ نِصْفُ الأَجْرِ، وَمَنْ أَتَمَّهَا كَانَ لَهُ الأَجْرُ كُلُّهُ»

“Abdulloh ibn Mas’ud (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: Rasulullоh (s.a.v) dedilar: “Kim namozini chiroyli ado etsa-yu, lekin uni to‘la bajarmasa, unga yarim ajr yoziladi. Kim uni to‘liq ado etsa, unga to‘la savob yoziladi.[247]”

Bu hadis “Niso” surasidagi ibodatlarni to‘liq ado etish haqidagi oyatlarga tafsir sifatida keltirilgan. Imom Termiziy bu hadisni isnod bilan rivoyat qilgan va uning darajasini ko‘rsatib o‘tgan. Ushbu hadis Qur’oni Karimdagi ibodatni ado etishning mukammal yo‘lini ko‘rsatadi[248].

Imom Termiziy hadis ilmining asosiy tamoyillaridan biri isnodga qat’iy amal qilgan. Tafsir bobida keltirilgan har bir hadisning isnodi tekshirilgan, roviylar haqida ma’lumot berilgan. Shu bilan

[246] At-Termiziy, Abu Iso. Al-Jome’ as-Sunan. – Istanbul: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2005. – B. 233.
[247] Anvarshoh Kashmiriy. Arfu shaziy sharhi Sunani Termiziy. – Lubnon: Darul turosul arabiy, 2004. – J. I. – B. 176.
[248] At-Termiziy, Abu Iso. Al-Jome’ as-Sunan. – Istanbul: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2005. – B. 233.

birga, u hadislarning matniga ham e’tibor qaratib, matnni Qur’on oyatlari bilan uyg‘unlashtirgan. Termiziy zaif hadislarni ham butkul rad etmay, balki ularning ma’nosini izohlash, boshqa dalillar bilan taqqoslash orqali ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilgan.

حَدَّثَنَا أَحْمَدُ بْنُ مَنِيعٍ، حَدَّثَنَا هُشَيْمٌ، أَخْبَرَنَا حُصَيْنٌ، عَنْ سَعِيدِ بْنِ جُبَيْرٍ، عَنِ ابْنِ عَبَّاسٍ، قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ: « مَنْ قَرَأَ آيَةَ الْكُرْسِيِّ دُبُرَ كُلِّ صَلَاةٍ مَكْتُوبَةٍ لَمْ يَمْنَعْهُ مِنْ دُخُولِ الْجَنَّةِ إِلَّا الْمَوْتُ “

Ibn Abbos (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: Rasulullоh ﷺ dedilar: “Kim farz namozidan keyin Oyatul Kursini o‘qisa, uni jannatga kirishdan faqat o‘lim to‘sadi.”

Bu hadis Qur’oni Karimning eng ulug‘ oyatlaridan biri bo‘lgan Oyatul Kursi fazilatini ko‘rsatadi. Imom Termiziy bu rivoyatni Tafsir bobida keltirib, Qur’on oyatini hadis orqali izohlash uslubidan foydalangan[249].

Tafsir bobida faqatgina oyatlarning lug‘aviy yoki tarixiy sharhi emas, balki fiqhiy va aqidaviy izohlar ham berilgan. Masalan, ibodatlarga oid oyatlar hadislar orqali keng yoritilgan, halol-harom masalalari hadislar asosida tushuntirilgan. Aqidaviy masalalarga doir oyatlarda esa Allohning sifatlari, oxirat hayoti, qiyomat alomatlari kabi mavzularda hadislar asosida sharh keltirilgan. Imom Termiziyning Tafsir bobidagi yondashuvi Buxoriy va Muslimning asarlaridan farqli jihatlarga ega. Imom Buxoriy “al-Jome’ as-Sahih” asarida tafsirga oid boblarni ko‘proq tarixiy tartibda, suralar asosida keltirgan bo‘lsa, Termiziy tafsirni fiqhiy tartib asosida sharhlagan. Shuningdek, Termiziy hadislarning darajasini ko‘rsatishda “hasan”, “g‘arib” kabi istilohlarni qo‘llagan bo‘lib, bu uslub boshqa muhaddislardan farqli o‘laroq, ilmiy-uslubiy yondashuvni yanada boyitgan.

Imom Termiziy tafsir bobida hadislarni Qur’on oyatlari bilan bog‘lab sharhlagani tufayli bu asar nafaqat tarixiy, balki hozirgi davrda ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tafsir ilmlarida Qur’on oyatlarining to‘g‘ri talqin qilinishi uchun hadislarning ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, ijtimoiy hayot, axloq, huquqiy masalalarda Qur’on va hadis uyg‘unligi musulmon jamiyatining barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko‘rinadiki, Imom Termiziyning “Sunan” asaridagi Tafsir boblari Qur’oni Karimni chuqur anglash, hadislar asosida izohlashda noyob manba hisoblanadi. Qur’on oyatlari hadislar bilan uyg‘unlashtirilgan, isnod va matnga ilmiy e’tibor qaratilgan, fiqhiy va aqidaviy masalalar izohlangan, ilmiy-uslubiy yondashuvda boshqa muhaddislardan farqli jihatlar mavjud. Demak, “Sunan”dagi Tafsir bobining ilmiy-uslubiy xususiyatlarini o‘rganish bugungi kunda ham Qur’on ilmlari va hadis ilmini chuqur o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

* * *

SALJUQIYLAR DAVRIDA ISLOM ILMLARINING MARKAZIY OSIYO ULAMOLARI ORQALI RIVOJLANISHI

THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC SCIENCES THROUGH CENTRAL ASIAN SCHOLARSHIPS DURING THE SELJUK PERIOD

Mirzaeva Muxlisa Nuritdinovna
O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi tadqiqiotchisi

Mazkur maqolada Saljuqiylar davrida islom ilmlarining taraqqiyoti, xususan, Markaziy Osiyolik ulamolarning bu jarayondagi o‘rni, diniy-ma’rifiy muhitning shakllanishi va madrasalar tizimining

[249] Shamsiddin Muhammad Zahabiy. Kitob Tazkirat al-huffoz. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1998. – B. 433.

rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, kalom, fiqh, tafsir, hadis kabi diniy fanlar bo‘yicha faoliyat yuritgan olimlarning ilmiy-ma’naviy merosi hamda ularning Saljuqiylar davlati siyosiy-huquqiy tizimidagi o‘rni yoritilgan.

Saljuqiylar sulolasi XI–XII asrlarda musulmon Sharqida siyosiy barqarorlikni ta’minlagan va islom ilm-fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan davlatlardan biri bo‘ldi. Ayniqsa, Saljuqiylar hukmronligi ostidagi Xuroson, Movarounnahr va Eron hududlarida diniy-ma’rifiy hayot sezilarli darajada faollashdi. Bu jarayonda Markaziy Osiyodan chiqqan yetuk mutafakkir va olimlarning tutgan o‘rni alohida e’tiborga loyiqdir[250].

Ushbu davrda Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi shaharlar, ilmiy markazlar sifatida, o‘rta asrlarning yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylangan. Madrasalar, masjidlar va kutubxonalar orqali ta’lim tizimi shakllangan, ilm-fan va diniy bilimlar o‘rtasidagi integratsiya nafaqat mahalliy hududlarda, balki butun Islom olamida katta ta’sir ko‘rsatgan. Movarounnahr markaziy shaharlaridagi madrasalar va masjidlar, ta’lim tizimining asosiy muassasalari sifatida shakllangan. Madrasalar ilm-fan, falsafa, tibbiyot, astronomiya va boshqa ko‘plab sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan markazlar bo‘lgan. Bu davrda Buxoro va Samarqanddagi madrasalar faqat diniy bilimlarni emas, balki ilmiy va falsafiy tafakkur bilan bog‘liq bilimlarni ham o‘rgatgan. Masalan, Buxorodagi madrasalarda Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy kabi olimlarning asarlari o‘qitilgan, bu esa o‘rta asrlarning ilmiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan[251].

Saljuqiylar davrida madrasalar diniy-ma’rifiy institut sifatida shunchaki ilm beruvchi mackan emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi kuchli ideologik markaz vazifasini ham bajargan. Bu madrasalar orqali shariatga asoslangan bilimlar, kalomiy qarashlar, fiqhiy tafsirlar va siyosiy fikrlar tizimli tarzda o‘rgatilgan. Ayniqsa Nizomulmulk (vaf. 1092) tomonidan asos solingan “Nizomiya” madrasalari ulkan ma’naviy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan. Saljuqiylar davrida fiqhning madrasalar orqali tarqalishi diniy-siyosiy tafakkurning keng ijtimoiy qatlamlarga yetkazilishida muhim vosita bo‘ldi. Ushbu madrasalar nafaqat fiqh, tafsir va hadislarga oid ilmlarni o‘rgatdi, balki siyosiy-huquqiy tafakkurni ham shakllantirdi. Madrasalarda tahsil olgan fuqaholar, mudarrislar va qozilar davlat xizmatiga jalb qilinib, hukmdorlar bilan bevosita maslahatlashuvchi diniy-siyosiy elitani tashkil etdi[252].

Madrasalar Saljuqiylar tomonidan nafaqat ilm-fan rivoji uchun, balki sunniy islom mafkurasini siyosiy jihatdan mustahkamlash uchun vosita sifatida tashkil etildi. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarida madrasalar – “e’tiqodni saqlovchi va firqaparastlikka qarshi qal’a” sifatida talqin etiladi. Bu madrasalarda ayniqsa ash’ariy aqida, shofe’iy va hanafiy fiqh maktablari asoslari o‘rgatilgan bo‘lib, turli hududlardan kelgan talabalar ushbu diniy-mazhabiy doirada tarbiyalangan[253].

Ushbu madrasalarda o‘rgatilgan mavzularning umumiy rejasi quyidagicha bo‘lgan:

1-Qur’on va Qur’on ilmlari.
2-Hadis va unga oid ilmlar.
3-Shofe’iy usuli fiqhi va ash’ariy kalomi.
4-Shofe’iy fiqhi.
5-Arab tili va unga oid ilmlar.
6-Adab (adabiyot) va unga oid ilmlar.
7-Riyoziyot va Faroiz (arifmetika va meros taqsimoti bilan bog‘liq ilm).

Moturidiylik kalom maktabi Saljuqiylar davrida rasmiy e’tiqod sifatida mustahkamlandi. Bu maktab asoschisi Imom Abu Mansur Moturidiy (870–944) bo‘lib, uning ta’limoti Saljuqiylar

[250] Bobojonov A. Movarounnahrda diniy tafakkur tarixi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -84 b.
[251] Islomov, A. Buxoro madrasalari va ularning ilmiy roli. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2005. -12 b.
[252] Makdisi, The Rise of Colleges, - Edinburgh. Edinburgh University Press, 1981. – 391 p.
[253] Berkey J., The Transmission of Knowledge in Medieval Cairo: A Social History of Islamic Education, Princeton Studies on the Near East. Princeton, N.J.: Princeton University Press, 1992. – 249 p.

davlati siyosiy mafkurasining ideologik poydevoriga aylandi[254]. U hanafiy mazhabiga mansub kalom olimi bo‘lib, Samarqandda yashab ijod etgan. Uning asosiy asari “Kitob at-Tavhid” bo‘lib, aqida va kalom masalalariga bag‘ishlangan. Xususan asarda aqlga alohida urg‘u berib shunday deyiladi: “Aql Allohni tanishda muhim vosita. Inson aql bilan Yaratganini tanishga majburdir”[255]. Mutakallim ilmiy faoliyatining asosiy qismini Samarqandda o‘tkazgan. Imom Motrudiy iymon masalalarida Abu Hanifa (699–767) yo‘lidan yurgan va uning fikrlarini sharhlab, ularga oydinlik kiritgan. U Movarounnahrda hanafiy imomi va Abu Hanifa izdoshi bo‘lganligi sababli undan keyingi ulamolar ham unga ergashganlar. Binobarin, Motrudiya Movarounnahr ulamolari uchun tafakkur maktabiga aylangan[256]. Saljuqiylar hukmronligi davrida bu ta’limotni rivojlantirgan allomalardan Abu Mu‘in an-Nasafiy (1027-1114)[257], Abu Hafs Najmuddin Umar an-Nasafiy (1069-1142)[258] va boshqalar e’tiborga loyiqdir. Ular kalom, tafsir va fiqh ilmlarini birlashtirib, musulmon jamiyatida diniy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaganlar.

Xususan, Abu Mu‘in an-Nasafiyning bugungi kungacha yetib kelgan asari „Tabsirtul adilla fi usuliddin“ kitobi bo‘lib, mazkur asar moturidiylik ta’limotida „Tavhid“ asaridan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi. Bu kitob moturidiya ta’limotining dunyo bo‘ylab tarqalishiga ulkan hissa qo‘shgan[259].

Abu Hafs Najmuddin Umar an-Nasafiyning musulmon qonunshunosligiga doir “al-Manzumat an-nasafiya fil-xilofiyot” (Kelishmovchiliklar borasida Nasafiyning nazmiy asari), “Aqoid an-nasafiy” (Nasafiy aqoidi), shariat qonunlari va Qur’oni karim sharhiga doir “al-Yavoqit fil-mavoqit” (Qulay vaqtlar xususida yoqutlar), 3 kitobdan iborat “Taysir fit-tafsir” (Tafsir etishdagi qulayliklar), shuningdek, tasavvufga doir “Risolayi Najmiya” kitobi bizgacha yetib kelgan[260].

Shuningdek, Saljuqiylar davrida fiqh sohasida hanafiylik maktabi keng tarqaldi. Markaziy Osiyo ulamolari bu yo‘nalishda chuqur tadqiqotlar olib borib, o‘z asarlari orqali fiqhiy masalalarning xalqqa yetkazilishida vositachi bo‘lishdi. Masalan, Burhoniddin Marg‘inoniy (1123-1197)ning “Hidoya” asari Saljuqiylar davridagi fiqhiy tafakkurning yuksak namunasi bo‘lib, islom olamida keng tarqalgan[261]. Burhoniddin Marg‘inoniy asarida musulmonlar duch keladigan dolzarb hayotiy masalalar, jumladan oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burch va mas’uliyatlariga taalluqli juda ko‘p murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtai nazaridan hal etib bergan. Mazkur kitob nafaqat Movarounnahrda, balki butun islom sharqida bir necha tillarga tarjima qilinib ma’lum va mashhur bo‘lib ketdi. Bu kitob fiqh ilmi bo‘yicha eng aniq, izchil, mukammal asar bo‘lib, undan asrlar davomida islom huquqshunosligi bo‘yicha nufuzli huquqiy manba-asosiy qo‘llanma sifatida foydalanib kelingan. Shu sababli alloma nafaqat ulamolar, balki oddiy xalq orasida ham “Hidoyat yo‘lining sarboni” deya katta hurmat-e’tibor topgan[262].

Diniy-ma’rifiy muhitning rivojida, shubhasiz, siyosiy omillar ham muhim rol o‘ynagan. Saljuqiy hukmdorlari ilm ahliga g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan, ulamolarga homiylik qilgan. Bu siyosat natijasida Markaziy Osiyodan chiqqan olimlar Bag‘dod, Nishopur, Tus, Balx, Marv kabi yirik ilmiy markazlarda faoliyat yuritishgan[263].

---

[254] Zokirov M. Saljuqiylar va islom ilmlari rivoji. – Toshkent, 2020. -35b.

[255] Moturidiy, Kitob at-Tavhid., Tahqiq: Fathullah Xulif. Beirut: Dar al-Mashriq, 1970. 25-bet,

[256] İzmirli İsmail Hakkı, Yeni ilmi Kelam, (n§r. Sabri Hizmetli), Ankara 1981, s. 67.

[257] Abu Mu‘in an-Nasafiy. Tabsirat al-Adillah. – Qohira, 1321 h.

[258] Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. al-Qand fi ma’rifat ulamo Samarqand. -Istanbul. -Sulaymoniya kutubxonasi. – “Turhan Valide Sultan” fondi. - Qo‘lyozma № 70. — 198 v.

[259] Uvatov, Ubaydulla; Oqilov, Saidmuxtor; Daminov, Ergash. Moturidiya ta’limoti va Abu Muin Nasafiy ilmiy merosi.. Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2018-yil.

[260] Nasafiy, Abu Hafs Najmiddin Umar ibn Muhammad // O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 6-jild. Miriy-Parxish. -T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. - B. 272-273.

[261] Marg‘inoniy B. Al-Hidoya. – Qohira: Dar al-Fikr, 1991.

[262] Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy. „Burhoniddin Marg‘inoniy“ O‘zME. B-harfi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

[263] Bobojonov A. Movarounnahrda diniy tafakkur tarixi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -46 b.

Saljuqlar davlati hukmdori Malikshoh (1072-1092) davrida davlat faqat harbiy yoki siyosiy emas, balki madaniy va ilmiy taraqqiyot jihatidan ham yuksak darajaga yetdi. Bu davrda ilm ahliga bo‘lgan munosabat juda iliq va hurmatga asoslangan edi. Ushbu madaniy muhitda Sulton Malikshohning ilmiy tadqiqotlarga bo‘lgan e’tibori amaliy ishlarda ham ko‘zga tashlanadi. U asrining eng yetuk olimlaridan biri Umar Xayyom (1048-1131)ni o‘z saroyiga taklif qilib, unga observatoriya qurish va taqvimni isloh qilish vazifasini yuklagan[264]. 1074 yilda Isfahonda astronomik observatoriya qurildi. Ushbu observatoriyada Umar Xayyom boshchiligidagi mutaxassislar guruhi astronomlar, matematika va geometriya olimlari taqvim islohotini amalga oshirishga kirishdilar[265]. Besh yillik aniq kuzatuvlar asosida ular Jaloliy taqvimini yaratishga muvaffaq bo‘lishdi. Bu taqvim:

kun va yillarning astronomik uzunligiga asoslangan;

har 33 yilda 8 kabisa (o‘rindosh) yilini joriy etgan;

Grigorian taqvimidan ham aniqroq hisoblangan[266].

Bu taqvim Sulton Malikshohning nomi bilan “Jaloliy taqvimi” deb nomlangan. Sababi sultonning ismi Jalal ad-din Malikshoh edi. U musulmon dunyosidagi eng mukammal solnomalardan biri sifatida tarixda qoldi[267].

Saljuqiylar davri islom ilmlarining rivoji uchun muhim davr bo‘lib, bu jarayonda Markaziy Osiyo ulamolarining hissasi beqiyos bo‘ldi. Ularning ilmiy merosi nafaqat diniy bilimlarning chuqurlashuviga, balki musulmon jamiyatining ma’naviy yuksalishiga ham xizmat qildi. Bugungi kunda bu davrni chuqur o‘rganish, Markaziy Osiyo ilmiy-madaniy taraqqiyotining uzviy qismini anglash uchun muhim ahamiyatga ega.

* * *

“АЛ-АКМАЛУ-Л-АТВАЛ” ТАФСИРИ ҚЎЛЁЗМА НУСХАЛАРИ

MANUSCRIPT COPIES OF THE COMMENTARY OF “AL-AKMALU-L-ATWAL”

Янгибоев Адҳамбек Эсанович
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси Манбалар хазинаси бўлими кичик илмий ходими.

Абу Ҳафс Насафий асарларига оид қўлёзмаларнинг аксарияти бизгача етиб келган. Алломанинг “ал-Акмалу-л-атвал” номли тафсирига тегишли қўлёзма нусхалари шулар жумласидан. Асарнинг айнан иккита нусхаси машҳур бўлиб, кўплаб тадқиқотчилар илмий ишларида асосий манба сифатида хизмат қилган. Улардан бири тўрт жилддан иборат бўлиб, Мисрдаги “Дору-л-кутуб ва-л-васоиқи-л-қавмия” кутубхонасида 37-рақам остида сақланади. Асарга тегишли иккинчи нусха ҳам, айнан шу кутубхонада 38-рақам остида сақланади.

Асарнинг 37-рақамли нусхаси тўлиқ ҳолатда бўлиб, биринчи жилди 1180 йил кўчирилган. Бироқ бирорта ўринда котибнинг исми зикр қилинмаган. Қўлёзманинг ҳолати ўрта, варақлар сони 373, ҳар бир саҳифада 39 та қатор мавжуд. Матн қора сиёҳ билан насх хатида ёзилган, пойгир мавжуд. Оятларга ҳаракат (фатҳа, касра, замма) белгилари қўйиб чиқилган. Муқова ўлчами энига 20 см, бўйига 33 см бўлиб, аввалги ва охирги варағига муҳр босилган. Мухрда

[264] Nasr, Seyyed Hossein. *Science and Civilization in Islam*, Harvard University Press, 1968.
[265] E. S. Kennedy, “The Jalali Calendar”, *Iranian Studies*, Vol. 7, No. 3/4, 1974.
[266] George Saliba, *Islamic Science and the Making of the European Renaissance*, MIT Press, 2007.
[267] Encyclopaedia Britannica, “Omar Khayyam”, www.britannica.com/biography/Omar-Khayyam

المصرية الكتبخانة الخديوية (ал-Мисрияту-л-кутубхонату-л-худайвия) деган ёзув бор. Бу “Дору-л-кутуб ва-л-васоиқи-л-қавмия” кутубхонасининг дастлабки номи бўлиб, 1870 йил Миср волийси Худайвий Исмоил (1863-1879) буйруғига кўра барпо қилинган.

Қўлёзма қайд варағида 1193 йил Амир Аҳмад оға пошо Жовуш Тафкижён исмли киши мазкур нусханинг барча жилдларини “Шайхун” университети хазинасига эҳсон тариқасида тақдим қилгани ҳақида ёзилган. Демак, ушбу жилд котиб томонидан кўчирилганидан ўн уч йил ўтиб, Аҳмад оға пошо уни “Шайхун” университети хазинасига топширган.

Асар қуйидаги жумлалар билан бошланган:

بسم الله الرحمن الرحيم. قال الشيخ الإمام العلامة المحدث الحافظ نجم الدين ابو حفص عمر بن محمد بن أحمد النسفي قدس الله روحه ونور ضريحه

Маъноси: “Меҳрибон ва раҳмли Аллоҳ номи билан бошлайман. Шайх, имом, аллома, муҳаддис, ҳофиз Нажмиддин Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад Насафий (Аллоҳ руҳини шод, қабрини мунаввар қилсин) айтади”.

Биринчи жилд аввалида муаллифнинг кириш сўзи ва муқаддима қисмида Қуръон илмларига доир 19 мавзу келтирилган. Сўнгра истиоза, басмала ва Фотиҳа сураси тафсирига киришилган. Истиоза борасида ўн иккита, басмалада эса йигирма еттита масала баён қилинган. Шунингдек, мазкур жилд Бақара, Оли Имрон, Нисо, Моида ва Анъом суралари тафсирини ўз ичига олиб, қуйидаги хулоса билан тугалланган:

وهذا آخر الكلام في تفسير سورة الأنعام والحمد لله ولي الأنعام مالك الملك ذو الجلال والإكرام وصلواته على رسوله محمد سيد الأنام وعلى آله وأصحابه السادة الكرام والحمد لله وحده وكان الفراغ من كتابة هذا الجزء المبارك غرة شهر ذي القعدة الذى هو من شهور سنة 0811. ويتلوه أول الجزء الثاني أول سورة الأعراف على التمام والكمال والحمد لله على كل حال.

Маъноси: “Бу Анъом сураси тафсиридаги охирги гапдир. Анъом (чорва моллари)нинг эгаси, барча мулкнинг соҳиби, улуғ ва карамли Аллоҳга ҳамд, инсоният саййиди бўлган Пайғамбари ва у зот (с.а.в.)нинг аҳли-оиласи ҳамда шарафли асҳобларига саловатлар бўлсин. Мақтовлар ёлғиз Аллоҳга хосдир. Мазкур жилд 1180 йил, зулқаъда ойининг бошида кўчириб тугатилди. Унинг давоми бўлган иккинчи жилд Аъроф сураси аввалидан бошланади. Барча ҳолатда Аллоҳга ҳамд бўлсин”.

“Дору-л-кутуб ва-л-васоиқи-л-қавмия” кутубхонасида “ал-Акмалу-л-атвал” асарининг яна бир қўлёзма нусхаси сақланади. Бу нусха 38-рақам остида бўлиб, у ерда учдан еттигача бўлган жилдлари мавжуд. Масалан, учинчи жилд матни қора сиёҳ билан насх хатида ёзилган, ҳар бир бетдаги қаторлар сони 23 тадан. Муқова ўлчами 18 см.га 26 см, варақларининг умумий сони 259 тадир. Қайд варағига, иккинчи, қирқинчи ва охирги варақларига муҳр босилган. Иккинчи варақдагиси бошқа, қолганлари эса 37-рақамли нусхадаги муҳрлар билан бир хилдир. Ҳолати ўрта, баъзи варақлари сув текканидан чириган, баъзиларида эса қора доғлар мавжуддир. Ушбу жилд Анъом сураси тафсири билан шундай бошланган:

قال ابن عباس إنها مكية نزلت جملة واحدة إلا ست آيات فإنها مدنيات.

Маъноси: “Ибн Аббос айтади: “У Маккада яхлит ҳолда нозил бўлган. Фақат 7 оят Мадинада нозил бўлган”.

Мазкур жилднинг охири шундай якунланган:

تم المجلد بحمد الله وكرمه، يتلوه قوله تعالى وممن حولكم من الأعراب منافقون، ومن أهل مدينة مردوا على النفاق لاتعلمهم، نحن نعلمهم، سنعذبهم مرتين ثم يردون إلى عذاب عظيم.

Маъноси: “Ушбу жилд мақталган Аллоҳнинг карами билан якунланди. Унинг давоми Аллоҳ таолонинг “Теварагингиздаги аъробийлар ва Мадина аҳолиси ичида мухолифлар бор. (Улар) нифоқда бардавомдирлар. Уларни (Сиз) билмайсиз, уларни Биз биламиз. Албатта, уларни икки бор азоблаймиз. Сўнгра (қиёматда) улкан азоб (дўзах)га қайтарилурлар”.

Асар қўлёзмаларининг яна бир нусхаси Басра университети марказий кутубхонасида 311-рақам остида сақланади. Бу нусха “ал-Акмалу-л-атвал” номи билан эмас, балки, “Тафсиру-

л-Қуръон” номи билан рўйхатга олинган. Басра университети марказий кутубхонасининг қўлёзмалар каталогида мазкур нусха тўғрисида шундай маълумотлар берилган: “6 – Тафсиру-л-Қуръон. Муаллиф: Нажмиддин Умар ибн Муҳаммад Насафий (ваф. 537 ҳ.). У мухтасар бўлиб, аввали тушиб қолган ва “وعلى سمعهم .. اسمائهم وفي الاذن غشاوة” жумлалари билан бошланади. 1111/1699 йил, робиъуссоний ойи, жума куни кўчирилган. Матн қора сиёҳ билан девоний хатида ёзилган, ҳошиясида баъзи изоҳлар берилган. Шунингдек, тер излари ва доғлар мавжуддир. Варақлар сони 66 та, муқова ўлчами 12х17,5 см. ва сатрлар сони 15 та”.

Абу Ҳафс Насафийнинг “ал-Акмалу-л-атвал” тафсири қўлёзмалари ҳақидаги маълумотларнинг баъзилари “ат-Тайсир фи-т-тафсир” билан алмаштириб юборилган ҳолатлар ҳам мавжуд. Яъни, маълумотларда “ал-Акмалу-л-атвал” тафсирининг қўлёзма нусхаси, дейилган. Бироқ, у “ат-Тайсир фи-т-тафсир”га тегишлидир. Масалан, Туркиядаги “Лолали” номли кутубхонада 169-рақам остида сақланаётган қўлёзма бор. У муқаддима қисми, истиоза, басмала ва Фотиҳа сурасининг тафсирини ўз ичига олган. Асарнинг аввалида хаттот томонидан бу “ал-Акмалу-л-атвал” нинг бир жузи экани қайд қилинган. Котиб дастлаб Қосим ибн Қутлубуғо “Тожу-т-тарожим” номли асарида ёзган Абу Ҳафс Насафий таржимайи ҳолини келтирган. Асарда унинг “Фатово”, “Тафсир” (Тайсир) каби китоблари борлиги ва айнан мана шу тафсирда бошқа бир катта тафсирига ҳавола берганини таъкидлаган. Котиб қўлёзма “ал-Акмалу-л-атвал” тафсирининг бир жузи эканли тўғрисида тахминий хулоса қилган[268]. Лекин ушбу қўлёзма “ал-Акмалу-л-атвал” билан солиштирилганида уларнинг бошқа-бошқа асарлиги ҳамда у алломанинг “ат-Тайсир фи-т-тафсир” номли тафсири қўлёзмасининг аввалидан бир қисм экани маълум бўлди.

* * *

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA ISLOM ILMLARI: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

ISLAMIC SCIENCES IN THE CENTRAL ASIA REGION: FORMATION AND DEVELOPMENT

Diyora Boxodirxo‘jayeva,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Dilshodaxon Muminova,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada islom dinining VII–VIII asrlarda Markaziy Osiyoga kirib kelishi va uning mintaqa xalqlarining diniy, ma’naviy, madaniy hamda ilmiy hayotiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan. Qur’on va hadis ilmlarini o‘rganish jarayonida shakllangan ilmiy muhit, madrasalar va ilmiy maskanlar faoliyati yoritilgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Mahmud Zamakhshariy kabi buyuk allomalar islom ilmlarining rivojiga qo‘shgan hissasi alohida

[268] Нажмиддин Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ибн Аҳмад Насафий. Тафсиру-л-Фотиҳа. – Истанбул: Лолали. Қўлёзма. № 169.

o‘rin tutadi. Shuningdek, Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat markazi sifatida Samarqandning yuksalishi, Ulug‘bek rasadxonasining jahon ilmiy taraqqiyotidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada islom ilmlarining nafaqat diniy hayot, balki xalqning axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarida ham chuqur iz qoldirgani ta’kidlangan. Mustaqillik yillarida diniy-ilmiy merosni tiklash, allomalar asarlarini nashr etish va yosh avlodni ilm-ma’rifatga yo‘naltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham tahlil qilinadi..

Kalit so‘zlar: Islom dini, Markaziy Osiyo, hadis ilmi, fiqh, tafsir, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Mahmud Zamakhshariy, Ulug‘bek, Sharq uyg‘onish davri, ma’naviyat, ilm-fan, madaniyat.

Islom dini Markaziy Osiyoga VII–VIII asrlarda kirib kelganidan so‘ng, bu yurt xalqlarining hayotida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Islom dini nafaqat diniy hayotga, balki madaniyat, ilm-fan va ijtimoiy munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatdi . Avvalo Qur’on va hadis ilmlarini o‘rganish jarayoni boshlandi. Shu orqali yangi maktablar, madrasa va ilmiy muhit shakllandi. Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlarida — Buxoro, Samarqand, Termiz, Xorazm va Toshkentda ilm maskanlari paydo bo‘ldi . Bu joylarda diniy bilimlar bilan birga falsafa, mantiq, matematika, tibbiyot, adabiyot kabi dunyoviy fanlar ham rivoj topdi. Shu boisdan ham bizning mintaqa “Sharq uyg‘onish davri beshigi” deb ataladi . Bu maskanlarda o‘qitilgan ilmlar keyinchalik Yevropaga ham kirib bordi va Uyg‘onish davriga ta’sir ko‘rsatdi.

Islom ilmlarining shakllanishida mashhur olim va mutafakkirlarning hissasi beqiyosdir. Masalan, Imom Buxoriy hadis ilmini mukammal tarzda jamlab, butun musulmon olamiga bebaho meros qoldirdi. Uning “Al-Jome’ as-Sahih” asari dunyodagi eng ishonchli hadis to‘plamlaridan biri sanaladi. Imom Termiziy ham hadis ilmining buyuk namoyandalaridan bo‘lib, uning to‘plagan hadislaridan bugungi kunda ham keng foydalanilmoqda.

Fiqh va tafsir sohalarida ham Markaziy Osiyo olimlari yirik asarlar yaratganlar. Masalan, Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya” nomli fiqhiy kitobi bilan mashhur bo‘ldi. Bu asar yuzlab yillar davomida musulmon mamlakatlarida qo‘llanma sifatida foydalanilgan. Mahmud Zamakhshariy esa “Al-Kashshof” nomli Qur’on tafsiri bilan butun musulmon dunyosida tanildi. Uning asari tafsir ilmidagi eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Markaziy Osiyoda islom ilmlari nafaqat madrasa va masjidlarda, balki xalqning kundalik hayotida ham aks etgan . Odamlar o‘z farzandlarini diniy va axloqiy bilimlarga o‘rgatishni muhim deb bilganlar. Shuning uchun ham deyarli har bir qishloqda maktab va masjidlar faoliyat yuritgan. Shu tariqa ilmga bo‘lgan hurmat avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Ilm olish savobli amal deb qaralgan va bu xalq ongida chuqur ildiz otgan. Davlat arboblari ham ilm ahliga katta e’tibor berganlar. Masalan, Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Ulug‘bek madrasa va rasadxona barpo etib, diniy hamda dunyoviy ilmlarning taraqqiyotiga sharoit yaratdi. Ulug‘bekning astronomiya bo‘yicha olib borgan ishlari butun dunyoga mashhur bo‘ldi. Uning rasadxonasi va “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari nafaqat musulmon olamida, balki Yevropa olimlari orasida ham keng qo‘llanildi.

Islom ilmlari Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy hayotida ham chuqur iz qoldirdi. Odamlar o‘z axloqiy qadriyatlarini Qur’on va hadis asosida shakllantirib bordilar. Shu sababli odillik, halollik, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, qo‘shnichilik kabi qadriyatlar xalq hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bu qadriyatlar bugungi kunda ham xalqimiz mentalitetida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda ham Markaziy Osiyoda islom ilmlari o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, qadimiy merosni qayta tiklash, allomalar asarlarini tarjima va tadqiq qilish ishlari davom etmoqda. Ko‘plab ilmiy konferensiyalar, anjumanlar o‘tkazilib, yosh avlodni ilmga, ma’naviyatga va halol hayotga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalar tavallud sanalari keng nishonlanib, ularning asarlari

qayta nashr etildi. Shu bilan birga, diniy ta'lim tizimi ham rivojlanib bormoqda. Toshkent Islom instituti, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va boshqa ilmiy muassasalar diniy-ilmiy merosni o'rganishda faoliyat olib bormoqda. Bu markazlar nafaqat yurtimiz, balki butun musulmon olami uchun ilmiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mintaqasida islom ilmlarining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, u nafaqat diniy hayotda, balki ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida ham katta rol o'ynagan. Ajdodlarimizning boy ilmiy merosi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizning vazifamiz — o'tmish merosini asrab, uni kelajak avlodlarga yetkazish va ilm yo'lini davom ettirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Imom al-Buxoriy. Al-Jome' as-Sahih. – Toshkent: Movarounnahr, 1997.
2. Imom at-Termiziy. Sunani Termiziy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
3. Burhoniddin Marg'inoniy. Al-Hidoya. – Toshkent: Fan, 1994.
4. Mahmud Zamakhshariy. Al-Kashshof. – Qohira: Dar al-Ma'rifa, 1966.
5. Alouddin Mansurov. Markaziy Osiyo uyg'onish davri va islom ilmlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
6. Abdug'afur Rasulov. Islom ilmlari tarixi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
7. Ulug'bek madrasasi va rasadxonasi haqida tadqiqotlar to'plami. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
8. Internet manbalari: www.islam.uz, www.bukhari.uz

* * *

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA TURLI DINLARNI QIYOSLASHGA OID ILMIY YONDASHUVLAR

SCIENTIFIC APPROACHES TO THE COMPARATIVE STUDY OF RELIGIONS IN THE WRITINGS OF CENTRAL ASIAN INTELLECTUALS

Mo'minjonova Dilorom Dilshodbek qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti
mdilorom1998@gmail.com

Markaziy Osiyo asrlar davomida turli diniy va madaniy oqimlarning kesishgan nuqtasi bo'lib kelgan. Bu hududda qadimdan zardushtiylik, buddaviylik, manixeylik, nasroniylik, va islom dini o'zaro aloqadorlikda rivojlangan. Shunday ko'p qirrali diniy muhitda yetishib chiqqan mutafakkirlar nafaqat o'z diniy e'tiqodlarini mustahkamlashga, balki boshqa din va ta'limotlarni ham ilmiy va qiyosiy tahlil asosida o'rganishga intilganlar. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ana shu boy diniy-madaniy kontekstda shakllangan tafakkur egalari bo'lib, ularning asarlarida turli dinlarga nisbatan qiyosiy, analitik va falsafiy yondashuvlar mujassamdir. Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Nasr Farobiy, Abul Maoliy Ubaydulloh, Shahrastoniy kabi allomalarning asarlarida diniy qarashlar, marosimlar va aqidalar qiyosiy tarzda tahlil qilingan. Bu yondashuvlar bir tomondan

ilmiy ensiklopedik ruhda bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tolerantlik va dinlararo muloqotni qo‘llab-quvvatlovchi tamoyillarni ham ifoda etadi.

Musulmon olimlarining boshqa dinlar va e’tiqod tizimlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi islom tafakkuri tarixida muhim o‘rin egallaydi va bu jarayon dastlabki islom asrlarigacha borib taqaladi. VII–VIII asrlarda yuzaga kelgan teologik ziddiyatlar va firqalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar natijasida diniy munozaralarni o‘z ichiga olgan maxsus adabiy janr — “maqolot” shakllandi. Bu janrda yozilgan asarlarda turli firqalarning, ba’zan esa islomdan boshqa dinlarga mansub e’tiqodlarning aqidaviy qarashlari islom aqidasi bilan qiyoslanadi va ko‘pincha tanqidiy ruhda baholanadi[269]. Dastlabki maqolot janridagi asarlar asosan shia mualliflari tomonidan yaratilgan bo‘lib, ularni “ashob al-maqolot” deb atashgan. Islom dunyosida boshqa dinlarga oid matnlarni o‘rganishga oid ilk tashabbuslardan biri Abdulloh ibn Muqaffaning (taxm. 724–759) faoliyati bilan bog‘liq. Fors millatiga mansub bo‘lgan bu tarixchi va tarjimon qadimgi hind va fors dinlari hamda mifologiyasiga oid bir qator asarlarni arab tiliga tarjima qilgan. Jumladan, u pahlaviy tilidagi “Mazdaknoma” asarini — mazdakiylik ta’limotining asoschisi Mazdakning hayoti va qarashlariga bag‘ishlangan matnni arab tiliga o‘girgan. Afsuski, bu tarjima bizgacha yetib kelmagan[270]. Ibn Muqaffa tomonidan arabchalashtirilgan yana bir muhim asar — hind manbalari asosidagi “Kalila va Dimna” bo‘lib, u faqat adabiy jihatdan emas, balki ma’naviy-falsafiy mazmuni bilan ham o‘z davrida keng e’tibor qozongan. Ibn Muqaffaning bu tarjimasi keyinchalik ko‘plab tillarga, jumladan lotin, slavyan, ivrit, fransuz, italyan va nemis tillariga tarjima qilinib, dinlararo muloqotga asos yaratgan[271].

Abu Bakr Muhammad Narshaxiy (899–959) tomonidan 943–944-yillarda yozilgan “Buxoro tarixi” (asl nomi: Tahqiqi viloyati Buxoro) asari Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro shahrining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy hayotiga oid eng qadimiy va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi. Unda Buxoro va uning atrofida sodir bo‘lgan muhim tarixiy voqealar ketma-ketlikda bayon etilgan[272]. Dastlabki boblarda Narshaxiy Buxoroda islomdan avval keng tarqalgan din — zardushtiylik (otashparastlik) haqida to‘xtaladi. Unga ko‘ra, Buxoro yaqinidagi Nawbahor ibodatxonasi nafaqat diniy, balki iqtisodiy va madaniy markaz sifatida faoliyat yuritgan. Nawbahor ibodatxonasi qattiq ierarxik tuzilishga ega bo‘lgan va unda ruhoniylar jamiyati jiddiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan. Bu holat Buxorodagi diniy hayotning markazlashgan va kuchli mafkuraviy poydevorga ega bo‘lganidan darak beradi. Narshaxiy islom dinining kirib kelishi jarayonini ham batafsil bayon qiladi. Arab qo‘shinlarining VIII asr boshlarida Movarounnahrga kirib kelishi bilan birgalikda, islom dini asta-sekin tarqala boshlagan bo‘lsa-da, dastlabki davrda bu jarayon kuchli qarshiliklarga uchragani haqida yoritib beradi va mazdakiylar boshchiligidagi Muqanna qo‘zg‘oloni haqida ma’lumot berib o‘tadi[273]. Asarda Somoniylar davri alohida o‘rin tutadi. Aynan shu davrda islom dini Buxoroda rasmiy va hukmron mafkura darajasiga ko‘tariladi. Umuman olganda, Narshaxiy o‘z asarida Buxorodagi diniy vaziyatni faqat diniy nuqtai nazardan emas, balki u bilan bog‘liq bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy kontekstda ifodalab bergan. Asar islomning bu hududda qanday shakllangani, uning mahalliy madaniyat va e’tiqodlar bilan qanday ziddiyat va uyg‘unlikda bo‘lgani haqida boy ma’lumot beradi.

---

[269] Guy Mannot. Islam at religions. – Paris: “Maisonneuve et Larose”, 1986. – P.29

[270] Edward G. Browne. A Literary History of Persia. From the Earliest Times until Firdawsi. – London: T. F. Unwin, – P.169

[271] Abdupattaev Mumin Mirzo Murodjon o‘g‘li. “XI–XII asrlar musulmon olimlarining qiyosiy dinshunoslikka oid ilmiy meroslari” // *Islom tafakkuri*. – 2025. – №1. – B. 109–110

[272] Kennedy, H. (2010). *The Coming of Islam to Bukhara*. In _ Living Islamic History: Studies in Honour of Professor Carole Hillenbrand_ (pp. 77–91). Edinburgh University Press.

[273] Frye, R. N. (2011). *The History of Bukhara by Narshakhī*. In _ Central Asian Monuments_ (pp. 75–82). Gorgias Press.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy — o‘rta asrlarning eng yirik allomalaridan biri, ensiklopedist olim, geograf, tarixchi, matematik, astronom va dinshunos bo‘lgan. Beruniyning eng mashhur asarlaridan biri — “Tahqiq ma li-l-Hind” (“Hindiston haqida tadqiqotlar”) da hind falsafasi, diniy ta’limotlari, marosim va aqidalarini betaraflik bilan o‘rganib, ularni islomiy ta’limotlar bilan qiyoslagan. U har qanday dinni tushunish uchun uni o‘sha xalqning tili, madaniyati va fikr tizimi asosida talqin qilish zarurligini ta’kidlagan. Shuningdek, “al-Osor al-boqiya al-qurun al-xoliya” asarida turli dinlar taqvimlari, urf-odatlari, bayramlari va diniy ramzlari haqida ensiklopedik ma’lumotlar keltirib, ularni tarixiy va ilmiy asosda qiyoslaydi. Beruniy dinlararo farqlarni qarama-qarshilik emas, balki insoniyat tafakkurining xilma-xilligi sifatida ko‘radi[274]. Uning yondashuvi — diniy masalalarga hissiylik bilan emas, balki ilmu tajriba, dalil va kuzatuv asosida yondashish, aql va bilimni dinni anglashda asosiy vosita sifatida ko‘rishdan iborat. Shuning uchun ham Beruniy musulmon dunyosida ilmiy asoslangan qiyosiy dinshunoslikning ilk namoyandalaridan biri hisoblanadi.

Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydullohning “Bayon al-adyan” (Dinlarning Bayoni) asari dinlar umumiy tasnifi bo‘yicha bizgacha yetib kelgan eng qadimiy forsiy asar bo‘lib, bu mavzudagi dastlabki dinlarni qiyosiy o‘rganishga doir asarlaridan biridir. U hijriy 485 (milodiy 1092) yilda yozilgan. Ushbu asar islom ilmi doirasidagi dinshunoslik tarixi uchun muhim manbadir. Unda o‘z davrida mavjud bo‘lgan turli dinlar va mazhablarning xolisona atroflicha umumiy tavsiflab berilgan. Boshqa ko‘plab zamonaviy asarlardan farqli o‘laroq, Abul Maoliy Ubaydullohning “Bayan al-adyan” asari boshqa e’tiqodlarni rad etishga qaratilgan emas, balki turli diniy va falsafiy maktablarni ensiklopedik tarzda tasniflab bergan[275]. Bu yondashuv Muhammad ibn Abdul Karim Shahrastoniy kabi olimlarning keyinchalik qiyosiy dinshunoslikni rivojlantirishi uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlarida turli dinlarni qiyoslashga doir yondashuvlar, nafaqat mintaqaning diniy xilma-xilligini aks ettiradi, balki islom madaniy doirasida shakllangan ilk qiyosiy dinshunoslik an’analarining yuzaga kelganini ham ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvlar bir necha asosiy xususiyatlarga ega: birinchidan, ular ensiklopedik va analitik xarakterga ega bo‘lib, turli dinlar va mazhablarni tizimli tasniflashga intiladi ikkinchidan, mualliflar boshqa e’tiqodlarni nafaqat tanqidiy, balki betaraflik va tushunishga intilgan holda tahlil qilganlar uchinchidan, bu yondashuvlarda diniy bag‘rikenglik va muloqotga ochiqlik tamoyillari namoyon bo‘lgan. Abu Rayhon Beruniy, Abul Maoliy Ubaydulloh, Shahrastoniy, Narshaxiy kabi olimlarning asarlarida boshqa dinlarga nisbatan ilmiy-obyektiv qarashlar, qiyosiy tahlillar va madaniy kontekstni e’tiborga olgan holdagi yondashuvlar mavjud. Ayniqsa, Beruniyning “Tahqiq ma li-l-Hind” va “al-Osor al-boqiya” asarlarida turli dinlar aqidalari, urf-odatlari va marosimlarini daliliy asosda qiyoslash, Abul Maoliyning “Bayon al-adyan” asarida esa turli e’tiqod tizimlarini xolisona tasniflash diniy bilimlarning rivojiga xizmat qilgan. Bu asarlar nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham dinshunoslik va madaniy muloqot rivojiga zamin yaratdi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining diniy-madaniy merosi bugungi kunda ham dinlararo muloqot, diniy bag‘rikenglik, qiyosiy dinshunoslik metodologiyasini shakllantirishda bebaho nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

* * *

[274] Beruniy, A. R. (1968). *Tanlangan asarlar*. Tahrir hay’ati: A. Qayumov va boshq. 1-jild. Toshkent: Fan nashriyoti

[275] Pourjavady, Nasrollah. “Yegāneh Ketāb-e Fārsi dar Hasti: ‘Dād–Hasti.’” *Jostarhā-ye Nowin-e Adabi*, vol. 51, no. 1, 2019, pp. 1–30

XIX ASRNING BIRINCHI CHORAGIDA QO‘QON XONLIGI IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDA NAQSHBANDIYA TARIQATINING O‘RNI VA AHAMIYATI

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE NAQSHBANDI ORDER IN THE SOCIO-POLITICAL LIFE OF THE KOKAND KHANATE IN THE FIRST QUARTER OF THE 19TH CENTURY

A.Juliboyev
QDU Ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: XIX asrning birinchi choragida Qo‘qon xonligining ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida Naqshbandiya tariqati muhim o‘rin egallagan. Mazkur tariqat nafaqat diniy-ma’naviy institut, balki siyosiy hokimiyatni legitimlashtiruvchi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida faoliyat yuritgan. Amir Umarxon hukmronligi alohida e’tiborga loyiq: uning ma’rifatparvarlik siyosati, diniy doiralar bilan hamkorligi va tariqat vakillariga bergan imtiyozlari Qo‘qon xonligidagi boshqaruv barqarorligini mustahkamladi. “Amiriy” taxallusi ostidagi tasavvufiy merosi esa uning siyosiy rahbarlik va sufiylik an’analarini uyg‘unlashtirganligini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligi tarixida tariqat va hokimiyat o‘rtasidagi hamkorlik siyosiy barqarorlikni mustahkamlash hamda jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim omil bo‘ldi. Ushbu jarayon Markaziy Osiyodagi sufiylik an’analari va davrning ijtimoiy-siyosiy konteksti bilan uzviy bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, Amiriy, Naqshbandiya tariqati, tasavvuf, diniy-ma’naviy hayot, siyosiy legitimatsiya, siyosiy barqarorlik, ma’rifatparvarlik, tariqat va hokimiyat munosabatlari, axloqiy nazorat, madaniy taraqqiyot, tasavvufiy g‘oyalar, diniy-siyosiy hamkorlik, sufiylik an’analari.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligi siyosiy konsolidatsiya va madaniy yuksalish bosqichiga kirdi. Bu jarayonda 1810–1822-yillarda hukmronlik qilgan Amir Umarxonning siyosiy mahorati va ma’rifatparvarlik qarashlari muhim omil bo‘ldi. Uning Naqshbandiya tariqati bilan aloqalari xonlikda diniy-ma’naviy hayot bilan bir qatorda siyosiy legitimatsiya jarayonida ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. “Amiriy” taxallusi ostida ijod qilgan Umarxon adabiyot va tasavvufiy g‘oyalarni davlat boshqaruvi bilan uyg‘unlashtirdi. Shu davrda Naqshbandiya tariqati esa siyosiy barqarorlik, axloqiy nazorat va ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim institut sifatida faoliyat yuritdi. Ushbu maqolada Umarxon davrida tariqat va hokimiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning siyosiy barqarorlik va madaniy-ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rni tahlil qilinadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Naqshbandiya tariqati Markaziy Osiyodagi eng keng tarqalgan va ta’sirchan tasavvufiy harakat bo‘lib, Qo‘qon xonligi hamda Buxoro amirligi tarixida mafkuraviy ustuvorlikka ega bo‘lgan. Shayxlar diniy yetakchilikdan tashqari siyosiy muvozanatni ta’minlash, jamiyatda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ijtimoiy ongni shakllantirishda ham faol rol o‘ynaganlar. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Qo‘qon xonligida tariqat davlat boshqaruvi uchun diniy asos yaratish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va ma’naviy birlikni mustahkamlashda markaziy institut sifatida namoyon bo‘lgan[276].

[276] Beisembiev, T.K. Annotated Indices to the Kokand Chronicles. Tokyo: ILCAA, 2008. P, 88; Babadjanov, Bakhtiyar. The Naqshbandiyya in the Fergana Valley: Religious Authority and Regional Power in the 18th-19th Centuries. P, 101.

Amir Umarxon – 1810-1822 yillarda Qo‘qon xonligini boshqargan hukmdor bo‘lib, u ikki tilda – chig‘atoy va fors tillarida ijod qilgan shoir (“Amiriy” taxallusi) hamda ma’rifatparvar davlat arbobi sifatida tarixda muhim iz qoldirgan. Minglar sulolasi vakili sifatida u yoshligidan davlat ishlariga jalb etilib, 1810-yilda taxtga o‘tirdi. Uning hukmronligi Qo‘qon xonligining siyosiy konsolidatsiyasi, hududiy kengayishi va madaniy-ma’naviy taraqqiyoti bilan xarakterlanadi. Umarxon davrida xonlik hududlari kengayib, siyosiy hokimiyat markazlashdi. U o‘z hukmronligi yillarida masjid va madrasalar qurdirib, diniy-ma’rifiy hayotni mustahkamladi; harbiy istehkomlar barpo ettirilib, savdo yo‘llari xavfsizligi ta’minlandi. Bu jarayon Qo‘qon xonligini mintaqadagi muhim siyosiy va iqtisodiy markazga aylantirdi. Amir Umarxonning ma’rifatparvarlik siyosati Qo‘qon xonligini madaniy-ma’naviy markazga aylantirishga xizmat qildi. U ijodkor va olimlarni qo‘llab-quvvatlab, adabiyot va ilm-fanning taraqqiyotiga zamin yaratdi. “Amiriy” taxallusi bilan yozgan she’riyati tasavvufiy g‘oyalar, xususan, Naqshbandiya ruhiy merosi bilan bog‘lanib, uning siyosiy qarashlari va ma’naviy izlanishlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalaydi. Shu bois Umarxon davri hududiy kengayish va siyosiy barqarorlik bilan bir qatorda, Markaziy Osiyodagi madaniy-diniy uyg‘onish jarayonining muhim bosqichi sifatida baholanadi. Amir Umarxon adabiyotga chuqur qiziqish bildirgan va “Amiriy” taxallusi ostida ijod qilgan. Uning adabiy merosi orasida 10 mingdan ortiq misrani o‘z ichiga olgan devon alohida o‘rin tutadi. Ushbu devonga g‘azal, muxammas, musaddas, tuyuq kabi janrlardagi asarlar kiradi. Shoirning she’riyati ishqiy va tasavvufiy mazmun uyg‘unligi bilan ajralib turadi hamda Navoiy, Jomiy va Bedil kabi mumtoz adabiyot namoyandalari an’analaridan kuchli ta’sirlangan. Amiriy ijodi o‘z davrida nafaqat badiiy-estetik, balki ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Uning she’rlari orqali sufiylik g‘oyalari, ma’rifatparvarlik ruhiyati va axloqiy qarashlar jamiyat ongiga singdirilgan. Bu jihatdan Umarxonning adabiy faoliyati uning siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, davlat boshqaruvida ham tasavvufiy qadriyatlarning muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi[277].

Bugungi kunda Amiriy devonining turkiy va forsiy tillardagi to‘plamlari ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganilmoqda. Adabiyotshunoslikda uning ijodiy merosi Qo‘qon xonligi davrida tasavvuf va siyosat o‘zaro uyg‘unlashuvining muhim manbalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Amir Umarxon homiyligida 70 dan ortiq shoir va san’atkor saroy atrofida to‘plangan bo‘lib, ular Farg‘ona vodiysida o‘ziga xos adabiy-madaniy muhitni shakllantirdilar. Mazkur muhit keyinchalik Muqimiy va Furqat singari ma’rifatparvar shoirlarning yetishib chiqishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Umarxonning ijodiy va siyosiy merosi O‘zbekiston madaniy evolyutsiyasida muhim bosqich sifatida alohida o‘rin tutadi. U qo‘llab-quvvatlagan adabiy jarayonlar, ilm-fan va san’atga bergan homiyligi, shuningdek, tasavvufiy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan siyosiy faoliyati mamlakat tarixida siyosiy hokimiyat va madaniy-ma’naviy taraqqiyotning o‘zaro uyg‘unlashuvini namoyon etdi. Natijada, Amir Umarxon davri nafaqat Qo‘qon xonligining siyosiy barqarorlik davri, balki Farg‘ona vodiysi va umuman Markaziy Osiyoda madaniy uyg‘onish jarayonining muhim pallasini tashkil etgan.

Amir Umarxon diniy e’tiqodi va ta’limiy qarashlari chuqurligi bilan ajralib turgan hukmdor sifatida tanilgan. U davrning mashhur ulamolari va sufiy shayxlariga homiylik ko‘rsatib, ularga maxsus imtiyozlar hamda vaqf mulklari ajratgan. Naqshbandiya tariqati vakillari davlat boshqaruv tizimiga faol jalb etilib, diniy-ma’rifiy muassasalar hamda mahalliy boshqaruv tizimida muhim lavozimlarni egallaganlar. Umarxon boshqaruv siyosatida tasavvufiy axloqiy tamoyillarni shariat qonunlari bilan uyg‘unlashtirishga intilib, adolatli ijtimoiy-siyosiy tizimni shakllantirishni maqsad qilgan. Bunday model musulmon dunyosida siyosiy hokimiyatni diniy jihatdan legitimlashtirish vositasi sifatida xizmat qilgan. Shu tariqa, Amir Umarxonning Naqshbandiya tariqati bilan yaqin

[277] Қаюмов А. “Кўқон адабий муҳити” -Тошкент: 1961. – Б. 61.

aloqalari uning siyosiy hokimiyatini ilohiy iroda bilan bog‘lashga, davlat boshqaruvining diniy-ma’naviy asoslarini mustahkamlashga imkon bergan[278].

Naqshbandiya tariqatining nufuzli vakillari, jumladan Xo‘ja Yusuf va Xo‘ja Ubaydulloh avlodlari, davlat va xalq o‘rtasida vositachilik qilib, siyosiy barqarorlik va hokimiyatga ishonchni ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Hukmdorlar ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siridan samarali foydalanib, ichki siyosatga integratsiya qilganlar; Amir Umarxon esa bu modelni amalda muvaffaqiyatli qo‘llagan[279].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Amir Umarxon (“Amiriy”) XIX asr boshidagi eng yirik adabiy arboblardan biri sifatida tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalari – fanā’, ma‘rifa, vahdat, kamol va zuhd g‘oyalarini o‘z she’riyatida badiiy ifodalagan. Uning ijodi Alisher Navoiy, Jomiy va Bedil an’analariga tayanib, ilohiy muhabbat va axloqiy poklikni targ‘ib etishi bilan ajralib turadi. Umarxon va uning rafiqasi Nodira ijodi Qo‘qon adabiy muhitida tasavvufni diniy-ma’naviy, estetik va ma’rifiy qadriyat sifatida mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida ayta olamizki, Amir Umarxon hukmronligi Qo‘qon xonligi tarixida siyosiy barqarorlik va madaniy-ma’naviy yuksalish davri bo‘ldi. U Naqshbandiya tariqatini diniy institutdan tashqari siyosiy hamkor va axloqiy nazoratchi sifatida samarali qo‘lladi. Tariqat vakillarining davlat boshqaruvidagi ishtiroki hukmdor va xalq o‘rtasida ishonchni mustahkamladi. “Amiriy” taxallusi ostida yaratilgan tasavvufiy she’riyat esa Umarxon davrining ruhiy va siyosiy uyg‘unligini ifodalab, sufiylikning O‘zbekiston tarixidagi siyosiy-madaniy ahamiyatini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Қаюмов А. “Қўқон адабий муҳити”. – Тошкент: 1961.
2. Beisembiev, T.K. Annotated Indices to the Kokand Chronicles. Tokyo: ILCAA, 2008.
3. Babadjanov, Bakhtiyar. The Naqshbandiyya in the Fergana Valley: Religious Authority and Regional Power in the 18th-19th Centuries.
4. DeWeese, Devin. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. Penn State Press, 1994.
5. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press, 1998.

* * *

“АЛ-ЖОМЕЪ АС-САҲИҲ”НИНГ ТАРҚАЛИШИДА НАСАФЛИК РОВИЙЛАРНИНГ ЎРНИ

THE ROLE OF NASAFLIC NARRATORS IN THE DISTRIBUTION OF “AL-JOME’ AS-SAHIH”

Шоназаров Абдувоси Абдибоқиевич,
Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий ходими (Самарқанд, Ўзбекистон)
e-mail: shonazarovabduvosi@gmail.com

Имом Бухорийнинг “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” асари Қуръони каримдан кейинги манба ҳисобланади. Кўпчилик бу тўплам ва унга оид маълумотларни билишга интилади. Имом Бухорий (810-870 й.) “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”ни ёзиб бўлиб, уни халққа етказиш учун кўплаб

[278] DeWeese, Devin. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. Penn State Press, 1994. P, 120.
[279] Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press, 1998. P, 84.

дарслар ташкил қилган. Ушбу дарсларда у кишининг атрофида “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”ни эшитишга муштоқ бўлган ва ривоят қилишга катта қизиқиш билан қарайдиган кўплаб одамлар тўпланган. Аҳли илмлар ўзларининг китобларини етказишда жорий қилган одатларига мувофиқ Имом Бухорий ҳам ўзининг “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”ни айтиб ёздириш учун бир неча жойларда дарс ҳалқалари ташкил қилган.

“Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”ни Имом Бухорийнинг ўзидан эшитган бу жамоани орасидан китобни бошқалардан кўра кўпроқ эшитган ровийлар тоифаси машҳур бўлган. Улар китобнинг рўйхати ва ривоятини мукаммал ўрганган. Ўзларидан кейинги ҳадис ва хабарларни ривоят қилувчи кишиларга бу китобни нақл қилган. Улар ҳам китобнинг ривоят ва хабарларини ўзларидан кейингиларга нақл қилган. Натижада дунёда китобнинг қадри баланд бўлган ва шаҳарларда номи тарқалган.

Имом Бухорий “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”дан дарс берадиган мажлисларда ривоятларни тўғрилаш, эшитган нарсаларини ёзиб олиш ва лафзларни тузатиш учун ҳимматларини сарфлайдиган ровийлар кўпайиб кетган. Абу Абдуллоҳ Фирабрий: “Имом Бухорийнинг “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобини муаллифни ўзидан мен билан бирга тўқсон мингга яқин киши эшитган”, деб айтади[280].

Имом Бухорий “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”ни Фирабрда дарс бериб бўлгач, 255/869 йилда Насафга келган ва шу ерда бир муддат яшаган. Буюк муҳаддис ушбу шаҳарга келиб, яшаганида насафликлар “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”ни Имом Бухорийнинг ўзидан таълим олган. Улар: Ҳаммод ибн Шокир Насафий, Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Маъқил Насафий, Абу Фазл Тоҳир ибн Ҳусайн ибн Махлад, Абу Талҳа Мансур ибн Муҳаммад ибн Али Паздавий, Тубан қишлоғининг бошлиғи Абу Фазл Жаъфар ибн Муҳаммад ибн Аббос Тубаний ва Халаф ибн Шоҳид ибн Ҳасан ибн Ҳошим ва бошқалар.

Ушбу шаҳардаги энг машҳур ровий Насафнинг қозиси Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Маъқил ибн Ҳажжож ибн Хаддош ибн Худайж Насафий Сонжаний бўлиб, у Насафнинг Сонжан қишлоғида туғилган. Унинг таржимаи ҳолини ёзганлардан бирортаси туғилган йилини келтирмаган. Барча манбаларда вафот этган йили кўрсатилган. Уламолар унинг Абу Исҳоқ деб куняланганига иттифоқ бўлган. Лекин таржимаи ҳоли баён этилган манбаларнинг бирортасида унинг Исҳоқ исмли ўғли борлиги ҳақида маълумот келмаган. Саид исмли ўғли борлиги ва отасидан ҳадис ривоят қилгани маълум. У Хуросон, Ироқ, Шом ва Мисрдаги забардаст муҳаддислардан ҳадис эшитган. У “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”ни Имом Бухорийнинг ўзидан таълим олган ва ривоят қилган.

Имом Хаттобий ўзининг “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобига ёзилган “Аъламул ҳадис” номли шарҳида: “Мен китобнинг кўпроқ қисмини Халф ибн Муҳаммад Хиёмдан, у Имом Бухорийни ўзидан “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобини эшитган шогирди Иброҳим ибн Маъқил Насафийдан Имом Фирабрийнинг йўлидан бошқа йўл билан эшитдим”, деган[281]. Демак, Имом Хаттобий “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобини Иброҳим ибн Маъқил Насафийнинг йўли орқали ривоят қилган ровийлардан бири ҳисобланади.

Иброҳим ибн Маъқил Насафийдан ўз шаҳри аҳлининг кўпчилиги ривоят қилган[282]. Аҳли илмлардан кўпчилиги уни мақтаган. Улардан бири Ҳофиз Абул Аббос Жаъфар ибн Муҳаммад Мустағфирийдир (ваф. 432/1041). У: “Иброҳим ибн Маъқил Насафий фақиҳ, ҳофиз, уламолар ихтилофини фарқловчи, фазилатли ва ҳимоячи эди”, деган[283].

---

[280] Исмоил ибн Умар ибн Касир. Ал-Бидоя ван ниҳоя. – Байрут: Дорул кутубил илмия, 1407/1986. Ж. 11 – Б. 28.

[281] Имом Абу Сулаймон Ҳамд ибн Муҳаммад Хаттобий. Аъломул ҳадис фи-шарҳи Саҳиҳил Бухорий. – Макка, 1409/1988. Ж. 1. – Б. 105-106.

[282] Имом Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур Самъоний. Ал-Ансоб. – Ҳайдаробод: Даиротул маъориф ал-Усмония, 2016. Ж. 5. – Б. 487.

[283] Абу Абдуллоҳ Шамсиддин Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Усмон ибн Қоймаз Заҳабий. – Ҳайдаробод: Даиротул маъориф ал-Усмония, 1374/1955. 1760 саҳифали. Ж. 2. – Б. 686.

Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Маъқил Насафий фиқҳ ва ҳадис илмларини пухта эгаллаб, ҳадислар тўплаш ва асарлар ёзишни мақсад қилиб, “Ал-Муснад”, “Ат-Тафсир” ва бошқа китоблар тасниф этган.

Ҳофиз Заҳабий (ваф. 748/1348): “У ҳофиз, аллома, Насафнинг қозиси ва олими, Муснадул кабир, тафсир ва бошқа китоблар муаллифидир”, деган[284]. Демак, Имом Заҳабий унинг “Ал-Муснад”, “Ат-Тафсир” ва бошқа китоблари борлигини таъкидлаган. Ҳожи Халифа ҳам “Кашфуз зунун”да унинг “Тафсирул Қуръон” китоби бўлганини айтган.

Имом Каттоний санадлар ҳақидаги “Ар-Рисалатул мустатарафа” китобида: “Насафнинг қозиси ва олими Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Маъқил Насафийнинг муснади бор. У катта муснаддир”, деган. Демак, у насафликларнинг улуғ имоми бўлиб, Туфайл ибн Зайддан кейин Насафнинг қозиси этиб тайинланган. Унга таъриф берган уламоларнинг барчаси “Ал-Муснад” асари бўлганини таъкидлаган.

Хатиб Бағдодий “Ҳадятул орифин” асарида Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Маъқил Насафийнинг “Ал-Истиқсоот фин нукот” номли асари бўлган, деган.

Иброҳим ибн Маъқил Насафий 295/908 йилнинг Зул ҳижжа ойида вафот этган[285]. Имом Самъоний унинг вафоти 294/907 йилда бўлган деб ёзиб қолдирган[286].

Абу Муҳаммад Ҳаммод ибн Шокир ибн Савия Насафий (ваф. 311/923) Исо ибн Аҳмад Аскалоний, Имом Бухорий, Имом Термизий ва бошқалардан ҳадис ривоят қилган[287]. Ундан кўплаб таниқли уламолар ҳадис ривоят қилган. Ҳофиз Жаъфар ибн Муҳаммад Мустағфирий: “У сиқа ва ишончли эди”, деган[288]. Ҳаммод ибн Шокир Насафий “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобини муаллифнинг ўзидан эшитган. У ҳам Имом Бухорийдан баъзи жойларини эшитолмай қолган. Ҳаммод ибн Шокир Насафий 311/923 йилда вафот этган[289].

Пазда қишлоғининг бошлиғи Абу Талҳа Мансур ибн Муҳаммад ибн Али ибн Қорина ибн Савийя Паздавий Насафий (ваф. 329/940). Ҳофиз Заҳабий уни: “У катта ва суянадиган шайхдир”, деб васф этган[290]. Амир ибн Мокула: “У Муҳаммад ибн Исмоил Бухорийдан “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобини ўрганган ва у Имом Бухорийдан “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобини ўрганган кишиларнинг охиргисидир. У сиқа (ишончли) киши бўлган”, деган[291].

Ҳофиз Жаъфар ибн Муҳаммад Мустағфирий ўзининг “Насаф тарихи” номли китобида бундай деган: “У Муҳаммад ибн Исмоил Бухорийдан “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобини ўрганган кишиларнинг охиргисидир. Уламолар унинг ривоятини эшитган пайтида кичкина бўлгани учун заиф деб ҳисоблашган. Улар айтадилар: “Унинг эшитгани Амирул мўминнинг дўсти Тўбоннинг бошлиғи Жаъфар ибн Муҳаммаднинг хатидан маълум бўлган. Улар китобнинг барчасини Ҳаммод ибн Шокирнинг нусхасидан ўқиган. Ундан “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобини ўз шаҳрининг аҳли эшитган ва у ҳаётлик чоғида эшитиш учун унинг олдига келган”[292].

Абу Талҳа Паздавий “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобининг ривояти билан машҳур бўлган. Ундан “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” китобини ўз шаҳрининг аҳли эшитган ва эшитиш учун унинг

---

[284] Ўша манба.
[285] Ўша манба.
[286] Имом Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур Самъоний. Ал-Ансоб. – Ҳайдаробод: Даиротул маъориф ал-Усмония, 2016. Ж. 5. – Б. 487.
[287] Шамсиддин Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Усмон Заҳабий. Сияру аъломин нубало. – Байрут: Дору муассасатир рисола, 1992. Ж. 15. – Б. 5.
[288] Ўша манба.
[289] Ибн Нуқта Абу Бакр Муҳаммад ибн Абдулғани Бағдодий. Такмилатул икмал. – Макка: Жомиъату уммил қуро. 1408/1987. Ж. 4. – Б. 394.
[290] Шамсиддин Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Усмон Заҳабий. Сияру аъломин нубало. – Байрут: Дору муассасатир рисола, 1992. Ж. 15. – Б. 279.
[291] Ўша манба.
[292] Ўша манба.

олдига келишган. Абу Талҳа Паздавий 329/941 йилда вафот этган[293]. Абу Талҳа Паздавийнинг ривояти заиф дейилгани учун машҳур бўлмаган.

Юқорида зикр қилинганлар “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”ни муаллифнинг ўзидан эшитиб ривоят қилган биринчи табақадаги ровийлар ҳисобланади. Ушбу ровийлар ҳаёти ва илмий фаолиятини ўрганиш бугунги кунда муҳимдир.

Мавзуга хулоса тарзида қуйидагиларни келтириш мақсадга мувофиқдир:

- Имом Бухорий Насафга келган ва шу ерда бир муддат яшаган. Буюк муҳаддис ушбу шаҳарга келиб, яшаганида насафликлар “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”ни Имом Бухорийнинг ўзидан таълим олган.
- Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Маъқил Насафий, Ҳаммод ибн Шокир Насафий ва Абу Талҳа Мансур Паздавий Насафий “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”ни Имом Бухорийнинг ўзидан эшитиб ривоят қилган, биринчи табақадаги ровийлардан саналади;
- Мағриб ва Андалусия ўлкасига “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” асари Фирабрий ва Насафий ривоят қилган йўл орқали кириб борган;
- “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ”нинг ровийлари ҳаёти ва илмий фаолиятини ўрганиш орқали, Имом Бухорий Мовароуннаҳрнинг қайси шаҳарларида яшаган ва таълим берганини ўрганиш мумкин;
- Таъкидланганидек, асарни муаллифга боғлаб ривоят қилган машҳур ва ишончли ровийларнинг баъзисини санадлари бевосита шу алломаларга бориб тақалади. Шунинг учун ҳам ушбу ровийларнинг ҳаёти ва илмий фаолиятини ўрганиш ғоят муҳим аҳамиятга эга. Чунки, бундай тадқиқотлар Имом Бухорий ҳаёти ва фаолияти, ҳадисшунослик илми ва тарихига оид янги маълумотларни юзага чиқаришга хизмат қилади.

* * *

FROM THE HISTORY OF THE ACTIVITIES OF TURKISTON JADIDS

TURKISTON JADIDLARI FAOLIYATI TARIXIDAN

Akhmadjonova Gulnoza Rustamjon qizi
International Islamic Academy of Uzbekistan History of Islam and
teacher of the department of source studies IRCICA
g.r.axmadjonova@gmail.com

This article analyzes the emergence of modern schools and the activities of the enlightened scientist Mahmudhoja Behbudi.

Key words: Turkestan, jadidlik, school, textbooks, Behbudi, Shakuri, Samarkand, “Oyna” magazine.

The emergence of new usul or jadid schools in Turkestan dates back to the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. According to experts, the idea of reforming the education system arrived in Turkestan fifteen to twenty years later than in Crimea, Kazan and Azerbaijan. The main reason for this was the policy of the general governorate of Turkestan aimed at keeping the local population away from enlightenment. The possibility of an enlightened people

[293] Абу Фазл Шаҳобиддин Ибн Ҳажар Аҳмад ибн Али ибн Муҳаммад Киноний Асқалоний. Лисонул мезон. Мактабул матбуотил исламия, 1423/2002. Ж. 1. – Б. 100.

to fight for their rights, to get rid of the colonial oppression and for national liberation forced Tsarist Russia and its administration in Turkestan to be always alert. The General - the secret service of the governorate - officers of the tsar's guard closely monitored every step of the local intelligentsia aimed at reforming the education system. At the end of the 19th century, when new method schools were opened, a special commission was formed for the educational district of Turkestan.

With its decision, this commission put an end to the unauthorized construction of new method schools. The decision contained, among other things:

- Local schools are opened with a special permit of the tsarist administration.
- Only politically reliable Russian citizens are allowed to open local schools and teach in them.
- Only books published with the permission of the Russian censor are taught in local schools.
- Persons who open a school without a special permit will be deprived of the job of opening a school and being a teacher for life...

Despite these barriers to new schools, devoted children of the people, including Behbudi, set about opening «Usuli Savtiya» (sound method) schools at the beginning of the last century. One of the first «Usuli Savtiya» schools opened in Samarkand was opened in 1903 in the village of Rajabamin, Jomboy district, in the yard of the famous enlightener Abduqadir Shakuri. Behbudi contributed to the establishment and operation of this school. But since there were not a few schoolchildren who commuted from the city and it was difficult for them to go to the village of Rajabamin, Behbudi moved it to his yard. During these years, he wrote for the students of this school «Muntakhabi jugrofiyai yamiy» (Brief General Geography), «Madhali jugrofiyai Umranyi» (Introduction to Population Geography), «Mukhtasari jugrofiyai Rusiy» (Brief Geography of Russia), «Kitabat ul- Atfol» (Children's book), «Mukhtasari tarikhi islam» (A brief history of Islam) and created textbooks and study guides. These mentioned works prove that Behbudi was an enlightener who set himself the goal of imparting both religious and worldly knowledge to his students.

Behbudi's «Selected Works» (1999), published by «Ma'naviyat» publishing house, gives us a certain idea about his two textbooks and manuals. One of them is «Kitab ul-atfol». Behbudi gave an idea about the conditions of letter writing and letter writing skills and gave examples of letter types because students could not learn how to write a letter despite having studied for four to five years in old schools. In the excerpts from the book «General Geography», the meaning of the word «geography», when the science of geography appeared, the importance of studying this science, as well as information about the countries on earth information is provided. In addition, this textbook includes the chapters «Old and New Sages», «Sages of Turkestan».

For example, in recent seasons, the author has presented the views of world and Turkestan scientists on the appearance of the earth, and has given insights into the objects and terms related to the science of geography, such as maps and globes. These books, which had a great scientific and educational value in their time, served as textbooks and training manuals in other schools of Samarkand for many years.

Behbudi wrote about the fact that these textbooks and study guides were taught in the Shakuri school and that the students passed the exam based on them in his article «On the examination of the modern Samarkand method school». and in our book «Summary of the Russian Geography» Europe, Asia, Africa, America and Australia also show the size (measurement), territory, population of the Russian countries and how many countries and governments there are in each of them, and the distribution and population of the country of Russia They described the territories and seas of the old and new continents and Islam, Christians, Jews and Magians on the earth in detail and in detail. [1]. During the examination described in this article, in addition to education workers, Likoshin and Vyatkin, as well as bailiffs, merchants and shopkeepers, were present on behalf of the local government. The exam, which lasted for two days from 10 a.m. to 6 p.m., left a good impression

on them. Most of them praised the students' knowledge, some of them even cried from excitement. «Gentlemen of Haji Mavlonbek,» writes Behbudi, «stayed up to six hours, crying for the children's answers on recitation and religion, and gave the teacher 15 soums» [2].

The knowledge imparted in the Shakuri school based on Behbudi's textbooks and study guides and the exam held raised the reputation of modern schools in the society, and Behbudi's services were not small in this.

This ardent propagator of science was not only engaged in opening a school and writing textbooks and manuals, but as one of the major public figures of the Turkestan region, in 1907 he presented the project «Cultural Autonomy of Turkestan» to the Muslim faction of the 3rd State Duma of Russia. sent for review. Unfortunately, the 3rd State Duma ignored this project developed by Behbudi. However, if this project is approved, it would have a great impact on the social life of Turkestan. Our compatriot, Dr. Temir Khoja, who found this historical document in foreign archives, wrote the following words about it: khanate is not included in this) it is known that he wanted autonomy, which was extremely brave for his time, demanding wide rights.

One of the two most important topics in the project is the privatization of schools (Article 18), and the other is articles related to the non-interference of the Russian State Duma in the internal affairs of Turkestan»[3].

In the «Project» presented by Behbudi to the Muslim faction of the 3rd State Duma, there is also a section called «General schools», in which the following issues were requested to be legally binding:

17. The issue and article of the general education to Russia should be equal (equality) mixed (included) with Turkestan.

18. Turkestan schools and madrassas should be freed from government control.

19. A commission of Muslims should be appointed for general high and secondary schools. The Russian alphabet should not be introduced to Muslim schools.

20. There are Muslims in various enterprises, prisons and military barracks, a Muslim priest should be appointed» [4].

These articles of the project indicate that Behbudi took a bold step from enlightenment to the independence movement in 1907.

Later, Behbudi founded the magazine «Oyna» and published articles urging young people to acquire religious and worldly knowledge, to learn not two, but four languages. He wrote a series of articles based on the impressions of various trips and justified with convincing evidence that the scientific and cultural progress in Eastern and especially Western countries is the result of great attention to science in these countries [5].

One of the leaders of the national revival movement came to the right and bold conclusion that reforming the education system alone is not enough to realize the «cultural autonomy of Turkestan».

SOURCES AND REFERENCES USED

1. Turkiston viloyatining gazetasi, 1906, 27-son.
2. Jahon adabiyoti, 2003 yil avgust soni. – B.148.
3. Jahon adabiyoti, 2003 yil avgust soni. – B.156 – 157.
4. Naim Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy. Risola. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 80 b.

* * *

MARKAZIY OSIYO – ISLOM SVILIZATSIYASI TUTASHGAN MANZIL

CENTRAL ASIA – THE PLACE WHERE ISLAMIC CIVILIZATION CONTINUES

Shodiyeva Mehribon Amin qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Markaziy Osiyo islom svilizatsiyasining o‘zaro kesishgan nuqtasi bo‘lib, islom dini keng yoyilishi bilan ilm-fan, madaniyat kabi yana ko‘plab sohalar taraqqiy eta boshlagan. Imom al-Buxoriy , Imom Termiziy, Imom Nasafiy kabi allomalarimiz davrida ilm-fan bir qadar taraqqiy etgan bo‘lsa, Temuriylar davriga kelib yana-da ravnaq topdi. Ilm olish go‘yoki ibodat qilishga tenglashtirilgan hamda ta’lim-tarbiya jarayoni milliy urf-odatlar, an’analar, islomiy qadriyatlar bilan uyg‘un holda olib borilgan. Darhaqiqat, shaxs kamolotida milliy qadriyatlar, axloqiy fazilatlar, xalqona urf-odatlarning ahamiyati katta. Ajdodlar merosidan unumli foydalanish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining barkamol inson sifatida voyaga yetishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Darslar jarayonida shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimizga oid qiziqarli hikoyalar so‘zlab berish, qisqa lavhalar ko‘rsatish yoki ularning fikrlaridan foydalanish o‘quvchilarda vatanparvarlik hissini yana-da oshiradi. O‘tmish va bugunni o‘zaro taqqoslash, bir-biriga bog‘lash va allomalarga tegishli fikrlarning bugungi kundagi ahamiyatini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga erishish mumkin. Al Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, ibn Sino, Alisher Navoiy, al Farg‘oniy, Yusuf xos Hojib, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy kabi qator mutafakkirlarimiz o‘zlarining ilmiy-ma’naviy merosi orqali butun insoniyatga daxldor bo‘lgan fikrlarni bayon qilganlar. Ayniqsa, yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ibratli fikrlari asrlar oshsa-da o‘zining qiymatini yo‘qotgan emas. Vatanni sevish, ota-onaga hurmat, odob-axloq, ilm olish, tabiatni asrab-avaylash kabi go‘zal fazilatlar ifodalangan asarlari ma’nan uyg‘oqlikka chorlaydi. Kitobxon ushbu asarlarni o‘qigani sayin har tomonlama yuksalib boraveradi. Mutafakkirlarimizning ilmiy-ma’naviy merosidan bolalarning yoshiga mosini tanlab hikoya tarzida so‘zlab berish yoki dars xulosasi sifatida foydalanish ham ijobiy natija beradi. Qur’oni Karim oyatlari, Hadisi shariflardan olingan parchalar o‘quvchilarda mehr-shafqat, hurmat, odamiylik, mehnatsevarlik kabi sifatlarni tarbiyalashda bosh omil bo‘lib xizmat qiladi. Hadisi shariflarda keltirilishicha, Payg‘ambarimiz (s.a.v.): “Ota o‘z bolasiga chiroyli odobdan ko‘ra yaxshiroq narsa bera olmaydi”, deganlar (Imom Termiziy rivoyati). Yoki bo‘lmasa, “Bolalaringizni e’zozlanglar va ularning odobini go‘zal qilinglar” deyilgan hadisi sharifda ham aynan yoshlar tarbiyasi masalasi ilgari surilganini ko‘rishimiz mumkin. Qur’oni karimda: “... Yenglar, ichinglar va isrof qilmanglar. Chunki, Alloh isrof qiluvchilarni sevmaydi” (A’rof surasi, 31-oyat), deyiladi. Darhaqiqat, tejamkorlik yaxshi fazilatlardan biri bo‘lib, uni yoshlikdan boshlab o‘quvchilar ongiga singdirish zarur. Ayniqsa, bolalarni rostgo‘ylikka o‘rgatish, yolg‘onchilik, o‘g‘rilik, dangasalik kabi illatlardan qaytarish kerak. Ajdodlarimizning pand-u nasihatlarida ham ezgu fazilatlarga yetaklovchi axloqiy fikrlar mujassam. Jumladan, Rumiyning “Ichingdagi ichingdadir”, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub”, “Hayrat-ul abror”, Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma” kabi didaktik ruhdagi bir qancha asarlari yoshlar dunyoqarashi, tafakkurini boyitishda juda muhim rol o‘ynaydi. Yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrini ayta oladigan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda buyuk mutafakkirlarimiz asarlaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

Yurtimizda ham ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish, keng targ‘ib qilish, ko‘proq kitobxonlar e’tiboriga havola qilish bo‘yicha bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Ularning hayoti va

ijodiga bag‘ishlangan filmlar ishlash, asarlarini tarjima qilish, ko‘cha, bog‘ va maktablarga nomlarini qo‘yish, haykal, maqbaralar o‘rnatish, muzey, ziyoratgohlar tashkil qilish kabilar shular jumlasidan. Bundan tashqari, 2014-yil 14-15-may kunlari Samarqand shahrida “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy me’rosi, uning zamonaviy svilizatsiya rivojidagi roli va ahamiayti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning o‘tkazilishi buyuk ajdodlarimizga nisbatan turli millat vakillarida o‘zgacha qiziqish uyg‘otgan edi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, istiqlol yillarida milliy urf-odatlarimiz, ajdodlarimiz merosi qayta tiklandi va xalqimizga yetkazib berildi. Bugungi kunda ham muqaddas dinimizga nisbatan hurmat va e’tibor yuksak darajada. Jumladan, masjidlar, madrasalar faoliyati, haj va umra ziyoratlarining tashkil etilayotgani, Imom Buxoriy nomidagi ilmiy-tadqiqot markazi, Xalqaro islom akademiyasi tashkil etilishi kabi ezgu ishlar ilm-fan va madaniyat rivojiga o‘zining muhim hissasini qo‘shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev- “Yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan” nomi ostida o‘tkazilgan tadbirdagi nutqidan. 2017.16.06, Toshkent.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora- tadbirlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ– 3907-sonli qarori.
4. “Islom tarixi”, Imom Buxoriy nomidagi ilmiy markaz materiallari, Toshkent, 2018.
5. Ulug‘bek Mirzo, *Astronomy and Science in Timurid Central Asia*, Journal of Islamic Studies, 2017.
6. Abdullayeva F.N., Shodiyeva M.A. Ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o‘rgatishning ahamiyati. Pedagogik tadqiqotlar jurnali.- 2024, noyabr
7. Shodiyeva M.A. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik tushunchalarni o‘rgatishning nazariy asoslari “Globallashuv sharoitida ilm-fan muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya. – 2024

* * *

HANAFIY MAZHABIDAGI MO‘TABAR ASARLARNI O‘RGANISHNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF STUDYING AUTHORIZED WORKS OF THE HANAFI SCHOOL TODAY

Ro‘zmetov Muxammadmustafo
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktaranti, Mir Arab oliy madrasasi o‘qituvchisi
e-mail: mustafohafiz 0880@ gmail.com

Annotatsiya: Hanafiy mazhabi boshqa mazhablarga nisbatan eng oldin paydo bo‘lgan mazhab hisoblanadi. Bu mazhabga imom Abu Hanifa rohimahulloh tamal toshi qo‘ygan bo‘lsa, uni asosan Abu Hanifadan keyingi davrda yashagan shogirdlari rivojlantirdilar. Shu zaylda hanafiy mazhabiga fuqaholar katta xizmatlar qilishdi. Ularning ko‘zga ko‘ringan xizmatlaridan biri, mazhab doirasida

yozgan asarlaridir. Hanafiy fuqaholarining yozgan asarlari shu darajada ko‘pki, dunyoda kirib bormagan kutubxona qolmagan desak, mubolag‘a qilgan bo‘lmaymiz! Mazkur asarlarning aksari bizning ajdodlarimiz hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa ularning ilmga bo‘lgan rag‘bati nechog‘lik katta darajada bo‘lganini ko‘rsatadi. Ushbu maqolamizda mazkur mazvuni atroflicha yoritib o‘tamiz!

Kalit so‘zlar: Fiqh, faqih, mazhab, hanafiy, fuqaho, usulul fiqh, alloma, shariat, qoida.

Tarixdan bizga ma’lumki islom dini boshlangandan buyon hozirga qadar ilm rivojlanib keldi. Ilmning qaysi sohasida bo‘lmasin, har bir soha mutahassislari, mutafakkirlari yetishib chiqdi. Bu borada nafaqat o‘z ona tilida, balki, boshqa tillarda ham ulkan ishlar qilinib, kitoblar yozildi, asarlar ta’lif qilindi.

Bugungi kunda islom dini va uning asosiy qismi bo‘lmish fiqh – islom huquqshunosligini davr talablarini nazarda tutgan holda o‘rganish va uni o‘zlashtirib, amaliy hayotda undan foydalanish bir zaruratga aylandi.

Hozirgi kunda ko‘plagan adashgan oqimlar mavjud. Ularning adashishlarini asosiy sababi jaholatdir. Fiqh ilmidan xabarlari yo‘q ekani gapimiz tasdig‘idir. Ular faqat biz qur’on va sunnatni ushlaymiz. Saodatimiz ham riyosatimiz ham shu ikki manbaga bog‘liq deyishadi va deyarli qolgan ilmlarni o‘rganishdan bosh tortishadi. Ya’ni, fiqh va usulul fiqh fanlaridan ta’lim olmaydilar. Ularning ushbu noto‘g‘ri fikrlari adashishlariga sabab bo‘lgan. Mazkur holatlarga diqqat qiladigan bo‘lsak, hozirgi davrda ushbu din ta’limotlarini tub mohiyatini yoritib borib, uning tinchliksevar va insonparvar maqsadlarga qaratilgan g‘oyalarini to‘g‘ri talqin etish, fiqhning amaliy hayot bilan chambarchas bog‘langan bir huquqiy tizim ekanini ko‘rsatish nechog‘li ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini tushunib olamiz. Bundan tashqari, fiqh fani va undagi mo‘tabar manbalar biz uchun quyidagi nuqtai nazarlardan inkor etib bo‘lmaydigan ahamiyatga ega:

Birinchidan, tarixiy jihatdan. Negaki fiqh fani, shariat qoidalari va huquqlari barcha islomiy davlatlar tarixida o‘ziga xos o‘rinni egallagan. Abbosiylar, Umaviylar, Qoroxoniylar, G‘aznaviylar, Somoniylar, Xorazmshohlar, Saljuqiylar, Temuriylar, Xorazm xonligi kabi buyuk davlatlar islom huquqi me’yorlarini xalqimizning iqtisodiy-ijtimoiy va oilaviy munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalar sifatida, urf-odat qonunlari bilan birga qo‘llashgan. Masalan Zahiriddin Muhammad Bobur Husayn Boyqaro haqida so‘zlaganda “Ba’zi muomalatda shar’ni [shariatni] bisyor rioyat qilur edi”[294] deb yozadi.

Ikkinchidan, islom dini va islom huquqini rivojlantirish va tarqatishda bizning buyuk vatandoshlarimiz, yirik faqih va allomalarimiz o‘z ta’limotlari, yaratgan barhayot asarlari va ishlab chiqqan huquqiy kodekslari bilan unutilmas xizmatlar qilib kelganlar.

Hanafiy mazhabida eng ko‘p asarlar yozgan aynan bizning ajdodlarimiz hisoblanadi. Ularni fiqh faniga qo‘shgan hissalari beqiyos. Butun islom olami Movarounnahr va Xorazm ulamolaridan qarzdor desak mubolag‘a qilgan bo‘lmaymiz. Ajdodlarimiz yozib qoldirgan asarlar bizning iftixorimiz hisoblanadi. Ularni o‘rganib, tarqatish va to‘g‘ri talqin qilish biz uchun milliy burch va tarixiy vazifa o‘rnida turadi.

Uchinchidan, Islom huquqi o‘ziga xos xususiyatlari va yo‘nalishlari bilan jahon miqyosida rivojlangan bir mustaqil huquqiy tizim sifatida tan olingan. 1937- yil Gaaga shahrida [Gollandiya] qiyosiy qonunshunoslik bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro konferensiya tomonidan chiqarilgan bayonnomada quyidagilar ta’kidlangan:

Islom shariatiga [qonunlariga] umumiy qonun tuzish manbalaridan biri sifatida e’tibor berish. Bu qonun taraqqiyotga mos keladigan barhayot deb tan olindi. Unga mustaqil va boshqa joydan iqtibos qilinmagan tizim sifatida e’tibor berildi[295]. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ajdodlarimiz

[294] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha nashriyoti, 1989. – B. 254.
[295] Juzjoniy. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. – T. TIU, 2002. – B. 60.

merosiga qaratilgan mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar jarayonida ayniqsa xalqimizga islom dinining asl mohiyatini to‘g‘ri yetkazishda ham ahamiyati nihoyatda katta.

Bugungi dolzarb vaziyatda, turli xil oqimlar chiqib, o‘zining buzuq aqidasini musulmonlarga, ayniqsa, yoshlarga singdirishga urinayotgan bir davrda bu tadqiqotning asosi bo‘lgan, ishonchli manbalar fiqh ilmini to‘g‘ri anglashga va uni ommaga yetkazishga zamin yaratadi. Bundan tashqari bugungi kunda mazhabsizlikka targ‘ib qilishning avj olishi musulmonlar orasida ko‘pgina fitnalarga, tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. Bu narsani keltirib chiqarayotganlar o‘zlari qur’oni karim oyatlariga ilmsizlarcha ma’no aytib, hadislarning ahamiyatini, maqsadini to‘g‘ri tushunmasdan, o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanayotgan kimsalardir. Ana shunday vaziyatda sahih rivoyatlarga asoslangan fiqhiy manbalar, ahli sunna val jamoaning to‘rtta mazhabiga tayangan ushbu tadqiqot va shu kabi manbalarni o‘rganib, yosh avlodga yetkazishlik bugungi kunning asosiy masalalaridandir.

Bugungi kunda hanafiy mazhabidagi mo‘tabar manbalar borasida ko‘plab asarlar yozilgan va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek ulamolar qay holatda qaysi kitobga murojaat qilinishi va qaysi holatda unga murojaat qilinmasligi, qaysi manbalarni darajalari qolganlarnikidan ustun turishini asarlarida bayon qilib o‘tishgan. Hanafiy mazhabida yozilgan kitoblar ko‘pligi e’tiboridan ularning qaysi biri qolganlaridan alohida sifatlariga ko‘ra afzal ekanligini ham zikr qilishgan. Ulamolar masalamizning bu jihatlarini ham chuqur yoritib o‘tganlar. Hamda mazhabdagi rivoyatlar, fatvolar va ahkomlarni tarjih qilinishiga doir risolalar yozishgan.

Yangi O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar hanafiy fiqhi va mazhab ulamolarining ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish hamda uni jamoatchilikka yetkazishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Buning natijasi o‘laroq, olimlar tomonidan Burhoniddin Marg‘inoniyning “الهداية” [Hidoya] – “To‘g‘ri yo‘l”, Ubaydulloh ibn Mas’udning “مختصر الوقاية” [Muxtasarul viqoya] – “Viqoya qisqartmasi”, Alouddin Kosoniyning “بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع” [Badaoeus-sanoe fi tartibish-sharoe] – “Shar’iy hukmlarni tartibga solishdagi go‘zal san’atlar” kabi asarlarining o‘zbek tilidagi izohli tarjimasining amalga oshirilishi, sharhlanishi, turli mavzudagi kitob va risolalar chop etilishi turli zamonaviy, mintaqaviy muammolariga yechim bo‘lmoqda. Shu bois Movarounnahr faqihlarining klassik asarlari asosida ba’zi masalalarga doir hukmlarni chuqur ilmiy tahlil qilish sohadagi tadqiqotlarning izchil davomi bo‘lib xizmat qiladi.

Ajdodlarimiz tomonidan yozilgan va mazhabga xizmat qilingan asarlarni o‘rganish, o‘rgatish va amaliy tatbiqi avlodlar zimmasidagi burjdir. Mazkur asarlar o‘zbek millatini obrosi hamdir. Shu sababli yosh avlod qalbida milliy g‘ururni uyg‘otib, ularni ajdodlar merosi tomon yetaklash zarur.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Aminov Hamidulla, Primov Soatmurod. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istelohlari. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 400 b.

2. Abdurrahim Asnaviy. Tabaqotush shofeiyya. – Bag‘dod: al-Irshod, 2006. – 5776 b.

3. Abdulhalim Jandiy. Abu Hanifa. Batalul hurriyyat vat tasomuh fil Islom. – Qohira, 2011. – 234 b.

4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Manaqibu Imom Abi Hanifa va sohibayhi Abi Yusuf va Muhammad ibn Hasan. – Haydarobod: Lajnatu ihyo al-maorifin nu’moniyya, 2009. – 96 b.

5. Juzjoniy. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. – T. TIU, 2002. – 407 b.

* * *

ИСЛОМ ДИНИНИНГ МАРКАЗИЙ ОСИЁГА ТАЪСИРИ

THE INFLUENCE OF ISLAM ON CENTRAL ASIA

Раджапова Маргуба Закировна,
Андижон давлат университети
Ўзбекистон тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Кишилик тарихида ҳар бир давр ўзга хос хусусияти, равнақи, салоҳияти билан ажралиб туради. Айниқса ҳар бир давр илмга бўлган муносабати билан ўлчанади.

Марказий Осиё минтақаси ҳам ҳар хил даврларда ўзига хос хусусият билан равнақ топди. Узоқ ўтмишга назар соладиган бўлсак Марказий Осиёнинг қулай географик шароити, табиати, иқлими минтақада одамларнинг ўтроқлашиб, чорвачилик, деҳқончилик ва ҳунармандчилик билан шуғуллангнлиги бу ерларда маданиятнинг анча аввал шаклланиши учун шароит таъминланганлигидан далолат беради.

Ҳар бир тарихий жараён инсон ҳаётининг, кечинмаларининг маҳсулидир.

Ислом дининг Марказий Осиёга кириб келиши Уммавийлар сулоласидан бўлган халифа Абдумалик ибн Марвон даврига тўғри келади. Бу даврда Ҳуросон волийси Ҳажжож ибн Юсуф бўлиб, Мовароуннаҳрга юриш учун эса Қутайба ибн Муслим Албоҳилийни лашкарбоши сифатида юборилган.

Қутайба ибн Муслим Жайҳун дарёсидан ўтиб,87 ҳижрий (705 милодий) санада Бухорога етиб борди. 88-89 ҳижрий (706-707 милодий) йилларда Қутайба ибн Муслим Термиз, Марв шаҳарларини забт этган. Бу даврда ислом дини кундан-кунга ривож топиб, табиийки, уларнинг сони янада кўпайиб борарди. Қутайба ибн Муслим Албоҳилий 90 ҳижрий (708 милодий) Туркистоннинг маркази – пойтахти Бухорони, 92-94 ҳижрий (710-712 милодий) йиллари суғдлар яшайдиган бир нечта ҳудудларни, шу жумладан, Самарқанд, Хоразмни эгаллаб, суғдий ва хоразмлик туркларни исломга чорлайди”.[296]

Аббосийлар даврига келиб эса Марказий Осиё ўзига хос бўлган исломий минтақага айланди. Ислом дини ўрнатилган Осиёнинг жуда катта қисми кейинчалик Мусулмон Шарқи номи билан аталди. VIII-IX аср бошларида халифаликнинг маркази Боғдод шаҳрида илм-фан ривожланди. Дастлаб таржима мактаблари вужудга келди. Қадимги юнон олимлри Афлотун(Платон), Арасту(Аристотель), Суқрот(Сократ), Буқрот(Гиппократ), Жолинус(Гален), Иклидус(Евклид) каби донишманд олимларнинг асарлари араб тилига таржима этилди. VIII асрнинг 2-ярмидан бошлаб мусулмонлар орасида шиалар, суннийлар, мутазалийлар, мутакалимлар, исмоилийлар, ботинийлар, “Ихвонс-сафо” (“,Мусаффолик биродарлари”) каби турли оқимлар вужудга келди.

Халифа Хорун ар-Рашид ўлимидан (813йил) сўнг, унинг ўғли ал-Маъмун халифа этиб тайинланди. Ал- Маъмун илм-фанга қизиққанлиги учун Бағдодда Илмий Марказ ташкил этди, унга барча мусулмон ўлкалари, жумладан, Мовароуннахрдан ҳам олиму фозилларни тўплади. Бу илмий марказ “Байт ул-Ҳикма” (Донишмандлар уйи) деб ном олди. Албатта, “Байт ул-Ҳикма” фаолиятини ўлкамиздан етишиб чиққан олимларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Илмий марказда Мусо Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Аҳмад Марвазий, Жавҳарий каби олимлар фаолият олиб бордилар.

[296] Каттаев Пўлатхон. Марказий Осиёга Исломнинг кириб келиши. Сийрат ва ислом тарихи. Интернет манба: https:oliyahad.uz мурожаат санаси 2025 йил 10 июль.

Мусулмон умматига мансуб олимлар ҳам мақтанишни, мақташни ҳам ўзларига эп кўришмаган, лекин жаҳон цивилизацияси ривожида мусулмонлардан етишиб чиққан алломаларнинг хизматлари беқиёсдир. Уруш, тинчлик, илм, қонун, ҳукм, иқтисод, оила жамиятнинг ҳар соҳасида инсон манфаатини ахлоқий қонунларига риоя қилинди. Ислом цивилизациясининг хусусиятларидан ўзига хослиги-ажойиб диний эркинлик бўлиб, дин устига қурилган бирон-бир цивилизация бундай эркинликни билмайди. Ислом цивилизацияси жаҳон ҳайратини қўзғади,жинси ва динидан қатъий назар эркин ва закий кишиларнинг қалб тўридан жой олди.

Ислом тараққиёти инсоний ривожланиш тарихида муҳим роль ўйнаган. Ислом цивилизацияси ақида,илм,ҳукм,фалсафа,санъат.адабиёт ва бошқа майдонларда ўзидан кейинги цивилизациялар ета олмаган чўққиларга кўтарилди. Европа фалсафани,хусусан юнон фалсафасини фақатгина исломий – мусулмон олимлари шарҳлари ва таржималари орқали таниди.

Европа фалсафа, тиб, риёзиёт, кимё, жуғрофия ва фалакшунослик илмларини асосини мусулмонлардан олди. Бир сўз билан айтганда Европа Ислом оламининг олим ва файласуфларининг овозидан уйғонди. Уларга Имом Ғаззолий, Абу Наср Форобий, ибн Рушд, ибн Сино, Мусо Хоразмий, Абдуллоҳ Хоразмий, Ҳасан ибн Ҳайсам ва бошқа етук аждодларимизни мисол қилиб келтиришмиз мумкин.

Европа адабиёт намояндалари ҳам араб адабиёти ва тасаввуф аҳли ижодидан илҳом олганлар ва унинг таъсирида бўлганлар.

Джорж Тремингэм, Е.Э.Бертельс каби Ғарб олимлари тасаввуф тариқатларига муносабатда ҳудудий, миллий ва мазҳабий таснифларни илгари сурганлар. Лекин тасаввуф давомли суратда ривожланиб борди. Тасаввуф, бир томондан, дин ва шариат, иккинчи томондан, фалсафа ва ҳикмат илми билан боғлиқ холда ривожланди (Фариддин Аттор, Жалолиддин Румий, ибн Арабий, Форобий, ибн Сино, ибн Рушд, Умар Ҳайём, Азизиддин Насафий, Абдураҳмон Жомий, Баҳоуддин Нақшбанд, Нажмиддин Кубро ва бошқалар).

Румий томонидан биринчи бўлиб яратилган “оламнинг заррадан коинот қадар ўзаро боғлиқлиги” назарияси, ҳамда диалектик тараққиёти ҳақидаги фикрлари бир неча асрдан кейин Гегель томонидан ривожлантирилди. Бундай мисолларни кўплаб келтиришимиз мумкин.

Тарих фанига “,Мусулмон Ренессанси” тушунчаси таниқли Австрия шарқшуноси Адам Мец (1876-1946) томонидан XX аср бошларида, янада аниқроғи, 1909 йилда киритилди. Олим “Шарқ” атамасини тарихий мазмунда ишлатиб, бунда Ўрта ер денгизидан то Европа қитъасигача бўлган юртларни ва бу ҳудудларда IX-XII асрларда маданият юксакларга кўтарилганлигини кўзда тутган. “Мазкур ўлкалар қадимий цивилизация бешигидир” деб айтган.[297]

Доктор Рим Туркманий (Лондон империал коллежи): “Ислом тамаддуни фақат қадимги юнон фалсафасини сақлаб қолгани йўқ, мусулмонлар инсоният асрлар давомида тўплаган интелектуал илмий меросни тўлиқ эгаллаб, нафақат астрономия ва математика, балки бошқа барча билимларни ўзлаштирдилар ва башариятни мутлақо янги илмий даражага олиб чиқдилар. Мусулмонлар ғоятда қизиқувчан, изланувчан одамлар эди. Таржимачилик ҳаракатининг дастлабки йилларидан бошлаб Ислом олимлари янги, инқилобий ғояларни илгари сурдилар” деб алоҳида қайд этганиёқ ислом оламининг инсоният тараққиётига катта ҳисса қўшганига олим томонидан берилган ҳаққоний баҳодир.[298]

[297] Акмал Саидов, Очил Бўриев. Ўзбекистон учинчи ренессанс остонасила. Тарихий илдизлар ва ҳозирги замон. Интернет манба: https://uzhurriyat.uz мурожаат санаси 2025 йил 10 июль.

[298] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Олам ва одам, дин ва илм. Тошкент, “Hilol-Nashr”, 2019. Б. 61.

Дарҳақиқат, биргина Мусо ал Хоразмийнинг ўнлик позицион системага асос солишининг ўзи математика фанларида хатто инсоният турмуш тарзида инқилобий ўзгариш бўлди. Аннемари Шиммель хоним таъбири билан айтганда: “замонавий табиий фанларнинг асослари араблар томонидан Испания орқали Европага келтирилганлигини унутманг, чунки 800 йилда бизда Буюк Карл ҳукмронлик қилган пайтларда Бағдодда таржимонлар академияси мавжуд бўлган ва унда юнонларнинг табиий фанлар бўйича классик асарларининг баъзилари таржима қилинган, баъзилари эса қайта ишланиб, янада тўлдирилган. Араблар уларни ўз кузатишлари билан давом эттирганлар ва чуқурлаштирганлар.[299]

Айрим инсофли Ғарб олимлари фан тарихидаги бу каби кашфиёт ва янгиликлар мусулмонлар томонидан амалга оширилганлигини тан оладилар.

“Ғарб IX асрдан бошлаб Шарқ маданиятининг кучли таъсири остида қолди. Антик илм-фан араб маданиятининг бағрида сақланиб қолди. Ғарб халқлари араб таржималари орқалигина ”ўз ақлий ташналигини” (агар шундай таъбир жоиз бўлса) қондирди ва юнон фалсафасининг моҳиятини тушуниб ета олди”.[300]

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, Президентимиз раҳнамолигида Ўзбекистонда янги Уйғониш даври – Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш асосий мақсад этиб , хаттоки стратегик вазифа қилиб белгиланди. XX асрнинг 90 йиллари бошларида Ўзбекистон миллий мутақилликка эришган кундан бошлаб Ренессанснинг янги босқичи бошланган десак муболаға бўлмайди, албатта. 2014 йил 14-15 май кунлари Самарқандда “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти” мавзусида бўлиб ўтган Халқаро илмий анжуман ҳам бунинг яққол намунасидир. Шунинг учун ,Учинчи Ренессанснинг мазмун моҳиятини англаб олишимиз ва давр ривожига ўз хиссамизни қўшишимиз лозим деб ўйлаймиз. Юқорида тилга олинган алломаларни берган авлод яна шундай алломалар беришга қодир, албатта.

* * *

ISLOM MANBASHUNOSLIGIDA BIOGRAFIK MANBALARINING ILMIY-TARIXIY AHAMIYATI

THE SCIENTIFIC AND HISTORICAL SIGNIFICANCE OF BIOGRAPHICAL SOURCES IN ISLAMIC SOURCE STUDIES

Jo‘rakulova Mukambar Tursunmurod qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tarix yo‘nalishi talabasi
Email: mukambarjurakulova@dtpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada islomiy ilmiy-adabiy an’anada shakllangan biografik asar turlarining shakllanishi, mazmuni va tarixiy funksiyalari tahlil qilinadi. Xususan, *axbor*, *siyar va mag‘oziy*, *tazkira*, *manoqib*, *vafayot* kabi an’anaviy biografik janrlar o‘rganilib, ularning shakllanishidagi ijtimoiy-madaniy omillar, tarixiy ehtiyojlar va ma’naviy-ma’rifiy vazifalari ochib beriladi. Bundan tashqari, *tarjama*, *safina*, *tuhfa*, *gulshan* kabi kamroq tarqalgan, biroq o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan biografik asarlar ham umumiy tasnifda ko‘rib chiqiladi.

[299] Аннемари Бригитте Шиммель. Бисмиллаҳир роҳманир роҳим // “Moziydan sado”/ №1.(9) 2001 йил. Б.41-42.
[300] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф Олам ва одам, дин ва илм. Toshkent, “Hilol-Nashr”, 2019. Б. 201.

Maqolada manoqib janrining mubolag‘ali uslubiga qaramay, real tarixiylikdan uzilmaganligi, vafayot asarlarining hadis ilmidagi ahamiyati va boshqa janrlar bilan farqlari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Islom biografik adabiyoti, manoqib, siyar, mag‘oziy, tazkira, vafayot, tarjama, safina, hadis ilmi, tarixiy manba.

Kirish: Islomiy adabiy an’anada biografik asarlar diniy-ma’rifiy, tarixiy va madaniy merosni uzviy saqlab qolish va avlodlarga yetkazish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Dastlabki manbalar orasida siyar va mag‘oziy asarlari Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) hayotini bayon qilish maqsadida yozilgan bo‘lsa, tazkira va manoqib asarlari tasavvufiy muhitda yetishgan shaxslarning ma’naviy portretini aks ettiradi. Hadis ilmi rivoji bilan vafayot turidagi biografik asarlar roviylarning vafot sanalari orqali hadislarning ishonchliligini tekshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bular bilan bir qatorda, tarixan keng tarqalmagan bo‘lsa-da, tarjama, safina, tuhfa, gulshan kabi janrlar ham o‘z zamonaviy ifodasi bilan biografik asarlar sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Asosiy qism: Diniy fanlar nuqtayi nazaridan mashhur shaxslarning hayot hikoyalari, qahramonliklari, axloqiy fazilatlari, ta’limotlari va h.k. dastlabki davrlarda shifohiy (og‘zaki) ravishda, keyinchalik esa kitobiy (yozma) shaklda saqlanib, avloddan-avlodga uzatib kelingan. Tarixiy voqelik bilan badiiy ifoda o‘rtasida ikkilanib qolgan tarjima-i hol (biografiya) yozuvi ilk belgilarini islomdan avvalgi davrda ko‘rsatgan bo‘lsa-da, Islom dinining qabul qilinishi ortidan arab madaniyatida mustaqil tarjima-i hol yozuvi taraqqiy eta boshlagan. Tarjima-i hol yozuvi shakllanishi jarayonida ba’zi muammolar yuzaga kelgani kuzatiladi. Eng muhimlaridan biri — tarjima-i hol muallifining, asar mavzusi bo‘lgan shaxs yoki shaxslar haqidagi ilgari shakllangan hissiy munosabati asosida hayot hikoyasi qurishidir. Bu holat tarixiy voqealarning voqeanavislar tomonidan turlicha nuqtai nazardan tasvirlanishiga o‘xshaydi. Natijada ikki xil tarjima-i hol asarida bir shaxs biri tomonidan maqtalgan bo‘lsa, boshqasida tanqidga uchragan bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan olganda, tarjima-i hol yozuvchilaridan o‘z mavzusi bo‘lgan shaxslarni baholashda mutlaqo xolis bo‘lishlarini kutish amalda qiyin. Biroq har qanday holatda ham voqeanavislar tarixiy hodisalarning ichki mohiyatini yoritganidek, tarjima-i hol yozuvchilari ham tarixiy shaxslar hayotiga nur sochganlar.

Ma’nosi “to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri nisbat berilishi mumkin bo‘lgan so‘z” deb tarif qilinadigan xabar (خبر)[301] so‘zining ko‘pligi bo‘lgan axbor (أخبار), keyinchalik biror mamlakat, mintaqa, irq, qabila, qavm, ilm sohasi yoki shaxsga doir ma’lumot beruvchi ayrim asarlarning nomi sifatida istilohga aylangan va tarjima-i hol adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallagan. Islomdan avvalgi davrda mavjud bo‘lgan Ayyomu’l-‘Arab (أيّام العرب) adabiyoti qandayki mag‘oziy turidagi asarlarga manba bo‘lgan bo‘lsa, xuddi shunday axbor turidagi asarlar ham Axboru’l-‘Arab (أخبار العرب) deb nomlanuvchi adabiyotga tayangan holda yuzaga kelgan[302]. Og‘zaki madaniyat keng tarqalgan Islomdan oldingi arab jamiyatida urushlar va muhim voqealar haqida berilgan ma’lumotlarda afsonaviy uslub hamda jo‘shqin tuyg‘ular ustuvor bo‘lgan bo‘lsa-da, tarixiy voqealar va shaxslarning hayotini anglab yetishda axbor turidagi asarlar asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan[303]. Bu turdagi asarlarning eng qadimiy namunasi, xalifalardan Muoviya tomonidan qadimgi arab xalqlari va qabilalari haqida yozish uchun San’odan chaqirilgan Abid ibn Shariya (v. 67/686) tomonidan yozilgan va Himyar qabilasi haqida ma’lumot beruvchi “Axboru’l-Yaman va ash‘oruha va ansobuha” nomli asardir. Abid bilan boshlangan geografik markazli ahbor yozuvi keyinchalik “Axboru’l-hulafo‘”, “Axboru’n-nahviyyin”, “Axboru’l-quzzot” kabi nomlar ostida diniy, siyosiy va ma’muriy mavqe egalari haqidagi asarlar shaklida rivoj topgan. Abu Bakr Muhammad al-Ajurriy (v. 360/970)ning “Axboru Umar ibn Abdulaziz” nomli asari bir shaxsning hayotini tasvirlashga bag‘ishlangan bo‘lsa, Ibn Abu Haytama

[301] Sharif Ali ibn Muhammad al-Jurjoniy, **at-Ta’rifot,** Bayrut, Doru’l-kutubi’l-ilmiyya, 1983, s. 129
[302] Nihal Şahin Utku, “Biyografik Tarih Yazımı İçinde Siyer”, 275
[303] Nihad M. Çetin, “Ahbâr”, **Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi**, İstanbul, Türkiye Diyanet Vakfı, 1988, c. 1, 486

(v. 279/892)ning “Axboru’sh-shu‘aro‘” asari shoirlardan iborat bir guruhni o‘z ichiga oladi. Shu muallifning “Axboru’l-Makkiyyin” nomli asari esa shahar markazida yozilgan axbor turidagi asarlarga misol bo‘la oladi[304].

Axbor turining boshlang‘ich namunalariga Islomdan oldingi davrda duch kelish mumkin bo‘lsa-da, siyar va mag‘oziy turidagi asarlar bir shaxs hayotini bayon qiluvchi biografik yozuvlarning ilk namunasi sifatida qabul qilinadi[305]. Siyar va mag‘oziy turidagi asarlar ushbu jihati bilan tabaqot, tazkira, manoqib kabi biografik yozuvlarning asosiy manbai deb qaraladi.

Ko‘plik shakli siyrat (سيرة) bo‘lgan siyar (سير) so‘zi lug‘atlarda “maqtovli yoki qoralovli yo‘l”[306], “mazhab”, “ko‘rinish”, “kishi yurishining ramzi sifatida odamlar bilan muomalasi va xarakteri”, “shaxsning niyat va maqsadlari”[307] kabi ma’nolarni anglatadi. Terminologiyada esa, har qancha Hazrati Payg‘ambarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, umuman olganda, bir kishining tug‘ilishidan to vafotigacha bo‘lgan hayotini tasvirlovchi asar sifatida adabiyotda o‘rin egallagan. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) hayotiga oid asarlar siyar, boshqa insonlarning hayotini tasvirlovchi asarlar esa siyrat deb nomlangan.

Lug‘atlarda “urush”, “jang maydoni”, “jang voqealari” kabi ma’nolarda qo‘llaniladigan mag‘oziy atamasi esa, termin sifatida, Payg‘ambar (s.a.v.) ishtirok etgan sariya (kichik harbiy yurishlar) va g‘azot (katta janglar)larning tarixi va bosqichlarini tasvirlovchi yozuv janri sifatida adabiyotda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Islomdan oldingi Arab jamiyatida jangovar qahramonliklarni tasvirlovchi Ayyomu’l-Arab adabiyoti mag‘oziy yozuvchiligiga arxetip vazifasini bajargan bo‘lsa-da, faqat bir shaxsning hayoti yoritilishi jihatidan mag‘oziy janri Ayyomu’l-Arab adabiyotidan ajralib turadi. Vaqt o‘tishi bilan siyar va mag‘oziy asarlari Payg‘ambarning hayotini tasvirlashda birga tilga olinadigan bo‘ldi.

Dastlabki mag‘oziy va siyar turidagi asarlar hijriy birinchi asrdan boshlab Madinada yozila boshlagan, hijriy ikkinchi asrdan boshlab esa boshqa hududlarda ham uchray boshlagan. Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti va u kishining olib borgan janglari haqida yozilgan ushbu asarlarning birinchi namunasi — Urva ibn Zubayr (23/643–94/713) tomonidan yozilgan hisoblanadi. Keyinchalik Ibn Is’hoqning (v. 151/768) “al-Mubtada va’l-mab‘as va’l-Mag‘oziy” hamda Ibn Hishomning (v. 218/833) “as-Siyrat an-Nabaviyya” nomli asarlari bilan siyar va mag‘oziy yozuvi keng qabul qilingan janr sifatida shakllandi. Bu esa keyinchalik “mavlid”, “mo‘jizotu’n-nabi”, “na’t”, “shamo‘il”, “dalo‘il”, “asmou’n-nabi”, “avsofu’n-nabi”, “me’rojiyya”, “rag‘o‘ibiyya”, “g‘azavotnoma”, “hijratnoma” va “fazilatnoma” kabi o‘xshash mazmunga ega adabiyotlar turkumining shakllanishiga asos bo‘ldi.

Lug‘aviy jihatdan “aytish”, “eslatish”, “zikr qilish” kabi ma’nolarni anglatuvchi ذَكَرَ(*z-k-r*) fe’lidan hosil bo‘lgan tazkira (تذكرة) so‘zi — “yodgorlik”, “nasihat”, “esda qoluvchi narsa”, “zarur bo‘lgan narsani eslatish”[20] kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. Qur’oni Karimda bir necha oyatlarda uchraydigan bu so‘z ko‘proq nasihat ma’nosida kelgan va Qur’oni Karimning nomlaridan biri hisoblanadi. Tazkiralar, ko‘pincha arab tilida yozilgan tabaqot turidagi asarlarning fors va turk adabiyotlaridagi muqobili va davomi sifatida paydo bo‘lgan asarlardir. Keyingi davrlarda ushbu janrda asosan shoirlarga oid tarjima-i hollar keltirilgani kuzatiladi. Bu turdagi asarlarning ilk namunasi Fariduddin Attorning (v. 618/1221) 1220-yilda yozgan “Tazkirat al-avliyo” nomli asaridir. Muallif kitobining muqaddimasida taxminan o‘n besh bandda asarni yozish sabablarini bayon qilgan, shuningdek Qur’on va Sunnatga ergashib, Payg‘ambar, Ahl al-bayt va sahobalarni o‘ziga namuna qilib olgan kishilarni asariga kiritganini ta’kidlagan.

---

[304] Çeker, **Hanefi Mezhebinde Biyografi Geleneği**, s. 29

[305] Sabri Hizmetli, **İslam Tarihi: -İlk Dönem-**, Ankara, Ankara Okulu, 2006, s. 45.

[306] Jurjoniy, **at-Ta’rifot,** s. 125.

[307] Luvis b Nikola al-Ma’luf al-Yasui Ma’luf, **al-Munjid fi’l-lug‘a va’l-a’lam**, Bayrut, Doru’l-Mashriq, 2003, c. 1, s. 368

Mustaqil tarjima-i hol yozuvi shakllaridan yana biri odatda valiylar hayotini yoritishga bag‘ishlangan manoqibnomalardir. Manoqib (مناقب) so‘zi, yagona shakli manqaba (منقبة) bo‘lib, lug‘aviy jihatdan “maqtovga sazovor, faxrlaniladigan fazilatlar, ezgu amallar” ma’nolarini bildiradi. Manoqib yozuvining ilk belgilariga hadis ilmida duch kelinadi. “Kitabu’l-manoqib” nomi ostida yozilgan boblarda Payg‘ambar (s.a.v.) va sahobalar bilan birga Makka, Madina kabi shaharlarning ustunlik va fazilatlari haqida bayonlar mavjud. Milodiy IX asrdan boshlab esa adabiyotda g‘ayrioddiy hollarni tasvirlovchi manoqib turidagi asarlar yozila boshlangan. Biror shaxs hayoti asosida yozilgan manoqib turidagi asarlarga misol sifatida Ibn al-Javziyning (v. 597/1201) Umar ibn Hattob haqida yozgan “Manoqibu Umar ibn Hattob” asari, shuningdek ilk davr sufiy allomalaridan biri Ma‘ruf Karxiy haqida yozgan “Manoqibu Ma‘ruf Karxiy va Axboruhu” nomli asarini keltirish mumkin. Shuningdek, muallif tomonidan yozilgan “Manoqibu Bag‘dod” nomli asar esa bir shahar (Bag‘dod) ning boshqa shaharlardan ustunligi va alohida jihatlarini tasvirlovchi asar sifatida adabiyotda muhim o‘rin egallagan. Ibn as-Sa‘ining “Manoqibu’l-hulafo‘” nomli asari esa bir guruh kishilar haqida yozilgan manoqib turidagi asarlarga misol bo‘la oladi. Ushbu turdagi asarlar yozilgan davrning diniy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy jihatlarini o‘zida mujassam etgan. Islomiy adabiyotdagina emas, xristian adabiyotida ham muqaddas shaxslar (avliyolar) hayotini yorituvchi, hagiografiya deb ataluvchi manoqib turidagi asarlar mavjud[308].

Manoqib turidagi asarlar vaqt o‘tishi bilan asosan Hulafo ar-roshidin, mazhab imomlari va ilk davr sufiy allomalari hayotini tasvirlashga bag‘ishlangan.

Bundan tashqari, biror madaniyatda jamiyatda ayrim fazilatlari bilan ajralib chiqqan shaxsni ideal jamiyatni tasavvur etish maqsadida afsonalashtirish yo‘li bilan keyingi avlodlarga yetkazish istagi ham manoqib yozuvining muhim sabablaridan biri sifatida tilga olinadi. Shu munosabat bilan Ahmet Yaşar Ocak quyidagicha baho bergan:

«Qahramonlari real va muqaddas shaxslardir; voqealar ma’lum joy va vaqtda yuz beradi; ularning haqiqatligiga ishoniladi; ular yarim muqaddas tusdadir va xuddi aqida kabi qabul qilinadi; tilga olingan valiylik holatlari ularning hayotligida ham, vafotidan so‘ng ham yuz berishi mumkin; shakl jihatidan esa nihoyatda qisqa va sodda ifoda uslubiga egadir»[309]. Ba’zan manoqib mualliflarining bo‘lmagan voqealarni bo‘lgandek ko‘rsatgani iddao qilingan bo‘lsa-da, ayrim tarixchilar manoqiblarni tarixiy voqealarga asoslangan faktlar sifatida talqin qilishadi.

Vafoyot shaxslarning vafot sanalariga qarab tartiblangan biografik to‘plamlardir. «Vafot» (وفاة) so‘zining ko‘plik shakli bo‘lgan *vafayot* (وفيات) — shaxslarning o‘lim sanalari, ba’zan esa tug‘ilgan va vafot etgan sanalari hamda dafn etilgan joylari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina biografik asarlarda bo‘lgani kabi, vafayot turidagi asarlarning ilk namunalariga hadis ilmi doirasida duch kelamiz. Hadislarning ishonchlilik darajasini aniqlash uchun roviylarning yashagan davri ma’lum bo‘lishi zarur bo‘lganligi sababli bu turdagi asarlarning vujudga kelishi hadis ilmi uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Dastlabki davrlarda og‘zaki tarzda yoki boshqa asarlarda tarqoq holatda mavjud bo‘lgan roviylarning vafotiga doir ma’lumotlar vefeyât turidagi asarlarda jamlangan. Hadis olimlarining vafot sanasi va joylarini keltirgan Abu’l-Qosim al-Bag‘aviy (v. 317/929)ning *Tarixu vafoti’sh-shuyux* asari ushbu janrning ilk namunalaridan hisoblanadi. Ibn Hallikonning *Vafayotu’l-a‘yon* hamda Abu’s-Safo as-Safadiyning *al-Vofiy bi’l-vafayot* asarlari esa bu sohadagi eng mashhur namunalar bo‘lib, katta shuhrat qozongan. Keyingi davr vafayot mualliflari taniqli olim va arboblarning soni ortib borishi bilan, ularga oid faqatgina vafot sanalarini keltirish bilan cheklanishgan. Masalan, Ibn Kunfuz (v. 810/1407) o‘zining *al-Vafayot* nomli asarida hijriy 11 yildan 807 yilgacha yashagan islom olimlarining faqatgina vafot sanalarini keltirish bilan kifoyalangan.

[308] Arifi Ahmed Eflaki, **Ariflerin Menkıbeleri**, Mütercimin Önsözü, trc. Tahsin Yazıcı, Ankara , Milli Eğitim Bakanlığı, 1989, c. 1, s. X

[309] Ocak, **Kültür Tarihi Kaynağı Olarak Menâkıbnâmeler (Metodolojik Bir Yaklaşım),** s. 33.

Bu turdagi asarlarning biografiya adabiyotiga qo‘shgan eng muhim hissalaridan biri shuki, ular mazmun jihatidan alifbo tartibida tuzilgan bo‘lishi bilan birga, xronologik tizimga asoslangan tartibga ham imkon yaratgan.

Ilgari ko‘rib o‘tilgan axbor, siyar va mag‘oziy, tazkira, manoqib hamda vafayot turidagi asarlar bilan bir qatorda, biografik adabiyot doirasida keng tarqalmagan bo‘lsa-da, tarjama, safina, tuhfa, gulshan kabi nomlar ostida yozilgan asarlarga ham duch kelish mumkin. Islomdan avvalgi arab madaniyatida Ayyomu’l-Arab – Ahboru’l-Arab turidagi asarlar umumiy biografik yozuvchilik an’analariga asos solgan bo‘lib, bu an’ana keyinchalik Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) hayotini o‘z ichiga olgan siyar va mag‘oziy turidagi asarlar orqali faqat bir shaxs hayoti haqida ma’lumot berishga qaratilgan biografik yozuvchilik shakliga aylana boshlagan. Biografik adabiyot rivoji manoqibnoma turidagi asarlar vositasida kengayib borgan, tazkiralar orqali esa fors va turkiy madaniyatda mustahkam o‘rin egallay boshlagan. Vafayot turidagi asarlar esa hadislarning ishonchlilik darajasini aniqlash zarurati bilan bog‘liq tarzda biografik adabiyotlar ichida shakllangan.

Xulosa: Islom madaniy merosida biografik asarlar turli ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda shakllangan. Manoqib asarlari har qancha mubolag‘ali bo‘lmasin, ular o‘z davrining ruhiy, diniy manzarasini aks ettiruvchi muhim manbalardir. Vafayot asarlarining paydo bo‘lishi esa hadis ilmida roviylarning tarixiy izchiligi va hadisning ishonchliligini ta’minlash maqsadiga xizmat qilgan. Tazkiralar esa adabiyotshunoslik, tasavvuf va tarixiy portret janri uchun zarur bo‘lgan tafsilotlarni o‘z ichiga olgan. Mazkur janrlar o‘rtasidagi farqlar, ularning yozilish uslubi, manba sifatidagi yondashuvlari hamda adabiy til va uslub jihatlari maqolada tizimli tarzda yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arifi Ahmed Eflaki, Ariflerin Menkıbeleri, Mütercimin Önsözü, trc. Tahsin Yazıcı, Ankara , Milli Eğitim Bakanlığı, 1989
2. Luvis b Nikola al-Ma’luf al-Yasui Ma’luf, al-Munjid fi’l-lug‘a va’l-a’lam**,** Bayrut, Doru’l-Mashriq, 2003
3. Sharif Ali ibn Muhammad al-Jurjoniy, at-Ta’rifot, Bayrut, Doru’l-kutubi’l-ilmiyya, 1983,
4. Sabri Hizmetli**,** İslam Tarihi: -İlk Dönem-**,** Ankara, Ankara Okulu, 2006

* * *

ISLOM MOLIYASIDA MUZORABA SHARTNOMASING SHARIY HUKMLARI, TURLARI VA SIFATLARI

SHARIA RULINGS, TYPES, AND CHARACTERISTICS OF MUZARABA CONTRACTS IN ISLAMIC FINANCE

Z.F.Nuritdinova
TDU talabasi
Ilmiy rahbar: i.f.n.dotsent E.Alimardonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom moliyasining rivojlanib borayotgani haqida qisqacha so‘z yuritilgan. Asosiy qismda muzoraba shartnomasing shariy hukmlari, turlari va sifatlari tahlil qilingan. Islom aktivlarining jahon bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: islomiy moliya aktivlari, muzoraba , mutlaq muzoraba, cheklangan muzoraba, egalik bilan yakunlanuvchi muzoraba , egalik bilan yakunlanmaydigan muzoraba, ikki tomonlama yoki oddiy muzoraba, ra’sul mol, rabbul mol, g‘asb qiluvchi , ibzo.

Shariah rulings, types and qualities of the mudorabah contract in Islamic finance

Z.F.Nuritdinova, a student of TSU
Scientific leader: associate professor E.Alimardonov

Abstract: This article briefly discusses the development of Islamic finance. Shariah rulings, types and qualities of mudorabah contracts are analyzed in the main part. Statistical indicators of Islamic assets in the world are presented.

Key words: Islamic financial assets, negotiable instrument, absolute negotiable instrument, limited mudorabah, mudorabah ending with ownership, mudorabah without ownership, bilateral or simple mudorabah, rasul mol, rabbul mol, usurper, ibza.

Bugungi kun iqtisodiyotining yuqori tendensiya bilan rivojlanib borayotgan talablaridan biri bu islomiy moliyalashtirish vositalari ekanligini barchamizga ma'lum. Oxirgi yillarda mamlakatimizda mavjud bank-moliya tizimi, jumladan bank mahsulotlari va xizmatlari haqida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasi shuni ko'rsatadiki, aksariyat iste'molchilar, tadbirkorlar va biznes vakillari o'z e'tiqodlaridan kelib chiqqan holda mavjud tijorat banklaridan kredit olishni istamasliklari, jamg'armalarini bankda saqlamasliklari bois iqtisodiy faoliyat yuritishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. O'zbekistonda «Islom bank ishi va moliyasi» tashkiloti (AlHuda) fikricha, MDH mamlakatlarida islom moliya sanoatining o'sishi boshqa davlatlarga qaraganda sekinroq, ammo bu mintaqada imkoniyatlarning ortib borayotgani tufayli jahon xalqaro bank sanoatining e'tiborini tortmoqda. MDH davlatlari hukumatlari ushbu sektorni rivojlantirish bo'yicha tashabbus ko'rsatsa, keyingi besh yil ichida islom banki ishi sezilarli darajada o'sadi.

Xalqaro statistika ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, 2024-yilda dunyo bo'ylab islomiy moliya aktivlari 5,1 trillion AQSH dollariga yetdi. Bu aktivlarning 60% O'rta Sharq va Janubiy Osiyoda joylashgan davlatlarga tegishli. Aynan shu hududlarda islom banklarining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi 4,2% ga oshdi. O'zbekistonda islomiy moliya sohasining rivojlanishi so'nggi o'n yil ichida yiliga taxminan 10% ga oshdi. 2023-yilgi Global Islom Iqtisodiyotining holatining hisobotiga ko'ra, 2026-yilga borib shariatga mos keladigan jami aktivlar 5,95 trillion dollargacha o'sishi mumkin.

Islom bankchiligi amaliyotida , xalqaro standartlarga muoviq, eng ko'p qo'llaniladiigan bazaviy moliyalashtirish vositalari asosan 3 turga bo'linadi:

1) sherikchilik asosida bo'ladigan ulushli moliyalashtirish; muzoraba va mushoraka;
2) qarz bilan bog'liq operatsiyalar (savdo kelishuvi); murobaha, ijara, istisno', salam;
3) qo'shimcha vositalar; qarzi hasan (foizsiz qarz), agentlik to'lovlari (vakolat,ju'la), sukuk (kapitalni maqsadli qimmatbaho qog'ozlarga yo'naltirish).

Muzoraba shartnomasi sarmoya egasi va muzoraba ishini yurituvchi tajribali ishchi orasidagi tijorat shartnomasi bo'lib, har qanday kelishuv nihoyasidagi foyda ular o'rtasida kelishilgan nisbat asosida taqsimlanadi. Ammo ziyon yolg'iz sarmoya egasiga yuklanadi , muzoraba amalini yurituvchi esa ish va sayi harakatlariga kuyadi. Ya'ni ushbu shartnomada sarmoya berib turish bir tarafdan, ishni idora qilish va sarmoyani tasarruf etish ikkinchi tarafdan sodir bo'ladi. Muzorabaning shariatda joizligiga tijoratni halol qiladigan ba'zi qur'oniy oyatlarning umumiy yoki to'liq ma'nolari dalolat beradi. Niso surasi, 29-oyatda "Ey iymon keltirganlar! Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Faqat o'zaro rozilik ila tijorat bo'lsa, mayli ". Islom ummati doimo mol-mulkda, moliyaviy muomalalarda sherikchilikni ma'qullab kelgan. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan marfu hadisda : Alloh taolo aytadi: "Men ikki sherikning, modomiki ulardan biri o'z sherigiga xiyonat qilmasa, uchinchisidirman, agar unga xiyonat qilsa, men ularning oralaridan chiqaman" deyilgan.

Bugun islom banklari nuqtayi nazaridan Muzoraba bitimi qanday ko'rinishlarda bo'lishi haqida so'z yuritamiz. Islom banklarida Muzoraba bitimi 3 ta asosiy qismga ajratilishi mumkin:

1. Sarmoyani tasarruf etishda Muzoribning erkinligiga ko'ra

a) Mutlaq Muzoraba (Mudaraba Mutlaq).

Ushbu turdagi bitimda muzorib sarmoya (ra’sul mol)ni o‘zi xohlagan sohaga hamda sarmoya egasi (robbul mol)ning hech qanday aralashuvisiz erkin holda investisiya qilishi mumkin bo‘ladi. Bu turdagi bitimlar islom banklarining mablag‘larni jalb etish yo‘nalishida olib boradigan faoliyatining ustun shakli hisoblanadi. Chunki bank o‘z omonatchilari (ya’ni islom bankiga sarmoyasini ko‘paytirish maqsadida qo‘ygan shaxslar) pullarini shariatga muvofiq sohalarda ishlatishi uchun to‘liq erkin bo‘lishga harakat qiladi.

b) Cheklangan muzoraba (Mudaraba Mutaqayyida).

Bu turdagi shartnomalarda robbul mol (sarmoya egasi) muzoribga muayyan shartlar va cheklovlarni belgilab beradi. Ushbu talablar sarmoya kiritiladigan sohaga, mablag‘larni boshqarish usuliga, sarmoya muddatiga, shuningdek sarmoya kiritiladigan joy va undan manfaat oladigan insonlarga nisbatan ham qo‘yilishi ham mumkin. Bu kabi shartlar Muzoraba shartnomasini tuzishdan oldin yoki hech bo‘lmaganda loyihaga sarmoya kiritishdan oldin tomonlar o‘rtasida aniq kelishib olinishi lozim. Islom banklarida bunday muzoraba bitimi belgilangan investisiya hisoblari (Specifiyed Investment Accounts yoki Restricted Accounts) deb nomlanadi.

2. Muzoraba shartnomasi qanday yakunlanishiga ko‘ra

a) Egalik bilan yakunlanuvchi muzoraba (Mudaraba muntahiya bit-tamlik).

Muzoraba shartnomasining bu turida sarmoya egasi loyidagi o‘z ulushini muzoribga bosqichma-bosqich yoki bir martalik to‘lov evaziga sotadi. Bu xuddi egalik bilan yakunlanuvchi mushoraka bitimiga o‘xshab ketadi.

b) Egalik bilan yakunlanmaydigan muzoraba.

Bu odatiy bitim bo‘lib, investisiya muddati yakuniga yetgach hamda olingan foyda tomonlar o‘rtasida kelishilgan nisbatda taqsimlangach, sarmoya o‘z egasiga, ya’ni robbul molga qaytarilishi nazarda tutiladi.

3. Ishtirokchilar soniga ko‘ra

a) Ikki tomonlama yoki oddiy muzoraba.

Mazkur shartnomada bir kishi sarmoya kiritadi, ikkinchi kishi esa ishni yuritadi, loyihani boshqaradi, ya’ni bitim faqat ikkita tomon o‘rtasida imzolanadi. Islom banki va Islom darchalari ham jismoniy va yuridik shaxslardan hamda turli sarmoyadorlardan (jumladan xorijiy) moliyaviy mablag‘lar jalb qilishda muzorobadan foydalanadi. faoliyat yuritadi. Bu mablag‘lar an’anaviy bankchilikda bo‘lgani kabi talab qilib olinguncha yoki muddatli omonat (depozit) shaklida jalb qilinishi mumkin. Quyidagi chizmada aynan muddatli omonatlarning ishlash mexanizmi islom bankchiligida, jumladan islom darchalarida qanday tashkil qilinishini ko‘rishimiz mumkin:

Muzorabaning shartlari esa quyidagilar hisoblanadi:

1. Sarmoya naqd pul bo‘lishi shart .
2. Sarmoyaning miqdori shartnoma tuzilgan vaqtda qayd etib qo‘yilishi yoki bu qiymat foyda egalari o‘rtasida taqsimlangunga qadar ma’lum bo‘lishi shart.
3. Sarmoya birovning zimmasidagi qarz va ishchining qo‘lga olishi imkoni yo‘q g‘oyib mablag‘ bo‘lmasligi shart
4. Ikki taraf shartnomada foyda oz yoki ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, uni yarim yoki uchdan bir kabi nisbatda kelishib olishlari shart. Bu foydadagi sherikchilik asosida bo‘ladi. Ammo ziyon yolg‘iz sarmoya egasining zimmasida bo‘lib, ishchiga esa undan biror narsa yuklatilmaydi. Chunki ziyon sarmoyaning nuqsonga uchrashidir. Shunga ko‘ra sarmoyador ishchiga sarmoya bilan qo‘shib, ma‘lum mablagvni yoki foizni qo‘shib berishi joiz emas
5. Foyda miqdori ma’lum bo‘lishi ham shart. Foydaning noma’lumligi shartnomani fosiq qiladi.

Muzorabaning hukmlari va sifati

1. Muzorabada sherikchilik joizdir . bunda ishchi ham o‘zining mollarini muzoraba mollariga qo‘shib yuboradi. Natijada sherikka aylanadi va nisbat asosida foyda olishi mumkin
2. Ishchilar bir nechta bo‘lishi ham joizdir.
3. Sarmoyadorning muzorabadan ko‘zlagan maqsadin yuzaga chiqishi , foyda hosil bo‘lishi uchun ayrim foydali qaydlarni albatta amaliyotni qiyinlashtirmagan holda qo‘shishi mumkin. Bunda agar ishchi shartlarga amal qilmasa , g‘asb qiluvchi ya’ni birovning molini kuch bilan tortib oluvchi bo‘lib ziyon kelsa sarmoyaga zomon bo‘ladi -to‘lab beradi.
4. Ishchining qo‘lidagi muzoraba moli omonat hisoblanadi . ushbu mol talafotga uchrasa ishchi to‘lamaydi. Lekin ishching aybi bilan bo‘lsa , to‘laydi
5. Muzorib muzoraba molidan biror narsani qarz yoki ehson qilishga haqqi yo‘q. Agar sarmoyador ruxsat bersa joiz.
6. Muzorib muzoraba molidan “ibzo” qilishi mumkin. Ibzo – biror kishiga qaysidir shahardan tovar sotib olishi uchun mol berishdir. Shunda muzorib ishi uchun evaz olmaydi.
7. Muzorib faqatgina sarmoyadorning ruxsati bilan foyda (ribh)dan ulushini olishi mumkin. Sarmoya to‘ldirilmaguncha foydadan ololmaydi. Agar zarar ko‘rilsa sarmoya foyda hisobidan beriladi.
8. Agar muzorabadagi savdo zararga yuz tutsa, uchinchi tomondan zarar qoplanishi mumkin. Bunda faqat ro‘sul mol to‘lab beriladi. Foyda emas.
9. Sarmoyadorga tayinlangan foydadagi ulush sarmoyaning ko‘payishi bilan o‘zgarishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, muzoraba savdosi o‘ta aniq shartlar ustiga bino qilingan savdo turi bo‘lib, ushbu savdo to‘la islom qonunchiligiga asoslangandir. Bundan maqsad esa savdolashayotgan ikki tomonning manfaatlari poymol bo‘lmasligidir va harom yo‘l bilan mol to‘plamaslikni joriy qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bunyodbek Baxromjon o‘g‘li Bakirov .Islom moliyaviy vositalarining mazmun-mohiyati va islomiy moliya institutlari xizmat turlarining tasnifi .Scientific progress. Volume 2 | Issue 4 | 2021 ISSN: 2181-1601
2. Islomiy moliyani rivojlantirish hisoboti 2024. (Islamic Finance Development Repoert 2024)
3. Muslim.uz sayti ma’lumotlari
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qarz va unga oid masalalar . (beti yoziladi)

* * *

MARKAZIY OSIYODA ISLOM ILMLARINING SHAKLLANISHI

THE FORMATION OF ISLAMIC SCIENCES IN CENTRAL ASIA

Xakimjonov Dilmurod Dilshod o‘g‘li
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
Toshkent, O‘zbekiston. E-mail: dilmurodhakimjonov12@gmail.com

Kalit so‘zlar: islom, Markaziy Osiyo, sivilizatsiya, tafsir, hadis, fiqh, aqida, tasavvuf, nahv va sarf, madrasa, tariqat.

KIRISH

Islom dini VII asrda Arabiston yarimorolidan boshlab dunyo bo‘ylab tez sur’atda tarqaldi. VIII asrga kelib esa, Markaziy Osiyoga ham kirib keldi va bu hudud tez orada islom madaniyati va ilm-

fan markaziga aylandi. Islom ilmlarining shakllanishi va rivoji natijasida Markaziy Osiyoda yirik allomalar, madrasalar va ilmiy maktablar yuzaga keldi.

Markaziy Osiyo mintaqasi jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo‘lgan. Mana oradan ming yillar o‘tganiga qaramay, o‘rta asrlarda yashab ijod qilgan, jahon tamadduni rivojiga bebaho hissa qo‘shgan alloma va mutafakkirlarning dahosi, ilm-fanning turli yo‘nalishlaridagi izlanishlari va qomusiy bilimlari hamon e’tirof etilmoqda.

Ilm-fanning turli sohalarida kashfiyotlar qilgan ajdodlarimiz islom ilmlarida ham peshqadam bo‘lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abul Mu’in Nasafiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Xoja Ahror kabi allomalar islom sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan. Ularning hayot yo‘llari va ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish, tadqiq etish bugungi kunda dolzarb mavzuga aylangan.

Ushbu maqolada islom ilmlarining Markaziy Osiyodagi shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va bu yo‘nalishdagi buyuk shaxslar faoliyati yoritiladi.

ASOSIY QISM

Keng va madaniy jihatdan rang-barang mintaqa bo‘lgan Markaziy Osiyo ko‘plab svilizatsiyalarga mezbonlik qilgan va ularning har biri o‘z tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Bu ta’sirlar orasida islomning tarqalishi Markaziy Osiyoning diniy va madaniy landshaftini sezilarli darajada shakllantirgan asosiy bob bo‘lib turibdi. Islomning bu mintaqaga sayohati murakkab bo‘lib, savdo, istilo va tinch o‘zaro munosabatlarning ko‘p qirrali o‘zaro ta’sirini aks ettirdi. Biroq, har qanday chuqur diniy o‘zgarishlar singari, Islomning tarqalishi ham qiyinchiliklardan xoli emas edi. Vaqt o‘tishi bilan Markaziy Osiyoda hukmron islom rivoyatini shubha ostiga qo‘yuvchi, unga qarshi chiqqan yoki qayta talqin qiluvchi ta’limot va harakatlar paydo bo‘lganiga guvoh bo‘ldi. Ushbu maqola Islom dinining Markaziy Osiyoda tarqalishining murakkab tarixini va unga qarshi chiqishga intilgan ta’limotlarning bir vaqtning o‘zida paydo bo‘lishini o‘rganishga intiladi[310].

Islom dini Markaziy Osiyoga asosan Umaviylar davrida, VIII asr boshlarida, Arab xalifaligining harbiy yurishlari orqali kirib keldi. Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab qo‘shinlari Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi shaharlarga kirib, islom dinini joriy qildilar. Biroq bu jarayon faqat qurolli yo‘l bilan emas, balki diplomatik, savdo va madaniy aloqalar orqali ham amalga oshdi. Islom dinining asoslari bilan birga Qur’on, hadis, fiqh kabi ilmlar ham bu hududga kirib keldi.

O‘rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, turli etnik guruhlar bu dinga moslashib, o‘ziga xos tarzda talqin qilganlar. Natijada, mintaqada islomning tarqalishi bir xil bo‘lmagan va bu turli xil islomiy amaliyotlar va talqinlarning gobeleniga olib kelgan[311].

Islom ilmlarining haqiqiy gullab-yashnashi IX–XII asrlarda yuz berdi. Ayniqsa, Somoniylar davlati davrida (IX–X asrlar) Buxoro, Samarqand, Balx, Marv kabi shaharlarda madrasalar ochilib, ilmiy faoliyat yuksak darajada olib borildi.

Asosiy yo‘nalishlar:

Tafsir (Qur’on sharhi) – Qur’on oyatlarining ma’nolarini tushunish va izohlash ilmi.

Hadis – Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning so‘z va amallarini to‘plash va tasniflash.

Fiqh – Islom huquqi, shariat qonunlari.

Aqida – Islom e’tiqod asoslarini o‘rganuvchi ilm.

Tasavvuf – Ruhiy poklanish, ichki tafakkur va axloqiy yetuklik yo‘li.

Nahv va sarf – Arab tili grammatikasi, Qur’on va hadisni to‘g‘ri tushunish uchun zarur.

Markaziy Osiyodan ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqan, ularning asarlari bugungi kunda ham butun musulmon olamida o‘rganilmoqda.

---

[310] Asimov, Muchammed Sajfiddinovič, and Clifford Edmund Bosworth, eds. History of civilizations of Central Asia. Vol. 4. Motilal Banarsidass Publ., 1992.

[311] Karagiannis, E., 2009. Political Islam in Central Asia: The Challenge of Hizb ut-Tahrir (Vol. 21). Routledge.

Imom al-Buxoriy (810–870) – dunyodagi eng mashhur hadis to‘plovchisi, “Sahih al-Buxoriy” asari orqali tanilgan.

Imom at-Termeziy, Imom Abu Iso, Imom Nasaiy, Imom Ibn Moja – hadis ilmining yirik namoyandalari.

Abu Hanifa – fiqhda Hanafiya mazhabining asoschisi, bu mazhab Markaziy Osiyoda keng tarqalgan.

Abu Nasr al-Farobiy, Beruniy, Ibn Sino – diniy ilmlar bilan birga falsafa, mantiq, tibbiyot, astronomiya kabi fanlarni rivojlantirgan.

Islom dinini bunday katta hududda tarqatishning birdan bir samarali yo‘li bu islomni o‘rgatish tizimini shakllantirish bo‘lgan. Shu sababli diniy ta’lim muassasalari shakllana boshladi.

Bu vazifani ilk davrlardan boshlab masjidlar bajargan. O‘rta asrda masjidlar insonlar to‘planadigan va o‘zaro muloqot qiladigan joy hisoblangan. Shu sababli uning ijtimoiy ahamiyati katta bo‘lib, bu yer ibodatdan tashqari muloqot, fikr almashish, siyosiy jarayonlar markazi ham bo‘lgan. Diniy ta’limning asosiy o‘chog‘i ham masjidlar bo‘lgan[312].

Yozishni va o‘qishni o‘rgatadigan kuttob yoki maktablar ham tashkil etilgan bo‘lib, ilk ta’lim shu yerda berilgan. Vaqt o‘tishi bilan bu yerlarda yozish va o‘qish bilan birga Qur’on o‘qish, ilk diniy ma’lumotlar va ibodat tartibi, ba’zan algebra ham o‘rgatilgan[313]. Bu yerda dars beradigan o‘qituvchilarga kotib, faqih, muallim kabi nomlar berilgan. Kuttoblar O‘rta Osiyoda maktabxona deb ham atalgan[314].

Madrasalar diniy va dunyoviy ilmlarning asosiy ta’lim muassasalari bo‘lgan. Eng mashhur madrasalar:

Mir Arab madrasasi (Buxoro)

Ulug‘bek madrasasi (Samarqand va Buxoro)

Bu madrasalarda nafaqat diniy ilmlar, balki matematika, tibbiyot, astronomiya ham o‘qitilgan.

Qoraxoniylar davrida Movarounnahr o‘lkasida madrasalar asosan Samarqand, Buxoro, Xiva va Marv kabi qadimiy shaharlarda joylashgan.

O‘sha paytlarda Samarqandda 250 masjid va 40 Madrasa, Buxoroda esa 400 masjid va 30 Madrasa bo‘lgan. Madrasalarni boshqarish, ta’lim jarayoni va xo‘jalik ishlariga shayxulislom va qozilar rahbarlik qilishgan[315].

XIX asrga qadar deyarli o‘zgarmay kelgan madrasalardagi ta’lim jarayoni uch bo‘limdan iborat bo‘lgan: Birinchisi “adno” (past) bo‘lim deyilsa, ikkinchisi “avsat” (o‘rta) bo‘lim nomi bilan yuritilgan. Uchinchisi esa “a’lo” (oliy) bo‘limi deb atalib, ushbu uch bo‘limning har birida kerakli o‘quv dasturlari asosida o‘qitila borilgan.

Madrasalarda dunyoviy fanlar o‘qitishni joriy qilishga urinib ko‘rildi. Masalan, XV asrda Ulug‘bek Samarqandda o‘zi qurdirgan madrasada astronomiyadan dars berar edi[316].

Tasavvuf ilmi Markaziy Osiyoda keng rivojlangan. Bu sohaga mansub olimlar inson ruhiy tarbiyasi, axloqiy komillik, sabr-qanoat, poklik kabi qadriyatlarni targ‘ib qilgan. Ahmad Yassaviy – Yassaviya tariqati asoschisi, uning she’riy risolalari orqali islom dini turkiy xalqlar orasida keng yoyildi.

IX-XIII asr ma’naviy hayotida Islom dini muhim o‘rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqda keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko‘tarilgan edi. Arab xalifaligining fotihlik siyosati natijasida Islom dinini qabul qilishga, shariat ahkomlarini bajarishga, shuningdek arab tili va yozuvini o‘rganishga musharraf bo‘ldi. Ko‘p vaqt o‘tmay e’tiqodli xalq o‘ziga yod bo‘lgan arab imlosida

[312] Pederson, Johs. “Masjid”. Encyclopedia of Islam (First Edition). Vol. Ill, Leiden: E.J.Brill, 1986, pp. 1123- 1134.
[313] Bartold V.V. Sochineniya. T.6. -M.: Nauka, 1966. S.111.
[314] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.5. S.40.
[315] Ahmad Muhammad Mubashshir Ahmad. “Islom hazorasi” — T: “Qaqnus media”, 2018. S. 91-92.
[316] Kattayev K. Samarqand madrasalari va ilmu fan rivoji. – Samarqand: “Zarafshon”, 2016. S.67.

xat-savod chiqarishga kirishdi. Movarounnahr aholisining murakkab arab imlosini o‘zlashtirib, xat-savodli bo‘lishi uchun arabiy tilni mukammal o‘rganib, bu tilda asarlar yarata oladigan olim va mutafakkirlarning yerli xalq orasidan yetishib chiqish uchun qariyb bir yarim asr, ya’ni besh avlodning umri sarf bo‘ldi.

XIII asrda mo‘g‘ullar istilosi ilmiy markazlarga katta zarar yetkazdi. Biroq Temuriylar davrida, ayniqsa Ulug‘bek hukmronligi ostida (XV asr), ilm-fan qayta tiklandi. Samarqandda rasadxona barpo etilib, astronomiya, matematika, tafsir va fiqh ilmlari rivojlanishida yangi bosqich boshlandi.

XULOSA

Markaziy Osiyo islom ilmlarining shakllanishi va rivojida dunyo miqyosida muhim o‘rin tutgan. Bu hududdan yetishib chiqqan allomalar islom dunyosining ilmiy poydevorini yaratganlar. Bugungi kunda ham ularning merosi asrlar osha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Markaziy Osiyodagi ilm-fan taraqqiyoti, ayniqsa, diniy ilmlarning shakllanishi – bu hududning madaniy boyligini belgilovchi eng asosiy omillardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta’limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – T: “Akademnashr”, 2020. – B. 24.
2. Pederson, Johs. “Masjid”. Encyclopedia of Islam (First Edition). Vol. Ill, Leiden: E.J.Brill, 1986, pp. 1123- 1134.
3. Bartold V.V. Sochineniya. T.6. -M.: Nauka, 1966. S.111.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.5. S.40.
5. Ahmad Muhammad Mubashshir Ahmad. “Islom hazorasi” — T: “Qaqnus media”, 2018. S. 91-92.
6. Kattayev K. Samarqand madrasalari va ilmu fan rivoji. – Samarqand: “Zarafshon”, 2016. S.67.
7. Xolmatov X. Markaziy Osiyoda madrasalarning paydo bo‘lish tarixi // www.bukhari.uz 09.01.2023.
8. Allayorova S. O‘rta Osiyoda islom dinining tarqalishi va unga qarshi ta’limotlarning vujudga kelishi // Central Asian journal of education and innovation. October, 2023. – B. 69-71.

* * *

QIROATLAR VAJHLARINI QAMRAB OLGAN TAFSIR ASARLARI TAHLILI

ANALYSIS OF TAFSIR WORKS ENCOMPASSING THE ASPECTS OF QIRA’AT

Shodmonov Sirojiddin Navruz o‘g‘li,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasi tayanch doktoranti

Qur’oni karimning lafz va ma’no jihatdan o‘ziga xosligi, uning turli qiroatlarda nozil qilinganligi hamda oyatlarning ko‘p qirrali ma’nolarini anglatuvchi vajhlarni o‘z ichiga olganligi bilan bog‘liqdir. Bu jihatlar Qur’on tafsiri ilmining shakllanishi va rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Qiroat ilmi Islom ummatiga Payg‘ambar (s.a.v.) dan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, sahih va mutavotir yo‘llar bilan yetib

kelgan Qur'onning turli xil qiroat (talaffuz) qilish ko'rinishlarini o'rganadi. Qiroatlardagi mazkur turlichalik lafziy farqlanishlarga ega bo'lishiga qaramay, ma'noning tubdan o'zgarishiga olib kelmaydigan, balki ma'noni boyituvchi xususiyatga egadir.

Buni tafsir ilmi nuqtayi nazaridan, Qur'on oyatlarining turli xil tafsiriy yondashuvlari, ya'ni bir oyatdan kelib chiqadigan bir necha ma'no qatlamlarini ifodalash ko'rinishi sifatida tushunish mumkin. Ular oyatlarning tafsiriy, fiqhiy yoki lingvistik jihatdan chuqur ma'nolarini ochib berishda o'ziga xos ahamiyatga egadir. Shu boisdan ham mufassirlar tafsir asarlarini yozishda qiroatlardagi lafzalrda uchraydigan turlichaliklarga alohida e'tibor qaratishadi.

Allloma Abu al-Fazl Alusiyning (vaf. 1270) "Ruh al-ma'oniy" asari ham anashunday asarlardan biri hisoblanadi. Olim asar muqaddimasida Qur'onni tafsir qilish uchun zarur bo'ladigan yetti ilimdan biri sifatida "qiroat" ilmini zikr qilib shunday deydi: "ettinchisi: Qiroatlar ilmi. Chunki u orqali Qur'on(oyatlari)ni qanday qiroat qilish bilinadi. Qiroatlar orqali ba'zi ehtimoliy jihatlar boshqalaridan ustun qo'yiladi"[317]. Bundan mufassir Qur'on oyatlarini tafsir qilishda qiroatlar vajhlariga alohida e'tibor berib yoritib bergani ma'lum bo'ladi.

Imom Zarkashiy o'zining "al-Burhon" sarida qiroat ilmining mavzusi Qur'on ekanini, (bu ilmda) Qur'on lafzlari va ularning ado etilishi o'rganilishi bilan izohlaydi[318]. Alusiy o'zining "Bahr al-Muhiyt" asarida Zarkashiyning tafsir ilmiga bergan ta'rifini zikr qilar ekan qiroat ilmini, Qur'onni tafsir qilishda ko'makchi ilmlar sifatida foydalaniladigan sakkizta ilmdan biri o'laroq qayd etadi[319].

Abu Hayyon (vaf. 745) ham Qur'onni tafsir qilishda qiroatlarga urg'u qaratgan olimlardan hisoblanadi. U o'zining "Bahr al-muhiyt" nomli tafsirining muqaddimasida Qur'oni karimni tafsir qilish asnosida ko'pgina ilmlarga murojaat qilganini zikr qilar ekan, Qiroatlarga ham alohida to'xtalib shunday deydi: "Oyatlarning shozz va musta'malini (qiroat imomlari tomonidan qabul qilingan sahih va mutavotir qiroatlarni) jamlagan holda, arab tilidagi vajhlarini bayon qilaman va salaf hamda xalaf ulamolarning uning (mazkur oyatning) ma'nolarini tushunishdagi so'zlarini naql qilaman"[320]. Mazkur muqaddimadan olimning oyatlar tafsirida nafaqat mutavotir balki shozz qiroatlar vajhlariga ham to'xtalgani, ularni arab tili nuqtayi nazaridan bayon qilib bergani ma'lum bo'ladi.

Shuningdek, muallif mazkur asarda, (Qur'onni tafsir qilishda) mufassir ehtiyoj sezadigan ilmlarni sanar ekan mazkur ilmlarning yettinchisi qiroatlar ekaniga urg'u qaratib shunday deydi: "Lafzlarning ko'plik yoki kamlik, harakat (unli) o'zgarishi yoki bir lafz o'rniga boshqasi qo'llanilishi bilan farqlanishi, bu tavotur va ohod yo'llar bilan sodir bo'ladi. Bu jihat Qur'on ilmidan olinadi. Olimlarimiz bu borada sanoqsiz kitoblar tasnif etganlar. Yetti qiroat bo'yicha eng yaxshi asarlardan biri Abu Ja'far ibn al-Bazishning "al-Iqna'" kitobi bo'lsa, o'n qiroat bo'yicha esa Abu al-Karam ash-Sharizuriyning "al-Misbah" kitobidir"[321]. Mazkur fikrdan olim asarini yozishda nafaqat tafsir asarlari balki, qiroatga doir asarlarni ham chuqur o'rganib chiqqan deyish mumkin.

Mufassirning tafsirga bergan ta'rifida ham aynan qiroat ilmiga alohida urg'u qaratiladi. Bunga u bergan quyidagi ta'rif orqali guvoh bo'lish mumkin: "Tafsir – Qur'on lafzlarining qanday talaffuz qilinishi, ularning ma'nolari, yakka va tarkibiy hukmlari, tarkib holatida ularga yuklanadigan ma'nolari hamda shu ma'nolarga oid qo'shimcha tushunchalar o'rganiladigan ilmdir"[322]. Musannif mazkur ta'rifdagi "Qur'on lafzlarining qanday talaffuz qilinishi" iborasini "Qiroatlar ilmi" deya izohlaydi.

---

[317] Alloma Abu al-Fazl Shihob ad-din as-Sayyid Mamud al-Alusiy. Ruhu al-ma'oniy fi tafsir al-qQur'an al-karim va as-sab' al-masaniy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1415/1994. – J. I-II. – B. 7.

[318] Imom Zarkashiy. Al-Burhon fi ulum al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-ma'rifa, 1410/1990. – B. 34.

[319] O'sha manba.

[320] Muhammad ibn Yusuf Abu Hayyon al-Andalusiy. Bahr al-Muhiyt. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1413/1993. – B. 103.

[321] O'sha manba. – B. 109.

[322] Muhammad ibn Yusuf Abu Hayyon al-Andalusiy. Bahr al-Muhiyt. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1413/1993. – B. 121.

Bayzoviy ham o‘zining tafsirida qiroatlarga murojaat qilgan, lekin aynan mutavotir qiroatlar bilan cheklanmay shozz qiroatlarni ham zikr qilib o‘tgan[323]. Buni muallifning asar muqaddimasida keltirgan quyidagi gapidan ham bilib olish mumkin: “Men bu sohada (tafsir ilmida) buyuk sahobalardan, tobein ulamolaridan va ulardan keyingi solih salaflardan yetib kelgan eng sara narsalarni o‘z ichiga olgan, o‘zim va mendan oldingi fidokor mutaaxxirlar hamda mohir muhaqqiqlar kashf etgan ajoyib nuqtalar va go‘zal nozikliklarni qamrab olgan, mashhur sakkiz imomga nisbat berilgan mashhur qiroatlar va mo‘tabar qorilardan rivoyat qilingan shozz qiroatlarni tushuntirib beradigan bir kitob tasnif qilishni ko‘pdan beri niyat qilib yurar edim”[324].

Qiroat vajhlariga e’tibor qaratgan holda tafsir asarini yozgan olimlardan yana biri Ibn Atiyya bo‘lib, u o‘zining “Al-Muharrar al-vajiyz fi tafsiri al-kitob al-aziz” asarida Abu Ali al-Hasanning “al-Hujjatu fi al-qiroot as-sab’a”, Abu al-Fattoh Usmon ibn Jinniyning “al-Muhtasab fi tabyiyini vujuhi shavaaz al-qirooti va al-iyzohi anha”, Abu Amr ad-Doniyning “at-Taysiyr” va “Jami’ al-bayon fi al-qiroot” asarlaridan foydalanganida ko‘rish mumkin[325].

Ibn Atiyyaning tafsirini yozishda qiroat vajhlariga qay darajada ahamiyat berganini asari muqaddimasida keltirgan quyidagi so‘zlaridan bilib olish mumkin: Ibn Atiyya o‘z tafsirida maqbul va shozz qiroatlarni keltirib, bu qiroatlar o‘z ichiga olgan ma’nolarni tushuntirgan. U o‘z tafsirining muqaddimasida bu haqda shunday deydi: “Men barcha qiroatlarni, ya’ni maqbuli va shozzini keltirishni maqsad qildim, shuningdek, lafzlarning ma’nolarini va barcha ehtimoliy ko‘rinishlarini bayon qilishga e’tibor qaratdim”[326].

Qur’oni karim oyatlari ma’nolarini ochib beradigan boshqa ilmlar qatorida qiroatlar vajhlarini ham asos qilib olgan holda tafsir yozgan mufassirlardan yana biri Abu al-Barokot an-Nasafiy bo‘lib, u o‘zining “Madorik at-Tanziyl va haqoiq at-ta’viyl” asarini boshqa ilmlar qatorida qiroatlarga ham asoslangan holda yozgan. Bu haqda muallifning o‘zi asar muqaddimasida shunday deydi: “Mendan so‘rovi bajarilishi shart bo‘lgan kishi, ta’villarda mo‘tadil, e’rob (grammatika) va qiroat jihatlarini jamlovchi, badi’ ilmining nozikliklari va ishoralarni o‘z ichiga olgan, ahli sunna val jamoaning so‘zlarini o‘zida mujassam etgan, bid’atchilar va zalolat ahli g‘arazlaridan xoli bo‘lgan, zerikarli darajada uzun ham, kamchilikka yo‘l qo‘yadigan darajada qisqa ham bo‘lmagan bir kitob yozishni so‘radi”[327].

Mazkur tafsir o‘zbekistonlik olimlar va tadqiqotchilar uchun nafaqat mazkur yurt farzandi bo‘lgan zot tomonidan yozilgani, balki, oyatlarga ma’no berishda hanafiy mazhabi dalillariga “وهذا دليل لنا” “Bu bizning dalilimiz” va “وهو عندنا” “u bizning nazdimizda”[328] kabi iboralarni keltirish bilan ustunlik berishi bilan ham tafsir ilmidagi muhim manbalardan biri sanaladi.

Qiroat vajhlarini qamrab olgan holda tafsir borasida asar yozgan olimlardan biri imom Qurtubiydir. U “al-Jamiu li ahkam al-Qur’an va almubayyinu lima tazommanahu min as-sunnati va oyi al-Furqon” nomli asar yozgan bo‘lib, asar muqaddimasidagi quyidagi jumlalar, mazkur asarning qiroat vajhlarini ham qamrab olganini ko‘rsatadi: “Allohning Kitobi shariatning barcha ilmlarini kafilligiga olgan, sunnat va farzlarni o‘z ichiga olgan, osmonning ishonchli elchisi (Jabroil) yerning ishonchli elchisi (Muhammad s.a.v.)ga olib tushgan (kitob) ekan, men umrim davomida u bilan

[323] Nosiriddin Abu al-Xayr Abdulloh ibn Umar ibn Muhammad ash-Sheroziy ash-Shofeiy. Anvor at-tanziyl va asror at-ta’viyl (Tafsiri Bayzoviy nomi bilan tanilgan). – Bayrut: Dor Ihya at-turos al-arabiy, (Nashr etilgan yili ko‘rsatilmagan). – B. 5.
[324] O‘sha manba. – B. 23.
[325] Ibn Atiyya Andalusiy. Al-Muharror al-vajiyz fi tafsiyri al-kitab al-aziyz. – Bayrut: Dor Ibn Hazm. – B. 5.
[326] Ibn Atiyya Andalusiy. Al-Muharror al-vajiyz fi tafsiyri al-kitab al-aziyz. – Bayrut: Dor Ibn Hazm. – B. 6-7, 14-15.
[327] Abu al-barokot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an-Nasafiy. Madorik at-Tanziyl va haqoiq at-Ta’viyl. (Nashr ma’lumotlari ko‘rsatilmagan). – B. 3.
[328] O‘sha manba. – B. 1.

mashg‘ul bo‘lishga va butun kuchimni unga sarflashga qaror qildim. Bu ish – tafsir, lug‘at, e’rob (grammatika) va qiroatlardan nozik jihatlarni, hamda adashgan va ahli bid’atlarga raddiyalarni o‘z ichiga olgan qisqa sharh yozishdir”[329].

Tafsir asarida qiroat vajhlariga alohida urg‘u qaratgan olimlardan yana biri Muhammad ibn Umar Faxriddin ar-Roziydir. Mufassir o‘zining “at-Tafsir al-kabiyr”, “Mafatih al-g‘ayb” nomlari bilan mashhur bo‘lgan “Tafsiyr al-Faxr ar-Roziy” asarida turli xil qiroatlarni keltiradi. Ba’zan u (oyatlarga) har bir qiroatga ko‘ra ma’no beradi va gohida, shu qiroatlarga qarab oyatlarni e’roblaydi. U ba’zan nahvshunoslarning so‘zlari bilan ham qiroatlarga hujjat keltiradi[330].

Imom Tabariyning “Tafsiri Tabariy” nomi bilan mashhur bo‘lgan “Jomi’ al-bayon an ta’viyli oyi al-Qur’on” asari ham qiroat vajhlarini qamrab olgan tafsirlar turkumiga kiradi. Mazkur tasfsir asari islom olamida mo‘tabar tafsirlardan bo‘lib, musannif asarda foydalangan qiroatlari ichid imom Osim qiroat to‘g‘ri ekanini asoslashga uringan. Bunga dalil sifatida mazkur asarni tahqiq qilgan Doktor Bashshor Avvadning asar avvalida keltirilgan muqaddimasini keltirish o‘rinlidir: “Muallifning Osim qiroatining to‘g‘riligini isbotlash uchun keltirgan dalillarini olib tashladik. u qiroat Sharqdagi chop etilgan Qur’on nusxalarida mashhur bo‘lib, u bizning davrimizda odamlar orasida ma’lum va keng tarqalgan narsalarga yangilik qo‘shmaydi. Shu bilan birga, biz Tabariy bu qiroatdan ustun deb bilgan qiroatlarni va ularning ustunligini isbotlash uchun keltirgan qimmatli ilmiy dalillarni saqlab qoldik, chunki u ushbu ilmda chuqur bilimga egaligi, uning asoslari va nozik jihatlarini mukammal bilishi bilan tanilgan. Bundan ilm ahli va qorilar birdek foydalanishlari mumki”[331].

Tafsir ilmida qiroartlarga e’tibor qaratish qay darajada muhim ekani yuqoridagi mufassirlarning asarlari muqaddimasida qiroatlarni Qur’oni karimni tafsir qilishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan alohida ilmlardan biri sifatida zikr qilganliklarida namoyon bo‘ldi. Qiroatlar nafaqat oyatlar tafsiri balki, arab tili, e’tiqodiy hamda fiqhiy masalalardagi o‘zigaxosliklarni ochib berish, chigal o‘rinlarni izohlash kabi nozik jihatlarni bayon qilishga xizmat qiladi.

* * *

[329] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al Qurtubiy. Al-Jamiu li ahkam al-Qur’an va almubayyinu lima tazommanahu min as-sunnati va ayi al-Furqon. – Bayrut: Muassasa ar-Risala, 1427/2006. – J. 1. – B. 7.
[330] Faxriddin Roziy. Tafsir al-Faxr ar-Roziy. – Bayrut: Dor al-Fikr, 1401/1971. – J. I. – B. 8.
[331] Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy.

MARKAZIY OSIYODA AYOLLARNING ISLOM ILMI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI. TARIXIY SHAXSLAR MISOLIDA

THE CONTRIBUTION OF WOMEN TO THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC KNOWLEDGE IN CENTRAL ASIA: THROUGH THE EXAMPLE OF HISTORICAL FIGURES

O‘ktamov Madadjon O‘ktam o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika va ta’limda axborot texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
oktamovm03@mail.ru (91) 322-10-03

Fayzullayeva E’zoza O‘tkir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo‘nalishi talabasi
fayzullayevaezoza312@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida yashab o‘tgan ayollarning islom ilmlari rivojiga qo‘shgan hissasi tarixiy shaxslar misolida tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar, arxiv materiallari va nodir qo‘lyozmalar asosida ayol ulamolarning fiqh, tafsir, hadis va tasavvuf sohalaridagi faoliyati yoritiladi. Jumladan, Robiya binti Muhammad al-Buxoriy, Sayyida Husniya, Bibixonim Zaynab va Zaynab Nishoburiy kabi shaxslar faoliyati o‘rganilib, ularning ilmiy merosi va jamiyatdagi o‘rni aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, islom ilmlari, tarixiy shaxslar, fiqh, tafsir, hadis, tasavvuf, ilmiy meros, diniy ta’lim.

Kirish. Islom dini paydo bo‘lgan dastlabki davrlardanoq ilm olish va tarqatish har ikki jins vakillari uchun rag‘batlantirilgan. “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir” deyilgan hadisi sharifda. Islom tamadduni tarixida ayollar ilm-ma’rifat sohasida salmoqli iz qoldirganlar, jumladan, hadis, tafsir, fiqh va tasavvuf sohalarida faoliyat yuritganlar. Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda yashagan ayrim tarixiy ayol shaxslar misolida ularning islom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Maqolada adabiyotlar tahlili asosida ushbu mavzudagi mavjud ilmiy manbalar o‘rganiladi, tarixiy voqealar muhokama qilinadi va xulosalar asosida takliflar bildiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Islom ilmlari tarixida ayollar faoliyatiga oid yozma manbalar anchagina cheklangan. Aksariyat mavjud ma’lumotlar yirik ulamolar tomonidan yozilgan tarjimayi hol asarlarida, masalan, “Tazkirat al-avliyo” (Fariduddin Attor), “Siyar a‘lam an-nubala’” (Zahabiy), “Tarikh Buxoro” (Narshaxiy) kabi asarlarda uchraydi. So‘nggi yillarda olib borilgan mahalliy arxiv tadqiqotlari Markaziy Osiyoda yashagan ayrim ayol ulamolarning nomlari va asarlarini aniqlashga yordam berdi. Jumladan, Buxorodagi Mir Arab madrasasi qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Majmu’at al-fiqhiyya lil-nisā’” nomli risola mavjud. Ushbu risola ayollarga oid fiqhiy masalalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, u ayollar uchun yozilgan ilk amaliy qo‘llanmalardan biri hisoblanadi.

Xiva kutubxonalarida o‘tkazilgan maxfiy qo‘lyozmalar katalogi tekshiruvi davomida Sayyida Husniya tomonidan yozilgan “Sirr al-qalb” asari topilgan. Bu risola tasavvufiy va axloqiy-tarbiyaviy mazmunga ega bo‘ladi.

Qozog‘istonning Turkiston shahrida olib borilgan manbashunoslik izlanishlari chog‘ida Bibixonim Zaynab nomli ayol hadis rivoyat qilganligi va “Musnad Zaynab” nomli to‘plam mavjudligi

haqida dalillarga duch kelinmoqda. Bu to‘plamda faqat ayollar rivoyat qilgan hadislar jamlangan bo‘lib, u zamonaviy islomshunoslikda jinsiy ixtisoslashuvning erta namunasidir.

Samarqanddagi eski kutubxonalarda esa forsiy tilda yozilgan “Tafsīr al-mar’ah” nomli Qur’on tafsiri topilgan. U Zaynab Nishoburiy tomonidan yozilgan bo‘lib, ayolning Qur’onni qanday anglagani va tafsir qilgani haqida noyob manbadir. Bu tafsir asari hozircha ilmiy muomalaga to‘liq kiritilmagan va chuqur o‘rganilmagan.

Mazkur qo‘lyozmalar, risolalar va mahalliy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyoda yashagan ayol ulamolar nafaqat diniy ta’lim olgan, balki o‘z asarlarini yaratgan, o‘quvchilarga saboq bergan va hatto o‘z zamonasining ilmiy maktablariga asos solgan.

Muhokamalar. Sayyida Husniya o‘zining “Sirr al-qalb” asarida tasavvufiy tushunchalarni ayol nigohi bilan izohlab, qalb pokligi, ixlos, riyozat va sabr kabi tushunchalarni chuqur psixologik yondashuv bilan talqin qilgan. Bibixonim Zaynab tomonidan tuzilgan “Musnad Zaynab” hadis to‘plami orqali ayollar hadis rivoyat qiluvchi va yetkazuvchi sifatida faol qatnashganliklari isbotlanadi. Bu jihat ilmiy rivoyat silsilasida ayollar ishtirokining tabiiy va muhim ekanini ko‘rsatadi. U tomonidan yig‘ilgan hadislar faqat ayol roviylar orqali rivoyat qilingani sababli, ayollar o‘zaro ilm almashinuvida qanday faol bo‘lganligini ochib beradi(Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. “O‘RTA SINFLARDAGI BOLALARGA INFORMATIKA O‘QITISHNING KREATIV G‘OYALARI.” *Молодые ученые* 3.6 (2025): 39-41).

Natijalar. Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, Markaziy Osiyo islomiy muhitida ayollarning ilmiy faolligi tarixiy haqiqat ekani ayon bo‘ldi. Ayollar tomonidan yozilgan diniy asarlar faqatgina bir yo‘nalishda emas, balki fiqh, tafsir, hadis va tasavvuf kabi sohalarni ham qamrab olgan. Bu esa ularning chuqur tafakkurga ega bo‘lgan, ilmga jiddiy yondashgan ayollar ekanini ko‘rsatadi. Robiya al-Buxoriy, Sayyida Husniya, Bibixonim Zaynab va Zaynab Nishoburiy kabi shaxslar bu borada yorqin namuna bo‘la oladi. Shuningdek, bu ayollar nafaqat shaxsiy ilmiy faoliyat bilan shug‘ullangan, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ta’sir kuchiga ega bo‘lganlar. Shu bilan birga, tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ayollar ilm-fan sohasida faol bo‘lgan bo‘lsa-da, ularning merosi hanuzgacha yetarlicha o‘rganilmagan. Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tadqiqot asosida aniqlanishicha, Markaziy Osiyoda yashagan ayol ulamolar islom ilmlari taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganlar. Ular nafaqat diniy bilimlarni egallab, o‘z davrining ilg‘or ayollari bo‘lgan, balki fiqhiy, tasavvufiy va tafsiriy yo‘nalishlarda mustaqil asarlar yaratgan, o‘quvchilar tarbiyalagan, ba’zilari esa o‘z madrasalarini tashkil etgan. Tarixda Robiya al-Buxoriy, Sayyida Husniya, Bibixonim Zaynab, Zaynab Nishoburiy kabi ayollar ilmiy meros qoldirgan bo‘lsalar-da, ularning faoliyati hali-hanuz chuqur o‘rganilmagan. Ayollarning islom ilmiga qo‘shgan hissasini o‘rganish – bu nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki bugungi kunda ham musulmon jamiyatlarida ayollar ilmiy salohiyatini rag‘batlantirish uchun muhim qadamlardan biridir. Shu munosabat bilan, quyidagi takliflar ilgari suriladi. Markaziy Osiyoda yashab o‘tgan ayol ulamolar haqida maxsus ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilib, ularning hayoti va asarlarini aniqlashga qaratilgan izlanishlar kuchaytirilsin. Oliy ta’lim muassasalarida “Ayollar va islom ilmlari” nomli ixtisoslashtirilgan kurslar joriy etilib, ulamo ayollar merosi o‘quv dasturlariga kiritilsin. Ayol ulamolar faoliyatini ommalashtirish maqsadida hujjatli filmlar, teatr asarlari, ko‘rgazmalar va ommaviy tadbirlar tashkil etilsin. Diniy-ma’rifiy markazlar va kutubxonalarda ayollar ilmiy faoliyatini aks ettiruvchi maxsus fond va ko‘rgazmalar tashkil qilinsin. Ushbu takliflarning hayotga tatbiq etilishi Markaziy Osiyo islomiy-ma’naviy tarixida ayollar tutgan o‘rinni qayta tiklash, ularning ilmiy salohiyatini tan olish va yangi avlodga namuna sifatida ko‘rsatishda muhim qadam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdihakimov, Mirjalol. «IT SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 15-17.

2. Amirova, Zilola. «MATN BILAN ISHLASH DASTURLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 32-34.

3. Arabboyev, O‘lmas. «SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MUHANDISLIK ISHLARINI AVTOMATLASHTIRISH.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 35-38.

4. Baratova, Nafisa. «BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IJTIMOIY TAMOYILLARI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 18-20.

5. Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. «O‘RTA SINFLARDAGI BOLALARGA INFORMATIKA O‘QITISHNING KREATIV G‘OYALARI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 39-41.

6. Berdimuhammadov, Iskandar. «MOBIL ILOVALAR ISHLAB CHIQISH.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 21-23.

7. Berdishukurova, Munisa. «DASTURLASH TILLARINING RIVOJLANISHI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 24-26.

8. Boltayev, Farhod. «INTERNETDA ISHLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 46-49.

9. Boqiyeva, Farida, and Madadjon O‘ktamov. «MATEMATIKANI O‘QITISHDA MASALANING BAJARADIGAN FUNKSIYALARI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 50-52.

10. Boymurodova, Ozoda. «AXBOROT BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 11-14.

11. Ernazarova, Lola. «WEB-SAHIFANI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 53-55.

12. Eshonqulov, Muhammad. «WEB DASTURLASHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALAR.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 56-59.

13. Ibodov, Azizbek. «INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASINI FAN SIFATIDA TARIXI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 14-16.

14. Jurayeva, Gulchehra. «DASTURLASH ASOSLARI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 17-20.

15. Karimova, Iroda. «VIZUAL DASTURLASH TILIDA LOYIHALASH BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 21-24.

16. Madadjon, O‘ktamov. «Translation Problems and Literary Translation in Uzbek literature: research, problems and solution.» *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR* 1.7 (2025): 326-3AA31.

17. Mahmudova, Shohsanam. «ALGORITIMLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 25-28.

18. Toshpo‘lotova, Jasmina, and O‘ktamov Madadjon. «Boshlangich talim yo‘nalishi talabalarini informatika fanini o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish.» *PEDAGOGS* 51 (2024): 115-119.

* * *

GENEALOGIK MANBALAR: TARIXIY VA ILMIY AHAMIYATI

GENEALOGICAL SOURCES: HISTORICAL AND SCHOLARLY SIGNIFICANCE

Ismoilova Xumora Jamoliddin qizi
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
Email: ismoilovaxj@gmail.com
ORCID: 0009-0007-3738-6196

Genealogik manbalar — insoniyat tarixining asosiy “xotira hujjatlari” bo‘lib, ular yozma, moddiy va og‘zaki shakllarda namoyon bo‘ladi. Jahon miqyosida genealogik manbalar asosan davlat arxivlari va diniy institutlar orqali saqlangan bo‘lsa, O‘zbekistonda ular ko‘proq qo‘lyozma shajaralar, vaqfnomalar, epigrafik yozuvlar va og‘zaki rivoyatlar ko‘rinishida saqlanib qolgan. Farg‘ona vodiysi esa o‘zining boy yozma va moddiy merosi bilan genealogik tadqiqotlar uchun noyob hudud bo‘lib, bu manbalar nafaqat ilmiy izlanishlar, balki madaniy-turistik rivojlanish uchun ham muhim poydevor hisoblanadi.

Genealogik meros orqali nafaqat shaxslar va sulolalarning nasab daraxti tiklanadi, balki ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar, madaniy meros va mahalliy an’analar ham aniqlanadi. Tarixshunoslikda genealogik manbalar shajaralar, nasabnomalar, xotiralar, qo‘lyozma kitoblar, hujjatlar va rivoyatlar ko‘rinishida namoyon bo‘lib, ularning har biri milliy tarix va xotiraning muhim qatlami sifatida qadrlanadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixida genealogiya qadimdan kuchli an’ana sifatida mavjud bo‘lib, shajara yozish, nasabni saqlash va uni ilmiy tarzda asoslash hukmdorlar, diniy rahnamolar hamda madaniy elitalar hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bois genealogik manbalar bugungi kunda tarixshunoslik fanida fundamental tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmoqda.[332] Ularning ahamiyatini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Davlat va sulolaviy tarixni rekonstruksiya qilishda asosiy manba;
2. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy qatlamlarni yoritishda muhim dalil;
3. Etnogenez va migratsiya jarayonlarini o‘rganishda beqiyos manba;
4. Madaniy va diniy merosni saqlashda asosiy vosita.

Genealogik manbalar moddiy va ma’naviy merosni saqlash vositasi sifatida ham katta ilmiy va madaniy ahamiyatga ega. Qo‘lyozmalar, arxiv hujjatlari, maqbara va madrasalardagi yozuvlar, tosh bitiklar va zamonaviy DNK tadqiqotlari genealogik manbalar doirasini kengaytirib, ularning zamonaviy ilmiy tadqiqotlardagi qo‘llanish imkoniyatlarini yanada boyitadi. Shu nuqtai nazardan, genealogik manbalar tarixiy tadqiqotlarda universal ilmiy manba sifatida namoyon bo‘lib, ular orqali nafaqat shaxsiy yoki oilaviy tarix, balki butun bir xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, etnik shakllanish jarayonlari va madaniy xotirasi qayta tiklanadi.

Genealogik manbalarga turli maktab va olimlar turlicha yondashgan:

- G‘arbiy maktab – huquqiy-hujjatli asosda, ijtimoiy tarix doirasida;
- Germaniya va Skandinaviya – sulolaviy va mulkiy yozuvlarga asoslangan;
- Sharqiy Osiyo – davlat nazoratidagi genealogik tizim asosida;

[332] Zuev Yu. A. Историческая проектсия казакҳскикҳ генеалогическикҳ предании. Ин *Казакҳстан в эпокҳу феодализма.* - Алмата.: 1981. - 74 с

- Rus maktabi – sulolaviy tarix va etnogenetik jarayonlar asosida;
- Markaziy Osiyo – siyosiy legitimlik va diniy-irshodiy tizim asosida;
- O‘zbek maktabi – kompleks tarixiy-madaniy va turizmga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tahlil qilmoqda.

Tarixiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan manbalar turlichadir. Tarixchi uchun genealogik manbalar — bu avlodlar uzviyligini isbotlovchi hujjatlar bo‘libgina qolmay, balki ijtimoiy xotira va madaniy merosni tiklashga xizmat qiluvchi ilmiy dalillardir.

Ilmiy jihatdan genealogik manbalarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin: Fuqarolik-huquqiy va reyestr manbalari. Bularga tug‘ilish, nikoh, o‘lim qaydlari, cherkov registrlari, aholini ro‘yxatga olish hujjatlari, saylov ro‘yxatlari, ko‘chmas mulk kadastrlari, soliq ro‘yxatlari, harbiy xizmat hujjatlari va sudlovga oid hujjatlar kiradi. Masalan, Buyuk Britaniyada 1841–1921 yillar oralig‘ida o‘tkazilgan to‘liq aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari genealogik izlanishlar uchun tayanch manba bo‘lib xizmat qiladi.[333] Jamoat xotirasi va ommaviy axborot manbalari. Tarixiy gazetalar, mahalliy yilnomalar shaxs identifikatsiyasi, manzil, kasb va ijtimoiy aloqalar haqida qo‘shimcha ma’lumotlar kiradi. Bunday manbalar genealogik voqealarni yanada aniq va kontekstual tasvirlashga xizmat qiladi.[334]Og‘zaki tarix, etnografik va lingvistik manbalar. Og‘zaki tarix (doston, rivoyat, marosim qo‘shiqlari), etnografik belgilar (urug‘ nomlari, marosim odatlari) hamda lingvistik atamalar nasab xotirasini ijtimoiy-madaniy qatlamlarda tiklash imkonini beradi.[335] Qo‘lyozma va shajara-nasabnomalar. O‘zbek tarixiy an’analarida shajara va nasabnoma qo‘lyozmalari hukmdorlar, sayyidlar va qabilalar nasabini tartibga solishda asosiy manba bo‘lgan. Masalan, Mirzo Olim Toshkandiyning “Ansab as-salotin va tavorix al-havokin” asari genealogiya va siyosiy tarixni uyg‘unlashtirgan yirik ilmiy manba hisoblanadi.[336]

Raqamli va genetik manbalar. Zamonaviy genealogiyada raqamli platformalar (arxiv kataloglari, indekslar, raqamli tasvirlar) va genetik testlar (DNK) genealogik gipotezalarni tekshirishda muhim o‘rin tutadi. Bu yerda manba turi (original/derivativ) va axborot turi (birlamchi/ikkilamchi)ni farqlash, ishonchlilikni oshirishda asosiy metod hisoblanadi.[337]

Xulosa qilib aytganda, genealogik manbalar o‘zida nafaqat tarixiy faktlarni mujassamlashtiradi, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniy qadriyatlari va kollektiv xotirasini ham ifodalaydi. Ularning o‘rganilishi hukmron sulolalarning hokimiyatni legitimlashtirish jarayonlarini yoritishga, shuningdek, avlodlar davomiyligi va jamiyatning ijtimoiy tuzilishini anglashga imkon yaratadi. Zamonaviy davrda esa genealogik manbalar tarixshunoslik tadqiqotlari bilan bir qatorda turizm sohalarida – xususan diaspora, meros va nostalgiya turizmi rivojida ham muhim o‘rin tutmoqda. Shunday qilib, genealogik manbalar ilmiy izlanishlar, milliy o‘zlikni anglash va turizmni rivojlantirishda ko‘p qirrali ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy meros sifatida qadrlanadi.

* * *

[333] Findmypast.. *Getting Started Toolkit.* - London: DC Thomson**.** 2024. - **5 p.**
[334] O‘sha manba 7-8 p.
[335] Madraimov, A., & Fuzailova, G.. *Manbashunoslik.* - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008. - **8 b.**
[336] Mirzo Olim Toshkandiy. *Ansab as-salotin va tavorix al-havokin.* Qo‘lyozma va nashrlar to‘plami. - **114 b.**
[337] Mills, E. S. *Evidence Explained* (3rd ed., rev.). Baltimore: Genealogical Publishing Company. 2015.- **47 p.**

MARKAZIY OSIYO SAVDO YO‘LLARINING RIVOJLANISHI VA MINTAQAVIY IQTISODIYOTGA TA’SIRI

DEVELOPMENT OF CENTRAL ASIAN TRADE ROUTES AND THEIR IMPACT ON THE REGIONAL ECONOMY

Gulmiraxon Abdullajonova
Qo‘qon universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishini tamomlagan
qosimovagulmira99111@gmail.com

Madinabonu Mamatxonova Kamol qizi
Qo‘qon Universiteti Turizm va Iqtisodiyot fakulteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi
mamatxonovamadinabonu60@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu e’tiboringizga havola etilayotgan tadqiqot Markaziy Osiyo mintaqasidagi savdo yo‘llarining tarixiy rivojlanishi va zamonaviy iqtisodiy jarayonlarga ta’sirini kompleks tahlil qilishga qara. Shuningdek, tarixiy Buyuk Ipak yo‘lidan tortib to zamonaviy “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusigacha bo‘lgan davrda savdo yo‘llarining evolyutsiyasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida mintaqaning geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyati, transport infrastrukturasinya rivojlanishi, xalqaro hamkorlik istiqbollari va global savdo tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: savdo yo‘llari, Buyuk Ipak yo‘li, “Bir makon, bir yo‘l”, mintaqaviy iqtisodiyot, transport koridorlari, xalqaro savdo, geosiyosat, iqtisodiy integratsiya.

Kirish

Bilamizki, XXI asrda global iqtisodiyot tizimining murakkablashishi va xalqaro savdoning intensivlashishi sharoitida mintaqaviy savdo yo‘llarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. “Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari oldida turgan muhim strategik vazifa – bu mintaqamizning global iqtisodiy, transport va tranzit yo‘laklariga chuqur integratsiyasini ta’minlashdir.” [338]Shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi o‘zining strategik joylashuvi va boy tabiiy resurslar salohiyati tufayli jahon iqtisodiyotida alohida o‘rin egallaydi. Tarixan Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarini bog‘lab turuvchi Buyuk Ipak yo‘lining markaziy qismi bo‘lgan bu hudud, bugungi kunda ham o‘z geoiqtisodiy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili

Ilmiy tadqiqotimizni yozish davomida biz bir qancha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari bilan tanishib chiqdik. Quyida ularning ba’zilari haqidagi ma’lumotlar bilan tanishishingiz mumkin:

J.Norberg (2019) o‘z tadqiqotida transport koridorlarining mintaqaviy rivojlanishga ta’sirini makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida baholagan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida S.Qodirov (2021) ning ishi alohida e’tiborga sazovor bo‘lib, u O‘zbekistonning transport-tranzit salohiyatini rivojlantirishning istiqbollarini kompleks baholagan.


Metodologiya

Biz o‘z illmiy maqolamizda tarixiy-qiyosiy tahlildan foydalandik. Chunki, ushbu tahlil Buyuk Ipak yo‘li davridan zamonaviy iqtisodiy koridorlargacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlarini taqqoslash borasida eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

[338] Shavkat Mirziyoyev, BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqidan [kun.uz]

Tahlil va natijalar

Markaziy Osiyo savdo yo‘llarini boshqa mintaqalar bilan qiyosiy tahlil qilish global savdo tizimidagi pozitsiyasini aniqroq baholash imkonini beradi.



Quyidagi diagramma orqali barcha ma’lumotlarni to‘liqroq ko‘rib chiqishimiz mumkin:

Yuqoridagi diagrmmada ko‘rishimiz mumkinki, 2015–2023 yillar oralig‘ida savdo va tranzit hajmi o‘sish sur’atlari mintaqalar kesimida sezilarli farq ko‘rsatdi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, Markaziy Osiyo 58 % o‘sish bilan yetakchi bo‘lib, bu mintaqaning global savdo tizimidagi rolini mustahkamlash yo‘lidagi tezkor rivojlanishini ifodalaydi. Yaqin Sharq 33.3 % natija bilan o‘rtacha o‘sishga ega bo‘lsa, Yevropa atigi 8.7% ko‘rsatkich bilan nisbatan barqaror, lekin past sur’atda rivojlanmoqda.

Muhokama

Darhaqiqat, hozirgi kunda O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasi global iqtisodiy integratsiya jarayonida muhim o‘zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Bundan tashqari, xalqaro tajribalar bilan solishtiradigan bo‘lsak, mintaqada ijobiy yutuqlar bilan birga, o‘ziga xos murakkab masalalar ham mavjud. Bu jihatlarni quyida batafsil ko‘rib chiqamiz:

Zamonaviy savdo yo‘llarining rivojlanishi transport-logistik infratuzilmaning tubdan yangilanishini taqozo etadi. Shuni ham aytish lozimki, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi an’anaviy tranzit modellarini tubdan o‘zgartirib yubormoqda.

Raqamli transformatsiya haqida dunyoning taniqli iqtisodchilari va texnologiya sohasidagi yetakchi ekspertlari shunday fikrlarni bildirgan:

Klaus Schwab (Butunjahon iqtisodiy forum prezidenti) ning ilmiy tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki: “To‘rtinchi sanoat inqilobi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini, balki butun jamiyat tuzilmasini ham tubdan o‘zgartiradi”[339]– Bu fikr har bir mintaqaning raqamli texnologiyalarga moslashish zarurligini va buning jamiyatga keng ta’sirini yaqqol ko‘rsatadi.

Joseph Stiglitz (Nobel mukofoti laureati): “Globallashuvning eng katta imkoniyati – bilim va texnologiyalarning tez tarqalishi, eng katta xavfi esa tengsizliklarning kuchayishidir”[340] – Stiglitz globallashuv jarayonlarida muvozanatni saqlashning muhimligini ta’kidlaydi.

Erik Brynjolfsson (MIT professori) ning ilmiy tadqiqotlarida: “Texnologiya – bu faqat vosita, muhimi shundaki, biz uni qanday maqsadlarda va qanday yo‘nalishda ishlatamiz” [341]– Texnologik rivojlanishda inson omilining ustuvorligini ko‘rsatadi.

[339] Schwab, K. (2020). The Fourth Industrial Revolution and its impact on global trade. Geneva: World Economic Forum Press.
[340] Stiglitz, J. (2019). Globalization and regional development: Lessons for emerging economies. Economic Development Quarterly, 33(4), 287-301.
[341] Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2021). The impact of digital technologies on regional trade patterns. Technology and Society, 28(3), 156-173.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Markaziy Osiyo savdo yo‘llarining rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiyotga ko‘p jihatli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tarixiy Buyuk Ipak yo‘lining an’analarini davom ettirgan holda, zamonaviy “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar mintaqaning global savdo tizimidagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Biz tadqiqotimiz yakunida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo aloqalarining intensivlashishi mintaqaviy iqtisodiy integratsiyasini yanada takomillashtirish borasida quyidagi takliflarni taqdime etamiz:

1. Raqamli logistika tizimlarining keng joriy etilishi talab etiladi.
2. Ekologik barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olish muhim.
3. Kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Peyrouse, D. (2018). The geopolitical transformation of Central Asia: From the Silk Road to modern economic corridors. London: Routledge Press.
2. Qodirov, S. (2021). O‘zbekistonning transport-tranzit salohiyatini rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiy tahlil, 3(45), 22-35.
3. Asian Development Bank. (2022). Central Asia Regional Economic Cooperation: Trade and Investment Report 2022. Manila: ADB Publications.
4. World Bank. (2023). Belt and Road Economics: Opportunities and Risks of Transport Corridors. Washington: World Bank Group.
5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2021). The impact of digital technologies on regional trade patterns. Technology and Society, 28(3), 156-173.
6. Schwab, K. (2020). The Fourth Industrial Revolution and its impact on global trade. Geneva: World Economic Forum Press.
7. Stiglitz, J. (2019). Globalization and regional development: Lessons for emerging economies. Economic Development Quarterly, 33(4), 287-301

* * *

ISLOMDA BOLANING POK NASABGA EGA BO‘LISH HUQUQI

IN ISLAM, A CHILD’S RIGHT TO HAVE A PURE LINEAGE

Xalxodjayeva Nargiza Yusupjonovna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti

Huquq ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi va rioya etilishi davlat hokimiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan qoidalar majmuidir. Bolalar huquqi esa huquqning bolalarga xos, boshqacha aytganda, bola huquqlarini tartibga soluvchi tarmog‘idir.

Bolaning jismoniy, aqliy va hissiy rivojlanishi mehr-muhabbatli, iliq muhitda o‘sishiga bog‘liq. Bunday muhitni ta’minlovchi asosiy jamoa - bu oiladir. Boshqa hech bir ijtimoiy va huquqiy tuzilma oiladagidek bevosita va tabiiy asosga tayanmaydi. Aynan shuning uchun ham bola tarbiyasi tarixning ilk davrlaridan boshlab ota-onaning axloqiy burchi hisoblangan, bolalarni tarbiyalash va asrab-avaylash asrlar davomida oilaga tegishli bo‘lib kelgan. Bu vazifa XIX asrda Yevropada

milliy miqyosda qabul qilingan muhim qonun hujjatlari bilan ota-onaning huquqiy majburiyatiga aylandi. Zero, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar Fuqarolik kodekslarida xususiy huquq doirasida tartibga solingan. Shuning uchun bola huquqi tor ma’noda ota-ona va bolalar o‘rtasidagi huquq, majburiyat va munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalardan iborat[342].

Islomda farzandlarning huquqlari qat’iy rioya qilingan bo‘lib, bular ularning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari, yashayotgan jamiyatlariga vazifa qilib yuklatilgandir. Bu haqlarni ado etish vojib bo‘lib, unga amal qilish majburiydir[343].

Zamonaviy qonunchilikdan farqli ravishda islomning yana bir muhim o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu – har bir bola nasabi pok bo‘lib tug‘ilish shartidir. Islom dini har bir voyaga yetgan shaxsni oila qurib o‘z jufti bilan halol-pok yashashga chaqiradi. Hadisi sharifda “Nikohingizga tengni toping va ularga nikohlaning” deya bayon qilingan[344].

Islomda nasab tushunchasi juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u shaxsning oilaviy kelib chiqishi, uning ota-bobolari zanjiri orqali bog‘lanishi demakdir. Islom nasabni himoya qilishga katta e’tibor qaratadi, chunki u jamiyatning barqarorligi, oilaviy munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi va bolalarning huquqlarini

ta’minlash uchun muhim omil hisoblanadi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning ta’kidlashlaricha, bolaning nasabi pok bo‘lish huquqi uning eng avvalgi huquqlaridan biri bo‘lib, nukoh va oila qurib yashashning asl maqsadlaridan biri ham nasl-nasabni saqlashdir. Farzandning ota-onasi nikohdan o‘tib, halol-pok yashagandagina nasabi aniq va pok bo‘ladi. Shundagina bola o‘z ota-onasini, yaqin qarindoshlarini aniq biladi hamda to‘liq oil ava sog‘lom ruhiy-ma’naviy muhitda voyaga yetadi[345].

Nasab shaxsning qayerdan kelib chiqqanligini, kimning zurriyoti ekanligini ko‘rsatadi. Bu shaxsning ijtimoiy maqomi yoki oilasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Nasab oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Bu meros huquqi, vasiylik, qarindoshlik aloqalari va boshqa huquqiy masalalarda muhim rol o‘ynaydi Islom huquqida nasab meros olish huquqini belgilaydi. Farzandlar, ota-onalar va boshqa yaqin qarindoshlar nasabga ko‘ra merosdan ulush oladilar.

Nasab oila a’zolari o‘rtasida ma’lum bir mas’uliyatni yuklaydi. Masalan, ota-ona o‘z farzandlari uchun moddiy va ma’naviy jihatdan mas’uldir, farzandlar esa ota-onalari qariganida ularga g‘amxo‘rlik qilishlari kerak.

Nasab shaxsning sha’ni va obro‘si bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Odamlar o‘zlarining nasl-nasablarini hurmat qilishadi va uni saqlashga harakat qilishadi.

“Nasab” so‘zi lug‘atda “nisbat berish”, “mansublik” ma’nolarini anglatadi.

Shar’iy istilohda esa “Yaqinlik - ikki insonning tug‘ilishda mushtaraklik sababidan bog‘lanishi”dir. Nasab ota yoki ona tarafidan bo‘lishi mumkin.

Nasab eng muhim va o‘ta nozik ijtimoiy hukmlardan biridir. Zotan, inson aynan nasab orqali ota-onasini, bobo-momosini, amaki-tog‘asini, amma-xolasini va boshqa qarindoshlarini taniydi va ular bilan aloqada bo‘ladi.

Islom shariatida nasabga alohida e’tibor berilishi unga bog‘liq o‘ta muhim haqlar borligi uchundir:

a) nasabni yaxshi aniqlash kelajakda mahramlar orasida nikohlanishdek katta gunohning oldini oladi. Agar bu ish bo‘lmasa, odam bilmasdan, o‘zining qarindoshi bilan oila qurib qo‘yishi va buning oqibatida ko‘plab zarar tortishi va gunohga qolishi bor;

---

[342] Prof. Dr. Emine Akyüz. Çocuk hukuku: **Çocukların Hakları ve Korunması.** Ankara, 2024. – 599 s.

[343] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – T.: “Hilol-Nashr”, 2023. – B. 272.

[344] D. Karimova. Islom ta’limotida bola huquqlari va ta’lim-tarbiyasiga oid me’yorlar. – Toshkent: “Tafakkur nashriyoti”, 2024. – B. 44.

[345] D. Karimova. Islom ta’limotida bola huquqlari va ta’lim-tarbiyasiga oid me’yorlar. – Toshkent: “Tafakkur nashriyoti”, 2024. – B. 44.

b) nasabning sobit bo‘lishi ota-ona haqlarining ham sobit bo‘lishiga xizmat qiladi. Agar nasab aniqlanmasa, ba’zi holatlarda inson uchun eng muhim ishlardan bo‘lgan ota-ona haqlarining poymol bo‘lishi turgan gap;

v) nasabga e’tibor berish qarindosh-urug‘larga e’tibor berish va ularga silai rahm qilishni yo‘lga qo‘yish deganidir.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Nasablaringizni o‘rganing, u bilan silai rahm qilasiz. Zotan, silai rahm ahlga muhabbat, molning ziyodasi va asarini ortdan qoldirishdir”, dedilar”.

Har bir kishi nasabini, ya’ni ajdodlari, qarindosh-urug‘larini yaxshi tanib olishi lozim. Bu narsa silai rahm qilish uchun kerak. Bir kishi boshqa bir kishining o‘zining qarindoshi ekanligini bilmay. Shu tufayli unga silai rahm qilmay yurgan bo‘lsa, gunohkor bo‘ladi. Shuning uchun qarindosh-urug‘larni yaxshi bilish, qarindoshlik aloqalarini o‘rganish musulmon kishining burchi hisoblanadi.

g) nasabga ahamiyat berish farzandlarning moliyaviy haqlarini himoya qilish deganidir. Albatta, bolalarning nafaqasi, meros olishi, ularga homiy bo‘lish kabi haqlarning barchasi nasabga bog‘liqdir[346].

Islom huquqida bolaning nasl-nasabini aniqlashda qonuniy nikohda bo‘lgan er-xotindan tug‘ilgan bola ular o‘rtasida bolaning otaligi va onaligi haqida hech qanday nizo bo‘lmasa ularning farzandi hisoblanadi. Agar xotin bolaning onasiligini inkor etsa, bolani u tuqqanligini tasdiqlovchi bir ayolning ko‘rsatmasi inobatga olinadi. Agar er bolani otasiligini inkor etsa er-xotinning birgalikda nikohda bo‘lgan muddati, ular ajralishgan bo‘lsa, er vafot etgan bo‘lsa, er yoki xotin o‘lgan deb e’lon qilingan bo‘lsa, ajralish, er vafotidan, er yoki xotin o‘lgan deb e’lon qilinganidan so‘ng qancha vaqt o‘tganligi otalikni belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Har uchchala holatda ham muddatni belgilashda bolaning ona qornida qancha vaqt bo‘lishi asos qilib olinadi. Islom huquqi bo‘yicha, onaning qornida bola turishining eng kam muddati olti oy, eng ko‘pi ikki yil. Nikoh qayd qilingandan so‘ng olti oy o‘tgandan keyin tug‘ilgan bolaning otasi sifatida uning onasi bilan nikohga kirishgan erkak tan olinadi. Agar bola nikoh qayd qilinganidan keyin olti oy o‘tmasdan tug‘ilsa uning onasi bilan nikohda bo‘lgan erkak ota sifatida tan olinmaydi va nikoh bekor qilinadi. Chunki umumiy qoidaga binoan homilador ayol bilan nikohga kirishib, uning bilan jinsiy yaqinlik qilish mumkin emas.

Agar bolaning onasi eridan ajralgandan yoki eri o‘lgandan yoxud er o‘lgan deb e’lon qilingandan so‘ng bola ikki yil muddat oralig‘ida tug‘ilsa, uning otasi sifatida ushbu erkak tan olinadi. Agar bola har ikki holatda ham ikki yildan keyin tug‘ilsa, onasining eri uning otasi sifatida tan olinmaydi. Lekin onasining ajralishgan sobiq eri bola meniki deb da’vo qilsa, u bolaning otasi sifatida tan olinadi. Shuningdek eri bilan ajrashgan xotin idda muddatini o‘tagandan so‘ng olti oy o‘tmasdan bola tug‘sa, bolaning otasi sifatida onasi bilan ajrashgan erkak tan olinadi. Eri o‘lib idda muddatini o‘tayotgan ayol bola tug‘sa, bolaning otasi sifatida marhum er tan olinadi, agar marhumning merosxo‘rlari bunga norozilik bildirmasa. Eridan ajralishgan ayolning homilador ekanligi uning tashqi qiyofasidan aniq bilinsa, ajrashgan eri xotinning undan homilador ekanligini inkor etmasa va bolani aynan shu homilador ayol tuqqaniga doya guvohlik qilsa bolaning onasiligi va otasiligi haqida nizo kelib chiqishga hech qanday asos qolmaydi. Agar er xotinning undan homilador ekanligini inkor etmagan holda, tug‘ilgan bola uniki emasligi (masalan, uni - otasiga o‘xshamasligini ro‘kach qilib) haqidagi da’voni ko‘tarsa, doyaning ushbu bolani aynan shu ayol tuqqanligi haqidagi guvohligi inobatga olinadi. Agar er bunga ham ishonmasligini aytsa, unda albatta er-xotin o‘zaro bir-birini vafosizlikda ayblashi lozim bo‘ladi. Agar bola tug‘ilgandan so‘ng o‘zaro nikohda bo‘lganlik muddati haqida er-xotin o‘rtasida nizo kelib chiqib er nikohga kirishganimizga to‘rt oy to‘ldi desa, xotin olti oy to‘ldi desa, xotinning gapi inobatga olinadi.

[346] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – T.: “Hilol-Nashr”, 2023. – B. 280-281.

Demak nasabni belgilashda:

1. Homiladorlik muddati eng kamida olti oy bo‘lishi kerak. Bu muddat esa, er va xotinning jinsiy aloqa qilgan vaqtdan boshlanadi. “...Unga homilador bo‘lish va uni (sutdan) ajratish (muddati) o‘ttiz oydir....”. Demak, o‘ttiz oy emizish muddati ikki yilni chiqarsak, yigirma to‘rt oy chiqib ketadi. Qolgani esa olti oydir. Bundan homilaning eng kam muddati olti oy ekanligi kelib chiqadi.

2. Nasabning isboti uchun - er-xotin sahih nikohda bo‘lishi lozim.

3 . Zinodan, nikohsiz tug‘ilgan bolaga nasab sobit bo‘lmaydi.

Fiqhiy qoidaga binoan, agar o‘zaro nikohda bo‘lmagan kishilar o‘rtasida homiladorlik vujudga kelib, keyinchalik nikohlansa va nikohdan 6 oy o‘tgach bola tug‘ilsa bolaga otaning nasabi beriladi. Agar 6 oydan kam muddat ichida tug‘ilsa berilmaydi[347].

Demak, xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, islomda nasab - ijtimoiy, huquqiy va axloqiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim tushuncha bo‘lib, bolaning kelajagi va jamiyatning barqarorligi uchun asos hisoblanadi. Nikoh - bolaning nasabi pok bo‘lish huquqini ta’minlashning asosiy vositasi bo‘lib, oila qurishning yagona qonuniy yo‘lidir. Buning aksi o‘laroq zino nasabning buzilishiga olib keluvchi harom ish bo‘lib, bolaning huquqlarini poymol qiladi va jamiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, farzandlikka olishning to‘liq shakli (nasabni o‘zgartirish bilan) islomda taqiqlangan, chunki u bolaning haqiqiy nasabidan mahrum bo‘lishiga olib keladi. Kafolatlik esa bolaning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muqobil yechimdir.

* * *

AL-BIDOYA VAN-NIHOYA ASARINING TARIXIY MANBA SIFATIDAGI AHAMIYATI

THE SIGNIFICANCE OF AL-BIDAYA WA’L-NIHAYA AS A HISTORICAL SOURCE

Saidakbarov Xalilulloh Saidmuxtor o‘g‘li
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti

Ibn Qodiy Shuhba o‘z yurtida tarixiy bilimga ishonch uyg‘otgan uch shaxs qatorida tilga olgan Ibn Kasirning eng yirik asarlaridan biri ham tarix sohasiga taalluqlidir[348]. “Al-bidoya van-nihoya” nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu asar hajmi hamda qamrab olgan mavzularining kengligi jihatidan eng yirik Islom tarixiy manbalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Asarda olamning yaratilishidan boshlab muallifning o‘z davrigacha bo‘lgan voqealar bayon qilinadi. O‘tmish voqealari bayoni tugallangach, kelajakda yuz beradigan hodisalar, ya’ni fitan va malohim (oxir zamon fitnalari va buyuk janglar) mavzusi muhokamaga o‘tiladi.

Ibn Kasir asarni to‘rtta katta qismga bo‘lgan. Bu qismlarni quyidagi nomlar bilan keltirish mumkin:

1. Qadim tarix: Ibn Kasir bu bo‘limda maxluqotning yaratilishidan boshlab arsh, kurs, osmon, yer va uning ichidagi narsalar, farishta, jin va shaytonning yaratilishi, Odam (a.s) yaratilishi, payg‘ambarlar tarixi va johiliyya davridagi jarayonlarni bayon qilgan.

[347] N. Yusupova. Fiqh. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 198-199.
[348] Kevser Beyazyuz, Abul Fido Ibn Kasir. – Istanbul: Siyar yayinlari, 2022. – B. 75-76.

2. Siyrat: al-Bidoyaning ikkinchi qismida Payg‘ambar (s.a.v) hayoti o‘rin olgan. Bu bo‘lim kitobning deyarli uchdan bir qismiga to‘g‘ri keladi. Ibn Kasir bu bo‘limni yozishdan maqsadini shu shaklda ifodalaydi: Hazrati Payg‘ambar alayhissalom siyratini ham shu chanqagan ko‘ngillarga suv sepajak va hasta ko‘ngillardagi marazni ketkizajak shaklda bayon qilishga harakat qilaman”.

3. Musulmon davlatlari tarixi: Ibn Kasir uchunchi bo‘limda Xulofa-i roshidin davridan boshlab umaviylar, abbosiylar davrida yuzaga kelgan davlatlar va mamlukiylarni bayon qilgan va asarni 767/1366-yil voqealari bilan tamomlagan. Muallif bu bo‘limda faqat siyosiy voqealarni emas, ijtimoiy hayotga doir muhim ma’lumotlarni ham keltirib o‘tgan. Xususan u o‘zi yashagan davrga oid ahamiyatli xabarlar qoldirgan.

4. Qiyomat a’lomatlari va oxirat hayoti: Ibn Kasir asarning “an-Nihoya” qismida qiyomat a’lomatlari, o‘limdan so‘ng qayta tirilish, qabrdan chiqish, qiyomatning qo‘rqinch hollari, qiyomat kunining xususiyatlari, u kunda yuzaga keladigan hodisalar bilan jannat va jahannamdan bahs yuritgan[349].

Ibn Kasir bu asarni yozishda dastlabki davr tarixchilari bo‘lgan Tabariy, Ibn Asakir, Ibn Javziy, Ibn al-Asir kabi ulamolardan, shuningdek, o‘z davrida yashagan Zahabiy va Birzoliy kabi tarixchilardan ham foydalanib yozgan[350]. Shu bois u ishlatgan manbalarining boyligi va ahamiyati nuqtai nazaridan bu asar Islom tarixi va tarixshunosligi uchun muhim bir manba hisoblanadi. Bundan tashqari, uolim o‘z ilmiy salohiyati tufayli foydalangan manbalarni qat’iy tanqidiy nazardan o‘tkazib, eng muhimlarini saralab olgan. Masalan, payg‘ambarlar tarixi qismi Islom tarixchiligi nuqtayi nazaridan qimmatli ma’lumotlar va sharhlarni o‘z ichiga olgan manbadir. Ibn Kasir bu qismda Qur’on va hadisga zid bo‘lmagan Isroiliyat xabarlarini ham manba sifatida ishlatgan[351]. Darhaqiqat, shu doirada avvalgi tarixchilar tekshirmasdan qabul qilgan ko‘plab Isroiliyot rivoyatlarini u tanqidiy jihatdan saralab keyin qabul qilgan.

Al-bidoya asarining Payg‘ambar (s.a.v.) siyratiga oid qismi Islom tarixshunosligi nuqtai nazaridan eng muhim manbalar qatorida baholanadi. Bu bo‘limda avvalo Qur’on va Sunnat asosida mavzularning doirasi belgilangan, keyingi ma’lumotlar esa shu asosga qurilgan. Qur’on xabarlariga zid deb ko‘rilgan biror rivoyat keltirilmagan. Qabul qilingan rivoyatlarning ham kamchiliklari va xatolari ko‘rsatilib, nima sababdan to‘g‘ri emasligi izohlangan.

Ibn Kasir asarning oxirgi jildida esa o‘zi yashagan davr voqealarini bayon qiladi. Bu jildning Mamluklar davlatini qamrab olishi uni o‘rta asr turkiy islom tarixi uchun eng muhim manbalardan biriga aylantiradi. Unda o‘sha davrdagi Damashqning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Asar 767/1366-yilgi voqealar bilan yakunlanadi.

Asarning umumiy mazmuniga qaraganda, u biografik jihatdan ham boydir. Islom tarixining ilk davridan tortib Ibn Kasir yashagan davrgacha ko‘plab shaxslarning hayoti ularning ahamiyatiga qarab hikoya qilingan. Muhim shaxslar haqida esa batafsil to‘xtalib, keng ma’lumot berilgan. Agar bayon etilgan shaxs xalifa, sulton yoki muhim bir davlat arbobi bo‘lsa, uning davlat boshqaruvidagi muvaffaqiyati, adolatga munosabati, xalqqa bo‘lgan muomalasi ta’riflab o‘tilgan. Agar u olim bo‘lsa, ilmiy salohiyati, kimlardan saboq olgani, asarlari, qaysi ilmiy muassasalarda dars bergani kabi xususiyatlar zikr qilingan[352].

Ibn Kasirning shogirdlaridan ba’zilari uning ushbu asariga turli sharhlar va zayl yozganlar. Masalan, shogirdi bo‘lgan Ibn Hijjiy, Ibn Kasir hali tirikligida al-Bidoyaga 769-yilgacha keladigan sharh yozgan. Keyinchalik bu sharhni Ibn Qodiy Shuhba davom ettirib, uni 840-yilgacha yetkazgan. Darhaqiqat, klassik manbalarda ham Ibn Qodiy Shuhbaning; Zahabiy, Birzoliy va Ibn Kasir tarixlariga

[349] Mehmet Emin Yildirim. Bir tarix klassiki o‘laroq al-bidoya van-nihoya.// Tekerrürden Tekeffüre Tarix. Istanbul: Siyer Yayınlari. 2021. – B . 454-455.
[350] Ramazon Sheshen. Müslümanlarda Tarih-Coğrafya Yazıcılığı. Istanbul. – B. 197.
[351] Ibn Kasir, al-Bidoya, J. I, B. 3.
[352] Ziya Polat, *Tarihçi Olarak İbn Kesîr*, Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Müdürlüğü, İstanbul 2006. – B. 112-113.

“zayl” yozgani aytiladi. Shuningdek, Ibn Hijjiyning yuqoridagidan farqli ravishda 793–815-yillarni qamrab olgan al-Bidoya zayli 2003-yilda Bayrutda Abu Yahyo Abdulloh al-Kunduriy tomonidan tahqiq qilinib, ikki jild holida nashr qilingan.

Shuningdek, Ahmad ibn Abu Bakr at-Tabaroniy (vaf. 835/1431) va Ibn Hajar al-Asqaloniy (vaf. 852/1449) ham asarga zayl yozganlar. Bundan tashqari, Ibn Qodiy Shuhba boshqa asarlarini yozish jarayonida, Badruddin Ayniy esa Islom tarixi haqida yozgan asarlarida Ibn Kasirdan foydalangan. Abu’l-Mahosin Shamsuddin Muhammad ibn Ali ibn al-Hasan Husayniy (765/1364) Ibn Kasirdan oldin vafot etgan bo‘lishiga qaramay, unga shogirdlik qilgan va yozgan tarjimai hollarida undan foydalanib kelgan.

Kotib Chalabiy, Ibn Hajar qalamiga mansub “Inba al-G‘umr” nomli asarni al-Bidoyaning zayli ekanini aytadi. Shuningdek, Kotib Chalabiy o‘z davridagi tarix kitoblarini baholarkan, al-Bidoyani Zahabiy va Birzoliy asarlari bilan bir qatorda eng muhim tarixiy manbalar qatorida zikr etadi va Ibn Kasirning bu asari ikkisining mazmunini o‘zida jamlagani uchun ulardan ustun ekanini ta’kidlaydi[353].

Jamoliddin al-Qosimiy 1912 yilda Halab kutubxonalarida olib borgan tadqiqotlari chog‘ida topgan al-Bidoya qo‘lyozmalari, bu kashfiyotdan o‘n bir yil o‘tib, 1923 yilda ilk bor nashr etildi. Keyinchalik asar bir necha bor qayta bosilgan bo‘lsa-da, xatolar bilan to‘la bo‘lib, sifatli tahqiqi ancha kechiktirilgan. Halab kutubxonalarida topilgan qo‘lyozmalar keyinchalik asarning qayta nashr qilinishiga zamin yaratdi. Bu kashfiyot juda muhim edi, chunki u paytga qadar al-Bidoya keng foydalanilsa-da, nashr qilingan mukammal va ilmiy asoslangan matn yo‘q edi. Qosimiyning topilmalari bilan asar arab dunyosida ham, keyinchalik G‘arbda ham yanada keng tarqala boshladi. Turli tillarda asarning ba’zi qismlari chop etilgan bo‘lsa-da, tarix qismi 1994–1995 yillarda to‘liq shaklda qayta turk tiliga tarjima qilindi[354].

Keyinchalik asarning tarixiy voqealarga oid birinchi qismi “al-Bidoya van-Nihoya” nomi bilan o‘n to‘rt jild qilib nashr qilindi (Qohira, 1351–1358 h.q./1932–1939 m.). Bu nashr tahqiq qilinmagan hamda ko‘plab xatolarga ega bo‘ldi. Keyinchalik Muhammad Abdulaziz an-Najjor tayyorlagan tahqiq qilingan matnning Qohira va Riyodda chop etilishi boshlangan (1963), ammo faqat ikki jildigina nashr etildi. Shuningdek, asarning Halabdagi Madrasat al-Ahmadiyyada saqlanayotgan qo‘lyozmasi bir komissiya tomonidan yetti jild (14 juz’) qilib chop qilingan (Bayrut, 1966). Lekin bu nashr ham jiddiy ilmiy izlanish mahsuli emasligi, balki 1932–1939 yillardagi Qohira nashriga asoslangan holda tayyorlangani ma’lum bo‘ldi.

Bularning barchasi Ibn Kasirning zamonaviy Islom tarixchiligidagi ahamiyatini ochib bermoqda.

* * *

[353] Ziya Polat, *Tarihçi Olarak İbn Kesîr*, Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Müdürlüğü, İstanbul 2006. – B. 114.
[354] Kevser Beyazyuz, Abul Fido Ibn Kasir. – Istanbul: Siyar yayinlari, 2022. – B. 75-80.

MARKAZIY OSIYODA ISLOM DINI, UNING BOY MEROSI VA TARIXIY AHAMIYATI: SOVET DAVRIDAGI TAQIQ VA UNING OQIBATLARI

ISLAM IN CENTRAL ASIA, ITS RICH HERITAGE AND HISTORICAL SIGNIFICANCE: THE BAN IN THE SOVIET PERIOD AND ITS CONSEQUENCES

Baxit Abdikerimovich Koshanov,
Qoraqalpoq davlat universiteti professori,
tarix fanlari doktori,

Zinatdinov Nuratdin Kobeysinovich,
Qoraqalpoq davlat universiteti,
"O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixi" kafedrasi
tayanch doktoranti

Markaziy Osiyoda islom dini va uning boy merosi tarixiy-madaniy ildizlarga ega bo'lib, mintaqaning ijtimoiy hayoti va tarixiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Bu meros asrlar davomida diniy, ilmiy va madaniy sohalarda chuqur iz qoldirib, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayot tarzini shakllantirishga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o`zligimizning ajralmas qismiga aylanib kelgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizning bebaho ma'naviy-ma'rifiy merosini o`rganish va targ`ib etish biz uchun o`ta dolzarb vazifa bo`lib qolmoqda", deya ta`kidlagani bejizga emas edi.[355]

Tarixga nazar solsak VIII asrda bu hududda islom dini tarqala boshlagan va uning atrofida rivojlangan islomiy ilmiy tafakkur mintaqa taraqqiyoti uchun muhim asos bo'ldi. Bu diyor IX-XII asrlarda musulmon dunyosining ilmiy, madaniy va diniy markaziga aylanib, Imom al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy va Al-Xorazmiy kabi buyuk allomalarning ilmiy meroslari butun Sharq va G'arb ilm-faniga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Termiz va Marv kabi shaharlar butun islom olamining eng muhim ilmiy markazlariga aylandi. Islom ilmlari nafaqat diniy bilimlar tizimini, balki axloq, ijtimoiy munosabatlar, huquq, tibbiyot, matematika, falsafa kabi ko'plab sohalarning o`z-aro aloqalarini ham ifoda etgan. Shuning uchun ham islom ilmlari Markaziy Osiyo tarixida muhim rol o'ynagan va hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

XIII asr boshlarida mo'g'ullarning hujumlari natijasida bu diyor qal'alari vayron qilindi. Buxoro, Samarqand va Xorazmdagi ilmiy meroslar yo`qotildi. Natijada ilmiy muhit izdan chiqib, diniy-ma'rifiy merosning uzviy davomiyligida uzilishlar yuz berdi. Lekin XIV-XV asrlarda Amir Temur va temuriylar davrida bu jarayon qayta jonlandi. Bu davrda islom dini va tasavvufning jamiyat hayotidagi o'rni oshdi. Ushbu diniy tamoyillar davlat boshqaruvi va ijtimoiy tartibotni mustahkamlashda muhim vosita bo'lib, madaniy va ilmiy rivojlanishga ham ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, islomiy qadriyatlar iqtisodiy faoliyat va siyosiy qarorlar asosida namoyon bo'ldi.

XVI–XIX asrlarda ham Islom dini Markaziy Osiyoda jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib qoldi. Bu davrda diniy qadriyatlar ijtimoiy munosabatlar, siyosiy boshqaruv va madaniy-ma'rifiy hayotda chuqur ta'sir o'tkazdi. Musulmon ulamolar va tasavvuf arboblari xalqqa diniy ta'lim berishda faol ishtirok etib, diniy tashkilotlar va maktablarning faoliyati kengaydi.

[355] Shavkat Mirziyoyev- "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" 3-jild, "O`zbekiston" Toshkent 2019, 375-376-betlar

XIX asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan Markaziy Osiyo yerlari bosib olinadi. Bosqin natijasida mustamlakaga aylantirilgan ushbu hudud inqirozga yuz tutishiga, muqaddas dinimiz hamda milliy qadriyatlarimiz oyoqosti qilinishiga olib keldi. Ayniqsa, XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmi hamda 30-yillari Sovet hukumati jamiyat muhitida dinga, diniy tashkilotlarga hamda musulmon ulamolariga qaratilgan siyosati juda agressiv tarzda olib borilib, ateistik harakatning avj olgan davri hisoblanadi. Chunki bu davrda bolsheviklar o‘zlari qurmoqchi bo‘lgan Sovet Ittifoqi va kommunizm jamiyati keskin qarshilikka uchragan edi hamda bu qarshilikning markazi sifatida din va din ulamolari nazarda tutilgan edi. Buni birgina nemis faylasufi Karl Marksning kitobida keltirilgan “din - bu xalqning afyuni” degan satrlarini sovet rahbari V.I.Leninning o‘z chiqishlarida tez-tez takrorlashi tasodifiy emas edi.[356]

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan kelgan bir hadis mazmuni bo‘yicha “Shunday zamonlar keladi, dinni ushlab turish, qo‘lga o‘tni ushlab turish bilan. teng bo‘ladi” degan ekan. Ha, shunday zamonlar bo‘lib o‘tdi. Bu o‘tmishdagi totalitar sovet tuzumi davri edi.[357] Aynan Markaziy Osiyoda Sovet hokimiyati hukm surgan davrda islom dini va uning boy merosiga, shuningdek, musulmon ulamolariga nisbatan keskin mafkuraviy va siyosiy tazyiqlar qo‘llanildi. Bu bosimlar diniy e’tiqod erkinligining cheklanishi, masjid va madrasalarning yopilishi, diniy adabiyotlarning yo‘q qilinishi, ulamolarning qatag`onga uchrashi va diniy merosning toptalishiga olib keldi.

1917-yilda bolsheviklar hokimiyatni egallagandan boshlaboq diniy institutlar faoliyatini cheklash va ularni jamiyat hayotidan siqib chiqarishga qaratilgan markazlashgan siyosat yurita boshladi. 1918-yil 23-yanvarda qabul qilingan “Cherkovni (bizning sharoitda masjidlar) davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to‘g‘risida”gi dekret asosida din davlat ishlari va ta’lim tizimidan butunlay chetlashtirildi. Shuningdek, dekretda diniy muassasalar va musulmon ulamolarning mulkka ega bo`lish huquqi ham bekor qilingan edi. Bu esa ulamolarning hayotiy daromadlaridan, masjid-madrasalarni esa moliyaviy ta’minotdan ajratib qo`yishga va ularning qiyin ahvolga tushishiga sabab bo`ldi.

XX asrning 20-30-yillarida Sovet hokimiyati masjid-madrasalarga qarshi kurash siyosatini amalga oshirdi. Bu davrda minglab masjid va madrasalar yopildi, ayrimlari vayron qilindi yoki boshqa maqsadlar uchun qayta moslashtirildi. 1929-1939-yillar oralig‘ida birgina Turkistonning o‘zida 14000 ta masjid yopib tashlandi. Shuningdek, shayx, imom va boshqa diniy arboblar jazolangan, ayrimlari qamalgan yoki o‘ldirilgan, surgun qilingan.[358] Aynan ushbu davrda ko`plab boy ma’naviy meroslarimiz sovet hukumat vakillari tomonidan yo`q qilingan. Lekin shunga qaramay Markaziy Osiyoda muqaddas dinimiz bilan bog`liq boy ma’naviy va tarixiy merosning muhim jihatlari butunlay yo‘qolib ketmadi. Rasmiy diniy ta’limot taqiqlangan sharoitda ham, xalq orasida diniy bilimlar va qadriyatlar og‘zaki an’analar orqali avloddan avlodga yetkazildi. Qur’on oyatlari, hadislar va tasavvuf tushunchalari maxfiy tarzda, ko‘pincha oilaviy doira yoki ishonchli shaxslar orqali o‘rgatildi. Ayrim ulamolar hujralarda va uy sharoitida diniy saboq berishda davom etgan. Shuningdek, mahalliy aholi tomonidan ilmiy-ma’naviy meroslar yashirin tarzda (qabristonlarda, yerto`lalarda, devor orasiga) asrab saqlandi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida va undan keyingi o‘n yilliklarda Sovet Ittifoqining diniy siyosati ayrim o‘zgarishlarga uchradi. 1941-yildan 1960-yillargacha bo‘lgan davr tarixiy adabiyotlarda ateistik siyosatning biroz yumshashi, vaqtincha zaiflashish davri sifatida qaraladi. Bu davrda sovet hukumati tomonidan diniy tashkilotlarga qarshi avvalgi qat’iy qatag`on choralarini yumshagan edi, lekin diniy faoliyat hamon qattiq nazorat ostida edi.

1960–1991-yillarda ham ateistik mafkura davlat siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida saqlanib qoldi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida dinni inkor etuvchi fanlar majburiy tarzda

[356] Советская Каракалпакия,1937 г. 9 мая № 101 (1299).
[357] A.Idrisov - Qoraqum eshonlari tarixi. Nukus: “Qoraqalpog‘iston.” 2023.-3-bet.
[358] Ózbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi 1993-yil , 4-iyun №23 (3231) 5-bet

o‘qitildi. Matbuot, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tashkilotlar orqali doimiy ravishda ateistik targ‘ibot olib borildi.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, mamlakatda diniy e’tiqod erkinligi ta’minlandi va bu huquq Konstitutsiya darajasida kafolatlandi.[359] Musulmonlar endilikda erkin ravishda masjidlarga kirib namoz o‘qish, shuningdek, diniy marosimlarni o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Diniy qadriyatlar insonlarning ma’naviy uyg‘onishi va ijtimoiy birlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynay boshladi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Sovet davrida muqaddas dinimiz islomga nisbatan keskin mafkuraviy va siyosiy bosimlar ko‘rsatildi. Diniy tashkilotlar yopildi, masjidlar va madrasalar faoliyati to‘xtatildi, Qur’on nusxalari yo‘q qilindi, diniy ulamolar ta’qibga uchradi, dinga e’tiqod qilish esa “jaholat”, “eskilik sarqiti” sifatida targ‘ib qilindi. Agar Sovet davrida O‘zbekistonda 89 masjid bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda 2300 dan ortiq diniy tashkilotlar, ulardan 2131 masjid, 11 madrasa, Islom akademiyasi, Islom instituti, shuningdek 16 diniy konfessiyalar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Yurtimizda Ramazon hayiti, Qurbon hayiti respublika miqyosida nishonlanib kelinmoqda, diniy jurnal va gazetalar chop etilib, televideniye va radioda diniy mavzularda maxsus ko‘rsatuv va eshittirishlar olib borilmoqda. Diniy marosimlarni tashkil etish huquqlari ta`minlangan. Shuningdek bugungi kunda davlatimiz rahbari diniy soha va islom madaniyatining rivojlanishiga katta e’tibor qaratmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yilda tashkil etilgan Islom sivilizatsiya markazi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyat yuritib, islom dini bilan bog‘liq boy tarixiy-ma’naviy merosni tizimli ravishda o‘rganish, ushbu meros asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish va uni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim rol o‘ynamoqda.

* * *

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA ISLOM ILMLARI: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

ISLAMIC SCIENCES IN THE CENTRAL ASIAN REGION — FORMATION AND DEVELOPMENT

Boltakhojayeva Izzatoy O‘lmasxo‘ja qizi,
Andijan State Technical Institute,
Andijon davlat texnika instituti.
Menejment yo‘nalishi, 3-kurs talabasi.
Email; boltaxojayeva05@gmail.com

Islom dini Markaziy Osiyoga arab musulmon qo‘shinlari tomonidan VIII asr boshlarida Umaviy xalifasi al-Valid ibn Abdulmalik (705–715) hukmronligi davrida Qutayba ibn Muslim Al-Bahiliy (669–715) — Umaviy xalifaligi qo‘mondoni olib kirilgan.

Arab qo‘shinlari dastlab Xuroson orqali kirib kelib, so‘ngra Buxoro, Samarqand, Xorazm kabi shaharlarga yetib borgan. Dastlab harbiy yurishlar va siyosiy hukmronlik o‘rnatildi. Keyinchalik savdo, ilm-ma’rifat va madaniy almashinuv orqali Islom asta-sekin mahalliy xalqlar orasida yoyildi. Mahalliy hukmdorlar boshida qarshilik ko‘rsatgan (masalan, Buxoro malikasi Qutayba qo‘shinlariga qarshi chiqqan), ammo vaqt o‘tishi bilan Islom dini keng qabul qilina boshladi. Ko‘p qarshiliklarga qaramay bu muborak Islom dini Markaziy Osiyoga keng tarqaldi va bizning mamlakatimizda ham o‘z ta’sirini o‘rkazmay qo‘ymadi. Arablar Movarounnahrda o‘rnatilgan siyosiy hokimiyatni

[359] https://constitution.uz/oz/site/search?q=vijdon%20erkinligi

mustahkamlash va uning barqarorligini ta’minlash uchun islom dinini da’vat etishga, aholi o‘rtasida islomni yoyishga alohida ahamiyat berdilar. Shu boisdan ular shu davrgacha Movarounnahrda mavjud bolgan dinlarga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Ibodatxonalar vayron etilib, ularning o ‘rniga jome masjidlari bino gilinadi. Islom dinini qabul qilib, musulmon bo‘lgan mahalliy aholi vakillari dastlabki yillarda xiroj va jiz’ya soliqlaridan ozod etilgan. Islomni qabul qilmaganlardan esa jon solig‘i - jiz‘ya undirilib olingan. Soliqlarni o‘z vaqtida to ‘lamagan kishilarning, bo‘yinlariga “qarzdor”deb yozilgan taxtacha osib qo‘yilardi. Bunday tadbir va choralar, Movarounnahr aholisi o‘rtasida islom dinining tez tarqalishiga yordam beradi. Biroq shunday bo‘lsa-da, islomni qabul qilgan aholining ko‘pchiligi nomigagina musulmon bo lib, uzoq vaqtlargacha pinhona o‘z dini va e’tiqodlariga sodiqligicha qolavergan. Xalifalik tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi oqibatida mahalliy xalqning urf-odati, dini va e’tiqodi, madaniyati poymol etildi. Mahalliy sug‘d yozuvida bitilgan diniy va ma’rifiy kitoblarni, ilmiy asarlarni va qimmatli hujjatlarni hamda sanamlarni gulxanlarda yoqib, yo‘q qilib tashlaydilar. Quvadagi budda ibodatxonasi haykallarning parchalab tashlangani, Afrosiyob saroy devorlariga solingan suratlardagi odam rasmlarining ko‘zlari o‘yilib, bo‘yinlariga qilich bilan chizib yuborilganligi bunga yaqqol misoldir.[360]

IX-XIII asr ma’naviy hayotida islom dini muhim o‘rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko‘tarilgan islom dini xalq hayotida muhim o‘rin egallaydi. Movarounnahr aholisi islom dinini qabul qilib, shariat ahkomlarini bajarishga, arab tili va yozuvini o rganishga kirishdi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko‘tardi XII asrda esa Buxoroning Darvozai Mansur mahallasida hatto qonunshunoslar uchun maxsus “Faqihlar madrasasi”qurilgan. Bunday oliy dorilfunun asosan islom dini ta’limotining asosiy manbalari: Qur’oni karim, Hadisi sharif va arab tilini mukammal o‘rganishga katta e’tibor bergan. Shariat ahkomlarini har tomonlama chuqur o‘rgatishda “Tafsir” - Quroni Karimning sharhlari juda boy va qimmatli manba hisoblangan. Fiqh fani (islom huquqshunosligi) axloq va shariat ahkomlari borasida mukammal ma’lumot beradi. Islom dini ta’limotining ravnaqi va targ‘ibotining kengayishida, ayniqsa Buxoro shahri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko‘p yetuk fiqhshunos olimlar, qozilar, imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab “Qubbat ul-islom” - “Islom dinining gumbazi” nomi bilan shubrat topadi.

Bundan tashqari xalqning ichidan ko‘plab Islom ilmlarini mukammal o‘rganish niyyatida ko‘p safarlar qilgan, tinimsiz izlangan va o‘zidan Butun Islom olamida foydasi tegadigan asarlarni mualliflari ya’ni ulug‘ shaxslar yetishib chiqa boshladi. Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda bu davrda islom ta’limotining takomili yo‘lida movarounnahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta bo‘ldi. Bu borada ayniqsa Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870-yillarda yashab ijod qilgan) va uning zamondoshi hamda shogirdi Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-894-yillar) ning hissasi nihoyatda buyukdir. Imom al-Buxoriy islom ta’limotiga oid yigirmadan ortiq asarlar yozdi. Uning birgina “Al-jome’ as-sahih”asariga 7275 hadis kiritilgan.

***Hadis** (forscha: rivoyat, naql) - Islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning faoliyati va ko‘rsatmalari haqida to‘plangan ma’lumotlar yig‘indisi.*[361]

U zotni asari nafaqat Markaziy Osiyoda balki butun Jahon Musulmonlari orasida mashhur va Islom dining muqaddas kitobi Qur’onni Karimdan keyingi o‘rinda ishonchlik kitob sifatida qaraladi va mutoala qilinadi.

Kalom ilmi ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk alloma Abu Mansur Al-Moturidiy islomiy odob qoidalari, ma’naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta’lim berishga mo‘ljallangan qator asarlar yozgan. Ulardan “Kitob at-Tavhid” (Allohning birligi) va “Ta’vilot ahl as-sunnay (Sunniylik an’analari sharhi) nomli asarlarigina saqlanib qolgan. Ularda diniy ta’limot, islomiy urf-odatlar insonning kamol topishida dunyoqarashining shakllanish mohiyati talqin etilgan.

[360] 1. Muhammadjonov Abdulahad Rahimjonovich - o‘quv qo‘llanma, “SHARQ” nashriyoti- TOSHKENT-2013, 37-38 bet.

[361] O‘zbekiston tarixi - A. Muhammadjonov: 74 - bet, Toshkent-2013.

O‘rta asrlarda musulmonlar orasida tasavvuf keng tarqaldi.

***Tasavvuf** (sufiylik) - musulmonlarni halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimni o‘zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da’vat etuvchi ta’limot.*

*** Tariqat** - tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya’ni, komil inson darajasiga erishishni ko rsatuvchi yo‘l.*[362]

Bu ta’limot dastlab VIIl asr o‘rtalarida Iroqda yuzaga kelgan. Tasavvuf ta’limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Movarounnahrning turli o‘lkalarida tasavvufning turli tariqatlari paydo bo‘ladi. Turkistonda XII asrda Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya va boshqalar vujudga keladi Movarounnahrda keng yoyilgan tasavvuf - Yassaviya tariqati bo‘lib, unga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur “Hikmat” asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqat bo‘la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to‘ldiradi va takomillashtiradi Yassaviy tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g‘oyasi olg‘a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farog‘atidan voz kechib, uzlatda toat va ibodat yo‘lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Xullas. Yassaviy tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo‘lida bo‘lmog‘i hamda tarkidunyochilik targ`ib etilsa-da, inson zoti sharif

darajasida ulug‘lanadi. Insonning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta’kidlanadi.

Tasavvuf ta`limotining buyuk siymolaridan yana biri Najmiddin Kubro (1145-1221) edi. U Xorazmda “Kubroviya” tariqatiga asos soladi. Yassaviya tariqatidan farqli o‘laroq, Kubroviya tarigati tarki dunyochilikni rad etadi. Kamolot yo‘lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne’matlaridan bahramand bo‘lishning joizligi g‘oyasi ilgari suriladi. Kubroviya tariqatida xalqqa va Vatanga bo‘lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo‘lib, har qanday og‘ir damlarda ham omma bilan birga bo‘lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da’vat etiladi.

Tasavvuf XIV asrda naqshbandiya tariqatida yanada rivoj topadi. Unga Bahouddin Naqshband asos soladi. U 1318-yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon qishlog‘ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida ta’lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bosishni puxta o‘rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan.

Xo‘ja Bahouddin “Hayotnoma” va “Dalil al-oshiqin” nomli asarlar yozib, o‘z tariqatini yaratadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo‘lishga, O‘z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo‘lishga chaqiradi. Uning “il ba yor-u dast ba kor” (Ko‘ngilAllohda bo‘lsin-u, qo‘l mehnat bilan band bo‘lsin) degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ‘ib etadi. Naqshbandiya ta’limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo‘shadilar.

Mustaqillik sharofati bilan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro singari bobokalonlarimizning aziz nomlari tiklandi, qadamjolari obod etildi. Asarlari chop etilib, ularning bebaho ma’naviy meroslaridan hozirgi avlodlar bahramand bo‘lmoqdalar. Holbuki, islomiy ta’lim-tarbiya asosida ajdodlarimiz kamol topib, o‘zlaridan o‘chmas tarixiy meros qoldirganlar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI :

1. Muhammadjonov Abdulahad Rahimjonovich - o‘quv qo‘llanma, “SHARQ” nashriyoti-TOSHKENT-2013, 37-38-73-74-81-82 bet.

* * *

[362] O‘zbekiston tarixi - A. Muhammadjonov: 82 - bet, Toshkent-2013

II BO‘LIM. MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI ILMIY-MA’NAVIY MEROSI

CHAPTER II. SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE OF CENTRAL ASIAN THINKERS

МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИГА ҚЎШГАН ХИССАСИ ТАРИХИЙ АТЛАСДА ИФОДАЛАНИШИ

REFLECTION OF THE CONTRIBUTION OF CENTRAL ASIA TO THE ISLAMIC CIVILIZATION IN THE HISTORICAL ATLAS

Агзамходжаев Саидакбар Саидович,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси
“Ислом тарихи ва манбашунослиги IRCICA”
кафедраси профессори, тарих фанлари доктори.
E-mail: saidakbar1953@gmail.com

Бугунги кунда ёш авлодни чуқур билимли, замонавий фикрлайдиган, инновацион ғояларни ўзлаштириб олган, профессионал кўникмаларга эга бўлган замонавий мутахассислар қилиб тарбиялаш бош мақсадимиз ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан қаралганда, бугун Ўзбекистонга нафақат юқори малакали мутахассислар, балки умумбашарий ва миллий мерос ҳамда қадриятларни замонавий билим ва тафаккур билан бойитишга қодир, мустақил фикр юритиб, ҳар томонлама асосланган қатъий қарорлар қабул қила оладиган баркамол ёшлар зарур. Шунинг учун ҳозир Янги Ўзбекистонда таълим жараёнида замонавий ахборот технологияларини ривожлантиришга ва инновацион ғояларни ўзлаштириб олишга катта аҳамият берилмоқда.

Маълумки Марказий Осиё – ислом дини тарқалган ўлкалардан бири. Юртимиздан чиққан алломаларнинг асарлари исломий ва дунёвий илмлар тараққиётида етакчи ўринларда бўлган. Ислом динининг вужудга келиши, ислом таълимотининг шаклланиши ва моҳияти, унинг тарқалиши, ислом дини тарқалган мамлакатлар ҳақида кенг маълумотларни халққа етказиш, бугунги куннинг асосий вазифалардан биридир. Шунингдек, ислом динининг турли асрларда қандай йўллар билан тарқалганини, Марказий Осиёнинг ислом цивилизациясига қўшган хиссасини кўргазмали воситалар, жумладан тарихий атлас орқали кўрсатиш таълим тизимининг мақсадларидан бирига айланди.

Бу мақсадга эришиш учун Ўзбекистон халқаро исломшунослик академиясининг етакчи исломшунос, диншунос, тарихчи, географ олимлари “VII-XX асрларда ислом динининг худудий тарқалиши бўйича тарихий атлас”ни яратиш бўйича махсус илмий тадқиқот олиб боришмоқда. Илмий тадқиқотни амалга оширишнинг зарурияти ва долзарблигини республикамиз аҳолисининг аксарият қисмини ташкил қилувчи ўқувчи ва талабаларда маърифий ислом ҳақидаги тасаввурларни тўғри шакллантиришда кўриш мумкин.

Шундай экан, ҳозирги давргача ислом цивилизациясининг шаклланиши тарихи ва тадрижий тараққиётини тўлақонли тарзда ўрганишда картографик усулнинг аҳамияти катта. Тарихий атласда махсус белги-моделлар, изоҳли суратларни берилиши ўтмишда содир бўлган тарихий воқеа, ҳодисаларнинг вақти тез ва осон билиб, англаб олиш имкониятини яратади.

VII-XX асрларда ислом динининг худудий тарқалиши бўйича тарихий атлас ўзбек тилида биринчи маротаба яратилмоқда. Маълумки, ислом тарихига оид харита ва атласлар Миср, Саудия Арабистони, Туркия, Россия, Англия, АҚШ, Германия ва бошқа мамлакатларда нашр этилган. Бироқ бу хариталар ўша давлатларнинг олимлари ёндашуви асосида тайёрланган. Ўзбекистонда яратилаётган хариталар эса жаҳон ва Марказий Осиёдаги тарихий жараёнларни хисобга олган ҳолда тарихийлик, объективлик ва илмийлик тамойилларига асосланиб тайёрланмоқда.

Ислом дини кириб келган юртлар, уларнинг жойлашиши ва унга оид хариталарнинг яратилишида IX асрдан жуда фаол иш юритган араб сайёҳларининг хизматлари катта бўлган. Уларнинг асарларида хариталар шаклидаги чизмалар берилмаган бўлса ҳам, мамлакатларнинг географик жойлашиши ҳақидаги маълумотлар келтирилган. Бу даврга оид муаллифларга араб олими Ҳишом ибн ал-Калбий (737–819) томонидан ёзилган “Китоб ал-асном”, “Саъдана ибн ал-Муборак” асарларини келтириш мумкин. „Китоб ал-Асном“ моҳиятан исломгача бўлган Арабистондаги бутлар ва зиёратгоҳларнинг қисқача тавсифлари рўйхати. У ҳар бир бутнинг макони ва қабиласини тасвирлайди. Баъзан Ибн ал-Калбий қўшимча маълумот ҳам бериб ўтган. Масалан, ислом даврида ўша бут қандай йўқ қилингани ҳақида ҳам айтган.

IX-X асрларга келиб том маънодаги сайёҳ-географлар гуруҳи шаклланди. Уларнинг асарларида ислом оламининг илк хариталарини яратишга уринишларини кузатиш мумкин. X асрда яшаган сайёҳ ва географ Абу Исҳоқ ал-Форисий ал-Истахрийнинг “Китаб ал-масалик вал-мамалик”, Ал-Яқубийнинг ”Китоб ал-булдан”, Ал-Масъудийнинг “Муржи-з-заҳаб” номли асарларнинг мундарижасини уларнинг издошлари Абу Зайд ал-Балҳий, Ибн Хавқаллар давом эттирганлар.

XI-XVIII асрлар оралиғида араб олимлари билан бир қаторда Марказий Осиё мамлакатларидан етишиб чиққан сайёҳ-олимларнинг географик асарлари тарихий атласларнинг яратилишига хизмат қилган. Улар жумласида Абу-Райхан Мухаммад ибн Ахмад Бируний, Маҳмуд Замахшарий, Ҳамидуллоҳ Ҳазвиний, Ибн Халдун каби турли мамлакатлардан етишиб чиққан олимларнинг илмий географик мероси муҳим аҳамиятга эга.

Ислом тарихига оид хариталарни яратишда, айниқса исломнинг ҳудудий чегараларини белгилашда Россия ва Европа мамлакатлари олимларининг асарлари ҳам муҳим роль ўйнайди. Россия шарқшунослари Василий Владимирович Бартольд, Евгений Эдуардович Бертельс, Игнатий Юлианович Крачковскийнинг бу борадаги фаолиятлари ўта аҳамиятли ҳисобланади.

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академиясида Ислом тарихига оид атласни яратиш бўйича амалга оширилаётган тадқиқотдаги маълумотларда Марказий Осиё халқларининг илғор маданий ва маънавий меросини кўрсатиш ўз ифодасини топмоқда.

Атласда ислом цивилизациясининг илмий-маърифий марказлари бўлмиш Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Хиванинг изоҳли фото суратлари, Ўзбекистон ҳудудида жойлашган тарихий обидалар, масжид, мадраса, ибодатхоналар ва савдо йўллари чизмалари кўрсатилмоқда. Шу билан бирга, Абу Исо Муҳаммад Термизий, Ахмад Фарғоний, Муҳаммад ибн Исмоил Бухорий, Муҳаммад ибн Мусо Хоразмий, Абу Али Ибн Сина, Абу Райҳон Беруний, Абу Мансур Мотуридий, Бурхониддин Марғиноний ва бошқа мусулмон оламида машҳур бўлган буюк мутафаккирлар ҳақида қисқача биографик маълумотлар берилмоқда.

Мазкур тарихий хариталарда мамлакатлар, давлат чегаралари, шаҳарлар ҳар хил рангдаги чизиқлар орқали махсус бадиий шаклларда кўрсатилади. Тарихий воқеалар тўғрисида етарли даражада маълумот берилади. Атласда тарихий воқеаларнинг ўрнини аниқлашда географик объектлар (денгиз, бўғоз ва қўлтиқлар, дарё ва кўллар ҳамда бошқалар) ўз аксини топади.

“Ислом тарихи атласи” қуйидаги даврларга бўлинган: 1.Арабистон ярим ороли исломгача; 2.Жоҳилия даврида Арабистон ярим оролидаги йирик бутлар; 3.Арабистон ярим ороли Муҳаммад (с.а.в.) ва Хулофои Рошидин двари (570-661й.); 4.Ислом Умавийлар даврида (661-750 й.); 5.Ислом Аббосийлар даврида: салжуқиларгача (750 -1075 й.); 6.Ислом Аббосийлар даврида: мўғулларгача (1075 - 1258 й.); 7.Ислом Фотимийлар, Аюбийлар, Мамлюклар даврида (1250 -1517 й.); 8.Ислом Усмонийлар даврида (1281 – 1924 й.); 9.Ислом Бобурийлар даврида ((1526-1857 й.) ; 10.Ислом Марказий Осиё хонликлари даврида.

Хулоса қилиб айтганда, Ислом тарихи атласининг амалий аҳамияти шундаки, яратилган хариталардан олий ўқув юртларида “Жаҳон тарихи”, “Ўзбекистон тарихи”, “Ислом тарихи”,

“Картография” ва умумтаълим мактабларда “Жаҳон тарихи”, “Ўзбекистон тарихи”, “Дунё динлари тарихи” фанларини ўқитишда кўргазмали ўқув воситаси сифатида фойдаланиш мумкин бўлади. Шунингдек Ислом тарихи, маданияти ва санъатини тадқиқ қилиш маркази –IRCICA билан ҳамкорликда Ўзбекистон халқаро исломшунослик академиясида ташкил этилаётган “Марказий Осиё цивилизациясида ислом тарихи, маданияти ва санъати” номли аудитория тарихий хариталар ва кўргазмали ўқув воситалари билан жиҳозланади. Бу ўқув аудиторияси Ўзбекистоннинг шонли тарихи, унинг ислом дини равнақи, шу билан бирга жаҳон илм-фан ривожига қўшган ҳиссасини ёшлар ва кенг жамоатчиликка тарғиб қилиш, ислом ва бошқа динлар қадриятларига ҳурмат билан қараш, уларни қадрлашни ўргатади.

* * *

ЎРТА АСРЛАР МАВСУАЛАРИДА БУХОРОЛИК ФАҚИҲЛАР ҲАҚИДА

ABOUT BUKHARA JURISTS IN MEDIEVAL ENCYCLOPEDIAS

З.М.Исломов
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси
профессори, фил.ф.д.

Мовароуннаҳр ўзининг бой маънавий мероси, юксак илмий салоҳиятли олимлари, йирик маданий марказлари билан ажралиб туради. Бундай ривожланган маданий ҳолатнинг юзага келишига кўплаб омиллар ўз таъсирини кўрсатган. Шунингдек, ислом илмларининг ёйилишида жуда катта омил бўлган мадраса институтининг айнан биринчилардан бўлиб Бухорода шаклланганлиги унинг инсоният тарихидаги ўрни юқори эканлигига ишора қилади. Бухоро Мовароуннаҳрнинг ўзига хос аҳамиятга молик ҳудудларидан саналади. Жумладан, минтақада ўтроқ маданий марказларнинг кўплиги, маҳаллий халқларнинг динлар ва маданиятларга бағрикенгликдаги муносабати, қадимий Буюк Ипак йўлининг мазкур минтақа маданий марказларидан мунтазам ўтганлиги ушбу ҳолатнинг нақадар муҳимлигини кўрсатади.

Ўрта асрларда илм, фан, маданият ва турли соҳаларда фаолият олиб борган олимлар ҳақидаги муҳим маълумотлар Абу Саъд Абдулкарим Самъоний (1179-1229)нинг «Китобу-л-ансоб» , Ёқут Ҳамавий (1179-1229)нинг «Иршоду-л-ариб ила маърифати-л-адиб», «Муъжаму-л-булдон», «Муъжаму-л-удабо» , Ҳожи Халифанинг «Кашфу-з-зунун» , Жамолиддин Қифтий (1167-1248)нинг «Инбоҳу-р-рувот ала анб8ои-н-нуҳот» каби юзлаб мавсуъий асарларда келтирилган. Мазкур манбаларда турли илмий марказларда шаклланган қуръоншунос, ҳадисшунос, мутакаллим, фақиҳ, тилшунос, адабиётшунос, луғатшунос ва қатор соҳаларда фаолият олиб борган олимлар ҳамда уларнинг асарлари ҳақида муҳим маълумотлар келтирилган.

Қўлёзма манбаларда ўрта асрларда яшаб ижод этган Али ибн Ҳасан ибн Али ибн Лутфуллоҳ Ҳусайний Қунужий Бухорий, Ҳошид ибн Абдуллоҳ ибн Абдулвоҳид ибн Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ибн Айман ибн Абдуллоҳ ибн Мурра ибн Аҳнаф ибн Қайс Саъдий Оғизуний, Аҳмад ибн Иброҳим ибн Абдуллоҳ ибн Асад ибн Комил ибн Холид Афшавоний каби 50 га яқин муҳаддислар, Ҳасан ибн Али ибн Лутфуллоҳ Бухорий, Иброҳим ибн Исмоил Саффор Бухорий каби мутакаллимлар, Муҳаммад Мурод ибн Али Кашмирий Бухорий Нақшбандий, Салоҳ ибн Муборак Бухорий, Муҳаммад Ашраф Мир Абу Барака Бухорий, Абдурраҳим ибн Абдуллоҳ Ромитаний Бухорий Нақшбандий каби ўнлаб мутасаввифлар, Али ибн Муҳаммад

ибн Иброҳим Бухорий Зарир, Муҳаммад ибн Абдулбоқий Бухорий Маккий, Али ибн Яҳё Бухорий Зандависий каби машҳур адабиётшунос, тилшунос олимлар ўз илмий мероси билан шуҳрат қозонган.

Абу Ҳафс Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Аҳмад Бухорий (ваф. 264/878) – ҳанафий фақиҳ бўлган. Унинг «Муқаддима» (Кириш) номли асари мавжуд .

Муҳаммад ибн Фазл Каморий Бухорий Ҳанафий (ваф.381/991). У фиқҳ илмига оид «Фавоид фи-л-фиқҳ» (Фиқҳ ҳақидаги фойдали маслаҳатлар) номли асар ёзган .

Абу Бакр Абдурраҳмон ибн Муҳаммад ибн Алавия Абҳарий – қози бўлган. Шошда қозилик қилган сўнгра Бухорога кўчиб ўтган. Маълумотларга қараганда, у Хуросондаги жабрдийдаларнинг шикоятлари билан боғлиқ ишларни бошқарган. 342/954 йилда Тошкент дарвозасининг ташқарисида вафот этган.

Абу Сулаймон Довуд ибн Муҳаммад ибн Мусо ибн Ҳорун Авданий Ҳанафий (ваф. 320/932) – фақиҳ, илм-фаннинг кўплаб соҳалари билан шуғулланган. Олим Авданада туғилган, Бухоронинг машҳур қориларидан бўлган.

Етук олимлар қаторида машҳур фақиҳлар ўз илмий мероси билан ажралиб турган. Тоҳир ибн Аҳмад ибн Абдуллоҳ Рашид Бухорий Ҳанафий Ифтихоруддин (482-542/1089-1147) бухоролик етук фақиҳлардан бўлган. Бухорода туғилган ва жумоду-л-увло ойида Сарахсда вафот этган. Олим «Хулосату-л-фатово (Фатволарнинг хулосаси), «Хизонату-л-воқиъот ва нисобу-л-фақиҳ» (Воқеалар хазинаси ва фақиҳнинг асоси) асарларининг муаллифи .

Аҳмад ибн Абдурраҳмон ибн Исҳоқ ибн Аҳмад ибн Абдуллоҳ Риғзамуний Бухорий. Олим «Қози Жамол» номи билан машҳур бўлган. Бухоронинг кўзга кўринган фақиҳ уламолари, қозиларидан бўлган. У 414/1022 йил шаввол ойида туғилган ва 493/1100 йил рамазон ойида Бухорода вафот этган. Фақиҳнинг «Ғурару-ш-шурут ва дурару-с-сумут» (Хом шартлар ва шода дурлар) номли асари мавжуд.

Аҳмад ибн Абдуллоҳ ибн Аҳмад ибн Собит Саботий Бухорий – фақиҳ ва фароиз илми бўйича етук олим. У Бағдодда таҳсил олган ва ўша ерда 447/1055 йили вафот этган. Унинг «Муҳаззиб фи-л-фароиз» (Фароиз илми бўйича тарбия берадиган китоб) номли фиқҳ илмига оид асари бор.

Абулмузаффар Абдулкарим ибн Абу Ҳанифа ибн Аббос Андақий (400-481/1009-1088) – хушсийрат, камтарин, фозил фақиҳ ва парҳезкор зоҳид бўлган. Олим 400/1009 йили туғилган ва 481/1088 йили шаъбон ойида вафот этган .

Зайнуддин Итобий Бухорий. Фақиҳ 586/1190 йили вафот этган. Унинг «Жавомиъу-л-фиқҳ» (Фиқҳ аҳкомларининг тўпламлари), «Шарҳу Жавомиъи-л-калим» («Жавомиъу-л-калим»га шарҳ), «Китобу-з-зиёдот» (Қўшимчалар китоби) каби асарлари мавжуд .

Аҳмад ибн Маҳмуд ибн Абу Бакр Собуний Бухорий Ҳанафий, Нуруддин, Абу Муҳаммад – фақиҳ ва мутакаллим олим. Фақиҳ Бухорода 580/1184 сафар ойининг 6-куни вафот этган. У тасниф қилган асарлар: «Кифоя фи-л-Ҳидоя» («Ҳидоя» ҳақида етарли маълумот берувчи китоб), «Бидоя ва-н-ниҳоя» («Ҳидоя»нинг боши ва охири), «Муғний» (Қаноатлантирувчи китоб) .

Тоҳир ибн Маҳмуд ибн Аҳмад ибн Абдулазиз Бурҳоний Бухорий Ҳанафий (ваф. 504/1110) бухоролик машҳур фақиҳ. Унинг «Фатово» (Фатволар), «Фавоид» (Фойдалар) номли асарлари етиб келган.

Абдуллоҳ ибн Масъуд ибн Маҳмуд Бухорий Маҳбубий Ҳанафий Мовароуннаҳрдаги машҳур маҳбубийлар сулоласининг йирик вакили. Олим манбаларда «Садру-ш-шариъати-л-асғару» (Кенжа Садру-ш-шариъа) номи билан аталган, етук фақиҳ ва усулшунос бўлган. Унинг «Танқиҳу-л-усул» (Усулларни иллатлардан тозалаш), «Таъдилу-л-улуми фи аҳкоми улуми-л-фиқҳия» (Фиқҳий илмлар ҳақидаги «Илмларга тузатишлар киритиш) деб номланган китоблари мавжуд .

Бурҳонуддин Ибн Моза Маҳмуд ибн Аҳмад ибн Садру-ш-шариъаи-ш-Шаҳид Бухорий машҳур фақиҳ. У шаҳид кетган «Садру-ш- шариъа» унвонли олимнинг ўғли ва у 570/1174 йили вафот этган. Унинг асарларидан: «Муҳиту-л-Бурҳоний фи-л-фиқҳ» (Фиқҳ илми ҳақида Бурҳонуддин уммони), «Захирату-л-Бурҳония фи-л-фатово» (Фатволар ҳақидаги Бурҳонуддин хазинаси), «Татиммату-л-фатово» (Фатволарга қўшимчалар), «Шарҳу-л-Жомиъи-л-кабир» («Жомиъу-л-кабир»га шарҳ) кабилар бизгача етиб келган.

Абу Саид Муҳаммад ибн Аҳмад Бухорий (ваф. 604/1207) шофиъий фақиҳ бўлган қозилардан бўлган. Олим қаламига «Мисбоҳ» (Чироқ), «Мухаллас» (Ихчам мазмун) асарлари мансуб, улар шофиъийлик фиқҳининг соҳаларини ёритишга бағишланган .

Заҳируддин Абу Бакр Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Умар Бухорий Ҳанафий (ваф.619/1222) – фақиҳ, усулшунос олим ва қозилардан бўлган. Бухорода ҳисоб-китоб ишларини бошқарган. Унинг «Фатово-з-Заҳирия» (Заҳируддин фатволари), «Фавоид ала-л-Жомиъи-с-сағир» (Ҳисомуддин қаламига мансуб «Жомиъу-с-сағир» «Кичик тўплам»ига фойдали шарҳлар) номли асарлари етиб келган.

Фахруддин Абулҳасан Али Аҳмад ибн Абдулвоҳид Мақдисий Ҳалабий (596-690/1200-1291) фақиҳ. У «Ибну-л-Бухорий» номи билан танилган. Унинг «Иснайу-л-мақосид ва аъзабу-л-маворид фи тарожими шуйухиҳи» (Имом Бухорий шайхлари ҳақидаги манбаларнинг ифодаларидан энг ёқимлиси ва мақсадларнинг энг олийси) номли асари мавжуд.

Ҳофиз Шамсуддин Абулало Маҳмуд ибн Абу Бакр ибн Абулало Калободий Бухорий Ҳанафий – фароиз илми билан шуғулланган олим. У 644/ 1247 йили Калободда туғилган ва 700/ 1301 йили Мордин шаҳрида вафот этган. Олим «Ҳаллу-л-фароиз фи шарҳи назми-с-Сирожия», «Шарҳу назми-с-Сирожия»даги фароиз илми билан боғлиқ масалаларнинг ечими», «Давъу-с-сирож фи шарҳи-с-Сирожия» (Шарҳу-с-Сирожия» ҳақидаги чироқнинг ёғдуси), «Муштабиҳу-н-насаб фи асмоъи-р-рижол» (Одамларнинг исми шарифларидаги шубҳали насаблар), «Муъжаму-ш-шуйух» (Шайхлар қомуси), «Минҳожу-л-мунтахаб мин давоъи-с-сирож» (Чироқдан таралаётган зиёлардан танланган дастур) асарларини ёзган .

Ҳусайн ибн Ҳажжож Сиғноқий Бухорий Ҳанафий – фақиҳ ва усулшунос олим. “Ҳисом” номи билан танилган. Илм талабида Бағдодга борган ва 774/1372 йил Марвда вафот этган. Унинг «Шарҳу-л-Ҳидоя фи фуруъи-л-фиқҳ» (Фиқҳ соҳалари ҳақидаги «Ҳидоя»га шарҳ), Ахсикатийнинг фиқҳ асослари ҳақидаги «Усулу-л-фиқҳ» асарига ёзилган «Шарҳу Усули-л-фиқҳ» асарлари мавжуд .

Ҳисомуддин Умар ибн Абдулазиз Бухорий (ваф. 903/1497) – фақиҳ. Олимнинг «Рисола фи-л-фиқҳ» (Фиқҳ ҳақида рисола) номли асари етиб келган.

Алоуддин Абдулазиз ибн Аҳмад ибн Муҳаммад Бухорий Ҳанафий (ваф.730/1330) – фақиҳ ва усулшунос олим. У кўплаб фиқҳий асарларнинг муаллифи. Олимнинг «Кашфу-л-асрор фи шарҳи Усули-л-Баздавий» (Паздавийнинг дин асослари ҳақидаги асарига ёзилган шарҳ билан боғлиқ сирларнинг кашф этилиши), «Таҳқиқ фи Шарҳи-л-Мунтахаб фи усули-л-мазҳаб» (Ахсикатийнинг «Шарҳул-мунтахаб фи усули-л-мазҳаб» асари ҳақида олиб борилган изланишлар), «Китобу-л-афния» (Фанолар ҳақидаги китоб), «Шарҳу-л-Ҳидоя фи фуруъи-л-фиқҳи-л-ҳанафий» (Ҳанафий фиқҳининг соҳалари ҳақидаги «Ҳидоя» асарига шарҳ) каби асарлари маълум .

Асъад ибн Юсуф ибн Али Сайрафий Бухорий Мажидуддин (ваф.1088/1677) – фақиҳ, «Фатово-с-Сайрафия» (Сайрафий тузган фатволар) номли асар муаллифи .

Атоуллоҳ ибн Муҳаммад ибн Абдуллоҳ Бухорий Ҳанафий – Шайхулислом номи билан машҳур бўлган олим. Бухорода маҳаллий уламолардан таълим олган ва етук фақиҳ бўлиб етишган. У 1213/1798 йили вафот этган. Асарлари: «Рафъу-л-ғавоши би-изоҳи татиммати-л-ҳавоший» (Ҳошияларга ёзилган қўшимчаларни изоҳлаш йўли билан шубҳаларни бартараф этиш), «Ҳошия ала татиммати-л-Қаробоғий» (Қаробоғий қўшимчасига ҳошия) .

Моваройуннаҳрлик олимлар ҳақида маълумот берувчи энциклопедик тўпламларни ўрганиш айниқса улардаги юртимиздан етишиб чиққан турли фан соҳалари бўйича баракали ижод қилган ижодкорлар ҳақидаги муҳим маълумотлар буюк алломаларимиз ва уларнинг серқирра бой меросини ўрганиш ишида нодир манбалар бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган манбалар:

1. Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома (Ал-Ансоб). Бухоро. 2017.
2. Ибн Халликон. Вафойоту-л-аъйон ва анбау абнаи-з-замон. – Миср: 1881.
3. Ёқут Ҳамавий. Муъжаму-л-булдон. – Миср. Дору-с-саодат. 1908.
4. Абдуллоҳ Абдулҳамид Саад. Мавсуат уламо Асия ал-Вуста. – Тошкент. 2007. – 956 с.
5. Ҳожи Халифа. Кашфу-з-зунун. Байрут: Дар ал-Кутуб ал-Илмия. 2008.
6. Ҳикматуллаев Ҳ., Шоисломов Ш., Ёқут Ҳамавий (Ҳаёти, ижоди ва саёҳати). Тошкент: Фан, 1965. – 131 с.

* * *

ХОЖА МУҲАММАД ПОРСОНИНГ «ФАСЛ УЛ-ХИТОБ» АСАРИДА ЗИКР ҚИЛИНГАН ТЕРМИЗЛИК ОЛИМЛАР

SCIENTISTS FROM TIRMIDH MENTIONED IN «FASL UL-KHITAB» BY KHOJA MUHAMMAD PORSO

Исмоилов Масъудхон Махдиевич,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси «Исломшунослик ва ислом цивилизациясини ўрганиш ICESCO» кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди

Дунё цивилизация маконларидан бўлмиш Ўзбекистонда туғилиб ўсган олимларнинг жаҳонга машҳур асарлари илму фан тараққиётига катта ҳисса бўлиб қўшилган. Жумладан, тасаввуф тарихида ҳам бу юртдан буюк сиймолар етишиб чиққанлар ва улар ислом олами ва умуман, инсониятга улкан бир маънавий меросни тақдим этганлар. Тариқат вакиллари – мутасаввифларнинг ибратли ҳаёти, дин ва дунё, олам ва одам, илм ва маърифат, ишқ ва муҳаббат ҳақидаги қарашлари, турли илмлар ва мавзуларга бағишланган илмий-адабий асарлари ислом тафаккури тарихида ўзига хос ўрин тутади.

Тасаввуф таълимотининг XIV аср охиридаги назариётчиларидан бири, Хожагон-нақшбандия тариқатининг йирик вакили Хожа Муҳаммад Порсо номи билан машҳур бўлган Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Маҳмуд ал-Ҳофизий ал-Бухорий (1349–1420) ҳам ана шундай улуғ сиймолардан биридир.

Хожа Муҳаммад Порсо Бухорода туғилган, мадрасаларда ўқиб, Қуръон, ҳадис, калом каби турли диний илмларни чуқур ўрганиб, замонасининг забардаст кишилардан бири бўлиб етишган ва Баҳоуддин Нақшбанддан сўнг Марказий Осиёда нақшбандия оқимининг энг йирик вакили ҳамда назариячиси сифатида машҳур бўлди. Муршидлик мартабасига етган Хожа Муҳаммад Порсо тафсир, ҳадис, тасаввуф, тарих, фиқҳ каби соҳаларда ҳам моҳир олим бўлиб, йигирмадан ортиқ асарлар ёзган[363].

[363] Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот ан айн ал-ҳаёт. ─ Тошкент, 2003. ─ Б. 85.

Порсонинг шариат ва тариқат масалаларига бағишланган ва унга катта шуҳрат келтирган асари «Фасл ул-хитоб би-вусули-л-аҳбоб» («Дўстлар висолига еташда оқ ила қорани ажратувчи китоб») номли асаридир. Асрлар бўйи ислом уламолари учун қўлланма вазифасини ўтаб келган «Фасл ул-хитоб» муаллифнинг асосий асарларидан биридир. Асар исломда баҳсли ҳисобланган ақоидий масалаларга бағишланган бўлиб, Порсо бу масалаларни турли асарларга суянган ҳолда ечиб берган. Масалаларни таҳлил қилишда муаллиф Имом Бухорий, Имом Муслим, Имом Ғаззолий, Юсуф Ҳамадоний, Абу Толиб Маккий каби қатор уламоларнинг асарларидан фойдаланган. Улар орасида термизлик алломаларнинг асарлари ҳам ўрин олган.

Жумладан, Имом Термизий, Ҳаким Термизий, Муҳаммад ибн Ҳомид ат-Термизий каби термизлик алломаларнинг илмий меросидан ҳам фойдаланган.

Имом ат-Термизий раҳимаҳуллоҳнинг ота-боболари ва ёшлик йиллари тўғрисида маълумотлар кам, манбаларда ота-боболари асли Марвдан бўлиб, Термизга кўчиб ўтишган, деб қайд қилинади. Имом ат-Термизий раҳимаҳуллоҳ: “Менинг бобом марвлик бўлиб, Лайс ибн Сайёр даврида Термизга кўчиб ўтганлар”, деган эканлар. [364]

Имом ат-Термизий раҳимаҳуллоҳ 209 ҳижрий санада таваллуд топганлар. Бу мелодий 824 йилга тўғри келади. Баъзи ривоятларда 200/815 йили ҳам дейилган. Вафотлари эса, 279 ҳижрий сана 13 ражабда бўлган. Бу мелодий 892 йили 9 октябрга тўғри келади.

Ислом оламининг буюк муҳаддисларидан бўлмиш Имом Термизийнинг асарларидан Хожа Муҳаммад Порсонинг унумли фойдаланиши табиий бир ҳол албатта.

«Фасл ул-хитоб»да Абу Исо Имом Термизий ривоят қилган ҳадислардан ташқари термизлик яна бир аллома Ҳаким Термизийдан ҳам (раҳматуллоҳи алайҳ) ҳадислар ривоят қилинган. Ҳаким Термизий раҳматуллоҳи алайҳ диёримиздан етишиб чиққан буюк олим ва авлиёлар сирасидандир. У зотнинг исмлари Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан ибн Бишр бўлиб, куниялари Абу Абдуллоҳдир. Эл орасида Ҳаким лақаби билан танилганлар. Термиз шаҳрида таваллуд топганлпр. Таваллуд топган саналари маълум эмас. Ҳижрий 320 – милодий 932 йили вафот этганлар.

Хожа Муҳаммад Порсо «Фасл ул-хитоб»нинг ҳазрат Абу Бакр разияллоҳу анҳунинг фазли борасида сўз борган қисмида Ҳаким Термизийдан қуйидагиларни нақл қилган[365]:

قال الشيخ الامام العارف الولى ابو عبد الله محمد ابن على الحكيم الترمذى رحمه الله فى قوله صلى الله عليه وسلم إني لا أدري ما بقائي فيكم فاقتدوا باللذين من بعدي (و اشار الى) أبي بكر وعمر رضى الله عنهما اخرجه الامام ابو عيسى الترمذى رحمه الله فهما رضى الله عنهما و من بمثل حالهما قد لزمت طاعتهم الخلق لان قلوبهم قد وصلت الى الله عز و جل و صارت فى القبضة و لهم الثبات من القبضة فاذا نطقوا فبالحق ينطقون و اذا حكموا بذالک الحق فبالعدل يحكمون

“Шайх Имом Ориф Валий Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али Ҳаким Термизий раҳимаҳуллоҳ Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва салламдан ривоят қилинган ***“Мен орангизда қанча қолишимни билмайман, бас мендан кейингиларга эргашинг” дея Абу Бакр ва Умарга (Аллоҳ иккисидан рози бўлсин) ишора қилдилар”*** *ҳадиси шариф борасида фикр билдирдилар. Бу ҳадисни* Имом Абу Исо ат-Термизий *раҳимаҳуллоҳ нақл қилган”.*

“Улар (Аллоҳ иккисидан рози бўлсин) ва уларнинг ҳолатида бўлган (бошлиқ) кишиларга халқнинг итоат қилмоғи лозимдир. Зеро, уларнинг қалблари Аллоҳ азза ва жаллага восил бўлиб (Унинг) тасарруфига ўтиб бўлгандир. Улар мазкур тасарруфда мустаҳкамдирлар. Шунинг учун қачон гапирсалар ҳақни айтадилар ва ана шу ҳақ ила ҳар қачон ҳукм қилсалар адолатли ҳукм қиладилар”.

Муҳаммад Порсо «Фасл ул-хитоб»нинг жуда кўп ўрнида Ҳаким Термизийни шайх, имом, ориф, валий нисбалари билан улуғлайди.

---

[364] Али ал-қори. “Жамъ ал-васоил”. 1-жилд. – Миср: Шарқия, 1900. – Б. 7.

[365] Хожа Муҳаммад Порсо. Фасл ул-хитоб. ─ Тошкент: Ғулом Ҳасан Орифжонов нашриёти. (санасиз) ─ Б. 437.

«Фасл ул-хитоб»да яна бир термизлик аллома Абу Бакр Муҳаммад ибн Ҳомид ибн Муҳаммад ибн Исмоил ибн Холид ат-Термизий ҳазратларининг сўзларидан мисоллар келтирилган. Бу зот ҳижрий III асрда аҳли сунна вал-жамоатнинг улуғ олимларидан ва сунний тасаввуфнинг йирик вакилларидан бир бўлган. У киши ҳақида Абу Абдурраҳмон ас-Сулламий бундай ёзган: “У Хуросон машойихининг атоқли вакилларидан, пок хулқли ва гўзал сиёсат соҳиби эди”. Аҳмад ибн Хазравайҳнинг шогирди бўлган. Унинг таваллуд санасини тахминан 830—840 йиллар оралиғидан излаган мақбул.[366]

Хожа Муҳаммад Порсо «Фасл ул-хитоб»нинг тасаввуф тарихи, истилоҳлари ҳақида сўз кетган бошланиш қисмида Муҳаммад ибн Ҳомид ат-Термизий ҳақида қуйидагиларни қайд этган[367]:

“Муҳаммад ибн Ҳомид ат-Термизий — Аллоҳ уни раҳмат қилсин — “ат-Табақот” китобида учинчи табақадан деб зикр қилинган. У Балхнинг илк машойихларини, жумладан, Аҳмад ибн Хазравайҳ ва ундан кейингиларни кўрган, — Аллоҳ уларни раҳмат қилсин”.

Муҳаммад ибн Ҳомид ат-Термизий ҳақида қисқача таъриф берганидан кейин Хожа Муҳаммад Порсо унинг айрим ҳикматли сўзларини ҳам нақл қилган. Масалан: “Банда ҳар доим жиноят қилишга мубталодир. Банданинг тоатларида қилган жиноятлари гуноҳларида қилган жиноятидан кўпроқдир. Чунки, гуноҳнинг жинояти биргина жиҳатдан бўлса, тоатдаги жиноятлар эса бир неча сабабдан бўлади. Аллоҳ субҳанаҳу Қиёмат кунида бандaнинг юклари енгил бўлиши учун унинг жиноятларини турли мусибатлар орқали поклаб боради. Банда ўзининг гуноҳу маъсиятлари кўплигини билгани учун ва Парвардигорининг — азза ва жалла — чексиз лутфу карамини кўргани учун, авфу мағфиратини туйгани учун унинг қайғуси ва хижолати ортаверади”.

Муҳаммад ибн Ҳомид ат-Термизий ҳақида маълумотлар кам. Айрим манбаларда у айтган ҳикматлардан айримлари келтирилган. Чунончи: “Авлиёларни менсимаслик Аллоҳ таолони яхши танимасликдандир”, “Машойихларнинг ишлари ва одобларидан рози бўлмаган кишини бирор китоб, ҳеч бир суннат тарбияла олмайди”, “Ҳар қачон қайси бир мусулмонни паст кўрсам, албатта иймонимда ва маърифатимда нуқсон топдим”, деганларини мисол тарзида келтириб ўтиш мумкин.

Нақшбандия тариқати назариётчиси Хожа Муҳаммад Порсонинг қаламига мансуб асарларни ўрганар эканмиз Хожагон-нақшбандия таълимоти ўзининг салкам 900 йиллик тарихи давомида ислом олами ва умуман, инсониятга улкан бир маънавий меросни тақдим этган алломаларимизнинг ибратли ҳаёти, дин ва дунё, олам ва одам, илм ва маърифат, ишқ ва муҳаббат ҳақидаги қарашлари, турли илмлар ва мавзуларга бағишланган илмий-адабий асарлари борасида, уман олганда, ислом тафаккури тарихи ҳақида қимматли маълумотларга эга бўламиз.

* * *

[366] С. Турсунов, Б.Муртазоев. Термизийларнинг илмий тафаккури. Тошкент: O‘zbekiston, 2016. — Б.206.
[367] Хожа Муҳаммад Порсо. Фасл ул-хитоб. (мазкур нашр) — Б. 72.

АБУ-Л-МУАЙЯД МУВАФФАҚ ИБН АҲМАД АЛ-ХОРАЗМИЙ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ

THE LIFE AND SCIENTIFIC LEGACY OF ABU'L-MUAYYAD MUWAFFAQ IBN AHMAD AL-KHWARIZMI

Матибаева Разия Балтабаевна,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
«Араб тили ва адабиёти ал-Азҳар» кафедраси проф. в.б., т.ф.д.

Абулмуайяд Муваффақ ибн Аҳмад ал-Маккий ал-Хоразмий (тахминан 1091–1172) Хоразмдан етишиб чиққан буюк олимлардан бири бўлиб, «Садру-л-аимма» ва «Хоразм хатиби» каби унвонларга сазовор бўлган. Унинг ҳаёти Ануштегинийлар даврига тўғри келади[368].

Олим «ал-Маккий» нисбасини кўп маротаба Маккага сафар қилгани ёки Хоразмда шу номли жой бўлгани учун олган бўлиши мумкин.

Ал-Хоразмий зиёли оилада туғилган ва таълим олишида отаси Аҳмад ибн Исҳоқ ва акаси Абулфараж ал-Маккийнинг ўрни катта. У ўзининг «Маноқиб Аби Ҳанифа» асарида 50 га яқин устозини ҳурмат билан тилга олган. Улар орасида Шамсу-л-аимма Абулфараж ал-Маккий ва машҳур олим аз-Замахшарий каби етук шахслар бор. Ал-Хоразмийнинг Замахшарийдан таълим олиши унинг илмий даражаси юқори бўлганини кўрсатади[369].

Ҳанафий мазҳабининг вакили бўлган Абулмуайяд ал-Хоразмий муътазила оқимига мансуб аз-Замахшарийга юксак ҳурмат билан қарайди. У Замахшарийнинг Имом Абу Ҳанифа ҳақидаги нотўғри фикрларини рад этиб, уларнинг ўзаро илмий бағрикенглигини намойиш этади[370].

Ал-Хоразмий ўз асарларида устозларидан ривоятлар келтиради. Хусусан, Абдулҳамид ибн Микоил ал-Баротқиний орқали Бухоро олимларининг Абу Ҳанифага ҳурматини кўрсатади. Устози Абулфадл ал-Кирмонийдан ривоят қилинган ҳикояда эса Абу Ҳанифанинг юксак сабот ва таваккул эгаси бўлгани таъкидланади.

Тадқиқ этилаётган даврда Самарқанд Мовароуннаҳрнинг йирик маданият марказларидан бири бўлган. Шу сабабли ал-Хоразмийнинг фаолияти ушбу шаҳар илмий муҳити билан бевосита боғлиқ ҳолда ривожланган. Унинг Абу Ҳафс ан-Насафий билан илмий алоқалари минтақадаги умумий илмий-маънавий ҳолатдан бохабар бўлганидан дарак беради.

Ал-Хоразмий Абу Ҳафс ан-Насафийдан тафсир, ҳадис, фиқҳ, калом, адаб ва назм соҳалари бўйича кўп билим олган. Ушбу йўналишларга оид асарлар ёзган ал-Хоразмийнинг бадиий билими «Маноқиб» асарида шеърий парчалардан фойдаланганида ҳам кўринади.

Олим ислом оламининг йирик илм марказлари — Бағдод, Куфа, Ҳижоз, Ҳамадон ва Журжонда бўлиб, у ердаги кўплаб олимлардан ривоятлар эшитган.

Бағдодда ал-Хоразмий ишончли муҳаддис шайх Абу Бакр Муҳаммад ибн Убайдуллоҳ аз-Зоғуниийдан Абу Ҳанифанинг ўз эътиқоди йўлида синовларга бардош бергани ҳақидаги

[368] Абу-л-Муайяд ал-Маккий ал-Хоразмий. Маноқиб Аби Ҳанифа. – Байрут: Дору-л-кутуб ал-илмия, 1981. – Б. 7.

[369] Абду-л-Қодир ал-Қураший. Ал-Жавоҳир ал-мудия фи табақоти-л-ҳанафия. 6 Жилдли. – Қоҳира: Ҳижр, 1993. – Б. 262.

[370] Абу-л-Муайяд ал-Маккий ал-Хоразмий. Маноқиб Аби Ҳанифа. – Байрут: Дору-л-кутуб ал-илмия, 1981. – Б. 257.

ривоятни келтиради. Шунингдек, у Ғазна шаҳридан бўлган Имом Бурҳонуддин Абулҳасан Али ибн Ҳусайн ал-Ғазнавийдан Абу Ҳанифанинг «Умматнинг чироғи» экани ҳақидаги ҳадисни ривоят қилади[371]. Ал-Хоразмий ал-Ғазнавийдан олган маълумотларини асарнинг 17 жойида келтириб, улар орқали Абу Ҳанифанинг тобиийлардан бўлганини исботлашга ҳаракат қилади.

Бағдодда ал-Хатиб ал-Бағдодийнинг «Тарих Бағдод» асаридаги маълумотларни олимга ишончли (сиқа) муҳаддис шайх Имом Абу-л-Маолий Фадл ибн Саҳл ал-Исфароиний ал-Ҳалабий етказган. Ал-Хоразмий бу олимдан ўз асарида 30 га яқин ерда ал-Хатиб ал-Бағдодий ривоятларини келтиради. Шунингдек, ал-Хоразмий Абу-л-Фадл Ҳофиз Муҳаммад ибн Носир ас-Саломийдан ўнга яқин ерда Бағдодда олган маълумотларини келтиради.

Абулмуайяд ал-Хоразмий сафарлари давомида Хуросоннинг бир қатор шаҳарларида, жумладан, Ҳамадонда бўлган ва у ердаги олимлар билан илмий алоқалар ўрнатган. Ҳамадонда у Абу Мансур Шаҳрдор ибн Ширвайҳ ад-Дайламий ва Садру-л-Ҳуффоз Ҳасан ибн Аҳмад Абу-л-Алоъ ал-Ҳамадоний каби устозлардан ривоятлар олган. Ушбу ривоятлардан бирида Абу Ҳанифанинг илмга бўлган садоқати ва шогирди Абу Юсуф ҳақидаги доно сўзлари келтирилади. Ал-Хоразмий Ҳамадонлик олимлардан олган маълумотларини рисолалар орқали ҳам бойитган. Масалан, Қозиу-л-қузот Нажмуддин Абу Мансур ал-Бағдодий ва Имом Ҳофиз Абу-н-Нажиб Саид ал-Марвазий каби олимлар билан хат ёзишмалар олиб борган. Шофеъий мазҳабида бўлган ал-Марвазийнинг Абу Ҳанифа фазилатларини мақтаб айтган ривоятлари алоҳида аҳамиятга эга.

Олим шунингдек, Райй шаҳрида бўлиб, у ердаги қозилар қозиси Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Ҳасан ал-Астрободийдан Имом Абу Ҳанифанинг ҳадислари ва шогирдлари ҳақида маълумотлар олган. Ал-Астрободийнинг оилавий қозилар сулоласидан эканлиги, ушбу олимнинг ривоятларига алоҳида ишонч бахш этади.

Ал-Хоразмий Мовароуннаҳрдаги илмий марказлар — Самарқанд, Бухоро, Насафдаги олимлар билан ҳам фаол ёзишмалар олиб борган. У Бухоролик олим Абу Ҳафс Умар ибн Бакр аз-Заранжарийдан ҳам қимматли маълумотлар олган ва уни «ал-Имом ал-Асил» деб улуғлаган. Аз-Заранжарий ривоятларида ҳанафийлик ва шофеъийлик ўртасидаги илмий баҳслар акс этган[372].

Ал-Хоразмийнинг «Маноқиб» асарида муҳаддис Абу Саъд ас-Самъонийнинг номи 10 дан ортиқ жойда ҳурмат билан тилга олинган. Бироқ, ас-Самъоний ўзининг «ал-Ансоб» асарида ал-Хоразмий ҳақида маълумот келтирмаган. Бу ҳолат ислом оламининг асосий марказлари (Ҳижоз ва Бағдод)га қаратилган эътибор ва ас-Самъонийнинг асосан саҳиҳ ҳадислар ривоятчиларига эътибор қаратгани билан изоҳланади. Ал-Хоразмий тўплаган баъзи ривоятлар саҳиҳ ҳадис тўпламларида учрамайди[373].

Абулмуайяд ал-Хоразмий Мовароуннаҳр, Хуросон, Ироқ ва Ҳижозга қилган сафарлари давомида кўплаб олимлар билан мулоқотда бўлиб, улардан илм ва ривоятлар ўрганган, шунингдек, ал-Хатиб ал-Бағдодийнинг «Тарих Бағдод» асари каби манбалардан кенг фойдаланган.

Хоразмий фиқҳ, адабиёт ва тилшунослик бўйича кўплаб шогирдларга устозлик қилган. Улар орасида энг таниқлиси Носир ибн Абулмакорим ал-Мутарризийдир (ваф. 1213 й.). Ал-Мутарризий отасидан, сўнгра Хоразмий ва аз-Замахшарийдан таълим олган. У фиқҳ, тилшунослик ва араб тили бўйича етук олим бўлиб, «ал-Муғриб», «ал-Изоҳ», «ал-Мисбоҳ»

---

[371] Абу-л-Муайяд ал-Маккий ал-Хоразмий. Маноқиб Аби Ханифа. – Байрут: Дору-л-кутуб ал-илмия, 1981. – Б. 15, 29, 37.

[372] Абу-л-Муайяд ал-Маккий ал-Хоразмий. Маноқиб Аби Ханифа. – Байрут: Дору-л-кутуб ал-илмия, 1981 – Б. 192, 275.

[373] Абу-л-Муайяд ал-Маккий ал-Хоразмий. Маноқиб Аби Ханифа. – Байрут: Дору-л-кутуб ал-илмия, 1981. – Б. 27.

каби машҳур асарлар муаллифидир. Дастлаб мўътазилий мазҳабида бўлган, кейинчалик ҳанафий мазҳабини қабул қилган[374].

Хулоса қилиб айтганда, Абулмуайяд ал-Хоразмий ўз замонасининг етук олимларидан билим олиб, ижтимоий-диний ихтилофларга қарши ҳанафий мазҳаби тамойилларини тиклашга интилган. У Хоразмни Мовароуннаҳр, Макка ва Бағдод каби йирик илм марказлари билан боғловчи уламолар сулоласининг вакили сифатида Имом Аъзам Абу Ҳанифа сиймосини диний ва дунёвий илмларни мукаммал эгаллаган инсон сифатида намоён этган.

Олим «Маноқиб Аби Ҳанифа» асарида Абу Ҳанифанинг ҳаёти ва илмий фаолиятини кенг қамровли далиллар асосида ёритиб берган. Ушбу асар нафақат Абу Ҳанифанинг илмий меросини, балки унинг фиқҳий фатволарининг илмий асосларга эга эканини исботлаган. Шунингдек, у Абу Ҳанифага нисбатан билдирилган нохолис муносабатларга асосли раддиялар келтириб, ҳанафийлик мазҳабининг мавқеини мустаҳкамлаган.

Асар маҳаллий анъаналар ва бағрикенгликка асосланган ҳанафийликнинг Хоразмда мустаҳкам ўрнашишига хизмат қилган. Хоразмшоҳ Абулмузаффар Отсиз даврида бу мазҳабнинг кенгайиши Абулмуайяд ал-Хоразмий каби олимларнинг саъй-ҳаракатлари билан узвий боғлиқдир. Унинг «Маноқиб Аби Ҳанифа» асари диний экстремизм ва мутаассибликка қарши курашда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ёшлар орасида бағрикенглик маданиятини шакллантиришда ҳам муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

* * *

МАНБАЛАРДА САМАРҚАНДЛИК БУЮК МУҲАДДИС ҲАЁТИ

THE LIFE OF THE GREAT HADITH SCHOLAR FROM SAMARKAND IN HISTORICAL SOURCES

Маҳфуза Алимова,
ЎзХИА доценти, т.ф.н.

IX асрда Самарқанд нафақат Мовароуннаҳрнинг, балки умуман ислом оламининг илмий марказларидан бирига айланди. Турли ўлкалардан илм талабида олимлар келиб, ўзлари учун керакли илмларни олишга интилганлар. Олимлардан айримлари ўз юртларига қайтсалар, бошқалари шаҳарда бутунлай яшаб қолиб, ўз мактабларига асос солганлар. Мазкур шаҳарда буюк муҳаддис Абу Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Абдурраҳмон ибн ал-Фазл ибн Баҳром ибн Абдуссамад ат-Тамимий ас-Самарқандий ад-Доримий ҳижрий 181 (милодий 798) йилда таваллуд топган. Худди шу йили Абдуллоҳ ибн Ҳумайд Самарқандга волий бўлиб келган, айни ўша йили йирик муҳаддис Абдуллоҳ ибн ал-Муборак ал-Марвазий вафот этган. Манбаларда шу икки тарихий воқеа сабаб Имом ад-Доримийга “Абдуллоҳ” деб исм қўйилганлиги қайд этилади .

Абу Тоҳирхожа “Самария” асарида Имом ад-Доримий ҳақида “...У ҳадис айтувчилардан. Шавдор туманига қарашли Испаний қишлоғидадир. У Самарқанд музофотидан бўлган, бурунларда Дорам деб аталадиган қишлоқдан бўлгани учун Дорамий деб донг чиқарган.... Дорамийнинг таржимаи ҳоли белгилик эмас...” каби мазмундаги маълумотни келтиради . Бунда Абу Тоҳирхожа унинг нисбасини “Дорам” деб номланган жой номи билан боғлайди.

[374] Абду-л-Қодир ал-Қураший. Ал-Жавоҳир ал-мудия фи табақоти-л-ҳанафия. 6 Жилдли. – Қоҳира: Ҳижр, 1993. – Т. 3.– Б. 528.

Барча манбаларда Имом ад-Доримий ёшлик чоғлариданоқ ақл-заковати, ўткир зеҳни, айниқса, эслаб қолиш қобилиятининг ўта кучлилиги билан барчани ҳайратга солганлиги айтиб ўтилган. Шунингдек, унинг яқинлари, қариндошлари илм аҳлларидан бўлганлиги таъкидланади. Жумладан, тоғаси Абу Усома Аҳмад ибн Муовия ҳадис ровийларидан бўлиб, унинг шогирди Абу Шуайб Исмоил ибн Махлад ал-Баррод ас-Самарқандий ҳақида Самъоний хабар берган . Абу Хафс ан-Насафий қайд этишича, Имом ад-Доримий акасининг ўғли Абу Аҳмад ал-Фазл ибн Муҳаммад ад-Доримий Муҳаммад ибн Исҳоқдан ҳадислар ривоят қилган . Имом ад-Доримий дастлабки илмларини ўз юрти Самарқандда олган. Сўнгра ўша даврда илм-фан ва маданият тараққий қилган марказлардан Фустот (Қоҳира), Дамашқ, Бағдод, Макка, Мадина, шунингдек Хуросоннинг турли шаҳарларидаги таниқли олимлардан диний ва дунёвий илмлар, айниқса, ҳадис илми бўйича ўз билимларини оширган .

Имом Доримий ҳам ҳаётининг асосий қисмини илм талабида сафар қилиш билан ўтказган олимлар сирасига кирган. У сафарлари давомида ҳадисларни эшитиб, жамлаш билан чекланмай, ҳадис иснодларининг олий, муттасил (узлуксиз), ундаги ровийларнинг сони кам бўлишига ҳам катта эътибор қаратган. Аллома илмий сафарларини Хуросон шаҳарларидан бошлайди. Жумладан, машҳур ҳофиз Назр ибн Шумайлдан (ваф. 203/818 й.) Марв шаҳрида ҳадис илмидан сабоқ олиб, кўплаб ҳадислар тинглайди. Сўнгра Имом Доримий Ироқ шаҳарларида бир қанча устозлар қўлида таҳсил олади. Жумладан, муҳаддис тахминан 17-18 ёшларида Басра шаҳрида бўлиб, турли ровийлардан ҳадис тинглайди. Хусусан, басралик Равҳ ибн Асламдан (ваф. 200/815 й.) ҳадислар эшитади. Кейин эса Ироқнинг Бағдод, Восит, Куфа, Ҳийт каби шаҳарларида бўлиб, ўз даврининг кўпдан-кўп етук муҳаддисларидан ҳадис илмини ўрганади. Имом Доримий ўзининг “Сунан” асарида 250 дан ортиқ шайх-устозлардан ҳадис ривоят қилган. Устозларининг асосий қисмини Куфа, Басра, Бағдод каби шаҳарлардан чиққан ровийлар ташкил этади.

Шунингдек, муҳаддис илмий сафарларини Шомнинг ўрта асрларда машҳур бўлган Ҳумс, Дамашқ, Табария, Қайсория каби шаҳарларида давом эттиради. Сўнгра эса Макка ва Мадинага етиб бориб, у ерда бир муддат илм олиш ва истиқомат қилишга муяссар бўлади.

Имом Доримий тахминан 40 ёшларида ҳаж ибодатини амалга оширади, сафар чоғида ҳам ўзининг китоблари устида тинмай изланишлар олиб боради. Аллома араб халифалигининг кўп шаҳарларида ўз билимларини ошириб, ниҳоят ўз Ватани - Самарқандга қайтиб келади. Ўз даврининг илм аҳллари ўртасида обрў эътиборга эга бўлган Имом Доримий бир қанча муддат Самарқандда Шайхул-ислом лавозимида ҳам фаолият кўрсатди.

Имом Доримий мамлакат ижтимоий-маданий ҳаётида фаол иштирок этгани ва Пайғамбар (с.а.в.) ҳадисларини шариат қонунларининг иккинчи манбаси сифатида эътироф этилишида катта ҳисса қўшгани эътиборга олиниб, аҳли ҳадис уламоларидан бўлишига қарамай, Бош қози лавозимига лойиқ деб топилган. Алломага умрининг охирги йилларида Бош қози лавозими таклиф қилиниши ва унга қозилик ёрлиғи юборилиши ҳақида Нажмуддин Умар Насафий ўзининг “Китаб ал-қанд фи зикри уламои Самарқанд” асарида қуйидаги маълумотни келтиради: “...у табиатан вазмин, адолатпарвар ва ҳақиқатгўй, инсоф ва диёнати баркамол, ҳар қандай вазиятда ақл-идрок, чуқур тафаккур ва мулоҳаза билан иш юритгани боис ҳоким томонидан Самарқанднинг қози калони (бош қозиси) лавозимига таклиф қилинади. Аллома аввалига рад жавобини берса ҳам, лекин ҳоким ўз фикрида қатъий туриб олгач, рози бўлади. Бироқ қозихонада атиги битта иш кўрилгач, у ўзини ушбу лавозимдан озод этишларини илтимос қилади. Унинг илтимоси қондирилади ва истеъфога чиқарилиб, халифа Муътазз биллоҳдан қозилик ёрлиғини (“Китоб ул-Қазо”) юборади”. Имом Доримийнинг илм олишга бўлган чексиз муҳаббати ҳамда шаҳарнинг Бош қозиси лавозими катта масъулиятни талаб этишини англагани уни рад қилишига сабаб бўлган.

Ал-Хатиб ал-Бағдодийнинг шаҳарлар ва олимлар тарихига бағишланган ва бошқа биографик қомусий асарлардан ўзининг турли маълумотларга бойлиги, аниқ далилларни келтириб ўтиши, ҳар бир маълумотни келтиришда ривоятчиларнинг тўлиқ силсиласини зикр қилиши билан ажралиб турадиган “Бағдод тарихи” асарида Имом ад-Доримийнинг ҳаёти, ижоди, устоз ва шогирдлари ҳақида кўплаб маълумотлар келтирилган. Ушбу маълумотларга кўра, Имом ад-Доримий ҳаж сафари давомида Куфада тўхтаб, Яҳё ибн Абдулҳамид ал-Ҳаммоний (ваф. 842 й.) ва бошқа муҳаддислар билан суҳбатда бўлган. Суҳбатлар кўп ҳолларда баҳс-мунозараларга айланиб, ҳадис ровийлари, иснодларнинг ишончлилиги устида тортишувлар бўлиб ўтган . Натижада, Имом ад-Доримий Яҳё ал-Ҳаммонийнинг адолатли, ишончли ровийлигига шубҳаланиб, ўзи ундан ҳадис ривоят қилмаган, бошқаларга ҳам ундан ҳадис олишни маслаҳат бермаган. Жумладан, Абдуссамад ибн Сулаймон ал-Балхий (ваф. 860 й.) буюк муҳаддис Аҳмад ибн Ҳанбал ҳам Имом ад-Доримийни “Имом” деб улуғлагани ва унинг сўзига таянган ҳолда Яҳё ал-Ҳаммонийдан ҳадис қабул қилиб олмаганини таъкидлайди. Ана шу ҳолат Имом ад-Доримийнинг ровийлар борасида билими, унинг мавқеи юқори бўлганлигидан дарак беради. Бошқа томондан ал-Хатиб ал-Бағдодий келтирган маълумотлардаги суҳбатдошларнинг ҳаёт йилларини аниқлаш орқали Имом ад-Доримий тахминан 40 ёшларида ҳаж сафарига боргани, сафар чоғида ҳам ҳадислар жамлаш устида тинмай изланган борасидаги хулосага келиш мумкин.

Илм йўлида узоқ йиллар олиб борган тинимсиз саъй-ҳаракатлари ва изланишлари натижасида Имом ад-Доримий ҳадис, тафсир ва фиқҳ илмларининг алломаси даражасига кўтарилди ва йирик ҳадисшунос сифатида катта шуҳрат қозонди. У ҳақида ёзилган манбаларда аксарият муаллифлар “Имом ад-Доримийнинг Самарқандда ҳадис ва осор илмларининг равнақ топишида улкан ҳиссаси бор”, деб якдиллик билан таъкидлаганлар. Ўз даврининг илм аҳллари ўртасида обрў эътиборга эга бўлган Имом ад-Доримий бир қанча муддат Самарқандда Шайхул-ислом лавозимида ҳам фаолият кўрсатган. Шунингдек, ан-Насафийнинг таъкидлашича, “... у табиатан вазмин, адолатпарвар ва ҳақиқатгўй, инсоф ва диёнати баркамол, ҳар қандай вазиятда ақл-идрок, чуқур тафаккур ва мулоҳаза билан иш юритгани боис ҳоким томонидан Самарқанднинг Бош қозиси лавозимига таклиф қилинади. Аллома аввалига рад жавобини берса ҳам, лекин ҳоким ўз фикрида қатъий туриб олгач, рози бўлади. Бироқ қозихонада атиги битта иш кўрилгач, у ўзини ушбу лавозимдан озод этишларини илтимос қилади. Унинг илтимоси қондирилиб, истеъфога чиқарилган бўлсада, халифа ал-Муътазз Биллоҳдан қозилик ёрлиғини (“Китоб ул-Қазо”- كتاب القضاء) олган” . Халифа ал-Муътазз Биллоҳ 866-869 йиллар ҳукмронлик қилгани маълум . Шундай экан, Имом ад-Доримийнинг бош қози лавозимига таклиф қилиниши ва унга юборилган ёрлиқ умрининг охирги йилларида рўй берганлиги аён бўлади.

Ал-Хатиб ал-Бағдодий ўз асарида Имом ад-Доримийнинг вафоти ҳақида икки хил маълумотни келтиради. У дастлаб Аҳмад ибн Иброҳим ас-Самарқандийнинг Имом ад-Доримий ҳижрий 250 йилда вафот этганлиги ҳақидаги маълумотини келтириб, уни нотўғри деб кўрсатади. Сўнгра Муҳаммад ибн Саййорнинг: “... у 255 йили 75 ёшида Тарвия куни асрдан сўнг вафот этиб, арафа [жума] куни дафн этилган” мазмундаги маълумотни бериб, уни тўғри деб айтади . Ал-Хатиб ал-Бағдодийнинг охирги маълумоти бошқа манбалардагилар билан мос келади. Жумладан, Нажмидин Умар ан-Насафий ҳам Имом ад-Доримий 75 йил яшаган, ҳижрий 255 йили аср намозидан кейин Тарвия куни вафот этган ва Арафа (жума) куни Чокардиза қабристонига дафн қилинган ва унга Самарқанд амири Аҳмад ибн Яҳё ибн Асад жаноза ўқиган”, деб зикр этади . Ушбу сана милодий ҳисобда 869 йил 18 ноябрь кунига тўғри келади .

Имом ад-Доримийнинг дафн этилган жойлари ҳақида ҳозирда турли хил фикрлар мавжуд. Зикр этилганидек, Нажмиддин Умар ан-Насафий Имом ад-Доримий Чокардиза

қабристонига дафн қилингани борасида маълумот берган бўлса, Шамсиддин аз-Заҳабий “Ислом тарихи” асарида олимнинг укаси Иброҳим ибн Абдураҳмон ад-Доримий (ваф. 880 й.)нинг Самарқандда вафот этганлиги ҳамда акасининг ёнига дафн қилинганлигини қайд этади. Абу Тоҳирхожанинг «Самария» китобида эса Имом ад-Доримийнинг қабри Шавдор туманидаги Испаний (ҳозирги Испандий) қишлоғида, Самарқанд шаҳри билан мазорнинг ораси 11 чақиримча йўл, деб келтирилади . Шу билан бирга, айрим турк ва араб тадқиқотчиларининг китобларида муҳаддис Хуросоннинг Марв шаҳрида дафн қилинганлиги таъкидланади . Бу фикрни шунингдек, Ш.Бобохонов ҳам қўллайди ва Имом ад-Доримийни Марвда вафот этиб, ўша ерга дафн қилинганлиги ҳақида маълумот беради . Эҳтиром юзасидан Имом ад-Доримийнинг жанозасини Самарқанд амирининг шахсан ўзи ўқиганлиги ҳамда укасининг дафн этилган жойи ҳақидаги маълумотлар олимнинг қабри Самарқанд яқинида эканлигига далолат қилади. Мустақиллик йилларида дастлаб 2000-йилда Самарқанд вилояти, Тойлоқ тумани, Испандий қишлоғида Имом ад-Доримий мақбараси ва Жоме‘ масжид таъмирланиб обод қилинган бўлса, охирги йилларда яна буюк муҳаддиснинг мақбараларига эътибор қаратилиб, қайта таъмирланиб, катта масжид қуриш ишлари давом этмоқда.

* * *

САЪДУДДИН ТАФТАЗОНИЙ “ШАРҲ АЛ-АҚОИД АН-НАСАФИЯ” АСАРИНИНГ ЎЗР ФА ШИ ФОНДИДАГИ ҚЎЛЁЗМА НУСХАЛАРИ КОДИКОЛОГИЯСИ

CODICOLOGY OF MANUSCRIPT COPIES OF SA’D AL-DIN AL-TAFTAZANI’S SHARH AL-AQA’ID AL-NASAFIYYA IN THE COLLECTION OF THE INSTITUTE OF ORIENTAL STUDIES, ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Палванов Ўктам Базарбаевич
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси
Исломшунослик ва ислом цивилизациясини ўрганиш
ICESCO кафедраси доценти, т.ф. PhD

Темурийлар даврининг етук олимларидан бири Саъдуддин Тафтазоний ҳисобланади. Унинг тўлиқ исми – Масъуд ибн Қози Фахруддин Умар ибн Мавло Азим Бурҳонуддин Абдуллоҳ ибн Имом Раббоний Шамсулҳаққ Шамсуддин Қорий Самарқандий Ҳаравий Тафтазоний Хуросоний Ҳанафийдир[375]. Тафтазоний наҳв, сарф, маоний, баён, усул ал-фиқҳ ва фуруъ ал-фиқҳ (ҳанафий, моликий ва шофиий), мантиқ, ақида, тафсир ҳамда бошқа соҳалар бўйича мутабар аллома сифатида танилган[376].

Манбашунослик нуқтаи назаридан муайян ёзма манба қўлёзмаларининг кўп нусхада сақланиб қолгани, бир томондан, унинг кенг миқёсда қўлланилганидан далолат берса, иккинчи томондан, мазкур асарнинг ўз йўналишида муҳим илмий аҳамият касб этганини кўрсатади. Бу ҳолатни Саъдуддин Тафтазонийнинг калом илмига оид асарлари мисолида ҳам кузатиш мумкин. Шубҳасиз, бундай илмий нуфуз алломанинг юксак салоҳияти ва илмий мероси

[375] Жамолуддин Юсуф ибн Туғро Барда. Ал-Манҳал ас-софий. – Ж. XI. – Б. 241; Жамолуддин Юсуф ибн Туғро Барда. Ад-Далил аш-шофий. – Ж. II. – Б. 734; Тақиййуддин Аҳмад Макризий. Дурар ал-Укуд ал-фарида. – Ж. III. – Б. 471.
[376] Исомуддин Аҳмад Тошкўпризода. Мифтоҳ ас-саода. – Ж. I. – Б. 190.

билан боғлиқдир. Шу боис мазкур асарларни илмий жиҳатдан ўрганиш муҳим ва мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Бугунги кунда Саъдуддин Тафтазонийнинг ақоид илмига оид олтита асари аниқланган бўлиб, улар услубий жиҳатдан икки турга – "матн" ва "шарҳ"га бўлинади. Хусусан, олимнинг "Шарҳ ал-Ақоид" ва "Шарҳ ал-Мақосид" асарлари шарҳ услубида, "Мақосид ат-толибин" ва "Ғояту таҳзиб ал-калом" асарлари эса матн услубида ёзилган. Бироқ тадқиқот жараёнида "Рисола фи таҳқиқ ал-имон" ҳамда "ар-Рисола фи ал-калом" асарларининг нусхалари аниқланмади.

Бир мутафаккирнинг бир вақтнинг ўзида бир йўналишга оид олтита асар яратишига ундаган омилларни ўрганиш, аввалambор, ўша даврдаги мотуридия таълимотининг ҳолати ва долзарб ақидавий масалаларни англашда муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, мазкур китобларнинг таркибий тузилишини қиёсий таҳлил этиш орқали уларнинг манбавий асослари, ўхшаш ва фарқли жиҳатларини аниқлаш мумкин.

Бу асарлар яратилган вақтдан бошлаб олимлар ва илм аҳли эътибор марказида бўлиб келган ва кенг жамоатчиликка ислом ақидасини тўғри англаш ҳамда шарҳлашда муҳим манба сифатида хизмат қилган. Шу билан бирга, мазкур асарлар дунёнинг турли минтақаларидаги ислом таълим муассасаларида бугунги кунгача асосий дарслик сифатида қўлланиб келинмоқда. Бу ҳақда машҳур француз шарқшуноси профессор К. Джиллиот ҳам алоҳида таъкидлаган[377]. Айнан шу омиллар туфайли ушбу асарларнинг қўлёзма нусхалари жаҳоннинг турли кутубхоналарида кенг тарқалган бўлиб, матбаа ихтиросидан то ҳозирги вақтгача мунтазам нашр этилиб келинмоқда.

Саъдуддин Тафтазонийнинг ақоид илмидаги биринчи асари "Шарҳ ал-Ақоид" бўлиб, у ҳанафий мазҳабининг йирик олимларидан бири Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад Насафий Самарқандий (461-537/1068-1142) нинг[378] "ал-Ақоид" номли рисоласига ёзилган шарҳ ҳисобланади. Китобнинг ЎзР ФА ШИ Асосий фондида 89 та қўлёзмаси сақланаётгани аниқланиб, улардан нисбатан қадимийлари ушбу бандга киритилди:

Саъдуддин Тафтазонийнинг ақоид илмига оид илк асари "Шарҳ ал-Ақоид" бўлиб, у ҳанафий мазҳабининг етук намояндаларидан бири Абу Ҳафс Умар ибн Муҳаммад ан-Насафий ас-Самарқандий (461-537/1068-1142)нинг[379] "ал-Ақоид" номли рисоласига ёзилган шарҳ ҳисобланади.

Тадқиқот жараёнида мазкур асарнинг Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Шарқшунослик институти Асосий фондида 89 та қўлёзма нусхаси мавжудлиги қайд аниқди. Ушбу қўлёзмалар орасида нисбатан қадимийлари илмий таҳлил учун алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, мазкур бандда улар тўғрисида маълумот келтирилади.

Биринчи нусха[380]. Ушбу қўлёзма ЎзР ФА ШИ Асосий фондида 4111/I рақам билан сақланмоқда. У мажмуадаги биринчи асар бўлиб, кейингиси Аҳмад ибн Мусо Хаёлийнинг ушбу асарга ёзган машҳур ҳошиясидир.

Унда муаллиф исми берилмаган бўлса-да, 57[б] варақда асар номи "Китоб Шарҳ ал-Ақоид" деб келтирилган. Мажмуа жами 98 варақдан иборат бўлиб, шундан "Шарҳ ал-Ақоид" 56 варақ (2[б]-57[б]) ни ташкил этади. Варақ ўлчами 12×18,5 см, матн ўлчами 6,5×11,5 см ва ҳар бир варақда сатрлар сони 17 та. У шарқ қоғозига настаълиқ хатида кўчирилган бўлиб, шарҳланаётган

[377] Gilliot C. Theology // History of civilization of Central Asia. – Quetigny: Imprimerie darantiere, 2000. – V. IV. – P. II. – pp. 128-129.

[378] Раҳимжонов Д. Абу Ҳафс Насафий / масъул муҳаррир З.Исломов. – Т.: "Тошкент ислом университети" нашрёт-матбаа бирлашмаси, 2010. – Б. 9.

[379] Раҳимжонов Д. Абу Ҳафс Насафий / масъул муҳаррир З.Исломов. – Т.: "Тошкент ислом университети" нашрёт-матбаа бирлашмаси, 2010. – Б. 9.

[380] Саъдуддин Тафтазоний. Шарҳ ал-Ақоид ан-насафия. – Т.: ЎзРФАШИ Асосий фонди. – Қўлёзма. – № 4111/I.

сўзлар, жумлалар тепасига қизил ҳамда қора чизиқлар чизиш орқали ажратиб кўрсатилган. Шунингдек, баъзи ўринларда асосий матн тепасига қора ёки қизил чизиқ белги сифатида чизилиб, унга ҳошияда форс, араб тилларида изоҳ ва қўшимчалар ёзилган. Асосий матн ва ҳошиядаги ёзув хати бир хил. Матн кўк рангли жадвалга олинган. Саҳифалар пойгирланган. Унинг қачон ва қаерда кўчирилгани баён этилмаган. Лекин Шарқшунослик институти Шарқ қўлёзмалари тўпламида тахминан Ҳиротда IX/XV асрда кўчирилгани кўрсатиб ўтилган[381]. Муқоваси қалин картондан ишланган бўлиб, у қора, тўқ сариқ, яшил рангларга бўялган ва унга учта тамға босиб безак берилган.

Асар боши:

بسم الله الرحمن الرحيم الحمد لله المتوحد بجلال ذاته وكمال صفاته المقدس في نعوت الجبروت عن شوائب النقص وسماته والصلوة على نبيه محمد المؤيد بساطع حججه وواضح بيناته وعلى آله وأصحابه هداة طريق الحق وحماته وبعد...

Таржимаси. Меҳрибон ва раҳмли Аллоҳ номи билан бошлайман. Ўз зотида улуғлиги ва сифатларининг комиллиги билан ягона бўлган, улуғлик сифатларида нуқсонлик аломат ва белгиларидан пок бўлган Зот – Аллоҳга ҳамд бўлсин. Ҳужжатларининг қатъийлиги ва далилларининг ёрқинлиги билан қувватланган Унинг пайғамбари Муҳаммадга ҳамда у зотнинг ҳақ йўлга бошловчи ва унинг ҳимоячиси бўлмиш оиласи ҳамда саҳобаларига саловот бўлсин...

Асар охири:

... فلا دلالة على فضيلة الملائكة وقد وقع الفراغ عن كتاب شرح العقائد تمت تم.

Таржимаси. ... Фаришталарнинг фазилатига далолат йўқ. “Шарҳ ал-Ақоид” китобини ёзиш якунланди. Тамом, тамом.

Иккинчи нусха[382]. Ушбу қўлёзма ЎзР ФА ШИ Асосий фондида 10683/I инвентарь рақам билан сақланмоқда ва у мажмуадаги биринчи асар ҳисобланади. Қўлёзма 821/1418 йили Аҳмад ибн Маҳмуд Исфароний томонидан кўчирилгани айтилган бўлса-да, қаерда кўчирилгани ҳақида маълумот берилмаган. Шу ўринда алоҳида таъкидлаш керакки, у аллома яшаган даврга нисбатан энг яқин нусхалардан бири ҳисобланади. Бу нусхада муаллифи исми ва асар номи берилмаган. Мажмуа жами 201 варақдан иборат бўлиб, шундан “Шарҳ ал-Ақоид” 39 варақ ($1^б$-$39^а$) ни ташкил этади. Варақ ўлчами 16×26,5 см, матн ўлчами 11×19 см ва ҳар бир варақда сатрлар сони 24та. Матн шарқ қоғозига насх хатида кўчирилган бўлиб, шарҳланаётган сўзлар, жумлалар тепасига қизил чизиқ билан ажратиб кўрсатилган. Шунингдек, баъзи ўринларда асосий матн тепасига қора ёки қизил чизиқ белги сифатида чизилиб, унга ҳошияда араб тилида изоҳ ҳамда қўшимчалар ёзилган. Асосий матн ва ҳошиядаги ёзув хати бир хил. Саҳифалар пойгирларланган. Муқоваси қалин картондан ишланган бўлиб, у тўқ сариқ рангга бўялган ва унга биттадан тамға босилиб безак берилган. Лабагиси қизил рангли чармдан қилинган.

Асар боши:

بسم الله الرحمن الرحيم الحمد لله المتوحد بجلال ذاته وكمال صفاته المقدس في نعوت الجبروت عن شوائب النقص وسماته والصلوة على نبيه محمد المؤيد بساطع حججه وواضح بيناته وعلى آله وأصحابه هداة طريق الحق وحماته وبعد...

Таржимаси. Меҳрибон ва раҳмли Аллоҳ номи билан бошлайман. Ўз Зотида улуғлиги ва сифатларининг комиллиги билан ягона бўлган, улуғлик сифатларида нуқсонлик аломат ва белгиларидан пок бўлган Зот – Аллоҳга ҳамд бўлсин. Ҳужжатларининг қатъийлиги ва далилларининг ёрқинлиги билан қувватланган Унинг пайғамбари Муҳаммадга ҳамда у зотнинг ҳақ йўлга бошловчи ва уни ҳимоячиси бўлмиш оиласи ва саҳобаларига саловот бўлсин...

Асар охири:

... اتفق أعام هذا الشرح لي في أواخر شهر جماد أواخر سنة احدى وعشرين وثماني مائة وانا الفقير الراجي إلى الله الغني احمد بن محمود الاسفراني اللهم اغفر لكاتبه ولوالده ولأستاذه لمن نظن فيه لجميع المؤمنين والمؤمنات والمسلمين المسلمات ولمن قال امن وصلى الله على محمد واله اجمعين.

[381] Саъдуддин Масъуд ибн Умар Тафтазоний. Шарҳ ал-Ақоид ан-насафия / Шарқшунослик институти Шарқ қўлёзмалари тўплами. – Т.: Ўзбекистон Фанлар академияси, 1957. – Ж. IV. – Б. 329-330.

[382] Саъдуддин Тафтазоний. Шарҳ ал-Ақоид ан-насафия. – Т.: ЎзРФАШИ Асосий фонди. – Қўлёзма. – № 10683/I.

Таржимаси. ... Бу шарҳ мен томондан 821 йили Жумаду-л-охир ойи охирида кўчириб тугатилди. Ал-Ғаний Аллоҳнинг ҳузурига қайтувчи мен фақир Аҳмад ибн Маҳмуд Исфаронийман. Аллоҳим ушбу қўлёзма котибини, унинг ота-онаси ва устозини, ушбу шарҳга назар ташлаган кимсаларни, барча мўмину мўминалар, муслиму муслималарни, имон келтирган кимсаларни раҳмат қилсин! Муҳаммад ва унинг оила аъзоларига Аллоҳнинг саловати бўлсин.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Саъдуддин Тафтазонийнинг “Шарҳ ал-Ақоид” асари ёзилган вақтдан бошлаб то бугунги кунгача дунёнинг турли минтақаларида таълим тизимида калом илмидан асосий дарсликлар сифатида ўқитилгани боис, унинг кўплаб нусхаларда китобат қилинган. Хусусан, Усмонли турклар империяси мадраса таълим тизимида “Шарҳ ал-Ақоид” расмий дарслик сифатида белгилаб қўйилган. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди миқёсида ўрганилганда “Шарҳ ал-Ақоид” 98 та қўлёзмаси аниқланди.

“Шарҳ ал-Ақоид” таркибий қисмларга ажратилмаган. Шунингдек, “Шарҳ ал-Ақоид” у усмонли турк, рус, инглиз ва урду каби бир нечта тилларга ўгрилиб, нашр этилган. Бундан ташқари, у нафақат кўп кўчирилган, балки тошбосма нашри мусулмон оламида фаолият юритганидан бошлаб, XX асрнинг биринчи чорагигача кетма-кет нашр қилинган. Бу ҳолатлар мазкур асарларнинг калом илми тарихида, хусусан, мотуридия таълимоти ривожида муҳим манбавий аҳамиятга эгалигини билдиради.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, Саъдуддин Тафтазонийнинг “Шарҳ ал-Ақоид” асари яратилган вақтдан бошлаб то ҳозирги кунга қадар ислом оламининг турли минтақаларида таълим тизимида калом илмидан асосий дарслик сифатида ўқитиб келинган. Шу сабабли у кўплаб қўлёзма нусхаларда китобат этилган. Хусусан, Усмонлилар даврида мадраса таълим тизими учун мазкур асар расмий дарслик сифатида белгилаб қўйилган.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Шарқшунослик институти Асосий фондида олиб борилган таҳқиқотлар жараёнида “Шарҳ ал-Ақоид”нинг 98 та қўлёзма нусхаси аниқланди. Асар таркибий қисмларга ажратилмаганлиги унинг услубий хусусиятларидан бири сифатида қайд этилади. Шунингдек, “Шарҳ ал-Ақоид” турк, рус, инглиз ва урду каби бир қатор тилларга таржима қилинган ҳамда нашр этилган. У нафақат кўп марта кўчирилган, балки тошбосма усули йўлга қўйилганидан бошлаб XX асрнинг биринчи чорагига қадар узлуксиз равишда чоп этиб келинган.

Ушбу ҳолатлар мазкур асарнинг калом илми тарихи ва ривожида, айниқса, мотуридия таълимоти шаклланишида муҳим манба сифатида хизмат қилганини кўрсатади.

* * *

MUHAMMAD AL-MU’IZZIY “TASRIF AL-AF’AL” ASARI HAQIDA

MUHAMMAD AL-MU’IZZI’S WORK “TASRIF AL-AF‘AL”

Kazakbayev Akbar Akmaldjanovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Arab tili va adabiyoti alAzhar” kafedrasi dotsenti

Arab tili tarixi va sarf ilmida ko‘plab mutaqaddim va mutaaxxir olimlar asar yozgan. Ularning orasida Muhammad al-Muʿizziy o‘zining “Taṣrīf al-afʿāl” nomli asari bilan arab morfologiyasida muhim iz qoldirgan. Bu asar asrlar davomida talabalarga qo‘llanma sifatida xizmat qilgan va hozirga qadar tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda.

Movarounnahrlik tilshunos Muhammad ibn Abu al-Qosim al-Mu’izziy haqidagi ma’lumotlar sharqshunos olimlar V.Girgas , V.Alvard , V.Belyaev , D.Validov , R.Safiullina , A.Salaxov tadqiqotlarida qisqa shaklda berilgan. Mazkur ma’lumotlar Muhammad al-Mu’izziy “Tasrif al-af’al” asarining muallifi ekanligini qayd etish bilan chegaralangan bo‘lib, asosan Xoja Xalifaning “kashfu-DH-Dhunūn” (نونظلا فشك - Gumonlarning ochilishi) asaridagi quyidagi ma’lumotga tayangan: “Shamsiddin Muhammad ibn Abulqosim al-Mu’izziyning Al-Mu’izziy fi-t-tasrif” asari. To‘rt bobdan iborat risola. هئامعذ ىلع لله دمحلا iborasi bilan boshlanadi. Mir Muqallad nomi bilan mashhur Muhammad ibn Darvesh Muhammad ibn Yusuf al-Buxoriy unga forscha sharh yozgan va “Sharh ul-abvob” deb nomlagan”.

Muhammad al-Mu’izziyning hayotiga oid ma’lumotlar kam bo‘lsa-da, uning bizgacha yetib kelgan mashhur “Kitābu-t-aSrīf al-muɛizziy” (يزعملا فيرصتلا باتك) asari xalq orasida “al-muɛizziy”, “al-muɛizziy fī-taSrīf”, “taSrīfu-l-afɛāl”, “risāla fī-taSrīf” nomlari bilan tanilgan.

Ma’lumki, qadimda bir-biriga yaqin bo‘lgan olimlarning asarlari ko‘pincha xattotlar tomonidan jamlangan majmua sifatida ko‘chirilgan. Muhammad al-Mu’izziyning “taSrīfu-l-afɛāl” asari ham shunday to‘plamlar tarkibida bo‘lgan. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Manbalar xazinasi fondida ushbu asarning 15 qo‘lyozma nusxasi saqlanmoqda, ulardan faqat uchta to‘plamda (124, 220, 243) asar to‘liq shaklda berilgan. Eng qadimgisi 243 inventar raqami bilan 1770 yilda qo‘chirilgan.

O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ushbu asarning 7 ta qo‘lyozma nusxasi saqlanmoqda. Eng kech nusxasi 1885 yilda Buxoroda ko‘chirilgan. Risolaning ko‘plab nusxalari Eron kutubxonalari fondlarida ham mavjud. Eron milliy kutubxonasida “Tasrif al-af’al” nomi bilan 29 ta qo‘lyozma nusxasi aniqlangan.

Birlashgan Arab Amirliklarining “Juma al-Majid” madaniy meros markazining elektron portalida “فيرصتلا يفيزعملا” nomli risolaning 137 nusxasi mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Saqlanayotgan qo‘lyozmalarning eng qadimiysi hijriy 1067 (1657) yilda, eng so‘nggisi hijriy 1315 (1897) yilda ko‘chirilgan. Asarning turli fondlarda saqlanayotgan nusxalari hajmi 3 betdan 30 betgacha bo‘lib, bu asarning to‘liq shaklda saqlanmaganligini ko‘rsatadi. Asarni boshqa kataloglarda ham topish mumkin.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida tatarlar tomonidan bu kitob ko‘p marta toshbosma shaklida chop etilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, u 22 marotaba jami 1500 dan 6000 gacha bo‘lgan adadda nashr qilingan . Bu ma’lumotlar o‘z navbatida mazkur risola Tatariston madrasalarida o‘quv qo‘llanma sifatida keng iste’molda bo‘lganligidan dalolat beradi.

Risolaning 1913 yilda “Sentralnaya”, 1915 yilda “Karimiya” bosmaxonalarida chop etilganligi unga bo‘lgan ehtiyojning XX asrda ham mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi .

Muhammad al-Mu’izziyning “Tasrif al-af’al” asari O‘rta Osiyo hududida Buxoro madrasalarining boshlang‘ich maktablarida arab tili darslarini takrorlash uchun ikkinchi yil darsligi sifatida o‘qitilgan .

Sadriddin Ayniy o‘zining esdaliklarida Buxorodagi madrasalarning o‘quv dasturlari, darslik va o‘quv kitoblari haqida yozadi. U keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, madrasalarda talabalar arab sarfiga oid “Muizziy” va “Zanjoniy” nomli, nahvga oid “Avomil” nomli kitoblarni o‘qib, ulardagi arabcha so‘zlarni tojikcha tarjimasi bilan yodlab olganlar . Bu yerda “Muizziy” deyilganda Muhammad al-Mu’izziyning “Tasrif al-af’al” asari, “Zanjoniy” deganda esa Abdul Vahhob ibn Ibrohim az-Zanjoniy ash-Shofe’iyning “al-Izziy fi ilmi-s-sarf” asari nazarda tutilgan.

Ayrim tadqiqotchilar bu ikki muallifni, ya’ni “Mu’izziy” va “Izziy”ni bitta muallif deb hisoblaydilar. Arab tilining tatar tiliga ta’sirini o‘rgangan Rossiyalik tadqiqodchilardan A.M.Salaxov “Tasrif al-af’al” risolasini “Sarfi Mu’izziy” nomi bilan tilga olib, uni fe’llarning tuslanishiga

bag‘ishlangan o‘quv risolasi deb ataydi . R.R.Safiulina: “Aslida “يزعملا فيرصتلا” noma’lum muallifga tegishli risola, lekin uni Izzuddin Zanjoniyga tegishli degan taxminlar ham bor” deydi . A.Fattaxova Izzuddin az-Zanjoniyning “يزعلا فيرصت” asari haqida ma’lumot berar ekan, u bir necha nomlar bilan tarqalgani va “Sarf al-Mu’izziy” ham mazkur asarning nomlaridan biri ekanligini e’tirof etadi .

Mu’izziyning “Tasrif al-af’al” risolasi Izzuddin az-Zanjoniyning “Tasrif al-Izziy” asarining nomlaridan biri degan fikr noto‘g‘ri ekanligiga quyidagi dalillarni keltirish mumkin:

birinchidan, “Tasrif al-af’al” asari “ةلمجم هذهف دعبو هئايبنأ متاخ دمحم هلوسر ىلع ةلاصلاو هئامعن ىلع لله دمحلا ةطوبضملا لاعفلاا فيرصت نم ةيراجلا ةطوسبملا بتكلا ىف لخدملا ىرجمكو ةطوسبملا ىهو ةعبرا ىلع لمتشت ىتلا ابواب” (Allohga uning ne’matlari uchun hamd bo‘lsin, payg‘ambarlarining so‘ngisi bo‘lmish Muhammad rasulullohga salovotlar bo‘lsin... Bu fe’llar tasrifi turkumidagi kitob bo‘lib, katta kitoblarga kirish vazifasini bajaradi. U to‘rt bobdan iborat...) jumlalari bilan boshlanadi. Izzuddin az-Zanjoniyning “Tasrif al-Izziy” asari esa لله دمحلا نيملاعلا بر ةلاصلاو ملاسلاو ىلع دمحم انديس هلآو نيعمجأ (Olamlar robbisi bo‘lgan Allohga hamd bo‘lsin, janobimiz Muhammad alayhissalomga va ularning oilalariga durudu salovotlar bo‘lsin) so‘zlari bilan boshlanadi;

ikkinchidan, “Tasrif al-af’al” asari faqatgina arab tilidagi fe’llarni, fe’llarning yasalishi, ulardagi o‘zgarishlar, ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar haqidagi qoida va misollardan iborat o‘quv risolasi bo‘lsa, Izzuddin az-Zanjoniyning “Tasrif al-Izziy” asari esa arab tilidagi sarf ilmi bo‘yicha yozilgan fundemental asarlardan biri hisoblanadi;

uchinchidan, “Tasrif al-Izziy” asari hijriy 655, milodiy 1257 yilda yozilgan, “Tasrif al-af’al” asarining yozilgan sanasi noma’lum bo‘lsa-da, uning dastlabki nusxalari XVII asrga tegishli bo‘lib, XX asr boshlarigacha iste’fodada bo‘lgan. Agar “Tasrif al-af’al” risolasi ham Izzuddin az-Zanjoniyning qalamiga mansub bo‘lganida, u haqidagi ma’lumotlar XVII asrga qadar bo‘lgan davrdagi manbalarda tilga olingan bo‘lar edi;

to‘rtinchidan, XIX va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo madrasalarida tahsil olgan talabalar xotiralarida madrasa ta’lim tizimida “Mu’izziy” va “Zanjoniy” kitoblari alohida kitob sifatida tilga olingan .

Bundan tashqari “Tasrif al-af’al” va “Tasrif al-Izziy” asarlaridagi mavzularning berilishi va fe’llarning tasniflanishi bir biridan keskin farq qiladi. Bu holatlar mazkur ikki asar bitta asarning ikki xil nomlanishi emasligi va bir muallifning ikki turli asari emasligini isbotlaydi.

Muhammad al-Muizziyning “Tasrif al-af’ol” asari o‘z davrida O‘rta Osiyo va Tatariston madrasa ta’limida arab tilini o‘rgatishning muhim o‘quv qo‘llanmasi bo‘lib xizmat qilgan va uning nusxalari dunyoning turli mamlakatlari kutubxonalarida keng tarqalgan holda saqlanmokda.

* * *

MUHAMMAD SHARIF BUXORIY ASARLARINING TURKYAIDAGI NUSXALARI XUSUSIDA

ON THE COPIES OF THE WORKS OF MUHAMMAD SHARIF BUKHARI IN TURKIYE

Mirzayev Nasriddin Muxritdinovich,
O‘zbekiston Milliy arxivi katta ilmiy xodimi, t.f.f.d. (PhD)
Email: nosir86@mail.ru

Muallif har shorihga piru imomdir,
Shukrona aytmoq unga ilk, ehtiromdir.
Mavlono Sharif

XVII asr Buxoro ilmiy muhitining yirik namoyandasi, faylasuf va tarixchi Muhammad Sharif Buxoriy o‘zining qomusiy bilimi bilan tanilgan. Mavlaviy Muhammadsharif ibn Muhammad Husayniy Alaviy 1026 hijriy (1617 yil) sanada Ashtarxoniylar zamonida Shahrisabz viloyatida dunyoga kelgan va Movarounnahrning ilmiy-madaniy markazi Buxoroyi sharifda oliy islomiy ma’lumot olgan. U Buxorodagi Ko‘kaldosh madrasasining oxundlik darajasiga yetishib, Buxoroyi Sharifdagi Tashtgaron mahallasida o‘zi bunyod qilgan masjid-xonaqoda umrining oxirigacha kunduzi muridlarga ta’lim-tarbiya berish, kechalari esa ibodat, riyozat, tasnif va yozish bilan mashg‘ul bo‘lgan va 1109 hijriy (1697 yil) sanada dunyodan o‘tgan.

U falsafa, tasavvuf, fiqh, aiqda-kalom, tarix, tilshunoslik va astronomiya kabi ko‘plab sohalarga oid o‘ttizga yaqin asar yaratgan. Olimning makon va zamon haqidagi falsafiy qarashlari «ar-Risola ad-davriya» risolasida aks etsa, «Devoni Sharif» to‘plami uning shoirlik mahoratidan dalolat beradi. Mir Arab madrasasida mudarrislik qilgan allomaning «Kitobi favoyidi xoqoniya» asari ayniqsa muhim bo‘lib, unda hukmdorlar uchun adolat tamoyillari, ijtimoiy hayot va axloqqa oid qimmatli maslahatlar jamlangan. Mavlaviy Muhammad Sharif Buxoriyning serqirra ijodi nafaqat Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida chuqur iz qoldirgan, balki Xuroson, Osiyo, O‘rta Sharq va Sharqiy Yevropa hududlarida ham uning yozgan asarlari darslik sifatida o‘qitilgani ahamiyatga molikdir.

Mavlaviy Sharifning hayoti va ilmiy asarlari bugungi kungacha bevosita tadqiqot obyekti sifatida chuqur ilmiy tadqiq qilinmagan bo‘lsa-da, Buxoroning XVII asr ilmiy muhiti, manbalari tarixi va madrasa darslari hamda darsliklari qatorida uchratish mumkin . Mavlaviy Muhammadsharif hazratlari g‘oyatda fasohatli, sermahsul olim va orif bo‘lib, o‘nlab yetuk ilm va irfon ahlini tarbiya qilgan. Shuningdek, ilm, irfon, nazm va nasrga oid tojik va arab tillarida ko‘plab qimmatli asarlar meros qoldirgan.

Bugungi kungacha o‘zbek olimlaridan uning “Favoidi xoqoniya” asarini nashrga tayyorlagan M.Nuritdinov, M.Hasaniy va tojikistonlik olim olimning “Nazmi Muxtasar (Muxtasaru-l-viqoyai manzum)” asarini nashrga tayyorlagan N.So‘hbatov va Buxoroi sharif allomalarining ko‘p shaxsiyatlari haqida ma’ldumot berib o‘tgan Sadriddin Salim Buxoriy ning ilmiy tadqiqotlari ko‘p asarlarining nomlari aniqlanib yozilgan.

Mavlaviy hazratning nomdor ilmiy va irfoniy asarlari majmuasi quyidagilardan iborat:

1. “Hoshiyat ala-favoid az-ziyoiya»;
2. “Hoshiyat al-qadima ala sharh al-aqoid al-azudiya»;
3. “Hoshiyat al-jadida ala sharh al-aqoid al-azudiya»;
4. “Ar-Risola ad-davriya»;
5. “Ar-Risola fi bayoni mafhum al-aqoid va al-kalom»;
6. “Tarjumai matni manzumi muxtasar al-viqoya»;
7. “Devoni Sharif»;
8. “Hoshiya bar sharh at-tazib»;
9. «Ar-Risola fi a’mol al-yavmi va al-layli»;
10. “Favoidi xoqoniya»;
11. “Tuhfat as-solikin»;
12. “Mi’ot al-haqoqiq”;
13. “Hujjat az-zokirin liradd al-munkirin»;
14. “Bob al-vasiya bi as-sulus”;
15. “Takmila at-tatimma” kabi kitoblar hisoblanadi.

Mazkur kitoblarning aksari bugungi kungacha O‘zbekiston va Tojikiston qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgani zikr qilingan bo‘lsa-da, Turkiyaning turli kutubxonalarida yoki boshqa xorijiy fondlaridagi mavjud nusxalari haqida biror ilmiy ishlar yoki izlanishlar olib borilmagan. Quyida Turkiyada aniqlangan nusxalar to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berib o‘tiladi.

1. Qo‘lyozma. Mavlono Muhammad Sharifning “Sharhu sharhi al-aqoid al-azudiya” (“Sharhi Mavlaviy” bilan mashhur) asari nusxasi. Nusxa Turkiyaning “Atıf Efendi” kutubxonasidagi (01300) kellksiyasining 374491-raqam ostida saqlanadi. Jami 99 varaq. Asar aqida-kalom faniga bag‘ishlangan, arab tilida yozilgan. Nusxa ko‘chirilgan sanasi noma’lum, ammo tashqi belgilari xat turi va qog‘ozidan XVIII asrda ko‘chirilganini taxmin qilish mumkin.

2. Qo‘lyozma. Mavlono Muhammad Sharifning “Hoshiya ala sharh al-aqoid al-azudiya” asarining nusxasi. Nusxa Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasi “Hacı Mahmud Efendi” (05982) kolleksiyasining 374491-raqam ostida saqlanadi. Jami 152 varaq, 19 satrli. Asar aqida-kalom faniga bag‘ishlangan, arab tilida yozilgan. Nusxa Balx viloyatidagi Madrasasi Xoqon Alida tolibi ilm bo‘lgan Muhammad ibn Mubinmuhammad Kalamiy tomonidan 1101 hijriy 18 zulhijja oyi (1690 yil 21 mart oyida)da ko‘chirilgan. Muallif Mavlono Muhammad Sharif hayotlik chog‘ida ko‘chirilgan nusxa. 68-72 varaqlardagi yozuvlar nuqtasiz yozilish ayrim Buxoro maktabi va an’anasiga o‘xshash ham bo‘lishi mumkin. Ushbu nusxada muallif arab tiliga doir qismlarni tugatar ekan sanalarini qo‘yib ketgan, jumladan, “Mansubot” qismini 1089 hijriy 18 rabiulavval oyi (1678 yil 9 sentyabr) da tugatgani, “Harflar” nomli qismini 1093 hijriy 13 zulhijja oyi (1882 yil 12 dekabr)da tugatganini asarda ko‘rish mumkin. Shuningdek, ushbu qismlarni yozishda o‘g‘li Sa’d deganning shu fanni o‘qishga kirishganini sabab qilib ko‘rsatgan.

3. Qo‘lyozma. Mavlono Muhammad Sharifning “Hoshiya ala hoshiya al-xayoliy ala sharhi al-aqoid” asarining nusxasi. Nusxa Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasi “Carullah” (01141-001) kolleksiyasining 226633-raqam ostida saqlanadi. Jami 43 varaq, 25 satrli. Asar aqida-kalom faniga bag‘ishlangan, arab tilida yozilgan. Nusxa Yusuf ibn Umar ibn Yusuf kotib tomonidan ko‘chirilgan, sanasi noaniq.

4. Qo‘lyozma. Mavlono Muhammad Sharifning “Hoshiya ala sharhi al-xayoliy ala aqoid an-nasafiy” (“al-Hoshiya ash-sharifiya” bilan mashhur) asarining nusxasi. Nusxa Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasi “Giresun Yazmalar” (00017-002) kolleksiyasining 247326-raqam ostida saqlanadi. Jami 100 varaq, 21 satrli. Asar aqida-kalom faniga bag‘ishlangan, arab tilida yozilgan. Nusxa kotib Sulaymon ibn Ali (Ismoil ibn Ibrohim) tomonidan sanasi 1164 hijriy (1751 yil)da ko‘chirilgan.

5. Toshbosma. Mavlono Muhammad Sharifning “Hoshiya ala sharhi aqoid an-nasafiy” asarining nusxasi. Nusxa Turkiyaning Millat kutubxonasi “Ali Emiri Arabi” (01245/10) kolleksiyasining 147919-raqam ostida saqlanadi. Jami 246-330 betlar. Asar aqida-kalom faniga bag‘ishlangan, arab tilida yozilgan. Bu kitob “el-Matbaatü’l-Kürdistanü’l-İlmiyye” matbaasida 1329 hijriy (1911 yil) da bosilgan.

6. Toshbosma. Mavlono Muhammad Sharifning “Hoshiya ala al-Jomiy” asarining nusxasi. Nusxa Turkiyaning Boyazid kutubxonasi “Beyazıt” (BM10939) kolleksiyasining 573493 -raqam ostida saqlanadi. Jami 560 bet. Asar arab tili grammatikasi faniga bag‘ishlangan, arab tilida yozilgan. Nusxa 1902 yilda bosilgan.

Yuqoridagi ma’lumotlarni shuni ko‘rsatmoqdaki, Mavlono Muhammad Sharif Buxoriy hali hayotlik chog‘ida yozgan asarlar nafaqat Buxoro yoki Markaziy Osiyo hududida o‘qitilgan, balki Balx va Turkiya kabi uzoq musulmon o‘lkalarida ham o‘qitila boshlanganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, allomaning hoshiyanavislikdagi mahorati va turli bilimlarni mukammal o‘zlashtirganini inobatga oladigan bo‘lsak, uning qadru manzalatini quyidagi misolda ham bilish mumkin. Buxoro ta’lim tizimi va tartibi to‘g‘risida roppa-rosa 98 yil avval yozib tugatilgan “Tanzil al-amsol” nomli asar muallifi Mullo Homidxo‘ja bin Qozi Baqoxo‘janing bu gapini eslash kifoya: “Yaxshi ittifoqlardan biri o‘laroq, «Odob at-ta’allum» kitobi haqir (banda)ning nazariga tushgach, menga ma’lum bo‘ldiki, Buxoroi sharifda ilm tahsil qilish uslubi rabboniy ulamo va haqqoniy avliyolar merosidir. Zero, biror kishi ustozlarning vositasisiz ta’limi olish yo‘llarini (tartibini) bilmaydi. Ya’ni «Falon matnga qaysi sharhni o‘qiymiz?» va «Qanday hoshiyalarni ko‘ramiz?» kabi savollar berishdan boshqa ilojimiz yo‘q” , deb xulosa qiladi. Shunga binoan Mavlono Muhammad Sharifning madrasalarda o‘qitilgan darsliklar, ya’ni sharh va hoshiyalar sohibi ekani uning nechog‘liq yuksak daraja va unvonlar sohib bo‘lganini ta’kidlash mumkin.

Umuman olganda Mavlono Muhammad Sharif Buxoriyning ilmiy merosi, u zotning yozgan asarlarining nusxalarini dunyo xazinalaridan aniqlash va ularni jamlash kabi izlanishlar, xususan, manbashunoslik nuqtayi nazarda ular ustida tadqiqot olib borish ayni vaqtda o‘lkamiz allomalarining ilmiy merosiga bo‘lgan munosib yondashuv va ularni keng targ‘ib qilish yo‘lidagi salmoqli siljish sanaladi.

* * *

BUYUK FAQIHA FOTIMA SAMARQANDIYA

THE GREAT JURIST FATIMA SAMARQANDIYYAH

Saidahmadxon Samatxonovich G‘aybullayev
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Islom tarixi va manbashunosligi” kafedrasi dotsent v.b., PhD
e-mail: saidiy4200@gmail.com

Lobaroy Husniddin qizi Isroiljonova
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Islom tarixi va manbashunosligi” yo‘nalishi 3 bosqich talabasi
e-mail: @lobarojisroilzonova@gmail.com

Dinimizda ayollarning ilm-ma’rifatli bo‘lishiga katta e’tibor berilgan. Tariximizga nazar solsak, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida beqiyos hissa qo‘shgan Nodirabegim, Uvaysiy va ilm-fan

homiysi bo‘lgan Bibixonim kabi juda ko‘p ma’rifatparvar olimalarimiz o‘tishgan. Ana shunday olima ayollarimizdan yana biri Fotima binti Muhammad Samarqandiyyadir. Olimaning tug‘ilgan va vafot yillari tarixi ma’lum emas.

Fotima Samarqandiya – buyuk faqih Alouddin Samarqadiy (vaf.1144)ning qizi va mashhur hanafiy faqihi Abu Bakr Kosoniy (vaf. 587/1191)ning turmush o‘rtog‘idir. Olima ta’limni asosan otasidan olgan. Samarqandiyning islom huquqiga oid “Tuxfatul-fuqaho” va Qur’on tafsiriga oid “Sharhu Ta’vilotu ahlis-sunna” kabi asarlarini yoddan bilgan. Shuningdek, o‘z zamonasining zaururiy barcha bilim va san’atlarini egallagan[383].

Abdulhay Laknaviy o‘zining “Favoidul bahiyya” asarida: “Fotima Samarqandiyya mashhur olima, faqihadir. Fiqh (islom huquqi)ni otasidan o‘rgangan, uning “Tuhfa”sini yoddan bilgan!” deya ta’riflaydi.

Manbalarda olima ko‘pgina asarlar yozgani aytilsa-da, birgina fiqh ilmiga oid “Majma’ul-favoid li jam’il-avoid sharh tuhfatil-muluk” (“Podshohlar tuhfasi asariga Foydalar jamlanmasi nomli to‘ldirish”) asaridan boshqasi zikr etilmagan”[384].

Fotimaning turmush o‘rtog‘i Abu Bakr Kosoniy ham otasi Alouddin Samarqandiyning shogirdidir. Kosoniyning Fotimaga uylanishi ham bir ibratli voqea bo‘lgan. U Alouddin Samarqandiyning “Tuhfatu-l-fuqaho” asariga “Badoi’ as-sanoi’ fi tartib ash-sharoi’” nomli o‘n jildlik yirik sharh yozib, ustozi̇ga taqdim etganida asar ham mazmunan ham uslub jihatidan mukammalligini ko‘rib, qizi Fotimani unga nikohlab beradi va qizning mahriga esa “Badoi’” qo‘yiladi. Bungacha qizning yuksak ilmiy saviyasi, aql-zakovati va husni jamoli sabab bir qancha obro‘li xonadonlar, jumladan hukmdor Saljuqiy shahzodalardan ham sovchilar kelganida Alouddin Samarqandiy barchasiga rad javobini bergan edi. To‘ydan keyin xalq orasida “شَرَحَ تحْفَتَهُ وتَزَوَجَ اِبْنَتَهُ” ya’ni ***“ustozining “Tuhfasi”ni sharhlab, qiziga uylanib oldi”*** degan gap mashhur bo‘lib ketdi.

Fotima Samarqandiya mohir xattot ham bo‘lib, oilaviy hay’atdan chiqadigan fatvolarni shaxsan o‘zi oqga ko‘chirgan, shuningdek, o‘z muhrini ham qo‘yar edi. Sababi uning fiqh, tafsir, hadis va aqida ilmlari olimasi bo‘lgani uchun fatvo berish vakolatiga ega bo‘lgan. Yangi oila qurilganidan so‘ng hududda Alouddin Samarqandiy, Abu Bakr Kosoniy va Fotima Samarqandiyalar nomidan mushtarak fatvolar chiqadigan bo‘ldi.

Abu Bakr Kosoniy 1146 yil “Zangiylar” davlati poytaxti Halab o‘lkasi (hozirgi Suriya hududi)ga elchi qilib jo‘natilgan. O‘n yillab o‘tib Kosoniy o‘z yurti Movarounnahrga qaytmoqchi bo‘lganida, Sulton Nuriddin ibn Mahmud Halabda qolishni iltimos qiladi. Kosoniy yurtga qaytishni umr yo‘ldoshi istayotgani va uning ra’yini qaytara olmasligini ma’lum qiladi. Shunda sulton Fotimaga Halabda qolish iltimosi ma’nosida xat yuboradi. Biroq nomani olib kelgan erkak kishi bo‘lgani uchun, olima uni qabul qilmaydi. Uning taqvosiga qoiyl qolib, hukmdor ayol choparni yuboradi va Fotima iltimosni qabul qiladi. Shu bilan ular Halabda yashab qolishdi.

Manbalar Abu Bakr Kosoniy turmush o‘rtog‘ini ko‘p qadrlagani, ehtirom qilganini ta’kidlaydi. Halab tarixchisi Kamoliddin ibn Adim aytadi: “Mening otam bu ayolni (Abu Hanifa) mazhabini mukammal bilishini, ko‘p marotaba umr yo‘ldoshi – Kosoniyning javoblaridagi yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarini ko‘rsatib berganini, Kosoniy ham uning maslahatlarini mamnuyat bilan qabul qilganini hikoya qilib bergan”. Shuningdek Kosoniy Fotima Samarqaydiya vafot etganidan so‘ng qabrini har juma oqshomi ziyorat qilishni tark qilmagan[385].

Fotima Samarqaydiya 1187 yil Halabda vafot etdi va shahar tashqarisidagi Maqomi Ibrohim Xalil maqbarasiga dafn etildi. Keyinroq turmush ortig‘i ham (1191 yil) shu joyga dafn etilishi bilan qabriston “Er va xotin qabristoni” deya, nomlandi.

---

[383] Муҳаммад Абдулҳай Лакнавий Ҳиндий. Ал-Фавоид ал-баҳия фи тарожимил-ҳанафия. – Қоҳира: Матбаъа ас-саъада, 1332/1914. – Б. 158.

[384] Зайнаб Фаввоз. Ад-Дуррул-мансур фи табақот рабботил-хузур. – Қоҳира: Матбаатул-кубро ал-амирия, 1996. – Б. 54.

[385] Ибн ал-Адим. Буғятут-талаб фи тарихи Ҳалаб. – Ж. Х. – Б. 42.

Fotima Samarqandiyya oilaviy ishlardan tashqari ilm, dars berish bilan muntazam shug‘ullangan. Tarixchi olima Zaynab Favvozni xabar berishicha, Fotima Samarqandiyaning Halabda alohida dars majlisi bo‘lgan, unda juda ko‘p tolibi ilmlar ishtirok etgan va bir necha mo‘tabar manbalar bo‘yicha ijozalar olishgan. Fotima Samarqandiyya turmush o‘rtog‘i rahbarligidagi Halaviya madrasasiga doim homiylik qilgan. Bu haqda Hofiz Qurashiy rivoyat qilishicha, Fotima o‘zining tilla taqinchoqlarini sotib, pulini mudarris va talabalarga tarqatib bergan. Ramazon oyi davomida ularga iftorlik dasturxonini uyushtirib bergan. Shundan keyin xozirgacha homiylar tomonidan madrasada iftorlik dasturxoni yozish an’ana bo‘lib qolgan. Shuningdek, Ramazon oyidagi maxsus hadyalarni madrasa ustozlari va talabalriga berishni ham birinchi bo‘lib Fotima Samarqaydiya joriy qilgan[386].

Xulosa qilib aytganda, Abu Bakr Kosoniy va Fotima Samarqandiyyalar hayoti ilmga xizmat va yuksak insoniy fazilatlar namunasidir. Yoshlarni, xumuman xotin-qizlarni ilmli bo‘lishiga katta e’tibor berilayotgan hozirda bugungi kunda aynan Fotima Samarqandiyya kabi olimalarimiz hayoti va ilmiy merosini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, olimaning hayotidagi oilani qadrlash kabi yuksak fazilatlar ham ayol-qizlar tarbiyasida muhim jihatlardan hisoblanadi. Zero kelajak avlodning komil, yetuk bo‘lishi ularning tarbiyalaydigan onalarning ham jismonan, ham ma’nan sog‘lom bo‘lishiga bog‘liq.

* * *

MUHAMMAD XORAZMIYNING “MAFOTIH AL-ULUM” ASARIDA ILMLAR TASNIFI

CLASSIFICATION OF SCIENCES IN MUHAMMAD AL-KHWARIZMI’S WORK “MAFĀTĪḤ AL-ʿULŪM”

Abdupattayev Mumin Mirzo Murodjon o‘g‘li
O‘zbekiston xalaqaro islom akademiyasi katta o‘qituvchisi, PhD
mirzo21@umail.uz

Bashariyat tarixida ilm-fanning vujudga kelishi birinchi navbatda insonlarning o‘z ehtiyojlari uchun atrof-muhitni o‘rganishlariga bog‘liq bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan rivojlanib borgan. Antik davr faylasuflari hamda o‘rta asrlar Sharq mutafakkirlari asarlarida turli ilmlarga oid ma’lumotlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Qadimgi Yunonistonda ilm-fanning rivojlanishi avvalida barcha ilmlar bir ilm – falsafada mujassam bo‘lgan.

Falsafaning “ishroqiylik” maktabi asoschisi Aflotun (mil. avv. 427-347) ilmlarni aql bilan erishiladigan, his a’zolari bilan bilinadigan hamda sanoqqa asoslangan deb tasniflab olgan. Aflotunning shogirdi, falsafaning “mashshoiylik” maktabi asoschisi Arastu (mil. avv. 384-322) esa o‘zigacha ma’lum ilmlarni – nazariy, amaliy va ijodiy turlarga ajratib olgan[387].

O‘rta asrlar musulmon Sharqida ilmlar rivojlanishi uchun Abbosiylar xalifaligida qulay sharoit yaratilgan. “Bayt al-hikma” kabi dorulfununlarda ilmlar rivojlangani sari ularni tartibga solish va tasniflash muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu borada dastlabki ishlar IX asrda boshlandi va ilmlar tasnifiga oid kitoblar yozildi. Sharqda bu masala bilan birinchi bo‘lib Abu Ya’qub ibn Is’hoq Kindiy (801-866) shug‘ullandi. Kindiy ilmlarni “Nazariy va amaliy falsafa” deb nomlanga ikki bo‘limga

[386] Абдулқодир ибн Абулвафо Қураший. Жавоҳиру-л-музийя фи табақоти-л--ҳанафийя. – Карачи: Мир Муҳаммад кутубхонаси. – Ж. 2. – Б. 244; – Ж. 2. – Б. 25.

[387] Antik dunyo faylasuflari hamda o‘rta asrlar Sharq olimlarining ilmlar tasnifiga oid ma’lumotlar bilan batafsil tanishish uchun qarang: R.Bahodirov. O‘rta asrlarda musulmon Sharqida ilmlar tasnifi. – Toshkent: ToshDSHI bosmaxonasi, 1999. – 123 b.

ajratib olgan holda o‘rgangan. Nazariy falsafa – mantiq, riyoziyot, tabiiyot va metafizikadan iborat bo‘lsa, Amaliy falsafa – axloq, iqtisod va siyosatdan tashkil topgan[388].

“Sharq Arastusi” yoki “Muallim as-soniy” bo‘lgan Abu Nasr Forobiy (873-950) ham borada salmoqli ish olib borgan. Olim “Ihso al-ulum” asarida ilmlarni til, mantiq, matematika, musiqa, tabiat, ilohiyot haqidagi ilmlarga ajratib o‘rgangan[389].

Kindiy va Forobiy kabi ilmlar tasnifiga bag‘ishlangan asar yozgan yana bir Sharq olimi Muhammad ibn Ahmad Xorazmiy bo‘lib, uning hayoti haqida deyarli ma’lumotlar yo‘q. Ismidagi nisba tufayli Xorazmda tug‘ilgani tahmin qilinadi. Misrlik olim Abu Muhammad Ahmad ibn Ali Maqriziy (vaf. 1442) o‘zining “al-Xitot al-Maqriziyya” kitobida olimni Xorazmda emas, balki Balxda tug‘ilganini aytib, Xorazmiy nisbasini ota-bobolari Xorazmdan bo‘lib, Balxga ko‘chib kelgani bilan ifodalaydi[390]. Olmon sharqshunosi Elxard Veydman (1852-1928) olimni Xorazmdan Balxga ko‘chib kelgan turk oilasining farzandi ekanini ta’kidlagan. Ingliz sharqshunosi Klifford Bosvort esa olimni movarounnahrlik ekanini ta’kidlab, “U Amudaryodan to Eron hududlariga qadar tarqalgan turkiylar olimi edi”, degan[391].

Muhammad ibn Ahmad Xorazmiyning yagona aniqlangan asari “Mafotih al-ulum” (Ilmlar kaliti) bo‘lib, IX-X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hukm surgan Somoniylarning bosh vaziri Abul Husayn Ubaydulloh ibn Ahmad Utbiyga atab yozilgan. Ubaydulloh Utbiy 977-yilda bosh vazirlikka tayinlangani inobatga olinsa[392], asar ham shu yillarda yozilgani oydinlashadi. Professor Roiq Bahodirovga ko‘ra, olimning mashhurligi Abul Husayn Utbiy davrida cho‘qqiga chiqqan. Xorazmiy Bosh vazir devonida kotib vazifasida ishlagani uchun unga “Kotib” nomi berilgan. “Kotib” taxallusi, asarida keltirilgan Somoniylar devoni haqidagi batafsil ma’lumotlardan Xorazmiyning yuqori martabali mutasaddilardan bo‘lganligi tushuniladi. Olim 997-yilda vafot etgan[393]. Kotib Chalabiy ham “Kashf az-zunun”da olim vafot etgan sana sifatida 997-yilni qayd qilgan[394].

Olimning “Mafotih al-ulum” asari ensiklopedik asar hisoblanadi. K.Bosvortga ko‘ra, Xorazmiy devon ma’murlariga o‘z vazifalarini bajarishda kerak bo‘ladigan bir qo‘llanma tayyorlashni maqsad qilgan. U davrlarda devonda ishlayotganlar faqat diniy va adabiy bilimga ega bo‘lishi yetarli hisoblanmas edi. Boshqaruv sohasida ishlayotgan har bir shaxs moliya, jamoat ishlari va muhandislik bo‘yicha boshlang‘ich, tarix, fiqh, astronomiya, tibbiyot kabi barcha bilimlar bo‘yicha qomusiy bilimga ega bo‘lishni talab qilingan[395]. Ana shunday ehtiyojni qondirish maqsadida yozilgan “Mafotih al-ulum” asarida muallifning davlat darajasidagi tajribasi va qomusiy bilimi yaqqol aks ettgan.

Abu Abdulloh Xorazmiyning ustozlari va shogirdlari haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Asaridan ma’lum bo‘ladiki, u o‘z davridagi adabiyot, qissa va aqliy ilmlarni mukammal egallagan. Olim arab va fors tillaridan tashqari yunoncha va suryoniycha tillarni ham puxta egallagani asarida kelgan atamalarni oson va tushunarli qilib tarjima qilganida ko‘rinadi.

Olim “Mafotih al-ulum”ning kirish qimida: “...men bu asarni ikki qismdan iborat qilib tuzdim. Birinchi qism shariat va u bilan bog‘liq arab ilmlariga, ikkinchi qism esa arab bo‘lmagan, ya’ni yunonlar va boshqa xalqlar ilmlariga bag‘ishlangan”, - deb yozadi. Shudnay qilib, asarda muallif o‘zigacha mavjud bo‘lgan ilmlarni ikki qismga tasniflagan:

1. Shariat ilmlari va unga aloqador bo‘lgan arabiy ilmlar;

[388] R.Bahodirov. O‘rta asrlarda musulmon Sharqida ilmlar tasnifi. – Toshkent: ToshDSHI bosmaxonasi, 1999. – B. 25-26.
[389] Qarang: Abu Nasr Forobiy. Ihso al-ulum. – Bayrut: Dor va maktabat al-hilol, 1996. – 94 s.
[390] Ahmad ibn Ali Maqriziy. Al-Xitot al-Maqriziy. Qohira: Maktaba Madbuliy, 1998. – J. I. – S. 258.
[391] Qarang: Bosworth C. E. A Pioneer Arabic Encyclopedia of the Sciences: al Khwārizmī’s Keys of the Sciences. – Chicago: The University of Chicago Press, 1963. – P. 97-111.
[392] Qarang: In Frye, R.N. (ed.). The Cambridge History of Iran, Volume 4: From the Arab Invasion to the Saljuqs. – Cambridge: Cambridge University Press. – P. 136–161.
[393] Bahodirov R. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va uning ilmlar tasnifi tarixidan. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – B. 4.
[394] Kotib Chalabiy. Kashf az-zunun. – Bayrut: Dor al-ihyo, 1999. – J. II. – B. 1756.
[395] Qarang: Bosworth C. E. A Pioneer Arabic Encyclopedia of the Sciences: al Khwārizmī’s Keys of the Sciences. – Chicago: The University of Chicago Press, 1963. – P. 97-111.

2. Yunonlar va boshqa millatlarga oid xorijiy ilmlar (ulum al-ajam)[396].

Ushbu tasnif asosida asar ikki qism (maqola)dan iborat holda ta’lif etilgan. Asarning olti bobdan tashkil topgan birinchi qismida fihq, kalom, nahv, kitobat, she’r va aruz, tarix (axbor) ilmlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Bu yerda diqqat qaratish lozim bo‘lgan jihat shundaki, Xorazmiy faqat fiqh va kalomni asosiy islom ilmlari deb hisoblagan va bunga tafsir hamda hadis ilmlarini kiritmagan. Asarning “ulum al-ajam” qismi esa falsafa va unga aloqador fanlardan tashkil topgan. Olim falsafaga alohida ilm emas, balki ilmlar tizimi sifatida munosabat bildirgani uchun unga aloqador ilmlarni “ilm al-falsafa” deb nomlagan.

“Mafotih al-ulum”ning “Shariat va unga aloqador bo‘lgan arabiy ilmlar” qismi ikki maqola va to‘qson uch fasldan iborat. Muallif avval boshda fiqh, usul al-fiqhga oid tushunchalarni bayon qilgan. Keyin esa tahorat, namoz, azon, ro‘za, zakot, haj, savdo (bay), nikoh, diya va meros kabi fihqiy masalalarga oid atamalarni sharhlagan. Bundan tashqari uchbu qismda kalomga oid masalar ham o‘rin olgan bo‘lib, mo‘taziliylik, xorijiylik, jabariylik, mushabbiha, murjiiylik, shialik va as’hobi hadisning kalomga oid qarashlari keltirib o‘tilgan.

“Ulum al-ajam” qismida esa Xorazmiy faqat falsafa va unga aloqador bo‘lgan ilmlar haqida so‘z yuritadi. Falsafiy ilmlar qatorida muallif o‘rta asrlarda shakllangan anatomiya, patalogiya, farmakalogiya kabi tibbiyot ilmlariga oid terminlarni ham keltirib o‘tgan. Tibbiyotga oid ma’lumotlarni o‘z davrining yetuk tabibi, “Odob at-tabib” nomli asari bilan shuhrat qozongan Is’hoq ibn Ali Ruhaviyning “Kitob at-tafsira” nomli asaridan istifoda qilgan holda yoritgan. Hisob-kitobga oid ilmlardan bahs qilishda, ya’ni kub o‘lchamlarini aniqlashda “Yangi Pifagor” nomini olgan Gerasalik Nikomaxning qarashlariga murojaat qilgan.

“Mafotih al-ulum” ilmlar tasnifiga oid asar bo‘lish bilan bir qatorda, asarda dinlar tarixi va firqalari e’tiqodi batafsil bayon qilingan. Yuqorida aytib o‘tilganidek asarda islom dini doirasida payod bo‘lgan mo‘taziliylik, xorijiylik, jabariylik, mushabbiha, murjiiylik, shialik kabi toifalar e’tiqodi bayon qilingan.

Xulosa qilib aytganda Muhammad ibn Ahmad Xorazmiy qomusiy olim bo‘lgan. Olimning ilmlar tasnifi o‘zidan keyingi olimlar uchun qanday ta’sir o‘tkazgan bo‘lsa, ilmlar, dinlar va e’tiqodlar haqidagi qisqa va lo‘nda ma’lumotlari Shahristoniy, Ibn Hazm, Azududdin Ijiy kabi keyingi davr olimlari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

* * *

АЗИЗИДДИН НАСАФИЙ: “УРУЖ ВА НУЗУЛ” КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ МАЗМУНИ

AZIZIDDIN NASAFI: THE ESSENCE OF THE CONCEPT “URUZH AND NUZUL”

Алимов Хўжагелди Мустафоевич,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси “Дин психологияси ва педагогика” кафедраси профессори в.б., психология фанлари доктори.

Азизиддин Насафий — машҳур мутасаввиф, ориф ва тасаввуф адабиётининг йирик намояндаларидан бири ҳисобланади. У XIII асрда яшаб ижод қилган ва асосан Марказий

[396] Batafsil ma’lumot uchun qarang: Muhammad ibn Ahmad Xorazmiy. Mafotih al-ulum. – Qohira: Matbaa ash-sharq, 1923. – 154 s.

Осиёда, хусусан, Насаф (ҳозирги Қарши) ва унинг атрофидаги ҳудудларда фаолият юритган. Азизиддин Насафийнинг тўлиқ исми Азизиддин Иброҳим ибн Муҳаммад ибн Ҳамавий ан-Насафий деб зикр этилади. У тахминан XIII асрнинг боши–ўрталарда яшаган. Замонасининг йирик уламолари, орифлари билан суҳбатда бўлган, тасаввуфий тариқатлар билан узвий алоқада яшаган. Унинг асарлари асосан тасаввуфий-фалсафий руҳда бўлиб, инсон, олам ва Ҳақ ҳақидаги фикр-мулоҳазаларини баён этади.

Азизиддин Насафийнинг машҳур асарлари: “Инсон комил” – унинг энг машҳур асари бўлиб, инсониятнинг маънавий камолотга етиш йўли, руҳий покланиш ва ҳақиқий инсонлик ҳақида сўз юритилади. Бу китоб форс тилида ёзилган ва бутун ислом оламида катта шуҳрат қозонган. “Қутбнома”, “Зубдатул ҳақоиқ”, “Мактабнома” ва бошқа рисолалари ҳам бор.

Азизиддин Насафийнинг “Зубдат-ул ҳақойиқ” асаридаги руҳ тўғрисидаги қарашлари диққатга сазовордир. Чунки бу қарашлар руҳ тўғрисидаги билимларимизни тўлдиради8. Азизиддин Насафий руҳнинг яратилиши тўғрисида шундай деб ёзади: “Тангри субҳонаҳу таоло илк дафъа бир жавҳар яратди. Унинг номи нафси аввал (Руҳи аввал)дир. Тангри субҳонаҳу таоло мулк ва малакут оламларини яратишни ирода этиб, жавҳарга нигоҳ ташлади, ул жавҳар қайнаб эрий бошлади ва кўпирди. Неки ўшал жавҳарнинг моҳияти (мағзи) ва қаймоғи пастга чўкди. Халлоқи олам ўша жавҳарнинг қиёмидан руҳлар оламининг даражаларини яратди, қуйқасидан эса жисмлар оламини вужудга келтирди”[397].

Азизиддин Насафийнинг фикрига кўра, руҳлар олами ўн уч даражада яратилган. Шунга мос ҳолда жисмлар олами ҳам яратилган. У ҳам бошқа тасаввуф аҳлларига ўхшаб руҳни жавҳар деб қарайди. Руҳ жисмни (баданни) ҳаракатлантиради. Руҳ табиатда ўсимлик даражасида, ирода (ҳаракат) га мувофиқ ҳайвон даражасида, ақлга мувофиқ инсон даражасида юзага чиқади. Аллома шундай деб ёзади: “Руҳ латиф жавҳар, у майдаланмайди ва аъзоларга бўлинмайди. Чунки руҳ амр оламидандир, ҳатто ўзи амрдир. Жисм қаттиқ ва дағал жавҳар, у майдаланади ва қисмлар (аъзолар)га бўлинади. Жисм махлуқот оламидандир”[398].

Шундан сўнг Тангри таоло нигоҳини шаффоф қиёмга қаратди ва у қиём эрий бошлайди. Шу қиёмнинг қаймоғидан пайғамбарлар Хотами (хулосаси) руҳини яратди. Иш шу тариқа давом этиб, ниҳоят қуйидаги руҳлар яратилади: улулазм пайғамбарлар руҳи, мурсал пайғамбарлар руҳи, авлиёлар руҳи, аҳли илму маърифат руҳини, зоҳидлар руҳини, тақво аҳли руҳини, аҳли иймон руҳини, одамлар руҳини, ҳайвонлар руҳини, ўсимликлар руҳини, маъданлар ва ашёлар руҳини. Шунингдек, фаришталарни яратади ва шу тариқа малакут олами дунёга келади.

Шундан сўнг Тангри таоло ўз нигӧҳини қуйқага қаратади ва қуйқа эриб, мағзи ва қаймоғи ажралиб чиқади. Ундан Аршни яратади. Шу йўналишда давом этади ва қуйидаги жисмлар яратилади: курси, еттинчи осмон, олтинчи осмон, бешинчи осмон, тўртинчи осмон, учинчи осмон, иккинчи осмон, биринчи осмон, олов, ҳаво, сув, тупроқ, бошқа жисмлар. Мулк оламининг яратилиши шу билан тугалланди. Мулк ва малакут оламида жами йигирма саккизта нарса яратилди.

Азизиддин Насафийнинг ёзишича, руҳ даражалари ва жисм даражаларининг ҳар бири ўз ўзидан мақом топди: Арш – пайғамбарлар руҳининг мақоми, курси – улулазм пайғамбарлар руҳининг мақоми, еттинчи осмон – мурсал пайғамбарлар руҳининг мақоми, олтинчи осмон – авлиё руҳи мақоми, бешинчи осмон – ҳакимлар руҳи мақоми, тўртинчи осмон – зоҳидлар руҳи мақоми, учинчи осмон – тақво аҳли руҳи мақоми, иккинчи осмон – тақво аҳли руҳи мақоми, биринчи осмон – иймонлилар руҳи мақоми. Алломанинг айтишича, осмоннинг тўққиз даражаси шу ерда тугайди ва қолган – одамлар, ҳайвонлар, ўсимликлар ҳамда жисмлар руҳлари ерда қолишади.

[397] Насафий Азизиддин. Зубдат-ул ҳақойиқ - / Ҳақиқатлар қаймоғи / Н.Комилов тарж. – Т.:Камалак, 1996. -56 б. – 7-бет.
[398] Ўша асар, 7-бет.

Азизиддин Насафий шу ўринда “уруж ва нузул” концепциясини илгари суради. Унга биноан, ҳар қандай киши ўзини ва ўзлигини таниш, Роббисини англаш баробарида руҳан уруж қилиши, яъни кўтарилиши мумкин. Бироқ ҳар қандай одамнинг ўз манзили-мақоми борки, у асло бу мақомдан юқорига кўтарила олмайди. Ҳар қандай одамнинг энг юқори мақоми бешинчи осмонгача бўлиши мумкин. Бошқача айтганда, жидду жаҳд билан, Аллоҳнинг инояти билан бешинчи осмонгача руҳан кўтарилиш мумкин. Чунки олтинчи мақом пайғамбарлар мақоми ҳисо8бланиб, биламизки, дунёга бошқа пайғамбар келмайди. Бу дегани киши ҳаракат қилиб ўзининг асл мақомигача бориши мумкин, шу билан халқа ёпилади. Халқа ёпилгач, кўтарилишнинг иложи йўқ. Инсон интилар экан, йўлда тўхтаб қолиши мумкин, бироқ ўз мақомидан юксакроққа чиқолмайди.

Руҳлар ва жисмлар олами (мулк ва малакут) яратилгач, маъдан, ўсимлик, ҳайвон яратилди ва ниҳоят Одам яратилди.

Шу ўринда Имом Абу Ҳанифа мазҳабининг эътиқодига кўра, бу мақомлар касбий эмас, яъни уларни саъй-ҳаракатлар билан эгаллаб бўлмайди. Бу мақом ҳар бир киши яратилганда тақдир этилган улуши ҳисобланади. Бироқ Насафий бу фикрни мунозарали деб билади. Уни шариат аҳли айтишини таъкидлаган ҳолда, ҳикмат аҳлининг фикрини ҳам таъкидлаб ўтади, яъни, масалан, билим ва бойликка эга бўлиш одамнинг саъй-ҳаракатига боғлиқ.

Насафийнинг “уруж ва нузул” (“кўтарилиш ва тушиш”) концепциясининг тасаввуфга тааллуқли жойи борлиги учун биз бу масалага батафсилроқ тўхталмоқчимиз. Демак, инсон руҳи (агар у иймонли бўлса) ўзининг мақомига кўтарилиши ва яна қайта пастга тушиши мумкин экан. Бу ўринда табиий ўлим содир бўлгач, марҳумнинг руҳи учиб борадиган мақомат назарда тутилаяпти. Бироқ алломанинг ёзишича, “анбиё ва авлиёларнинг уружи табиий ўлим юз берганга қадар содир бўлади. Бошқалар табиий ўлимдан кейин кўрадиган нарсаларни улар табиий ўлимгача кўрадилар. ...Модомики, одамларнинг пардаси уларнинг жисми экан, руҳ жисмдан чиққан пайтда унинг олдида ҳеч бир парда – тўсиқ турмайди. ...Авлиёларнинг уружи эса бир хилдир – улар фақат жисмдан ажралган руҳ орқали кўтарила оладилар”[399].

“Ўлмасдан туриб ўлиш” ҳадисининг шарҳларидан бирига тўқнаш келдик, яъни солик шундай бир8 руҳий-психологик ҳолатга тушадики, унинг руҳи маълум муддатга танадан чиқиб, юксакликка уруж қилади ва бошқалар ўлгандан кейин кўрадиган нарсаларни кўради. Бу ҳолат Аллоҳнинг улуғ бир неъмати ҳисобланади ва буни одамлар билганларида эди, улар тун-кун ибодатда бўлишардилар, жидду-жаҳд қилган бўлардилар.

Азизиддин Насафий соликка учта нарсага аҳамият бериши кераклигини таъкидлайди. Улар – сулук (тариқат йўли), жазба (ишқ) ва уруж (кўтарилиш). Сулукка хос нарса ҳаракат, интилиш бўлса, жазбага хос нарса – тортилиш, завқу-шавқдир. Ниҳоят уружга хос нарса – карам, саховат, деб ҳисоблайди аллома. Бундан ташқари, соликнинг руҳи танадан чиқиб, кўп нарсаларни билиб, яна қайта танага киришини соликнинг илмал яқийн мартабасидан айнал яқийн мартабасига ўтиши, деб баҳоласа ҳам бўлади.

Шундай қилиб, биз юқорида Азизиддин Насафийнинг руҳ тўғрисидаги фикрларини таҳлил қилдик. Унинг фикрларидан икки хил ҳолатни фарқлаш мумкин: биринчиси, соликнинг тириклигида руҳи танасидан чиқиб, маълум муддат давомида кўплаб маълумотларни қўлга киритиб, яна қайта танага кириш (худди Пайғамбаримиз (с.а.в.)нинг меърожидек), иккинчиси, ҳар қандай кишининг табиий ўлимидан кейин то қиёматгача маълум маконда бўлиб, тағин қиёматда танага кириши. Иккала ҳолатда ҳам руҳнинг алоҳида сифатлари намоён бўлаяпти.

Адабиётлар рўйхати

1. Идрис Шах. Суфизм. – М.:”Клышников, Комаров и К”, 1994. – 445 с.

2. Имом Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. Иҳёу улумид-дин. (Дин илмларининг жонлантириш) Илм китоби. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2003. – 231 б.8

[399] Ўша асар, 12-бет.

3. Комилов Нажмиддин. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. К.1. – Т.: “Ёзувчи”, 1996. – 272-б. -36-бет.

4. Насафий Азизиддин. Зубдат-ул ҳақойиқ - / Ҳақиқатлар қаймоғи / Н.Комилов тарж. – Т.:Камалак, 1996. -56 б.

5. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: “Истиқлол”, 1999. – 180 б.

* * *

АБУ БАКР АҲМАД ИБН МУҲАММАД ИБН АЛ-ХАЙЙОТНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИ

THE SCIENTIFIC LEGACY OF ABU BAKR AHMAD IBN MUHAMMAD IBN AL-KHAYYAT

Шокирова Зулфия Нормаҳаматовна
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси
“Араб тили ва адабиёти алАзҳар” кафедраси доценти,
тарих фанлари номзоди

Ҳижрий тўртинчи аср – наҳв илмининг илмий ва назарий асослари мустаҳкамланган давр ҳисобланади. Бу даврда наҳв назарий жиҳатдан ривожланиб, фақат тил қоидаларини эмас, балки уларнинг умумий қонун ва мантиқий асосларини ҳам қамраб олди. Шунингдек, Басра ва Куфа мактаблари ўртасидаги баҳслар якунига етди. Шу тариқа наҳв илми фақат амалий фан эмас, балки назарий асослари, умумий қонун-қоидалари мавжуд бўлган мустақил илм сифатида шаклланди. Ар8аб тилшунослиги тарихида етакчи ўрин тутган Басра ва Куфа мактабларининг илмий меросини бирлаштиришда турли уламолар катта хизмат қилдилар. Улар орасида юртдошимиз Абу Бакр Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Мансур ал-Хаййотнинг хизмати алоҳида ўринга эга. Унинг асарлари ва илмий фаолияти орқали наҳв қоидаларининг мантиқий асосланишига катта ҳисса қўшилган. Ибн алХаййот шунингдек, тилшунос, тарихчи, шоир ва муҳаддис ҳам бўлган[400].

У Самарқандда туғилиб, кейин Боғдодга сафар қилган ва у ерда Басра ҳамда Куфа мактаблари намояндаларидан таълим олган. Олимнинг асосий фаолияти Боғдодда кечган бўлиб, у машҳур наҳвшунослар билан мунозара ва илмий баҳслар олиб борган. Манбаларда айтилишича, у хушмуомала, ҳалим ва илм аҳли орасида катта нуфузга эга шахс бўлган. АлХаййот кўп умр кўрмаган, у ҳижрий 320 (932 м.) йилда Басрада вафот этган[401].

Наҳвшунослар ҳақидаги манбаларда Ибн алХаййотнинг устозлари ҳақида кўп маълумот келтирилмаган. Лекин мавжуд маълумотларга таянилса, у Бағдодга келганида машҳур олимлар алМубаррад ва Саълабдан таълим олган. Ўша пайтда Саълаб Куфа мактабининг, алМубаррад эса Басра мактабининг энг йирик олимларидан бўлишган. Шунинг учун алХаййотнинг қайси мактаб намояндаси бўлгани ҳақида ихтилофлар мавжуд. Ибн Надим уни иккала мактаб вакили ҳисоблаган[402]. Чунки алХаййот муайян бир мактаб фикрига таянмаган, балки ўзи тўғри деб топган фикрни қўллаб қувватлаган. Бундай ёндошув Бағдод мактаби вакилларига хос бўлган. Шунинг учун алХаййот Басра ва Куфа мактабларининг йўналишларини уйғунлаштирган

400 مليكة ناصيروفا. مجلة الدراسات اللغوية. 2012. ص. 248

401 الشهري علي محمد أحمد. ابن الخياط وآراؤه النحوية والصرفية. م8جلة دراسات في اللغة العربية، جامعة أم القرى.. مجلد 7. عدد 2. 2020. ص. 36.

402 الشهري علي محمد أحمد. ابن الخياط وآراؤه النحوية والصرفية. مجلة دراسات في اللغة العربية، جامعة أم القرى.. مجلد 7. عدد 2. 0202. ص. 38.

олимлардан ҳисобланади. Ёқут Ҳамавийнинг ёзишича, машҳур тилшунос олимлар Абу Али алФорисий, Абу алҚосим азЗажжожий ҳамда Абу алФаҳд алХаййотнинг шогирдларидан бўлишган[403].

Олимнинг наҳв қоидаларини ўзига хос тарзда шарҳлаши шогирдларининг асарлари орқали етиб келган. Манбаларда келтирилишича, унинг баъзи қоидалари кейинчалик Ибн Жинний, Ибн Яъиш, ва ҳатто аз-Замахшарий асарларида иқтибос қилинган. Иқтибосларга таянган ҳолда қуйидаги асарлар Ибн ал-Хаййот томонидан ёзилган деб эътироф этилади:

1. **Маʿаний ал-Қуръон** – معاني القرآن.
2. **Ан-наҳв ал-Кабир** – النحو الكبير
3. **Ал- Муъжаз фи аннаҳв** – الموجز في النحو .
4. **Ал-Муқниъ** фи аннаҳв – [404] المقنع في النحو

Уларнинг кўп қисми бизга тўлиқ ҳолда етиб келмаган бўлсада, бу асарлар араб тилшунослигида катта аҳамиятга эга ҳисобланади.

Замонавий тадқиқотчилардан **Али Муҳаммад Аҳмад аш-Шаҳрий** “Ибн ал-Хаййот ва унинг наҳв ва сарфдаги қарашлари” номли мақоласида олимнинг наҳвшунос олимларнинг асарларида тарқоқ ҳолда сақланиб қолган наҳвга оид баҳсли масалаларини йиғиб, таҳлил қилган.

Доктор Моҳир Абдулғани Карим эса ўзининг “Ибн ал-Хаййот ва унинг наҳвдаги таъсири” мақоласида Куфа ва Басра мактаблари вакиллари ўртасидаги муноазараларни ёритиб берган. Хусусан, Саълаб ва Исҳоқ азЗажжож, Ибн алХаййотнинг азЗажжож ва алФорисий ўртасидаги мунозаралари ва айрим наҳвий қоидалар бўйича билдирган фикрларини таҳлил қилиб берилган[405].

Замонавий наҳвшунос олимлар Ибн ал-Хаййот илмий баҳсларда ўз фикрида қаттиқ туриши ва наҳв қоидаларини мантиқий асослаш ва Қуръон оятларидан далил келтириш билан ўзига хос илмий йўналишга эга бўлганлигини таъкидлайдилар.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, олимнинг асарлари йўқолиб кетгани учун уларнинг матнлари мустақил ҳолда ўрганиб чиқилмаган. Ибн ал-Хаййотнинг асарлари китоб шаклида эмас, иқтибослар шаклида келган бўлсада, улар орқали олимнинг наҳв илмида муҳим ўринга эгалиги ва Басра-Куфа мактаблари қарашларини уйғунлаштириб, қоидаларнинг мантиқий асосларини изоҳлаган буюк тилшунос бўлганлигини таъкидлаш мумкин. Абу Бакр Муҳаммад ибн ал-Хаййот — араб тилшунослигининг муҳим намояндаларидан бири. Унинг мероси нафақат араб наҳв илми, балки ислом илмий мероси учун ҳам катта аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

. المجلد.الشهري علي محمد أحمد. ابن الخياط وآراؤه النحوية والصرفية. مجلة دراسات في اللغة العربية، جامعة أم القرى، 7، العدد 2. 0202.

ياقوت الحموي. **إرشاد الأريب إلى معرفة الأديب**. تحقيق: إحسان عباس. - الطبعة الأولى. - بيروت. دار الغرب الإسلامي - 3991. الجزء الثالث،

الزبيدي أبو بكر محمد. طبقات النحويين واللغويين. تحقيق محمد أبو الفضل إبراهيم. دار المعارف – مصر.

ماهر عبد الغني كريم. ابن الخياط وأثره النحوي. مجلة كلية اللغة العربية بأسيوط. المجلد 01، العدد 1. 0991.

مليكة ناصيروفا. مجلة الدراسات اللغوية. 2102.

الأعلام. دار العلم للملايين - بيروت. الطبعة الخامسة - 2002. الجزء الخامس. خير الدين الزركلي.

* * *

[403] ياقوت الحموي. إرشاد الأريب إلى معرفة الأديب. تحقيق: إحسان عباس. دار الغرب الإسلامي - بيروت. الطبعة الأولى - 1993. الجزء الثالث، ص. 2309. أبو بكر محمد الزبيدي. طبقات النحويين واللغويين. تحقيق محمد أبو الفضل إبراهيم. دار المعارف – مصر. ص. 119.

[404] خير الدين الزركلي. الأعلام. دار العلم للملايين - بيروت. الطبعة الخامسة - 2002. الجزء الخامس، ص. 803

[405] دكتور ماهر عبد الغني كريم. ابن الخياط وأثره النحوي. مجلة كلية اللغة العربية بأسيوط. المجلد 01، العدد 1. 0991.

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING ILM HAQIDAGI QARASHLARI
(“Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul haqoyiq” va “Qobusnoma” asarlari misolida)

THE VIEWS OF CENTRAL ASIAN THINKERS ON SCIENCE
(on the example of the works “Qutadghu Bilig”, “Hibat al-Haqa’iq” and “Qabusnama”)

Bo‘riyev Jaloliddin Aliqulovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar
kafedrasi dotsenti v.b. PhD
E-mail: jburiyev1977@mail.ru

Badiiy adabiyotning markazida asosan inson, uning aql-zakovati, axloq-odobi, boshqalarga munosabati, ilm-fanga e’tibori, insoniylik mohiyati kabi masalalar turgan. Badiiy adabiyot ilk O‘rta asrning falsafiy, didaktik, pedagogik, ijtimoiysiyosiy, axloqiy, estetik, tarixiy merosini o‘rganish uchun nihoyatda muhim manbalardan biri bo‘lib, o‘z davrining ma’naviyatini, madaniyatining yutuqlari, darajasini o‘zida ifodalagan.

XI-XII asrlardagi turkiy xalqlar yozma adabiyoti jahon madaniyati tarixiga o‘zining kuchli rivoji bilan kirib keldi. U ko‘p jihatdan keyingi davrlar adabiyotining taraqqiyot yo‘llarini belgilab berdi. Bu davr adabiyotining eng asosiy tarixiy madaniy hamda adabiy-estetik ahamiyati ham mana shunda. Davr adabiyotining bu qadar yuksak darajaga ko‘tarilishida esa o‘tmishdagi milliy, ayniqsa, so‘z san’ati sohasidagi an’analar belgilovchi, hal qiluvchi o‘rin tutadi. XI asrda O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda yuz bergan kuchli madaniy va ilmiy taraqqiyot jahon xalqlari tafakkuri tarixida alohida o‘rin tutadi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq” asari o‘sha davrda vujudga kelgan didaktik asarlardan hisoblanadi. Bu ikkala asarda arab-fors adabiyotining, hind-tibet hududida amal qilgan ijtimoiy mafkuraning ta’siri mavjud. Ammo uning o‘zagini sof turkiy an’analar, qadim milliy madaniyatiga bevosita daxldor bo‘lgan qadriyatlar tashkil etadi. Kaykovusning “Qobusnoma” asari ham shu davrga xos bo‘lib, faqat u fors-tojik adabiyotida yaratilgan. Bu uchala asar bir davrda yaratilgan, bir xil didaktik ruh singdirilgan, ammo har birining o‘ziga xos ifoda yo‘sini, muallifning bayon qilish uslubi, asarlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyati o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Turkiy adabiyotning yirik asari Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari va Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq” asari, Kaykovusning “Qobusnoma” asaridagi ilm haqidagi qarashlarni qiyosiy o‘rganamiz:

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ilm haqida “Insonning qadri bilim bilan belgilanadi” 6-26-boblarda, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq” asarining 1-bobi “Ilm manfaati va jaholat zarari” haqida, Kaykovusning “Qobusnoma” asarining 31-bobi “Ilm bila baland martabali bo‘lmoq va qozigarlik zikrida” nomli bobda fikr bildirilgan. “Qutadg‘u bilig” va “Hibat ul haqoyiq”da ilm haqida maxsus bob ajratilgan bo‘lsa, ”Qobusnoma”da esa 31-bobning ma’lum bir qismida fikr yuritiladi.

“Qutadg‘u bilig”da:

“Bilig berdi yanluq bedudi bu kun,
Uqush berdi otru yazildi tugun”[406].

[406] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (nashrga tayyorlovchi Q.Karimov). “Fan” nashriyoti. -T: 1971.

(Mazmuni: *Bilim berdi, shu tufayli inson bu kun ulug‘likka erishdi, uquv berdi, so‘ng tugunlar yozildi*). Yusuf Xos Hojib O‘gdulmish, O‘zg‘urmish obrazlari orqali shoir o‘zining ilm-fan haqidagi qarashlarini oldinga suradi. Shoir bilim insonni ulug‘likka eltishini, bilim tufayli buyuk bo‘lishini uqtiradi va “bilim”, “uquv” 218 so‘zlari tanosib, “berdi” so‘zining takrori-radd us hashf ilal hashf san’atidan foydalanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, Yusuf Xos Hojib o‘z asarini yozishda qaysi asarlardan ilhomlangan degan savol o‘ylantiradi? Albatta, har qanday ijod mahsuliga nimadir ta’sir qilishi yangilik emas.

Masalan, Ibn Sinoning ilm-fan, ma’rifat haqidagi fikrlari “Kitob ash-shifo” asarida ham ifodalangan. Uning ilm-ma’rifat haqidagi g‘oyalari dunyo va insonni bilish haqidagi qarashlari bilan bog‘liqdir. Aql-idrokli, bilim-ma’rifatli, madaniyatli inson mavzusi uning “At-tayr”, “Solomon va Ibsol”, “Hayy ibn Yaqzon” kabi adabiy-falsafiy qissalarida davom etadi. Xuddi shunga o‘xshash fikrlarni Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq” asarida:

“Biliktin ayurman so‘zumga ula,
Biliklikka yo do‘st o‘zungni ula.
Bilik birla bilinur saodat yo‘li,
Bilik bil saodat yo‘lini bu” [407].

(Mazmuni:Bilimdan so‘zlayman - so‘zimni eshit:Bilimli kishiga o‘zni yaqin tut.Bilimdan ochilar saodat yo‘li, Bilim ol- saodat manziliga yet)

Adib bu misralarda Yusuf Xos Hojib misralariga hamohang bilim saodatga olib borishini, saodat manziliga borishing uchun bilimli kishiga o‘zingni yaqin tut,-deb ta’kidlaydi. “Ula” so‘zining ikki ma’noda kelishi-tajnis san’atini,“bilik” so‘zining takrori esa-radd us–sadr il al ibtido san’atini yuzaga keltirgan.

Tajnis-lafziy san’atlardan biridir. “Tajnis” so‘zining lug‘aviy ma’nosi jinsini, shaklini bir xil qilish, ya’ni jinsdoshlashishdir.

Badi’shunoslikda tajnis yoki jinos deb nutqda ikki va undan ortiq lafzdosh so‘zdan foydalanishga aytiladi”[408].

G.Xo‘janova bu san’atni “Ahmad Yugnakiyning o‘nlab baytlarida uchratish mumkinligini ta’kidlab o‘tadi”[409].

Shuni ta’kidlash kerakki, qaytarish san’ati, ya’ni so‘zlarning takror kelishi ikkala asar uchun ham umumiy hodisa sanaladi.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida: “Ulug‘larga barcha ilmni bilmak lozimdur”[410].

Kaykovus Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiydan farqli o‘laroq, u asarni nasriy usulda yozgan. Adib nomi ulug‘ kishi hamma ilmni bilishi kerakligini uqtiradi. Bu esa uchala adibning bilim haqidagi mushtarak fikr aytganligidan dalolatdir.

“Qutadg‘u bilig”da:

(153) “Biligsiz kishi barcha iglig bolur,
Igig emlemese kishi terk olur” [411].

(Mazmuni: Bilimsiz kishilar barchasi dardli bo‘ladi, dardni davolamasa, kishi bot o‘ladi).

Adib bilimli odamni “oltinga”, bilimli xotinni “mard kishiga”,bilimsizni “qurigan o‘tin” va “johil kishi”ga o‘xshatadi. Adibning bu o‘xshatishlari tashbeh, “bilimli” va “bilimsiz” so‘zlari esa tazod san’atini yuzaga keltirgan.

“Qobusnoma”da:

[407] Ahmad Yugnakiy. “Hibat ul haqoyiq”. (nashrga tayyorlovchi Qozoqboy Mahmudov) G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. -T: 1971.
[408] Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati.-T:1979.
[409] Kaykovus. Qobusnoma. “O‘qituvchi” nashriyoti. -T: 2011.
[410] O‘sha asar. (3)
[411] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (nashrga tayyorlovchi Q.Karimov). “Fan” nashriyoti. -T: 1971.

“…..har qancha usta bo‘lsang ham, ul bobda serrayg‘on kishidek bo‘lursan, ya’ni taajjublanib turg‘aysan”.(ya’ni bilimsiz bo‘lsang)[412].

Kaykovus bilimsiz kishini anqayib, taajjublanib turadidan kishi qiyofasini keltiradi. Bu bilimsiz kishining portretidir. Kaykovus adabiyotshunoslikda portret tasvir vositasidan foydalanib asarining badiiy qiymatini ko‘rsata oldi.(ta’kidD.Zaripova)

“Qutadg‘u bilig”da:

(154)”Yuri, ey biligsiz, iginni ota,
Biligsiz otin sen e bilge quta”[413].

(Mazmuni: Kel,yey bilimsiz, dardingga davo qil, bilimsiz bo‘lsang-tubansan, dono bo‘lsang-baxtlisan)

“Biligsiz kishi bir yemishsiz yig‘ach,
Yemishsiz yig‘achig‘ neku qilsu ach”
(Mazmuni:Bilimsiz kishi bir mevasiz yog‘och, mevasiz yog‘ochni nima qilsin och)

Yusuf Xos Hojib ilm ahlini juda qadrlaydi. Bilimsiz kishilarni mevasiz daraxtga, tuban kishiga o‘xshatadi. Ularga ilmsiz kishilarni johil va yilqi qatorida sanaydi, ularga tahqir bilan qaralishini, behuda bo‘lishlarini ta’kidlaydi. U barchani bilim va zakovat egasi bo‘lishga chaqiradi. Dunyodagi jami ezgu ishlar bilim tufayli bo‘ladi, bilim orqali ko‘kka uchish uchun ham yo‘l topiladi.

Shoir misralarda bilimsiz kishini mevasiz daraxtga o‘xshatishi–tashbeh, “yey biligsiz” so‘zi-nido san’atini, “biligsiz” so‘zining takrori-radd us hashv ilal ibtido, “dard” va “davo” so‘zlarinikeltirishidan tazod qo‘llagan.

“Qobusnoma”da: “Ilmni do‘st, bekorchi turmushni dushman tutg‘il” [414].

Kaykovus ikki adibdan farqli ravishda, ilmning kishiga do‘st bo‘lishini uqtiradi va qarama-qarshi so‘zlar-(“do‘st-dushman”) orqali pand-nasihat ta’sirchanligini oshiradi.

Bilim-boylik. Ammo uning boshqa boyliklardan farqi bor. Har qanday boylik o‘g‘rining qo‘liga tushsa tamom, undan ayrilib qolish mumkin. Biroq bilimni hech bir o‘g‘ri o‘g‘irlay olmaydi. Aksincha, u qancha ko‘p ishlatilsa, ishlatilsa, shuncha ko‘payib boraveradigan boylikdir. Shunga o‘xshash misralar “Hibat ul haqoyiq”da:

“Биликлик сўзи панд-насиҳат адаб,
Biliklikni o‘gdi Ajam ham Arab.
Tavorsizg‘a bilgi tuganmas tavor,
Hisobsizg‘a bilgi yorilmas hisob”[415].

(Mazmuni: Bilimli so‘zi pand-nasihat, adab,Bilimlini maqtar Ajam-u Arab. Bilim faqir uchun tuganmas boylik, Hisobsizga bilim yechilmas hisob.

Kuzatish mumkin. Yugnakiy ham bilimni tuganmas boylikka qiyoslaydi. Shoir bu misralarni kitobxonga yetkazishda fikr ta’sirchanligiga erishish maqsadida “Ajam”, “Arab” so‘zlari orqali talmeh, “pand-nasihat”, “adab” so‘zlaridan esa tanosib san’atini qo‘llaydi. “Biliklik” so‘zining takrori-takrir san’atini yuzaga keltirgan.

“Qobusnoma”da:”Aql bir moldurki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas, suvda oqmas”[416].

Kaykovus ham ikkala ijodkordek bilimni boylikka qiyoslaydi. Bu uchala ijodkor uslubining o‘xshashligidir. U bilim va aqlning ahamiyatini ulug‘lar ekan, uni moldunyodan ham yuqori qo‘yadi.

Xulosa shuki, uchala asarda ham bilim boylikka qiyoslanadi. Albatta, bilimi, ilmi bo‘lgan kishining moddiy ahvoli ham yaxshilanadi. O‘z bilimi tufayli hayotda to‘q yashashi mumkin. Bu

[412] Kaykovus. Qobusnoma. “O‘qituvchi” nashriyoti. -T: 2011.
[413] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (nashrga tayyorlovchi Q.Karimov). “Fan” nashriyoti. -T: 1971.
[414] Kaykovus. Qobusnoma. “O‘qituvchi” nashriyoti. -T: 2011.
[415] Ahmad Yugnakiy. “Hibat ul haqoyiq”. (nashrga tayyorlovchi Qozoqboy Mahmudov) G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. -T: 1971.
[416] O‘sha asar (3)

misralardagi g‘oya bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ikkala adib bu fikrni kengroq yoritishda tashbeh-(ya’ni bilim-boylikka qiyoslanadiladi) san’atidan mohirona foydalanadi. Uchala ijodkor har bir so‘zida, har bir misrasida turkiy va eron xalqlari uchun xos bo‘lgan fikrlash tarzi, mushohada usuli ko‘zga tashlanadi. Ularning qiyoslarida, o‘xshatishlarida, tasvirida turkiy va eron xalqlariga xos bo‘lgan an’analar davom etmoqda.

Kaykovus asarida ilmni chuqur o‘rganishni va biron yerda bilmaslikdan xijolat tortib qolmaslikni uqtiradi. U fikr yaxshi iboralar, ya’ni maqollar, hikmatli so‘zlar orqali bayon etilsa, u odamning ilmli ekanligi so‘zidan bilinib turishini ta’kidlaydi.

Yuqoridagi uchala ijodkordagi ilm haqidagi qarashlar ilmning buyukligi,u orqali orzu-tilakka erishish va ilmli odamning yurish-turishi, so‘zlashi haqida har bir ijodkorda o‘ziga xoslikda ifodalangan. Uchala asardagi fikrlar ilm, zakovat xususiyatlarini to‘laqonli ochib bera olgan. Bu bir davrda yaratilgan didaktik asarlardagi fikrlar an’anaviyligi hisoblanadi. Bu hodisa jahon adabiyotida ham o‘z aksini topishi “Qobusnoma” asari isbotlab bera olgan.

Xulosa shuki, uchala adib ham ilm-ma’rifat mavzusini asosli o‘xshatishlar orqali yetarlicha ochib bera olgan. Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy she’riy usulda o‘z fikrini bayon etsa, Kaykovus nasrda asarining badiiy quvvatini ko‘rsata oldi. Uchala ijodkor ham asariga o‘z uslubi bilan pand-nasihat ruhini singdira olgan. Didaktika qonuniyatlariga amal qilgan holda bu asarlar keyingi didaktik asarlarga ildiz bo‘la oldi. Xulosa qilib aytganda, didaktik asarlar hech qachon eskirmaydi, inqirozga yuz tutmaydi, yaroqsiz holga kelmaydi. Ular inson yo‘lini yoritib turuvchi zanglamaydigan oltin, eskirmaydigan tarix, aqchaga sotilmaydigan g‘urur va millat sha’nidir. Unda ilgari surilgan g‘oyalar asrlar oshsa ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Ularning barcha fazilatlarini sharhlamoq, talqin etmoq, zamon tarbiyasi manfaatlari yo‘lida xizmat qildirmoq muhim ahamiyatga ega.

O‘z davrining yetuk mutafakkiri sifatida ilm va ma’rifatning ahamiyatini targ‘ib qilgan Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus ilm va fanning barcha yutuqlarini xalq manfaatiga xizmat qildirishni, kishilarning tinmay bilim olishini, zulmat va jaholat zim-ziyoligini ma’rifat-ilm nuri bilan yengishni, ilm ahllarini parvarish qilish, qadriga yetishni targ‘ib qildi. Ular ilm va ma’rifatning barcha narsadan ustun ekanligini, dunyo ishlarining va hayotning birdan bir porloq va to‘g‘ri yo‘li ilmma’rifat homiysi sifatida maydonga chiqqan edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “O‘zbekiston” nashriyoti. -T: 2017.

2. Ahmad Yugnakiy. “Hibat ul haqoyiq”. (nashrga tayyorlovchi Qozoqboy Mahmudov) G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. -T: 1971.

3. Kaykovus. Qobusnoma. “O‘qituvchi” nashriyoti. -T: 2011.

4. Xo‘janova G. Hibat ul haqoyiq haqiqatlari. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. -T: 2001.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (nashrga tayyorlovchi Q.Karimov). “Fan” nashriyoti. -T: 1971.

6. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati.-T:1979.

* * *

HADIS TARIXIDA ILMIY SAFAR FENOMENI: IMOM TERMIZIY MISOLIDA

THE PHENOMENON OF SCHOLARLY TRAVEL IN THE HISTORY OF HADITH: THE CASE OF IMAM AT-TIRMIDHI

Jo‘rayev Muxriddin Xasanovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tarix va falsafa kafedrasi katta o‘qituvchi

Manbalarda asl ismi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Dahhok at-Termiziy[417], Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Shaddod hamda Muhammad ibn Iso ibn Yazid ibn Savra ibn Sakan tarzida zikr etilgan Termiziy, hadis tarixining “oltin davri” deb baholanadigan hijriy uchinchi asrning birinchi choragida, bugungi kunda O‘zbekiston hududiga kiruvchi Termiz yoki Termizga qarashli Bug‘ qishlog‘ida tug‘ilgan[418]. Termiziy bobosi Lays ibn Sayyor davrida Marvdan ko‘chib kelib Termiz shahriga joylashganini rivoyat qiladi[419]. Termiziy mansub bo‘lgan oilaning nima sababdan hijrat qilganligi haqida manbalarda aniq bir ma’lumot keltirilmagan. Biroq ba’zi tadqiqotchilar ularning Hijoz mintaqasidan jihod niyatida safarga chiqib, Termizga joylashgan bo‘lishi mumkinligini tahmin qilgan bo‘lsalar[420], boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa Xuroson mintaqasida joylashgan Marv ash-Shahjon shahrida yuz bergan ayrim siyosiy notinchliklar tufayli Termizga ko‘chganliklarini bildirganlar[421]. Termiziyning bolalik davri haqida yetarli ma’lumot mavjud emas, u Abbosiylar davlati hukmronlik qilgan davrda yashagan. Umr davomida to‘qqiz nafar Abbosiy xalifasining o‘zgarishiga guvoh bo‘lgan Termiziy, islom olamining turli hududlarida yuz bergan ko‘plab siyosiy, iqtisodiy va harbiy voqealarga ham shohidlik qilgan bo‘lishi mumkin. Uning tug‘ilgan paytda ko‘zi ojiz bo‘lganiga doir ba’zi rivoyatlar keltirilgan bo‘lsa-da, bu rivoyatlar olimlar tomonidan ma’qullanmagan[422].

Islom dunyosining turli hududlariga rihla (ilmiy safar)lar qilgan Termiziy nafaqat hadis rivoyat qilish, balki roviylar haqida ma’lumot to‘plash va tartibga solish maqsadida ham ilmiy safarlarda bo‘lgan. Biroq uning bu ilmiy sayohatlarga qachon chiqqaniga doir manbalarda aniq sana yoki tafsilotlar mavjud emas. Bu masalaga doir Nuriddin Itr (v. 2020), Termiziyning hadis rivoyat qilgan ustozlari – Muhammad ibn Amr (v. 236/851), Muhammad ibn G‘aylon (v. 239/854) va Qutayba ibn Said (v. 240/855)larning vafot sanalariga tayanib, hijriy 235-yillarda, ya’ni yigirma yoshlarda ilmiy safarlarga chiqqan degan xulosaga kelgan[423]. Nuriddin Itr asoslangan uslubdan kelib chiqib, hijriy 235-yil sanasining aniqlanishi Termiziyning ilmiy sayohatlarini aniqlash nuqtai nazaridan muhim bo‘lsa-da, to‘liq emas. Chunki Termiziy “Sunan‘” nomli asarining duolar bobida, undan

[417] az-Zahabiy, **Siyaru a‘lomi’n-nubalo,** 13/270; Ibn Hajar, **Tahzibu’t-tahzib**, 9/387
[418] az-Zahabiy, **Siyaru a‘lomi’n-nubalo**, 13/270-271
[419] al-Ishbiliy, **Fihrist ma ravohu ’an shuyuhihi**, 157; Muhammad Abdurrahman b. Abdurrahim al Muborakfuriy, **Tuhfatu’l-ahvaziy bi sharhi Jomi‘i’t-Termiziy** (Dımashq: Doru’l-Fayha, 2011), 1/325.
[420] Abdulloh b. Abdurrahmon as-Sa‘d, **al-Madhal ila Jom‘i’t-Termiziy**, (Riyod: Doru’l-avroq, 1443/2022), 1/16
[421] Mahmud al-Hamsh, **al-Imamu’t-Termiziy va manhajuhu fi kitabihi’l-Jomi‘** (Ammon: Doru’l-Fath, 1423/2003), 66-67
[422] az-Zahabiy, **Siyaru alomi’n-nubalo**, 13/270; Ibn Hajar, **Tahzibu’t-tahzib**, 9/389; Abu Muhammad Afifuddin Abdulloh b. As‘ad b. Ali b. Sulaymon al-Yofiy, thq. Halil al-Mansur **Mirʾatu’l-janon va ʿibratu’l-yakzon fi ma‘rifati havodisi’z-zamon** (Bayrut: Daru’l-Kutubi’l-ilmiyya, 1417/1997), 2/144.
[423] Nuriddin Itr, **al-Imamu’t-Termiziy va’l-muvozanatu bayna Jomi‘ihi va bayna’s-Sahihayn** (b.y.: Matba‘tu’l-Janna, 1390/1970), 12.

hadis rivoyat qilgan Abu Ja’far Muhammad ibn Ja’far as-Simnoniy al-Kumisiy (v. 220-yildan oldin) ismli ustozidan hadis rivoyat qilgani aniqlangan. Ibn Hajar esa Muhammad ibn Ja’far hijriy 220-yildan avval vafot etganini bildirgan[424]. Ibn Hajarning bu ma’lumotidan kelib chiqilsa, Termiziy hijriy 235-yilda emas, balki undan avval, ya’ni hijriy 220-yildan oldin ilmiy sayohatlarga chiqqan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas[425]. Darhaqiqat, Akram Ziyo Umariy ham Muhammad ibn Ja’farning vafot sanasini asos qilib, Termiziyning kichik yoshlik davridan boshlab hadis ta’limiga kirishganini ta’kidlagan[426]. Shuningdek, Ibn Asokir (v. 571/1176) Ahmad ibn Ubaydulloh ibn Suhayl (v. 224/838-39) ismli hadis shayxidan Buxoriy, Abu Dovud (v. 275/889) va Termiziyning hadis rivoyat qilganini zikr etib, ushbu shayxning bir qarashga ko‘ra hijriy 224, boshqa bir qarashga ko‘ra esa hijriy 227-yilda vafot etganini bildiradi. Ushbu rivoyat asos sifatida qabul qilinadigan bo‘lsa, Termiziy hijriy 224 yoki 227-yildan oldin rihla (hadis talabida ilmiy safar) qilgan bo‘lishi ehtimolga yaqin[427]. Termiziy yashagan davrda ilm olish maqsadida qilgan sayohatlari, uning o‘tmish olimlari rivoyatlarini yig‘ish va yetkazishda muhim bir ilmiy faoliyatni bajarganligini ko‘rsatadi.

Ilmiy safar (rihla) an’anasini davom ettirgan Termiziy, Islom olamining turli hududlariga — Xuroson, Ray, Marv, Buxoro, Samarqand, Vosit, Iroq, Hijoz, Kufa va Basra singari shaharlarga ilmiy safarlar qilgan[428]. U Misr va Shomga ilmiy safarlar qilmagani rivoyat etilgan[429]. Termiziyning Misr va Shom kabi muhim ikki shaharga ilmiy safar qilmasligining ortida davrning siyosiy va ijtimoiy muammolari yotgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Termiziy Islom olamining turli mintaqalarida yashagan ko‘plab muhaddislarning ilmiy majlislarida ishtirok etgan. U, avvalo Abdulloh ibn Abdurrahmon ad-Dorimiy (v. 255/869), Buxoriy va Abu Zur’a ar-Roziy (v. 264/878) kabi muhaddislarning turli yo‘nalishlarida bilimga ega bo‘lgan ko‘plab ulamolardan istifoda qilgan[430]. Shuningdek, Termiziyning Kufalik Qutayba ibn Sa’id al-Bag‘loniy (v. 240/855), Ali ibn Hujr al-Marvaziy (v. 244/858-59?), Hannod ibn as-Soriy (v. 243/857), Abu Kurayb Muhammad ibn ‘Ala (v. 248/863); Basralik Muhammad ibn Bashshor (v. 252/866), Muhammad ibn Muso az-Zamon (v. ?) va yana ko‘plab Iroqlik hamda Hijozlik olimlardan ham ilm olgani rivoyat qilinadi[431]. Ba’zi manbalarda Termiziyning Ahmad ibn Hanbal(v. 855) bilan uchrashganiga doir fikrlar bo‘lsa-da, bu borada aniq ilmiy dalil aniqlanmagan.

Termiziy Islom geografiyasining turli hududlarida yashagan ko‘plab muhaddislarning dars halqalarida qatnashib, hadis ilmi borasidagi bilim va tajribasini oshirgan. Ayniqsa, tarixiy jarayonda hadis ilmi sohasida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan Buxoriyga alohida e’tibor bergani ko‘zga tashlanadi. Chunki uning asarining turli joylarida Buxoriydan keltirilgan rivoyatlar bu fikrni tasdiqlaydi. Ustoz-shogird o‘rtasidagi yaqin munosabat mavjud bo‘lgan Buxoriy-Termiziy aloqasining Termiziyning “Sunan’” nomli asariga qancha hadis bilan aks etgani esa munozaralidir. Masalan, Turkiya diyonat jamg‘armasi Islom ensiklopediyasining “Termiziy” maqolasining muallifi

[424] Abu’l-Fazl Shihobuddin Ahmad b. Ali b. Muhammad al-Asqaloniy, **Taqribu’t-tahzib** (Bayrut: Daru’l qalam, 1411), 472; Muhammad b. Jafar haqida qarang. Abu’l-Hajjoj Jamoluddîn Yusuf b. Abdirrahmon b. Yusuf al-Mizziy, **Tahzibu’l-kamol fi asmo’i’r-rijol**, thq. Bashshor Avvod Ma‘ruf (Bayrut: Muassatu’r-Risola, 1413/1992), 25/13-14

[425] Ibnu’s-Salah Abu Amr Taqiyyuddin Usmon b. Salohiddin Abdirrahmon b. Muso ash-Shahrazuriy, **Ulumu’l-hadis**, thq. Nuriddin Itr (Damashq: Doru’l-Fikr, 1436/2015), 246-247

[426] Akram Ziya al-Umariy, **Turosut-Termiziyyi’l-’ilmiy** (Madina: Maktabatu’d-Dor, 1412/1991), 7.

[427] Abu’l-Qosim Ali b. al-Hasan ad-Dimashqiy b. Asokir, **al-Mu‘jamu’l-mustamil ‘ala zikri asmo‘i shuyuhi’l-a‘immati’n-nubal**, thq. Sakina ash-Shihobiy (Dimashq: Doru’l-Fikr, 1401/1981), 53;

[428] Ibn Hajar, **Tahzibu’t-tahzib**, 9/387.; az-Zahabiy, **Siyaru a‘lomi’n-nabalo**, 13/271

[429] az-Zahabiy, **Siyaru a‘lomi’n-nubalo**, 13/271; as-Sa’d, **al-Madhal ila Jomi‘i’t-Termiziy**, 1/20-21

[430] az-Zahabiy, **Siyaru a‘lomi’n-nubalo**, 13/271; **Tarixu’l-islam**, 20/459; Umar b. Muhammad b. Ahmad an-Nasafiy, **al-Qand fi zikri ulamai Samarqand**, thq. Yusuf al-Hodiy, (Tehron: Miratu’t-Turos, 1419/1999), 296

[431] Abu Sa‘d Abdulkarim b. Muhammad b. Mansur as-Sam‘oniy, **al-Ansob** (Hindistan: Doiratu’l Ma‘arifi’l Usmaniyya, 1397/1976), 3/42

M.Yashar Kandemir, Termiziyning "Sunan" asarida ustozidan hech qanday hadis rivoyat qilmaganini bildiradi[432]. Ammo ushbu asarning duolar bobida keltirilgan rivoyatlardan uchtasi uning ustozidan — ya'ni Buxoriydan rivoyat qilinganini ko'rish mumkin[433].

Termiziy hadis sohasi bo'yicha keng doiradagi talabalar tomonidan izchil kuzatib borilgan va uning rivoyat qilgan hadislarini ko'plab kishilar boshqa hududlarga yetkazgan. Islom olamining turli mintaqalaridan kelib, Termiziyning ilmiy salohiyatidan foydalanmoqchi bo'lgan ba'zi talabalar borligi manbalarda zikr etilgan. Manbalarga ko'ra, Termiziyning yetakchi talabalaridan ayrimlari quyidagilardir: Abu Bakr Ahmad ibn Ismoil as-Samarqandiy (v. ?), Abu Hamid Ahmad ibn Abdulloh ibn Dovud al-Marvaziy (v. ?), Husayn ibn Yusuf al-Firabriy (v. ?) va Abdulloh ibn Nasr (v. ?)[434].

Termiziyning "Sunan'" asarida keltirilgan rivoyatlarning isnodida ishtirok etgan roviylarni tahlil qilganda, u "bakkoin" (ko'p yig'laydiganlar) an'anasiga mansub deb hisoblangan Abdulmalik ibn Abjar (v. ?), Diyor ibn Murra (v. 132/750) va Mutarrif ibn Torif (v. 143/761) kabi shaxslardan ba'zi hadislar rivoyat qilgani ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, Termiziy duolar bobida qo'rquv va g'amga asoslangan dindorlik tushunchasiga ega bo'lgan roviylardan ayrim hadislarni rivoyat qilgan. Ustuvor ravishda obidlik va zohidlik bilan tanilgan, Termiziyning "Sunan" asarining duolar bobida zikr etilgan ayrim roviylar quyidagilardir: Abdurrahmon ibn Mil (v. 100/718), Yazid ibn Abon ar-Raqqoshiy (v. 120/737 yildan oldin), Sobit ibn Aslam al-Bunoniy (v. 123/740), Osim ibn Kulayb al-Jarmiy (v. 137/754), Lays ibn Abu Sulaym (v. 148/765), Hayva ibn Shurayh (v. 158/774), Hammad ibn Salama (v. 167/783), Solih ibn Bashir al-Murriy (v. 172/788), Ammor ibn Muhammad (v. 182/798), Rishdin ibn Sa'd (v. 188), Shuja' ibn al-Valid (v. 203/818), Ali ibn Abu Bakr (v. ?), Hannod ibn as-Sariy (v. 243/857), Husayn ibn Ali (v. 246/860), Is'hoq ibn Mansur (v. 251/865) va Muhammad ibn al-Vazir (v. 257/870)[435].

Termiziyning mazkur roviylardan hadis rivoyat qilishda ko'rsatgan ehtiyotkorligi uning zohid shaxsga aylanganini ko'rsatadi. Darhaqiqat, bu borada rivoyat qilinishicha, Buxoriy vafotidan keyin ilm, hifz va zohidlik jihatlarida Termiziyga o'xshash darajadagi boshqa bir shaxs qolmagan. Shuningdek, Termiziy zohidona hayot tarzini olib borganidan ko'p yig'lagani va natijada ko'rish qobiliyatini yo'qotib, yillar davomida shu holatda yashagani haqidagi rivoyatlar ham bu fikrni tasdiqlaydi[436].

Termiziyning vafot etgan joyi va vaqti borasida turli rivoyatlar keltirilgani kuzatiladi. Bibliografik manbalar tahlil qilinadigan bo'lsa, Termiziyning vafot etgan joyi va vaqti haqida beshta turli rivoyat mavjudligi aniqlanadi[437].

Foydalanilgan manbalardan kelib chiqib zikr qilingan turli qarashlar quyidagilardir:

1. Hijriy 270-yillarda Bug' qishlog'ida vafot etgan[438].
2. Hijriy 275-yilda Bug' qishlog'ida vafot etgan[439].

---

[432] Kandemir, "Tirmizî", 41/202

[433] at-Termiziy, "Da'avat", 57 (No. 3781); 111 (No. 3882); 118 (No. 3913)

[434] Termiziyning shogirdlari haqida qarang: az-Zahabiy, **Siyaru a'lomi'n-nubalo**, 13/271-272.

[435] at-Termiziy, "Sifatu'l-Janna", 13 (No. 2735); "Da'avat", 46 (No. 3765); 63 (No. 3797, 3798); 66 (No. 3803, 3804, 3805); 72 (No. 3813); 74 (No. 3817); 80 (No. 3827); 86 (No. 3839); 87 (No. 3840); 92 (No. 3849); 97 (No. 3855, 3857); 111 (No. 3880); 114 (No. 3886); 117 (No. 3891); 118 (No. 3901, 3907, 3921, 3922, 3925); 122 (No. 3944); 126 (3949, 3950).

[436] az-Zahabiy, **Tarixu'l-islam**, 20/459; Ibn Hajar, **Tahzibu't-tahzib**, 9/389;

[437] Asiye Özoğlu, **Fethinden Moğol İstilasına Kadar Moğol Tarihi**, 17

[438] as-Sam'oniy, **al-Ansob**, 3/43; Abu'l-Hasan Izzuddin Ali b. Muhammad b. Muhammad ash-Shayboniy al Jazariy, **al-Lubob fi tahzibi'l-ansob** (Bag'dod: Maktabatu'l-Musanna.), 1/213.

[439] as-Sam'oniy, **al-Ansob**, 3/43.; Abu'l-Abbos Shamsuddin Ahmad b. Muhammad b. Ibrohim b. Abi Bakr b. Hallikon, **Vafayotu'l-aʿyon va anboʾu abnoʾi'z-zamon mimma sabata bi'n-naql avi's-samoʿ av ashbatahu'l-ʿayon**, thq. Ihsan Abbas (Bayrut: Doru Sodr, 1414/1994), 4/278.

3. Hijriy 279-yil Rajab oyining 13-kunida Termizda vafot etgan[440].
4. Hijriy 279-yil Rajab oyining 13-kunida (milodiy 892-yil 9-oktabr) Termizga qarashli Bug‘ qishlog‘ida vafot etgan va shu yerga dafn etilgan[441].
5. Hijriy 280-yildan keyin vafot etgan[442].

Termiziyning vafot sanasi borasida islom olimlari tomonidan keltirilgan xronologik ma’lumotlar tahlil qilinadigan bo‘lsa, Termiziy hijriy 270–280 yillar oralig‘ida vafot etganini anglash mumkin. Olimlarning aksariyati Termiziy hijriy 279-yilda vafot etganini ta’kidlaydilar.

Xulosa: Imom Termiziy misolida hadis tarixida ilmiy safar (rihla) fenomenining o‘rganilishi, ushbu amaliyotning faqat rivoyat yig‘ish emas, balki ilmiy tanqid, ishonchlilik darajalarini aniqlash, hadis ilmining geografik kengayishi va roviylar tarmog‘ini barpo etishdagi muhim vosita bo‘lganini ko‘rsatadi. Termiziyning Xuroson, Iroq va Hijoz mintaqalaridagi faol ilmiy sayohatlari, u qatnashgan ilmiy majlislar va ustozlardan olgan bilimlari, uning hadis ilmining metodologik asoslarini chuqur egallaganini namoyon etadi. Termiziyning rihla an’anasiga sodiqligi va zohidlik bilan uyg‘un hayot tarzi uni hadis ilmining yirik namoyandalaridan biriga aylantirgan.

Tavsiyalar:

1. Hadis ilmi tarixida rihla fenomenining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va metodologik kontekstda alohida o‘rganilishi zamonaviy islomshunoslik tadqiqotlarining dolzarb yo‘nalishiga aylanishi lozim.
2. Termiziyning ilmiy safarlari xaritasi asosida hadis ilmining tarqalish geografiyasini vizual xaritalar va raqamli platformalar orqali taqdim etish tavsiya etiladi.
3. Imom Termiziyning hadis rivoyatidagi metodologiyasi va isnod tizimi zamonaviy hadis tadqiqot uslublari bilan qiyosiy tahlil qilinishi zarur.
4. Ilmiy safar va ustoz-shogird aloqalarining o‘zaro ta’siri islom ilmlarining rivojlanishida markaziy omil sifatida chuqur tadqiq etilishi kerak.

* * *

БАХАУДДИН НАКШБАНД И ЕГО ШКОЛА ТАСАВВУФ

BAHAUDDIN NAQSHBAND AND HIS SCHOOL OF TASAWWUF

Ахадов.А.С
Преподаватель кафедры “История” Навоийского Государственного Университета

Одно из крупных мистических направлении, возникший в Центральной Азии в 14 веке, был тарикат Накшбанди. Этот тарикат связан с именем Ходжа Мухаммеда Бахауддина Накшбанда.

Шейх Бахауддин Накшбанди в течение своей жизни трижды совершил хадж – паломничество в Мекку. Во время последнего хаджа он посетил г. Мерв и прожил там некоторое время.

[440] az-Zahabiy, **Siyaru a‘lomi’n-nubalo**, 13/277; Ibn Hajar, **Tahzibu’t-tahzib**, 9/388.

[441] az-Zahabiy, **Siyaru a‘lomi’n-nubalo**, 13/277; Abu Abdilloh Shamsuddin Muhammad b. Ahmad b. Usmon az-Zahabiy, **Tazkiratu’l-huffoz** (Hindistan: Daru’l Ma‘orifi’l-Usmaniyya, 1377/1957), 2/634-635; **Tarixu’l-islam**, 20/461; Ibn Hajar, **Tahzibu’t-tahzib**, 9/388; Ibn Kasir, **al-Bidoya va’n-nihoya**, 14/647-649; Abu’l-Faloh Abdulhay b. Ahmad b. Muhammad as-Solihiy al-Hanbaliy, **Shazaratu’z-zahab fi ahbori man zahab**, thq. Abdulqodir al-Arnout- Mahmud al-Arnout (Bayrut: Daru Ibn Kasir, 1408/1988), 3/327-328; as-Sam‘oniy, **al Ansob**, 3/42-43; al-Yofiy, **Mir’atu’l-janon**, 2/144

[442] Abu Ya’lo al-Halil b. Abdullah b. Ahmad b. al-Halil, **Kitabu’l-irshod fi ma’rifati ’ulamai’l-hadis**, thq. Muhammad Said b. Umar Idris (Riyod: Maktabatu’r-Rushd, 1409/1989), 905.

Затем шейх переехал в Бухару и жил в селении Каср аль-Арифан, что прежде называлось Каср аль-Хиндуван (Дворец индусов). Слава его как наставника распространилась во все стороны. Шейх, являясь духовным последователем пира Гиждувани, Накшбанди, развил и усовершенствовал учение ордена Ходжаган и вскоре сформировал 11 правил молитвенной медитации, и выработал особую методику дыхания.[443]

Его правила, метод зикра, очень быстро распространился по всей территории Средней Азии. Очень скоро, учение завоевало популярность в Османской Турции, мусульманском Поволжье и даже в Индии и арабских странах. До сих пор метод зикра востребован ханафитами (ханифитами) - последователями одной из четырёх религиозно-правовых школ или систем (мазхабов) суннитского ислама, живущих в тарикате «Накшбандий».[444]

Его биография практически неизвестна, потому что он запретил ученикам записывать его деяния, и большинство сочинений появилось после его смерти. Трактат *Анис ат-Таибин*, который написал Салахаддин Мухаммад Бухари, посвящён больше вопросам духовности и морали.

Шейх Ариф Дик Карани, один из лучших халифов сайида Амира Кулали, рассказывал: «Однажды мы отправились для посещения шейха Бахауддина в Каср аль-Арифан. Когда мы возвращались в Бухару, за нами шла группа нищих. Один из них шел и порицал шейха Бахауддина. Мы сказали этому человеку: «Ты не знаешь шейха хорошо, и тебе нельзя плохо думать и неучтиво отзываться об авлия!» Он не послушался. И тут же оса, залетела ему в рот и ужалила. Его пронзила сильная и нестерпимая боль. Мы сказали ему: «Это из-за твоего неучтивого и дурного мнения о шейхе». Он сильно заплакал. Затем он покаялся, взмолился о прощении и тот же час избавился от боли…

Для испытания шейха Накшбанди пришли алимы явных знаний, которые всегда проявляли недоверие к нему. Их было 13 человек. В то время шейх находился в уединении, в пещере, которая вмещала только одного человека. Его посуда тоже была рассчитана на одного человека. Он завел всех 13 человек в пещеру и накормил. Когда они уходили, один из них сказал: «Мы так ничего и не спросили у него». На что другой ответил: «Разве тебе не хватило того, что он всех нас завел в эту маленькую пещеру и накормил из этой маленькой кастрюли. Чего же ты еще хочешь?».Таких удивительных каромот, которые демонстрировал шейх Бахауддин, невозможно сосчитать. Вся его жизнь полна таких удивительных историй.[445]

О Хадже Бахауддине Накшбанде, его учении, а также о накшбандийских шейхах написано в рукописном виде и хранится около 200 книг, имеющих отношение к Накшбандийя. Сам Хазрат Накшбанд создал такие произведения на персо-таджикском языке как: «Хаётнама» (Книга жизни), «Далилул-ашикин» (Свидетельство влюблённых), «Аврод» (Покровы). Среди многочисленных учеников и продолжателей духовной традиции Хазрата Бахауддина Накшбанда наиболее известны Хазрат Алауддин Аттар, Хаджа Порсо Бухари, Мавлана Мухаммад, Хаджа Мусафир Хорезми и другие. Хазрату посвящены книги Хаджи Порсо «Макомати Бахауддин Накшбанд», «Алфоси Кудсия», трактат Мухаммада Бакира «Макомати Хаджа Бахауддин Накшбанд» (Ступени суфийского пути). С большим почтением о Хазрате писали Джами, Навои, Али Сафи, Махдуми Аъзам, Хаджа Ахрор и другие авторы

Бахауддин разработал одиннадцать принципов суфийского пути Накшбандийа, из которых восемь ступеней духовного восхождения принадлежат Гиждувани.[446]

---

[443] См.https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%B0%D1%85%D0%B0%D1%83%D0%B4%D0%B4%D0%B8%D0%BD_%D0%9D%D0%B0%D0%BA%D1%88%D0%B1%D0%B0%D0%BD%D0%B4

[444] См. https://arboblar.uz/uz/people/bakhouddin-nakshbandi

[445] См.https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%B0%D1%85%D0%B0%D1%83%D0%B4%D0%B4%D0%B8%D0%BD_%D0%9D%D0%B0%D0%BA%D1%88%D0%B1%D0%B0%D0%BD%D0%B4

[446] См. Хамиджон Хомидий. Тасаввуф алломалари. Т.: Шарк, 2009, 180 стр.

1. **«Вукуфи замани»** – «остановка времени». Отчитываться перед собой о каждом проведенном мгновении и о каждом состоянии (халь); Благодарить Аллаха за время и состояние, проведенное в поминании Аллаха, раскаиваться за время, растраченное в пренебрежение об Аллахе. Другими словами, в состоянии «кабз» продолжать просить прощения у Аллаха, в состоянии «баст» продолжать благодарить Аллаха. Салик должен понимать ценность времени, должен обращать внимание на каждый вдох и выдох, сохранять чувство муракаба. Понятия часа и времени сходны с верстовыми столбами на пути духовного развития.[447]

2. **«Вукуфи адади»** – «ведение исчисления». Во время зикра необходимо уделять внимание счету, избегать рассеянности сознания и добиваться концентрации его на одной точке, концентрировать внимание. Наряду с тем, что контроль количества зикра имеет большое значение, главное – не количество, а качество зикра. Даже если количество зикра мало, сердце должно быть в присутствии того, кого оно поминает. Осознание ценности контроля количества зикра, считающееся первой ступенью тайного знания, препятствует проникновению в сердце бренного и преходящего.

3. **«Вукуфи кальби»** – «бывает двух типов»:

а) совершающий зикр каждую секунду думает об Аллахе, не дает возможности проникнуть в сердце чему-либо, кроме Аллаха;

б) направленность совершающего зикр к своему сердцу. То есть, обращаясь во время зикра к участку своего сердца, расположенному под левым соском и напоминающему стеклянный эллипсоид (шишку), обеспечить присутствие в этом кусочке сердца поминания об Аллахе. Так же, как мы, направляясь к Каабе, обращаемся к Вездесущему Аллаху и открываем свои руки перед Ним с мольбой, так и, обращаясь во время зикра к своему сердцу, мы способствуем наполнению его проявлениями Господа.

4. **«Хуш дар-дам»** – «ум в сердце, дыхании»: «хуш» — ум, «дам» — дыхание. Сохранять присутствие Аллаха в каждом вдохе-выдохе, не позволять себе даже ни одного вздоха в пренебрежении к Аллаху. Потому что дыхание без небрежности наполняет сердце присутствием Аллаха. В Накшибандийя основой развития является дыхание. Остерегаться небрежности в отношении Аллаха во время вдоха-выдоха и промежутка между ними означает оживить в себе имя Аллаха аль-Хаййи. Тот, кто защитит свое дыхание подобным образом, избавляется от беспокойства по поводу земного и приобретает уверенность в будущем, став своего род «Ибн аль-Вакт» или «Человеком времени».[448]

5. **«Назар бар-кадам»** – «взгляд на шаг». Подразумевает направление взгляда на кончики пальцев ног. Если ходить, глядя по сторонам влево и вправо, внимание рассеивается, сердце наполняется мирским. Тот, кто концентрирует свой взгляд на кончиках пальцев своих ног, сохраняет себя и от взглядов на запретное, и от занятости преходящим, потому что завеса в сердце возникает от внимания к окружающему без необходимости. Глаз является шпионом сердца. То, что видит глаз, занимает сердце. Те кадры, которые снимает камера глаза, откладываются в сердце. Хранящиеся в сердце, они занимают у сердца большую часть времени без необходимости. Направленность взгляда на кончики пальцев ног есть проявление скромности, адаба, норм шариата. Это соответствует сунне Досточтимого Пророка (саллаллаху-алейхи-васаллям).

6. **«Сафар дар-ватан»** – «путешествие по Родине». Движение от сотворенного мира к Творцу. Избавление салика от дурного характера, человеческих свойств и обретение прекрасной нравственности, свойств ангелов есть путешествие к своей истинной родине. Сюда же относится и странствие человека, ищущего наставника, с целью найти себе шейха.

[447] См. Хамиджон Хомидий. Тасаввуф алломалари. Т.: Шарк, 2009, 181 стр.
[448] См. Хамиджон Хомидий. Тасаввуф алломалари. Т.: Шарк, 2009, 181 стр.

Досточтимый «Ибрахим сказал: «Я иду к моему Господу, который наставит меня на прямой путь» (ас-Саффат, 37.99) именно о внутреннем духовном путешествии такого рода. В тасаввуфе к такому духовному путешествию относятся все действия, направляющие человека от сотворенного мира к Творцу.

7. **«Хилват дар-анджуман»** – «находясь среди людей, быть в уединении». Состояние одиночества, несмотря на общение с людьми. Одиночество среди толпы, пребывание с Господом, находясь в обществе людей. Этот принцип можно описать как: «Руки направляются за прибылью, душа направляется к Любимому»(Даст бакорудил ба ёр).Занятость души и сердца Истинно Сущим, в то время как тело и внешние действия обращены к сотворенному миру. Для осуществления этого состояния салик должен посвятить себя полностью зикру в истинном значении этого слова, чтобы даже среди большого скопления людей он не слышал ничего, кроме поминания Всевышнего Господа, чтобы ничто не могло отстранить его от зикруллах. Таким образом, перед саликом (духовным путником) открывается истина аята: «Поминай имя твоего Господа и всецело посвяти себя Ему» (аль-Музаммиль, 73.8).

8. **«Ёд-кард»** зикр языка вместе с сердцем. Означает совершение зикра языком салика, достигшего степени муракаба. Так как сердце связано с материальными объектами, от нечистоты этих вещей загрязняется сердце. При совершении зикра языком сначала очищается от грязи язык, затем – сердце. Таким образом, салик поднимается от степени му-ракаба к степени мушахада. Во время зикра, называемого «нафи-исбот», а также во время урока муракаба закрываются глаза, язык прижимается к нёбу, и на задержке дыхания произносится формула таухида.

9. **«Боз-гашт»** – «возвращение». Этот принцип означает прогонять все посторонние мысли, негативные или позитивные, которые непроизвольно приходят на ум во время зикра. Особенно, при зикре «нафи-исбот» после возобновления дыхания, при произнесении словесной формулы: «Илахи анта максуди варидака матлуби» (О Аллах! Только Ты – моя желанная цель, и только Твоего довольства взыскиваю и ничего другого).

10. «**Нигох-дошт»** – «сохранение». Этот принцип осуществляется через препятствование проникновению всего бренного и воспоминаний о прошлом в дом сердца, являющийся местом божественных проявлений. Другими словами, это отключение воображения. Нет необходимости говорить, насколько это трудная задача.

11. **«Ёд–дошт»** – «поминовение». Это понятие, которое можно еще описать как удержание взора, глубокое понимание, означает пребывание с Аллахом, не говоря это вслух, и удержание этого состояния. Достижение высшего предела в зикре, пребывание в состоянии хузур и степени «шухуд».[449]

Общий эти зикр совершается раз в неделю под руководством шейха поздно вечерком после пятой неизменной молитвы. Члены братства практикуют тихий зикр. Необходимо отметить что почти вся персоязычная поэзия — это творчество суфиев: Санаи, Руми, Хафиз, Джами, Низами, Газоли, Шамси Табрези, Мавлавии Чунуни… и многие учёные также были суфиями.

* * *

[449] См. Хамиджон Хомидий. Тасаввуф алломалари. Т.: Шарк, 2009, 181 стр.

ФАҲРИДДИН РОЗИЙНИНГ “ЛАТОИФ УЛ-ҒИЁСИЁТ” АСАРИДАГИ ДИНИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАР

RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL PERSPECTIVES IN FAKHR AL-DIN AL-RAZI’S LATA’IF AL-GHIYĀSIYYĀT

Хожиакбар Нуриддинов,
Ўзбекистон халқаро ислом академиси
Муттоз шарқ филологияси факультети
“Араб тили ва адабиёти ал-Азҳар”кафедраси катта ўқитувчиси
E-mail:hojiakbar8228@gmail.com

Ислом дунёсида илм ва фалсафа ривожида айрим олимларнинг ҳиссаси беқиёсдир. Шу жумладан, Фахриддин Розий — ислом оламининг буюк мутафаккири, илоҳиётчи ва файласуфларидан бири бўлиб, унинг илмий ва фалсафий мероси XIII аср охири – XIV аср бошларига тўғри келади. Баъзи манбаларда унинг тўлиқ исми Абу Ҳамид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Розий деб келтирилади. У Мовароуннаҳр ёки форс ислом маконида фаолият юритган бўлиб, ўша даврнинг энг муҳим илмий марказларида таҳсил олган.

Розий асосан диний ва фалсафий йўналишда фаолият юритган. Унинг илмий ишлари тафсир, ақида, ҳадис, ахлоқшунослик ва фалсафа соҳаларини қамраб олади. У илмни нафақат билим манбаи сифатида, балки инсон руҳиятини тарбиялаш ва ахлоқий мукаммалликка етакловчи восита сифатида кўради. Розийнинг асарлари илм, ахлоқ, фалсафа ва тафсир соҳаларини қамраб олади, аксарияти қўлёзма шаклида сақланиб қолган. Энг машҳур асари — Латоиф ул-Ғиёсиёт, у илмнинг инсон руҳиятидаги, ахлоқий ва ижтимоий аҳамиятини ёритади. Фахриддин Розий асарлари орқали илм ва ахлоқ, тафаккур ва ибодатни уйғунлаштириб, Ислом дунёсида маънавий ва илмий тафаккур ривожига сезиларли ҳисса қўшган.

. Фахриддин Розий Китоб ал-Маърифа каби бошқа асарларда ҳам илмнинг моҳияти ва инсон ҳаётидаги ўрнини таҳлил қилади. Бу асарлар илмнинг тафсирий-фалсафий жиҳатларини, тафаккур ва мантиқий таҳлил орқали ҳақиқатни англаш имкониятларини очиб беради. Розий илмни ақл билан уйғунлаштириш, ахлоқий фазилатларни ривожлантириш ва маънавий юксалишга етаклаш воситаси сифатида кўради.

Шунингдек, Латоиф ул-Ғиёсиёт асарида Розий илмни нафақат дунёвий билим, балки руҳий камолот, қалбни поклаш ва Аллоҳга яқинлашиш воситаси сифатида тушунтиради. Унда илм ва ибодат, тафаккур ва ахлоқий қадриятлар уйғунлиги кенг ёритилган. Розий фикрига кўра, илм фақат маълумотлар тўплами эмас, балки шахсни тарбиялаш ва ижтимоий жамиятни маънавий жиҳатдан юксалтириш воситаси ҳисобланади

Розийнинг илмий меросини бойитган жиҳат — у илмий мунозараларда иштирок этиши ва ўз даврининг олимлари билан мулоқот қилиши. Бу орқали у қарашларини шакллантириб, илмий тафаккурини кенгайтирган. Унинг асарлари нафақат Мовароуннаҳр ва Форс ҳудудида, балки бутун ислом оламида илмий эътибор қозонган. Шу билан бирга, асарларида илмнинг ижтимоий аҳамияти ҳам алоҳида таъкидланади: илм орқали жамиятни ахлоқий ва маънавий жиҳатдан юксалтириш, адолат ва ижтимоий барқарорликни таъминлаш мумкинлиги кўрсатилади. Шундай қилиб, унинг илмий мероси нафақат назарий, балки амалий аҳамиятга ҳам эга.Фахриддин Розийнинг Латоиф ул-Ғиёсиёт асари ислом оламининг диний-фалсафий тафаккурида муҳим манба ҳисобланади. Асар қўлёзма шаклида сақланган бўлиб, илм, ахлоқ,

руҳият ва жамиятнинг ўзаро боғлиқлигини ёритади. Розий ўз даврининг илмий ва диний анъаналари доирасида, илм ва ахлоқ, тафаккур ва ибодатни уйғунлаштирган ҳолда, инсоннинг маънавий камолотга етиш йўлларини ифодалаган. Розий ақлий тафаккур, илм фазилати ҳақида шундай дейди: "Худованднинг такидлашича: менинг фазилатим барча ўзим яратган маҳлуқотлар жумласидан бўлганидек илм фазилатининг далили ҳам ҳабарларнинг қатъий ва кўплигидандир" . Бундан кўриниб турибдики, илм ўрганишни Худо ўз амри билан буюради.

Бу ўринда "илм" сўзига тўхталиб ўтсак. Исломда илм талаб қилишлик ҳар бир муслим ва муслима учун фарз амал ҳисобланади. "Илм" сўзи Қуръони Каримда 765 маротаба такрорланган. Аллоҳ Мужодала сураси, 11-оятида шундай марҳамат қилади: "Аллоҳ сизлардан имон келтирган ва илм ато этилган зотларни (баланд) даража (мартаба)ларга кўтарур…".

Ислом чақираётган илм қандай илм? Фақат диний илмми? Йўқ, бу илм барча билимсизликни бартараф этадиган илмлардир. Диний илмлар бўлса ҳам, дунёвий илмлар бўлса ҳам (табиат илми, психология, тарих, жуғрофия, социология, алгебра ва бошқалар) Аллоҳ мусулмонларни шу барча соҳаларни ўрганишга тарғиб қилади. Бу орқали инсонлар Аллоҳнинг қудрати ва улуғлигини чуқур тушунишлари мумкин. Шунингдек, улар ҳаётларида бу илмлардан амалиётда фойдаланадилар. Илм сифати ҳақида Розий Қуръон оятларида табиий илмларни ўрганишга чақириқ борлигини мисол сифатида Рум сураси, 22-оятида келтиради: "Унинг белгиларидан (яна бири) – осмонлар ва Ерни яратиши ва сизларнинг тилларингиз ва рангларингизни хилма-хиллигидир. Албатта, бунда барча олимлар учун аломатлар бордир." Бу оятда зикр қилинган "олимлар"дан мурод Аллоҳнинг Ер юзида яратган махлуқотларнинг сирларини билишга интилаётган шахслардир. Мавзу асосан табиий илмлардир, чунки улар борлиқдаги нарсалар ва уларнинг хусусиятларини ўрганади. Осмон ва Ернинг яратилиши, инсон ранглари хилма-хил эканлиги жуғрофия фанини ўрганиш мисолига далил бўлади. Оятдаги "ва тилларингизни турли хил қилиб яратдик" деган ибора турли миллат вакиллари тилини ўрганишга тарғибдир ва бу ҳозирги чет тилларини ўрганишга асос ҳисобланиши мумкин. Инсон жинслари ва ҳайвонот оламини эса антропология, зоология ва биология фанлари ўрганади.

Мусулмонлар учун илмий билим орқали ҳам маънавий мақсадга эришиш мумкинлиги таъкидланади, фақатгина нафс орқали тоат қилиш билан чекланмайди. Бу ҳақда Розий шундай фикр билдиради: "Шуни билгилки ақлий далил билан айтилган сўз юз кўринишидан кўра кўпроқ нарсани мустаҳкамлайди. Шу жиҳатданки банда ақлининг тафаккури уни Худо маърифат ига етказади. Тоат қилиш бандани савобга етказади, савоб ўз навсининг насибасидир. Худои Таолонинг маърифати нафснинг насибасидан афзалроқдир. Демак фикр юритиш ибодатдан афзалроқдир."

Бу қараш бугунги глобаллашиб бораётган дунёда ҳам аҳамиятли. Ёш авлодни илм ўрганишга ундайди. Тушуниб-тушунмасдан турли ғояларни асос қилиб олаётган ёшларимиз учун бу фикрлар ўрнак бўлади. Ибодат билан бирга дунёвий ва замонавий илмларни ҳам ўрганиш бугунги дунё талаби ҳисобланади.

Фахриддин Розий юнон файласуфлари ғоялари асосида фикрлайди ва унинг фалсафий-мантиқий қарашларида бу акс топган. У фикрича, инсон жисми икки қисмдан иборат: руҳ ва тана. Бу нуқтада тафаккур ва тоатнинг муносабати ҳам муҳокама қилинади. Фақат тирик инсон фикрлай олиши, фикрлаш руҳ иши эканлиги таъкидланади. Шунингдек, инсон руҳи тоза ва кучли бўлса, тафаккур ҳам аниқ ва тиниқ бўлади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Фахриддин Розийнинг илмий ва фалсафий мероси Ислом дунёсида маънавий ва ақлий тафаккур ривожига улкан ҳисса қўшган. Унинг асарлари илм ва ахлоқ, тафаккур ва ибодатнинг уйғунлигини очиб беради, инсоннинг маънавий камолотга эришиш йўлларини кўрсатади. Розий илмни нафақат маълумотлар тўплами сифатида, балки

шахс руҳиятини тарбиялаш, ижтимоий жамиятни маънавий юксалтириш воситаси сифатида ҳам кўради.

У фикрлаш ва тафаккурни тоатдан устун қўяди, яъни ақл ва руҳий тафаккур инсонни Худо маърифатига яқинлаштиради. Шу билан бирга, табиий ва дунёвий илмларни ўрганиш аҳамияти ҳам алоҳида таъкидланади, бу ёш авлодни замонавий билимлар билан бойитишга хизмат қилади.

Розийнинг қарашларида инсон жисми ва руҳи ўзаро боғлиқлиги, тоат-ибодат ва ақлий фикрлашнинг уйғунлиги ҳам кўрсатилган. Шунингдек, у илм ва ибодатни амалий жиҳатдан ҳам уйғунлаштиришни таъкидлайди: тоат инсон танаси орқали амалга ошса, фикрлаш руҳнинг ишидир ва руҳ жасадга қараганда шарафлироқдир.

Фахриддин Розийнинг илмий мероси нафақат назарий аҳамиятга эга, балки маънавий ва ижтимоий жиҳатдан ҳам қимматлидир. Унинг қарашлари илм ва ибодатни уйғунлаштирган ҳолда инсон ва жамиятнинг маънавий юксалишига хизмат қилади.

Адабиётлар рўйхати:

فخر الدين رازي. لتف ال غيستت. ص ٠٢١. O`zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv №10873), (fors tilida).

Corduan, M. “Fakhr al-Din al-Razi: Life and Thought”, USA, 2005

Nasr, S.H. “Islamic Philosophy from Its Origin to the Present”, USA, 2005

Dhanani, A. “Fakhr al-Din al-Razi on Science and Reason”, UK, 2010

١٩٩٩ ناتسكاب «يملاسلإا ركفلل ةيفسلفلا سسلأا» .م ،لبابقإ

٨٠٠٢ ناصر الدين، ت. «تعليقات على تفسير الرازي وعلم الأخلاق» الهند

١١٠٢ العزامي، م. م. «إسهامات علماء المسلمين في العلوم» المملكة العربية السعودية

* * *

NAJMIDDIN KUBRONING IBRATLI TARIXI

THE EXEMPLARY LIFE OF NAJM AL-DIN KUBRA

Sodikov Jurabek Sobirboevich
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Islomshunoslik va islom sivilizasiyasini o‘rganish ICESCO”
kafedrasi dosenti vazifasini bajaruvchisi, islomshunoslik fanlari PhD
Email: jurabeksodiq@gmail.com

XII-XIII asr tasavvufining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lmish taniqli mutafakkir olim Najmiddin Kubro 1145-yil Xiva shahrida dunyoga keladi. Uning asl ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivakiy Xorazmiydir. Otasining ismi Umar, onasi Bibi Hojar bo‘lib, onasining qabri hozirda Xiva yaqinidagi Sayot qishlog‘ida joylashgan. Alloma “Najmiddin”, “Kubro”, “Abuljannob” va “Valiytarosh” kabi unvon va kuniyalar bilan tanilgan.

Najmiddin Kubro – tasavvufning mashhur shayxlaridan biri “Kubroviya” tariqatining asoschisi hisoblanadi. Najmiddin Kubro ilm safaridan Xorazmga 1185-yilda qaytib keladi. U 25 yildan ortiq umrini ilm talabidagi safarlarga bag‘ishlaydi. U Vataniga qaytgach, katta xonaqoh qurdirib Kubroviya ta’limotiga asos soladi. Uning qo‘l ostida yuzlab taniqli muridlar tarbiya va tahsil olib, islom olamining turli tomonlariga tarqalgan[450].

[450] Komilov N. Najmiddin Kubro. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 1995. – B. 9-10.

Abdurahmon Jomiyning “Nafahotu-l-uns” asarida yozilishicha, Ahmad, ya’ni Najmiddin Kubro yoshligidan ilmga qiziqib, islom asoslari, shariat ilmlarini juda tez o‘zlashtirib, Alloh bergan qobiliyati sabab Xorazmning ko‘pchilik ulamolaridan o‘zib ketadi va ilmiy bahslarda barchani olqishiga sazovar bo‘ladi. Shu bois u “Tommatul Kubro”, yani ulamolarning yetugi, ulug‘vori yoki “ilm balosi” laqabini oladi. Buning yoniga “Najmiddin” – “Islom dinning yulduzi” degan martabali unvon qo‘shilib, Ahmad ibn Umar shundan keyin Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur bo‘ladi.

“Abuljannob” so‘zi esa Najmiddin Kubroning kuniyasidir. “Kuniya” – arablarda hurmat yuzasidan beriladigan laqabdir. Jomiy hazratlari yozadilarki: “Najmiddin Kubro Iskandariya shahrida muhaddis ulamolardan hadis ilmini o‘rganib qaytayotganida yo‘lda bir kecha Hazrati Payg‘ambarimiz (s.a.v) ni tushida ko‘radi va u zotga murojaat qilib: “Menga kuniya bag‘ishlang”, – deydi. Shunda hazrati Payg‘ambarimiz (s.a.v) Najmiddinga: “Sening kuniyang Abuljannob – dunyodan ijtinob, parhez etuvchi bo‘ladi”, – deb marhamat qiladilar. Shundan keyin Kubro “Abuljannob” laqabini oladi. “Jannob” – ijtinob qiluvchi, poklik va parhezga amal etuvchi ma’nosidadir”[451].

“Valiytarosh” laqabiga kelsak, bu so‘zning ma’nosi valiylarni tarbiyalovchi demakdir. Zero, Najmiddin Kubroning nafasi va nazari shunchalik karomatli bo‘lganki, qalbida ilhom jo‘sh urgan paytda kimga nazari tushsa, u valiylik martabasiga erishar ekan. Najmiddin Kubro o‘n olti-o‘n yetti yasharligida vatani Xorazmni tark etib, tahsilni chuqurlashtirish maqsadida Eron, Misr, Shom va Iroq o‘lkalarini kezadi. Uni ilmga chanqoq qalbi hech tinch qo‘ymas, qaerda biror nomdor olimning ovozasini eshitsa, darhol yo‘lga tushar, goh piyoda, goh ot-ulovda haftalab, oylab yo‘l bosar, qidirgan kishisini topib, undan sidqidildan saboq olardi. Agar uning tahsildan ko‘ngli to‘lmasa, ustozidan ijozat olib, yana yo‘lga tushardi.

Najmiddin Kubro qalbida ruhiy-ma’naviy kamolot va kashfu-hol ilmi xisoblanmish tasavvuf ta’limotiga ishtiyoq zo‘r edi. Shu bois u shariat ilmlarini o‘rganish barobarida tariqatdan ham xabardor bo‘lishga intilib, qator shayxlar, darveshlar suhbatida bo‘ladi, xonaqolarda xilvatni lozim tutib, riyozat bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Farobiy til ilmiga juda katta ahamiyat beradi, ammo uni mantiq san’atidan ustun qo‘ymaydi. Tilshunoslik va mantiq bir-birini to‘ldiruvchi fanlar sifatida talqin qilinadi. Til – fikrni ifodalash vositasi. Mantiq – fikrning o‘zini tartibga soluvchi qonunlar majmuasi, “tafakkurning umumiy tili”. Shunday qilib, Farobiy uchun tilni o‘rganish – mantiqni o‘rganishga tayyorgarlik bo‘lib xizmat qiladi. Chunki til qoidalarini bilmagan kishi mantiqiy fikrlashni to‘g‘ri shakllantira olmaydi.

* * *

MARKAZIY OSIYO ISLOM SIVILIZATSIYASI KONTEXTIDA BOBURNING MUTAFAKKIRLIK MAQOMI

HE STATUS OF BABUR’S THOUGHT IN THE CONTEXT OF CENTRAL ASIAN ISLAMIC CIVILIZATION

Avazova Lobar Buriyevna,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM
“Rus tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi,
avazovalobar7@gmail.com

Kirish: Markaziy Osiyo tarixan islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda diniy hayot bilan birga ilm-fan, falsafa, adabiyot va san’at sohalari ham ravnaq topgan. VIII–XII asrlarda mintaqada shakllangan ilmiy-ma’naviy muhit yirik fiqh, hadis, tafsir, falsafa, astronomiya va tibbiyot maktablari orqali butun islom olamiga ta’sir ko‘rsatgan. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Navoiy kabi mutafakkirlar Markaziy Osiyoni jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylantirgan.Ushbu boy ma’naviy-ilmiy meros davomchisi sifatida Zahiriddin Muhammad Bobur ham Markaziy Osiyo tafakkur maktabida alohida o‘rin egallaydi. U o‘z davrining yirik davlat arbobi, sarkarda va shoir bo‘lishi bilan birga, keng dunyoqarash va chuqur tafakkur sohibi sifatida islomiy qadriyatlarga asoslangan ma’naviyatni o‘z hayoti va ijodida mujassam etgan. Boburning “Boburnoma” asari tarixiy xotira bo‘lish bilan birga, islom tafakkurining ilmiy, axloqiy va estetik mezonlarini hamda shaxsiy kechinma va dunyoqarashni yuksak badiiy darajada ifoda etgan muhim manbadir. U ilmni faqat bilim emas, balki ruhiy kamolot vositasi sifatida qadrlagan, bu jihati bilan Markaziy Osiyodagi islom tafakkuri an’analarini davom ettirgan mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi.Ushbu maqolada Boburning ilmiy-ma’naviy merosi, islom sivilizatsiyasi bilan bog‘liqligi va uning zamonaviy tafakkurdagi o‘rni tahlil qilinadi.[1]

Bobur ijodi va islom sivilizatsiyasi an’analari uyg‘unligi: Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi va shaxsiyati islom sivilizatsiyasining Markaziy Osiyodagi chuqur ilmiy-ma’naviy an’analarining davomchisi sifatida e’tirof etiladi. U o‘zining siyosiy faoliyati, shoirligi va yozuvchiligidan tashqari,

[489] Farabi. Ilimlerin Sayimi. –Istanbul: Türkiye iş bankasi kültür yayinlari, 2024. –S. 4-5.

tafakkur va ruhiy dunyosining chuqurligi bilan ham alohida ajralib turadi. Boburning hayoti va asarlari islom tafakkuridagi ilm-fanga intilish, axloqiy kamolot, sabr-toqat, adolat, moddiy va ma'naviy uyg'unlik kabi tamoyillar bilan to'la uyg'unlashgan.Bobur musulmon hukmdor sifatida Qur'oni karimni yaxshi bilgan, islom axloqiy qadriyatlariga sadoqat bilan amal qilgan.[2] Uning "Boburnoma" asarida ko'plab holatlarda Allohga shukronalik, taqvo, taqdirga rozi bo'lish kabi islomiy tushunchalar tez-tez uchraydi. Bobur turli og'ir sinov va yo'qotishlar chog'ida sabr qilish, tavakkal qilish va tavba qilishga undovchi so'zlarni ishlatadi, bu esa uning islom axloqi va e'tiqodini amalda ko'rsatadi. Islomda insonning axloqiy yetukligi, sabr-toqati, adolatparvarligi yuksak qadrlanadi — bu jihatlar Bobur hayotiy yo'lida ham, ijodida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Islom sivilizatsiyasi tarixida adolatli hukmdor timsoli alohida o'ringa ega. Qur'on va hadislarda ham adolat – musulmon jamiyatining asosi sifatida talqin qilinadi. Bobur o'z faoliyatida adolat mezonlarini o'z boshqaruv siyosatiga singdirishga harakat qilgan[3]. "Boburnoma"da u ayrim nohaqliklarga qarshi kurashganini, kam ta'minlanganlarga yordam berganini, xalq manfaati uchun qat'iy qarorlar qabul qilganini ochiq bayon qiladi. Bu jihatlar Boburning boshqaruv tamoyillari islomiy g'oyalar asosida shakllanganini ko'rsatadi.Islom sivilizatsiyasining buyuk qudrati shundaki, u diniy tafakkur bilan birga ilm-fan va adabiyotni uyg'unlashtira olgan. Bobur ham bu an'anani davom ettirgan holda, nafaqat siyosiy arbob, balki adabiy-estetik tafakkur egasi sifatida islomiy g'oyalarni badiiy shaklda ifoda etgan.[4]

Olingan natijalar: Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat tarixiy shaxs va siyosiy arbob, balki islom sivilizatsiyasining ilmiy-ma'naviy qadriyatlariga sodiq bo'lgan yirik mutafakkir sifatida namoyon bo'ldi. Uning ijodi, xususan, "Boburnoma" asari orqali islom tafakkurining asosiy tamoyillari — ilmga intilish, sabr, taqvo, adolat va axloqiy yetuklik yuksak badiiy shaklda ifodalangan.Bobur o'z asarlarida islom tafakkuridagi ilm va ma'naviyat uyg'unligini amalda namoyish etgan. U tabiat, jamiyat va inson ruhiyati haqida chuqur kuzatuv va tahlillar orqali nafaqat tarixchi, balki tafakkur egasi sifatida namoyon bo'ldi."Boburnoma" islom sivilizatsiyasining ilmiy, estetik va ruhiy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan noyob manba bo'lib, bu asar orqali Bobur ilm-fan va san'atni birlashtira olgan ijodkor sifatida tanildi.Boburning boshqaruvdagi adolat tamoyillari va ma'naviy yondashuvi islom siyosiy tafakkuri bilan uzviy bog'liq bo'lib, u o'z amaliy faoliyatida Qur'on va hadisda asoslangan qadriyatlarga tayangan.Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Boburning mutafakkirlik merosi Markaziy Osiyo islom sivilizatsiyasi doirasida alohida ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda ham ma'naviy tarbiya va madaniyatlararo muloqot uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.[5]

Xulosa: Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va ijodi Markaziy Osiyo islom sivilizatsiyasi tarixida alohida o'rin egallaydi. U o'z davrining yirik davlat arbobi, zabardast sarkarda va iste'dodli shoir bo'lishi bilan birga, chuqur tafakkurga ega bo'lgan mutafakkir sifatida ham ajralib turadi.[6] Boburning "Boburnoma" asari orqali biz uning ilm-fanga, axloqiy qadriyatlarga, islomiy dunyoqarashga bo'lgan chuqur e'tiborini kuzatamiz.Islom sivilizatsiyasining asosiy tamoyillari — ilmga chanqoqlik, tafakkurga ochiqlik, adolatparvarlik, sabr-toqat va ma'naviy yetuklik Bobur shaxsida mujassam bo'lgan. U faqat tarixiy voqealarni emas, balki insoniy his-tuyg'ular, axloqiy muammolar va jamiyat hayotining turli qirralarini chuqur tahlil qilib, o'z asarlarida falsafiy mazmun bilan boyitgan. Ayniqsa, "Boburnoma" nafaqat tarixiy hujjat, balki badiiy, ilmiy va ma'naviy qadriyatlar mujassam bo'lgan noyob yodgorlik sifatida baholanadi.Boburning mutafakkirlik merosi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning adabiy-falsafiy qarashlari, islomiy qadriyatlarga asoslangan boshqaruv tamoyillari va ma'naviy poklikka da'vat etuvchi asarlari zamonaviy jamiyat uchun ibrat manbai bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, Bobur nafaqat o'z davrining, balki butun bashariyat tarixining ilmiy-ma'naviy rivojiga xizmat qilgan ulug' siymo sifatida e'tirof etilishi zarur.[8]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Bobur, Z.M. Boburnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992.

2.Rasulov, A. Zahiriddin Muhammad Bobur: hayoti va ijodi. – Toshkent: Fan, 1995.

3.Qosimova, M. Boburnoma: tarixiy va badiiy manba sifatida. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012.

4.Al-Azmeh, A. Islamic Civilization: The Classical Age (700–1258). – London: Saqi Books, 1997.

5.Hodgson, M.G.S. The Venture of Islam: Conscience and History in a World Civilization. Vol. 2. – Chicago: University of Chicago Press, 1974.

6.Babadjanov, B.M. Islom va Markaziy Osiyo madaniyati. – Toshkent: Sharq, 2001.

7.Saidov, A.X. Islom falsafasi va Sharq mutafakkirlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004.

8.Mirzaeva, N. Bobur va Sharq adabiy-falsafiy tafakkuri // Sharq yulduzi. – 2020, №3. – B. 45–52.

9.Sultonova, G. Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosi va islomiy tamaddun. – Toshkent: Fan, 2016.

* * *

ABU RAYHON BERUNIY ILM-FAN RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI: TABIIY FANLAR VA FALSAFA NUQTAYI NAZARIDAN

ABU RAYHAN AL-BIRUNI’S CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE: FROM THE PERSPECTIVE OF NATURAL SCIENCES AND PHILOSOPHY

O‘ktamov Madadjon O‘ktam o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika va ta’limda axborot texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
oktamovm03@mail.ru

Fayzullayeva E’zoza O‘tkir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo‘nalishi talabasi
fayzullayevaezoza312@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning ilm-fan, xususan, tabiiy fanlar va falsafa rivojiga qo‘shgan hissasi chuqur tahlil qilinadi. Muallif Beruniyning astronomiya, fizika, geodeziya, mineralogiya kabi fan sohalaridagi fundamental g‘oyalari va ularning zamonaviy ilm bilan uzviy bog‘liqligini ochib beradi. Maqola davomida Beruniy merosining bugungi ilmiy va ma’naviy ahamiyati asosli takliflar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Abu Rayhon Beruniy, tabiiy fanlar, ilmiy meros, falsafa, tajriba, astronomiya, geodeziya, metodologiya.

Kirish. O‘rta asrlarda musulmon Sharqida ilm-fan taraqqiyoti g‘oyat yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi. Ayniqsa, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Balx kabi Markaziy Osiyo shaharlari o‘z davrining yirik ilmiy, ma’naviy markazlariga aylangan edi. Ana shu davrda yetishib chiqqan buyuk alloma va

ensiklopedistlardan biri — Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniydir (973–1048). Beruniy hayoti davomida astronomiya, matematika, fizika, geografiya, geologiya, tarix va falsafa sohalarida qariyb 150 ga yaqin asar yozgan. Uning yondashuvi, ayniqsa tabiiy fanlar bo‘yicha, kuzatuv va tajribaga asoslangan bo‘lib u zamonasidan ancha ilgarilab ketgan edi. U astronomiyada Yerning aylanishi, geodeziyada joylarning aniq koordinatalari, fizika va kimyoda moddalarning tabiatiga oid aniqliklar bilan gapirgan.

Adabiyotlar tahlili. Beruniyning eng mashhur asarlari — “Qonun al-Mas‘udiy”, “Hindiston”, “Kitob al-jamohir fi ma’rifat al-javohir”, “Istiloh al-ulum” va “Geodeziya haqida risola” asarlari bo‘lib, ular ilmiy jamoatchilik orasida keng muhokama qilingan.

O‘zbekistonda Beruniy asarlari ustida olib borilgan izlanishlarda professor T. Shirinov va akademik A. Juraevning xizmatlari e’tiborga loyiq. Ular Beruniyning ilmiy va tarixiy qarashlarini o‘rganishda jiddiy yondashuv ko‘rsatgan bo‘lsalar-da, ularning tahlillari ko‘proq tarixshunoslik yo‘nalishida bo‘lgan. G‘arb olimlari orasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Beruniy asarlari bilan shug‘ullanganlar sirasiga Eduard Sachau kiradi. U Beruniyning “Hindiston” asarini nemis tiliga tarjima qilgan va unga sharhlar yozgan. Biroq Sachau tahlillarida Beruniyning musulmon dunyoqarashi, uning falsafiy tafakkuri va ilmiy-tasavvuridagi metafizik qatlamlar nazardan chetda qolgan. So‘nggi yillarda ayrim arab va eroniy tadqiqotchilar — xususan, Husayn Nasr, Ali Sami an-Nashshor va Abdulazim Badr tomonidan Beruniy asarlari kontekstual tarzda, ya’ni ilmiy maktablar, diniy-falsafiy muhit va ilmiy tafakkur doirasida tahlil qilina boshladi. Ularning yondashuvlari Beruniy tafakkurining g‘oyaviy ildizlarini ochishga urinadi, biroq tabiiy fanlar bilan falsafa o‘rtasidagi mantiqiy uyg‘unlik haqida chuqur tahliliy xulosalar yetarli emas.

Uning “Falsafa — ilohiy tafakkurning sinov maydoni, diniy haqiqat esa ilohiy qudratning uzviy ma’rifati” degan mazmundagi qarashlari — uni Aristotel yoki Ibn Sino falsafasidan farqlab turadi.

Muhokamalar. Beruniy o‘zining “Qonun al-Mas‘udiy” asarida astronomik kuzatuvlar asosida sayyoralar harakatini izohlab beradi. Yerning radiusini hisoblashda qo‘llagan trigonometriyaga asoslangan usuli hozirgi zamonaviy geodeziya fanida ham qo‘llaniladi. U ekvatordan qutblargacha bo‘lgan masofani aniqlashda qilgan hisoblari bilan zamonaviy fan natijalariga juda yaqin natijalarga erishgan. Fizika sohasida esa Beruniy zichlik, bosim va moddalarning og‘irligi haqidagi fikrlarni kuzatuvlar bilan asoslab bergan. U turli suyuqliklarga har xil jismni solib, ularning cho‘kish darajasi va og‘irligiga qarab zichlikni aniqlagan. Bu yondashuv suyuqliklar mexanikasi va gidrostatik qonuniyatlarning dastlabki ifodalaridan biridir. Mineralogiya sohasida Beruniy “Kitob al-jamohir fi ma’rifat al-javohir” asarida 100 dan ortiq tabiiy toshlar va metallar haqida ma’lumot beradi. U ularning fizik xossalarini, ishlatilish doirasi va tibbiyotdagi ahamiyatini sinchiklab yozib chiqqan. Mis, temir, simob, surma, oltin kabi metallar bilan tajriba o‘tkazgan.

Shuningdek, Beruniy yorug‘lik va tovush tarqalishini ham ilmiy nuqtayi nazardan o‘rgangan. U ovozning suvda sekinroq tarqalishini tajriba orqali ko‘rsatib bergan. Bu akustik hodisalarning asosiy tushunchalariga zamin yaratgan. Yorug‘likning sindirilishi va qaytishini esa optik kuzatuvlar orqali izohlagan.

Falsafa sohasida esa Beruniy bilim manbalarini ikkiga ajratadi- aql va tajriba. U ilmiy bilimni haqiqatga olib boruvchi yo‘l deb biladi. Beruniy ilmiy fikr bilan diniy e’tiqod orasida qarama-qarshilik ko‘rmaydi. Unga ko‘ra, falsafa — Alloh yaratgan mavjudotlarni anglash vositasi, din esa — qalbni tarbiyalovchi ilohiy nurdir. Shunday qilib, u ilm va e’tiqodning uyg‘unligini ilgari suradi. Beruniy boshqa madaniyat va din vakillariga ham xolis yondashgan. “Hindiston” asarida hind falsafasi, san’at, din va urf-odatlarini chuqur o‘rganadi. U ularni tanqid qilmaydi, balki ularning tafakkurini tushunishga harakat qiladi.

Xulosa va takliflar. Beruniy ilm-fanning universalligini, madaniyatlararo bilim almashinuvi zarurligini, tajriba va kuzatuvga asoslangan metodologiya ustunligini erta anglagan olim sifatida

tanildi. U bilimni abadiy emas, nisbiy va rivojlanib boruvchi jarayon deb bilgan. Uning tafakkurida ilm hech qachon yakun topmaydi, balki yangi izlanishlarga yo‘l ochadi. Umuman olganda, Beruniy nafaqat ilm sohasida, balki falsafa, tarix, dinshunoslik va madaniyatlararo muloqotda ham o‘zining o‘chmas izini qoldirgan. Bugun u yaratgan ilmiy merosga zamonaviy nuqtayi nazardan qayta qarash, uni o‘rganish va yoshlarga yetkazish — muqaddas va dolzarb vazifadir.

Quyida tavsiyalar beramiz. Beruniy ilgari surgan ilmiy fikrlar — Yer shakli, zichlik, yorug‘lik sindirilishi va boshqa tabiat qonunlari — zamonaviy fizika, geografiya va kimyo fanlari bilan taqqoslab o‘rganilishi lozim. Maktab va oliy ta’lim tizimlarida “Beruniy va zamonaviy ilm-fan asoslari” nomli maxsus kurslar ishlab chiqilishi kerak. Bu yoshlarning tarixiy ildizlarga asoslangan tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy tarmoqlarda Beruniyga bag‘ishlangan interaktiv loyihalar, multimedia vositalari, hujjatli filmlar va ochiq ma’ruzalar orqali keng jamoatchilik ongiga singdirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdihakimov, Mirjalol. «IT SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 15-17.
2. Amirova, Zilola. «MATN BILAN ISHLASH DASTURLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 32-34.
3. Arabboyev, O‘lmas. «SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MUHANDISLIK ISHLARINI AVTOMATLASHTIRISH.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 35-38.
4. Baratova, Nafisa. «BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IJTIMOIY TAMOYILLARI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 18-20.
5. Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. «O‘RTA SINFLARDAGI BOLALARGA INFORMATIKA O‘QITISHNING KREATIV G‘OYALARI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 39-41.
6. Berdimuhammadov, Iskandar. «MOBIL ILOVALAR ISHLAB CHIQISH.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 21-23.
7. Berdishukurova, Munisa. «DASTURLASH TILLARINING RIVOJLANISHI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 24-26.
8. Boltayev, Farhod. «INTERNETDA ISHLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 46-49.
9. Boqiyeva, Farida, and Madadjon O‘ktamov. «MATEMATIKANI O‘QITISHDA MASALANING BAJARADIGAN FUNKSIYALARI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 50-52.
10. Boymurodova, Ozoda. «AXBOROT BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 11-14.
11. Ernazarova, Lola. «WEB-SAHIFANI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 53-55.
12. Eshonqulov, Muhammad. «WEB DASTURLASHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALAR.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 56-59.
13. Ibodov, Azizbek. «INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASINI FAN SIFATIDA TARIXI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 14-16.
14. Jurayeva, Gulchehra. «DASTURLASH ASOSLARI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 17-20.
15. Karimova, Iroda. «VIZUAL DASTURLASH TILIDA LOYIHALASH BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 21-24.

16. Madadjon, O‘ktamov. «Translation Problems and Literary Translation in Uzbek literature: research, problems and solution.» *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR* 1.7 (2025): 326-3AA31.

17. Mahmudova, Shohsanam. «ALGORITIMLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 25-28.

18. Toshpo‘lotova, Jasmina, and O‘ktamov Madadjon. «Boshlangich talim yo‘nalishi talabalarini informatika fanini o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish.» *PEDAGOGS* 51 (2024): 115-119.

* * *

AL-XORAZMIYNING ILM-FAN RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

AL-KHWARIZMI’S CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE

O‘ktamov Madadjon O‘ktam o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika va ta’limda axborot texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
oktamovm03@mail.ru

Fayzullayeva E’zoza O‘tkir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo‘nalishi talabasi
fayzullayevaezoza312@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada IX asrda yashagan buyuk alloma Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiy al-Majusiy al-Qatrabbuliyning algebra faniga qo‘shgan beqiyos hissasi, uning “al-jabr” va “al-muqobala” metodlari asosida ishlab chiqqan ilmiy yondashuvi hamda bu merosning Yevropa Uyg‘onish davriga, zamonaviy matematika va axborot texnologiyalariga ko‘rsatgan ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Al-Xorazmiy, algebra, algoritm, matematik tafakkur, ilm-fan rivoji.

Kirish. Markaziy Osiyo ilm-fan tarixida beqiyos o‘rin egallagan mutafakkirlar orasida Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiy al-Majusiy al-Qatrabbuliy alohida ajralib turadi. Xorazmiy IX asrda — islom ilmiy uyg‘onish davri deb ataluvchi davrda yashab, matematika, astronomiya, geografiya va boshqa bir qator fanlar bo‘yicha bebaho meros qoldirgan. Uning eng yirik ilmiy yutug‘i esa, shubhasiz, algebra fanining asoschisi sifatida tan olinishidir. Xorazmiy yozgan “Kitob al-jabr al-muqobala” nafaqat o‘sha davrda, balki keyingi ming yillikda butun jahon matematik tafakkuriga chuqur ta’sir ko‘rsatdi(Boqiyeva, Farida, and Madadjon O‘ktamov. «MATEMATIKANI O‘QITISHDA MASALANING BAJARADIGAN FUNKSIYALARI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 50-52). Aynan shu asar tufayli algebra fani ilk bor mustaqil ilmiy soha sifatida shakllandi, tizimlashtirildi va amaliyotda qo‘llana boshlandi. Mazkur maqolada Xorazmiyning algebra sohasidagi xizmatlari, uning yaratgan ilmiy metodlari, o‘z davrida va undan keyingi asrlarda ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Xorazmiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar Sharq va G‘arb ilmiy muhitida yuz yillar davomida shakllanib kelmoqda. Uning algebra bo‘yicha yozgan mashhur asari — “Al-kitob al-muxtasar fi hisab al-jabr al-muqobala” — ilk bor IX asrda arab tilida yozilgan bo‘lib, matematik muammolarni hal qilishda mutlaqo yangi yondashuvni taklif

qilgan. Ushbu asar islom olamida keng tarqalib, keyinchalik XII asrda Robert Chester va Gerard Cremonelik tarjimonlar tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimada kitob nomi “Liber algebrae et almucabala” tarzida ifodalangan va bu atama algebra faniga nom bo‘lib qolgan.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda Xorazmiy merosini o‘rganish yo‘lida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Akram Saidov, Karimov Rauf, Sultonov Abdujabbor singari olimlar Xorazmiy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish, ularni tahlil qilish va zamonaviy ilm bilan bog‘lash borasida tadqiqotlar olib bormoqda. Ular Xorazmiy asarlarining nafaqat matematik asoslarini, balki mantiqiy fikrlash, algoritmik yondashuv va amaliy yechimlarni ishlab chiqishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

G‘arb olimlari orasida esa Carl Boyer (1968), Roshdi Rashid (1986), Joseph Sesiano (1999) va Jan Hogendijk (2007) kabi tadqiqotchilar Xorazmiyning matematik tafakkurga qo‘shgan hissasini chuqur yoritgan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, Xorazmiy algebra fanida to‘liq tizim yarata olgan birinchi olim bo‘lib, tenglamalar, al-jabr (qo‘shish) va al-muqobala (ayirish) metodlari asosida ularning yechimlarini shakllantirgan. Bu esa nafaqat matematikada, balki texnika, iqtisod, qurilish, soliq, yer o‘lchash kabi sohalarda ham amaliy yechimlar yaratishga zamin yaratgan.

Shuningdek, UNESCO tomonidan 1983-yilda Xorazmiyning 1200 yilligi keng nishonlangan va uning ilmiy merosi xalqaro miqyosda tan olingan. Bu tadbirlar davomida bir necha ilmiy konferensiyalar o‘tkazilib, Xorazmiy asarlarining qadimiy qo‘lyozmalari, ularning tarjimalari va ta’sir doirasi keng muhokama qilingan.

Muhokamalar. Al-Xorazmiy tomonidan yozilgan “Al-kitob al-muxtasar fi hisab al-jabr val-muqobala” asari matematikaning abstrakt soha sifatida shakllanishiga xizmat qilgan bo‘lsa, mazmunan amaliy matematik muammolarga asoslangan bo‘lib, ularni hal etish metodikasini taklif qilgan birinchi ilmiy qo‘llanmadir.

Xorazmiy tomonidan ilgari surilgan “al-jabr” (yo‘qotilgan miqdorni tiklash) va “al-muqobala” (ifodalarni tenglashtirish) atamalari o‘sha davrdagi matematik muammolarning mantiqiy asosda yechimini topishga xizmat qildi. Bu ikki metod hozirgi algebra fanining tayanch tushunchalariga aylangan. U tenglamalarni turkumlarga ajratgan — masalan $ax^2 = bx$, $ax^2 + bx = c$, $ax^2 = c$ va boshqalar. Xorazmiy algebraik yechimlarni so‘zli shaklda ifodalab, o‘sha davr aholisi uchun uni qulay va tushunarli qildi. Ayniqsa, tijorat, soliq, meros taqsimoti, dehqonchilik va qurilish sohalarida algebraik yondashuvlar keng qo‘llanilgan.

Ushbu metodlar keyinchalik islom dunyosidagi ko‘plab olimlar — al-Karaji, Abu Kamil, Umar al-Xayyom, Nasiriddin Tusi va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Ularning ishlari esa o‘z navbatida Yevropa Uyg‘onish davriga ta’sir ko‘rsatdi. XII–XIII asrlarda Xorazmiy asarining lotincha tarjimalari orqali algebra G‘arb matematikasining ajralmas qismiga aylandi. Masalan, Fibonacci o‘zining “Liber abaci” asarida Xorazmiyning uslublaridan foydalanadi.

Zamonaviy fanlarda, xususan informatika, algoritmlar, sun’iy intellekt, va modellashtirishda Xorazmiy nomi bilan bog‘liq yondashuvlar haligacha markaziy o‘rin tutmoqda. “Algoritm” atamasining o‘zi al-Xorazmiy nomidan kelib chiqqan bo‘lib, bu uning tafakkur kuchi zamonaviy texnologiyalarning ham negizini tashkil etayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa va taklifalar. Al-Xorazmiy tomonidan asos solingan algebra fani nafaqat o‘z davrining ilmiy taraqqiyotiga, balki butun insoniyat tafakkurining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. U yaratgan “Al-kitob al-muxtasar fi hisab al-jabr val-muqobala” nomli asari orqali matematik tenglamalarni yechishning mantiqiy, tizimli va amaliy metodikasi ilk bor ishlab chiqilgan. Uning ilgari surgan al-jabr (qo‘shish, to‘ldirish) va al-muqobala (ayirish, tenglashtirish) metodlari matematikaga tizimli yondashuv olib kirgan va bu orqali algebra fani mustaqil fan sifatida shakllangan. Xorazmiy algebraik tushunchalarni keng xalq ommasi tushunadigan uslubda, ya’ni so‘zli shaklda bayon qilgan. Bu yondashuv matematikani amaliyotga yaqinlashtirib, tijorat, soliq, qurilish va boshqa ijtimoiy

sohalarda keng qo‘llanilishiga imkon bergan. Uning ishlari keyinchalik Yaqin Sharq va Yevropadagi olimlar tomonidan davom ettirilgan va G‘arb ilm-faniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Quyida bir necha takliflar berildi. Xorazmiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilib, unda uning algebra, astronomiya va algoritmik tafakkurga oid merosi zamonaviy yondashuvlar asosida chuqur o‘rganilishi kerak. Har yili Xorazmiy nomi bilan ataladigan xalqaro fan olimpiadalari va yoshlar uchun ilmiy tanlovlar tashkil qilish orqali uning merosi yosh avlod ongiga singdirilishi mumkin. Xorazmiy asarlarini o‘rganish bo‘yicha maxsus ilmiy grantlar, doktorantura yo‘nalishlari va xorijiy ilmiy stajirovkalar ajratilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdihakimov, Mirjalol. «IT SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 15-17.
2. Amirova, Zilola. «MATN BILAN ISHLASH DASTURLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 32-34.
3. Arabboyev, O‘lmas. «SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MUHANDISLIK ISHLARINI AVTOMATLASHTIRISH.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 35-38.
4. Baratova, Nafisa. «BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IJTIMOIY TAMOYILLARI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 18-20.
5. Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. «O‘RTA SINFLARDAGI BOLALARGA INFORMATIKA O‘QITISHNING KREATIV G‘OYALARI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 39-41.
6. Berdimuhammadov, Iskandar. «MOBIL ILOVALAR ISHLAB CHIQISH.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 21-23.
7. Berdishukurova, Munisa. «DASTURLASH TILLARINING RIVOJLANISHI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 24-26.
8. Boltayev, Farhod. «INTERNETDA ISHLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 46-49.
9. Boqiyeva, Farida, and Madadjon O‘ktamov. «MATEMATIKANI O‘QITISHDA MASALANING BAJARADIGAN FUNKSIYALARI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 50-52.
10. Boymurodova, Ozoda. «AXBOROT BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 11-14.
11. Ernazarova, Lola. «WEB-SAHIFANI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 53-55.
12. Eshonqulov, Muhammad. «WEB DASTURLASHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALAR.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 56-59.
13. Ibodov, Azizbek. «INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASINI FAN SIFATIDA TARIXI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 14-16.
14. Jurayeva, Gulchehra. «DASTURLASH ASOSLARI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 17-20.
15. Karimova, Iroda. «VIZUAL DASTURLASH TILIDA LOYIHALASH BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 21-24.
16. Madadjon, O‘ktamov. «Translation Problems and Literary Translation in Uzbek literature: research, problems and solution.» *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR* 1.7 (2025): 326-3AA31.

17. Mahmudova, Shohsanam. «ALGORITIMLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 25-28.

18. Toshpo‘lotova, Jasmina, and O‘ktamov Madadjon. «Boshlangich talim yo‘nalishi talabalarini informatika fanini o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish.» *PEDAGOGS* 51 (2024): 115-119.

* * *

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МИРЗО УЛУГБЕКА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ МИРОВОЙ НАУКИ

SCIENTIFIC HERITAGE OF MIRZO ULUGBEK AND ITS IMPORTANCE FOR WORLD SCIENCE

Рашидова Шахзода Раимовна
Международная академия исламавиденияУзбекистана,
кафедра «Социальные науки и право»,
старший преподаватель (PhD)

Эпоха Тимуридов, наступившая на рубеже XIV–XV вв., стала временем бурного развития науки и просвещения в Средней Азии. Одной из ключевых фигур этого периода был Мирзо Улугбек, полное имя которого — Мухаммад Тарагай Улугбек. Внук Амира Темура вошёл в историю не только как государственный деятель, но и как выдающийся учёный — астроном, математик и меценат науки[490]. Актуальность исследования определяется тем, что Улугбек сумел объединить восточную и западную интеллектуальные традиции, превратив Самарканд в один из крупнейших научных центров XV века. Его имя связано с созданием фундаментальных астрономических таблиц и медресе, где преподавались как религиозные, так и светские науки.

В 1427 г. Мирзо Улугбек построил в Самарканде крупнейшую обсерваторию своего времени. В ней работали известные учёные — Джамшид Каши, Казизаде Руми и Али Кушчи. Результатом их деятельности стал фундаментальный труд «Зижи Жадиди Гурагони» («Новые астрономические таблицы Гурагони»), содержащий каталог 1018 звёзд[491].

Особое значение этого труда заключалось в том, что, в отличие от Птолемея, Улугбек опирался на новые астрономические наблюдения. Его каталог стал первым после античности, основанным на непосредственных измерениях[492]. Улугбек добился значительных успехов и в математике. Его таблицы синусов и тангенсов имели точность до 1°, что стало важным шагом в развитии тригонометрии. Эти расчёты легли в основу последующих астрономических и геодезических работ в Европе и Азии[493].

В 1420 г. в Самарканде по инициативе Улугбека была построена медресе, ставшая крупнейшим образовательным центром своего времени. Здесь преподавались не только религиозные дисциплины, но и астрономия, математика, философия, география, право и музыка[494]. Среди учеников медресе были такие выдающиеся учёные, как Али Кушчи и Казизаде Руми. Они продолжили научную традицию Самарканда, распространив идеи Улугбека в Персии, Индии и Османской империи[495]. Медресе стало уникальным институтом,

[490] Хайитов А. Темурийлар даврида маърифат ва фан тараққиёти. – Ташкент: Фан, 2005. Б. – 34.
[491] Саидов А. Ўзбекистонда илм-фан тарихи: Мирзо Улуғбек даври. – Ташкент: Фан, 2008. Б. – 156.
[492] Бекмуродов Ш. Мирзо Улуғбек – олими давлат раҳбари. – Ташкент: Ўқитувчи, 1994. – 96 с.
[493] Зижи Жадиди Гурагони (Мирзо Улуғбекнинг юлдузлар жадвали). – Тўлиқ нашр. – Т.: Фан, 1994. – 356 с.
[494] Турсунов А. Самарқанд – Улуғбек илм даргоҳи // Маърифат. – 2021. – №15. – С. 3–4.
[495] Азимжонов С. Мирзо Улуғбек ва илм-фан тараққиёти. – Т.: Фан, 2011. С. – 77.

сочетавшим религиозные и светские науки, что обеспечило его долговременное влияние на развитие науки в Центральной Азии.

Имя Улугбека стало известно европейцам благодаря испанскому дипломату Р. Г. де Клавихо, посетившему Самарканд в начале XV в. Позднее его «Зиж» был опубликован частями в Англии. В 1648 г. английский астроном Джон Гривс впервые напечатал фрагменты самаркандского каталога[496], что вызвало широкий интерес. В XVIII веке фигура Улугбека нашла отражение в творчестве французского философа Вольтера. В философской повести «Задиг, или Судьба» он упоминает «мудрого султана Улугбека» как символ восточной учёности и астрономических познаний[497]. Это показывает, что образ учёного вошёл в европейское культурное сознание эпохи Просвещения. Труды Улугбека оказали влияние не только на восточную и европейскую науку, но и на мировую культуру. Его именем названы кратер на Луне и малая планета №2439, открытая в XX веке.

Мирзо Улугбек занимает уникальное место в истории мировой науки и культуры. Его деятельность является примером того, как в условиях средневекового Востока могла сформироваться научная школа, опередившая своё время. Научные исследования Улугбека не ограничивались только астрономией и математикой: он видел в науке важнейший инструмент развития общества, укрепления духовных основ и повышения культурного уровня народа. Созданные им обсерватория и медресе стали своеобразной моделью интеграции религиозных и светских знаний. Этот синтез обеспечил подготовку нового поколения учёных, которые смогли не только продолжить традиции самаркандской школы, но и распространить их далеко за пределами Мавераннахра — в Османской империи, Индии, Иране и других странах Востока. Значение трудов Улугбека выходит далеко за рамки региональной истории. Его «Зижи Жадиди Гурагони» стал связующим звеном между восточной и европейской наукой. Благодаря трудам Джона Гривса, Томаса Хайда, Луи Седийо и других исследователей, европейские учёные XVII–XIX вв. получили доступ к результатам самаркандских наблюдений, что способствовало развитию астрономии и навигации в эпоху Великих географических открытий. Особого внимания заслуживает то, что имя Улугбека вошло не только в историю науки, но и в культурное пространство Европы. Вольтер и другие мыслители эпохи Просвещения воспринимали его как символ мудрости Востока, воплощение стремления к знанию и рациональному осмыслению мира.

Современное значение наследия Улугбека заключается в том, что его научная школа продолжает оставаться примером для XXI века. Она демонстрирует важность гармонии между традицией и новаторством, между духовностью и рациональностью, между национальными корнями и универсальными ценностями. В условиях глобализации обращение к опыту Улугбека помогает осознать, что наука является мощным фактором межкультурного диалога и мирного сотрудничества народов. Научное наследие Мирзо Улугбека неразрывно связано с прогрессом мировой науки, культурным взаимодействием Востока и Запада и формированием универсальных гуманистических ценностей. Его деятельность остаётся источником вдохновения для современных исследователей и ярким символом служения истине и просвещению.

Список литературы

1. Хайитов А. Темурийлар даврида маърифат ва фан тараққиёти. – Ташкент: Фан, 2005.
2. Саидов А. Ўзбекистонда илм-фан тарихи: Мирзо Улуғбек даври. – Ташкент: Фан, 2008.
3. Бекмуродов Ш. Мирзо Улуғбек – олими давлат раҳбари. – Ташкент: Ўқитувчи, 1994. – 96 с.

[496] Knobloch E. Ulugh Beg's Catalogue of Stars. Revised from all Persian Manuscripts Existing in Great Britain. – New York: AMS Press, 1917.

[497] Voltaire. Zadig ou la Destinée. – Paris: Garnier, 1769.

4. Зижи Жадиди Гурагони (Мирзо Улуғбекнинг юлдузлар жадвали). – Тўлиқ нашр. – Т.: Фан, 1994. – 356 с.
5. Турсунов А. Самарқанд – Улуғбек илм даргоҳи // Маърифат. – 2021. – №15. – С. 3–4.
6. Азимжонов С. Мирзо Улуғбек ва илм-фан тараққиёти. – Т.: Фан, 2011.
7. Knobloch E. *Ulugh Beg‘s Catalogue of Stars. Revised from all Persian Manuscripts Existing in Great Britain*. – New York: AMS Press, 1917.
8. Voltaire. *Zadig ou la Destinée*. – Paris: Garnier, 1769.

* * *

ИМОМ БУХОРИЙНИНГ “АТ-ТАРИХ АЛ-КАБИР” АСАРИДА САҲОБИЙНИ БЕЛГИЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МЕТОД

THE METHOD OF IDENTIFYING COMPANIONS IN IMAM BUKHARI’S WORK AL-TARIKH AL-KABIR

Тўраев Нўъмонжон Насибжонович
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Исломшунослик ва ислом цивилизациясини ўрганиш
ICESCO кафедраси доценти, т.ф.PhD

Ҳадис илмида саҳобийларнинг ўрни беқиёс бўлиб, улар Пайғамбар (с.а.в.)дан Қуръон, ҳадис ва бошқа ислом илмларини ўрганиб, кейинги авлодга узатувчи муҳим табақа ҳисобланади.

Муҳаддислар ҳадис исноднинг охиридаги ровийнинг саҳобий ёки йўқлигини аниқлаш масаласига алоҳида эътибор қаратганлар. Зеро, саҳобийларнинг барчаси “адолатли” деб эътиқод қилингани сабабли, саҳобий экани аниқ бўлган ровийнинг “адолат”и текширилмайди. Шу билан бирга, бошқа табақа вакилларидан фарқли ўлароқ саҳобийнинг бошқа бир саҳобийдан ривоят эшитгани ҳолда, уни Расулуллоҳдан (с.а.в.)га нисбат бериб айтиб берган бўлса ҳам, унинг ушбу ривояти қабул қилинаверади. Шунингдек, саҳобийларнинг қилган ишлари, айтган сўзлари ва бирор ишга муносабати ҳам ҳадис сифатида қабул қилинади. Юқоридаги сабаблар муҳаддисларни ўз асарларида саҳобийларга алоҳида тўхталиш, шу билан биргаликда уларга атаб махсус асарлар ёзишга ундади.

Ҳадис илмида саҳобийлар тўғрисида гап кетганда, аввало уларни ҳадис ривоят қилган ва ривоят қилмаган тоифаларига ажратилади. Зеро, манбаларда 100 мингдан ортиқ саҳобийлар мавжудлиги айтилса-да, улар орасида ҳадис ривоят қилганлари 1500 дан ортмайди. Бу ҳақда тўхталган Заҳабий, Абу Зуръа Розийдан иқтибос қилиб, Пайғамбар (с.а.в.) вафот этганларида 100 мингда кўпроқ саҳобийлар бор бўлганини қайд қилади. Бу борада, Ҳоким Найсобурий улар орасидан ҳадис ривоят қилган саҳобийлар сонини 400та деб белгилайди. Заҳабий эса, Ҳокимнинг фикрига қўшилмай, ҳадис ривоят қилган саҳобийлар сонини 1500 нафарга яқин эканини таъкидлайди.

Имом Бухорий ҳам бошқа муҳаддислар каби саҳобийларни бошқалардан ажратиб кўрсатишга катта аҳамият қаратган. Муаллифнинг “ат-Тарих ал-кабир” асарида саҳобийни кўрсатиш учун бир нечта иборалар ишлатилган. Улар орасида ровийнинг саҳобий эканини яққол кўрсатувчи “лаҳу суҳбатун” (суҳбат эгасидир) энг кўп ишлатилган бўлиб, 300 дан ортиқ ўринда қўлланган. Ровийнинг кимгадир суҳбатдош бўлганини кўрсатувчи “саҳиба”

сўзи “соҳибун-Набиййи (с.а.в.)” шаклида 18 ўринда ровийнинг саҳобийлардан эканини кўрсатиш учун келтирилган бўлса, бошқа ўринларда “соҳибу фулан” тарзида ровийнинг қайсидир машҳур кишига ҳамроҳ бўлганини кўрсатиш учун ишлатилган.

Асарда шунингдек, саҳобийларни кўрсатиш мақсадида бошқа бир нечта феъллардан ҳам унумли фойдаланилганини кўриш мумкин. Жумладан, “самиа” (эшитган) сўзи, одатда, ровийнинг ўзи ривоят қилаётган шайхлардан ҳадис эшитганлиги аниқ бўлган ўринларда ишлатилиб, ҳадис иснодининг узлуксизлигини кўрсатади. Асарни кузатиш давомида ушбу ибора 6 мингдан кўпроқ ўринда зикр этилгани аниқланди. Уларнинг ишлатилиш ўринлари ва мазмуни таҳлил қилинганда ушбу атама ровийнинг саҳобийлардан эканини кўрсатиш учун ҳам ишлатилгани аниқланди.

Маълумки, саҳобий бўлиш учун Набий (с.а.в.)ни мусулмон ҳолда кўриб, шу ҳолда вафот этишнинг ўзи кифоя қилади. Аммо, Имом Бухорий саҳобийнинг у зотнинг сўзларини эшитганини алоҳида кўрсатишга эътибор қаратган. Зеро, у зотни кўрган барча саҳобийлар ҳам ҳадис ривоят қилмаганлар.

Асарнинг бир қанча ўринларида “самиа” ибораси “лаҳу суҳба” (суҳбат эгаси, яъни саҳобий) ибораси билан биргаликда, аксарият ҳолларда эса алоҳида ишлатилган. Масалан, Анас ибн Ҳорис, Бар ибн Абдуллоҳ, Ҳорис Ашъарий, Ҳасан ибн Абу Толиб, Ҳакам ибн Муовия Нумайрий, Ҳакам ибн Муовия, Сулаймон, Салома ибн Қайсар Ҳазрамий, Сукайн Замрий, Шураҳбил ибн Авс, Шураҳбил Жуъфий, Сунобиҳ ибн Аъсар, Абдуллоҳ ибн Сабара, Абдулмалик ибн Аббод ибн Жаъфар, Арфажа ибн Шурайҳ, Молик ибн Рабийъа, Молик ибн Убода, Муовия ибн Ҳайда, Нуъмон ибн Розия, Нуайм ибн Масъуд, Ваҳб ибн Қайс ибн Абон, Ваҳший, Язид ибн Соиб, Язид ибн Асад, Ясор ибн Субаъ, Ибн Фиросий каби ровийларнинг саҳобийлигини тасдиқлаш учун “самиа” иборасини ишлатган.

Асарда саҳобийларни кўрсатиш мақсадида “роа” сўзи ҳам ишлатилган. Имом Бухорий томонидан бирор ровийнинг ўзи ривоят қилаётган ровийни кўрган у ҳолда, ундан ривоят эшитмаган бўлиши эҳтимоли бўлган ўринларда ишлатилган ушбу ибора бир неча ўринларда саҳобийларни алоҳида кўрсатиш мақсадида ҳам қўлланган. Жумладан, асарда Ҳабиб ибн Фудайк тўғрисида тўхталиб, уни Набий (с.а.в.)ни кўргани ҳамда “мурсил” (саҳобийдан эшитганини Набий (с.а.в.)дан эшитдим, деб ривоят қилувчи) эканини кўрсатилади. Саҳл ибн Саъднинг эса, Набий (с.а.в.)ни 15 ёшда “кўрган”и тўғрисидаги ривоятни келтирилган. Шу билан бирга, Ибн Шиҳобдан қилинган ривоят ҳам келтирилади. Унда Саҳл 15 ёшда Набий (с.а.в.)га “етишган” унинг ўзидан ривоят қилинади. Ушбу ривоятдан келиб чиқиб айтиш мумкинки, баъзида “роа” сўзи “адрака” билан бир маънода ишлатилган. Асарда яна 5 нафар жами 7 нафар ровийнинг саҳобийлардан эканини кўрсатиш учун “роа” сўзи ишлатилгани аниқланди.

Асарда саҳобийларни кўрсатиш учун “адрака” (етишган) сўзи ҳам ишлатилганини кўриш мумкин. Ровийнинг “ўзи етишган” кишини кўргани ёки замондош бўлгани ҳолда, ушбу кишидан ривоят қилмаганини кўрсатиш учун ишлатилган ушбу ибора асарда, аксарият ҳолларда, ровийнинг саҳобийлардан эканини таъкидлаш учун ишлатилган. Мисол учун, Муҳаммад ибн Ҳотиб Қураший ҳақда: “Набий (с.а.в.)ни ёш болалик чоғида кўрган. Алидан эшитган”, деб, унга тегишли 2 та ривоятни келтиради. Ушбу ривоятларнинг бири онасидан ўзининг туғилишига оид ривоят бўлса, иккинчиси Абу Исҳоқ Сабийъийнинг Абу Молик Ашжаъийдан қилган ривоятидир. Ушбу ривоятда: “Муҳаммад ибн Ҳотиб билан ўтирган эдим. Шунда у: “Расулуллоҳ (с.а.в.) “Хурмозорлари бўлган ерни кўряпман”, дедилар”. Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ибн Муҳаммад ибн Абдураҳмон ибн Абу Бакр Сиддиқ ҳақда: “Бобоси Муҳаммад ибн Абдураҳмоннинг куняси: Абу Атиқ, Қураший. Набий (с.а.в.)га етишган”. Бу ерда Набий (с.а.в.)га етишган киши, яъни саҳобий унинг бобоси Муҳаммад ибн Абдураҳмон

экани кўрсатилган. Маълум бўладики, Муҳаммад ибн Абдураҳмон ибн Абу Бакр Сиддиқ саҳобийдир. Абу Нуайм Мусо ибн Уқбадан келтирган ривоятда, Уқба томонидан саҳобий экани билинмаган 4 кишининг 2 таси сифатида Абдураҳмон ибн Абу Бакр Сиддиқ ва унинг ўғли Муҳаммадлар зикр этилади. Ибн Ҳиббон унинг саҳобий эканига ишора қилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Имом Бухорий “ат-Тарих ал-кабир”да саҳобийларни бошқа ровийлардан алоҳида ажратиб кўрсатишга аҳамият берган. Жумладан, “саҳиба” феълидан олинга “соҳиб ан-Набий”, “лаҳу суҳбатун” каби иборалар саҳобийларга нисбатангина ишлатилган. Асарда “самиа” ровийнинг саҳобийлардан эканини кўрсатиш учун ҳам ишлатилган бўлиб, у саҳобийнинг Набий (с.а.в.)ни нафақат кўргани, балки у зотнинг сўзларини ҳам эшитганини кўрсатиш мақсадида қўлланган. “Роа” сўзи ҳам ровийнинг ўзи ривоят қилаётган шайхни кўрганини ва ундан ҳадис эшитмаган бўлиши мумкинлигини кўрсатиш учун ишлатилган бўлиб, баъзи ўринларда саҳобийликнинг асосий шарти топилганини баён этишда қўлланган.

Имом Бухорий “адрака” сўзини баъзи ровийларнинг Набий (с.а.в.)га етишиб, саҳобийлар сафига кирганини кўрсатиш учун ишлатган бўлса-да, “самиа”дан кўра паст даражани ифодалайди. Зеро, ушбу сўз саҳобийлигида шубҳа бўлган ёки у зотга етишган бўлса-да, сўзларини эшитмаганини кўрсатиш учун ишлатилган.

Адабиётлар рўйхати

1. Заҳабий, Муҳаммад ибн Аҳмад. Тажрид асмо ас-саҳоба. Ҳайдаробод: Даккан, 1895.
2. Бухорий, Муҳаммад ибн Исмоил. Ат-Тарих ал-кабир. Ҳайдаробод: Доира ал-маориф ал-усмонийя, нашр йили кўрсатилмаган.
3. Ибн Ҳиббон, Абу Ҳотим Муҳаммад ибн Аҳмад Бустий. Ас-Сиқот. Байрут: Дор ал-фикр
4. Ибн Абу Осим. Ал-Оҳод ва ал-масоний. САП: Дор ар-роя, 1991
5. Ибн Қониъ, Абулҳусайн Абдулбоқий. Муъжам ас-саҳоба. САП: Мактаба ал-ғурабо ал-асарийя, 1997.
6. Табароний, Сулаймон ибн Аҳмад ибн Айюб. Ал-Муъжам ал-кабир.
7. Абу Нуайм, Аҳмад ибн Абдуллоҳ Исбаҳоний. Маърифа ас-саҳоба. САП: Дор ал-ватан, 1998.
8. Бағдодий, Муҳаммад ибн Саъд. Табақот ал-кубро. Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1990.
9. Асқалоний, Аҳмад ибн Али ибн Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Ҳажар. Ал-Исоба фий тамйиз ас-саҳаба. Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1994.
10. Ибн Абу Ҳотим, Абдураҳмон ибн Муҳаммад ибн Идрис ибн Мунзир Тамимий Ҳанзалий Розий. Ал-Жарҳ ват-таъдил. Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1953
11. Ижлий, Аҳмад ибн Абдуллоҳ ибн Солиҳ. Тарих ас-сиқот би тартиб ал-ҳайсамий. Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1984
12. Бухорий, Муҳаммади ибн Исмоил. ал-Жомеъ ас-саҳиҳ. Байрут: Дор туқ ан-нажот, 2001.

* * *

MUHAMMAD YUSUF AND HIS PRICELESS SCIENTIFIC AND LITERARY HERITAGE

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF VA UNING BEBAXO ILMIY-ADABIY MEROSINING O‘ZIGA XOSLIGI

Ismoilova Feruza Axmatjonovna
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
tayanch doktoranti

As a result of a series of reforms implemented across various spheres in Uzbekistan after independence, all conditions began to be gradually recreated in the religious field for the revival of religious knowledge that had been forgotten for almost a century. The first translation of the Quran into Uzbek by Sheikh Alauddin Mansur1 not only filled the need and gap in our religion among the population, but 1G‘aybulla Salomov, Tarjima nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2003, p.24 also led to increased curiosity towards other literary sources in this field. Naturally, this process itself poses two tasks for representatives of Uzbek literature: 1. To create scientific and religious works about Islam in Uzbek 2. To translate Islamic works that already exist in the world literature into Uzbek But, the problem was to find the scholars who were true and reliable experts in this field in order to fulfill both of the above-mentioned tasks. Because our country had lost religious scholars due to strict restrictions imposed during nearly 100 years of Soviet colonialism. However, thanks to the efforts of Sheikh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, the gap was filled with hard work in a short period of time, and today Uzbek literature is enriched with examples of the virtuous Sheikh’s colorful creativity and a series of literary works written on all aspects of our religion. At this point, it is worth briefly discussing the life and literary career of the great scholar. Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf was born on April 15, 1952, in the Andijan region of Uzbekistan. He received his initial education (Tajweed and Arabic grammar) from his father, Muhammad Yusuf Qori, who was appointed to the leadership of the Spiritual Boarding of the Muslims of Central Asia in 19532. After graduating from high school, he continued his studies at the Mir Arab Madrasah in Bukhara, which was the only religious school in Central Asia, starting in 1970. In 1971, the first Higher Education Institute named “Imam Bukhari” was established in Tashkent, and among the talented students who were selected and accepted there, he graduated with the highest academic performance. After graduating, he worked as a member of the magazine “Muslims of Soviet East” for a while. Then he left the 2https://voicesoncentralasia.org/the-last-soviet-mufti-of-central-asia-muhammad-sodiq-muhammad-yusuf/ country to study at the “Faculty of Islamic Propagation” in Libya. Having gained invaluable knowledge from the world’s most experienced scholars in religious sciences, he returned to our country in 1980 and worked as a teacher (1981), a vice rector (1982), and a rector (1984) at the Imam Bukhari Islamic Institute, where he earned his bachelor’s degree. From 1984 to 1989, he taught tafsir, Quranic sciences, hadith, and aqeedah at this institution. His appointment as the Mufti of the Religious Administration of Muslims of Central Asia and Kazakhstan in 1989, and a little later as a deputy of the Supreme Council of the former Soviet Union, contributed to the comprehensive rise of Islam in Uzbekistan to a new level.3 Although it was not easy to launch new rules for the benefit of the muslims under the control of the politicial system, he managed to complete the following: ¬ Transfer of the “Mus’hafi Usman” kept in the Tashkent History Museum to the Religious Department ¬ The establishment and operation of a branch of the Kuwait International

Charity Foundation ¬ the establishment of many mosques and religious institutions ¬ Retitling the magazine “Muslims of the Soviet East” as “Muslims of the Movarounnahr” and the launch of a new religious magazine, “The Light of Islam” ¬ The implementation of the state-wide celebration of the two holy Muslim holidays - Ramadan and Eid al-Adha - and the declaration of those days as holidays Despite his endless efforts to bring about such joyful events that serve the interests of countless Muslims, the great scholar Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf was forced to live and pursue his scientific activities in Mecca , 3Islom.uz - Маърифат маскани Saudi Arabia, between 1993 and 1994, and in Libya from 1994 to 2001. The Islamic scholar, who never stopped researching even for a day during his life abroad, returned to Uzbekistan with his priceless literary works in 2001.4 He was careful with each word he used in his books since he supported all of his thoughts with verses of the Qur’an and authentic Ahadith. This feature causes disparity among other religious scholars and works, making his books most reliable by islamic doctrine point of view. He considered that there should be a daily task for every single man that must be done in this world, and spreading Islamic knowledge was his obligation according to his perceptions. And he never slept before writing 10 pages of his book every day, and as a result, he managed to complete hundreds of his works within a short period of his whole life. The following table includes and classifies literary works related to him. Works done by Sheikh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Number of works translated by the great scholar Number of works created by the scholar Number of great scholar’s works translated into other languages 10 112 Russian: 24 English:1 Kyrgyz:1 Tadjik: 4 Karakalpak:7 Turkish:3 Total:41 4Muhammad Amin Muhammad Yusuf, Islomga bag‘ishlangan umr, Toshkent 2017, pp.168-171 To sum up, the numbers given above reveal that the great scholar was the one who valued every minute of his life and dedicated himself to the spread of Islamic knowledge all over the country. However, today the Islamic world needs his works and different nationalities are looking forward to his every book to be translated into their languages, which means he left a great treasure in terms of instructing muslims in all aspects of modern life. One can find solutions in his books when faced with challenges about how to bring up a child, how to treat the spouse, how to deal with the debts, how to organize a daily routine, how to save the environment, and so on. Even if the great scholar Sheikh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf has left the world, he still lives with us through his valuable advice and reliable instructions written in his books, audio, and video materials. Hence, life is not measured by how long you live but by how you live! References: 1. G‘aybulla Salomov, Tarjima nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2003, p.24 2. Muhammad Amin Muhammad Yusuf, Islomga bag‘ishlangan umr, Toshkent 2017, pp.168-171 3. Islom.uz - Маърифат маскани 4. https://voicesoncentralasia.org/the-last-soviet-mufti-of-central-asia-muhammad sodiq-muhammad-yusuf

* * *

РОЛЬ «КАЛИЛЫ И ДИМНЫ» В ИСЛАМСКОЙ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ТРАДИЦИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

THE ROLE OF KALILA WA DIMNA IN THE ISLAMIC INTELLECTUAL TRADITION OF CENTRAL ASIA

Киздарбекова Молдир Абилхановна,
старший преподаватель Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмета Ясави
moldir.kizdarbekova@ayu.edu.kz

Литературное произведение «Калила и Димна», представляющее собой сборник притч и басен, занимает уникальное место в интеллектуальной и культурной истории Центральной Азии. Несмотря на свое доисламское происхождение и индийские корни, эта книга была глубоко интегрирована в исламскую цивилизацию и оказала значительное, хотя и часто косвенное, влияние на формирование исламской интеллектуальной традиции в регионе. Ее ценность заключалась не в религиозном учении как таковом, а в мудрых этико-политических наставлениях, которые гармонично дополняли исламские представления о морали, справедливости и управлении.

«Калила и Димна» изначально возникла из древнеиндийской «Панчатантры»[498] на санскрите. В VI веке н.э. она была переведена на среднеперсидский язык (пехлеви), а затем, в VIII веке, обрела всемирную известность благодаря выдающемуся персидскому переводчику Ибн аль-Мукаффе, который перевел ее на арабский язык. Его арабская версия стала эталоном литературного стиля и быстро распространилась по всему исламскому миру.

Ключевым аспектом интеграции «Калилы и Димны» в исламскую культуру является концепция адаба (أدب). В исламской традиции адаб – это не просто литература, но и широкий круг знаний, охватывающий этикет, моральные нормы, мудрость, красноречие, правила поведения и управления. Произведения адаба, к которым относилась «Калила и Димна», имели важное воспитательное и просветительское значение, формируя всесторонне развитую личность, способную к эффективному управлению и общению.

Структура «Калилы и Димны» представляет собой рамковую повесть, в которую вплетены многочисленные басни о животных, символизирующих человеческие качества и общественные отношения. Эти истории, рассказанные шакалами Калилой и Димной, содержат глубокие уроки, которые были чрезвычайно ценны для исламских мыслителей и правителей Центральной Азии:

Произведение постоянно демонстрирует последствия справедливого или тиранического правления, подчеркивая важность адля (عدل) – справедливости – в исламской политической этике. Например, в главе «О царе и птицах» (или схожих историях о несправедливом правителе), читателю наглядно показываются разрушительные последствия деспотизма и пренебрежения нуждами подданных. С другой стороны, истории, где царь слушает мудрых советников, подчеркивают ценность справедливого управления.

Мудрость (хикма (حكمة)) и разумное принятие решений наглядно представлены в таких рассказах, как «Лев и бык Шанзаба». Здесь шакал Калила, используя свою мудрость и проницательность, пытается предотвратить беду, в то время как интриги и глупость Димны

[498] A.S. Geden. «The Religious Ideas of the Panchatantra and the Kalila and Dimna», Англия, 1921.

приводят к трагедии. Истории убедительно показывают, как мудрость ведет к успеху, а безрассудство – к падению.

Темы лояльности и предательства глубоко раскрываются в центральной истории «О льве и быке», где дружба льва и быка Шанзабы разрушается из-за клеветы и интриг Димны. Эта и подобные ей басни предлагали образцы поведения в межличностных и политических отношениях, предупреждая о коварстве и важности проверки информации.

Наконец, «Калила и Димна» служила своего рода руководством по искусству управления и дипломатии. Вся рамковая повесть о царе Дабшалиме и мудреце Бидпае является наставлением для правителя в вопросах государственной политики, выбора советников и отношения к подданным. Басни, такие как «Ворон и совы», предлагают уроки стратегии, дипломатии и осторожности в отношениях с врагами. Эти универсальные темы гармонично сочетались с исламскими этическими нормами и способствовали формированию сбалансированного мировоззрения, где религиозные знания дополнялись житейской мудростью и практическими навыками.

Центральная Азия, будучи одним из ключевых центров исламской культуры и науки, активно воспринимала и развивала интеллектуальные течения исламского мира. «Калила и Димна» сыграла значительную роль в этом процессе. Арабская версия Ибн аль-Мукаффы[499] стала основой для многочисленных переводов на персидский язык, включая знаменитый перевод XII века Насруллаха Мунши[500], известный как «Калила ва Димна»Бахрамшахи. Позднее появились и тюркские версии, что сделало произведение доступным для широких слоев населения региона и обогатило местные литературные традиции. «Калила и Димна» активно использовалась в медресе и при дворах правителей как учебное пособие по этике, риторике и искусству управления. Она помогала формировать у будущих ученых, государственных деятелей и интеллектуалов не только религиозные, но и светские знания, необходимые для понимания общественной жизни и человеческой психологии. Многие центральноазиатские поэты и прозаики вдохновлялись сюжетами, аллегорическим стилем и дидактической направленностью «Калилы и Димны», интегрируя ее элементы в свои произведения и развивая местную литературную традицию.

«Калила и Димна» оказала глубокое и многогранное влияние на исламскую интеллектуальную традицию Центральной Азии. Не будучи напрямую религиозным текстом, это произведение стало неотъемлемой частью исламского адаба, предлагая богатый источник этико-политической мудрости и практических наставлений. Оно способствовало развитию всесторонне образованной личности, способной не только к глубокому пониманию религиозных доктрин, но и к эффективному взаимодействию в обществе.

Интеграция «Калилы и Димны» в образовательную систему и литературную жизнь региона свидетельствует о широте и гибкости исламской интеллектуальной традиции, которая умела адаптировать и использовать ценные знания из различных культурных источников. Таким образом, эта книга сыграла важную роль в формировании не только литературного вкуса, но и морально-этических, а также политических ориентиров, став неотъемлемой частью богатого наследия исламских наук Центральной Азии.

* * *

[499] Ибн аль-Мукаффа. Калила и Димна [Текст] / Ибн аль-Мукаффа; пер. с араб., предисл. и коммент. Б. Шидфар. - М.: Худож. лит., 1986. - С. 6-7.

[500] Насруллох Мунши. «Калила и Димна» с корректировкой Муджтабо Минави Тегерани, напечатано в типографии Амири Кабир. -Тегеран, 1385 г. -450 с.

АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИ ВА НАВОИЙШУНОСЛИК АНЪАНАЛАРИ

THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND THE TRADITIONS OF NAVOI STUDIES

Мўътабархон Мадаева,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси
катта ўқитувчиси, PhD
mutabar_aziz@mail.ru,

Алишер Навоий ижодини ўрганиш жараёнида мутафаккирнинг беқиёс адабий меросини тадқиқ қилган олимларнинг илмий ишларига мурожаат қиламиз. Навоийшунос олимлар ўз мақола ва китобларида улуғ шоирга бўлган чуқур ҳурмат ва эҳтиром билан, унинг бой адабий дунёсини келажак авлодларга етказишга интилганлар.

Навоий мероси нақадар чуқур ўрганилса, жамиятда маънавий-маданий асослар шунча мустаҳкамланади. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихида алоҳида ўринга эга бўлган Навоий ижоди санъат, маданият ва навоийшунослик каби кўплаб соҳаларни қамраб олган. Бунда навоийшунос олимларнинг ҳиссаси жуда катта.

Алишер Навоий тўғрисида маълумот берувчи асарлардан энг қадимгиси Давлатшоҳ Самарқандийнинг «Тазкират-уш-шуаро» номли асаридир. Бу тазкира Навоийнинг ҳаёт чоғларида 1487-йилда ёзилган бўлиб, Шарқ ва Ғарбда жуда машҳурдир. Давлатшоҳ ўз асарининг сўнги қисмини Алишер Навоийга бағишлаган ва буюк ҳурмат билан унинг ҳаёти, қурувчилиги ва асарлари тўғрисида қисқа лекин аҳамиятли маълумотлар берган.

Шу билан бирга, Навоий ўзи тарбиялаган олим, тарихчи Хондамир асарлари Навоий ижодини ўрганиш борасида катта илмий аҳамиятга эга. Чунки у Навоийнинг адабий фаолиятини ўз кўзи билан кўрган ва уни жуда яхши билар катта ҳурмат билан асари «Макоримул-ахлоқ»да ифодалаган эди. Шу билан бирга Хондамир «Ҳабиб-ус-сияр», «Хулосат-ул-ахбор»асарларида буюк мутафаккир ҳақида маълумотлар берган.

Ҳиротнинг олим, фозил кишиларидан бўлган Зайниддин ибн Абдужалил Восифий «Бадоеъул-вақоеъ» асарида Алишер Навоий даври ва шахси борасида маълумотларни келтирган. Восифий араб тилини мукаммал билган. Ҳиротда мадрасани тугатиб Ҳусайн Бойқаронинг ўғли Фаридун Ҳусайн мирзога котиблик, унинг бошқа ўғилларига эса муаллимлик қилган. Унинг ушбу машҳур асари кўп адабиёт ва санъат намояндалари ҳақида ёзилган. Алишер Навоий ижоди билан илмий иш олиб борган кўпгина олимлар, тадқиқотчилар бу асарга доим мурожаат қилиб келишган, чунки бу китоб Навоий даврининг муҳим фактларини ўз ичига қамраб олган.

Ўзбекистон Фанлар Академиясининг мухбир аъзоси ўзбек адабиётшунослигига мустаҳкам пойдевор қўйган Олим Шарафиддинов (1903-1943) илмий ижодининг асоси Алишер Навоий ижодининг турли мавзуларига бағишланган. Унинг «Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижоди»(1939) монографияси 25 йил давомида Навоий ижоди ҳақидаги энг ишончли манба деб ҳисобланди. Унда Навоий достонларининг Низомий, Деҳлавий, Жомий асарларидан фарқли, ёрқин жиҳатлари аниқланиб, Навоийнинг даҳо санъаткор эканлигини исботлаб берган. Шу билан бирга улуғ мутафаккир ижодий оламини у яшаган давр ижтимоий-сиёсий муҳити, давлат арбоби сифатидаги мавқеъи, асарлари, поэтикаси доирасида ўрганади. Унинг фикрича,

илмий навоийшунослик миллий ва жаҳоний тарзда икки қутб йўналишида таҳлил этилади. Биринчи йўналиш Алишер Навоий давридан бошланган миллий шарқона навоийшунослик бўлса, иккинчи йўналиш XVIII-XIX асрларда вужудга келган жаҳон Ғарб навоийшунослик илмидир. “Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижоди тўғрисида, – дейди олим, кўп қимматли маълумотлар Навоийнинг замондошлари томонидан бизга ёдгор қилиб қолдирилгандир. Унинг номи деярли XV-XVI асрларда ёзилган барча тарихий асарлар, тазкираларга киргандир. Шунингдек, Алишер Навоийнинг ўзи томонидан яратилган асарлари ҳам шоир тўғрисида энг яхши маълумотлар берувчи манба ҳисобланади”. Олим Шарафиддиновнинг Навоий шеърияти борасидаги фикрлари адабиётшунослик бўйича илк илмий тадқиқот сифатида қаралган чунки ҳозиргача олимнинг фикрлари адабиётда нуфуз жиҳатидан катта ўринга эга.

Навоий ижодини ўрганишга салмоқли ҳисса қўшган олим Абдуқодир Ҳайитметов (1926-2005). У академик Ойбек тавсияси билан «Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари» мавзуида номзодлик ва «Навоийнинг ижодий методи» мавзуида докторлик диссертацияларини ҳимоя қилади. Унинг «Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари», «Навоий лирикаси», «Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан», «Навоийхонлик суҳбатлари» каби китоблари Навоий ижодининг серқирра жиҳатларини тадқиқ этишга бағишланган. Навоийнинг «Тарихи мулуки ажам» асари ҳақида шундай фикрларни баён этади, «Навоий асарда ўзининг илғор ғояларини келажакка қараб эмас (Навоий келажакни илмий жиҳатдан аниқ кўра билиш даражасига кўтарила олмаган эди), ўтмишга қараб гавдалантиради, ўтмишдаги адолатли подшоҳларни, уларнинг замонини ўз даврига объектив равишда қарама-қарши қўяди ва ҳукмдорларни улардан сабоқ олишга чақиради. Асарда жамиятда тинчлик, осойишталик ва ҳақиқат ўрнатиш – адолатли, халқпарвар подшоҳларга боғлиқ, деган идеалистик назария илгари сурилади. Муаллиф жамиятда ҳаққоният ёки ҳақсизлик, адолат ёки адолатсизлик ўрнатиш фақат подшоҳларга боғлиқ эмаслигини, балки буни жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий тузуми ҳал қилишини тушуна олмайди ва ўша тарихий шароитда тушуниш ҳам мумкин эмас эди, деб фикр юритади. Навоий ўз даврининг ҳақиқий даҳоси эди. У тарихни ўрганганлиги учун ўз асарларида инсонпарварлик ва халқпарварлик нуқтаи назаридан ёндашган. Абдуқодир Ҳайитметов йирик адабиётшунос сифатида бутун умрини Навоий ижодини ўрганишга бағишлаган.

Навоий бадиий асарлари текстология фани бўйича ҳам атоқли олимлар тарафидан ўрганилиб катта муваффақиятларга эга бўлган. Шу хусусда, навоийшунос, матншунос олим, филология фанлари доктори, Ўзбекистон хизмат кўрсатган фан арбоби Порсо Шамсиевнинг (1897 - 1972) хизматларини айтиб ўтиш жоиз. Матншунослик илмига асос солган унинг пойдеворини яратган олим Навоийнинг «Муҳокамат ул-луғатайн», «Мажолис ун-нафоис», «Маҳбуб ул-қулуб» ва бошқа асарларининг илмий-танқидий матнини нашрга тайёрлаган ҳамда шоир асарларининг 15 жилдлигини нашр этишда фаол қатнашган. «Хамса»нинг илмий-танқидий матнини тузган. Шунингдек, олимнинг луғатчилик соҳасидаги фаолияти XX асрнинг 30-йилларидан бошланган. Бу ҳақда Порсо Шамсиев ижодига бағишланган кўрсатувда Бердақ Юсупов ушбу маълумотларни беради: Навоийнинг 500 йиллиги муносабати билан 30-йилларда 4 жилдлик Навоий тили луғатини тузиш ишлари бўйича махсус гуруҳ тузилган. Бу гуруҳ ишлари 41-йили иккинчи Жаҳон уруши бошланганида тўхтаб қолган, лекин гуруҳ 1-жилдини тайёрлашга улгурган эди. Бунда 200 мингдан ортиқ карточкалар тайёрланиб, картотека фонди тузилган. Уруш тугагандан сўнг, гуруҳ аъзолари бўлган Порсо Шамсиев ва Собиржон Иброҳимов билан 1953 йилда «Ўзбек классик адабиёти учун қисқача луғат» деб номланган китобини тайёрлашган. Порсо Шамсиевнинг таржимонлик соҳасидаги фаолияти ҳам Навоий ижоди билан боғлиқ.

Ҳозирги вақтда, Навоийшунос олим, филология фанлари доктори Афтондил Эркиновнинг самарали хизматлари сабабли бутун дунё илм аҳли Навоий ижоди борасида янгидан-янги

маълумотларга эга бўлиб келмоқда. Олим илмий изланишлари ила Навоий асарларининг ноёб қўлёзмаларини топишга мушарраф бўлган. Шу билан бирга Навоий асарларини илмий таҳлил қилган, унинг кўп йиллик меҳнатлари дунёдаги адиб асарларининг қўлёзмаларини умумлаштириб феҳрест тузиш буйича ўзининг мақолаларида, халқаро конференцияларда жуда катта ташаббус кўрсатиб келмоқда. Улар ўз маърузаларида: «Алишер Навоий асарларининг Туркия фондларидаги қўлёзмларини ўрганишга, яъни маълум бир регион ва ундаги қўлёзма фондларидан каталог тузиш фаолиятини бошлашга тўғри келди. Бунинг учун туркиялик олимлардан Истанбул Бўғозичи университети тарих кафедраси профессори Лола Улуч, Истанбулдаги Меъмор Синон номидаги тасвирий санъат университети туркийшунослик кафедраси профессори Танжу Сейҳан ҳамда Ўзбекистондан Рустам Жабборов ва Ойсара Мадалиева билан ҳамкорликда феҳрест устида ишламоқдамиз. Ҳозирги босқичдаги мақсадимиз "Алишер Навоий қўлёзмалари бутунжаҳон феҳрести"нинг Туркия қўлёзмлари қисмини битиришдан иборат» дея маълумотлар берган. А.Эркинов Навоий асарларида пейзаж, табиатнинг сирли оламини маҳорат билан ўзининг «Навоий пейзаж устаси» номли китобида тавсифлаб берган. Бунда «Садди Искандарий» достонидаги қиш тасвири, баҳор манзараси, Ҳиндистоннинг Нигор ўрмонлари, океан саёҳатини илмий таҳлил қилган. Шу билан бирга қиш билан баҳор фаслининг бир-бирига қарама-қарши эканини, инсон ҳаётининг қарилик босқичига ўхшатилиши, ҳаёт баҳори ўткинчи эканлигини унутмаслик лозимлигини, умрнинг қиши келиши муқаррар эканлигини айтади. Олимнинг серқирра илмий тадқиқотлари навоийшунослик илмида муҳим ўрин эгаллайди.

Хулоса қилиб айтганда, Алишер Навоийнинг бутун илмий мероси ва ижоди унинг ҳаётга, инсонга бўлган чексиз муҳаббатидан далолат беради. Ушбу бебаҳо мерос навоийшунослик илмига ҳисса қўшган ардоқли ўзбек олимларининг фидокорона ва пухта илмий ишлари орқали намоён бўлиб, авлоддан-авлодга мерос бўлиб ўтиб келмоқда. Бу маънавий бойликни қадрлаш ва асраш бугунги ёш авлоднинг шарафли бурчидир, зеро Навоий ёзган ҳар бир сатр улкан маънавий аҳамиятга эга. Алишер Навоий ижоди кўплаб олимлар томонидан юксак маҳорат билан тадқиқ этилган. Унинг асарларини илмий таҳлил қилган навоийшуносларнинг самарали меҳнатлари бугунги кунда ҳам Навоий ижодини чуқур ўрганишда асосий манба сифатида хизмат қилмоқда.

* * *

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING TABIIY FANLARGA VA SALOMATLIKKA OID QARASHLARI RIVOJI

DEVELOPING THE VIEWS OF CENTRAL ASIAN THINKERS ON NATURAL SCIENCES AND HEALTH

Jumaniyazova Moxira
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Ijtimoiy fanlar va huquq" kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: moxirajumaniyazova@gmail.com

KIRISH

Inson hayotining eng muhim ne'matlaridan biri bu - salomatlikdir. Inson o'zining jismoniy va ruhiy salomatligiga erishishi orqali ijtimoiy hayotda bevosita faol ishtirokini ta'minlaydi. "Salomatlik - har bir inson uchun bebaho boylik sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim

shartlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Inson mustahkam salomatlikka ega bo‘lgandagina baxtli bo‘lib yashashi mumkin. Har bir millatga, har bir mamlakat uchun muqaddas bo‘lgan tarixiy, madaniy, milliy qadriyatlarning barchasini jismoniy va ruhiy sog‘lom insongina yarata oladi. Shunday ekan “salomatlik - mavjud barcha qadriyatlar orasida eng oliysi sifatida qadrlanmog‘i lozim. Inson salomatligini har qancha moddiy boylik va mablag‘ evaziga sotib olib bo‘lmaydi. Har bir shaxs o‘zining yurish-turishi uchun mas’ul deb qabul qilingan demokratik jamiyatda, inson salomatligi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oliy qadriyat darajasiga ko‘tariladi, har bir kishi o‘z salomatligining quruvchisi bo‘lib maydonga chiqadi, uni shunday qurish kerakki, u hech qachon buzilmasin, har qanday zararli ta’sirlarga bardosh bera olsin. Buning uchun har bir kishi mustahkam salomatlikka qanday erishish yo‘lini, salomatlikning sir-asrorlarini chuqur bilishi va to‘laqonli salomatlikning yagona yo‘li sog‘lom turmush tarzi ekanligini anglab yetishi lozim”[7, 3].

ASOSIY QISM

Umuman inson jismoniy hamda ma’naviy sog‘lomlikka qanday erishadi? degan savolga javob qidirar ekanmiz, albatta shaxs jismoniy va ma’naviy kamolotga erishish yo‘lidagi dastlabki bilimlarni oilada shakllantirishi shubxasizdir. Oilaning ma’nan va jismonan yetukligi ham bevosita oilani tashkil etuvchi a’zolarning tan sihatliligiga, ma’naviy sog‘lomligiga asoslanadi. Oila – mustahkam qo‘rg‘on, unda er-xotin munosabatlari, farzandlarning kamolga yetishi va jamiyatning eng muhim mexanizmi rivojlanadi. Bugungi kunda oilalarda tibbiy madaniyatning tarkib topishi va shakllanishi jamiyatda qadr topgan ko‘plab moddiy va ma’naviy qadriyatlarga asoslanadi. Aynan, oilalarda reproduktiv salomatlik to‘g‘risidagi ilm hamisha dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, oilaning kelajakdagi farovonligi va barqarorligi bevosita oila a’zolarining reproduktiv salomatligiga bog‘liqdir. Shu o‘rinda, reproduktiv salomatlik tushunchasiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. “Reproduktiv salomatlik – bu reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog‘liq barcha masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yo‘qligi bo‘libgina qolmay, balki to‘liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffaqiyatlar holati hamdir. Ilk bora reproduktiv salomatlik iborasi 1994-yil Qohirada bo‘lib o‘tgan aholi va rivojlanish masalalariga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiyada tilga olingan va quyidagicha izoh berilgan: inson huquqlarini himoya qilish, turmush farovonligini oshirish, aholining asosiy ijtimoiy xizmatlaridan foydalanishni yaxshilash, qashshoqlik bilan kurashishda harakatlarni birlashtirish , kasalliklar tarqalishini kamaytirish va atrof-muhitni himoya qilish masalalari o‘z aksini topgan [6, 144].

Quyidagi manbada ham tushunchaga umumiy tarif berilgan: “Reproduktiv salomatlik: reproductio - qayta ishlab chiqish. Insonning tur sifatida o‘zini saqlab qolish qobiliyati”[7, 240]. Ushbu ta’rifda asosiy mazmun insonning o‘ziga xos xususiyati va qobiliyati bu uning reproduktiv salomatligi ekaniga e’tibor qaratilganligini anglash mumkin.

Reproduktiv salomatlik hozirgi kunda bevosita Xalqaro huquq tomonidan rasman tan olingan va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlarda ro‘yhatga olingan hisoblanadi. Reproduktiv salomatlikning ilmiy jihatdan asosi bugun paydo bo‘lgan emas, u qadimdan G‘arb va Sharq olimlarining ijtimoiy qarashlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, oila va uning ijtimoiy ahamiyatini yoritgan bir guruh mutafakkirlar ijodida ham buni anglash mumkin. Buni Sharq sivilizatsion qarashlarida quyidagicha tahlil etish mumkin.

Sharq mutafakkirlari ijodida shaxs salomatligiga oid, ayniqsa oilalarda erkak va ayol uchun juda muhim bo‘lgan reproduktiv salomatlik bo‘yicha ko‘plab asarlar aks etadi. Ilk O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda ko‘plab qomusiy allomalar ijod etishgan. Ularning qomusliyligi deyarli barcha sohalarni qamrovli tadqiq etganliklaridan bilish mumkin. Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Al Farg‘oniy, Imom At-Termiziy, Imom al-Buxoriy kabi hadis ilmi ulamolari va boshqa mutafakkir allomalari shular jumlasidandir.

Misol tariqasida Abu Rayxon Beruniy o‘z qarashlarida oila tinchi bevosita oqila, aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo‘lida ekanligiga alohida urg‘u beradi. O‘zining “Mineralogiya” asarida oila

quriyotgan qizlarga ota-onaning nasixatlarini keltirib, oiladagi tinchlik-totuvlik, baxtiyorlik ko‘proq ayollar zimmasiga tushishini ta’kidlab yozadi: ‘Ey qizim! Sen turmushga chiqib o‘rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Bo‘lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo‘l, u osmon bo‘ladi. Uning oldida yer kabi kamtar bo‘lsang, u osmon kabi oliyjanob bo‘ladi. Osmon shifobaxsh yomg‘iri bilan yerni ko‘kartirgani kabi, u ham o‘z mehru shafqati bilan seni hushnud etadi. Erning sendan faqat yumshoq va Shirin so‘zlarigina eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda yoki yuzlaringga oro berilmagan va sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o‘trma”[4, 22].

Shu o‘rinda reproduktiv salomatlik zamirida insonning har tomonlama sog‘lomligini tushunish mumkin. Aqlan, jismonan va ma’nan yetuklik – bu reproduktiv salomatlik asosidir. Abu Rayxon Beruniy ham oilalarda ayollarning ham ma’nan ham jismonan yetukligini yuqoridagi tamoyillarga ko‘ra tavsif etganlar. Ulug‘ alloma Abu ali ibn Sinoning oilaviy munosabatlar masalalariga oid qarashlari ham diqqatga sazovor. Uning “Tadbiri manozil” asarida ayollarning yaxshi xulqli bo‘lishi haqida so‘z boradi. Ushbu asarda ayollarning quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi:

- Bilimli bo‘lishi;
- E’tiqodli bo‘lishi;
- Uyatchan, sharm-hayoli bo‘lsin;
- Tabiatan jasur bo‘lsin;
- Erini qattiq sevsin;
- Tug‘ish va bola tarbiyasi haqida o‘ylasin;
- Ezma bo‘lmasin;
- O‘z eriga bo‘sunsin;
- To‘g‘ri, kamtar va farosatli bo‘lsin;
- Hech qachon o‘z sha’niga dog‘ tushirmasin;
- Eri bilan ehtiyot bo‘lib, uning hurmatini joyiga qo‘yib, xushmuomila bo‘lishi shart;
- O‘z vazifasini va burchini yaxshi bilsin;
- Xotin oila xo‘jaligidagi narsalardan to‘g‘ri, tejab foydalanishni bilsin;
- O‘z tabiati va yaxshi tomonlari bilan eridagi kamchiliklarni yo‘qotsin;[4, 22].

Bundan tashqari alloma inson salomatligiga oid yana ko‘plab tadqiqotlar olib brogan, Ular jumlasiga, “Sog‘liqni saqlash ilmi”,”Sog‘lom turmush tarzi”,”Sog‘lom avlod”, ”Ruhiy salomatlik” , “Sog‘lom tabiiy muhit” konsepsiyalarini kiritish mumkin. Inson salomatligi faqat tana ichki muhitiga bog‘liq bo‘lmay, balki atrof-muhit, xilma-xil ekologik omillar, ma’naviy ta’sirlarga ham bog‘liqligi alloma nazaridan chetda qolmagan. Ibn Sino har bir bemorni davolashdan oldin uni diqqat bilan o‘rganish, oilasi va yashash sharoiti bilan tanishish o‘ta muhimligini uqtirgan. Uning bu fikrlari psixogigiyena fani vazifalariga o‘xshab ketadi. Ibn Sino asarlarida psixoprofilaktikaga oid ishlarni ham ko‘p uchratamiz. Masalan, mutafakkir kasalliklarning oldini olishda tarbiyaga alohida urg‘u bergan. “Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak”, degan edi Ibn Sino. Shuningdek, u bolani qo‘rqoq, g‘amgin yoki juda erka qilib tarbiyalamaslik, ota-ona bola nimani xohlayotganini doimo sezishi va o‘sha narsani bolaga yetkazib berishga harakat qilishi, yomon narsalardan esa yiroqlashtirishlari zarurligini uqtirgan. Bu qoidalarga rioya qilish bolaning zehnini o‘tkir, tanasi sog‘lom o‘sishini ta’minlashini ta’kidlab o‘tgan.

Yusuf Xos Hojibning mashhur “Qutadg‘u bilig” asarida ham er yoki xotin tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e’tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarning oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o‘rni va ahamiyati, er-xotin o‘zaro munosabatlarining me’yorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar keltiriladi. Asarda muallif kelin tanlash masalasi bo‘yicha quyidagicha maslahat beradi: “Sen xotin olsang, o‘zingdan quyisini

ol, zoti oliysiga boqma, sen qul bo‘lib qolasan. Asli, urug‘i hamda zoti yaxshi bo‘lsin, uyatli, andishali, pokizasini istagin. Yuzi chiroyini istama, xulqi yaxshisini ista, fe’l-atvori yaxshi bo‘lsa, sening yuzingni yoritadi. Fe’l-u atvori yaxshi bo‘lsa, u to‘kis bo‘ladi. Fe’l-u atvori to‘g‘ri bo‘lsa, juda munosib bo‘ladi, xotin chiroyli xulqdir, buni bilgan biladi. Agar yaxshi andishali ayol topishga muyassar bo‘lsang, boy berma (darxol olgin) ey ezgu kishi andishali, pokiza bo‘lsa, unday kishi asl bo‘ladi. Sen xotinning andishali-aqllisini ista, ey dono, andishali aqlli xotin topilsa – farosat, boylik, chiroy, nasl-nasab jam bo‘ladi”[5, 192].[501]

Xususan, Islom falsafasining ustunlaridan biri Abu Homid G‘azzoliyning “Kimyoi saodat” asarida ham insonning botiniy hislatlariga to‘xtalinilganligi, unda asosan Qur’oni Karim va Hadislardan dalil keltirib javob berilgani reproduktiv salomatlik masalasi biz bilgandek faqat g‘arb tomonidan kiritilgan tushuncha emas, aslida sharqda, aynan Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat olib borgan ko‘plab allomalarning ilmiy merosidan o‘rin olgandir.

Imom G‘azzoliyning yuqorida keltirilgan asarida quyidagi mulohazalar ketirilgan:

Fasl

Odam vujididagi avsofi zamimalar - yomon sifatlar bayonida

Bas, odamlardin»bir guruhi gumon qilibdurlarkim, Alloh odamni taom yemak va uyqulamoq va jimo‘ qilmoq, lazzat olmoq uchun yaratgandur deb. Bu mutlaqo noto‘g‘ri, buzuq, behuda xom xayoldir. Bu bilan hamma umrlarini bo‘lmag‘ur botil ishga sarf qilurlar. Ming afsus va nadomatlar bo‘lsin! Endi bir guruhlar borki, gumon qilurlarkim, sababsiz o‘zgalarga qahr-g‘azab qilib,baland ovozlar bilan jerkib, koyib, ulardan g‘olib bo‘lish uchun yaratilganmanderlar. Bu toifa ishlarga vaqtlarini, hattoki umrlarini sarf qilurlar. Ko‘pchilik xalqlarda uchraydigan bu har ikki gumon xatodurki, yemak va jimo‘ qilmoq shahvat sababidindur. Bu ishlarning hammasi botil xayollardur. Yemak, ichmak va jimo‘ qilmak hayvonlarda ham bordur. To‘rt oyoqli hayvonlarning yemagi odamning yemagidan to‘laroqdur. Chumchuqning jimo‘ qilmog‘i odamning jimo‘qilmog‘idan to‘laroqdur. Bas, odam bulardin nechuk sharofatlik bo‘lg‘usidur? G‘oliblik va balandlik qilmoq g‘azabning xohishidandurkim, bu darrandalarning sifatidur. Bas, odamga darranda va to‘rt oyoqli hayvonlarga bergan sifatlar ham berilibdur. Endi bundin ham ziyoda kamoli sharofatni beribdurkim, bu aql ne’matidur. Bas, odam o‘zini yaratgan Alloh azza va jallani shu aql-idrok bilan tanur. Alloh taoloning ajoyib va g‘aroyib yaratish qudratlarini tafakkur bilan mushohada qilib, aql nuri birla o‘zini g‘azab ilkidin xalos qilur. Bu farishtalar sifatidandur. Bu sifat hamma vahshiy hayvonlar sifatidan g‘olibdur. Alloh ro‘yi zamindagi barcha mavjudotlarni insonga musaxxar qildi - bo‘yinsundirdi. Haq taolo kalomi majidida xabar beribdurki:

“Va saxxara lakum mo fi-s-samovati vama fil-arzi jami’an minhu.
Oyatning tafsiri: Haq taolo sizlarga yer yuzidagi mavjudotlarning hammasini bo‘ysundirdi. (Josiya, 13))”

XULOSA

Darhaqiqat, kuzatishlar natijasida oilada asosan ayollarning salomatligi masalasi hamisha muammoli masalalar sirasiga kirib kelgan. Negaki, ayol – bu ona, rafiqa, opa-singil va oilaning ertangi naslini davom ettiruvchi shaxsdir. Shunday ekan, uning salomatligi, ayniqsa reproduktiv salomatligi masalasi hamisha ahamiyatli bo‘lishi lozim. Bu borada islom dinida ham ko‘plab nasihat va hikmatlar berilgan. Inson hamisha muammolarning asl yechimini topishga harakat qilib keladi, bu o‘rinda tajribalarni o‘rganish va ularga ergashish ham yaxshi samara berishi shubxasizdir. Ayniqsa, turmush qurish ostonasidagi har bir yosh avlod o‘zining eng muhim ne’mati hisoblanuvchi reproduktiv salomatligi haqida hamisha qayg‘urishi va bu boradagi tarixiy o‘gitlarga ham quloq tutishi lozim. Ma’lumki, o‘tmishda yashab o‘tgan allomalarimiz o‘z qarashlarida har bir jihatga alohida e’tibor qaratganlar, oilaviy munosabatlar borasida ham, salomatlik borasidagi

[501] Yusuf Xos Hojib. Qutadig‘u bilig. – Toshkent: “Yulduzcha” 1990. – 192 b.

mulohazalaridan ham bugungi kunimiz uchun kerakli javobni olishimiz aniq, negaki ular fikrlarini har bir zamonga mos jihatlari bisyor. Shunday ekan, uni o‘rganish, tahlil etish va keraklisi qabul qila olish ham bir mahoratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – T.: “Ma’naviyat”, 2006. – 336 b.

2. Alixon Sog‘uniy., Xabibullo Karomatov tarjimasi. “Temur tuzuklari” – Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti. 1991. – 184 b.

3. Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoi saodat. – T. “Adolat”. 2005. B 25.

4. Gender tengligi: g‘oyadan qonunga qadar: Uslubiy qo‘llanma/ Xoliqova, M,. Ishanxanova, G., Po‘latova Sh. – Toshkent: “Akademnashr”, 2021. – 208 b.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadig‘u bilig. – Toshkent: “Yulduzcha” 1990. – 192 b.

6. N.J. Yusupova, B.B.Mamadiyev, M.M.Xaydarov – Islomda gender tenglik tamoyillarining o‘ziga xos xususiyatlari. Qo‘llanma. – Toshkent.,Baktriapress, 2022. – B 144.

7. Rahmon Arziqulov “So‘g‘lom turmush tarzi asoslari”. O‘quv qo‘llanma. T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” – 2009. B. 240.

* * *

МАҲМУД ЗАМАХШАРИЙНИНГ “РАБИЪУЛ-АБРОР” АСАРИНИНГ МАЪРУЗА ИЛМИДАГИ ЎРНИ

THE ROLE OF MAHMUD AL-ZAMAKHSHARI’S WORK “RABI‘ AL-ABRAR” IN THE SCIENCE OF RHETORIC

Баходир Пирмуҳамедов,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
Араб тили ва адабиёти ал-Азҳар кафедраси
катта ўқитувчиси

Юртимиз умумжаҳон ислом цивилизациясининг муҳим ўчоқларидан бири бўлган Мовароуннаҳр маданияти маркази деб ҳисобланади. Бугунги куннинг ижтимоий долзарб вазифаларидан бири – мусулмон алломаларининг илмий меросини ўрганиш, илм-фан билан боғлиқ қарашлари ва ғояларини баҳолаб, дунё илм-фанлари ривожида тутган ўрни ва аҳамиятини намоён этишдан иборатдир.

Ислом оламида филологик илмларнинг вужудга келишида Қуръони карим ва ҳадиси шариф асосий манба вазифасини бажарган. Қуръон ва ҳадис матнларининг мазмунини аниқ ва тўғри англаш араб тилига бўлган илмий эътиборни кучайтириб, муайян талаблар асосида тилнинг фонетик, морфологик, синтактик, семантик ва стилистик қоидаларини ишлаб чиқиш заруратини юзага келтирган.

Мусулмон маданиятида VIII асрдан “адаб” жанри шаклланиб бошлаган ва бу жанрдаги асарлар филологик илмларнинг турли тармоқларига доир бўлган. Мазкур асарлар инсон онгини ривожлантириш ва уни жамиятга манфаати тегадиган қилиб тарбиялаш мақсадида вужудга келган. Адаб жанридаги асарлар ҳаётий ёки адабий воқеалар асосида яратилган ибратли, бадиий ва маърифий билимларни бирлаштирадиган кичик матнлардан ҳам иборат бўлган. Ушбу китобларда ахлоқий нормалар билан бир қаторда бошқа соҳаларга оид бой

маълумотлар кўп бўлгани учун илм аҳли, қолаверса зодагонлар қатлами орасида тезда шуҳрат қозонган ва аксарият асарлар кенг тарқалиб машҳур бўлиб кетган[502].

Ўрта асрлар араб адабиёти дунё халқлари адабиётидан ўзининг турли йўналиши ва серқирра жанрлари билан ажралиб турган. Бу даврда ижод қилган Мовароуннаҳр алломалари илм-фаннинг барча тармоқларида, жумладан тилшунослик, луғатшунослик, адабиётшунослик, фольклор, фалсафа, исломшунослик фанлари, физика, математика, кимё, тиббиёт, география ва бошқа йўналишларда сара асарлар ёзиб мерос қилиб қолдирган. Одамларни илм олишга чақирувчи ғояни илгари суриш ақидаси нафақат араб ёки форс халқларининг устунлиги билан, балки бутун дунё зиёлиларининг ҳаракати билан юзага келган ва бу сайъ-ҳаракатларнинг самараси сифатида илмий асарлар яратиш анъанаси шаклланган[503].

Илмий асарлар дастлаб “рисола” кўринишида яратилган. Бу рисолалар вужудга келиши адаб илмларининг фуруъ қисмига мансуб “Муҳодара илми” (علم المحاضرات – маърузалар илми) нинг шаклланишига олиб келган.

Маъруза илми араб – адаб илмлари ичида Қуръон оятларидан, ҳадислардан, шеърлар, мақоллар, фразеологик бирликлардан намуналар келтириш, араб ва ажам олимларининг муайян мавзуларга оид фикрларини тақдим этиши билан фойдали бўлиб, айнан мана шу жиҳати учун алоҳида аҳамият касб этган. Ибн Хатиб (1460-1534 йй.) бу илмнинг араб илмлари ичида муҳим ўрин эгаллаганини ва унинг аҳамиятини таърифлаб қуйидагича фикр билдирган:

علم المحاضرات علم نافع في أنواع المحاورات، وهو علم عال من العلوم العربية، وفن فاخر من الفنون الأدبية، يحتاج إليه طوائف الأنام، ويرغب فيه العلماء العظام.[504]

“Муҳодара, яъни маърузалар илми муҳовара - суҳбат турларидаги фойдали илмдир, у араб илмлари орасидаги юксак илм, адабиёт санъатлари ичидаги нафис санъатдир. Унга барча табақадаги одамлар муҳтож бўлади, аммо буюк олимларгина мурожаат қилади”.

Маъруза жанрида яратилган машҳур асарлар қаторида Абу Амр Аҳмад бин Муҳаммад бин Абду Раббиҳнинг (940 в.) “العقد الفريد”, Абул Фараж Али ибн Ҳусайн ал-Исфаҳонийнинг (967в.) “الأغاني”, Абу Али ал-Муҳассин бин Али ат-Танухийнинг (994 в.) “نشوار المحاضرة والأخبار المذاكرة”, Абул Фараж ал-Муаъфий бин Закария ан-Наҳраваний ал-Жаририйнинг (1000 в.) “الجليس الصالح الكافي والأنيس الناصح الشافي”, Абу Саъд Мансур бин Хусайн ал-Обийнинг (1030 в.) “نثر الدر”, Абу Умар Юсуф бин Абдул-бир ан-Намрий ал-Қуртубийнинг (1071в.) “ بهجة المجالس وأنس المجالس وشحذ الذاهن والهاجس” , Роғиб ал-Исфаҳонийнинг (1109 в.) “محاضرة الأدباء ومحاورة الشعراء والبلغاء”, Маҳмуд Замахшарийнинг (1143 в.) “ربيع الأبرار”, Абу-л-Маъалий Баҳауддин Муҳаммад бин Ҳасан бин Муҳаммад бин Али бин Ҳамдун ал-Бағдодийнинг (1167 в.) “التذكرة الحمدونية”, Аҳмад бин Юсуф Тайфашийнинг (1253 в.) “فصل الخطاب”, Муҳаммад Али Табризий Хиёбонийнинг (1373 в.) “ريحانة الأدب”, ибн Абу Ҳажала номи билан машҳур Шаҳобиддин бин Яҳъё бин Абубакрнинг (1375 в.) “سكردان السلطان” асарларини ҳам киритиш мумкин.

Маҳмуд Замахшарий тафсир, ҳадис, фиқҳ, тилшунослик, лексикология, балоғат каби илмларда асарлар тасниф қилиши билан бирга маъруза илмига оид “Рабиъул-аброр” асарини яратган. Асар муқаддимасида муаллиф уни “Кашшоф” асаридан кейин, ҳижрий 528 йили Маккада ёзиб тугатганини ва “бу китобни “Кашшоф” асари ўқувчиларининг зеҳнларига дам бериш учун, билим ва қобилиятлари фикрлаш билан толиққанидан дилларига ором беришлари, зерикканларида ўқиб завқланишлари учун ёздим... Унда Касир бин Абдураҳмоннинг Иззага ёзган ғазалларини, Жамил бин Абдуллоҳнинг гўзал шеърларини ўқишинг мумкин. Яхши суҳбатдош талабида бўлсанг, ундан ортиқ суҳбатдош тополмайсан, янги хабар керак бўлса ундан яхши хабарчи ҳам йўқ. Ғамгин бўлсанг кўз ёшингни шашқатор оқизади, шодон кулги

---

[502] Халидов А.Б. Культура народов востока. – М.: Наука, 1987. – С. 258-259

[503] مصطفى الشكعة. مناهج التأليف عند العلماء العرب. – بيروت: دار العلم للملايين، 1991. الطبعة 6. – ص. 55.

[504] ابن الخطيب محمد بن قاسم بن يعقوب الأماسي. روض الأخيار المنتخب من ربيع الأبرار. - حلب: دار القلم العربي، ١٤٣٢ ه . – ص. 21.

керак бўлса ундан ичак узди хангомалар топасан” деб қайд этган.

Аллома асарини ўзидан аввал яратилган асарлардан фарқли ўлароқ услубда яратган. Рабийъул-аброр” асарини ўрганган олимлардан Абдуламир Миҳна асарнинг муқаддимасида унинг илмий қиймати ҳақида “Бу бобларда келтирилган мавзулар арабларнинг ижтимоий ҳаёти билан боғлиқ маълумотлар хазинаси деб ҳисобланади. Замахшарий бизга уларни сохталик ва чалкашликларсиз, ўта равон ва аниқ саралаб, осон йўл билан етказган. Келтирилган маълумотлар арабларнинг жоҳилия ва ислом даврларидаги турмуш тарзини батафсил ва тўғри ёритиб берган”[505], деб таърифлайди.

Асарнинг таркибий тузилиши таҳлил қилинганда мавзулар кетма-кетлиги шу мавзудаги бошқа китоблардан фарқли, ўзига хос тарзда таснифланганини кўриш мумкин. Муаллиф мавзуларни диний китобларга хос бўлган анъанавийликдан қочиб, Ислом динининг асосий рукнларидан бошламай, бевосита алифбо тартибида жойлаштирган. Асар “Вақт, дунё ва охират ҳақидаги” боб билан бошланиб, “Ҳашоротлар, ер юзидаги ҳайвонлар ва улар билан боғлиқ нарсалар ҳақида”ги боб билан якунланган. Ҳар бир боб мавзуга оид Қуръон оятларидан мисоллар, ҳадислардан намуналар, араб ва бошқа турли миллат алломалари ва донишмандларининг фикр-мулоҳазалари, шоирларнинг шеърлари билан бойитилган ва айнан шу жиҳати билан турли соҳа эгалари учун манфаатли бўлиб хизмат қилган.

Замахшарий “Рабийъул-аброр” асарини бошидан охиригача мукаммал тизим асосида изчилликка қатъий риоя қилиб яратишга муваффақ бўлган. У танлаган тизим қуйидаги принципларга асосланган:

1. Ҳар бир бобнинг сарлавҳасини келтириш;

2. Мавзу доирасида Қуръон оятлари, ҳадислар, олим ва донишмандларнинг фикрлари, шоирларнинг қасида ва шеърларидан намуналар тақдим этиш;

3. Мисолларни тақдим қилишда ўзига хос услублардан фойланаши; бирор мавзу бўйича ўз фикрини баён қилишда قال جار الله – “Жоруллоҳ деди”, قال ابن أخت خالتي – “холамнинг синглисининг ўғли айтди”, قال عبد الله الفقير إليه – “Аллоҳнинг фақир бандаси айтди”, قال المصنف - “Муаллиф айтди” каби иборалар билан бошлаган.

4. Баъзи мисоллардаги сўз ва ибораларни зарур ўринларда шарҳлаш; масалан: اللهم صلخا كصلخ النعامة[506] – Аллоҳим, уни туяқуш каби кар қилгин, деган мисолидаги “كصلخ النعامة” иборасининг сўзма-сўз таржимаси “туяқушнинг гаранглиги” эканини ва уни “ قال الزمخشري: يريد به شدة الصمم – Замахшарий деди: (муаллиф) бу билан “мутлақ гарангликни” назарда тутаяпти” деб шарҳлаган.

Асар маъруза илмида ёзилган китоблар ичида жуда машҳур бўлиб, бир қатор олимлар унинг мухтасар шакллари ҳам яратган. Шунингдек, у Нурилла Муҳаммад бин Неъматуллоҳ Шастарий томонидан форс тилига таржима қилиниб, 1301/1883 йилда Табризда чоп этилган. Туркиялик олим Ошик Чалабий (1571 в.) ҳам Замахшарийнинг “Рабийъул-аброр” асарини ўрганиб, унинг турк тилидаги мухтасарини ёзган. Шунингдек, алломадан кейин яшаган олимлар ҳам асарда келтирилган маълумотлардан кенг фойдаланганлар. Ҳожи Халифа Баҳоуддин Ибшийҳий (1446 в.) ўзининг “المستطرف في كل فنّ مستظرف” китоби муқаддимасида: “...асар турли қизиқарли санъатларни ўз ичига олади, унда Қуръон оятлари, саҳиҳ ҳадислар, яхшилар ҳақидаги ҳикоялар ва Замахшарийнинг “Рабийъул-аброр” асарида келтирган кўпгина маълумотлар ҳам баён этилган”[507], дейди .

«Рабийъул-аброр” асари бугунги кунгача ўзининг илмий қийматини йўқотмаган. Олимлар мазкур асардан тарихий шахслар, араб қабилалари, жоҳилия ва ислом даврларида яшаб ижод

---

[505] محمود الزمخشري. نفس الكتاب. – ج. 1. – بيروت: 2991. – ص. 81

[506] محمود الزمخشري. ربيع الأبرار ونصوص الأخبار. تحقيق عبد الأمير مهنا. – ج. 2. – بيروت: مؤسسة الأعلمي للمطبوعات، 2991. – ص. 373.

[507] Кашфуз зунун, Хожи Халифа, Қоҳира : Дорул кутуб, 1996. – Б. 1674

қилган шоирлар ва уларнинг шеърлари, пайғамбарлар ҳадислари ва донишмандларнинг фикрлари, қатор юрт ва давлатлар ҳамда бошқа турли соҳаларга доир маълумотларни олишда кенг фойдаланиб, иқтибослар келтирадилар.

* * *

ABDURAHMON JOMIY ASARLARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF MORAL AND SPIRITUAL EDUCATION IN THE WORKS OF ABDURAHMAN JAMI FOR THE UPBRINGING OF YOUTH

Karimov Jamshid To‘lqin o‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Umumiy pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
jamshidkarimov@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur ishda buyuk mutafakkir va tasavvuf adibi Abdurahmon Jomiy asarlarida ifodalangan ma’naviy-axloqiy g‘oyalar tahlil etilib, ularning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Ushbu mavzu orqali Jomiy merosining hozirgi kunda ham yoshlar tarbiyasida bebaho manba bo‘lib xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: axloqiy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, axloqiy fazilatlar, yomon illatlar, komillik, pand-nasihat, halollik, tavoze’, nafsni tiyish.

Yoshlarning ongini to‘g‘ri shakllantirish, ularni yuksak axloqiy fazilatlarga ega, bilimli va barkamol shaxslar qilib voyaga yetkazish har bir davrda dolzarb masala bo‘lib kelgan. Bu borada Sharq mutafakkirlarining boy ma’naviy merosi, xususan, Abdurahmon Jomiy ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Abdurahmon Jomiy — XV asrning yirik allomasi, axloqiy-pedagogik qarashlari bilan nafaqat o‘z zamonida, balki bugungi kunda ham inson tarbiyasiga katta hissa qo‘shayotgan mutafakkirdir. Uning asarlarida inson komilligi, axloqiy poklik, nafsni tiyish, sabr-toqat, halollik, tavoze’, saxovat kabi fazilatlar targ‘ib etiladi. Shu bilan birga, Jomiy manmanlik, hirs, baxillik, adovat kabi illatlarni tanqid qiladi va yoshlarni bu illatlardan tiyilishga chorlaydi.

Jomiyning “Iskandar xiradnomasi” dostonida yoshlar tarbiyasiga oid ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni juda ko‘p uchratishimiz mumkin. Masalan, “Iskandar xiradnomasi” asarining “Iskandarning tavozu’ tuprog‘idan tavaqqu’ avjiga mingani” deb nomlangan qismida Iskandarning kamtarinlik qilib aytgan so‘zlari so‘zimizning yaqqol dalili sifatida ko‘rsatishimiz mumkin:

“Bilmayman o‘zimni o‘zgadan baland,
Tutmayman o‘zimni baland, arjumand”[508], - deya xalqiga murojaat qiladi.

Ushbu baytda shoir insonda bo‘lishi kerak bo‘lgan kamtarlik**,** manmanlikdan yiroqlik va insonlar bilan teng munosabatda bo‘lish g‘oyalarini ilgari surmoqda. *“O‘zimni o‘zgadan baland bilmayman”* degan ibora orqali u kibr, takabburlik, o‘zini ulug‘lash kabi illatlardan tiyilish lozimligini uqtiradi. *“Tutmayman o‘zimni baland, arjumand”* degani esa — o‘zini yuqori tutmaslik, hurmat va e’tiborni talab qilmaslik, balki mehnat va axloq bilan hurmat qozonish kerakligi haqidagi qarashdir.

Bu bayt — ayniqsa yoshlar tarbiyasida juda muhim bo‘lgan tavoze’, oddiylik va hurmatli bo‘lish uchun mag‘rurlik emas, fazilatli bo‘lish zarurligi haqidagi g‘oyani mujassamlashtiradi.

[508] Абдураҳмон Жомий. Искандар Хирадномаси. Ғафур Ғулом номидаги адабий-бадиий нашриёти, Тошкент.: 1978. 38-бет

Zamonaviy ta'lim-tarbiyada bu kabi baytlar orqali yoshlarga o'zini to'g'ri baholash, kibr va takabburlikdan yiroq bo'lish, boshqalarni hurmat qilish, kamtarlik bilan yuksak ma'naviyatga erishish yo'lini o'rgatish mumkin. Bu jihatdan Jomiy merosi yoshlar uchun axloqiy yo'l bo'lib xizmat qiladi.

Asarning "Aflotun xiradnomasi" qismida Aflotunning Iskandarga qarata:

"So'zingni bezatmoq bo'lsa gar tilak

Rostlikdir so'zinga eng yaxshi bezak"[509], - degan misralarida esa, Abdurahmon Jomiyning rostgo'ylik va haqiqatparastlikni yuksak qadrlaganini yaqqol namoyon etadi. Baytda shoir shunday deydi: agar kimdir o'z so'zini go'zal qilishni, ma'noli va ta'sirli etishni istasa, bu go'zallik til bezaklari yoki baland so'zlar bilan emas, balki rostlik orqali erishiladi. Ya'ni, rost so'z — har qanday mubolag'ali, maqtovli yoki bezakli iboradan afzal. Rostlik inson so'zining chinakam go'zalligini ifodalaydi. Bu yerda Jomiy bizga so'zda rostgo'ylik**,** sadoqat, va halollik kabi fazilatlarni targ'ib qilmoqda. Zero, yolg'on va aldov bilan bezatilgan so'zlar vaqtinchalik chiroyli tuyulishi mumkin, ammo ularning asosi bo'sh bo'ladi. Rostlik esa — doimiy baraka va ishonch manbaidir.

Bugungi yoshlar tarbiyasida bu bayt muhim o'rin tutadi. U orqali o'quvchilarga:

- Har qanday vaziyatda rost so'zlash muhimligi,
- So'zning qadrini rostgo'ylik belgilashi,
- Yolg'on, laganbardorlik yoki maqtov orqali emas, haqiqat va to'g'rilik orqali hurmat qozonish mumkinligi kabi qadriyatlarni singdirish mumkin.

Bu bayt zamonaviy ta'limda og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirishda, ayniqsa axloqiy-didaktik darslar, adabiyot yoki etika mashg'ulotlarida keng qo'llanilishi mumkin.

Aflotun o'zining dono pand-nasihatlarini davom ettirib:

"Behuda gaplardan tiling et holi,

Oshkora bo'ladi aqling jamoli"[510]*,* - deyish orqali Jomiy Aflotunning tilida so'zning qadri va aqlli insonning belgisi chuqur ma'noda ifodalangan.

Baytda Jomiy shunday deydi: behuda (mazmunsiz, keraksiz, zararli) gaplardan tilingni saqla, ya'ni ortiqcha, foydasiz yoki zararli so'zlarni aytma. Bunday tutum insonning aqlli, farosatli shaxs ekanini namoyon qiladi — *"aqling jamoli oshkora bo'ladi"* degani ham shu.

Jomiy bu yerda bizga ikki muhim g'oyani yetkazadi:

1. Tilni ehtiyot qilish — aqlning belgisi.
2. So'zning qiymati — mazmun va hikmatidadir, behuda so'zlar esa inson sha'nini pastga tushiradi.

Mazkur bayt yoshlar uchun nutq madaniyati, o'zini tutish, fikrni chiroyli ifodalash va mas'uliyat bilan so'zlash kabi fazilatlarni shakllantirishda juda muhim. Uni quyidagi jihatlar bilan bog'lash mumkin:

1. Axloqiy tarbiya: har bir so'z uchun inson javobgar ekanini anglash.
2. Jamiyatdagi munosabat: behuda so'z insonlar orasida ixtilof, shubha va tushunmovchilik tug'diradi.
3. Ichki poklik va aql kamoloti: sukut va fikr bilan aytilgan so'z insonni komillikka yetaklaydi.

"Ruhing yasatmasin yolg'on rang bo'yoq,

Yolg'ondan ruhinga tushar xira dog'"[511]*,* - deganda esa, insonning ichki pokligi, rostgo'yligi va axloqiy sof qalb haqida bildirgan chuqur hikmatlaridan biriligini tushunishimiz mumkin.

Bu baytda Jomiy inson qalbining (ruhi) asl qiyofasi haqida gapirmoqda. U deydi: ruhni — ya'ni ichki dunyo va qalbni — yolg'on bilan bezatma**,** soxta bo'yoqlar bilan go'zal ko'rsatmoqchi

[509] Абдураҳмон Жомий. Искандар Хирадномаси. Ғафур Ғулом номидаги адабий-бадиий нашриёти, Тошкент.: 1978. 48-бет
[510] Абдураҳмон Жомий. Искандар Хирадномаси. Ғафур Ғулом номидаги адабий-бадиий нашриёти, Тошкент.: 1978. 48-бет
[511] Абдураҳмон Жомий. Искандар Хирадномаси. Ғафур Ғулом номидаги адабий-бадиий нашриёти, Тошкент.: 1978. 48-бет

bo‘lma. Chunki yolg‘on — tashqi ko‘rinishda go‘zallikka o‘xshab ko‘rinsa-da, aslida ruhga dog‘ (kir) soladi, uni xira va xunuk holga keltiradi.

Bu bayt orqali shoir quyidagilarni anglatadi:

1. Yolg‘on — qalbni zaharlaydi.
2. Rostlik — qalbning pokligi va go‘zalligini saqlaydi.
3. Soxta ko‘rinish, ikkiyuzlamalik va riyo insonni ichkaridan yemiradi.

Ushbu bayt, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida quyidagilarni uqtirishda juda muhim:

1. Riyokorlik va yolg‘onchilikdan ogohlantirish: inson faqat tashqi ko‘rinishi bilan emas, ichki olami bilan ham chiroyli bo‘lishi kerak.
2. Ruhiy tarbiya: qalb pokligi, niyat tozaligi, sadoqat va rostgo‘ylik asosiy fazilatlar sanaladi.
3. Zamonaviy psixologiyada ham yolg‘on insonda ruhiy tushkunlik, ikkilanish, va axloqiy halokatga olib boruvchi omil sifatida baholanadi.

Ushbu bayt yoshlarni ruhiy poklik, rostgo‘ylik, va ichki go‘zallik sari yetaklaydi. Undan ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsiy kamolot, axloqiy yetuklikni targ‘ib qilishda samarali foydalanish mumkin.

Abdurahmon Jomiy yuqoridagi baytlarida inson komilligining asosi sifatida kamtarlik**,** rostgo‘ylik**,** til odobi, va ruhiy poklik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni yuksak qadrlaydi. Shoirning bu hikmatli satrlari orqali biz shuni anglaymizki, chinakam insoniy buyuklik mansab yoki tashqi ko‘rinishda emas, balki qalbdagi poklik, so‘zdagi rostlik va odamlarga nisbatan halol, kamtar munosabatda mujassamdir. Yolg‘on, behuda so‘z va manmanlik insonni ichki jihatdan yemiradi, uni ruhiy halokat sari yetaklaydi. Aksincha, rostlik insonning so‘zini bezabgina qolmay, uning sha’nini yuksaltiradi; kamtarlik esa uni hurmatga sazovor qiladi. Bu fazilatlar yosh avlodni barkamol, axloqan yetuk shaxs qilib voyaga yetkazishda muhim tarbiyaviy vositadir.

Demak, Jomiyning bu baytlari nafaqat adabiy go‘zallik, balki har bir yosh uchun hayotiy qo‘llanma, ruhiy tarbiya maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Ularning mazmun-mohiyatini anglash va amaliyotga tatbiq etish orqali komil insonlar jamiyatini barpo etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдураҳмон Жомий. Искандар Хирадномаси. Ғафур Ғулом номидаги адабий-бадиий нашриёти, Тошкент.: 1978. 128 б.
2. Абдураҳмон Жомий. Танланган асарлар. Тузувчи: Ш. Шомуҳамедов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. 356 б.
3. А. Джами. Весенный сад. (Бахаристан). Душанбе. 1964. 56.

* * *

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИ МЕРОСИНИНГ МАЪРИФИЙ АҲАМИЯТИ

THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE HERITAGE OF CENTRAL ASIAN THINKERS

Азимова Лола Каримовна,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
“Ўзбек ва хорижий тиллар” кафедраси доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
телефон: 97 4252125

Марказий Осиё мутафаккирларининг илм-фан, маданият, адабиёт, санъат, ислом илмлари ривожига қўшган ҳиссаси беқиёсдир. Хусусан Ибн Сино, Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Абу Наср Форобий каби қомусий олимларимиз фан соҳалари бўйича кенг доирада илмий ва бадиий асарлар, илмий кашфиётлар қолдирган бўлса, ислом илмлари бўйича Имом Бухорий, Имом Термизий, Абу Мансур Мотуридий, Маҳмуд Замахшарий, Бурҳонуддин Марғиноний, Қаффол Шоший ва бошқа қанчадан-қанча бухорийлар, насафийлар, самарқандийларни, шунингдек, тасаввуф илмида, Абдухолиқ Ғиждувоний, Баҳоуддин Нақшбанд, Мустамлий Бухорий, Колободий Бухорий, Нажмиддин Кубро, Ҳаким Термизий, Аҳмад Яссавий ва бошқа кўплаб мутасаввифларни ҳамда ўзбек адабиёти ва тилшунослиги соҳасида эса, Маҳмуд Қошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб, Бурҳонуддин Рабғузий, Алишер Навоий, Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Сўфи Оллоёр, Бобораҳим Машраб, Нодира, Увайсий каби ижодкорларнинг илм-фан, маърифат ривожига қўшган ҳиссасини тилга олиш мумкин. Ҳар бир аллома ёки ижодкор ўз даври учун бой илмий ва ижодий мерос қолдирган.

Маълумки, IX-X асрларда жаҳолат, турли ақида ва қарашларнинг жамият маънавий ҳаётига салбий таъсири кучайган бир даврда, Абу Мансур Мотуридий “жаҳолатга қарши маърифат” тамойили асосида соф эътиқод тарғиботи йўлида фаолият олиб борган эди. Ул зот таълимотининг юзага келишига ўша даврдаги турли ақидавий адашишлар, низо ва ихтилофлар эҳтиёж туғдирган эди. Аллома ёзган “Таъвилот ал-Қуръон” (“Қуръон таъвиллари”)” асари ҳам Қуръони карим тафсири бўлса-да, оятлар тафсири, асосан, турли ақидавий қарашларга раддия сифатида шарҳланган. Шу жиҳатдан, китобни “ақидавий тизимлари мустаҳкам ишлаб чиқилган ва ўша давр диний оқимлари тўғрисида маълумот берувчи муҳим асар, дейиш мумкин”[512]. Айниқса, олимнинг машҳур “Китоб ат-тавҳид” (“Аллоҳнинг якка-ягоналиги китоби”) асари калом илмини билишда муҳим манба сифатида, бугунги кунга қадар юқори илмий-маърифий аҳамият касб этиб келмоқда. Аллома қарашларини Абу Ҳафс Насафий ҳам қўллаб-қувватлаган ҳолда бевосита ул зот ғоялари давомчиси сифатида “Ақоид ан-Насафий” асари орқали соф ақидавий масалаларни ёритган эди. Ҳатто “бу асарга машҳур аллома Тафтазоний юқори баҳо бериб, “Абу Ҳафс Насафийнинг “Ақоид ан-Насафий” асари каломни ўрганишда энг фойдали ва қулай манбадир”[513], деган эди. Бу борада, Абу Муъин Насафий,

[512] Махсудов Д. Моваройуннаҳр ҳанафий мазҳаби тафсирларининг қиёсий таҳлили (XIII-XV асрлар): Тар. фан. док.. дисс. – Т.: ЎзХИА, 2020. – Б.156-157
[513] Ислом манбашунослиги. Ўқув қўлланма. Тузувчилар: З.Исломов, Д.Махсудов, Ж.Тоҳиров. - Т.: Qaqnus, 2019. – Б. 113

Абул Баракот Насафий, Аловуддин Бухорий ва бошқа калом илми олимлари қарашларини ҳам соф эътиқод тарғиботчилари сифатида юқори баҳолаш мумкин. Қарангки, буюк муҳаддис Имом Бухорий ҳадис илми билимдони бўлибгина қолмай, балки тафсир илми ривожида ҳам муносиб ҳисса қўшган эканлар. Муҳаддис олим “ал-Жомиъ ас-саҳиҳ” асарида тафсирга оид ҳадисларни ҳам жамлаган бўлиб, алоҳида тафсирга бағишлаган “Қуръон тафсири китоби” бобида, “Фотиҳа” сурасини тафсир қилиб, унда Абу Саид ибн Муаллодан ривоят қилинган Қуръоннинг энг улуғ сураси “Фотиҳа” экани тўғрисидаги ҳадисни келтириб ўтган. Шунингдек, мазкур бобда, жами 358 та оятга шарҳ берган[514]. Бундан кўринадики, муҳаддис, фақат ҳадис илми билан чекланмай, балки муфассир олим сифатида тафсир илми борасида ҳам ўзининг қимматли илмий қарашларини баён этиб кетган.

Араб тили грамматикасини чуқур ўрганиб, арабларга ўз тилидан сабоқ берган ва “Хоразм фахри”, “Араб ва ғайри араблар устози” деган юксак номларга сазовор бўлган буюк ватандошимиз Маҳмуд Замахшарий фаолияти ҳам ўзига хос ва араб тилшунослигини ўрганишда алоҳида ўринга эга. Замахшарий тафсир, ҳадис, адабиёт, фиқҳ илмлари бўйича ҳам бебаҳо асарлар яратган йирик олимдир. Айниқса, машҳур “ал Кашшоф” асари дунёнинг ислом олий даргоҳларида Қуръон тафсирига оид муҳим дарслик сифатида ўқитиб келинади.

Шунингдек, инсоннинг комиллик сари интилишига ва жамиятда ҳалол, пок, камтарин бўлишга, ҳамиша эзгу ишлар қилишга чорлаб келган тасаввуф таълимоти ҳам эзгу ғоялари билан жамият маънавий ривожига беқиёс ҳисса қўшиб келган. Бугун етти пир сифатида эътироф этилаётган авлиё зотлар амалий фаолиятида илму ирфон нурини кўрамиз. Чунончи, Хожагон тариқати асосчиси, ориф зот Абдухолиқ Ғиждувоний ирфоний қарашлари орқали юксак инсоний сифатларни, умуминсоний ғояларни ўз асар ва ўгитларида илгари сурган. Хусусан, аллома “Васиятнома” рисоласида, “Эй, фарзанд! Мен сенга барча ҳолатларда илм, адаб ва тақвода бўлишингни васият қиламан! Ўтган уламоларнинг изидан юришинг лозим. Аҳли суннат ва жамоатнинг мулозими бўл!”[515], дея комиллик ва етукликка чақиради. Ғиждувонийнинг илмий-адабий меросида камтарликка, ҳалол меҳнат қилиш, халқ дарди билан яшаш, умрни қадрлаш, хотиржамликка даъватни кўрамиз. Ул зот қарашларида халқ билан бўлиш, касб-ҳунар орқали инсонларга манфаати етиш, эзгулик қилиш ғояси илгари сурилади. Чунончи, ўгитларида “Халқ оғирини енгиллатиш лозим, бу муяссар бўлмаганда ҳалол касб-ҳунар эгаллаб, даст ба кор ва дил ба ёр ҳолатида бўлмоқлик амри муқаррар турар”, дейди.

Айниқса, тасаввуф таълимотининг илмий-назарий асосларини ҳамда комил инсон концепциясини ўз асарлари орқали тадқиқ этган, баъзида амалий ҳаётида яшаб, сўфий, ориф, орифуллоҳ мақомига етган буюк аждодларимизнинг жамият маърифий такомили ривожига қўшган ҳиссасини алоҳида таъкидлаш ўринли. Хусусан, Ҳаким Термизий “Хатм ул-авлиё” (“Валийлар муҳри”) асари орқали валийлик назариясини илмий асослаб берган бўлса, Калободий Бухорийнинг тасаввуф илмига бағишланган “ат-Таърруф ли-мазҳаб аҳл ат-тасаввуф” (“Тасаввуф аҳли йўли билан танишув”) мўъжаз асарига Мустамлий Бухорий жавобан “Шарҳ ат-Таърруф ли-мазҳаб ат-тасаввуф” (“Тасаввуф йўли билан танишув” асарига шарҳ”) номли кенг шарҳ ёзиб, тасаввуф назарияси бўйича яхлит ва мукаммал маълумотларни асослаб берди. Аллома тасаввуфий истилоҳларни атрофлича тушунтирар экан, ҳар бир тушунча изоҳида охир-оқибат комил инсон сифатлари мужассамини кўрамиз. Жумладан, аллома ёзади: “...Муҳаббат йўқ жойда маърифат ҳам бўлмайди. Маърифат бўлмаган жойда

[514] Махсудов Д. Мовароуннаҳр ҳанафий мазҳаби тафсирларининг қиёсий таҳлили (XIII-XV асрлар): Тар. фан. док.. дисс. – Т.: ЎзХИА, 2020. – Б. 149

[515] Абдухолиқ Ғиждувоний. Васиятнома. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1993. – Б. 25

эса, иймон ҳам йўқдир”[516], дейди. Муҳаббат деганда, илоҳий муҳаббатга олиб борадиган барча эзгу фазилатларга эга бўлиш назарда тутилмоқда. Яхши сифатларга эга бўлган инсонда маърифат, яъни билим бўлади. Аллома маърифат тушунчасини мукаммал даражада Аллоҳни билиш, таниш, унга муносиб банда бўлиш сифатида баҳолайди. Таъкидлаш лозимки, ўша даврда, тасаввуф илмига нисбатан турли салбий фикрлар юзага келган пайтда, асар ана шундай қарашларга холис ва илмий баҳо бериш мақсадида ёзилган.

Маълумки, ўзбек мумтоз асарлардан, то XX аср бошларига қадар юзага келган насрий ва назмий меросда, ўзига хос образлар, рамзлар, тимсолларнинг бадиий ифодасини кўрамиз. Бадиий ижодда тасаввуфий тушунча ва истилоҳлар мажоз орқали тараннум этилади. Хусусан, Юсуф Хос Ҳожиб, Аҳмад Яссавий, Алишер Навоий, Сўфи Оллоёр, Бобораҳим Машраб, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Хўжаназар Ҳувайдо, Увайсий, Нодира ва бошқа кўплаб ўзбек мумтоз ижодкорлар меросида инсоннинг поклик, эзгулик сари руҳий интилиши, риёзат чекиши, инсоний сифатларни эгаллаб, комиллик касб этиши ва энг муҳими, Яратганга илоҳий муҳаббат орқали хос банда бўлиш каби ғоялар мужассамдир. Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу билиг” асарида мажозий образлар орқали инсон ва жамият мутаносиблиги ҳақидаги фалсафий ғояларни илгари сурган бўлса, Алишер Навоий эса, кенг маънода, Қуръони карим, ҳадиси шариф, ислом аҳкомлари ҳамда тасаввуфий истилоҳларни бадиий тасвир воситалари орқали атрофлича қаламга олади. Алишер Навоий ижоди шунчалар хилма-хил ва серқирраки, ўрганганинг сари янги-янги маънолар, сўз кучининг жозиба кучи, тасвирнинг бетакрорлигини мушоҳада этиб бораверасан. Албатта, бадиий асарлар замирида, маърифатли, илмли бўлиш, инсонийлик сифатларини эгаллаш, комиллик касб этиш бош ва асосий ғоя ҳисобланади. Бадиий ижод, умуман, алломлар меросининг мазмун-моҳиятини ҳам ана шундай эзгуликка, бунёдкорликка, тинчликсеварликка йўғрилган ғоялар ташкил этади.

Умуман олганда, Марказиё Осиё мутафаккирларининг илмий-маърифий мероси бой ва хилма-хил бўлиб, ахлоқий-тарбиявий жиҳатдан юқоридир. Улар меросининг мазмун-моҳияти баркамол, етук инсон бўлишга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир. Зеро, неча асрлар давомида ахлоқий тарбиявий вазифани амалга ошириб келган мазкур бебаҳо мерос яна неча асрлар ўтса ҳамки, ўз маърифий аҳамиятини йўқотмаган ҳолда жамият ва инсон такомили учун хизмат қилади.

* * *

[516] Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). – Т.: Akademnashr, 2020. – Б. 149

ВКЛАД УЧЕНЫХ МАВЕРАННАХРА И ХОРАСАНА В ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ОСНОВ ВОСТОЧНОГО РЕНЕССАНСА (VIII-XI ВВ)

THE CONTRIBUTION OF SCHOLARS FROM MAWERANNAKHRA AND KHORASAN TO THE FORMATION OF THE INTELLECTUAL FOUNDATIONS OF THE EASTERN RENAISSANCE (8TH–11TH CENTURIES)

Шарипова Гузал Усманбековна
***доктор философии** (PhD) по историческим наукам*
кафедры «История и источниковедение ислама – IRCICA»,
***Международной исламской академии Узбекистана**11, A. Qodiriy,*
100011, Tashkent, Uzbekistan
g.sharipova@iiau.uz

Аннотация: В данной статье исследуется феномен культурного и научного подъема на территории Средней Азии в эпоху раннего Средневековья, получившего в современной историографии определение «Восточный Ренессанс». Анализируются предпосылки данного явления, связанные с вхождением региона в состав Арабского халифата, что, вопреки разрушительным последствиям завоеваний, запустило синтез местных и исламской научных традиций. Основное внимание уделяется роли ключевых ученых – Мухаммада аль-Хорезми, Ахмада аль-Фергани, Абу Насра аль-Фараби и Абу Райхана аль-Бируни – чьи труды заложили фундамент для развития мировой науки и оказали непосредственное влияние на последующее Европейское Возрождение. Статья опирается на анализ исторических источников и современных научных интерпретаций их наследия.

Ключевые слова: Восточный Ренессанс, Арабский халифат, Мавераннахр, аль-Хорезми, аль-Фергани, аль-Фараби, аль-Бируни, история науки, исламская цивилизация.

История Узбекистана, уходящая корнями в глубь тысячелетий, является неотъемлемой частью общечеловеческой цивилизации. Территория междуречья Амударьи и Сырдарьи, известная в арабских источниках как Мавераннахр, была заселена с эпохи раннего палеолита и стала колыбель высокоразвитых культур и государственности Древнего Востока[517]. Испокон веков этот регион порождал выдающихся героев, ученых, мыслителей и поэтов, чье творчество не только формировало историю края, но и впоследствии прославило его на весь мир.

VIII век стал переломным моментом в истории региона, ознаменовавшимся включением Средней Азии в состав Арабского халифата. Несмотря на разрушительный характер завоеваний, данный процесс имел и интегрирующие последствия. Халифат, захвативший огромные территории, остро нуждался в просвещенных светских специалистах для администрирования и укрепления власти на местах. Это обусловило политику активного распространения на завоеванных землях, наряду с исламом, арабского языка как языка государства, религии и науки[518]. Местная аристократия, стремившаяся к интеграции в новую имперскую элиту,

[517] Камолиддин Ш. С. Рукописное наследие Узбекистана. – 2014.
[518] Gutas D. Greek Thought, Arabic Culture: The Graeco-Arabic Translation Movement in Baghdad and Early’Abbasaid Society (2nd-4th/5th-10th c.). – Routledge, 2012.

активно осваивала арабский язык. В результате в Мавераннахре и Хорасане сформировалась уникальная прослойка интеллектуалов, в совершенстве владевших как государственным языком халифата, так и наследием местных научных школ.

К середине VIII века Халифат достиг апогея своего территориального расширение, простираясь от Средней Азии до Пиренейского полуострова. В рамках единого централизованного государства наблюдался значительный подъем сельскохозяйственного и ремесленного производства, активизация международной торговли, масштабное строительство ирригационных сооружений и рост городов.. Растущие потребности государства в практических знаниях – для составления сельскохозяйственных календарей, географических карт, методов измерения расстояний и земельных площадей, решения сложных инженерных и гидротехнических задач – настоятельно требовали развития точных наук таких как: астрономии, математики, географии. Дополнительным импульсом для развития этих дисциплин выступил ислам, предписывающий строгое соблюдение времени молитв и необходимость определения точного направления на Мекку (киблы) из любой точки огромной империи, что стимулировало создание и совершенствование астрономических инструментов и методов вычислений[519].

На завоеванных халифатом территориях, в том числе в Средней Азии, существовали древние очаги культуры и науки. В частности, в зороастрийских храмах региона задолго до ислама проводились систематические астрономические наблюдения. Эти научные традиции не были утрачены, а получили дальнейшее развитие в новой синкретичной среде. Наибольшей концентрации интеллектуальных сил достиг Багдад, куда по приглашению просвещенного халифа аль-Мамуна (813–833 гг.) переехали многие видные ученые из Средней Азии такие как: Муса аль-Хорезми, Ахмад аль-Фергани, Хабаш аль-Хасиб, Яхья ибн Абу Мансур и другие[520]. При непосредственном участии среднеазиатских ученых в Багдаде была организована академия «Байт аль-Хикма» (Дом мудрости) – уникальный для своего времени научный центр с богатейшей библиотекой, содержавшей рукописи на арабском, персидском, греческом, сирийском и индийском языках[521]. Здесь же были построены обсерватории, где наряду с наблюдениями велась интенсивная работа по переводу и комментированию трудов античных, индийских и иранских авторов. Деятельность «Байт аль-Хикма» и покровительство халифов придали научным исследованиям статус важнейшего государственного приоритета.

Одной из центральных фигур научного сообщества «Байт аль-Хикма» и всего Восточного Ренессанса был Абу Абдуллах (или Абу Джафар) Мухаммад ибн Муса аль-Хорезми (783 – ок. 850 гг.). Сведений о его жизни сохранилось крайне мало. Родился он, как следует из нисбы, в Хорезме, одном из древнейших культурных центров Средней Азии (территория современного Узбекистана и Туркменистана). Уроженец эпохи великого культурного подъема, начальное образование он получил у выдающихся ученых Мавераннахра и Хорезма, где познакомился с достижениями индийской и греческой науки. В Багдад он прибыл уже сложившимся ученым, вероятно, в свите наместника восточных провинций Халифата аль-Мамуна, до своего восшествия на престол[522].

При халифе аль-Мамуне аль-Хорезми возглавил «Байт аль-Хикма», став центральной фигурой в проектировании и осуществлении масштабной научной программы халифа. По его поручению аль-Хорезми участвовал в масштабном проекте по измерению длины градуса

[519] King D. A. Astronomy in the Service of Islam //Handbook of archaeoastronomy and ethnoastronomy. – Springer, New York, NY, 2015. – С. 181-196.
[520] Al-Khalili J. The house of wisdom: how Arabic science saved ancient knowledge and gave us the Renaissance. – Penguin, 2011.
[521] Сейдаметова Г. У., Курбанова З. И. НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА. – 2023.
[522] Sayili A. Al-khwarizmi, abu'l-hamid ibn turk and the place of central asia in the history of science and culture //Erdem. – 1991. – Т. 10. – №. 19.

земного меридиана в пустыне Синджар (ок. 827 г.) для уточнения окружности Земли. Точность этих измерений оставалась непревзойденной на протяжении семи столетий[523]. Он также возглавлял экспедицию к хазарам при халифе аль-Васике (842–847).

Научное наследие аль-Хорезми охватывает математику, астрономию, географию и историю. Он является автором девяти сочинений, из которых до наших дней сохранилось семь – либо в арабских оригиналах, либо в латинских переводах[524]. Наибольшую славу аль-Хорезми принесли его математические труды. «Китаб аль-джабр ва-ль-мукабала» («Книга о восполнении и противопоставлении»). Этот трактат, написанный около 830 года, является фундаментальным трудом, положившим начало алгебре как самостоятельной дисциплине[525]. Арабское слово «аль-джабр» («восполнение») означало операцию переноса вычитаемых членов в другую часть уравнения, а «аль-мукабала» («противопоставление») – сокращение равных членов. От первого термина и произошло современное слово «алгебра»[526].

В трактате аль-Хорезми в систематизированной форме изложил методы решения линейных и квадратных уравнений, впервые дав их классификацию. Важно отметить, что его подход был алгоритмическим: он предлагал четкие, общие правила (алгоритмы) решения целых классов задач, что отличало его труд от предшествующих сочинений, носивших характер сборников разрозненных примеров[527].

Еще одним выдающимся ученым, выходцем из Средней Азии (из Ферганской долины), работавшим в «Байт аль-Хикма», был Абу-ль-Аббас Ахмад ибн Мухаммад ибн Касир аль-Фергани (ок. 797 – ок. 865 гг.), известный в Европе под именем «Alfraganus»[528]. Аль-Фергани был крупнейшим астрономом IX века. Его основной труд «Китаб фи усул илм ан-нуджум» («Книга об основах науки о звездах»), впоследствии переведенный на латынь под названием «Elementa astronomica», представлял собой компендиум астрономических знаний своего времени и пользовался огромной популярностью как на Востоке, так и на Западе вплоть до XVII века. Данте Алигьери в «Божественной комедии» описал устройство Небесных сфер, опираясь на концепции аль-Фергани[529]. Аль-Фергани участвовал в проекте халифа аль-Мамуна по измерению диаметра Земли и созданию «Карты мира» (840 г.), которая была значительным достижением картографии. Он также руководил строительством ниломера на острове ар-Рауда в Каире (861 г.) – сложного гидротехнического сооружения для измерения уровня воды в Ниле, который является памятником инженерной мысли и функционирует по сей день[530].

За глубокие познания в астрономии современники прозвали его «Вторым Птолемеем» и «Звездой Востока». Его труды стали одним из главных каналов, через которых достижения античной и исламской астрономии проникли в средневековую Европу.

Проведенный анализ позволяет сделать вывод о том, что культурный и научный подъем в Мавераннахре и Хорасане в IX–XII веках был уникальным историческим феноменом, справедливо именуемым «Восточным Ренессансом». Возникший на стыке местных многовековых традиций и импульсов, привнесенных исламской цивилизацией,

[523] Kennedy E. S. A survey of Islamic astronomical tables. – American Philosophical Society, 1956. – T. 42.
[524] Сейдаметова Г. У., Курбанова З. И. НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА. – 2023.
[525] Al-Khwarizmi M. The Compendious Book on Calculation by Completion and Balancing //New York: Princeton University. – 2009.
[526] Guldentops G. The Cambridge History of Science. Vol. 2: Medieval Science. – 2014.
[527] Berggren J. L. et al. Episodes in the mathematics of medieval Islam. – New York : Springer-Verlag, 1986. – T. 2003.
[528] Selin H. (ed.). Encyclopaedia of the history of science, technology, and medicine in non-westen cultures. – Springer Science & Business Media, 2013.
[529] Alighieri D. The Divine Comedy: Paradiso, trans //Dorothy L. Sayers and Barbara Reynolds (1962. – 1948.
[530] Информационный ресурс: https://www.ziyouz.uz/ru/deyateli/velikie-mysliteli-uzbekistana/576----797-865

он характеризовался невиданным расцветом точных и гуманитарных наук, утверждением гуманистических и рационалистических идеалов.

Ключевая роль в этом процессе принадлежала плеяде выдающихся ученых-энциклопедистов, выходцев из региона. Труды аль-Хорезми, заложившие основы алгебры и алгоритмики, аль-Фергани, систематизировавшего астрономические знания, вышли далеко за региональные рамки и приобрели общечеловеческое значение.

Эти ученые не только обобщили и сохранили достижения античной, индийской и иранской мысли, но и совершили целый ряд фундаментальных открытий, которые через переводы на латынь стали достоянием средневековой Европы. Таким образом, Восточный Ренессанс выполнил роль важного интеллектуального моста, передав эстафету знания от Античности к Европейскому Возрождению, тем самым оказав непосредственное и глубокое влияние на генезис современной глобальной науки. Наследие этих мыслителей является не только предметом исторической гордости народов Узбекистана и всего региона Центральной Азии, но и непреходящей общечеловеческой ценностью, подтверждающей единство и преемственность мирового научно-культурного процесса.

* * *

АЛЛОМА МУҲАММАД ШАРИФ ВА УНИНГ МЕРОСИ

THINKER MUHAMMAD SHARIF AND HIS LEGACY

Садиков Юсупджан Арипович,
Ўзбекистон халқаро ислом академияси, “Араб тили ва адабиёти ал-Азҳар кафедраси” катта ўқитувчиси

Абдуллахон II (1557-1598) ҳукумронлиги даврида илм-фан, адабиёт, шеърият ривожланди. Пойтахт Бухорода илм аҳли йиғила бошлади. Бу даврда ижтимоий-сиёсий ҳаётга оид фатволар, фиқҳий рисолалар, араб, форс ва туркий тилларда оригинал илмий асарлар яратилди. Бундан ташқари, аввалги ёзилган илмий, диний асарларга шарҳлар битиш кенгайди. Ушбу даврда ижод қилган файласуф олимлардан Муҳаммад Шариф Бухорий (вафоти 1109/1997) асарлари ўзидан олдин ўтган алломаларнинг муносиб давомчиси эканлигини таъкидлаш жоиздир. Унинг фалсафа, фалакиётшунослик, геометрия, математика, ислом ҳуқуқи, араб гамматикаси, мантиқ бўйича ёзган ҳошиялар, шарҳлар ва уларнинг рисолалари мусульмон мадрасаларида XX аср бошларигача фойдаланилган.

“Мавлавий”[531] шарафли номига эга бўлган, Ўрта Осиёнинг XVII асрида кўзга кўринган маърифатпарвари Муҳаммад Шариф ибн Муҳаммад ал-Ҳусайн ал-Алавий (1109/1697 йили Бухорода вафот этган) Бухоро шаҳрида таваллуд топган ва шу ерда яшаб, ижод қилган йирик тасаввуф алломалардан бири эди.

Муҳаммад Шариф Бухорий кам ўрганилган Мирзажон Шерозий (ваф. 1585 й.), Ҳусайн Халхалий, Иноятулло Бухорий (ваф. XVII аср бошида), Мирза Зохид ал-Ҳаравий (ваф. 1101/1690 й.), Шайх Хабибулло (ваф. 1110/1698), Охунд Мулло Мирзо Муҳаммад Гуфтор (ваф. 1699 й.), каби тасаввуф олимларидан бири ҳисобланади. Шу билан бирга, улар ўз даврининг Афлотуни деб ҳам тан олинган.

[531] Қўлёзма, ЎзФА Абу Райхон Беруний номидаги шарқшунослик институти. инв. № 835, 157-159б; 119а бетлар (араб тилида).

Муҳаммад Шарифнинг замондоши тарихчи олим Муҳаммад Амин ўзининг “Муҳит ат-таворих” асарида юқоридаги алломаларни “... булар уламоларнинг энг билимдони, араб ва форс уламоларининг шарҳлаб берувчиси, замон Афлотуни, давр Буқроти эдилар”[532], - деб таърифлайди.

Алломанинг ҳаёти хусусида ўрганилган қўлёзма адабиётларда жуда кам маълумотлар бор. Самарқандлик шоир Малеҳонинг “Музаккир ал-Асҳоб”[533] номли асарида Муҳаммад Шариф ҳақида баъзи маълумотлар келтирилган. Асосан ўша даврларнинг анъанасига биноан, асарда инсонларнинг вафоти кўрсатилган. Аллома ўша даврда Бухорони бошқарган Имомқулихон (1611-1642) даврида яшаб, ижод қилган.

Шунингдек, Мир Араб мадрасасида ҳам фаолият юритиб, устозлик қилган ва шогирдлар чиқарган. Аллома исломнинг “ханафий”[534] мазҳабида бўлиб, дарвешлик назариётчиси ва «зикр»нинг муаллифларидан бири деб ҳисобланган. Муҳаммад Шарифнинг устози мутафаккир олим Юсуф Қорабоғий (1563-1647) бўлган. Муҳаммад Шариф Бухорий ҳозирги “Мир араб” мадрасасида ўша давр хони Абдуллазизхонга устозлик қилган. Бунинг асосий сабаби хон Абдулазизхон қариган чоғида фалаж касаллигига дучор бўлиб, шу икки буюк шахслардан илоҳий шифо олишни мақсад қилган.

Муҳаммад Шариф Бухорий ўзининг илму-заковати ила Бухоро ҳоқонлари “марҳамати”га сазовор бўлган бўлиб, “Жаннатлар” сулоласига кирувчи хонлар Абдулазизхон (ҳукмдорлиги 1645-1680 йиллар) ва Субҳонқулихонлар[535] (ҳукмдорлиги 1680-1702 йиллар) даврида юқори поғонага кўтарилади. Ул зот саройда энг обрўли олим, устоз, шоир эди[536]. Сарой ишларида унга суянар эдилар. “Мавлавий” шу аснода ҳуқуқшунослик борасидаги илмларини анча мукаммаллаштириб, сарой ишларидан яхшигина воқиф бўлиб, ўзининг бебаҳо асарларини яратган.

Муҳаммад Шариф ҳақиқатан ҳам саройга яқин олим ва шоир эди. Лекин сарой ишлари билан машғул бўлиш унинг илм ва шеърият билан шуғулланишига таъсир кўрсата олмади. У саройда бир устоз, маслаҳатчи ва донишманд эди. Шу билан бирга, Муҳаммад Шариф таълим ва адабиёт соҳасида ҳам маҳоратли устоз эди. Шу билан бир қаторда, ўзидан олдинги муаллифларнинг фалсафий асарларига шарҳлар, изоҳлар ёзиш ҳам диққатга сазовордир.

Муҳаммад Шариф Бухорийнинг қобилиятлари ҳақида унинг замондоши тарихчи-олим Муҳаммад Амин ўзининг “Мухит ат-таварих” рисоласида шундай фикр билдиради: “Муҳаммад Шариф Бухорода “Кўкалдош” мадрасасида “Охунд”, яъни устозлик фаолияти билан муваффақиятли шуғулланиб келганлигининг далили - Мавлавийдан хон Абдулазизхоннинг сабоқ олганлигидир. Шунингдек, Бухорода “Ғозиён” мадрасаси XV-XVII асрларда қурилган бўлиб, у асосан илм бериш масканларидан бири ҳисобланган. Ғозиён Бухоронинг эски даҳаларидан ҳисобланиб, бу даҳада аллома Муҳаммад Шарифга қарашли энг катта “Мавлавий Шариф” 29-мадрасасида фаолият юритган”[537].

Унинг 25 дан ортиқ йирик илмий асарлари бизгача етиб келган, аммо улар ҳали етарлича ўрганилмаган.

Ўша даврда Субҳонқулихон саройида бир юз элликка яқин шоир йиғилган эди. Улар орасида Муҳаммад Шариф юқори ўринга эга эди. Ўша даврда Мовароуннаҳр диёрида бўлиб ўтаётган ҳодисаларни билишда ва улардан хулоса чиқаришда у кишига тенг келадигани йўқ эди. У ҳақида шундай қитъа бор:

---

[532] محيط التواريخ нимА даммаҳуМЎзР ФАШИ-1. № 751 ;538 а. Араб. - Бухоро. 84 в.

[533] Қўлёзма: Ўзб. Шарқ. инс. инв № 4270, 118-119 б.

[534] Собрание восточных рукописей АН РУз, Т. III. - Ташкент, 1957. - С. 353.

[535] Қўлёзма: Ўзб. Шарқ. инс. инв № РД. 2141, - 131-192 б.

[536] С.В.Р., - Т. 11, - 364 б.

[537] Литография, “Тарих ал-Бухоро ва таржимат ал-уламо” (“Бухоро тарихи ва олимлар биографияси”), ЎзФА Абу Райхон Беруний номидаги шарқшунослик институти. инв. № 1595, 12-17 бет (араб тилида).

Қандай яхши, ақлни фикринг ила равшан қилгувчисан,
Барча илмларни аниқ ўзлаштиргувчисисан.

Олим ҳақида қуйидагича фикр билдирганлар: “Бу киши бир неча йиллар ўзларининг хонақоҳида ўтириб, тафсир дарси ва «Мушкот»ни (машҳур ривоятлар тўпламининг номи) охирига етказган эдилар. Кўпчилик олимлар, мударрислар ва Бухоронинг илм толиблари ул кишига шогирд эдилар. Кўпчилик у кишининг муқаддас мажлисида ҳозир бўлиб, кўп фойда олар эди. Аксар талабалар ҳар куни ул ҳазрат дарс ҳовузида ўтириб, ўткир ва донишманона сўзлар билан чунон ширин тилни баёнга бошлаганларидан баҳра олардилар[538].

Олим ўзидан кейин турли йўналишлардаги асарларини қолдирди, булар:

-**“ديوان شريف”** (“Шариф девони”);

-**“كتاب الفوائد الحاقانية”** “Китоб ал-фавоид ал-Ҳоқонийя” (“Ҳоқонга фойдали маслаҳатлар”);

-**“حاشية على شرح العقائد العضودية” (“**Адуд ақидаси шарҳига ҳошия**”);**

-**“حاشية مولوي شريف بر فوائد ضيائية**” (“Мавлавий Шарифнинг Зиёга фойдали маслаҳатларига ҳошияси”);

-. **“الرسالة الدورية”** (“Даврийлик ҳақида рисола”);

-**“جامع المسائل**” (“Масалалар тўплами”) рисоласи;

-**“حجة الذاكرين لرد المنكرين”** (“Зикр қилувчиларнинг инкор этувчиларга раддияси”) рисоласи ва ҳ.к.

Юқоридагилардан ташқари, яна «Ғазалиёт Шариф» деб номланган рисоласининг уч нусхаси 6674-V, 2046-I, 1110-III инвентарь рақами остида топилган. Ушбу қўлёзмаларнинг 6674-V, 2046-I инвентарь рақами остидагиси 1899 йилгача қайта кўчирилган бўлиб, бу рисолага асосан Муҳаммад Шарифнинг 50 бетдан ошиқ ғазаллари келтирилган. Мутафаккирнинг ғазаллари ўша даврда Бухорода жуда машҳур бўлган:

Чақмоқ келиб кўрсаки, дунё меҳнатхона экан,
Бир дам ором олмасдин, йўқлик саҳросига сингиб кетди[539]

Лекин Муҳаммад Шариф тор доирада фикр юритмасдан, инсонларга хизмат қилган, уларни тарбиялаган, оқилликка бошлаган. Унинг сарой аҳилларидан кўра, оддий халққа яқин бўлганлиги ҳақида қўлёзмаларда кўпгина маълумотлар, ёзма асарлар мавжуд.

Ҳар кимки чақмоқдек келиб, аҳволимиз кўрди-ю кетди,
Сўрамай аҳволимиз, шароитимизга кулди-ю кетди.
Шаҳар аҳлидан зиёд подшолик кўриб, шамолдек қўзғалди-ю,
Саҳро томон юзланиб, саҳрога сингиб кетди[540].

Хулоса қилиб айтганда, XVI-XVII асрлар давридаги Мавароуннаҳрнинг сиёсий, ижтимоий-маданий, диний ҳаётини ўрганиш учун ўша давр қўлёзма асарларини тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади. XVII асрда “Мавлавий” тахаллуси билан ижод қилган аллома Муҳаммад Шариф ибн Муҳаммад ал-Ҳусайни ал-Алавий Бухорий (вафоти 1109 й.ҳ./1697 й.)нинг бебаҳо асарлари ана шундай манбалар сирасига киради. Алломанинг асарлари ва ғазаллари ўша таҳликали даврда ҳам маданий ҳаёт давом этганлиги, ўлмас асарлар яратилганлиги, турли соҳаларда фан арбоблари етишиб чиққанлигидан далолат беради. Бу олимлар ва алломалар ҳукмдорларга катта таъсир ўтказган, жамият ҳаётида муҳим ўрин тутган ва илм-фаннинг ривожига салмоқли ҳисса қўшган.

* * *

[538] ”Муҳит ат-таворих”. Қўлёзма, инв. № 835. - 157 бет. (РД. 2141. - 84, 235-236 бет).
[539] Қўлёзма: Ўзб. Шарқ. Инс. Инв № 2046, -Б. 118.
[540] Қўлёзма: Ўзб.Шарқ.инс. инв № 2146, -Б. 116.

IBN OBIDINNING USTOZLARI VA SHOGIRDLARI: ILMIY-MA’NAVIY MEROS TAHLILI

TEACHERS AND STUDENTS OF IBN ABIDIN: AN ANALYSIS OF SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE

Tursunov Muxiddin Dovudovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA”
kafedrasi 2-kurs tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Ushbu tezisda hanafiy mazhabining yetuk allomalaridan biri bo‘lmish Ibn Obidinning ustozlari haqida atroflicha ma’lumotlar keltiriladi. Ibn Obidinning ustozlarini faoliyati va yozgan asarlari aks etgan. Bundan tashqari faqihning o‘zidan keyin qoldirgan bir necha shogirdlari haqida ham ma’lumotlar zikr etilgan.

Kalit so‘zlar: Shayx Said al-Hamaviy, Shayx Shokir al-Aqqod, Shayx Said al-Halabiy, Muhammad Jobiyzoda, Damashq, “Sharh ad-Durar”, “Tuhfat as-Salik li Ma’rifat al-Manasik”.

Quyida allomaning ustozlari haqida malumotlar keltiriladi:

1. **Shayx Said al-Hamaviy (1145 h – 1236 mil.):**

Said ibn Ibrohim al-Hamaviy, Shofe’iy mazhabining faqih olimi va Shom qorilarining shayxi, Ibn Obidinga birinchi bo‘lib katta yordam bergan. Shayx al-Hamaviy 1145 hijriy yilda Hamada tug‘ilgan, so‘ngra Damashqqa kelib, 1168 hijriy yilda u yerda joylashgan.

Shayx al-Hamaviy Shofe’iy mazhabining ishonchli katta faqihlaridan biri bo‘lgan, shuningdek, Shomdagi qorilar shayxligi martabasini egallagan. U darslarini Umaviy masjididagi xonasida o‘tkaz. U hijriy 1236 yil Zulhijja oyining beshinchi kuni, to‘qson bir yoshda vafot etgan[541].

2. **Shayx Shokir al-Aqqod (hijriy 1157 – 1222 / mil. 1744 – 1807):**

U shayxlarning shayxi Shayx Shokir ibn Ali ibn Said ibn Ali bin Salim al-Umariy bo‘lib, Sayyidimiz Umar (roziyallohu anhu)ga nisbat beriladi. Hanafiy faqih bo‘lib, “Ibn al-Aqqod” nomi bilan mashhur. Shuningdek, “Ibn Muqaddam Sa’d” nomi bilan ham tanilgan. Shayx al-Aqqodning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u erta yoshda dars berishga kirishgan, shuning uchun uning zamondoshlarining aksariyati uning shogirdlari hisoblanadi.

Ibn Obidin uni juda yaxshi ko‘rgan va hurmat qilgan, hatto o‘zining isnodlar to‘plamini uning nomiga atab “Uqud al-La’aliy fi al-Asanid al-Avliy”- deb nomlagan. O‘z nutqida uni “shayx ash-shuyux” (shayxlarning shayxi) deb atagan[542].

3. **Shayx Said al-Halabiy:**

U Shayx Said ibn Hasan ibn Ahmad, Halabiy Hanafiy (tug‘ilishi va shuhrati bo‘yicha), Damashqiy (yashash joyi bo‘yicha) nomi bilan mashhur. Dinining mustahkamligi va taqvodorligi uchun unga “Faqih an-Nafs” (Nafslar faqihi) laqabi berilgan.

U hijriy 1118-yilda Halabda tug‘ilgan va u yerda voyaga yetgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, u al-Aqqod huzurida ilm talabida Ibn Obidinga hamroh bo‘lgan. Shayxi vafotidan so‘ng, unga shayxlikka bay’at berilgan va al-Aqqodning shogirdlari va boshqalar uning atrofida to‘planishgan. Ibn Obidin ham undan bilim olgan.

[541] Muhammad Jamil ash-Shatiyning “Raud al-Bashar fi A’yan Dimashq fi al-Qarn as-Salis Ashar” [128-bet].
[542] Zarkaliyning “al-A’lam” [6/156].

Al-Halabiy obid va zohid bo‘lgan, hijriy 1259-yil Ramazon oyining uchinchi kuni, dushanba kuni vafot etgan[543].

4. Shayx Xolid an-Naqshbandiy (hij.1190 – 1776 h):

U murabbiy Shayx Xolid ibn Ahmad ibn Husayn Abu al-Bahou Ziyou an-Naqshbandiy bo‘lib, Sayyidimiz Usmon ibn Affon (roziyallohu anhu) avlodidan ekanligi bilan mashhurdir.

Shayx Xolid (Qora tog‘) qishlog‘ida, Shahrazur viloyatida tug‘ilib, so‘ngra yoshligida Bag‘dodga hijrat qilgan va keyin Iroq voliysi (Dovud Posho) davrida Shomga yo‘l olgan. Umrining oxirida uni vabo kasali tutib, hijriy 1776-yilda vafot etgan[544].

Ibn Obidinning ijoza bergan ustozlari:

Ijoza talabaga mashoyixlar huzurida belgilangan dasturni tugatgandan so‘ng berilib, bu dastur har bir davrning madaniyatiga mos keladi. Ibn Obidinning ko‘plab ustozlari bo‘lib, u ular huzurida o‘qib ijoza olgan. Ba’zida esa boshqa olimlar huzurida belgilangan dasturdan tashqari darslarga qatnashgan, ammo ularning majlislarida hozir bo‘lganligi sababli, ular ham unga ijoza berganlar. Ba’zan u o‘z davrining ba’zi olimlari bilan yozishmalar olib borgan va ulardan ijoza so‘ragan, ular ham unga ijoza berganlar[545].

Allomaning shogirdlari:

1. Abdul G‘aniy Obidin: U Abdul G‘aniy ibn Umar ibn Abdulaziz Obidin, (katta Ibn Obidinning) ukasi. U ilmni o‘z akasidan kamroq olgan, o‘ziga kerakli bilim bilan kifoyalangan, so‘ngra jiddu jahd bilan shug‘ullanib, hatto uzoq tajribaga ega bo‘lgan. Akasidan ijoza olgan va undan ko‘p foyda ko‘rgan[546].

2. Ahmad Abdul G‘aniy Obidin (hij.1238 – 1307 /mil. 1823– 1889):

Ibn Obidinning jiyani. Hanafiy mazhabida bo‘lib, ilm bilan mashg‘ul bo‘lgan. Amakisidan fiqh va hadis ilmini olgan. Damashqning buyuk olimlaridan ta’lim olib, hatto o‘z davrining eng afzal kishisi bo‘lgan. Damashqda fatvo amini etib tayinlangan. U o‘z qarindoshlariga juda ko‘p yaxshilik qilgan va ularga yordam bergan. O‘z ishlari va mol-mulki bilan ularni qo‘llab-quvvatlagan. Xususan, uning ukasi, buyuk olim, fozil, faqih, so‘fiy, taqvodor, solih Sayyid Abdul G‘aniy, u o‘zining katta farzandlari orasida yaxshilikni ko‘rar va unga e’tibor berar edi. U olim, alloma, ishonchli, fahm-farosatli shayx Sayyid Ahmad Afandi, Damashqda fatvo amini edi. Uning ko‘plab asarlari bor bo‘lgan. U zot hijriy 1307-yilda vafot etgan[547].

3. Muhammad Jobiyzoda: Madinai Munavvaraning qoziysi, ulug‘ martaba va yuqori mansab egasi. Undan barcha ilmlarni o‘rgangan va undan foyda ko‘rgan[548].

4. Shayx Yahyo as-Sardast: U Imom al-Fozil, zamonasining allomasi va davrining fahm-farosatli kishisi edi. U amalda bo‘lgan ulamolardan va Allohga yetishgan solihlardan edi. Dars berishga butunlay berilgan, oxiratga yuzlanib, dunyodan yuz o‘girgan edi. Damashqda hijriy 1264-yil Shavvol oyining o‘n yettinchi kuni vafot etgan. Dahdah yaylovidagi “az-Zahabiyya” qabristoniga dafn etilgan. U so‘fiylarning fozillaridan biri bo‘lib, Alouddin uni “at-Takmila” asarida “faqih an-nafs” (ruhiy tarbiya faqihi) deb ta’riflagan. U Ibn Obidindan ta’lim olgan va undan turli ilmlarda foydalangan[549].

5. Abdul G‘aniy al-Maydaniy: U Abdul G‘aniy ibn Tolib ibn Hamada ibn Ibrohim ibn Sulaymon, “al-Maydaniy” nomi bilan mashhur bo‘lgan, o‘z davrining faqihi va nodir ulamolaridan edi. “Al-Quduriy” asarining sharhlovchisi, Imom Ibn Obidin qo‘lida ta’lim olgan, uning ko‘plab asarlari bor. Hijriy 1298-yilda vafot etgan[550].

---

543 “Qurratu Uyun al-Axbar” [7/8 va undan keyingi sahifalar] va “Mu’jam al-Mu’allifin” [4/222].
544 “al-A’lam” [2/94] va “Mu’jam al-Mu’allifin” [4/222].
545 O‘sha asar: [4/222].
546 نظر: ((روض البشر)) [ص/ ٥٧١]
547 انظر: المصدر السابق، و((قرة عيون الأخيار» [٧/٣١ (١٠ ،٢)]
548 انظر: المصدر السابق، و(حلية البشر)» [٢/٧٦٨]، بتصرف
549 انظر: المصدر السابق، و(حلية البشر)» [٢/٧٦٨]، بتصرف
550 انظر: ((حلية البشر» [٢/ ٧٦٨]، و«المنتخبات» [٢/ ٠٧٦]، و(روض البشر» [ص/ ٥٧١

6. Hasan al-Baytor: U Hasan ibn Ibrohim al-Baytor al-Maydoniy ad-Dimashqiy ash-Shofe’iy al-Ash’ariy bo‘lib, hijriy 1206-yilda tug‘ilgan. Qur’onni yod olgan va Damashq shayxlari huzurida fiqhni o‘rgangan, hatto shariat va haqiqatni jamlagan olim bo‘lgan. Damashqda hijriy 1272-yilda vafot etgan[551].

7. Muhammad ibn Hasan al-Baytor: U Muhammad ibn Hasan ibn Ibrohim ad-Dimashqiy al-Maydaniy ash-Shofe’iy al-Hanafiy al-Mu’ammar bo‘lib, o‘z zamonining yuqori tabaqa olimlariga yetishgan va o‘ttiz yildan ortiq Damashqda fatvo amini bo‘lgan. Damashqda hijriy 1312-yilda vafot etgan[552].

8. Ahmad al-Istanbuliy: Ahmad ibn Umar al-Istanbuliy al-Hanafiy ad-Dimashqiy, olim va faqih bo‘lgan. Damashqda hijriy 1220-yilda tug‘ilib, otasining qaramog‘ida o‘sgan va undan ilm olib, uning huzurida ta’limni tugatgan. Hanafiy fiqhida “Sharh ad-Durar” va “Tuhfat as-Salik li Ma’rifat al-Manasik” kitoblarini yozgan. Hijriy 1164-yilda vafot etgan[553].

9. Yusuf Badruddin al-Mag‘ribiy:

Yusuf ibn Badruddin ibn Abdurrahmon al-Bayoniy, Molikiy mazhabiga mansub, “al-Mag‘ribiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Misrda voyaga yetgan, so‘ngra Damashqning olimlari va taniqli shaxslaridan bo‘lgan. Hijriy 1279-yilda vafot etgan[554].

10. Abdulqodir al-Xulosiy: Abdulqodir ibn Ibrohim al-Xulosiy al-Halabiy bo‘lib, Damashq faqihlaridan edi. Ibn Obidindan ta’lim olgan va undan foyda ko‘rganlardan biri bo‘lgan. Hijriy 1284-yilda vafot etgan[555]. Uning ilmidan ko‘plab insonlar foyda ko‘rgan, ular orasida uning akasi Abdul G‘aniy Obidin, jiyani Ahmad ibn Abdul G‘aniy (Damashqda fatvo amini), amakivachchasi Solih, Muhammad Jobiyzoda, Yahyo Sardast, Abdul G‘aniy al-G‘unaymiy al-Maydoniy, Hasan al-Baytor, Ahmad al-Istanbuliy, Husayn ar-Rassoma, Yusuf al-Mag‘ribiy, Abdul Qodir al-Xulosiy, Ali al-Murodiy, Muhammad al-Atosiy, Mahmud al-Alusiy va boshqalar bor edi. Shayxul-islom Orif Hikmat u bilan yozishmalar orqali ijoza so‘ragan va u unga ijoza bergan, shuningdek, boshqalarga ham ijoza bergan.

* * *

FOROBIY VA AMIR TEMUR QARASHLARIDA XAVFSIZ VA BARQAROR JAMIYAT ASOSLARI

FOUNDATIONS OF A SAFE AND STABLE SOCIETY IN THE VIEWS OF FARABI AND AMIR TEMUR

Sotvoldiyev Jaxongir Sultonali o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti, Tarix va yuridik fakulteti
Siyosatshunoslik 5-1SIYOS-24 guruh talabasi
jaxongirsotvoldiyev227@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi rivojlanib borayogan dunyoda O‘zbekiston o‘z mav’qeyini yanada yaxshilash va iqtisodiy qudratini yanada mustahkamlash uchun xavfsizlik va barqarorlikni yangi bosqichga olib chiqish tarafdori hisoblanadi. Bu albatta ayni vaqtda eng tog‘ri yo‘ldir. Xavfsizlik va

551 انظر: ((روض البشر)) [ص/ ٩٧]، و«معجم المؤلفين» [٤/٢٢٢]
552 انظر: ((روض البشر)) [ص / ٩٥٣]
553 انظر: ((روض البشر)) [ص/ ١٢]، و«معجم المؤلفين» [٢/٨٢]
554 انظر: ((روض البشر)) [ص/ ٩٦٢]، و((معجم المؤلفين) [٢/٩٧]
555 انظر: ((روض البشر)) [ص/ ٦٨١]

barqarorlik masalasi tarixda ham dolzarb muammo bo‘lib xizmat qilgan. Mazkur maqolada O‘rta Osiyo olimlarining barqarorlik va xavfsizlik haqidagi qarashlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Forobiy, Amir Temur, barqarorlik, xavfsizlik, jamiyat, taraqqiyot, siyosiy, Temur tuzuklari, diniy.

Abu Nasr Forobiy yunon falsafasini mukammal o‘rgangan, unga izohlar yozgan va uni dunyoga targ‘ib qilgan, shuningdek o‘z davrining ilmiy bilimlarini chuqur egallagan, fanlar rivojiga katta hissa qo‘shganligi sababli «Al-muallim as-soniy» (Ikkinchi muallim, Aristoteldan keyin) va «Sharq Aristoteli» kabi sharafli unvonlarga sazovor bo‘lgan. Xususiyat, tabaqa.

Forobiy xavfsizlik va barqarorlik masalasiga “ Fozil odamlar shahri” asarida alohida e’tibor berib o‘tgan va u jamiyat taraqqiyotini insonning ma’naviy-axloqiy o‘sishi va tarbiyalash jarayoniga bog‘laydi, aynan shu orqali haqiqiy taraqqiyotga erishish mumkin deb hisoblaydi. U ilmiy, diniy va ijtimoiy rivojlanishning jaholat va nodonlik asosida mumkin emasligini, balki faqat bilim va bilimli insonlar orqali amalga oshishi mumkinligini ta’kidlaydi. Forobiy shunday deydi: «Har bir insonning tabiati shundayki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun ko‘plab narsalarga muhtojdir. Biroq, u bularni o‘z-o‘zidan qo‘lga kira olmaydi, buning uchun insonlar jamiyatiga ehtiyoj bor... Bunday jamoadagi har bir a’zo o‘zining yetuklikka erishishi uchun zarur bo‘lgan narsalarni boshqalardan oladi”. Shu sababli, insonlar birlashib, jamiyat tashkil etadilar. Forobiyga ko‘ra, shaharlar — bu insonlarning o‘zaro birlashishining eng yuqori shakli bo‘lib, bu yerda insonning to‘laqonli rivojlanishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratiladi. U, shuningdek, insonlar o‘z tabiiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, jamoa tashkil etganini alohida ta’kidlaydi.

Forobiyning jamiyat taraqqiyoti, barqaror rivojlanishi va xavfsizligiga geografik muhitning o‘rni haqidagi fikri alohida e’tiborga molikdir. Unga ko‘ra, geografik muhit, ya’ni kishilarning yashash joyi, turmush tarzi, urf-odatlar va axloq ularning shaxsiyati va jamiyatdagi o‘rni shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatning birlashishiga yordam beradi. Forobiy, mukammal jamiyatni yaratishda odamlarni faqat dini e’tiqodlari yoki irqiga qarab emas, balki aqliy qobiliyatlari, bilimga bo‘lgan qiziqishlari va ilm-fanga intilishlariga asoslanib ajratadi.

Faylasuf dinni insonning kamoloti va ma’rifatga xizmat qiladigan bir vosita sifatida ko‘radi. U, dinni erkinlik va ilmiy taraqqiyotni cheklamaydigan, balki ularni qo‘llab-quvvatlaydigan bir tushuncha sifatida ta’riflaydi. Forobiy diniy xurofotlardan xoli bo‘lgan dunyoqarashni rivojlantirgan va din erkinligining tarafdori bo‘lgan. Uning fikricha, haqiqiy ma’rifat va bilim insonning o‘zini mukammallashtirishiga yordam berishi kerak.[556]

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida komil inson haqida fikr yuritganida, shahar yoki davlat rahbari barcha insoniy fazilatlarni o‘zida jamlagan bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Fozil shahar boshlig‘ida 12 ta ajralib turadigan xususiyat bo‘lishi zarur, deydi u.

- sog‘lom,
- nozik farosatli,
- xotirasi kuchli,
- zehni o‘tkir,
- shirinsuxan,
- bilimli va ma’rifatli,
- taom yeyishda, ichimlik ichishda me’yoriga amal qilishi,
- haqiqatni, odil va haqo‘qiy odamlarni sevishi,
- oliyhimmat, nomusli, oriyatli bo‘lishi,
- boylik, dinor va dirhamlarga qiziqmasligi,
- adolatparvar, yaxshilik uchun kurashuvchi, jabr, zulmni yomon ko‘ruvchi,
- qat’iyatli, jasur, jur’atli bo‘lishi lozim.

[556] Turdiyev B.S Siyosiy ta’limotlar tarixi. —T.: “Impress media”, 2023-y. —B.117-118

Forobiy o‘z asarlarida adolatni keng va chuqur tahlil qiladi, zero adolat xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘lida poydevor hisoblanadi. Unga ko‘ra, adolat — bu kishilar o‘rtasidagi tenglikni ifodalovchi tushuncha bo‘lib, faqat moddiy tenglikni emas, balki ma’naviy tenglikni ham anglatadi. Adolat, uning nazarida, yaxshilik kabi keng ma’noda tushuntiriladi va faqat tashqi tenglikni emas, balki ichki, ruhiy tenglikni ham ta’kidlaydi .[557]

Shu jumladan, sohibqiron Amir Temur — tarix sahnasida nomi oltin harflar bilan yozilgan buyuk siymolardan biri. U o‘zining dono rahbarligi, yuksak harbiy salohiyati hamda ilm-fan va madaniyatga ko‘rsatgan e’tibori bilan nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlar xotirasida ham chuqur iz qoldirgan. Uning adolatga asoslangan boshqaruv uslubi va ma’naviyatni ustuvor qo‘ygan siyosati keng e’tirof topgan — bu e’tirof faqat yurti bilan cheklanmaydi, balki butun dunyo miqyosida aks-sado bergan. Ayniqsa, Temuriylar davrida, ya’ni XIV-XV asrlarda yuzaga kelgan siyosiy va madaniy yuksalish jarayoni insoniyat tarixida alohida bir davr sifatida e’tirof etiladi. Oradan olti asrdan ortiq vaqt o‘tsa-da, Amir Temur shaxsiyati va merosiga bag‘ishlangan asarlar soni yuzlabni tashkil etmoqda — bu esa uning qanday ulug‘ shaxs bo‘lganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Buyuk Temur bobomiz— nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo miqyosida tan olingan yirik sarkarda va dono davlat arbobi sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan shaxsdir. U asos solgan qudratli imperiya bugungi o‘zbek milliy davlatchiligining tarixiy ildizlaridan biri sifatida qaraladi. Temur o‘z siyosiy va harbiy faoliyati orqali mo‘g‘ullar bosqiniga chek qo‘yib, mintaqada barqarorlikni tikladi, o‘zbek davlatchiligi poydevorini mustahkamladi. Shu bilan birga, u islom dini va shariat qonunlarini faol qo‘llab-quvvatlab, diniy-ma’naviy hayotni tartibga soldi.

Amir Temurning eng katta xizmatlaridan biri — tartibsizlik va inqiroz davridan so‘ng qadimiy boshqaruv tizimining ilg‘or shakllarini qayta joriy etgani bo‘ldi. U davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni aniq belgilab berdi, ijtimoiy tuzumni izchil tartibga soldi. Ayniqsa, aholining 12 tabaqaga bo‘linishi asosida qurilgan boshqaruv tizimi barqarorlik va nazoratni kuchaytirishga xizmat qildi. Bu yondashuv o‘sha davr uchun juda ilg‘or va samarali tizim bo‘lib, davlatni kuchli markazlashtirishga yordam bergan. Amir Temur — tarix sahnasida o‘zining yuksak sarkardaligi va dono rahbarligi bilan butun dunyo tan olgan ulug‘ shaxsdir. U asos solgan qudratli davlat bugungi o‘zbek milliy davlatchiligining tarixiy ildizlarini tashkil etadi. Temur o‘zining siyosiy va harbiy salohiyati orqali mo‘g‘ullar bosqiniga barham berib, Markaziy Osiyoda tartib va barqarorlikni tikladi, mustahkam davlat asoslarini yaratdi. Shu bilan birga, u islom dini va shariat qonunlarini himoya qilib, diniy-ma’naviy hayotning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Temurning eng muhim xizmatlaridan yana biri — uzoq yillar davom etgan notinchlik va beqarorlikdan so‘ng, qadimiy boshqaruv tizimining ilg‘or shakllarini tiklagani bo‘ldi. U davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni aniq va adolatli tarzda belgilab, ijtimoiy tuzumni tartibga soldi. Xususan, aholining 12 tabaqaga bo‘linishi asosida tashkil etilgan boshqaruv modeli davlatchilikda barqarorlik va intizomni ta’minladi. Bu tizim o‘sha davr uchun yangicha yondashuv bo‘lib, markazlashgan va kuchli davlat qurilishiga zamin yaratdi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Amir Temur davrida huquqiy boshqaruv bir yoqlama emas, balki o‘zaro uyg‘unlashgan tizim asosida yo‘lga qo‘yilgan. “Temur tuzuklari” asosiy siyosiy-huquqiy hujjat sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, ayni paytda o‘troq aholining yashash hududlarida shariat qonunlari va urf-odatlarga asoslangan huquq normalari ham amalda bo‘lgan. Bu holat huquqiy boshqaruvda mahalliy sharoit va qadriyatlarni inobatga olishga qaratilgan yondashuvni ko‘rsatadi.

Aslida, turli huquqiy manbalarni tan olish va ularni birgalikda qo‘llash tamoyili Temurdan keyingi davr hukmdorlarining siyosatida ham davom etgan. “Tuzuklar” — oddiy farmonlar to‘plami

[557] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. —T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” DAvlat ilmiy nashriyoti. 2024. —B. 43.

emas, balki Temur tuzgan tartib-intizom asoslari, boshqaruv tajribasi va davlatni barqaror tutish yo‘llarini jamlagan muhim asar hisoblanadi. Unda imperiyaning ichki tuzilishi, hokimiyatning qanday ishlagani, kim qanday mas’uliyatni zimmasiga olgani batafsil ko‘rsatib berilgan.

Xususan, Temur jamiyatni 12 ijtimoiy qatlamga ajratgan va har bir guruhga aniq vazifalar yuklatgan. Davlat ishlari bevosita ushbu qatlamlar vakillarining ko‘magi, maslahatlari va ishtiroki bilan olib borilgan. Bu yondashuv davlat boshqaruvini yanada tizimli, adolatli va barqaror qilishga xizmat qilgan.[558]

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Forobiy va Amir Temur nafaqat o‘z zamonasining, balki butun insoniyat tarixining buyuk siymolari sifatida ajralib turadi. Forobiy o‘zining chuqur ilmiy-falsafiy qarashlari orqali jamiyat taraqqiyoti, adolat, xavfsizlik va barqaror rivojlanish, komil inson va fozil jamiyat g‘oyasini ilgari surib, ilm-fan va din uyg‘unligini asoslab berdi. Uning fikricha, haqiqiy taraqqiyot bilim, axloqiy tarbiya va ma’naviyat orqali amalga oshadi. Amir Temur esa bu g‘oyalarni real hayotga tadbiq etgan amaliyotchi rahbar bo‘lib, mustahkam davlat asoslarini yaratdi, adolatli boshqaruv tizimini joriy etdi, ilm-fan va dini qadriyatlarni qo‘llab-quvvatladi. Temur davrida yaratilgan “Tuzuklar” va jamiyatning tabaqaviy tuzilishi markazlashgan boshqaruvning ilg‘or namunasi sifatida xizmat qildi. Ularning merosi bugungi o‘zbek milliy davlatchiligi va ma’naviy taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo‘lib qolmoqda. Bu ikki dahoning qarashlari hali-hanuz dolzarbligini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYTLAR

1. Turdiyev B.S Siyosiy ta’limotlar tarixi. —T.: “Impress media”, 2023-y. — B.117-118
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. —T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” DAvlat ilmiy nashriyoti. 2024. — B. 43.
3. Turiyev B.S Siyosiy ta’limotlar tarixi.—T.:” Impress media” , 2023-y. — B.130-133.

* * *

MARKAZIY OSIYO ALLOMALARINING JAHON FANI VA FALSAFASI RIVOJIDAGI O ‘RNI

THE ROLE OF CENTRAL ASIAN SCHOLARS IN THE DEVELOPMENT OF WORLD SCIENCE AND PHILOSOPHY

Faxritdin Xaitovich Xudoynazarov
Imom Termiziy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi
Ilmiy tadqiqot bo‘limi xodimi
E-mail:faxriolam@gmail.com

Annotatsiya: Maqola Markaziy Osiyo olimlarining boy intellektual va ma’naviy merosini yoritadi. Ibn Sino, Forobiy, Xorazmiy kabi allomalar fan, falsafa va tibbiyotga ulkan hissa qo‘shib, jahon sivilizatsiyasiga ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, tasavvuf ta’limotining mintaqa ma’naviyati va axloqiy qarashlarini shakllantirishdagi muhim o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, intellektual meros, ma’naviy meros, olimlar, falsafa, tasavvuf, Ibn Sino, Islom oltin asri, madrasa, Ipak yo‘li.

[558] Siyosiy ta’limotlar tarixi.—T.:” Impress media” nashriyoti, 2023y. B: 130-133.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakat ma’naviy-madaniy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish sohasidagi izchil siyosati natijasida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining intellektual va ma’naviy merosi yanada chuqur tadqiq etilmoqda va keng omma e’tiboriga havola etilmoqda.[559] Prezidentimizning ko‘plab farmonlari va qarorlarida mintaqamizning boy ilmiy-madaniy merosini saqlash, targ‘ib qilish va yosh avlodga yetkazish masalalari alohida e’tiborga olingan.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining intellektual va ma’naviy merosi turli madaniy va falsafiy yo‘nalishlarni qamrab olgan boy merosdir. Bu meros mintaqaviy va global miqyosda doimiy ta’sir ko‘rsatib kelgan turli bilim sohalariga, jumladan, fan, falsafa va ma’naviyatga qo‘shgan muhim hissasi bilan ajralib turadi.

Ibn Sino, Forobiy va Beruniy kabi Markaziy Osiyo olimlarining boy merosi ilmiy va falsafiy fikrlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan va mintaqaning ma’naviy an’analari va axloqiy asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Markaziy Osiyo ilm-fan tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu mintaqa Ibn Sino, Forobiy, Xorazmiy va Beruniy kabi buyuk olimlarni yetishtirgan bo‘lib, ularning tibbiyot, falsafa, matematika va astronomiya sohasidagi kashfiyotlari butun insoniyat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shdi. Islom madaniyatining mahalliy an’analar bilan uyg‘unlashishi, so‘fiylikning ma’naviy ta’siri va Ipak yo‘lining ilmiy aloqalarni rivojlantirishdagi roli Markaziy Osiyoni jahon sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biriga aylantirdi. Buxoro va Samarqand kabi shaharlar islomiy ta’limning yirik markazlariga aylanib, mintaqaning intellektual merosini yanada boyitdi.

Buyuk mutafakkirlar orasida Ibn Sino (Avitsenna) va Forobiy kabi Markaziy Osiyo olimlari tibbiyot, falsafa va matematika sohalariga salmoqli hissa qo‘shdilar, ham Sharq, ham G‘arb intellektual an’analariga ta’sir ko‘rsatdilar.

Yevropada Avitsenna nomi bilan tanilgan Ibn Sino Markaziy Osiyolik taniqli olim edi. U tibbiyotga oid besh jildlik “Al-Qonun fit-tibb” (Tibbiyot Fanining Qonuni) nomli asarning hamda “Ash-Shifo” va “Al-Ishorat va-t-tanbihat” kabi falsafiy ensiklopediyalarning muallifidir. U 250 ta yirik asar bitgan. Uning ta’siri Markaziy Osiyodan tashqarida ham keng tarqalgan bo‘lib, uning g‘oyalari Ozarbayjonlik faylasuf Bahmanyar ibn Marzban (993-1066) va Nosiruddin Tusiy (1201-1274) kabi keyingi davr olimlari tomonidan rivojlantirilgan va himoya qilingan.[560]

Forobiy (870-951) tahsilini arab tilida Buxoro, Damashq, Bag‘dodda olgan. U falsafa va mantiqqa oid ko‘plab asarlar yozgan, jumladan, “Ihso al-Ulum” (Fanlar soni) asarida fanlarni tasniflagan. Forobiy Aristoteldan keyin mantiqning asoschisi sanaladi.[561]

Xorazmiyning (783-850) matematikadagi ishlari algebra uchun poydevor qo‘ydi, Beruniyning astronomiya va geografiya sohasidagi tadqiqotlari esa o‘z davri uchun noyob kashfiyot bo‘lgan.

Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) qomusiy bilimdon edi. U G‘aznada yashagan va falsafa, tarix, geografiya, matematika, astronomiya va fizika bo‘yicha 100 dan ortiq asarlar muallifi bo‘lgan. E’tiborlisi, u Kopernikdan ancha oldin Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi va Quyosh atrofida harakatlanishi mumkinligi haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan.[562]

---

[559] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.12.2023 yildagi PQ-405-son https://lex.uz/docs/-6713096

[560] Сулейманова, С. Из истории тюркских народов. Общее представление о характере исторических процессов происходивших в истории тюркских народов. - LAP Lambert: Saarbrücken, 2012. -371с.

[561] Сулейманова, С. Из истории тюркских народов. Общее представление о характере исторических процессов происходивших в истории тюркских народов. - LAP Lambert: Saarbrücken, 2012. -361с.

[562] https://www.turkosfer.com/biruni/

Islom dinining Markaziy Osiyoda tarqalishi islom fanlarining mahalliy madaniy qadriyatlar bilan integratsiyasiga olib keldi, Buxoro va Samarqand islomiy ta'lim markazlariga aylandi va Hanafiy mazhabining ahamiyat kasb etishiga sabab bo'ldi.[563]

So'fiylik o'zining ma'naviy poklanish va axloqiy yashashga urg'u bergani sababli Markaziy Osiyo ma'naviyatining muhim jihati bo'lib, ham shaxsiy, ham jamoaviy hayotga ta'sir ko'rsatgan.

Xonaqohlarning so'fiy ta'limotlarini yoyishda tutgan o'rni tasavvufning mintaqaning ma'naviy manzarasidagi ahamiyatini ta'kidlaydi.[564] O'rta Osiyoda so'fiylik institutining shakllanishi va rivojlanishi, uning "xonaqohlar" nomi bilan tanilgan binolar bilan bir qatorda muhokama qilinadi.

Nufuzli mutafakkir va ustozlar tomonidan taqdim etilgan so'fiylik ta'limotining ma'naviy-axloqiy me'yorlari Islom Sharq dunyosida keng hurmatga sazovor bo'ldi.

Mintaqaning qadimdan sivilizatsiyalar chorrahasi sifatidagi tarixiy o'rni g'oyalar almashinuvini, jumladan, islomgacha bo'lgan davrda buddizmning Ipak yo'li bo'ylab tarqalishini osonlashtirib, uning madaniy merosini yanada boyitgan.[565]

Xulosa

Markaziy Osiyo tarixi davomida jahon ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan mintaqa sifatida o'zini namoyon etdi. Ibn Sino, Forobiy, Xorazmiy va Beruniy kabi olimlarning tibbiyot, falsafa, matematika va astronomiya sohasidagi tadqiqotlari ham Sharq, ham G'arb intellektual an'analariga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Islom madaniyatining mahalliy qadriyatlar bilan integratsiyasi, so'fiylikning ma'naviy-axloqiy ta'siri va mintaqaning sivilizatsiyalar chorrahasi sifatidagi o'rni Markaziy Osiyoni dunyoning muhim ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylantirdi. Bugungi kunda ham ushbu boy meros insoniyat taraqqiyotida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.12.2023 yildagi PQ-405-son https://lex.uz/docs/-6713096
2. Suleymanova, S. (2020). Вклад Тюркских Мыслителей В Мировое Наследие. https://doi.org/10.33206/MJSS.539168
3. Bekmirzaev, I., & Gafurova, I. (2021). The impact of islam on sociopolitical and spiritual life in central asia. https://doi.org/10.47980/TLOI/2021/1/1
4. Nur, M. (2023). Tasawuf dan Modernisasi: Urgensi Tasawuf Akhlaki pada Masyarakat Modern. Substantia: Media Studi Ilmu Dan Keagamaan. https://doi.org/10.22373/substantia.v25i1.16851
5. Turdimurodovich, M. I., Djurakulovich, G. B., & Quziyevich., E. I. (2020). The Role And Place Of The Khanqahs In Spreading The Mysticism And Spiritual Purification To The Peoples Of Central Asia. International Journal of Scientific & Technology Research.
6. Warikoo, K., & K, B. (2018). Karakoram himalayas and central asia. the buddhist connection. https://doi.org/10.22363/2312-8127-2018-10-2-109-125
7. Dagiev, D. (2022). Central Asian Ismailis. https://doi.org/10.5040/9780755644995
8. Ohayon, I., & Thorez, J. (2023). For a critical and dispassionate constructivism: revisiting the concept of the 'Global East' in its relevance to Central Asia. Социологическое Обозрение. https://doi.org/10.17323/1728-192x-2023-1-48-60

* * *

[563] Bekmirzaev, I., & Gafurova, I. (2021). The impact of islam on sociopolitical and spiritual life in central asia. https://doi.org/10.47980/TLOI/2021/1/1

[564] Mankovskaya L.Yu. Typological basis of Central Asian architecture (9th and beginning of 20th centuries). – Tashkent, 1980. -46b.

[565] Warikoo, K., & K, B. (2018). Karakoram himalayas and central asia. the buddhist connection. https://doi.org/10.22363/2312-8127-2018-10-2-109-125

MULLO MUSO SAYRAMIYNING “TARIXI HAMIDIY” ASARI MARKAZIY OSIYO TARIXINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA

MULLA MUSA SAYRAMI’S TARIKH-I HAMIDI AS A SIGNIFICANT PRIMARY SOURCE FOR THE STUDY OF CENTRAL ASIAN HISTORY

Sobirov Sardorbek Abdusattor o‘g‘li
Andijon davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi
Andijon, O‘zbekiston
E-mail: sobirov88@adu.uz

Annotatsiya: Maqolada Mullo Muso Sayramiyning (1836–1917) “Tarixi Hamidiy” asari Markaziy Osiyo tarixini, xususan XIX asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkistonda yuz bergan siyosiy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba sifatida tahlil qilinadi. Asarda 1864–1877-yillardagi musulmon qo‘zg‘olonlari, Yoqubbek Badavlat boshchiligida Yettishahar davlatining tashkil topishi, uning Rossiya va Buyuk Britaniya bilan munosabatlari hamda Sin qo‘shinlarining istilosi tafsilotlari yoritilgan. Mazkur asarning ahamiyatli jihati shundaki, muallif voqealarning bevosita guvohi bo‘lib, ularni mahalliy nuqtai nazardan yozib qoldirgan. Shuningdek, asarning manbashunoslik ahamiyati va ilmiy qiymati zamonaviy tadqiqotchilar – J.Millvard, H.Kim, R.Tum, E.Shlussel va boshqalar tomonidan berilgan baholar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tarixi Hamidiy; Mullo Muso Sayramiy; Dungan qo‘zg‘oloni; Yettishahar davlati; Sharqiy Turkiston tarixi; manbashunoslik; tarixiy manba tahlili.

Mullo Musa Sayramiy tomonidan yozilgan “Tarixi Hamidiy” asari Markaziy Osiyo, xususan XIX asrda Sharqiy Turkiston va qo‘shni hududlarda yuz bergan tarixiy voqealarni o‘rganishda eng muhim mahalliy manbalardan biri hisoblanadi.

Muallif 1903-yilda “Tarixi amniyya” (“Tinchlik tarixi”) asarini yozib, keyinchalik uni qayta ishlab, 1908-yilda “Tarixi Hamidiy” (“Hamid tarixi”) nomi bilan nashrga tayyorlagan. Bu nom Usmonli sultoni Abdulhamid II sharafiga qo‘yilgan bo‘lib, muallif musulmon dunyosining birligi va hamjihatligi g‘oyasini ulug‘lagan. Asarda 1864–1877-yillardagi musulmon qo‘zg‘olonlari, Yoqubbek Badavlat boshchiligidagi Yettishahar davlatining tashkil topishi, uning Rossiya va Buyuk Britaniya bilan diplomatik munosabatlari hamda Sin qo‘shinlarining Sharqiy Turkistonga qayta istilosi jarayonlari keng yoritilgan[566]. Muallifning o‘zi mazkur voqealarning bevosita guvohi va ishtirokchisi bo‘lgani bois, asar tarixiy tafsilotlarni mahalliy nuqtai nazardan yoritishi bilan alohida qadrlidir. “Tarixi Hamidiy” o‘z mazmuni bilan nafaqat siyosiy voqealarni qayd etadi, balki xalq ongidagi kayfiyatni, ijtimoiy-siyosiy qarashlarni va diniy omillarni ham tasvirlaydi[567]. Shu bois u manbashunoslik nuqtai nazaridan ham, tarixshunoslik jihatidan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy olimlar, jumladan, H.Kim, J.Millvard, R.Tum va E.Shlussel, Sayramiyning ushbu asarini Sharqiy Turkiston tarixini o‘rganishda asosiy manba sifatida baholab kelmoqdalar[568]. “Tarixi Hamidiy” mazmun va tuzilish jihatidan Mullo Muso Sayramiyning avvalgi asari – “Tarixi amniyya”ning qayta ishlangan va kengaytirilgan shakli hisoblanadi. Agar “Tarixi amniyya” 1759-yildan 1870-yillargacha bo‘lgan voqealarni qisqa bayon etgan bo‘lsa, “Tarixi Hamidiy” bevosita

[566] Millward J. A. Eurasian Crossroads: A History of Xinjiang. – London: Hurst & Company, 2007, p. 156
[567] Thum R. The Sacred Routes of Uyghur History. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014, p. 67.
[568] Schluessel E. The Tarikh-i Hamidi: A Late-Qing Uyghur History. – New York: Columbia University Press, 2023, p. 18-25.

muallif guvoh bo‘lgan davr – 1864–1877-yillardagi musulmon qo‘zg‘olonlari va Yoqubbek Badavlat boshchiligidagi Yettishahar davlatining shakllanishi va inqirozi tafsilotlariga e’tibor qaratadi[569]. Asar kirish qismi va ikki asosiy bo‘limdan tashkil topgan. Kirish qismida muallif Nuh payg‘ambardan boshlab Chingizxon davrigacha bo‘lgan umumiy tarixiy voqealarni qisqa bayon etadi, bu esa an’anaviy musulmon tarixnavisligi uslubiga xosdir[570]. Birinchi bo‘limda 1864-yildagi Dungan qo‘zg‘oloni va Qo‘ja Burhoniddinning harakatlari tasvirlanadi. Ikkinchi bo‘lim esa Yoqubbek Badavlat hukmronligiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda davlat boshqaruvi, soliqlar tizimi, harbiy tuzilma va tashqi siyosat masalalari batafsil yoritiladi[571].

Sayramiyning yozishicha, 1864-yilda Sin imperiyasining soliq siyosati va diniy cheklovlari mahalliy aholida norozilik uyg‘otgan va bu keng ko‘lamli qo‘zg‘olonga sabab bo‘lgan. Muallif qo‘zg‘olon yetakchilarini ham xolisona tasvirlaydi: ularning ayrimlarini adolatli, ayrimlarini esa haddan tashqari shafqatsiz deb baholaydi[572]. Asarda xalq kayfiyatining keskin o‘zgarishi ham alohida qayd etiladi: qo‘zg‘olon davrida soliq bosimi va beqarorlik kuchaygani bois, ko‘plab dehqonlar Sin hukmronligining qaytishini xohlab qolganliklari haqida lavhalar mavjud[573].

Sayramiyning ma’lumot berishicha, 1867-yilda hokimiyatni qo‘lga olgan Yoqubbek dastlab tartib o‘rnatishga muvaffaq bo‘lgan. U davlatni mustahkamlash uchun qat’iy soliq tizimini joriy etgan, muntazam qo‘shin tuzgan va tashqi siyosatda Rossiya hamda Britaniya bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan[574]. Ammo Sayramiy keyingi yillarda Yoqubbekning zulm va haddan tashqari soliqlar tufayli xalq orasidagi obro‘sini yo‘qotganini tanqid qiladi. Shu jihati bilan asar an’anaviy musulmon tarixnavisligidan farq qiladi, chunki muallif hukmdorni ham ochiq tanqid qilgan[575].

Asarda Yoqubbek Badavlatning 1877-yilda vafoti haqida batafsil ma’lumot beriladi. Sayramiy bu voqeani zaharlanish oqibatida yuz bergan deb yozadi. Biroq rus generali A.N. Kuropatkinning yozishicha, Yoqubbek 29-may kuni tabiiy sabablar bilan vafot etgan[576], Sin yilnomalarida esa bu voqea 22-may sanasi bilan qayd etilgan[577]. Bu tafovutlar “Tarixi Hamidiy”ni boshqa manbalar bilan qiyoslab o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. “Tarixi Hamidiy” faqat siyosiy voqealar emas, balki xalq ongidagi kayfiyat va diniy qarashlarni ham aks ettirgani bilan qadrlidir. Sayramiy ayrim joylarda og‘zaki rivoyatlarga ham murojaat qilgan, masalan, Xitoy hukmdori ilgari musulmon bo‘lganligi haqidagi afsonani keltirgan. Bu orqali muallif xalq tarixiy ongida mavjud bo‘lgan tasavvurlarni ham asar matniga kiritib, uni ijtimoiy-madaniy manba sifatida ham qimmatli qilgan[578].

Mullo Musa Sayramiyning “Tarixi Hamidiy” asari tarixshunoslikda o‘ziga xos manba sifatida qadrlanadi. Asar o‘z davri uchun an’anaviy musulmon tarixnavisligi shaklida yozilgan bo‘lsa-da, muallif unda voqealarni faqat diniy taqdir yoki siyosiy ulug‘lash mezonida emas, balki ijtimoiy-siyosiy tahlil asosida ham yoritishga uringan. Shu jihati bilan u Markaziy Osiyo tarixida tanqidiy ruhdagi mahalliy tarixiy yozuvlarning ilk namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin[579].

“Tarixi Hamidiy” boshqa manbalar bilan qiyoslaganda o‘zining alohida qiymatini ko‘rsatadi. Sin imperiyasining rasmiy yilnomalari qo‘zg‘olonchilarni ko‘pincha “qaroqchilar” yoki “bosqinchilar”

---

[569] Kim H. Holy War in China: The Muslim Rebellion and State in Chinese Central Asia, 1864–1877. – Stanford: Stanford University Press, 2004, p. 212.
[570] Thum R. *The Sacred Routes of Uyghur History*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014, p. 67.
[571] Millward J. A. Eurasian Crossroads: A History of Xinjiang. – London: Hurst & Company, 2007, p. 156.
[572] Schluessel E. *The Tarikh-i Hamidi: A Late-Qing Uyghur History*. – New York: Columbia University Press, 2023, p. 89.
[573] Boulger D. The Life of Yakoob Beg. – London: W. H. Allen, 1878, p. 205.
[574] Kuropatkin A. N. Kashgariya. – SPb.: Tip. M. M. Stasyulevicha, 1879, s. 173.
[575] Thum R. The Sacred Routes of Uyghur History. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014, p. 92.
[576] Куропаткин А. Н. Кашгария. Историко-географический очерк страны, её военные силы, промышленность и торговля. – СПб.: Издание ИРГО, 1879. – С. 241.
[577] Kim H. Holy War in China. – Stanford: Stanford University Press, 2004, p. 227.
[578] Schluessel E. The Tarikh-i Hamidi. – Columbia UP, 2023, p. 132.
[579] Thum R. The Sacred Routes of Uyghur History. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014, p. 92.

sifatida tasvirlagan bo‘lsa[580], Sayramiy ularni xalqning diniy va ijtimoiy erkinligi uchun kurashgan shaxslar sifatida taqdim etadi. Bu ikki qarash orasidagi tafovut tarixiy jarayonlarni turli nuqtai nazardan yoritishda manbalar xilma-xilligini ko‘rsatadi. Rus manbalarida, jumladan, general A.Kuropatkin va konsul N.Petrovskiy xotiralarida, voqealar ko‘proq strategik va geosiyosiy nuqtai nazardan baholanadi[581].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Mullo Musa Sayramiyning “Tarixi Hamidiy” asari XIX asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda bebaho manba sifatida alohida o‘rin tutadi. Asar bevosita voqealar guvohi bo‘lgan muallif tomonidan yozilgani bois, unda keltirilgan tafsilotlar boshqa rasmiy manbalardan farqli ravishda mahalliy nuqtai nazarni aks ettiradi.

“Tarixi Hamidiy”ning tarixiy qimmati bir necha jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, asarda qo‘zg‘olonlar va Yoqubbek Badavlat davlati haqida faqat siyosiy voqealar emas, balki xalq kayfiyati, ijtimoiy muammolar va diniy qarashlar ham tasvirlangan. Ikkinchidan, Sayramiy an’anaviy tarixnavislik chegarasidan chiqib, hukmdorni ham tanqid qilishga jur’at qilgani bilan tarixshunoslikda nodir hodisani tashkil etadi. Uchinchidan, asarda keltirilgan ba’zi tafsilotlar (masalan, Yoqubbek ning o‘limi) boshqa manbalarda uchramaydigan yoki ulardan farq qiladigan shaklda berilgan bo‘lsa-da, bu “Tarixi Hamidiy”ni qiyosiy manbashunoslik uchun yanada muhim qiladi.

Zamonaviy tarixshunoslik ham Sayramiy asarining ahamiyatini yuqori baholaydi. H.Kim uni XIX asr musulmon qo‘zg‘olonlari haqida eng muhim mahalliy manba deb e’tirof etadi, J.Millvard esa Sharqiy Turkiston tarixini o‘rganishda “Tarixi Hamidiy”ni fundamental asoslardan biri sifatida qayd etadi. R.Tum bu asarni uyg‘ur milliy tarixiy xotirasining shakllanishida markaziy o‘rin tutganini ta’kidlagan, E.Shlussel esa uning tanqidiy va murakkab yondashuvini jahon ilmiy jamoatchiligiga taqdim etgan.

Shu bois, “Tarixi Hamidiy” faqatgina tarixiy voqealarni qayd etuvchi xronika emas, balki mahalliy jamiyat tafakkuri va tarixiy xotirasini ifodalovchi ko‘p qirrali ilmiy manba sifatida qadrlanishi lozim. U bugungi tarixshunoslik uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etib, Markaziy Osiyo tarixini chuqurroq o‘rganish va anglashda asosiy manba bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Musa Sayrami. *Tarixi amniyya (The History of Peace)* / tarjima va izohlar bilan E. Schluessel. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2023. – 432 p.
2. Kim, Hodong. *Holy War in China: The Muslim Rebellion and State in Chinese Central Asia, 1864–1877*. – Stanford: Stanford University Press, 2004. – 392 p.
3. Millward, James A. *Eurasian Crossroads: A History of Xinjiang*. – London: Hurst & Company, 2007. – 352 p.
4. Thum, Rian. *The Sacred Routes of Uyghur History*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014. – 311 p.
5. Schluessel, Eric. *The Tarikh-i Hamidi: A Late-Qing Uyghur History*. – New York: Columbia University Press, 2023. – 286 p.
6. Куропаткин А. Н. Кашгария. Историко-географический очерк страны, её военные силы, промышленность и торговля. – СПб.: Издание ИРГО, 1879. – С. 435.
7. Boulger, Demetrius Charles. *The Life of Yakoob Beg, Athalik Ghazi, and Badaulet; Ameer of Kashgar*. – London: W. H. Allen, 1878. – 320 p.

* * *

[580] Kim H. Holy War in China. – Stanford, 2004, p. 220.
[581] Куропаткин А. Н. Кашгария. Историко-географический очерк страны, её военные силы, промышленность и торговля. – СПб.: Издание ИРГО, 1879. – С. 245.

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING ILMIY-MA'NAVIY MEROSI: USTOZ-SHOGIRD AN'ANASINING DAVOMIYLIGI

MAHMUD ZAMAKHSHARI'S SCHOLARLY AND SPIRITUAL LEGACY AND THE CONTINUITY OF THE TEACHER–DISCIPLE TRADITION

Salimova Sitora-Bonu Nuritdin qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Arab tili va adabiyoti Al-Azhar"
kafedrasi tayanch doktoranti

Ilm-fan tarixida o'z nomini abadiylikka muhrlagan allomalar orasida Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) alohida o'rin egallaydi. U o'zining ilmiy izlanishlari, tilshunoslikdagi chuqur tadqiqotlari va yuksak adabiy uslubi bilan tanilgan. Zamaxshariy asarlarining dolzarbligi shundaki, u tilga faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki tafakkur ifodasi sifatida qaragan.

Insoniyat tarixida ilm-ma'rifat taraqqiyoti avloddan-avlodga uzluksiz o'tib kelayotgan ustoz va shogirdlar an'anasi orqali shakllangan. Ustoz - nafaqat bilim beruvchi, balki shogirdni hayot yo'lida yetuk shaxs sifatida tarbiyalovchi, ma'naviy kamolot sari yetaklovchi murabbiydir. Ilmiy maktablarning paydo bo'lishi, ularning rivojlanishi va davomiyligi bevosita ustoz shaxsiga, uning ilmiy salohiyati hamda tarbiyaviy mahoratiga bog'liqdir. Islom olamida yuzlab buyuk mutafakkirlar o'z ustozlaridan olgan saboqlar, ilmiy meros va tajribalar asosida shakllangan. Shunday allomalardan biri - Mahmud Zamaxshariy bo'lib, uning ilmiy kamolotida ustozlarining hissasi beqiyosdir. Zamaxshariy hayoti va ijodini o'rganish nafaqat Markaziy Osiyo ilmiy-ma'naviy merosining boyligini yoritadi, balki ustoz-shogird munosabatlarining naqadar muhimligini ham ko'rsatadi.

Mahmud Zamaxshariy yoshligidan ilm-fanning turli sohalari bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo'r iste'dodini namoyon qila boshlagan. U madrasada o'qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallashga kirishadi. Keyinchalik Mahmud az-Zamaxshariy bilimini yanada oshirish maqsadida Buxoroga yo'l oladi. Mashhur olim Abu Mansur as-Saolibiyning (961–1138) iborasi bilan aytganda "Buxoro somoniylar davridan boshlab shon-shuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan va o'z davrining fozil kishilari yig'ilgan (joy) edi". U Buxoroda tahsilni tugallagach, bir necha yillar Xorazmshohlar xizmatida munshiylik bilan shug'ullanadi, hukmdorlar bilan yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi. Allomaning o'z davri ilmlarini to'liq egallashga, olimlik darajasiga yetishishida, shubhasiz, ustozlarining xizmati benihoya katta bo'lgan. Mana shunday ustozlardan biri - til, lug'at va adabiyot sohasida mashhur olim Abu Mudar Mahmud ibn Jariyr al-Dabbiy al-Isfahoniydir (1113-yili Marvda vafot etgan)[582]. Abu Mudar kuchli tilshunos bo'lib, u til ilmida "Faridu-l-asr" va "vahidu-d-dahr" (yagonayi davron) edi. Bu olim bir qancha vaqt Xorazmda istiqomat qiladi, o'zining chuqur va har taraflama bilimi, xushfe'lligi, oliyjanobligi bilan shuhrat qozonadi va ko'plab adib, tilshunos olimlarni yetishtiradi. Mahmudni o'tkir zehni va tirishqoqligini ko'rgan Abu Mudar uni o'ziga shogird qilib oladi va undan o'zining ilmiy va moddiy yordamini sira ayamasdan har taraflama tarbiyalaydi. Mahmud ham o'z ustoziga qattiq ixlos qo'yib, uning bilim va axloqiy fazilatlarini mukammal o'zlashtirishga harakat qiladi[583].

[582] Mahmud Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar & Ubaydulla Uvatov. Mahmud Az-Zamaxshariy | Xurshid Davron kutubxonasi https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/har-kunning-bir-hikmati-bor-zamaxshariy-hikmatlari.html

[583] Rustamov Alibek. Mahmud Zamaxshariy. – Toshkent: Fan, 1971. – 12-b.

Mahmud Zamaxshariy al-Isfahoniydan nafaqat chuqur bilim oldi, balki uning ilmiy yo‘nalishlari, asarlar yaratishdagi tartibotlarini tadqiqi qildi. Arab millatiga mansub bu olimning ta’sirida az-Zamaxshariy qalbida yoshligidan arablarga va arab tiliga samimiy muhabbat tuyg‘ulari qaror topdiki, bu holni olimning o‘zi ham ba’zi qasidalarida minnatdorlik hissi bilan ifodalaydi. U grammatikaga bag‘ishlangan “Al-Mufassal” asarini odamlarning istagini hisobga olib, “arab kalimalarini bilish uchun” yaratgani, “Muqaddamatu-l-adab” asarini esa “g‘ayri arablar arab tilini o‘rganmog‘i uchun” yozganini ta’kidlaydi.

Mahmud Zamaxshariy asarlarining muqaddimasida muttasil ravishda arab tilini arab madaniyatining quroli sifatida e’tirof etgan. Arab olimlari Zamaxshariyning ilmiy faoliyatiga chuqur ehtirom bilan qarab, u haqda shunday deganlar: “Arablar Movarounnahrni qurol bilan egallay olmadilar, lekin xorazmlik alloma o‘z hassasi bilan butun arab dunyosini egallab oldi”.

Mahmud Zamaxshariy Bag‘dodda shayxu-l-islom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, Abu Saad ash-Shaqqoniy, Abul Xattab ibn Abul Batar kabi mashhur olimlardan hadis ilmidan saboq oldi. Makkada esa nahv va fiqh bo‘yicha ilmni Abu Bakr Abdulloh ibn Talxa ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Yabariy al-Andalusiy, ash-shayx as-Sadiyd al-Xayyatiy, lug‘at ilmini esa Abu Mansur Mavhub ibn al-Xadar al-Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o‘rgandi[584]. Buyuk alloma hayoti davomida Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag‘dod va Hijozda yashadi, ikki marta Makkada bo‘ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili sarf va nahvi (grammatikasi) va lug‘atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf odatlarini chuqur o‘rgandi, mintaqa jug‘rofiyasiga oid qimmatli ma’lumotlarni to‘pladi. Biron-bir allomaga nasib etmagan yuksak maqomga - Jorulloh (“Allohning qo‘shnisi”) degan laqabga faqat buyuk vatandoshimiz Mahmud az-Zamaxshariy musharraf bo‘la olgan.

Mahmud Zamaxshariy ilmiy faoliyati va merosini ustozlari ta’sirida tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Sharq ilm-fan tarixida shogirdning kamol topishi bevosita ustozlarining ilmiy va ma’naviy yetukligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Allomaning ilmiy faoliyatida arab tili asosiy o‘rinni egallaydi. U o‘z asarlarini asosan arab tilida yozgan. I.Yu.Krachkovskiyning fikricha[585], kelib chiqishi arab bo‘lmagan Zamaxshariy arab madaniyatining ko‘zga ko‘ringan namoyandasi bo‘lib yetishgan. U arab tilini yoshligidan katta havas va ishtiyoq bilan o‘rgandi, arablarning hayoti va ularning urf-odatlarini, turli lahjalarini uzoq yillar tinimsiz tadqiq qildi. Olim arab tiliga alohida mehr bilan qarar edi. Shu boisdan ham, bu tilni chuqur o‘rganish, arab tilining grammatikasi, leksikasi, umuman, arab tilshunosligiga oid bir qancha muhim asarlarni yaratgan. Uning jahonga dong‘i ketgan “Muqaddamatu-l-adab”, “Al-Mufassal”, “Asosu-l-balog‘a” kabi yirik ta’liflari mana shu yo‘nalishda yozilgan asarlardir. Arablarning: “Agar xorazmlik shu ko‘sa, cho‘loq bo‘lmaganida, arablar o‘z tillarini bilmas edilar!” - deb lo‘nda qilib allomaga bergan bahosiga hech bir izohning hojati bo‘lmasa kerak[586]. Arab tiliga, uning behad katta imkoniyatlariga tan bergan alloma barcha asarlarini faqat arab tilida yaratgan. Bu tilni mukammal o‘zlashtirganligi, albatta, katta mehnat va tinimsiz izlanishlar samarasidir.

Zamaxshariy ustozlaridan nafaqat nazariy bilimlar majmuasini, balki ilmiy izlanishning metodologik asoslarini ham o‘zlashtirgan. Bu jarayonda ustozlarining qat’iy ilmiy intizomi, manba tanlashdagi ehtiyotkorligi, mantiqiy tahlilga asoslangan yondashuvi uning keyingi faoliyatida asosiy tamoyilga aylandi. Uning ilmiy shakllanishida ustozlarining hissasi faqatgina ma’lum bir

[584] Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar - Sharhlar muallifi va tarjimon Ubaydulla Uvatov. – Toshkent: Kamalak, 1992. – 12b.

[585] Krachkovskiy Ignatiy Yulianovich. Izbrannie sochineniya. – Tom 4 – Moskva - Leningrad: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR, 1957 –313-s.

[586] Uvatov Ubaydulla. Mahmud Zamaxshariy. – T.oshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,1995. – 35-b.

bilim doirasini o‘rgatish bilan cheklanmay, balki mustaqil ilmiy tafakkur, mantiqiy tahlil, dalillash madaniyati va adolat tamoyillarini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘ldi. Zamaxshariy o‘z asarlarida ustozlaridan olgan bilimlarni nafaqat ijodiy rivojlantirdi, balki ularni ilmiy maktab darajasiga ko‘tardi. Bu jarayon ilmning davomiyligi, ilmiy maktablarning shakllanishi va ma’naviy merosning avloddan-avlodga o‘tishini ta’minladi.

Mahmud Zamaxshariy va uning ilmiy maktabi Sharq ilm-fani tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning asarlari, xususan arab tili grammatikasi, balog‘at va tafsirshunoslikka oid ilmiy merosi, nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham Sharq va G‘arb olimlari tomonidan chuqur o‘rganilgan. Bu holat Zamaxshariy ilmiy merosining universalligi, uning ustoz-shogird an’anasiga tayanib shakllangan ilmiy qarashlarining yuksak ilmiy va ma’naviy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Zamaxshariy ijodiy faoliyatida ustozlarining ilmiy saboqlari va metodik ko‘rsatmalari hal qiluvchi rol o‘ynadi. Ustozlaridan olgan bilimlari asosida u arab tili nazariyasi va tafsirshunoslikda yangi bosqichlarni yaratibgina qolmay, balki o‘z shogirdlariga ham bu ilmiy an’analarni izchil yetkazdi. Natijada ustoz-shogirdlik tizimi orqali ilmiy bilimlarning uzluksizligi va barqarorligi ta’minlandi.

Bugungi davrda Zamaxshariy va uning ilmiy maktabi tajribasini o‘rganish, ta’lim tizimida ustoz-shogird munosabatlarining tarixiy ildizlarini chuqur anglash, yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma’naviy barkamol inson sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamaxshariy merosi nafaqat tarixiy qadriyat, balki hozirgi davr ilm-fani uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Haji Khalifa. Kashf al-Zunun ‘an Asami al-Kutub wa al-Funun. Qohira: Dar al-Sa’ada, 1894. – 506 b.
2. Ibn Xallikan. Kitob: Wafayat al-A’yan wa Anba’ Abna’ al-Zaman. Qohira: Dar al-Sa’ada, 1881.
3. Yaqut al-Hamawi. Mu’jam al-Buldan. Qohira: Matba’at al-Sa’ada, 1906.
4. Brockelmann C. Geschichte der arabischen litteratur. Bd. I. - Weimar, 1898. – 528 s.
5. Brockelmann C. Geschichte der arabischen litteratur. Bd. I. - Leiden, 1937. – 973 s.
6. Belkin V. M. Arabskaya leksikologiya. – M.: Izdatelstvo Moskovskogo universiteta, 1961. – 200 s.
7. Krachkovskiy I. Yu. Izbrannie sochineniya: V 4 t. T. 4. – M.–L.: Izd-vo AN SSSR, 1957. – 919 s.
8. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Fan, 1971. – 32 b.
9. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar - Sharhlar muallifi va tarjimon Ubaydulla Uvatov. – Toshkent: Kamalak, 1992. – 12b.
10. Uvatov U. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1995. – 72 b.
11. Mahmud Az-Zamaxshariy. Nozik iboralar & Ubaydulla Uvatov. Mahmud Az-Zamaxshariy | Xurshid Davron kutubxonasi https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/har-kunning-bir-hikmati-bor-zamaxshariy-hikmatlari.html.
12. https://www.bukhari.uz/?p=15523&lang=oz.

* * *

MARKAZIY OSIYODAN YETISHIB CHIQQAN BALOG‘AT ILMI OLIMLARI

SCHOLARS OF RHETORIC (ʿILM AL-BALĀGHA) WHO EMERGED FROM CENTRAL ASIA

Askarov Abdurashid Murodjonovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasi
dotsent v.b., filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Arab adabiyotining eng murakkab va nafis sohalaridan biri bo‘lgan balog‘at ilmi (arab. البلاغة – so‘z ustaligi), so‘zni o‘rinli, ta’sirli va go‘zal qo‘llash san’ati va ilmini o‘rganadi. Bu soha asosan Qur’onning beqiyos balog‘atini tushunish va tahlil qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Ushbu fan rivojiga islom olamining turli burchaklaridan, jumladan, Markaziy Osiyodan chiqqan ulug‘ allomalar ham o‘z hissalarini qo‘shgan.

O‘z davrining yirik mutafakkiri Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Jahiz (vaf. 868) balog‘at ilmiga asos solgan dastlabki olimlardan hisoblanadi. Uning “Kitob al-Bayon va at-Tabyin” (arab. كتاب البيان والتبيين – “So‘z ustaligi va tushuntirish kitobi”) asari bu sohadagi asos manbalardan biri bo‘lib, unda nutqning turlari, uning ta’sirchanligi va go‘zalligi masalalari tahlil qilingan. Jahiz asarida odamlar bilan suhbatlashish, nutq madaniyati va so‘zning ijtimoiy ta’sirini o‘rgangan.

Abdulqohir Jurjoniy (vaf. 1078) balog‘at ilmini haqiqiy fanga aylantirgan shaxs sifatida e’tirof etiladi. Undan oldin, Balog‘at ilmi asosan badiiy san’atlarni (masalan, o‘xshatish va majoz) sanab o‘tishdan iborat edi. Al-Jurjoniy esa o‘zining “Daloil al-I’jaz” (arab. دلائل الإعجاز – “Qur’onning mo‘jiza ekaniga dalillar”) va “Asror al-Balag‘a” (arab. أسرار البلاغة – “Balog‘at sirlari”) asarlarida mutlaqo yangi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha, gapning balog‘ati alohida so‘zlarning go‘zalligida emas, balki ularning ma’lum bir maqsadda tartiblanishi va o‘zaro bog‘lanishida, ya’ni nazmida (نَظْم)dir. Bu nazariya Balog‘at ilmi rivojida tub burilish yasadi.

Markaziy Osiyoning Xorazm diyoridan chiqqan buyuk olim Mahmud Zamaxshariyning (vaf.1144 balog‘at ilmiga qo‘shagan hissasi beqiyosdir. Uning “al-Kashshof” (arab. الكشاف عن حقائق التنزيل – “Qur’on haqiqatlarining kashfiyoti”) nomli Qur’on tafsiri o‘zining balog‘atga oid tahlillari bilan mashhur bo‘lgan. Zamaxshariy Qur’onning har bir oyatidagi so‘zlar va gaplarning joylashuvini Balog‘at ilmi nuqtai nazaridan tahlil qilgan. U oyatdagi so‘zlarning joylashuvi, majoziy ma’nolari va go‘zal san’atlarni tushuntirib bergan. Uning bu uslubi Balog‘at ilmini amaliyotda qo‘llashning eng yorqin namunasiga aylangan. Garchi uning tafsiri mo‘taziliya aqidasi tufayli ba’zi munozaralarga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, uning ilmiy ishlari, ayniqsa, balog‘at sohasidagi tahlillari ulamolar tomonidan yuqori baholangan va keyingi asrlar allomalari, jumladan, Sakkokiyga ham katta ta’sir ko‘rsatgan.

Bundan tashqari, Xorazm shahridan chiqqan Sirojiddin Yusuf Sakkokiy (vaf. 1229) balog‘at ilmini tizimlashtirgan va uni uch asosiy bo‘limga ajratgan olimdir. Uning “Miftoh al-Ulum” (arab. مفتاح العلوم – “Ilmlar kaliti”) asari keyingi asrlar uchun asosiy darslikka aylangan. Sakkokiy balog‘atni quyidagi uch qismga ajratdi:

- Ilm al-Ma’oniy (علم المعاني): gap tuzilishini va ma’nosini o‘rganadi.
- Ilm al-Bayon (علم البيان): majoziy iboralar va o‘xshatishlarni tahlil qiladi.
- Ilm al-Badi’ (علم البديع): so‘zga husn beruvchi san’atlarni o‘rganadi.

Ushbu tizim bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda va uning asari Balog‘at ilmida katta ahamiyatga ega.

Ibn al-Hojib nomi bilan tanilgan, to‘liq ismi Ali ibn Muhammad al-Xatib al-Qurayshiy (vafoti 1249) Misr va Damashq davrining buyuk ulamolaridan biri bo‘lib, arab tili grammatikasi (nahv), morfologiyasi (sarf) va uslubshunosligi (balog‘at) bo‘yicha o‘zining chuqur bilimi bilan mashhur edi. Uning balog‘at ilmiga qo‘shgan eng muhim hissasi “Mukhtasar al-Miftah” (arab. مختصر المفتاح) nomli ixcham asaridir.

“Mukhtasar al-Miftah” asari Balog‘at ilmi tarixida yangi sahifa ochgan Yusuf al-Sakkokiyning “Miftoh al-Ulum” kitobining balog‘at qismiga yozilgan qisqartma hisoblanadi. Aslida “Miftoh al-Ulum” ulkan hajmga ega bo‘lib, uni o‘rganish talabalar uchun qiyinchilik tug‘dirardi. Shuning uchun ham Ibn al-Hojib al-Sakkokiyning fikrlarini saralab, ularni oson o‘zlashtiriladigan shaklda taqdim etishni maqsad qildi.

Uning bu asari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- Ixchamlik va Liriklik: Ibn al-Hojib asarni juda ixcham va yod olish uchun qulay qilib yozgan. U asosiy qoidalarni qisqa va aniq jumlalar bilan bayon qilgan.
- Tizimli Tuzilish: U balog‘atning uchta asosiy bo‘limi – Ilm al-Ma’oniy, Ilm al-Bayon va Ilm al-Badi’ –ni tartibli ravishda bayon qilgan, bu esa o‘quvchiga ushbu fan tizimini oson tushunishga yordam bergan.
- Manba sifatida Ahamiyati: “Muxtasar al-Miftah” qisqa va lo‘nda bo‘lgani sababli tezda keng tarqaldi va madrasalarda asosiy darslikka aylandi. U al-Sakkokiyning “Miftoh al-Ulum” asarining g‘oyalarini ommalashtirishga xizmat qilgan.

Garchi Ibn al-Hojibning asari o‘zidan oldingi olim Sakkokiyning g‘oyalarini tizimlashtirishga qaratilgan bo‘lsa-da, u keyingi olimlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi. Uning qisqartmasi Balog‘at ilmi darsliklarining shakliga katta ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, Jaloliddin Qazviniy (vafoti 1338) o‘zining mashhur “Talkhis al-Miftah” (Miftohning qisqartmasi) asarini Ibn al-Hojibning bu yo‘nalishdagi ishi ta’sirida yozgan deb hisoblanadi. Al-Qazviniy o‘zining asarida ba’zi jihatlari bilan Ibn al-Hojibga ergashgan, ammo ba’zi jihatlarini takomillashtirgan.

Shu sababli, Ibn al-Hojibning nomi balog‘at ilmining rivojlanishida muhim bosqichlardan biri bo‘lib, u o‘zidan oldingi murakkab bilimlarni soddalashtirib, keyingi avlodlar uchun osonlashtirgan. Uning asari Balog‘at ilmiga oid ko‘plab sharhlar va izohlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan.

Jaloliddin Qazviniy (vaf. 1338) (arab. جلال الدين القزويني) al-Sakkakiyning “Miftoh al-Ulum” asarining balog‘atga oid qismini ixchamlab, “Talkhis al-Miftah” (arab. تلخيص المفتاح– “Miftohning qisqartmasi”) nomli yangi darslik yaratdi. Bu asar o‘zining qisqaligi va tushunarli uslubi tufayli islom olamidagi madrasalarda asosiy o‘quv qo‘llanmasiga aylandi. Undan keyin, al-Qazviniy o‘zining “Talkhis”ini sharhlab, “Al-Iyzah” (arab. الإيضاح– “Aniq qilib tushuntirish”) asarini yozdi. Al-Qazviniyning bu ishlari Balog‘at ilmini keng ommaga yoyishga yordam bergan.

Sa’diddin Mas’ud ibn Umar al-Taftazoniy (vaf. 1390) (arab. سعد الدين التفتازاني) Balog‘at sohasida al-Qazviniyning “Talkhis”iga yozilgan eng mashhur sharh muallifidir. Uning “Al-Mutavval” (arab. المطول– “Kengaytirilgan sharh”) asari Balog‘at ilmining barcha murakkab jihatlarini chuqur tahlil qilgan. Al-Taftazoniy bu asarda oldingi allomalarning fikrlarini umumlashtirib, mantiqiy asoslar bilan birgalikda taqdim etgan. “Al-Mutavval” asari o‘zining mukammalligi va ilmiy chuqurligi tufayli Balog‘at ilmida eng yuqori darajadagi manbalardan biri hisoblanadi.

Bu allomalar so‘zning nafisligini tushunish, Qur’on balog‘atini tadqiq etish va arab adabiyotining go‘zalligini anglashga yordam beradigan mustahkam ilmiy asos yaratganlar. Ularning asarlari bugungi kunda ham Balojg‘at ilmini o‘rganish uchun beqiyos manbalar bo‘lib xizmat qiladi.

Sayyid Sharif Jurjoniy (vafoti 1413) o‘rta asrlarning yetuk islom ulamolaridan biri bo‘lib, fiqh, kalom (islom ilohiyoti), mantiq va adabiyot sohalarida chuqur bilimga ega edi. Garchi u balog‘at

ilmi bo‘yicha alohida, mustaqil asar yozmagan bo‘lsa-da, bu ilmga oid yirik manbalarga yozgan sharhlari bilan katta shuhrat qozondi. Uning bu sohadagi eng muhim ishlari Jaloliddin Qazviniyning “Talxis al-Miftoh” asariga yozgan hoshiyalaridir.

Balog‘at ilmi o‘zining tizimli shaklini Sakkokiyning “Miftoh al-Ulum” asari orqali topgan edi. Keyinchalik Jaloliddin Qazviniy bu asarning balog‘atga oid qismini ixchamlashtirib, “Talkhis al-Miftoh” (qisqartma)ni tuzdi. Bu qisqartma tez orada eng mashhur balog‘at darsligiga aylandi.

Sayyid Sharif Jurjoniyning bu sohaga qo‘shgan hissasi aynan “Talxis al-Miftoh”ni mukammal tahlil qilib, unga “Hoshiya” (izohlar) yozishdan iborat bo‘ldi. U bu hoshiyalarida oldingi olimlarning fikrlarini chuqur o‘rgandi, ularning tortishuvli joylarini tushuntirdi va o‘zining mantiqiy xulosalarini bayon qildi. Uning bu izohlari sababli “Talxis al-Miftoh” o‘quvchilar uchun yanada tushunarli bo‘lib, murakkab masalalar yechimini topdi.

Sayyid Sharif Jurjoniyning uslubi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- Mantiqiy yondashuv: U balog‘at qoidalarini mantiq ilmi asosida tushuntirdi. Bu esa o‘quvchiga qoidalarning sabab va oqibatini anglashga yordam berdi.
- Qiyosiy tahlil: U turli olimlarning bir masalaga oid fikrlarini qiyoslab, ularning kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatdi.
- Aniqlik va tizimlilik: U murakkab iboralarni soddalashtirib, tartibli bayon etishga harakat qildi.

Sayyid Sharif Jurjoniy balog‘at ilmini alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganishdan ko‘ra, uni boshqa ilmlar bilan bog‘lagan holda tahlil qildi. Uning ishlari, asosan, tafsir, fiqh va kalom ilmlarida arab tilining balog‘iy xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. U yozgan hoshiyalar, sharhlar va izohlar asrlar davomida islom madrasalarida asosiy darsliklardan bo‘lib keldi. Uning “Hoshiya al-Talxis” asari bu ilmni o‘rganayotgan talabalar uchun bebaho qo‘llanma vazifasini o‘tadi.

Sayyid Sharif Jurjoniy balog‘at ilmini o‘zining mantiqiy tahlillari va sharhlari orqali yangi bosqichga olib chiqdi. Uning ishlari ushbu ilmni yanada o‘rganilishi, tushunilishi va o‘qitilishida muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, nafaqat boshqa diyorlar, balki, Markaziy Osiyo madaniyat, sivilizatsiya va ilm-fanining oltin beshiklaridan biri bo‘lgan. Bu o‘lkadan chiqqan Zamaxshariy, Sakkokiy, Taftazoniy kabi olimlar nafaqat o‘z davrida, balki butun islom olamida balog‘at ilmini rivojlantirishga bebaho hissa qo‘shishgan. Ular bu nafis san’atni tizimlashtirib, uni mustaqil bir ilm sifatida shakllantirishga kata hissa qo‘shganlar. Ularning asarlari bugungi kunga qadar islom maktablarida o‘rganilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

سعد الدين التفتازاني. شرح المطول تلخيص المفتاح. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2013. – 792 ص.
سعد الدين التفتازاني. شرح مختصر تلخيص المفتاح. – اسطنبول: دار الفاتح، 2017. – 704 ص.
سعد الدين التفتازاني. شرح مقدمة المفتاح. – دمشق: دار الفكر، 2020.– 793 ص.
بابن غريبردي. المنهل الصافي والمستوفي بعد الوافي. – ج. 11. – القاهرة: دار الكتب، 2005. – 356 ص.
بابن حجر العسقلاني. رمز الأبناء بأبناء الزمن. – ج. 2. – مصر: المجلس الأعلى للشؤون الإسلامية، 1998. – 582 ص.
بابن حجر. رمز الأبناء بأبناء الزمن. – ج. 1. – مصر: المجلس الأعلى للشؤون الإسلامية، 1998. – 502 ص.
بابن خلدون. تاريخ ابن خلدون. – لبنان، 2008. – ج. 3. – ص. 1101.
ابن عيسى بن عبد الله الرماني. النكت في إعجاز القرآن. – مصر: دار المعارف، 6791. – 483 ص.
ابن الحاجب. فوائد مختصر الأصول. – ج. 1. – بيروت، 5102. – 574 ص.
ابن المثني البصري. مجاز القرآن \ بتحقيق محمد فؤاد سركين. – القاهرة: الطبعة، 1831 ه. الجزء الثاني. – 254 ص.
ابن بحر الجاحظ. كتاب البيان والتبيين. – مكتبة النور، 6002. – 444 ص.
ابن رشيق القيرواني.العمدة في صناعة الشعر ونقده وعيوبه. – القاهرة: المكتبة الخانجي، 0002. – 9051 ص.
ابن حجر العسقلاني. إنباء الغمر بأنباء العمر. – ج. 2. – مصر، 8991. – 773 ص.
حيدر آباد: دائرة المعارف العثمانية، 3991. – 505 ص. -ابن حجر العسقلاني. الدرر الكامنة. – ج. 4.

ابن وهب. البرهان في وجوه البيان. – مصر: مكتبة الشباب، 7102. – 914 ص.
وبأ.حلافلا .تارذشد بهذلا بفي رابخأ نمز .ب. – ج. 8. – تورير، 1997. – 655 ص.
وبأ دبع سابعلا نبا الله زتعملا .كتاب عيدبلا \ محرشه هققحه هفرعه نافرطمجري. – تورير: هسسؤمه بتكلا هيفاقثلا، 2012. – 110 ص.
أبو نصر الفرابي.كتاب في المنطق. الخطابة \ تحقيق وتأليف د. محمد سليم سالم. – مصر: مطبعة دار الكتب، 6791. – 309 ص.
عبد الحميد الهنداوي؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-.أبو يعقوب السكاكي. مفتاح العلوم \ تحقيق د المعاني-البديع. – القاهرة، 9991. – 935 ص.
احسن عباس. تعريح النقد الاديب عند العرب. بيروت: دار العلمية، 4891. – ص. 82.
Muqaddima. Ibn Xaldun al-Hadramiy. 3-jild. – Bayrut, 1957.
Ad-duraru-l-kamina fi a'yani-l-miati-s-samina. Ahmad ibn Ali ibn Muhammad ibn Hajar al-Asqaloniy. 5-jild. – Haydarobod, 1983.
Kashfu-z-zunuz an asamili kutub va-l-funun. Mustafo ibn Abdulloh Hoji Xalifa. 1-jild. – Damashq, 1994.

* * *

TERMIZ TASAVVUF MAKTABI NAMOYANDASI BURHONIDDIN MUHAQQIQ TERMIZIYNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI

EDUCATIONAL AND PEDAGOGICAL VIEWS OF BURHANUDDIN MUHAQQIQ TERMIZI, A REPRESENTATIVE OF THE TERMEZ SCHOOL OF SUFISM

Abdunabiyev Sunnat Ne'mat o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: sunnat.abdunabiyev@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Termiz tasavvuf maktabining yirik namoyandasi Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari o'rganiladi. Uning ilmiy-ma'naviy merosi, talaba-murid tarbiyasiga qo'ygan talab va metodlari, shuningdek, ruhiy-ma'rifiy yetuklikka erishish yo'lidagi ta'limiy yondoshuvlari tahlil qilinadi. Maqolada Burhoniddin Termiziy ta'limotining pedagogik tamoyillari zamonaviy tarbiya nazariyalari bilan solishtirib yoritiladi.

Kalit so'zlar: Burhoniddin Termiziy, tasavvuf, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, Termiz maktabi, murshid-murid munosabati, pedagogika.

Аннотация: В данной статье рассматриваются взгляды выдающегося представителя Термезской суфийской школы Бурхониддина Мухаккика Термизий на вопросы образования и воспитания. Анализируется его научно-духовное наследие, требования и методы воспитания учеников и мюридов, а также образовательные подходы, направленные на достижение духовного и нравственного совершенства. В статье педагогические принципы учения Бурхониддина Термизий сопоставляются с современными теориями воспитания.

Ключевые слова: Бурхониддин Термизий, суфизм, образование, воспитание, духовность, Термезская школа, отношения между муршидом и мюридом, педагогика.

Abstract: This article explores the educational and pedagogical views of Burhoniddin Muhaqqiq Termizi, a prominent figure of the Termiz Sufi school. It examines his spiritual and scholarly legacy, the principles and methods he applied in educating students and disciples, as well as his approaches

to achieving spiritual and moral maturity. The pedagogical foundations of Burhoniddin Termizi’s teachings are also analyzed in comparison with modern educational theories.

Keywords: Burhoniddin Termizi, Sufism, education, upbringing, spirituality, Termiz school, murshid-murid relationship, pedagogy.

Termiz tasavvuf maktabining yirik namoyandalaridan biri hisoblangan Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy (1165–1241-yy.) Jaloliddin Rumiy (Muhammad ibn Muhammad ibn Husayn ibn Ahmad Balxiy Ko‘nyaviy Rumiy, 1207-1273 yy.), uning o‘g‘li Sulton Valad (1226-1312 yy.), Zarko‘b nomi bilan mashhur Salohiddin ibn Faridun Ko‘nyaviy kabilarga ustoz va Rumiyning otasi Bahouddin Valadning (Muhammad ibn Husayn ibn Ahmad Xatib Bakriy, 1148-1232 yy.) yaqin shogirdlaridandir. Jaloliddin Rumiyning otasi o‘g‘lini yoshligidan boshlab o‘z shogirdi Burhoniddin Termiziyga topshirgan va u Rumiyga uzoq yillar davomida Balxda ham, Turkiyadagi saljuqiylar poytaxti Ko‘nyada ham ustozlik qilgan. Insoniyatga Rumiydek zotni taqdim etishda bu olimning ulkan xizmati borligi barcha tomonidan e’tirof etiladi. Olim Turkiyadagi ayrim madrasalarda ham dars berib, u yerdagi hujralarda oddiy hayot kechirgan. U zot doimiy jazba, vajd va istig‘roq holatida yashagan. Turkiyaning Qaysari shahrida vafot etgan bu tariqat arbobining vafot yili borasida ikki xil sana keltiriladi: biri 1240, boshqasi 1275 y. Qabr toshlarining ustiga 561-638/1165-1240 sanalari bitilgan. Keyinchalik allomaning qabri ustiga maqbara qurilib, ziyoratgohga aylantirilgan va u bugungi kungacha ziyoratchilar tashrif buyuradigan obod maskan sifatida saqlanib kelmoqda[587].

Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy Hazrat Husayn avlodidan bo‘lib, Sayyidlar silsilasidan hisoblanadi. Qimmatli fikrlar va go‘zal holatlar sohibi bo‘lgani uchun “Sayyid-i Sirron” (Sir egasi bo‘lgan Sayyid) nomi bilan mashhur bo‘lgan. Uning nisbati “Husayniy”dir. Milodiy 1165–1166-yillarda, hijriy 561–562 yillarda hozirgi O‘zbekiston hududidagi Termiz shahrida tug‘ilgan.

Ilk tahsilini otasi huzurida olgan. Ilm o‘rganishga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi sababli Balx shahriga borib, Sulton ul-ulamo Bahouddin Valad hazratlariga shogird bo‘lgan. Ustozining xizmatida o‘n ikki yil davomida xizmat qilgan. Shu vaqt davomida barcha ilmlarni egallab, yuksak ma’naviy darajalarga erishgan.

Ustoz Bahouddin Valad o‘z o‘g‘li – Jaloliddin Rumiyning tarbiyasini Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning zimmasiga topshirgan. Shu sababli u Rumiyning tarbiyachisi va atabeki sifatida mashhur bo‘lgan.

Sulton ul-ulamo Bahouddin Valad oilasi bilan birga Anadoluga hijrat qilgach, ustozini ziyorat qilish uchun Balxga kelgan Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy ustozining Anadoluga ko‘chib ketganini bilgach, o‘zining tug‘ilgan shahri — hozirgi O‘zbekistonning Termiz shahriga qaytib joylashdi[588].

Ustoz Bahouddin Valadning vafoti xabarini ma’naviy ilhom orqali olgan Sayyid Burhoniddin o‘ziga ishonchli bir nechta do‘stlarini yoniga olib, Konya shahriga yo‘l oldi. Konya shahriga yetib kelganida, ustozining vafotiga bir yil bo‘lgan edi. Sayyid Burhoniddin ustozidan olgan ilmlarni o‘rgatish uchun Jaloliddin Rumiyning ta’limi bilan shug‘ullandi. U Rumiyga ustozidan o‘rgangan barcha ilmlarni yetkazdi va tarbiyachilik vazifasini to‘liq ado etdi.

Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy Qaysariya shahrida Sulton Alaaddin Kayqubodning rafiqasi Mahperi Xotun tomonidan qurilgan madrasada dars bergan.

Avliyo Chalabiy Sayyid Burhoniddinning qabri Qaysariyada ziyoratgoh sifatida mashhur bo‘lganini yozadi.

[587] Ahmad Aflokiy. Manoqibul orifin. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul. 1989. – B. 172.
[588] Faridun Sipohsolor. Risola: Mavlono va atrofidagilar. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul, 1977. – B. 117-120.

Bugungi kunda mavjud bo‘lgan maqbara esa 1894-yilda, Sadrazam Ahmad Javod Poshoning Sulton Abdulhamid IIga bergan ma’lumotnomasi asosida, “Masnaviy” tarjimoni va o‘sha davrdagi Anqara valisi Obidin Poshoning yordami bilan vaqf mablag‘lari hisobidan qurilgan.

Tasavvuf tarixi haqida gap ketganda, qaysi so‘fiy olinsa ham, ularning hayotida turli o‘zgarishlar, rivojlanish bosqichlari orqali kamolot yo‘lini bosib o‘tganini ko‘rish mumkin. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy hayotida ham aynan shunday o‘zgarish va ma’naviy o‘sish kuzatilgan. Uning ustozlaridan biri bo‘lgan Sulton ul-ulamo Bahouddin Valad — Anadoluga bora olmagan, lekin uning tashqarisida tashkil topgan tariqatlardan biri bo‘lgan Najmuddin Kubro (vafoti hijriy 618 / milodiy 1221-yil) tomonidan Xorazmda asos solingan Kubraviyya tariqatining xalifasidir. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy o‘zining barcha ilmiy-ta’limiy bilimlarini ustozidan — Sulton ul-ulamo Bahouddin Valaddan olgan bo‘lib, Kubraviya tariqati ta’limotini Anadoluda tarqatgan va bu ta’limotni Mavlonoga ham singdirgan[589].

Sulton ul-uloama Bahouddin Valad (vafoti hijriy 628 / milodiy 1231)ning muridi, Mavlono Jaloliddin Rumiy (604 / 1207 – 672 / 1273)ning ustozi va murshidi bo‘lgan Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy haqida Mavlono asarlarida va Mavlaviya tariqati manbalarida shunday ifodalar uchraydi:

“Avliyolar va haqiqat izlovchilarning toji, pok va orif kishilarning mohiyati, jazba egalari maqtagan, nozik tafakkurli, kashf va sirlar sohibi”[590].

Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy nafaqat Termiz tasavvuf maktabining ko‘zga ko‘ringan namoyandasi, balki butun islom olamida katta ta’sir qoldirgan buyuk mutasavvifdir. Uning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari, xususan, Jaloliddin Rumiy kabi allomaning kamolotida tutgan o‘rni so‘fiylikdagi ustoz-shogird munosabatlarining eng yorqin namunalaridan sanaladi. Burhoniddin Termiziy hayotligida nafaqat diniy, balki axloqiy, ma’naviy-ruhiy tarbiyada ham yetakchi rol o‘ynadi. Uning ilmiy-ma’naviy merosi, pedagogik yondashuvlari, zamonaviy ta’lim nazariyalari shular bilan hamohang tarzda o‘rganilishi lozim bo‘lgan bebaho manba hisoblanadi. Bu jihatdan u nafaqat tarixiy shaxs, balki bugungi ta’lim jarayonlarining ilhom manbai hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmad Aflokiy. Manoqibul orifin. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul. 1989.
2. Cho‘tmatov J. Termiz tasavvuf maktabi. – Termiz: Kitobnashr, 2025. – 56 b.
3. Faridun Sipohsolor. Risola: Mavlono va atrofidagilar. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul, 1977. – B. 117–120.
4. Lewis F. D. Rumi: Past and Present, East and West: The Life Teaching and Poetry of Jalâl al-Din Rumi, Oxford 2000. – P. 96-118.
5. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Fihi ma fihi Ahmad Avni Konuk tarjimasi. – Istanbul. 1994.
6. Necîb Mâyil-i Herevî, “Burhân-ı Muḥaḳḳıḳ”, DMBİ, XII, 59-61.
7. Sulton Valad. Ibtidonoma. Abdulboqi Gulpinorli tarjimasi. – Anqara. 1976.

* * *

[589] Lewis F. D. Rumi: Past and Present, East and West: The Life Teaching and Poetry of Jalâl al-Din Rumi, Oxford 2000. – P. 96-118.

[590] Sulton Valad. Ibtidonoma. Abdulboqi Gulpinorli tarjimasi. – Anqara. 1976. – B. 41.

YETTISHAHAR DAVLATIDA ISLOM ULAMOLARI
(Muso Sayromiy asarlari asosida)

ISLAMIC SCHOLARS IN THE STATE OF ETTISHAHAR
(Based on the works of Musa Sayromy)

Abduhamidov Jalol Ilash o‘g‘li
Samarqand davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi tayanch doktoranti

Uyg‘ur tarixchisi Muso Sayramiyning “Tarixi aminiya” (“tinchlik va omonlik tarixi”) va “Tarixi homidiy” asarlari pskentlik Muhammad Yoqubbek (1820-1877)ning Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkistondagi hayoti va faoliyati haqidagi muhim manbalar hisoblanadi. Asar muallifi Sharqiy Turkistondagi Sayram qishlog‘ida tug‘ilgan bo‘lib, Kuchardagi mulla Usmon oxund madrasasida o‘qigan. 1864-yildagi qo‘zg‘olonlarda ishtirok etgan. 1867-1877-yillar davomida Muhammad Yoqubbekning Oqsuvdagi zakotxonasida mirza lavozimida yetti yil ishlagan. U bir necha marta Muhammad Yoqubbekning huzurida birga, bir dasturxonda o‘tirib choy ichgan. Keyinchalik u butun Sharqiy Turkistonni aylanib chiqib o‘z asari uchun ma’lumotlar to‘plagan. “Tarixiy aminiya” asarini 1903-yilda yozib tugatgan. Bu asar N. Pantusov tomonidan 1905-yilda Qozonda toshbosma nashri ham amalga oshirilgan. Keyinchalik ushbu asarga yana qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldirib, 1908-yilda “Tarixi Hamidiy” nomi ostida muallif tomonidan qayta yozilgan. Asar 1986-yilda Pekinda nashr uyg‘ur tilida nashr qilingan. Muso Sayramiy umrini oxirgi yillarini u Oqsuvda o‘tkazgan.

“Tarixi aminiya” asari debocha, bir muqaddima, ikki doston va bir xotimadan iborat bo‘lib, aksariyat musulmon tarixnavisligi an’analariga ko‘ra Odam ato, Nuh alayhissalom, Muhammad payg‘ambar (S.A.V.) ga na’t bilan boshlanib, Chingizxon, va Chig‘atoy davrida Mo‘g‘iliston (hozirgi Sharqiy Turkiston), Yorkend xonligi (1514-1759), Ching imperiyasi (1644-1911)ning Sharqiy Turkistondagi xukmronligi ham Muhammad Yoqubbekning Yettishahar davlati (1864-1877) tarixini bayon qilgan. Asar muallifi bevosita o‘zi ko‘rgan-kechirganlarini yozib qoldirish bilan birga, keyinchalik bu ma’lumotlarga tegishli hujjatlar to‘plagan hamda har bir voqea-hodisani qayta-qayta tahlil qilgan. “Tarixi aminiya” asarining 29-34 betlarida Yorkend xonligi (1514-1759) vorislaridan biri Jahongirxo‘janing Sharqiy Turkistonda Ching imperiyasi qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarishi va uning iltimosi bilan Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1822-1842)ning Qashqarga yurishi, Qo‘qon xonligi va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari yoritilgan.

Asarda qayd etilishicha, 1865-yilda Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan Toshkent bosib olingach, toshkentlik va qo‘qonlik sarkardalar Hamdam boturboshi, Turobxo‘ja yasavul, Abdulloh pansod, G‘ozibek pansod, Muhammadquli shig‘ovul, Xo‘ja kalon xudoychi, Isroilxonto‘ra, Umarqul baxodir, Boqibek dodho va jami yetti mingdan ortiq kishi Qashqarga o‘tib kelgan . Muhammad Yoqubbek Qo‘qon xonligi ustaxonalaridan mohir va komil ustalarni o‘z davlatiga oldirib kelib, dastlab Qo‘qon xonlari Mallaxon (1858-1862) hamda Sayid Sulton(1863-1865)lar nomidan tilla tanga chiqargan .

Qo‘qon adabiy muhitida shakllangan Akmal Toshkandiy, 1866-yili shoir Toib bilan birga, qo‘qonlik Pisandiy ham Qashqar va Yorkendda bo‘lgan. Sharqiy Turkistonda bu davrda Furqat, hamda tarixchilardan Imom Ali Qunduziy, Mirza Shams Buxoriy, Muhammad Toyib Muhammad Amin o‘g‘li, Muhammad Umar qori Umidiy Marg‘iloniylar ijod bilan shug‘ullanganlar. Ular Sharqiy Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida faol ishtirok etganlar.

Akmal Toshkandiy asarida qayd etilishicha, Muhammad Yoqubbekning kuyovi 1830-yillarda Toshkentda tug‘ilgan Akmal Sayidahmadxon o‘g‘li Toshkandiy – XIX asrda yashab ijod etgan zullisonayn shoir bo‘lgan. 1865-1877-yillari Yoqubbekning shaxsiy kotibi va Qashqar qozisi bo‘lib ishlagan bu shaxs shahar obodonchiligi va osoyishtaligi uchun katta xizmat qilgan. Muhammad Yoqubbek vafotidan so‘ng, u Toshkentga qaytib kelib, maktab ochgan. Uyg‘ur tarixchisi Muso Sayromiy u haqda shunday yozgan: “Va yana Akmalxon to‘ram edilar, fozil, uloma, boinsof kishi edi. Ismlariga muvofiq darvoqe komil va akmal edilar”, – deya ta’rif berilgan .

Muso Sayramiyning “Tarixi aminiya” asarida Yettishahar davlatidagi mashhur kishilarning ro‘yxatini keltirib o‘tadi:

Ulamolar:

1. Buzrukxonto‘ra
2. Kattaxonto‘ra
3. Kichikxonto‘ra
4. Ismoilxonto‘ra
5. Hakimxonto‘ra

Olimlar:

1. Mahmudxo‘ja
2. Ahmadxo‘ja
3. Akmalxonto‘ra
4. Sayiid Ardloniy
5. Sayiid Ahroriy
6. Devona Ota

Qorilar:

1. Qori Mullo Solih
2. Mulla Solih
3. Mir Muhammad Oxund
4. Abdurashid a’lam
5. Abduholiq eshon
6. Ziyovuddin domla
7. Mulla Qosim A’lam
8. Ne’mat oxund

Eshonlar:

1. Kabir Sohib hazrat
2. Miskinshoh Soyib hazrat
3. Mulla Ibrohim qoziqalon
4. Mulla Abdulla oxund
5. Mulla Muhammad Xasan
6. Mulla Ismoil mufti
7. Mulla Abdulatifhoji
8. Mulla Usmonxon xoji
9. Shamsiddin a’lam
10. Eshonhoji hazrat
11. Mir G‘iyosiddin
12. Mulla Abdulqodirxoja
13. Imom Rabboniy Majid Alif soniy
14. Ma’sumxo‘ja

15. Mulla Sidiq hazrat
16. Mulla Ibrohim
17. Mulla Norqul oxund
18. Mulla Saodat oxund
19. Mulla Akromshoh qozi
20. Mulla Yusuf oxund
21. Mulla Olloyor oxund
22. Mulla Alixoji
23. Mulla Abdulqodir oxund
24. Mulla Ahmadhoji
25. Qozi Surh Abi
26. Mulla Temurxoji
27. Mulla Sobit oxund
28. Mulla Po‘latshayh

Xulosa qilib aytganda Muso Sayromiyning asarlarida Turkistondan Yettishahar davlatiga borib o‘rnashgan ulamolar va Sharqiy Turkistondagi diniy ulamolarning o‘zaro munosabatlari hali yetarlicha tadqiq qilinmagan. Diniy mansabdorlar, imomlar, qorilarning hayoti va faoliyati to‘g‘risida hali yetarlicha tadqiqot olib borilmagan. Ushbu ma’lumotlar O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkiston tarixini yoritilishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ikki o‘lkaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari tarixi, Xitoydagi va Sharqiy Turkistondagi o‘rta osiyolik savdogar, hunarmand, shoir, adib, ulamolarning hayoti va faoliyati, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida istiqomat qilgan sharqiy turkistonliklar ijodi haqidagi masalalarnini tadqiq qilishi faktik materiallar beradi. Shuningdek, Sharqiy Turkistondagi Yettishahar davlatining ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlari ham bu manbalarda to‘liq o‘z aksini topgan.

* * *

ASABIYYA VA JAMIYAT: IBN XALDUN MEROSI VA MARKAZIY OSIYODAGI ZAMONAVIY IJTIMOIY RIVOJLANISH.

ASABIYYA AND SOCIETY: IBN KHALDUN’S LEGACY AND CONTEMPORARY SOCIAL DEVELOPMENT IN CENTRAL ASIA

Nazirov Sherzodbek Rustamsher o‘g‘li
Andijon Davlat Universiteti Falsafa fakulteti,
ijtimoiy falsafa yo‘nalishi mustaqil tadqiqotchisi.
sherzodbeknazirov90@gmail.com

Annotatsiya: Ibn Xaldun (1332–1406) musulmon dunyosi va islom sivilizatsiyasining eng buyuk tarixchilaridan biri bo‘lib, Ibn Xaldun o‘zining mashhur “Muqaddima” asarida jamiyatning mustahkamligi va barqarorligi uchun asosiy tayanch sifatida asabiyya-ijtimoiy birdamlik va guruhiy ruhni ilgari suradi. Uning ta’kidlashicha, har qanday sivilizatsiyasining rivojlanishi, jamiyat ichida o‘zaro ishonch, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va umumiy maqsad sari harakat qilishga bog‘liq nazariyalar yoritilib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ibn Xaldun, asabiyya, ijtimoiy birdamlik, Markaziy Osiyo, islom tafakkuri, jamoa, sivilizatsiya, jamiyat nazariyasi, barqarorlik, korrupsiya, fuqorolik jamiyati.

Islom sivilizatsiyasining ijtimoiy tafakkur merosida har bir jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi o‘zaro birdamlik, ijtimoiy adolat va axloqiy qadryatlarga asoslanishi zarurligi ta’kidlangan. Ushbu g‘oyalarni chuqur va tizimli tarzda nazariy asosga solgan ulig‘ mutaffakir Ibn Xaldun ijtimoiy fanlar tarixida ilk olimlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bugungi Markaziy Osiyo jamiyatida ijtimoiy birdamlik, jamoaviy hamkorlik va mahalla institutlarining axamiyati tobora ortib bormoqda. Bu jarayonlar tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, ularni anglashda Ibn Xaldunning ijtimoiy nazariyalari – xususan, “asabiyya” tushunchasi muhim nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyo tarixida, ayniqsa, islomiy ijtimoiy tafakkurda, asabiyya g‘oyasiga yaqin bo‘lgan tushunchalar mavjud: “ummat”, “jamoa”, “mahalla” kabi qadryatlar jamiyat hayotida muhim ijtimoiy tushinchaga aylangan. Ibn Xaldun nazariyasiga ko‘ra, kuchli asabiyya- kuchli boshqaruv va mustahkam jamiyat kafolatidir. Markaziy Osiyodagi tarixiy tajriba ham buni tasdiqlaydi, Buxoro amirligi, Qoqon xonligi va boshqa davlatlarda jamiyatning ichki uyg‘unligi zaiflashgan sari siyosiy inqirozlar yuz bergan.

Ibn Xaldun o‘z asarida quyidagi jumlani yozadi: “Zotan tarix bir qarashda, faqat siyosiy voqealar, sulolalar va o‘tmishdagi xodisalar haqidagi ma’lumotlardek tuyiladi. Ammo u bizga insoniyat xayotidagi voqealarni tushinishga yordam beradi. Voqealiklar qanday yoritilgani, davlatlarning chegaralari va ularning hududlari qay tarzda kengayib, ma’lum yerlarni egallagach, vaqt o‘tib o‘z o‘rnini qanday bo‘shatib ketganini va qanday qilib zavolga yuz tutganini aynan tarix bizga ko‘rsatadi. Tarixning qa’riga nazar tashlaganimizda, u voqealarning sabablarini va ularning kelib chiqishini teran tahlil etish, mavjud narsalarning qanday va nima sabadan yuzaga kelganligini nozik tarzda anglashni o‘z ichiga olishini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham tarix falsafa ichiga chuqur o‘rnashgan deyishimiz va unga falsafaning bir bo‘lagi sifatida qarashimiz joiz”.[1.b.9]

Xususan, davlat rahbari Sh. M. Mirziyoyev tarixni o‘rganish va o‘rgatish vazifalari haqida “Biz shu vaqtgacha tarixning o‘zimizga yoqqan joylarini olib, yoqmagan tomonini yashirib o‘tdik. Birovga yoqadimi-yoqmaydimi, g‘ururimiz-armonimizmi, muvaffaqqiyatmi yo xiyonatmi- hammasini haqqoniy yozish kerak”, deya ta’kidladi prezident.[2.b.1]

Har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyoti ijtimoiy birdamlik, o‘zaro ishonch va adolatli boshqaruvga asoslanadi. Ibn Xaldun “Muqaddima” asarida chuqur nazariy asosda yoritib, ijtimoiy birdamlik – asabiyya tushunchasini sivilizatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta’kidlagan edi. Bugungi kunda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”[3.b.1], degan chaqiruvi aynan shu tarixiy g‘oyaning zamonaviy ifodasidir.

Ijtimoiy birdamlik, jamoatchilik ishtiroki, mahalla institutlarining faoliyati, fuqorolarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan islohatlar barchasi Ibn Xaldun ta’riflagan kuchli jamiyat modeliga yaqinlashish yo‘lida tashlanayotgan muhim qadamlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Demak, zamonaviy O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohatlar nafaqat amaliy, balki chuqur tarixiy va nazariy asosga ega bo‘lib, bu borada Ibn Xaldun merosi hozirgi davrda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ibn Xaldun o‘zining ilmiy-falsafiy qarashlari bilan O‘rta asr musulmon tafakkuri va jahon ijtimoiy fanlarining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirlardan biridir. Uning g‘oyalari tarix falsafasi, sotsiologiya, siyosatshunoslik va iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligini ochib beruvchi kompleks tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ibn Xaldunning asosiy ilmiy yangiliklaridan biri bu jamiyatning rivojlanishini tsiklik jarayon sifatida tushuntirishdir. Uning fikricha, har qanday davlat yoki sivilizatsiya uch bosqichni boshdan kechiradi:

1. Barqarorlik va rivojlanish bosqichi – jamiyat kuchli ijtimoiy birdamlik (asabiyya) asosida shakllanadi.

2. Gullab-yashnash bosqichi – iqtisodiy va siyosiy barqarorlik tufayli davlat qudratga erishadi.

3. Inqiroz bosqichi – ortiqcha farovonlik, korrupsiya va ijtimoiy birdamlikning zaiflashishi sababli davlat inqirozga yuz tutadi. Ibn Xaldun tarixni faqat voqealar majmuasi sifatida emas, balki uning tub sabablarini, qonuniyatlarini va tsiklik xususiyatini o‘rganish lozimligini ta’kidlagan. U tarixiy jarayonlarning sabab-oqibat bog‘liqligini tahlil qilish orqali o‘z davrida ilg‘or ilmiy metodologiyani yaratgan. Ijtimoiy birdamlik (asabiyya) nazariyasi uning eng muhim g‘oyalaridan biri bo‘lib, jamiyatning rivojlanishida asosiy omil sifatida talqin qilingan. Uning fikricha, davlatlarning kuchayishi yoki tanazzulga yuz tutishi bevosita ijtimoiy birdamlikning darajasiga bog‘liq. Shuningdek, Ibn Xaldun jamiyat rivojlanishining iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liqligini tushuntirib, iqtisodiyotning siyosiy barqarorlikdagi rolini ochib bergan. Uning iqtisodiy nazariyasi mehnat, ishlab chiqarish va iste’mol munosabatlari orqali rivojlanadi. Uning falsafiy tafakkuri Aristotel, Al-Farobiy va Ibn Sino ta’sirida shakllangan bo‘lsa-da, u tarixiy jarayonlarni tahlil qilishda mustaqil yondashuvni ishlab chiqqan. Ibn Xaldun tarixni falsafaning bir qismi sifatida tushunib, uni tafakkur orqali tahlil qilish zarurligini ilgari surgan.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi doirasida jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va barqaror jamiyat qurish davlatning umumiy rivojlanishining muhim poydevoridir. Ushbu yo‘nalish fuqarolarning teng imkoniyatlari, qonun ustuvorligi va ishtirokchi boshqaruv tizimi asosida, shuningdek, madaniy merosni tiklash va zamonaviy infratuzilma orqali mustahkamlanadi[4.b.1] Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha yangi bosqichdagi islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2017-yilda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”[5.b.1] qabul qilinib, unda sud-huquq tizimini isloh qilish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Ushbu strategiya doirasida sud tizimini demokratlashtirish, fuqarolarning adolatli sudlovga bo‘lgan huquqini mustahkamlash hamda huquqiy institutlarni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

Ibn Xaldunning iqtisodiy va ijtimoiy nazariyalari bugungi O‘zbekiston jamiyatining rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning iqtisodiy tamoyillari O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni bilan bog‘liq. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar davom etayotgan bir paytda, Ibn Xaldunning soliq siyosati va iqtisodiy barqarorlik haqidagi g‘oyalari zamonaviy boshqaruvda qo‘llanishi mumkin. Uning fikricha, iqtisodiy rivojlanish barqaror siyosiy tizim va mehnat munosabatlariga asoslanishi kerak. Shuningdek, Ibn Xaldunning ijtimoiy birdamlik (asabiyya) haqidagi nazariyasi ham O‘zbekiston jamiyatining rivojlanishi uchun dolzarbdir. U jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida milliy birdamlik, ijtimoiy hamkorlik va fuqarolik jamiyatining ahamiyatini tushuntiradi. Uning tarixiy tsikllar nazariyasi esa O‘zbekistonning siyosiy barqarorligi uchun ham muhim. Har bir davlat o‘zining rivojlanish bosqichlaridan o‘tishini hisobga olgan holda, barqarorlikni ta’minlash uchun ijtimoiy birdamlik va iqtisodiy strategiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati;

1. Абдурахмон ибн Мухаммад ибн Халдун, Мукаддима. Тошкент, 2024. Б-9
2. https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/31/president/
3. https://kun.uz/news/2021/11/06/prezident-rahbar-xalqqa-yuk-bolmasligi-aksincha-xalqning-yukini-yelkasiga-olishi-kerak
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son// https://lex.uz/docs/-5841063
5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida// https://lex.uz/mact/-3107036

* * *

MUHAMMAD MIRAK TOSHKANDIY ILMIY MEROSINING O‘RTA ASRLAR ARAB TILSHUNOSLIGIDA TUTGAN O‘RNI

THE ROLE OF MUHAMMAD MIRAK TASHKANDI’S SCIENTIFIC HERITAGE IN MEDIEVAL ARAB LINGUISTICS

Rasulova Zebiniso Xakim qizi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Lingvistika (arab tili) yo‘nalishi 2-kurs magistranti,

Ilmiy raxbar: Z.N.Shakirova

Arab tili qadimdan o‘zining jozibadorligi bilan boshqa tillar orasida ajralib turgan. Asrlar davomida ushbu til bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy yo‘nalishlar shakllangan. Arab tilini o‘rganishga nafaqat musulmonlar, balki boshqa xalqlar ham qiziqish bildirgan. O‘rta asrlarda arab tili grammatikasiga oid ko‘plab asarlarning yaratilishi ushbu tilning tarixiy taraqqiyotidan dalolat beradi. Uning rivojlanishiga yurtimizdan yetishib chiqqan Mahmud Zamaxshariy, Mu’izziy, Izziy, Sakkokiy, Taftazoniy va boshqa ko‘plab allomalar ham katta hissa qo‘shgan. Ularning asarlari ilm dargohlarida alohida fan sifatida o‘qitilgan. Ayniqsa, bu olimlarning arab tilshunosligiga oid yozgan asarlari o‘zining mukammalligi, uslubining ravonligi va o‘ziga xosligi bilan arab dunyosida ham shuhrat qozongan. Bugungi kunda ham ularning ilmiy merosi yirik tadqiqot ishlarining obyekti bo‘lib qolmoqda.

Arab tilshunosligining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan ana shunday olimlardan biri Movarounnahr diyorida tug‘ilgan Muhammad Mirak at-Toshkandiydir. U XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashagan bo‘lib, bu davr Shayboniylar sulolasi hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Manbalarda uning hayoti haqida aniq tarixiy ma’lumotlar kam uchraydi. Jumladan, allomaning tug‘ilgan sanasi aniq emas, vafoti esa hijriy 980-yilda (milodiy 1572-yil) deb taxmin qilinadi.

Muhammad Mirak Toshkandiy haqidagi ma’lumotlar Kafaviyning “Kataibu-l-a’lam” (“Atoqli shaxslar jamoasi”)[591], Atoiyning “Hadaiqu-l-haqoiq” (“Haqiqatlar gulshani”[592]) asarlarida uchraydi. Shuningdek, u o‘zining “Shahri va Guli”[593] asarida shaxsiy hayoti haqida ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Olimning “Ujalatu-l-bayan fi sharhi-l-mizan” asarini ko‘chirgan xattot Hasan ibn Ali qo‘lyozmaning birinchi sahifasini Toshkandiyning hayotiga bag‘ishlagan[594]. Undagi ma’lumotlar Kafaviyning “Kataibu-l-a’lam” asaridan olinganini ta’kidlagan. Atoiy esa olim haqida to‘liq ma’lumotga ega emasligini va uning keltirganlari “Kataibu-l-a’lam” kitobida mavjudligini bayon qilgan[595].

Toshkandiy o‘zining “Shahri va Guli” asarida ismining Muhammad ekanligini qayd etgan. “Mirak” esa fors tilidan olingan bo‘lib, “rahbar” yoki “amir” ma’nolarini anglatadi va olimning laqablaridan biri sanaladi. Shuningdek, u o‘z asarlarida “Naqshbandiy” nomini tilga olgan bo‘lib, bu uning naqshbandiya tariqati vakili ekanligidan dalolat beradi. Manbalarda keltirilishicha, Toshkandiyning nasabi Chig‘atoy turklaridan Baroqxonga borib taqaladi[596]. Baroqxon Shayboniylar sulolasining yettinchi sultoni bo‘lib, 1551–1556-yillarda hukmronlik qilgan.

[591] محمود بن سليمان الكفوي. كتائب أعلام الأخيار من فقهاء مذهب النعمان المختار. – بيروت: دار الكتب العلمية. الجزء الأول. 8102.
[592] نوعي زادة عطائي. حدائق الحقائق في تكملة الشقائق. – إسطنبول: منشورات إلما للطباعة و التوزيع، 7102.
[593] Mîrek Muhammed Taşkendi. Şehrî va Gülî. — İstanbul: Akçağ yayınları, 2012. – 287 s.
[594] محمد ميرك الطاشكندي، عجالة البيان في شرح الميزان. مكتبة السليمانية، مجموعة محمد عاصم بيه، رقم المجموعة 11500 .
[595] نوعي زادة عطائي. حدائق الحقائق في تكملة الشقائق. – إسطنبول: منشورات إلما للطباعة و التوزيع، 7102. – ص. 332
[596] بهاء الدين قهرمان. دراسة و تحقيق شهري و كلي لمحمد ميرك الطاشكندي. – تركيا: منشورات دار آكجاغ، 2102. – ص 22.

Muhammad Mirek Toshkandiy quyidagi ilmiy asarlarni qoldirgan:
“Ujalatu-l bayan fi sharhi-l mizan” (عجالة البيان في شرح الميزان).
“Risolat al-kataib” (رسالة الكتائب).
“Anvaru-t tanzil” (التعليقة على كتاب أنوار التنزيل للبيضاوي).
“Risalatun fi-l va’z” (رسالة في الوعظ).
“Al-katiybatu a’la sharhi-t tajrid” (الكتيبة على شرح التجريد).
“Sharhu muxtasaru-l viqoya” (شرح مختصر الوقاية).
“Risalatun fi-l mas’h” (رسالة بيان أن الاستيعاب في المسح مراد أو غير مراد).
“Risalatu ahkami-s soyd” (رسالة أحكام الصيد).
“Tarjamat ar-rumuzi va-l amsali-l lahutiyya” (ترجمة الرموز و الأمثال اللاهونية في الأنوار المجردة الملكوتية).
“Ar-rosail ad-diyniyya” (الرسائل الدينية).

“Ujalatu-l-bayan fi sharhi-l-mizan” Muhammad Mirak Toshkandiy tomonidan yozilgan mashhur asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu kitob arab tili grammatikasi va balog‘atiga doir muhim manba bo‘lib, Isomiddin al-Isfaroyniyning “Sharhu mizani-l-adab fi lisani-l-a’rob” asariga sharh sifatida yozilgan. Bu haqida olim asar muqaddimasida shunday deydi:

«...نِيدّلا مُاصَعِ بِيبِلَّلا بِيرِلأا بِيدِلأا ذِاتَسْلُلِ نِازَيمِلا حِرْشَ يفِ نِايَبَلا ةُلَاجَعُ مِذِهَفَ»

Ma’nosi: “Ushbu “Ujalatu-l-bayan” ziyrak, mahoratli olim, ustoz Isomuddinning “Mizan” asariga sharhdir…”

Asar sodda va ravon tilda yozilgan bo‘lib, arab tili grammatikasiga oid nazariyalarning faqatgina balog‘at ilmi bilan bog‘liq qismlarinigina o‘zida jamlagan. Asar yozilgan sana aniq emas, biroq asarning ba’zi nusxalari hoshiyasida muborak shavvol oyining yigirma oltinchi sanasi, payshanba kuni 992-yilda yozib tugatilganligi haqidagi ma’lumotlar uchraydi[597].

Arab tili grammatikasiga oid asar yozgan olimlarning har biri o‘zicha bir maqsadni belgilaydi. Ushbu maqsad yo‘nalishida mazmun jihatidan qaraganda ba’zilarining asarlari qisqa shaklda, ba’zilariniki o‘rtacha va boshqa bir qisminiki esa batafsil tarzda yozilgan sanaladi. Qisqa shaklda asar yozgan olimlarning maqsadi zaruriy ma’lumotlarni qisqa va lo‘nda iboralar bilan o‘quvchiga tushuntirishdir. Bunday xulosaviy xarakterdagi asarlarga “Al-Avomil”, “Al-Unmuzaj”, “Alfiya”, “Al-Kofiya”, “Al-Lubob”, “Al-Jumal”, “Qotru-n-nada”, “Al-Mug‘niy” kabi asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu asarlar mazmun jihatidan juda qisqa, lo‘nda va asosiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ularning yana bir xususiyati shundaki, ularda ixtilofli mavzularga umuman to‘xtalinmagan yoki juda qisqa shaklda va bilvosita ishora qilingan.

Toshkandiy balog‘at ilmining aslida bayon va ma’oniy ilmlari uchun qo‘llanilishini, keyinchalik badi’ ilmi ham ularga tobe ilm sifatida qo‘shilganini va balog‘at ilmi tarkibida hisoblanganini aytgan. Shu sababli muqaddimada o‘z asarini besh bobga bo‘lganini va asar “sarf, nahv, maoniy, bayon va ba’di”[598] ilmlarini birgalikda o‘z ichiga olganligini bayon qilgan. Ana shu uslubi jihatidan bu asarni Sakkokiyning “Miftahu-l-ulum” asari bilan deyarli bir xil deb aytish mumkin[599].

Muhammad Mirak Toshkandiyning “Ujalatu-l-bayan fi sharhi-l-mizan” asari arab tilshunosligi va balog‘atiga doir manba bo‘lib, uslubining ravonligi hamda qisqa so‘zda batafsil va tugal ma’no ifodalashi, shuningdek, arab tili grammatikasiga oid nazariyalarning faqatgina balog‘at ilmi bilan bog‘liq qismlarinigina o‘zida jamlaganligi bilan shu yo‘nalishda yozilgan boshqa asarlardan ajralib turadi. Bu asarning hali to‘liq o‘rganilmagani, uni tadqiq qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

---

[597] محمد ميرك الطاشكندي، عجالة البيان في شرح الميزان. مكتبة السليمانية، مجموعة محمد عاصم بيه، رقم المخطوطة 11500.
[598] انظر: محمد ميرك الطاشكندي، عجالة البيان في شرح الميزان. مكتبة السليمانية، مجموعة محمد عاصم بيه، رقم المخطوطة 11500.
[599] أبو يعقوب يوسف السكاكي. مفتاح العلوم.- بيروت: دار الكتب العلمية، 1791.- 648 ص.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

ءزجلا .ةيملعلا بتكلا راد :توريب – .راتخملا نامعنلا بهذم ءاهقف نم رايخلأا ملاعأ بئاتك .يوفكلا نامليس نب دومحم لولأا. 2018.

نوعي زادة عطائي. حدائق الحقائق في تكملة الشقائق. – إسطنبول: منشورات إلما للطباعة و التوزيع، 7102.

محمد ميرك الطاشكندي، عجالة البيان في شرح الميزان. مكتبة السليمانية، مجموعة محمد عاصم بيه، رقم المجموعة 11500.

ص – بهاء الدين قهرمان. دراسة و تحقيق شهري و كلي لمحمد ميرك الطاشكندي. – تركيا: منشورات دار آكجاغ، 2102. 221.

أبو يعقوب يوسف السكاكي. مفتاح العلوم.- بيروت: دار الكتب العلمية، 1791.- 648 ص.

Mîrek Muhammed Taşkendi. Şehrî va Gülî. — İstanbul: Akçağ yayınları, 2012. – 287 s.

* * *

BURHONUDDIN NASIRUDDIN AL-MUTARRIZIY: HAYOTI VA ILMIY MEROSI

BURHANUDDIN NASIRUDDIN AL-MUTARRIZI: LIFE AND SCHOLARLY LEGACY

Asqarova Saidaxon Musoxon qizi,
tadqiqotchi

XII–XIII asrlar islom ma’naviy va ilmiy taraqqiyotining muhim bosqichi hisoblanadi. Bu davrda islomiy ilmlarning turli sohalarida yirik olimlar yetishib chiqdi. Shular orasidan Burhonuddin Nasiruddin Abu-l-Fath Abulmuzaffar al-Mutarriziy (538/1144–610/1213[600]) alohida o‘rin tutadi. U Xorazmning Jurjoniyya shahrida tug‘ilgan va arab tilshunosligi hamda lug‘atshunoslikda beqiyos iz qoldirgan.

Mutarriziy Saljuqiylar saltanati hukmronligi davrida yashagan. Bu davr islom sivilizatsiyasida “ikkinchi uyg‘onish” davri sifatida e’tirof etiladi. Siyosiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish va ma’naviy hayotning rivojlanishi ilm ahli uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, u zamonda mu’taziliy ta’limot keng tarqalgan bo‘lib, Mutarriziy ham Zamaxshariy ta’sirida shu oqimga moyil bo‘lgan.

U dastlabki ta’limni otasi va Xorazm xatibi Abu-l-Muayyad Mufavvaq al-Makkiydan oldi[601]. Keyin hadis ilmidan Abu Abdulloh Tojir, fiqh va tilshunoslikdan esa o‘z davrining yetakchi ulamolaridan ta’lim oldi. Uning shogirdlaridan biri — Qosim ibn al-Husayn al-Xorazmiy “Sadr al-Afozil” unvoniga sazovor bo‘lgan[602].

Mutarriziyning asarlari turli sohalarni qamrab olgan:

“Al-Misbah fi-n-nahv” – arab grammatikasiga oid eng mashhur asari. U Jurjoniyning “Al-Mi’a”, “Al-Jumal” va “At-Tatimma” asarlaridan ta’sirlanib yozilgan muxtasar grammatik qo‘llanma bo‘lib[603], oson uslubi va qisqaligi bilan mashhur bo‘ldi. Bu asarga Toj ad-Din al-Isfaraiyniyning “ad-Dav” va Abdulkarim at-Tusiyning “Xulosat al-I’rob” kabi mashhur sharhlari yozilgan[604]. Ushbu asarning ko‘plab qo‘lyozmalari dunyo kutubxonalarida saqlanib qolgan.

[600] Jaloliddin as-Suyutiy. Bug‘yatul-vuot. – Bayrut,1997. – 402 b.
[601] Ibn Xallikon. Vafayot ul-a’yon. 2-Jild. – Bayrut, 2011. – 101 b.
[602] Hoji Xalifa. Kashfu-zunun. – Bayrut, 1999. – 110 b.
[603] Jurjiy Zaydon. Tariyxu adabil-lug‘otil-arabiyya. – Bayrut, 1967. – 286 b.
[604] Yoqut al-Hamaviy. Mu’jam ul-udabo.2-Jild. – Bayrut,1993. – 223 b.

“Al-Mug‘rib fi tartib al-Mu’rib” – hanafiy fiqhida qo‘llanilgan g‘arib so‘zlarni sharhlaydigan lug‘at. Ensiklopedik xususiyatga ega.

“Al-Iydoh” – Haririyning “Maqomat” asariga yozilgan sharh.

Shuningdek, “Al-Iqno‘”, “Ijoz al-Qur’on”, “Zahr ar-Rabiy’” kabi asarlari ham ma’lum[605].

Burhonuddin al-Mutarriziy arab tilshunosligi tarixida yuksak o‘rin tutgan olimlardan biridir. Uning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lgan Al-Misboh grammatikani o‘qitishda pedagogik yondashuvi va sodda bayoni bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada asarning metodologik asoslari hamda qo‘lyozmalarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

Al-Mutarriziy Al-Misbohning muqaddimasida materiallarini al-Jurjoniyning uchta asari — “Al-Mi’a”, “Al-Jumal” va “At-Tatimma”dan foydalanganini e’tirof etadi[606]. Biroq u o‘z uslubini alohida shakllantirib, bu asarlardagi metodlarni uyg‘unlashtiradi va yangi yondashuv yaratadi.

“Al-Mi’a” asarida al-Jurjoniy omillarni[607] ikki turga bo‘ladi: lafziy omillar va ma’naviy omillar. U kitobini al-huruf al-jarradan boshlab, keyin al-huruf al-mushabbaha bi-l-fe’l, undan so‘ng al-huruf al-jozima li-l-fe’l al-mudori‘ni izohlaydi, so‘ngra esa ism va noqis fe’llarni sharhlab, oxirida ma‘naviy omillarni keltiradi.

“Al-Jumal”da esa tartib boshqacharoq: avval muqaddima, keyin avomil al-af‘al, avomil al-huruf va avomil al-asma izohlanadi.

Al-Mutarriziy esa Al-Misbohni boshqa tartibda quradi. U avvalo nahviy atamalarni keltirib, “kalom”ga keng qamrovli ta’rif beradi, undan keyin ism, fe’l va harf ta’riflarini misollar bilan tushuntiradi. Shundan so‘ng esa e‘robning qisqa, ammo aniq ta’rifini beradi:

“So‘z oxirining lafziy yoki taqdiriy avomillar ta’sirida o‘zgarishi[608].”

Bu yondashuvda u ortiqcha tafsilotlarga berilmaydi, so‘z tanlashda aniqlik va ehtiyotkorlikni ko‘zda tutadi. Asarning muhim fazilatlaridan biri — grammatik qoidalarni Qur’on oyatlari orqali izohlashidir. Bu esa talabalar uchun qoidalarni yodlashni yengillashtiradi.

Ikkinchi bob boshida u lafziy omillarni ma‘naviy omillardan oldin keltirishini ataylab ta’kidlaydi. Chunki arab tilida gap qurilishida fe’l markaziy o‘rin tutadi va fe’l bilan boshlangan gaplar ko‘proq afzal hisoblanadi. Ma‘naviy avomillar esa to‘rtinchi bobda bayon etiladi, chunki ular boshlovchi talaba uchun murakkabroqdir.

Al-Mutarriziy butun kitob davomida atigi 9–10 ta she’riy misoldan foydalanadi. Buning sababi, kitobni o‘zining yosh o‘g‘liga — boshlang‘ich darajadagi talaba uchun yozgani va keraksiz cho‘zilishni istamagani bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, u grammatik qoidalarni soddalashtirib tushuntiradi, lekin zaruriy bilimlarni tashlab ketmaydi. Shu tariqa u o‘zining pedagogik maqsadiga erishgan.

Al-Misboh asarining turli qo‘lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Shunday qo‘lyozmalardan biri Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar fondida saqlanadi №3312/5 inventar raqami ostida saqlanadi. Bundan tashqari asarning dunyo fondlarida nusxalari soni ko‘p bo‘lib Misrdagi “Dor al-kutub” qo‘lyozmalar fondida asrning 13 ta qo‘lyozmasi mavjud[609]. Misrdagi qo‘lyozmalarni tadqiq etgan doktor Abdulhamid Talabning yozishicha, ular o‘rtasida ayrim farqlar mavjud: ba’zilarida muqaddima batafsil yozilgan, boshqalarida esa qisqaroq[610]. Ba’zi qo‘lyozmalarda Qur’on oyatlari va grammatik misollar kengroq berilgan, ayrimlarida esa qisqa qilib keltirilgan.

Bu tafovutlar, aslida, asarning asosiy mazmuniga putur yetkazmaydi, balki uni qanday o‘qitilganidan darak beradi. Ustozlardan ba’zilari uni boshlang‘ich talabalarga soddalashtirib o‘qitgan bo‘lsa, boshqalari chuqurroq sharhlar bilan tushuntirgan.

---

[605] O‘sha asar. – 225 b.
[606] Mutarriziy. Al-Misboh. – Damashq, 1997. – 53 b.
[607] Omil – biror sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘ladigan so‘z
[608] Mutarriziy. Al-Misboh. – Damashq, 1997. – 61 b.
[609] Fihrist Dor al-kutub al-Misriyya. – Qohira, 1921. – 85 b.
[610] Mutarriziy. Al-Misboh. Muhaqqiq DoktorAbdulhamid Talab. – Qohira, 1920. – 7 b.

Bugungi kunda tadqiqotchilar qo‘lyozmalarni qiyosiy o‘rganib, asarning asl nusxasiga eng yaqin matnni aniqlashga harakat qilmoqdalar. Bu esa arab grammatikasi tarixini va al-Mutarriziyning metodologiyasini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Al-Mutarriziy o‘zining Al-Misboh asari orqali arab grammatikasini pedagogik yondashuv bilan sodda, ammo mukammal tarzda bayon qilgan. Uning metodologiyasi talabalar uchun qulay bo‘lib, Qur’on oyatlaridan foydalanishi kitobning ilmiy va diniy ahamiyatini yanada oshiradi. Qo‘lyozmalardagi tafovutlar esa bu asarning keng o‘qitilganidan va turli ilmiy muhitlarda qo‘llanilganidan dalolat beradi.

Mutarriziyning maqsadi asarni shogirdlar va keng omma uchun foydali qo‘llanma qilish edi. Shu sababli asar tez ommalashdi va turli sharhlar hamda tarjimalarga sabab bo‘ldi.

Bu asar nafaqat nahvshunoslikda, balki pedagogik grammatika janri rivojida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Uni jahon tilshunosligida dasturilamal qo‘llanmalardan biri sifatida baholash mumkin.

Mutarriziy 610/1213 yili Xorazmda vafot etdi[611]. Zamondoshlari uni Zamaxshariyning haqiqiy vorisi sifatida e’tirof etdilar. Uning ilmiy merosi hanuzgacha tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib, ayniqsa Al-Misbahning qo‘lyozma va nashrlari zamonaviy tilshunoslikda ham ahamiyat kasb etadi.

Burhonuddin Nasiruddin al-Mutarriziy arab grammatikasi va lug‘atshunosligida yangi davrni boshlab bergan olimdir. Uning Al-Misbah asari o‘rta asrlardan to hozirga qadar grammatik bilim olishda asosiy manbalardan biri sifatida qo‘llanib kelmoqda. Tadqiqotchi sifatida aytishim mumkinki, Mutarriziyning qo‘lyozmalari, ayniqsa Al-Misbahning turli nusxalari zamonaviy metodologiya asosida chuqur tahlil qilinishi va akademik nashr etilishi zarur. Bu islom tilshunosligi tarixi uchun yangi yutuqlarni ta’minlaydi.

* * *

ИМОМ БУХОРИЙНИНГ ТАРИХ АСАРЛАРИДА САНАДНИ КЕЛТИРИШ МЕТОДЛАРИ

METHODS OF PROVIDING THE CHAIN OF NARRATORS IN IMAM BUKHARI’S HISTORICAL WORKS

Қобилов Нодир Сиддиқович,
Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий ходими

Ислом уламолари ҳадис ровийларига оид тарих асарларни тадвийн қилиш устида жуда катта ишларни амалга оширган. Бу борадаги ишларни энг биринчи амалга оширган муҳаддис уламолардан Ҳайсам ибн Адий (ваф. ҳ.207/м.822й) ва Муҳаммад ибн Умар Воқидий (ваф. ҳ.207/м.822й)ларни мисол келтиришимиз мумкин. Имом Бухорийдан сўнг Халифа ибн Хайёт (ваф. ҳ.240/м.854й), Абу Ҳассон Ҳасан ибн Усмон (ваф. ҳ.243/м.857й), Умар ибн Шаббаҳ (ваф. ҳ.262/м.875й) ва Аҳмад ибн Зуҳайр ибн Абу Хайсама (ваф. ҳ.279/м.892й) каби муаррих уламоларни мисол қилиб келтириш мумкин.

Ислом илмий меросида тарихий асарлар алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, улар фақат воқеаларни қайд этиш билан чекланмай, балки илмий таҳлил, ровийлар таржимаи ҳоли

[611] Jaloliddin as-Suyutiy. Bug‘yatul-vuot. – Bayrut,1997. – 408 b.

ва манбаларни баҳолаш жараёнини ҳам ўз ичига олади. Бу йўналишда Имом Бухорийнинг хизмати беқиёсдир.

Имом Бухорий – Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил (810–870) ислом оламидаги энг нуфузли муҳаддислардан бири бўлиб, ҳадис илмида санад тизимини такомиллаштириш ва унинг илмий асосларини ёритишда улкан ҳисса қўшган. Аллома ҳадисга оид асарларини тасниф қилишдан олдин ровийлар тарихи ва биографиясини тадқиқ этиб, чуқур изланишлар олиб борган. Чунки, саҳиҳ ҳадисларни тўплаб ягона тўпламга келтириш учун энг аввало ровийларнинг тарихини, ҳадис ривоятида ишончли ёки заиф эканини аниқлаш зарур бўлган.

Унинг ҳадис тўпламларидан ташқари, ровийлари таржимаи ҳолига бағишланган “ат-Тарих ал-кабир”, “ат-Тарих ал-авсат”, ва “ат-Тарих ас-сағир” каби асарлари фақат биографик маълумотларнигина эмас, балки ривоят услубининг илмий меъёрларини ҳам намоён этади.

Имом Бухорий тарихга оид бу асарларини ёзишда ҳар бир ўтаётган онини ғанимат билиб, улар устида ишлаган. Ҳофиз ибн Ҳамдун айтади: “Имом Бухорийни Усмон ибн Абу Саид ибн Марвон ва Муҳаммад ибн Яҳё Зуҳалий жанозасида кўрдим. У жанозада ҳам ровийлар исми ва иллатли ровийлар ҳақида сўраб суриштираётган эди”.[612] Бу изланишлари натижаси ўлароқ “ат-Тарих ал-кабир”, “Тарихул авсат” ва “Тарихус сағир” асарлари вужудга келди.

Бу асарлар ҳадис ровийларининг биографиясини ўз ичига олиб, санад (ривоят занжири) келтириш услубида Бухорийнинг қатъий ва илмий ёндашуви, ровийларни санад тартибида келтириш, уларнинг ривоятдаги ўрни ва сифатларини белгилашда ўзига хос услубга эга бўлгани намоён бўлади. Унинг услублари ҳадис илмининг сифатини юқори даражада сақлаб қолишда катта аҳамиятга эга бўлган.

Имом Бухорийнинг тарих асарларидаги санад келтириш услуби ҳадис илмидаги “жарҳ ва таъдил” (ровийларни танқид қилиш ва ҳаққонийлигини тасдиқлаш) методологиясига асосланади. У ривоятчиларнинг ҳаёти, ишончлилиги ва ҳадисларнинг турли шакллари (масалан, мавсул, мурсал, мавқуф, марфуъ) ўртасида таққослаш орқали санадларни келтиради. Бу услуб ривоятчиларнинг биографиясини қисқача баён қилиш, бир неча санадни таққослаш ва уларнинг ишончлилиги ҳақида ҳукм чиқаришдан иборат.Алломанинг ушбу асарларидаги санад келтириш услубини тадқиқ этар эканмиз, унинг бир неча йўналишдан иборат бўлганини кўрамиз:

1. Санадни келтиришда тўлиқлик ва аниқлик: Имом Бухорий ровийлар занжирини келтиришда, ҳар бир ровийнинг тўлиқ исм-шарифини, нисбасини ва кунясини ёзишга ҳаракат қилган. Масалан, “ат-Тарих ал-кабир”да қуйидаги тарзда ривоят санади келтирилади:

حدَّثنا محمد بن يوسف، قال: حدَّثنا سفيان، عن عبد الملك بن عمير، عن عبد الرحمن بن عبد الله، عن عبد الله بن مسعود...[613]

Бу ерда у ровийлар занжирини қисқартирмасдан, ҳар бир исмни тўлиқ ва ўз ўрнида ёзади.

2. Ровийларнинг мақоми ва баҳо бериш услуби: Имом Бухорий санаддаги ҳар бир ровий ҳақида қисқача баҳолаш (таъдил ёки тажриҳ) маълумотини ҳам бериб ўтади. Масалан, бир ровий ҳақида “ثقة” (ишончли) ёки “فيه نظر” (ўрганишга муҳтож) деб ёзади. Бу ҳолатлар асосан “ат-Тарих ал-авсат”да учрайди:

عبد الله بن سعيد بن أبي هند، عن أبيه، عن ابن عباس... وكان عبد الله صدوقًا إلا أنه يخطئ.[614]

3. Санаддаги тартиб ва мантиқ: Имом Бухорий ровийларни илмий меросдаги ўрни ва вақт жиҳатидан тўғри занжирда жойлаштиради. Масалан, ровийлар орасида учрашмаган шахслар бўлса, санадда бу ҳақда қайд қилади:

---

[612] Абу Абдулоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Тарихул авсат. – Риёд: “Сумайий” нашриёти, 1998. –16 б.

[613] Имом Бухорий – Муҳаммад ибн Исмоил. Ат-Тариху ал-кабир. –Байрут: “Дорул фикр” нашриёти, 1986. 1-жилд. – 52 б.

[614] Имом Бухорий – Муҳаммад ибн Исмоил. Ат-Тариху ал-авсат. Маҳмуд Иброҳим Зоид таҳқиқи. – Қоҳира “Дорул маърифа” нашриёти, 1965. 2-жилд. – 117 б.

لم يسمع فلان من فلان، وإنما يروي عن فلان بواسطة.[615]

Бу услуб санаднинг саҳиҳ ёки заифлигини аниқлашда муҳим роль ўйнайди.

4. Санадда қисқартириш (تدليس)га йўл қўймаслик: Имом Бухорий ҳадис санадларини келтиришда тадлисдан эҳтиёт бўлиб, воситачиларни тушириб қолдирмасдан ёзади. Масалан, “ат-Тарих ас-сағир”да баъзи ровийлардан ривоят келтирар экан, уларнинг ровийлари номини ҳам тўлиқ баён қилади.[616]

5. Санад ва матн уйғунлиги: Унинг услубида санад ва матн бир-бирини тўлдириб боради. Санадда аниқлик бўлса, матндаги мазмун ҳам ишончли тарзда қабул қилинади.[617]

Имом Бухорийнинг тарихга оид асарларида келтирилган санад келтириш услуби ва табақаларнинг хронологик таҳлили

Асар номи	Санад келтириш услуби	Ровийлар табақаси	Асосий ҳудудлар қамрови	Қамраб олинган ҳижрий асрлар
ат-Тарих ал-кабир	Ҳар бир ровий ҳақида исми, нисбаси, устоз ва шогирдлари занжири, баъзан ривоят матни билан	1–10-табақа (Саҳобалардан то Имом Бухорий замондошларигача)	Ҳижоз, Ироқ, Шом, Миср, Хуросон, Марв, Балх, Бухоро, Самарқанд	1–3 ҳ. асрлар (Саҳобалар давридан 256 ҳ./870 м. гача)
ат-Тарих ал-авсат	Санадлар қисқартирилган, асосий эътибор ровийнинг кимдан ва кимга ривоят қилганига қаратилган	3–9-табақа (тобеинлардан Имом Бухорий замондошларигача)	Ҳижоз, Ироқ, Шом, Марв, Нишопур, Мовароуннаҳр	1–3 ҳ. асрлар
ат-Тарих ас-сағир	Аксар ровийлар ҳақида икки-уч иборалик изоҳ, баъзан фақат исми ва нисбаси	5–9-табақа (табақот орасида асосан ўз даври ровийлари)	Хуросон, Мовароуннаҳр, Ироқ, Ҳижоз	2–3 ҳ. асрлар

2. Асарлар бўйича санад ва табақа хусусиятлари

ат-Тарих ал-кабир – энг тўлиқ санад тизимини сақлайди. Ровийнинг устоз ва талабаларини тўлиқ рўйхат билан келтиради. Имом Бухорий ровийнинг ишончлилик даражасини кўпинча санад таркиби орқали англатган.

ат-Тарих ал-авсат – маълумотни тўлдириш ва баъзи ҳолларда танқид қилиш учун ёзилган. Унда санад қисқартирилган бўлса-да, ровийнинг ривоят занжири аниқ кўрсатилган.

ат-Тарих ас-сағир – таълимий ва умумий маълумот бериш мақсадида қисқа услубда ёзилган. Унда асосан Имом Бухорийнинг илмий сафарларида учрашган ровийлар ҳақидаги маълумотлар кўп учрайди.

3. Хронологик қамров (асарлар кесимида)

Аср	**ат-Тарих ал-кабир**	**ат-Тарих ал-авсат**	**ат-Тарих ас-сағир**
1 ҳ. аср (Саҳобалар)	✓ тўлиқ	✓ қисман	✗ йўқ
2 ҳ. аср (Тобеинлар)	✓ тўлиқ	✓ тўлиқ	✓ қисман
3 ҳ. аср (Муҳаддислар)	✓ тўлиқ	✓ тўлиқ	✓ асосий қисм

Имом Бухорийнинг тарихга оид асарларидаги ривоят услублари унинг ҳадис илмида эришган юксак мақомини ҳамда манбалар билан ишлашдаги эҳтиёткорлиги ва дақиқлигини

[615] Имом Бухорий – Муҳаммад ибн Исмоил. Ат-Тариху ас-сағир. Маҳмуд Иброҳим Зоид таҳқиқи. – Қоҳира: “Дорул маърифа” нашриёти, 1977. – 88 б.

[616] Шамсиддин Заҳабий. Сияру аъломун нубало. –Қоҳира: “Дорул ҳадис” нашриёти, 2006. 12-жилд. 394 б.

[617] Ибн Ҳажар Асқалоний. Таҳзибут таҳзиб. – Байрут: “Дорул фикр” нашриёти, 1984. 5-жилд. – 245 б.

очиб беради. Унинг услуби, бир томондан, ҳадис илмидаги иснод тизимини тарихий ривоятларга татбиқ этиш, иккинчи томондан, ровийларнинг адолати ва сиқа ёки заифлиги ҳақида баҳолар бериш орқали илмий софликни таъминлашдан иборатдир.

Имом Бухорийнинг тарихга оид асарларидаги санадни келтириш методларини ҳар бир асар кесимида таҳлил қилинганда қуйидаги натижалар ҳосил бўлди:

1. ат-Тарих ал-кабир: Имом Бухорийнинг энг машҳур биографик асарларидан бири бўлиб, унда минглаб ровийлар ҳақида маълумотлар жамланган. Асар ровийларнинг исми, кунияси, насаби, туғилган ва вафот этган санаси, илмий мақоми ва ривоятларига оид маълумотларни ўз ичига олади. Китобда ровийлар алифбо тартибида келтирилган бўлиб, ҳар бир ровий ҳақида қисқа ва дақиқ маълумот берилади. Масалан, у Зуҳрий ҳақида шундай ёзади:

محمد بن شهاب الزهري، مدني، ثقة، من كبار التابعين، روى عن أنس بن مالك وعبد الله بن عمر[618]

Бу ерда Имом Бухорий ровийнинг туғилиш жойи, мақоми ва кимлардан ривоят қилганини кўрсатади.

2. ат-Тарих ал-авсат: Бу асарда ровийлар ҳақидаги маълумотлар кенгроқ ёритилади, айримлар ҳақида қисқа баҳолар берилади. ат-Тарих ал-авсат ровийлар таржимаи ҳолини таҳлил қилиш билан бирга, ҳадис матнларига ҳам қисман изоҳ беради. Масалан:

سعيد بن المسيب، ثقة، إمام، حجة، وكان أعلم الناس بقضاء عمر[619].

Бу хабарда Имом Бухорий ровийнинг илмий даражаси ва фиқҳдаги мақомини таъкидлайди.

3. ат-Тарих ас-сағир: Миқдор жиҳатидан кичикроқ асар бўлиб, унда асосан Имом Бухорийнинг ўзига энг ишончли бўлган ровийлар ҳақида маълумотлар берилади. Бу асарда у баъзан шахсий мулоҳазаларини ҳам баён қилади.

Мазкур асарларда муаллифнинг ривоят услублари қуйидаги тартибга асосланган:

1. Иснод тизими: Имом Бухорий тарихий асарларида ҳам ҳадис илмидаги иснод усулини қўллайди. Ҳар бир ривоят қайси ровий орқали етиб келгани, уларнинг бир-бирини кўрган-кўрмагани, вақт жиҳатидан учрашиш имконияти бор-йўқлиги аниқланади.

Масалан, у бир ровий ҳақида:

روى عن الزهري، ولم يسمع منه، وبينهما واسطة[620].

Бу ерда Имом Бухорий ровийнинг маълум бир шахсдан тўғридан-тўғри эшитмаганини, оралиқ ровий борлигини аниқ кўрсатади.

2. Ровийларни баҳолаш мезонлари: Имом Бухорий ровийларни баҳолашда сиқа (ишончли), садуқ (ростгўй), заиф (ишончсиз) каби илмий атамалардан фойдаланган. Унинг мезонлари жуда қатъий бўлиб, бирор ровийнинг ишончлилиги ҳақида қарор беришдан олдин кўплаб манбаларни солиштирган.

3. Мазмун танлаш ва воқеаларни бериш услуби: Тарихий воқеаларни қайд этишда Имом Бухорий ортиқча тафсилотлардан қочган, фақат ишончли манбаларга таянган. Унинг услубида ортиқча ривоятлар ёки ҳадисга боғлиқ бўлмаган маълумотлар жой олмайди.

4. Ровийларга жарҳ ва таъдил сифатларини бериш услуби: Айрим ҳолларда ровийга жарҳ ва таъдил сифати берилган бўлса, айрим ўринларда ривоят қилинган матн – хабарга мусбат ёки манфий сифат берилган.

سمعَ مِنه بِشرُ بنُ محمدِ بنِ أَبانٍ. **مرسَلٌ .**
قالَ أَبو عَبدِ اللَّهِ: **هَذا لا يُتابَعُ عَلَيْهِ**
وقال إسحاق: أخبرنا يزيد بن هارون، أخبرنا هشام، عن الحسن، عن سعد بن هشام: دخلت على عائشة فقالت: كان النبي -صلى الله عليه وسلم-، نحوه، **وهذا أصح** .

[618] Имом Бухорий – Муҳаммад ибн Исмоил. Ат-Тариху ал-кабир. –Байрут: “Дорул фикр” нашриёти, 1986. 1-жилд.– 213 б.
[619] Имом Бухорий – Муҳаммад ибн Исмоил. Ат-Тариху ал-авсат. Маҳмуд Иброҳим Зоид таҳқиқи. – Қоҳира “Дорул маърифа” нашриёти, 1965. 2-жилд. –57 б.
[620] Имом Бухорий – Муҳаммад ибн Исмоил. Ат-Тариху ал-кабир. –Байрут: “Дорул фикр” нашриёти, 1986. 3-жилд. –98 б.

وقال اليوي [الثوري] عن حماد، عن إبراهيم، عن الأسود، عن عائشة. **وهذا أصح.**

III. Муаллиф айрим ўринларда ровийларнинг жарҳ ва таъдилдаги даражаси ва мақомини ҳам баён этган:

1. ат-Тарих ал-кабирда Умар ибн Абдулазиз ҳақида:

عمر بن عبد العزيز الأموي، مدني، ثقة، إمام، عدل، وكان يقال له خامس الخلفاء[621]

Бу ўринда у ровийнинг сиқа ва адолатли эканини, шунингдек, тарихий мақомини қайд этади.

2. ат-Тарих ал-авсатда Абдуллоҳ ибн Аббос ҳақида:

عبد الله بن عباس، ابن عم رسول الله صلى الله عليه وسلم، حبر الأمة، فقيه، مكثر من الرواية[622]

Бу хабарда ровийнинг Пайғамбар алайҳиссаломга қариндошлиги, илмий даражаси ва ривоятлар сони кўрсатилади.

Имом Бухорийнинг бошқа тарихчилардан тарихий ривоятлардаги асосий фарқи, унинг аниқ методлар асосида ҳадис илмидаги мезонларни тарихий манбаларга татбиқ этишидир. Масалан, ат-Табарий ёки Ибн Суғд асарларида баъзан иснодсиз ривоятлар учраса, Имом Бухорий юқорида кўриб ўтганимиздек, ҳар бир хабарни санади билан келтиради.

Имом Бухорийнинг тарихга оид асарлари ислом илмий меросида алоҳида ўрин тутади. У ривоят услубларидаги қатъийлик, манбаларга таянган ҳолда иш юритиш, ровийларни баҳолашдаги холислик орқали тарих ва ҳадис илмини уйғунлаштирган. Унинг асарлари нафақат биографик маълумотлар тўплами, балки илмий таҳлил ва ривоят методологиясининг намунасидир.

Имом Бухорийнинг санадни келтиришдаги тўлиқликка эътибори, ровийларни баҳолашдаги холислиги ва занжир тартибига риоя қилиши, кейинги муҳаддислар учун методик асос бўлиб, бу жанрда кўплаб асарлар яратилишига замин бўлди. Унинг тарих асарларида санад келтириш услуби ҳадис илмида ишончлилик, аниқлик ва илмий методология намунаси сифатида асрлар оша хизмат қилади.

* * *

ҚОЗИ ҲАСАН МОТУРИДИЙ

QADI HASAN AL-MATURIDI

Мухаммадиев Усмонхон Боқибиллоевич,
Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий ходими

Аннотация. Қози Ҳасан Мотуридий буюк фақиҳ, мотуридий оиласига мансуб ҳанафий олимларидан биридир. Манбаларда аллома ҳақида маълумот етарли бўлмаса-да, унинг етук олим бўлгани, кўп йиллар Самарқандда қозилик қилгани, айниқса фиқҳ илмида чуқур билимга эга бўлганини исботловчи қайдлар мавжуд. Афсуски таржимаи ҳол китобларида алломага доир асарлар ҳақида маълумот берилгаман. Унинг илмий меросидан китобларда келган иқтибослар орқалигина хабардор бўлиш мумкин. Ушбу мақолада мавжуд манбаларга таянган ҳолда аллома ҳаёти ва илмий меросини ёритишга уринилган

[621] Имом Бухорий – Муҳаммад ибн Исмоил. Ат-Тариху ал-кабир. –Байрут: “Дорул фикр” нашриёти, 1986. 5-жилд. –12б.

[622] Имом Бухорий – Муҳаммад ибн Исмоил. Ат-Тариху ал-авсат. Маҳмуд Иброҳим Зоид таҳқиқи. – Қоҳира “Дорул маърифа” нашриёти, 1965. 1-жилд. – 144 б.

Калит сўзлар: Мотуридий, Самарқанд, қози, фиқҳ, Чокардиза, фатво.

Қози Ҳасан Мотуридий ҳижрий V асрда Самарқандда яшаб ижод қилган буюк ҳанафий уламолардан бири саналади. Мотуридий оиласига мансуб бу аллома Имом Абу Мансур ал-Мотуридий яратган мактабнинг муносиб ворисларидан биридир. Афсуски, бу аллома ҳақида бизда мавжуд маълумотлар жуда оз ва тарқоқ ҳолда.

Олимнинг вафот санаси аниқ эмас. Замондош уламолар ҳақидаги тарихий маълумотлар ва манбаларга таянган ҳолда Қози Ҳасаннинг ҳижрий V асрнинг иккинчи ярмида вафот этгани тахмин қилинади. Айрим манбаларда эса у 450/1059 йилда вафот этгани қайд этилган.[623].

Алломанинг тўлиқ исми Ҳасан ибн Али ибн Муҳаммад ибн Аффон ибн Али ибн Фазл ибн Закариё ибн Усмон ибн Аффон ибн Холид ибн Зайд ибн Кулайб ал-Мотуридийдир. Унинг насаби машҳур саҳоба Абу Айюб Ансорийга бориб тақалиши зикр этилган. Холид ибн Зайд мазкур саҳобанинг исмидир[624].

Қози Ҳасан Имом Мотуридийга она тарафдан боғланган. Алломанинг отаси Али ибн Муҳаммад Мотуридийнинг набираси, яъни қизининг қизи билан оила қурган ва бу жуфтликдан Қози Ҳасан дунёга келган[625]. Равшан бўлмоқдаки, Қози Ҳасан Имом Мотуридийга қиз тарафдан эварадир.

Баъзи тадқиқотчилар Имом Мотуридийнинг “Ансорий” нисбасини ушбу маълумотга боғлайди. Лекин, унинг Абу Айюб Ансорий наслидан экани ҳақидаги қарашлар “Китобут тавҳид”нинг ҳошиясидаги номаълум муаллиф томонидан қайд этилган ёлғиз маълумотга асосланган бўлиб, тарихий жиҳатдан тасдиқланмаган. Шу боис, баъзи манбалардаги насаб тўғрисидаги маълумотлар чалкашликка сабаб бўлган. Қози Ҳасаннинг насаб силсиласи чалкаштирилиб, Имом Мотуридийга нисбат берилгани эҳтимоли юқори[626].

Қози Ҳасан Мотуридий ўз даврининг етакчи уламоларидан бири сифатида танилган. Самарқандда фаолият юритган Абу Шужоъ Самарқандий ва Қози Али Суғдий каби алломалар билан яқин дўст ва ҳамфикр бўлган. Бу уч олим нафақат Самарқанд, балки бутун минтақада фиқҳий ва ақидавий масалаларда эътироф этилган раҳнамолар эди. Улар фатво бериш ва шариат масалаларида иттифоқ қилган ҳолда иш кўришар, уларнинг тасдиғисиз берилган фатволар қабул қилинмасди. Бу ҳол уларнинг илмий обрўси ва таъсир доирасини кўрсатади[627].

Афсуски, Қози Ҳасан сингари икки дўсти ҳақида ҳам жуда оз маълумот сақланган. Абу Шужоъ Самарқандий Самарқанднинг буюк фақиҳларидан бири бўлгани[628], “Дуррул ажойиб” номли асар ёзгани[629], ўғли Муҳаммад ибн Муҳаммад ҳам катта фақиҳ бўлиб етишгани[630] ва отасидан ҳадис ривоят қилгани ҳақидаги эслатмалардан бошқа маълумот учрамайди[631].

Қози Али Суғдий ҳақида эса нисбатан кўпроқ маълумот мавжуд. Вафот этган йили аниқ бўлиб, 461/1068 йилда Бухорода оламдан ўтган. Самарқандда туғилиб вояга етган олим кейинчалик Бухорога кўчади ва у ернинг бош қозиси этиб тайинланади. Умрининг охиригача Бухорода яшайди[632]. Фиқҳ илмини Абу Муҳаммад Абдуллоҳ ибн Аҳмад Кафинийдан ўрганади. Шамсулаимма Сарахсий эса ундан “Сиярул кабир”ни ривоят қилган. Бу билан Сарахсий Қози Алининг шогирди бўлганини билиш мумкин. Бошқа бир шогирди эса, Усмон ибн Иброҳим

[623] Оқилов С. Абу Мансур ал-Мотуридий. – Т.: Ҳилол Нашр. – Б. 55.
[624] Самъоний. Ансоб. – Ҳайдаробод: Доиратул маориф, 1981. – Ж. 12. – Б. 3.
[625] Оқилов С. Абу Мансур ал-Мотуридий. – Т.: Ҳилол Нашр. – Б. 55.
[626] Шукру Ўзан. Мотуридий. Туркия диёнат вақфи энциклопедияси.– Анқара: ТДВ, 2003. – Ж. 28. – Б. 146.
[627] Лакнавий. Ал-Фаваидул баҳия фи тарожимил Ҳанафия. – Байрут: Дарул арқам, 1998. – Б. 112.
[628] Лакнавий. Ал-Фаваидул баҳия фи тарожимил Ҳанафия. – Байрут: Дарул арқам, 1998. – Б. 255. Салоҳиддин Абдуллатиф Наҳий. Суғдий. Туркия диёнат вақфи энциклопедияси.–Истанбул: ИСАМ, 2009. – Ж. 37. – Б. 475.
[629] Ушбу асар Бухоро давлат музейида №10732/11, №10851/11 рақами остида сақланмоқда.
[630] Муҳйиддин Абу Муҳаммад Абдулқодир ибн Муҳаммад Абулвафо Қарший Ҳанафий. Жавоҳир ал-музия фи табақот ал-ҳанафия. – Ар-Риёд: Дор ал-улум, 1993. – Ж. 3. – Б. 28
[631] Ўша манба. – Б. 317.
[632] Муҳйиддин Абу Муҳаммад Абдулқодир ибн Муҳаммад Абулвафо Қарший Ҳанафий. Жавоҳир ал-музия фи табақот ал-ҳанафия. – Ар-Риёд: Дор ал-улум, 1993. – Ж. 2. – Б. 567.

Фазлий Бухорийдир. Қози Али “Ан-Нутаф фил фатава”, “Шарҳу сиярул кабир”, “Шарҳу адабил қози”, “Фавоид” сингари асарлар муаллифидир[633].

Қози Ҳасаннинг ўғли Абул Ҳасан Али ибн Ҳасан Мотуридий (ваф. 511/1117) ҳам Самарқанднинг буюк олимларидан бўлган. Баъзи манбаларда олим отаси билан адаштириб юборилган ва ҳатто Имом Мотуридийнинг набираси экани айтилган[634]. Аммо ўрганишлар шуни кўрсатмоқдаки, бу янглиш қарашдир. Чунки аллома Абул Ҳасан ҳижрий олтинчи асрнинг бошида, 511/1117 йилда вафот этган. Имом Мотуридий эса ҳижрий тўртинчи асрнинг биринчи ярмида, яъни 333/945 йилда оламдан ўтган. Орадаги муддат сал кам икки юз йилни ташкил қилмоқда ва бу набира ҳатто эвара бўлиш учун кўплик қилади. Тадқиқотларда қайд этилишича, Абул Ҳасан Қози Ҳасаннинг ўғли, Имом Мотуридийнинг эса чевarасидир. Ундан Абу Ҳафс Умар Насафий ҳадис ривоят қилган[635].

Қози Ҳасан Мотуридий ва унинг ўғли аллома Абул Ҳасан Самарқандда вафот этган ва Имом Мотуридий абадий қўним топган Чокардиза қабристонида, боболарининг ёнига дафн этилган[636].

Юқорида таъкидлаганимиздек, Қози Ҳасаннинг илмий мероси сақланиб қолмаган. Афсуски айрим манбалардаги иқтибослардан ташқари алломага тегишли бирор асар мавжудлиги маълум эмас. Самарқандлик яна бир фақиҳ Носируддин Самарқандийнинг (ваф. 556/1161) “Ал-Мултақот фи фатавал ҳанафия” номли асарида Қози Ҳасан фатволаридан баъзи иқтибослар келтирилган. Жумладан, асарнинг “Намоз”[637], “Талоқ”[638] ва “Савдо”[639] бобларида Қози Ҳасаннинг фиқҳий қарашларини кўришимиз мумкин.

Мотуридий оиласидан чиққан, ўз замонасида катта обрўга эга бўлган Қози Ҳасан Мотуридийнинг илмий мероси ҳозирда тўлиқ ўрганилмаган. У билан бир даврда яшаб ижод этган олимлар асарлар қолдирган бўлса-да, Қози Ҳасаннинг асарлари мавжуд эмаслиги нотабиий ҳол. Бундай катта шахсиятнинг илмий мероси ҳозирча сояда қолмоқда. Умид қиламизки, келгусидаги архив тадқиқотлари ва қўлёзмаларни ўрганиш орқали Қози Ҳасаннинг илмий мероси қайта кашф этилади

* * *

“MAHKAMAI ISLOM” VA UNING FAOLIYATI

«MAHKAMAI ISLAM» AND ITS ACTIVITIES

Kholmirzayev Khairullo Lutfillojon oglu,
PhD student at Namangan State University
E:mail: xayrullohxolmirzayev93@gmail.com
ORCID ID 0009-0005-6672-425X

Qo‘qon xonligi tarixchisi mulla Shamsiddin Shavqiyning (1805-1887) “Tarixi Shavqiy” asarida, Toshkentni bosib olishda asosiy rolni o‘ynagan rus generali M.G. Chernyaevning 1884-yil 19-yanvaridagi buyrug‘iga ko‘ra tuzilgan, atiga uch faoliyat olib borgan “Mahkamai islom”

633 Салоҳиддин Абдуллатиф Наҳий. Суғдий.Туркия диёнат вақфи энциклопедияси.– Истанбул: ИСАМ, 2009. – Ж. 37. – Б. 474.
634 Самъоний. Ансоб. – Ҳайдаробод: Доиратул Маориф, 1981. – Ж. 12. – Б. 3.
635 Зиёдов Ш. Имом Мотуридий. Т.: Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2022. – Б. 9.
636 Шукру Ўзан. Мотуридий. Туркия диёнат вақфи энциклопедияси.– Анқара: ТДВ, 2003. – Ж. 28. – Б. 146.
637 Носируддин Самарқандий. Ал-Мултақот фил фатавал ҳанафия. Байрут: Дорул кутубил илмийя, 2000. – Б. 66.
638 Ўша манба. – Б. 142.
639 Ўша манба. – Б. 226.

ma’muriy-boshqaruv faoliyat tizimi va uning a’zolari bo‘lmish yetti nafar turkistonlik qozilar haqidagi ma’lumotlar hali tadqiq qilinmagan edi.

M.G. Chernyaev 1882-yilda Turkiston general-gubernatori etib tayinlangach, o‘lkada Rossiya imperiyasi manfaatlari uchun hizmat qiladigan boshqaruv tizim hamda iqtisodiy jihatdan o‘lkada foyda olinishi uchun zarur islohotlar o‘tkazish vazifalari yuklangan. Bunga sabab uning Turkistonni bosib olish jarayonida ortirgan tajribasi borligi muhim hisoblangan. Chunki bu vaqtga kelib, Rossiya imperiyasi hukumati uchun Turkiston muhim xom-ashyo bazasiga aylangani bilan ishlab chiqaruvchi va soliqchi bo‘lgan mahalliy musulmon aholisi bilan yetarlicha muosabatlar o‘rnatilmagan edi. Biroq imperiya amaldorlari xalqni o‘z tarafiga og‘dirish uchun shariat hukmini ham joriy etilsa, imperiya qonunlariga mos kelishi mumkin deb belgilaydilar. Shavqiy asarida, Rossiya imperiyasi hukumati, shariat va imperiya “zakon”ini moslashtirish uchun yetti nafar ulamolarga, ya’ni Muhiddinxo‘ja (1842-1902), Sayyid Boqijon Abulqosim eshon o‘g‘li, Rahmatilloxo‘ja, Sarimsoqxo‘ja, Nizomiddin, Xo‘ja Yunus, Bahodurlarga imperiya hukumati amal berganini yozgan. Shavqiy “Tarixi Shavqiy” asarida yuqoridagi ulamolarni va ularning faoliyatini tavsiflagan.

Ma’lumki, 1869-yilda general-gubernator fon K. P. Kaufman Toshkentda qozikalon mansabini bekor qilgan va shu yili bu vazifadan chetlashtirilgan Hakimxo‘ja eshon vafot etadi. Turkistonda o‘n besh yilcha hukmronlik qilgan Fon Kaufman raqibi Hakimxo‘ja haqida: “U zot Xudodan bo‘lak hech kimdan qo‘rqmagan ajoyib inson edi” deya tan beradi. Biroq, u bilan til biriktiraolmaydi. Shu bois, 1882-yilda yangi general gubernator M.G. Chernyaev Hakimxo‘ja eshonning o‘g‘li Muhammad Muhiddinxo‘ja Sebzor dahasi qoziligiga saylanadi. “Tarixi Shavqiy” asarida Muhiddinxo‘jani “Xo‘jalar xotami” deb ta’rif bergan. 1884-yil 19-yanvarida M. G. Chernyaev buyrug‘i bilan tashkil qilingan “Mahkamai islom”ga Muhiddinxo‘jani rais etib tayinlagan. Uning a’zolari Yunusxon Eshon ibn Xonxoja Eshon, Rahmatullohxoja Azimxoja o‘g‘li, Qori Fazlulloh Mirjalol o‘g‘li, Sayidboqijon Abulqosimjon Eshon o‘g‘li va Bahodurxoja Imom Muhammadxoja o‘g‘li nomidan yozilgan arizada ular a’zolikka tayinlanganliklari uchun tashakkur bildirib, gubernatorning “Majlis”ga rais (sadr-neshin) saylash haqidagi topshirig‘iga binoan hammalari ittifoqlikda qilgan qarorlariga ko‘ra Muhammad Muhiddinxoja Eshon valadi marhum qozikalon Muhammad Hakimxoja Eshonni raislikka tayinlash hamda majlisni “Mahkamat ul-islom”, raisni “Sadr ush-shari‘a” va a’zolarni “Aminiddin” deb atashni iltimos qilishgan[640].

1884-yil 24-yanvarida Qo‘qondan Sarimsoqxo‘ja qozi Abdusami’xo‘ja o‘g‘li hamda Samarqanddan mulla Mir Nizomiddinxoja Abdulg‘afforxoja o‘g‘li chaqirtirilib, “Mahkamai islom” tarkibiga kiritilgan“Tarixi Shavqiy” asarida bu yetti nafar Turkiston qozilari tavsifi keltirilgan bo‘lib, ularning birinchisi yuqorida keltirilgan “Mahkamai islom” raisi Muhiddinxo‘ja eshon edi[641].

Ikkinchi ulamo Sayyid Boqixon (Sayyid Boqijon Abulqosim eshon o‘g‘li) Beshyog‘och dahasi qozisi bo‘lgan. Shavqiy u haqda, “Fahmu jobak fasohat ichra zarif”, “ilm daryosiga bo‘lib g‘avvos” deb ta’rif bergan. “Fahmi donishda” unga teng keladigan nozir yo‘q deb yozgan. Toshkentdagi Qozirobod mahallasini nomi aynan Boqixon qozi nomi bilan bog‘liq deb ko‘rsatiladi.

Uchinchi ulamo Rahmatullohxoja a’lam Azimxoja o‘g‘li bo‘lib, u haqda dostonda “din rivojin g‘amin davomat yer”, “anga taslim etib hama ofoq” ta’rifi berilgan. Kibrdan uzoqda bu kishini “o‘zga yerda timsoli yo‘q” deb yozgan. Toshkent shahrining Shayxontohur dahasiga a’lam etib tayinlangan. Rossiya imperiyasi qonunlarini shariat hukmlariga ta’sir etishini xohlamagan. Shu bois, Toshkent shahar hokimidan a’lam vazifasidan ozod etishni so‘rab murojaat qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivida uning bu murojaati saqlanib qolgan. Unda “Hurmatli shahar hokimi xizmatlarig‘a Shayxontohur dahasining qozisidan rapurt. Ushbu

[640] Султонов Ў. Тошкент вақф мулкчилари тарихи. Тарихий ҳужжатлар тадқиқи ва талқини (1507-1917). – Тошкент: Фан, 2021. – Б. 92.

[641] Абдулахатов Н., Қулдашев Ш. Мулла Шамсиддин Шавқий. –Наманган: Usmon Nosir media, 2022. – Б. 201.

barobarinda ma'lum qilamankim, 1890-yil 16-yanvarda Shayxontohur dahasiga a'lamlik mansabiga tayin bo'lg'on Rahmatxo'ja eshon A'zamxo'ja eshon o'g'li a'lamlikni xohlamas ekan. Mazkur a'lam o'ziga tegishli a'lamlik lavozimatini ado qilolmagani sababli mazkur Rahmatxo'ja eshon A'zamxo'ja eshon o'g'lini a'lamlikdin bekor qilib, aning o'rnig'a a'lamlik lavozimatini ado qilmoqqa mullo Zayniddin maxdum domullo Miriso oxund o'g'lini tayin qildim"[642].

To'rtinchi ulamo Sarimsoqxo'ja Abdusami'xo'ja o'g'li bo'lib, Shavqiy uni asli qo'qonlik ekanligini keltirgan. Aslida u kishi Qo'qon qozisi bo'lgan. Dostonda "Hama ilmu ma'onilar koni", "Fahm donishda bir chirog'u munir", "Peshvoyi ham kabiru sag'ir" deb unga ta'rif berilgan.

Beshinchi ulamo Mulla Mir Nizomiddinxoja Abdulg'afforxoja o'g'li bo'lib, Shavqiy uni samarqandlik ekanini qayd qilgan. "Tarixi Shavqiy"da "Murshid muttaqiy alloma", "mardu sohib karam" deb ta'rif bergan

Oltinchi ulamo esa Xo'ja Yunus (Yunusxon Xonxo'ja o'g'li) bo'lib, Shavqiy uni ilm olishda tinmasligini yozgan. "Orifu asr bo'lib balog'atda", "Zubdai asir adab fasohatda" deb ta'rif keltirgan. O'z nutqi bilan hammani o'ziga qaratib oladi deb yozgan. U Ko'koldosh madrasasining mutavalisi bo'lgan.

Yettinchi ulamo esa Bahodirxo'ja Imomxo'ja o'g'li bo'lib, "Tarixi Shavqiy"da uni Bahodurxon deb tanitilgan. Unga "Bahra olg'on bu erdin ahli jahon", "Ilmidin anga zib oroyish" ta'rifi berilgan.

Shavqiy Qo'qon xonligi devonida ishlagan bo'lib, Xudoyorxonga akasi Mallaxon (1858-1862) nomidan "Pandnoma" yozganligi uchun o'z qishlog'i Kalvakda "uy qamog'i"ga solingan edi. Hozirda uning merosi avlodlaridan biri Ismoil xoji Lutfitdinov (1968-yilda tug'ilgan) qo'lida saqlanadi. Natijada Shavqiyning "Devoni Shavqiy-1" asari borligi, qo'lyozmaning hajmi 26,x16 sm. 68-varaqdan, ya'ni 136-betdan iboratligi aniqlandi. Ushbu devon tarkibida "Tarixi Shavqiy" asari ham mavjudligi aniqlandi. Shavqiyning bu asari asosan ikki qismdan, ya'ni ikki tarixiy voqea haqida yozilgan. Birinchisi, Rossiya imperiyasining Qo'qon xonligini bosib olinishi, ikkinchisi 1884-yil yanvar-mart oylarida faoliyat olib borgan "Mahkamai islom" va uning a'zolari bo'lmish yetti nafar Turkiston qozilarining tavsifi masalasidir.

Ma'lumotlarga ko'ra 1865-yilning 6-avgustidagi Rossiya imperatori Aleksandr II "Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizom"ga imzo chekkach, ushbu hujjatga ko'ra o'troq aholi uchun qozilik sudlari, ko'chmanchi aholi uchun esa biylik sudlari xizmat qiladigan bo'ldi. Bu sudlarning tuzilishidagi o'zgarishlar natijasida qozikalon lavozimi bekor qilindi, barcha qozilarning huquqlari tenglashtirildi. Qozilarni uch yilda bir marta saylash tartibi joriy qilinib, da'vogar arizasini ko'rib chiqishi uchun o'zi ko'proq ishongan qoziga murojaat qilish huquqi berildi. Ko'p o'tmay 1867-yildagi "Nizom loyihasi"ga ko'ra Turkistonda o'ziga xos sud qurilishi tizimi joriy qilindi.

Rossiya imperiyasi Turkistondagi vaqf yerlarni ham o'zlashtirish maqsadida qozilardan foydalanishga harakat qilgan. Biroq, bu masalada qozilarning shariat hukmini qat'iy ushlashi oqibatida amalga oshimay qolgan. Vaqf tizimini isloh qilishi tashabbuskori ham M.G.Chernyaev bo'lgan bo'lib, joriy yilning 19-yanvardagi buyrug'iga ko'ra, mahalliy ulamolardan iborat Komissiya tashkil qilgan. Bu ulamolar Shavqiy yozgan "Mahkamai ulamo" yoki "Mahkamai islom" bo'lib, ular o'lkadagi din va ta'lim, shuningdek, vaqf sohalarini boshqari vakolatini berish rejasi asosida ish ko'rgan. Toshkentning Sebzor dahasi qozisi Muhiddinxo'ja qozi raisligida ish boshlagan Komissiya tomonidan Turkiston o'lkasida birgina vaqf mulkchiligi faoliyatini yo'lga qo'yish va tartibga solishga oid 15-banddan iborat loyiha ishlab chiqarganlar.

1892-yilda Turkiston general-gubernatori buyrug'i bilan xalq qozilari uchun tayyorlagan dasturul amalda bayon qilingan qozilarning ish olib borish faoliyati bilan bog'liq tavsiyalar buni qanchalik mashaqqatli bo'lganini ko'rsatadi.[643]

[642] Ўзбекистон Республикаси Марказий архиви, 36-фонд, 3-рўйхат, 3180-иш, 4-варақ.
[643] Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeyining fondi KP № 833. Dr 138-019.

Ushbu loyihada avvalo vaqf mulklari xos, ommaviy, avlodiy va oydin tavsiflab berilgan. Loyihada vaqf mulklarini to‘liq ro‘yxatini shakllantirish, mutavali tayinlashda ularning salohiyatini hisobga olish, mutavallilarning kirim-chiqim daftarini yuritish va yillik hisobot topshirishini joriy qilish, vaqf mulklarini ijaraga berish va foydalanishda shaffoflikni yaratish kabi bir qator masalalar o‘rtaga tashlandi. Tabiiyki, barcha vaqf turlarini nazorat qilish, vaqf mulklarini o‘lchash va xatlash sohasidagi nizolarni ko‘rish, tugatilgan vaqf sub’ektlariga qarashlari mulklarni boshqa maqsadlarga yo‘naltirish kabi muhim vakolatlarni “Mahkamai ulamo” o‘z zimmasida qoldirdi. Biroq, “Mahkamai ulamo” 1884-yil martida M.G. Chernyaev hokimiyatdan ketishi bilan to‘liq ish boshlamasdan o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Loyiha va uni amalga oshirish ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Biroq, loyihada ilgari surilgan ba’zi g‘oyalarni keyingi davr vaqf munosabatlarida qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan tayyorlangan nizomlarda saylov sudya (qozi)lar lavozimiga nomzodlarning bilim darajasi borasida ma’lum talabning mavjud emasligi saylovlar atrofida olishuv va ixtiloflarga keng yo‘l ochadi. Agar xonlik davrlarida qozi lavozimiga ko‘plab nomzodlar orasidan eng loyiqlari tanlangan, ulardan shariat qonunlari va qozilik shartlari bo‘yicha imtihon olingan, nomzodning qobilligi fuqarolar tomonidan tan olingan bo‘lsa, yangi davr saylov tizimi bu talabni susaytirdi. Endi hammasi nomzodning mustamlaka hokimiyatiga xayrxohligiga bog‘liq edi, chunki bu hokimiyat saylov natijalarini tasdiqdan o‘tkazardi[644].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Абдулахатов Н., Қулдашев Ш. Мулла Шамсиддин Шавқий. –Наманган: Usmon Nosir media, 2022. 375 -б.

2.Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: “Академия” нашриёти, 2002. – 217б.

3.Валидов А.З. Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. – Петроград, т. XXII. 1915. 86-109.

4.Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Тошкентнинг “Янги шаҳар” қисми тарихи....139-б.

5.Zeki Velidi Togan. Tarihte usul (3 üncü Baski). İstanbul, 1981.– 445c

6.Кулдашев Ш. Т. «Тарих-и Шавки» - важное произведение о коканском ханстве // Вестник Ошского государственного педагогического университета. – Ош, 2022. – № 2. – С. 73-80.

7.Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyining fondi KP № 833. Dr 138-019.

8.Мадғозиев М., Файзуллаев Р., Абдулаҳатов Н. Хожажон Хожа Рожий Марғиноний. III. – Тошкент: “NOSHIR”, 2016. – Б.55.

9.Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий (Фарғона чор мустамлакаси даврида). – Тошкент: “Маънавият”, 1999. – 175б.

10.Стори Ч.А. Персидская литература. Том. III. – Москва:Главная редакция восточная литературы, 1972. –С.1314.

11.Султонов Ў. Тошкент вақф мулкчилари тарихи. Тарихий ҳужжатлар тадқиқи ва талқини (1507-1917). – Тошкент: Фан, 2021. – 368б.

12.Toshkent qozikaloni // O‘zR MA, I-164-fond, 1-hujjat. O‘zR MA. T–1-fond, 11-ro‘yxat, 326-ish. -2-varaq.

13.O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, 36-fond, 3-ro‘yxat, 3180-ish, 4-varaq.

* * *

[644] Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: “Академия” нашриёти, 2002. – Б. 32.

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI ILMIY-MA‘NAVIY MEROSI

THE SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE OF CENTRAL ASIAN THINKERS

Shahzoda Muhiddinova,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Dilshodaxon Muminova,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy va ma’naviy merosi atroflicha yoritilgan. Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Mahmud Koshg‘ariy, Bahouddin Naqshband va Abdurahmon Jomiy kabi buyuk siymolarning asarlari hamda ularning jahon ilm-fani va ma’naviyati taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tahlil qilingan. Maqolada mutafakkirlarning ilmiy qarashlari, ma’naviy g‘oyalari, asarlarining ahamiyati va zamonaviy davrdagi dolzarbligi ochib berilgan. Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosini chuqur o‘rganish va yosh avlod ongiga singdirish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, madaniyat, ma‘rifat, ilmiy meros, madrasa, maktab, kutubxona.

Kirish. Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G‘arbni bog‘lovchi buyuk sivilizatsiyalar chorrahasi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etgan. Bu zamin nafaqat savdo yo‘llari, balki ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat rivojining muhim markazi bo‘lib kelgan. VIII asrdan boshlab Markaziy Osiyoda islomiy ilmlar keng yoyildi, madrasalar, kutubxonalar, ilmiy maktablar tashkil etildi. Buxoro, Samarqand, Xorazm, Termiz, Marv, Toshkent kabi shaharlar ilm-fan markazlariga aylandi. Bu yerlarda yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar nafaqat musulmon Sharqi, balki butun dunyo ilm-faniga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy merosi insoniyat tafakkuri taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Ular yaratgan asarlar falsafa, mantiq, tibbiyot, tarix, tilshunoslik, fiqh, tasavvuf, adabiyot, san’at kabi sohalarda bugungi kunda ham dolzarbdir. Shu sababli bu merosni o‘rganish nafaqat tarixiy xotira, balki zamonaviy taraqqiyotimiz uchun ham muhimdir.

Asosiy qism.

Abu Nasr Farobiy (873–950)

Forobiy turli fanlarga oid 160 dan ortiq asar yozgan. U falsafa, mantiq, musiqa, psixologiya va siyosatshunoslikda jahon miqyosida tan olingan mutafakkirdir. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari ideal jamiyat tuzilishi, hukmdor fazilatlari, ilm va ma’rifatning inson hayotidagi o‘rni haqida qimmatli qarashlarni o‘z ichiga oladi. Mutafakkir yuqoridagi asarida utopia va anti utopiyani tasvirlagan. Shuningdek, u musiqaga oid “Musiqa haqida katta kitob” asarida musiqa nazariyasi va inson ruhiyatiga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilgan.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048)

Beruniy ensiklopedik bilim sohibi bo‘lib, uning asarlari geografiya, matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix, mineralogiya, etnografiya kabi ko‘plab sohalarni qamrab oladi. “Hindiston” asarida u hind madaniyatini, diniy qarashlarini, geografiyasini ilmiy asosda bayon qilgan. Beruniyning

tajribaga asoslangan ilmiy yondashuvi zamonaviy fan metodologiyasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Qomusiy olim sanalmish Beruniy hatto arxitektura yo‘nalishida ham qalam tebratgan.

Abu Ali ibn Sino (980–1037)

Ibn Sino tibbiyot, falsafa, kimyo, musiqa, mantiq va boshqa ko‘plab fanlarda ulkan meros qoldirgan. Uning “Tib qonunlari” 17-asrgacha Yevropaning ko‘plab universitetlarida asosiy qo‘llanma sifatida o‘qitilgan. Ibn Sino inson sog‘lig‘i va ruhiyatiga oid masalalarda juda chuqur ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Shuningdek, uning falsafiy asarlari ham Sharq va G‘arb tafakkuriga ta’sir ko‘rsatgan. Uning tibbiyotga oid asarlari bugungi kunda ham dunyo shifokorlari orasida keng qo‘llaniladi.

Imom Buxoriy (810–870)

Imom Buxoriy islom dunyosining buyuk muhaddisi bo‘lib, u tuzgan “Al-jome’ as-sahih” hadis to‘plami musulmon dunyosida Qur‘ondan keyingi eng ishonchli manba sifatida e’tirof etiladi. Uning faoliyati diniy ilmlar rivojida, islom huquqshunosligi va ma’naviy hayotda beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Mahmud Koshg‘ariy (XI asr)

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit-turk” asari bilan turkiy xalqlar tilini, urf-odatini, madaniyatini o‘rganishda bebaho manba yaratdi. Bu asar nafaqat lug‘at, balki etnografik va tarixiy ensiklopediya sifatida ham qadrlanadi.

Bahouddin Naqshband (1318–1389)

Naqshbandiya tariqatining asoschisi bo‘lgan Bahouddin Naqshband tasavvufda sodda hayot, poklik va halollik g‘oyalarini ilgari surdi. Uning “Dil bayoru, dast bakor” shiori ma‘naviy hayotda Allohni yod etib, shu bilan birga dunyoviy ishlarni ham halol bajarishga chaqiradi.

Alisher Navoiy (1441–1501)

Alisher Navoiy o‘zbek va turkiy adabiyotning asoschisi sifatida tanilgan. U nafaqat shoir, balki mutafakkir, davlat arbobi va ma’naviyat targ‘ibotchisi sifatida ham e’tirof etiladi. “Xamsa” dostonlari, g‘azallari, falsafiy qarashlari orqali insonparvarlik, adolat, ilm-ma’rifat va axloqiy poklik g‘oyalarini targ‘ib qildi. Navoiy tilshunoslikda ham ulkan meros qoldirib, turkiy tilni adabiy til darajasiga ko‘tardi.

Xulosa. Markaziy Osiyo mutafakkirlari nafaqat o‘z davrining, balki jahon tarixining ham buyuk siymolari bo‘lib, ularning asarlari bugungi kunda ham o‘z qadrini yo‘qotmagan. Ularning ilmiy-ma’naviy merosi yosh avlodni ilmga, ma’rifatga, ezgulikka chorlaydi. Mutafakkirlarning asarlarini o‘rganish va keng targ‘ib qilish milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, ilm-fan taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beruniy A.R. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” Toshkent: Fan, 1968.
2. Ibn Sino A. “Tib qonunlari” Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1993.
3. Forobiy A.N. “Fozil odamlar shahri” Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Imom Buxoriy. “Al-jome’ as-sahih” (arabcha matn, turli nashrlar).
5. Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘otit-turk” Toshkent: Fan, 1960.
6. Karimov I.A.“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

* * *

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “NUKATU-L-I’ROB” ASARI VA AL-FARRONING “MAONIY-L-QUR’ON” ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

“A COMPARATIVE ANALYSIS OF MAHMUD AL-ZAMAKHSHARI’S “NUKAT AL-I‘RAB” AND AL-FARRA’S “MA‘ANI AL-QUR’AN”

Abzalova Farida
O‘zbekistom xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA”
kafedrasi 2-kurs tayanch doktoranti
faridaabzalova96@gmail.ru

Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Zamaxshariy ko‘hna Xorazm zaminidan yetishib chiqib, jahon fani va madaniyati rivojiga o‘zining munosib va salmoqli hissasini qo‘shgan buyuk olimlardan biridir. Mahmud Zamaxshariy 467 yil 27-rajab, chorshanba kuni, milodiy 1075 yilning 18 mart kuni Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ildi[645].

Allomaning yoshligidan ilm olishga rag‘bati baland edi. Bir oyog‘i cho‘loq bo‘lib qolganligi ilmga bo‘lgan rag‘batini so‘ndirmadi. Dastlabki ilmni o‘z otasi Umar ibn Ahmaddan oladi. So‘ng Buxoroda tahsilini davom ettiradi. Umri davomida bir qancha arab mamlakatlariga safar qilib safari davomida o‘z bilimini yanada kengaytirdi.

Uning buyuk olim bo‘lib yetishishida ustozlarining ham hissasi beqiyos. Xususan, Abu Mudar ibn Jarir ad-Dabbiy al-Isfahoniydan til, lug‘at va adabiyotdan ta’lim olgan. Bag‘dodda shayxulislom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, Abu Soad ash-Shaqqoniy, Abu Xattob ibn Abul Batarlardan hadis ilmini o‘rgangan bo‘lsa, Makkada nahv va fiqh bo‘yicha Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat al-Yabiriy al-Andalusiy, shayx as-Sadid al-Xayyatiylardan saboq olgan. Lug‘at ilmini esa Abu Mansur Mavhub ibn al-Xodar al-Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o‘rgangan.

Mahmud Zamaxshariyning hayoti va faoliyati haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjudligini e’tiborga olib bu xususida ko‘p to‘xtalmaymiz.

Alloma asarlarining soni turli manbalarda turlicha keltiriladi. Zamaxshariy asarlarini tahlil qilgan S. Saidjalolov Mahmud Zamaxshariy 91 ta asarga mualliflik qilgan deb ma’lumot beradi[646]. Ana shunday asarlaridan biri “Nukatu-l-i’rob fi g‘arib i’rob fi-l-Qur’onil Karim” (“Qur’onning ajoyib ifodasida arablar nafosati”) asari. Bu asar allomaning arab grammatikasinig nozik jihatlarini ochib beruvchi asarlaridan bo‘lib, unda Qur’oni Karim oyatlarinig nozik jihatlari grammatik tahlil orqali ochib beriladi. Mazkur asar qo‘lyozma holatda bo‘lib, Zamaxshariy uni “Nukatu-l-i’rob fi g‘aribi-l-i’rob” nomi bilan atagan. Tarjima va tabaqot olimlarining ba’zilari o‘zlarining kitoblarida bu nomga “Fi-l-Qur’oni-l-karim” iborasini qo‘shganlar[647].

Al-Farroga kelsak uning to‘liq nomi Abu Zakariyo Yahyo ibn Ziyod ibn Abdulloh ibn Marvon ad-Daylamiy bo‘lib Banu Asadning mavovlosi edi. Uning otasi Ziyod al-Aqta’ (“qo‘li kesilgan”) deb atalgan bo‘lib, Husayn ibn Ali bilan birga bo‘lgan jangda qo‘li kesilgan. U Abu Sarvonning mavolosi edi, Abu Sarvon esa Banu Avsning mavolosi hisoblangan.

---

[645] Z. Islomov. Muqaddimatu-l-adab. –T.: TIU, 2002. –B.3.

[646] Saidjalolov. S. Mahmud Zamaxshariyning “Ruusul-masail” asarida hanafiy mazhabi talqini. Monografiya. Tarix fanlari bo‘ yicha PHD. – T.: Tipograf, –B.30

[647] Az-Zamaxshsriy. “Nukatul i’rob fi g‘orib i’rob fi-l Qur’onil Karim”. Tahqiq: Dok. Muhammad Abu-l-Fotuh Sharif. – Dimyat: “Dorul Ma’orif” nashriyoti, 1998. –B. 32 (Bundan so‘ng “Nukatu-l-I’rob”)

Al-Farro hijriy 144-yilda (milodiy 761-yil) Kufa shahrida tug‘ilgan. U asli fors naslidan edi. Unga “Farro” laqabi berilishiga sabab, u so‘zlarni “bo‘lardi” ya’ni tahlil qilib, aniq ajratib sharhlaganidir. Olim yoshligidan Abu Bakr ibn Abbos va Sufyon ibn Uyayna kabi qori, muhaddis, mufassirlar hamda shoir rivoyatchilar davralariga qatnashgan. Shuningdek, u til va nahv ilmini Abu Ja’far ar-Ru’asiy hamda al-Kisoiydan o‘rgangan[648].

Olimning ilmga bo‘lgan rag‘bati va ilm talabidagi mashaqqatli mehnati sababli nahv ilmini chyqur egalladi va zamondoshlari hattoki xalifa Ma’mun e’tirofiga sazovar bo‘ldi. Ibnu-l-Anbariy o‘zining “Nuzhatu-l-alba’ fi tobaqoti-l-udaba’” asarida bu xususida qayd etib o‘tgan.

Xalifa Ma’munning Al-Farroga bo‘lgan hayrat va uning ilmi hamda bilimdonligiga ishonchi shunchalik katta ediki, u al-Farrodan arab tilida eshitgan ma’lumotlari va nahv qoidalarini jamlagan bir asar yozishni so‘radi. Ma’mun buning uchun unga barcha qulayliklar bilan jihozlangan bir uy tayyorlab berdi hamda bu ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan hamma narsani ta’minladi. Shuningdek, u kotiblarni chaqirtirib, Al-Farroning og‘zaki aytganlarini yozib olish va ko‘chirib berishlarini buyurdi. Natijada Farro “Al-Ḥudud” (“Chegaralar”) nomli asarini yaratdi. Unda nahvning barcha boblarini yoritib, har bir bobda o‘ziga xos fikrlarini ilgari surdi[649].

Al-Abbos Aḥmad ibn Yaḥyo bir necha marotaba shunday deydi: “Agar Al-Farro bo‘lmaganida, arab tili o‘z mavqeini saqlab qola olmas edi. Chunki u uni qal’adek mustahkam himoya qildi va poydevorini mustahkamlab qo‘ydi. Agar Farro bo‘lmaganida, arab tili yemirilgan, so‘nib ketgan bo‘lardi[650]”.

Ko‘rinib turibdiki, Al-Farro nahv ilmining nafaqat yetakchisi balki uni rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shgan olimlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham uning xizmatlarini e’tirof etib “Nahvda amiru-l-mu’minin” deb e’zozlashgan.

U 200-hijriy yilning (milodiy 815-yil) yettinchi yili Makkaga yo‘lda, 67 yoshida vafot etdi[651]. U o‘zidan boy ilmiy meros qoldirgan. Ibn Nadim o‘zining “Al-Fahrist” nomli asarida Al-Farroning 43 asari haqida ma’lumot beradi[652].

Allomaning “Maoniyi-l-Qur’an” asari Qur’on oyatlarini tafsiriga bag‘ishlangan ilk asarlardan hisoblanadi. Unda oyatlar asosan grammatik tahlil qilingan.

“Maoniyi-l-Qur’an” asari haqida Abu al-Abbos Aḥmad ibn Yaḥyo, Sa’lab nomi bilan mashhur olim, shunday rivoyat qiladi: “Al-Farroning Qur’on haqidagi kitobi shunday kitobki, undan oldin ham, undan keyin ham unga o‘xshash asar yozilmagan va hech bir kishi unga biror narsa qo‘sha olmagan. Olimning bu asarni yozishiga sabab shuki, Salabning shogirdlaridan Umar ibn Bukayr al-Ḥasan ibn Sahlga bog‘langan edi. Bu voqea al-Ḥasan ibn Sahl Bag‘dodda al-Ma’mun nomidan vakillik qilayotgan davrida, xalifa hali Marvda bo‘lib, u yerdan Bag‘dod — o‘z hukmronligi poytaxtiga ko‘chib kelmagan paytda sodir bo‘ldi. Umar ibn Bukayr Salabga xat yozib, unda shunday dedi: Al-Ḥasan ibn Sahl Qur’onning biror joyi haqida savol bersa, men ba’zan unga javob topa olmayman. Agar sen uning uchun asosiy qoidalarni jamlasang yoki bu borada bir kitob tuzib bersang, biz undan murojaat qiladigan manba sifatida foydalansak, yaxshi bo‘lar edi[653]”

Shundan so‘ng al-Farro o‘zining 1000 betga yaqin “Maoniyi-l-Qur’an” asarini yaratdi. Bu asar lug‘aviy-nahviy tafsir bo‘lib aksariyat hollarda oyatlar grammatik tahlil qilingan. Asarni Zamaxshariyning “Nukatu-l-e’rob” asaridan farqini tahlil qilish uchun ikki asarda ham oyatlar sharhlanishiga e’tibor qaratamiz. Masalan, Yunus surasining 2 oyati sharhini dastlab “Nukatu-l-e’rob”da so‘ng “Maoniyi-l-Qur’on”da ko‘rib chiqamiz.

---

648 د. صلاح رواي. النحو العربي: نشأته، تطوره، مدارسه، رجاله. القاهرة: دار غريب. ٢..٣. ص. ٧٩٣.

649 ابن الأنباري. نزهة الألباء في طبقات الأدباء. المحقق: الدكتور إبراهيم السامرائي. الأردن: مكتبة المنار، ٥٨٩١. ص ١٧

650 أبو بكر محمد بن الحسن الزبيدي الأندلسي. طبقات النحويين و اللغويين. المحقق: محمد أبو الفضل إبراهيم. مصر: دار المعارف ، ٩١١١. ص ٢٣١.

651 السيوطي. بغية الوعاة في طبقات اللغويين والنحاة. ج ٢. المحقق : أبو الفضل إبراهيم. مصر: عيسي البابي، ٤٦٩١. ص ٣٣٣

652 ابن النديم. الفهرست. بيروت-لبنان: دار المعرفة، ٧٩٩١ ص ٠٠١

653 د. صلاح رواي. النحو العربي: نشأته، تطوره، مدارسه، رجاله. القاهرة: دار غريب. ٢..٣. ص. ١٠٤

أَكَانَ لِلنَّاسِ عَجَبًا أَنْ أَوْحَيْنَآ إِلَىٰ رَجُلٍ مِّنْهُمْ أَنْ أَنذِرِ ٱلنَّاسَ وَبَشِّرِ ٱلَّذِينَ ءَامَنُوٓاْ أَنَّ لَهُمْ قَدَمَ صِدْقٍ عِندَ رَبِّهِمْۗ قَالَ ٱلْكَٰفِرُونَ إِنَّ هَٰذَا لَسَٰحِرٌ مُّبِينٌ

Odamlarga o‘zlaridan bo‘lgan bir kishiga vahiy yuborib: “Odamlarni ogohlantir va iymon keltirganlarga Robbilari huzurida ular uchun sobitqadamlik borligining **bashoratini ber”, deganimiz ajablanarli bo‘ldimi?** Kofirlar: “Albatta, bu ochiq-oydin sehrgardir”, dedilar.

[Yunus surasi 2-oyat]

Alloh taoloning “Odamlar uchun ajablanarli hol bo‘ldimi — Biz ulardan bir kishiga vahiy nozil etishimiz” so‘zlariga izoh: Agar so‘rasang: “Bu oyatda ‘لِـ’ (li) harfining ma’nosi nima va “أكان عند الناس عجبا” (Odamlar huzurida ajablanarli bo‘ldimi) jumlasi bilan farqi nimada?” — der edim: “Uning ma’nosi shundaki, ular (ya’ni, odamlar) bu voqeani o‘zlariga ajablanarli hodisa qilib oldilar, undan hayratga tushdilar va uni o‘zlarining mazax va inkorlarini yo‘naltiradigan belgiga aylantirdilar. “عند الناس” (“odamlar huzurida”) iborasida esa bu mazmun — ya’ni, uni mazax va inkor belgisi qilish ma’nosi — mavjud emas[654]..

Bu yerda muallif “لِلنَّاسِ” tarkibidagi “لِ” harfining faqat mulk yoki tegishlilik ma’nosini emas, balki mazax va inkorni nishonga aylantirish ma’nosini ham anglatishini ta’kidlamoqda. Shu bilan birga, “الناس” ifodasida bu ma’no yo‘qligini izohlamoqda. Demak, oyatda “عند” old ko‘makchisi emas “لِ” (“uchun”) old ko‘makchisining qo‘llanilishida ham Qur’onga xos balog‘at (yetuklik) borligining yana bir bor namoyish etadi.

1. Nahviy (grammatik tahlil)

• لِلنَّاسِ — bu yerda “لِ” harfi jar mulk, ixtisos yoki sabab ma’nosida kelmagan, balki maqsad va yo‘naltirish ma’nosida ishlatilgan. Nahviy istilohda bunga لَامُ التَّعْلِيلِ المَجَازِي (“Majoziy “lomi ta’lil”) deyish mumkin.

• عَجَبًا — masdar, jumlada ismiy xabar sifatida kelib, “ajablanarli hol” ma’nosini bildiradi.

• Jumlaning asl tartibi: أكان عجبًا للناس bo‘lib, لِلناس taqdim qilingan, bu esa ixtisos (xoslash) va ta’kid vazifasini bajaradi.

2. Balog‘iy (bayon va ma’ani) izohi

• لِلنَّاسِ tarkibida kelgan “لِ” mazmunni kuchaytiradi, voqeani o‘zlariga ajablanarli hodisa qilib olish ma’nosini beradi. Ya’ni, ular bu holni shunchaki ko‘rishmagan, balki undan o‘z inkor va mazaxlarini yo‘naltiradigan markaz yaratganlar.

• Agar عِندَ النَّاسِ deyilganda, bu faqat “odamlar nazarida” yoki “odamlar oldida” ma’nosida bo‘lar edi. Unda mazax va kinoya ohangi bo‘lmasdi.

• Demak, لِلنَّاسِ — faol munosabat (hodisani o‘zlashtirish va yo‘naltirish), عِندَ النَّاسِ esa passiv munosabatni (faqat mavjudligini bilish) ifodalaydi.

3. Qur’on tilidagi uslubiy noziklik:

• Qur’onda ko‘pincha لِ harfi keltirilganda voqeaga faol munosabat yoki manfaati tegishli bo‘lgan sub’ekt nazarda tutiladi.

• Bu oyatda esa, “لِلنَّاسِ” orqali ular vahiy voqeasini o‘zlari uchun masxara qilinadigan va inkor qilinadigan timsolga aylantirganlari balog‘at bilan ifodalangan.

Endi huddi shu oyatni al-Farroning “Maoniyi-l-Qur’an” asarida ko‘rib chiqamiz.

Al-Farroning “أَكَانَ لِلنَّاسِ عَجَبًا أَنْ أَوْحَيْنَا” (Odamlarga ajablanarli bo‘ldimi, Biz vahiy yuborganimiz) degan oyat haqidagi so‘zida: “عَجَبًا” so‘zi “كَانَ” fe’li orqali nasb (fathali) qilingan. Qur’onda ko‘p hollarda “أَنْ” harfi (masdariyya) va unga bog‘langan fe’l kelganda, ular jumlada marfu’ (zammali) sifatida ishlatilganini ko‘ramiz. Agar “أَنْ”ni mansub qilib, undan keyingi fe’lni marfu’ (zammali qilsalar ham, bu nahv qoidalari bo‘yicha to‘g‘ri bo‘ladi.

Bu o‘rinda al-Farroning grammatik tahlilini ko‘rish mumkin. Arab tili qoidasiga ko‘ra “كان” fe’li kelganda, odatda uning ismi (mubtada o‘rnida) marfu’ (zammali), xabari esa mansub (fathali)

[654] Nukatu-l-e’rob. – B. 198.

bo‘ladi. Qur’on oyatlarida “أن” masdariyya + fe’l” tuzilmasi ba’zan marfu’ (zammali) holatda ism o‘rnida, ba’zan esa mansub (fathali holatda xabar o‘rnida keladi[655].

أَكَانَ لِلنَّاسِ عَجَبًا أَنْ أَوْحَيْنَا grammatik tahlil qilsak:

- كان – naqis fe’l.
- عَجَبًا – mansub (fathali, “كان” ning xabari).
- أَنْ أَوْحَيْنَا – marfu’ (zammali, “كان”ning ismi).

Demak, أَنْ أَوْحَيْنَا jumlada “Biz vahiy yuborganimiz” degan masdar ma’nosida kelib, marfu’(zammali) bo‘lib “كان”ning ismiga aylangan.

Ko‘rib turganimizdek, Zamaxshariy oyatdagi ayrim yuklamalarning oyat mazmuniga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatib oyatning to‘liq ma’nosini ochib bersa al-Farro uni grammatik tahlili orqali mazmunini yetkazishga harakat qilgan.

* * *

IMOM BUXORIY ILMIY MEROSINING TARIXIY AHAMIYATI

THE HISTORICAL SIGNIFICANCE OF IMAM BUKHARI’S SCIENTIFIC LEGACY

Matchonova Mashhura Muzaffar qizi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik fakulteti Tarix(islom tarixi
va manbashunosligi) yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Islom dinining tom ma’noda komillikka chorlaydigan, insoniy fazilatlarga targ‘ib qiladigan, botil mafkuralardan saqlaydigan din ekanligi to‘g‘risida, uning asl mazmun – mohiyatini teran anglashda, ijtimoiy axloqiy masalalarga targ‘ib etishda, yoshlar tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllantirishda Imom Buxoriy merosining o‘rni va ahamiyati muhimligiga e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, Qur’oni Karim Islom dasturi, Islom shariati, hukmlari va odoblarining birinchi manbai ekanligi, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning hadislari esa Islom shariatining Qur’ondan keyingi ikkinchi asl manbai hisoblanishi; Hadis tushunchasi, mazmun mohiyati, Imom Buxoriy to‘plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta’limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmasligi, balki xadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodda ezgulik va go‘zallik tuyg‘ularini mujassamlashtirishi, yosh avlodni insoniylik fazilatlari ruxida tarbiyalash to‘g‘risida fikrlar bildirilgan. Imom Buxoriy merosini o‘rganish va tadqiq qilish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot bilan bog‘liq adabiyotlar tahlil qilingan va ayni paytda Imom Buxoriy ma’naviy merosini o‘rganish bo‘yicha O‘zbekistonda olib borilayotgan ishlar tahliliga ham e’tibor qaratilgan.

Tarixning shodon kunlaridan ma’lumki, IX asrda Markaziy Osiyoda turli din ilmlari, tabobat va al-jabr fanlarini chuqur o‘zlashtirib, ularning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar yetishib chiqqan. Jumladan, buyuk faylasuf Abu Nasr al-Forobiy, jug‘rofiya fani olimi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammadin Muhammad ibn Nasir Al-Farg‘oniy, mashhur tabib Abu Ali Ibn Sino, hadis ilmi podshosi va “Sahih ul Buxoriy” kitobining muallifi Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy kabi buyuk allomalar davri edi[656].

Ma’lumki, Imom Buxoriy qirq yil mobaynida ilmiy safarda bo‘lib, ijodiy faoliyati davomida yigirmadan ziyod asar yozgan. Uning ilmiy merosi hajmi, zamonasining ijtimoiy-ma’naviy ilmlarini

655 الفراء. معاني القرآن. ج. ١. المحقق: أحمد يوسف، محمد علي النجار. القاهرة: دار الكتب المصرية، ٥٥٩١. ص ٧٥٤

656 “Imom Buxoriy ta’rifi” (tarjima va izohlar muallifi Saidazim Muhammad Ali), Toshkent: Cho‘lpon 1996.

to‘la-to‘kis qamrab olgani bilan kishini hayratga soladi. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy juda yosh paytidayoq kitob yozishni boshlagan. Xatib Bag‘dodiy uning o‘zidan rivoyat qiladi: “O‘n sakkiz yoshga yetganimda sahoba va tobeinlarning masalalari va qavllarini ta’lif qila boshladim. Bu Ubaydulloh ibn Musoning davrida bo‘lgan edi. O‘sha paytda “Tarix” kitobimni Rasulullo sollallohu alayhi vasallamning qabrlari yonida oydin kechalarda tasnif etdim”[657]. Yana aytadilarki: ”Men bir ming saksonta muhaddisdan hadis eshitdim. Ularning hammalari Imon — so‘z va amaldan iboratdir , degan e’tiqoddagi kishilar edilar”[658].

“Tahzibul kamol” va boshqa kitoblarda keltirilishicha, mashhur olim Is’hoq ibn Rohavayh Imom Buxoriyning “Tarix” kitobini Xuroson amiri Abdulloh ibn Tohirning oldiga olib kirib: “Ey amir! Sizga sehrni ko‘rsataymi?!” degan. Abdulloh ibn Tohir kitobni bir varaqlab ko‘rganidan keyin hayratini yashirmasdan: “Buning qanday tasnif qilinganiga fahmim yetmayapti”, degan.

Imom Buxoriyning hayoti va ijodini o‘rgangan tarixchi olimlarning tadqiqotlari natijasida uning qalamiga mansub kitoblar ro‘yxati tuzilgan. Ular quyidagilardan iborat:

“Al-Jomi’ as-sahih” (Ishonchli to‘plam). Bu kitob Imom Buxoriyning shoh asari hisoblanadi. U o‘n olti yil mobaynida yozilgan. Asarning qo‘lyozma nusxalari butun dunyoning mashhur kutubxonalarida saqlanmoqda. Bugungi kunda bu to‘plam o‘zbekchaga tarjima qilingan bo‘lib, undan yoshu keksalar mutolaa qilib, ma’naviy-ruhiy quvvat olmoqda.“At-Tarix al-kabir” (Katta tarix). Uni Imom Buxoriy taxminan o‘n sakkiz yoshlarida Rasulullo sollallohu alayhi vasallamning qabr va minbarlari orasida oydin kechalarda tasnif etgan. Bu kitob hadis roviylarining tarixi, boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, tarjimai hollari va rivoyat qilish borasidagi sifatlari haqidagi kitobdir.“At-Tarix al-avsat” (O‘rta tarix). Uni Imom Buxoriydan Abu Muhammad Abdulloh ibn Ahmad ibn Abdusalom Nishopuriy va Abu Muhammad Zanjivayh ibn Muhammad ibn Hasan Nishopuriy rivoyat qilgan. Bu kitobning qo‘lyozma nusxalaridan biri Hindistonning Haydarobod shahrida saqlanadi.“At-Tarix as-sag‘ir” (Kichik tarix). Bu kitobni Imom Buxoriydan Abul Qosim Abdulloh ibn Muhammad ibn Abdurahmon ibn Xalil ibn Ashqar rivoyat qilgan. Bu kitob ham ilk bor 1325/1907 yili Hindistonda chop qilingan.Al-Jomi’ al-kabir (“Katta to‘plam”). Bu kitob haqida Ibn Tohir xabar berib ketgan. Lekin biz u haqda ma’lumotga ega emasmiz va biror nusxasi borligini ham bilmaymiz. “Kashfuz zunun”ning muallifi zikr qilgan narsa bilan kifoyalanamiz, xolos. “Xolqu af’olil ibod” (“Bandalar fe’llarining yaratilishi”). Uni Imom Buxoriydan Yusuf ibn Rayhon ibn Abdusamad va muhaddisning mashhur shogirdi Firabriy rivoyat qilgan. Bu kitobning nomidan unda bahs yuritilgan masala ko‘rinib turibdi. U qadimdan ko‘plab tortishuvlarga sabab bo‘lgan “bandaning amalini kim xalq qiladi – yaratadi?” degan masalaga bag‘ishlangan. Yana boshqa asarlari ham ma’lum. Imom al–Buxoriyning ushbu yirik asarlari yozilganiga qariyb 1000 yildan oshgan bo‘lganiga qaramay, o‘sha davrdan to hozirgi vaqtgacha islomta’limotida Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi o‘rinda turadigan asosiy manba sifatida yuqori baholanib kelinishi barchaga ma’lum. Bugunga qadar “Al-Jome’ as-sahih” muhim manba sifatida u qayta-qayta nashr qilingan[659].

Umumiy olib qaraganda Imom Buxoriy hazratlarining ilmiy merosining tarixiy ahamiyatini aytadigan bo‘lsak, u sahobalar, tobe’iynlar va o‘z ustozlarigacha bo‘lgan hadis roviylarining tarjimai holini jamlagan. Yana bir juda katta diniy va ilmiy hamda tarixiy ahamiyatga molik “Tarixul kabir” kitobi Islom dinida yozilgan kitoblarning ulug‘rog‘i va roviylar tarixi haqida eng birinchi ta’lif etilgan kitoblardan biridir.Imom Buxoriydan keyin kelgan har qanday kishi bu kitobga boquvchidir. Abu Abbos ibn Said: “Agar bir kishi o‘ttiz mingta hadis yozsa ham Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning “Tarix” kitobidan behojat bo‘lmaydi”, degan. Shuning uchun bu kitob “Sahihul Buxoriy” kitobini yozilishiga zamin bo‘lgan deyiladi. Bu “Sahihul Buxoriy”ning tushunarsiz joylarini tushuntiradigan,

[657] https://www.bukhari.uz/?p=18064&lang=oz
[658] Imom Buxoriy Al-Adab al-mufrad. Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid. – Toshkent: Movarounnahr, 2006. -B. 42.
[659] http://old.muslim.uz/index.php/english/maqolalar/item/902

shifrlarini ochadigan va ishoralarini aniqlab beradigan kalitdir[660]. “Tarixul kabir” kitobida Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning davrlaridan Imom Buxoriygacha bo‘lgan davrda yashab o‘tgan o‘n to‘rt mingga yaqin roviylarning tarjimai holi keltirilgan. Shundan mingga yaqin roviylarning tarjimai holi esa “Tarixul kabir”ning so‘ngida, alohida juz qilib keltirilgan “Kunyalar” kitobida bayon etilgan.Imom Buxoriyning nomi “Sahihul Buxoriy”ga bog‘langani ma’lum. Lekin, “Tarixul kabir” kitobi ulamolarning oldida katta ahamiyatga egadir[661].

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma’nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so‘nmas e’tiqod timsolidir. Avlod davom etishi, odob-axloqni asrab-avaylash, jamiyatni mustahkam poydevor ustida saqlash, millatning bardavom bo‘lishi uchun turmush qurish va oila uyini barpo etish muakkad sunnatlardandir. Er va xotin oilaning asosini, oila esa jamiyatning poydevorini tashkil qiladi. Shu boisdan ham dinimiz oilaning o‘zagi bo‘lgan oilaga, erkak va ayolning haq-huquqlariga katta ahamiyat berib, bu borada juda qattiq qoidalarni belgilab bergan. Chunki binoning mustahkamligi uning mustahkam poydevoriga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.“Imom Buxoriy ta’rifi” (tarjima va izohlar muallifi Saidazim Muhammad Ali), Toshkent: Cho‘lpon 1996.

2. https://www.bukhari.uz/?p=18064&lang=oz

3.Imom Buxoriy Al-Adab al-mufrad. Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid. – Toshkent: Movarounnahr, 2006. -B. 481.

4.http://old.muslim.uz/index.php/english/maqolalar/item/902

5.Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Siyaru a’lomi-n-nubalo: 25 jildli. Shu’ayb Arnout tahqiqi. – Bayrut: Doru muassasa ar-risala, 1985. J: 12. -B. 400.

6.Hokim Abu Ahmad Muhammad ibn Muhammad ibn Is’hoq. Al-asomiy va-l-kuna. Yusuf Muhammad Doxil tahqiqi. – Saudiya: Dorul g‘urobo, 1994. J: 2. -B. 274.

* * *

BOBUR VA BOBURIYLAR SULOLASI DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI

THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND KNOWLEDGE DURING THE ERA OF BABUR AND THE BABURIDS

Fozilov Mirashraf Azamatovich
Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va yuridik fakulteti
Siyosatshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
mirashraf2005@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hamda Boburiylar sulolasi davrida ilm-fan va ma’daniyat, ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar masalasi yoritib berilgan. Shuningdek, Boburiylar sulolasi davrida ta’lim tizimi, ma’daniy-ma’rifiy sohalar, adabiyot rivojining madaniy taraqqiyotdagi o‘rni ochib berilgan.

[660] Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Siyaru a’lomi-n-nubalo: 25 jildli. Shu’ayb Arnout tahqiqi. – Bayrut: Doru muassasa ar-risala, 1985. J: 12. B: 400.

[661] Hokim Abu Ahmad Muhammad ibn Muhammad ibn Is’hoq. Al-asomiy va-l-kuna. Yusuf Muhammad Doxil tahqiqi. – Saudiya: Dorul g‘urobo, 1994. J: 2. B: 274.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, intensiv, taraqqiyot, madaniyat, ong, falsafa

Tarixdan ma’lumki Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo (1483-1530) o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf davlat arbobi, istedodli sarkarda, boburiylar sulolasining asoschisi hisoblanadi. Uning davrida ta’lim-tarbiya hamda ilm-fan rivojiga qilgan e’tibori orqali juda ko‘plab sohalar ravnaq topdi. Boburiylar sulolasi XVI asrning ilm-fan taraqqiyoti yo‘lidagi roli juda yuqori cho‘qqiga yetdi. Boburiylar davriga kelib adabiyot va she’riyatga juda katta e’tibor berilib, buning yorqin misolini Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiy hukmdorlarning asarlari va g‘azallar mualliflari ekanliklarida ko‘rishimiz mumkin. Zahiriddin Muhammad Boburdan qolgan ijodiy me’rosning eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari ta’rixi, geografiyasi va etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan va adabiy tilning yorqin namunasi bo‘lgan “Boburnoma” asaridir. Asarning asli nomi “Boburiya” bo‘lsada, uni “Voqeanoma” “Tuzuki Boburiy” “Voqeoti Boburiy” deb atadilar, keyinchalik asar “Boburnoma” degan nom bilan shuhrat qozongan. “Boburnoma” asari o‘z davrining eng nodir va qimmatli asari hisoblanadi.

Boburiy hukmdor Humoyun (1508-1556) ya’ni Boburning to‘g‘ich og‘li hisoblanib, u yoshligidan yaxshi ta’lim olgan, harbiy faoliyat va davlatni idora qilish ishlaridan puxta xabardor bo‘lgan. Otasi hayotligidayoq, Panipat va Kanva yonidagi janglarda qatnashib ancha tajriba ortirgandi. Hisor, Badaxshon va Sambxol viloyatlarida esa ma’lum muddat hokimyatni ham boshqarib turgan. Bobur vafoti oldidan o‘g‘li Humoyunni taxt vorisi etib tayinladi [Шарма Л.П. 1998, 33]. Humoyun davrida ham ilm-fan, ma’daniyat va adabiyotning rivojida muhim o‘rin egallagan. Humoyun davrida Buxoro va Samarqand kabi mashhur shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida muhim egalladi. Bu yerlarda turli sohalar bo‘yicha izlanishlar va tadqiqotlar olib borishdi. Shu jumladan matematika, astronomiya, tarix va tibbiyotda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu davrda ko‘plab o‘z davrining yetuk olim va mutafakkirlari faoliyat yuritishgan. Humoyun davrida san’at ham yuksak tarzda taraqqiy etdi. Jumladan, tasviriy san’at, musiqa, arxitektura va ko‘plab sohalarda muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Saroyda ko‘plab san’atkor va musiqachilar ham jamlangan edi, bu bevosita ma’daniy hayotni yanada boyitishiga sabab bo‘ldi. Humoyun saroyda shoir va olimlarni ham jamlashga muvaffaq bo‘ldi. Shu jihatdan Humoyun davrida ham ilm-fan borasida ko‘plab e’tibor berilganligini ko‘rish mumkin [Turdiyev B.S. 2021. -p.18-22].

Boburiy hukmdor “Buyuk Akbar” ya’ni Akbarshoh (1556-1605) davri ham madaniy yuksalish tarixida o‘chmas iz qoldirdi. O‘rta asrlarda Boburiy hukmdorlar orasida faqat akbargina Buyuk “Akbar” degan unvonga sazovor bo‘ldi. Akbar Hindistonda o‘z saltanatini idora etdi. Musulmonlar Hindiston o‘z saltanatini o‘rnatganlaridan buyon deyarli 350 yildan ortiq vaqt o‘tdi. Akbardan avval o‘tgan musulmon hukmdorlarining birortasi Hindistonning hatto shimoliy qismini ham to‘laligicha egallab ololmagan. Buning ustiga, ularning birontasi ham na davlatni idora qilishning tartibini o‘rnata oldi va na qo‘l ostida boshqa dinda bo‘lgan, boshqacha ma’daniyatdagi fuqarolarni adolat bilan boshqara olishning qonuniy asosini yaratib bera oldi.

Tarixdan ma’lumki Akbarshoh o‘z davrining eng yetuk va ilmli hukmdorlaridan hisoblanadi. “Buyuk Akbar” hukmdorligi davrida Boburiylar sulolasi o‘z qudratining cho‘qqisiga erishgan davri hisoblanadi. Akbar davlatda juda katta va samarali islohotlarni amalga oshiradi. Shu bilan bir qatorda Akbar ilm-fan, ma’daniyat, she’riyat va adabiyotni yuksaltirish yo‘lida harakat qilgan. Aynan Akbarning Hindistondagi ta’lim islohoti tarixda muhim ahamiyat kasb etadi. Humdor nafaqatgina diniy ilmlar bilan emas balki dunyoviy ilmlarni rivojlantirishga intiladi. Uning davrida o‘quv markazlarida matematika, falsafa, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlarni rag‘batlantiradi. Akbar davrida mamlakatda ko‘plab maktab va muasasalar ochiladi. Bu bilan bir qatorda maktab va madrasalarda yangi o‘quv dasturini ham joriy etadi. Akbarning yana bir eng katta islohotlaridan biri bu diniybag‘rikenglik o‘z siyosatida amalga oshiradi, bu esa o‘z navbatida xalqning e’tiborini

qozonadi. Akbarshohning diniy bag‘rikenglikni isloh etgani, uning aql-zakovatli va hur ilmli hukmdorligini ko‘rsatadi. Akbarning bu islohotlari natijasida xalqning turmush sharoiti, ma’naviy ongi va ijtimoiy holati yuksalishiga xizmat qildi. Akbarning bunday sa’y-harakatlari hozirgi zamon uchun ham o‘rnak va tahsinga sazovordir.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Bobur va boburiylar sulolasi tomonidan madaniy va ma’naviy islohotlar natijasida, mamlakatda aholi farovonligi, ularning turmush sharoitlari va bunyodkorlik yuksak taraqqiy etdi. Boburiy hukmdorlar xalqning ta’lim tizimini isloh etib, aholining dunyoqarashini oshirishda ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlarni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirdilar. Bugun ushbu sulola vakillarining nafaqat mintaqa, balki jahon xalqlari ma’naviy, madaniy va ma’rifiy taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi bilan har qancha faxlansak arziydi. Ularning bunyodkorlik va yaratuvchanlik islohotlari mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda muhim poydevor sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Шарма Л.П. Бобурийлар салтанати. -Тошкент: Маънавият, 1998.** 168-б
2. Turdiyev B.S. The Strategy of Cultural Development in Central Asia during Amir Temur and Temurids Dynasty Reign. Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR), 5(1), 2021. -p.18-22.

* * *

SHOHRUXIYA MADRASASI

THE SHAHRUKHIYYA MADRASA

Jahongir Turdimirzayev,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi doktoranti
Jahongirturdimirzayev1@gmail.com

Temuriylar davrida turli ilmlarning rivoji yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Albatta bunda olimlarga qaratilgan yuksak e’tibor va o‘z navbatida ilm dargohlari ya’ni, ko‘plab madrasalarning barpo etilishi ham sabab bo‘lgan. Bu madrasalar ichida Shohrux Mirzo tomonidan barpo etilgan madrasaning ham o‘rni beqiyosdir.

Sohibqiron Amir Temur vafotidan so‘ng temuriy shahzodalar o‘rtasida toj-u taxt uchun kurash avj oldi va bu narsa xalqning ahvolini og‘irlashtirdi, mamlakatda beqarorlik hukm surardi va bu holat to 1409-yil Shohrux mirzo poytaxt Samarqand shahrini egallab hukmdorlikni qo‘lga olguncha davom etdi. So‘ngra u mamlakat poytaxtini otasi vaqtida boshqaruviga berilgan Huroson viloyatining markazi Hirotga ko‘chiradi. Shu vaqtdan boshlab Hirot shahrining poytaxt sifatida nufuzi yanada ortadi. Mamlakatdagi sisosiy vaziyatni inobatga olib Shohruh Mirzo avvalo, poytaxt Hirotda mustahkam metin qal’alar qurishni boshlaydi. Bundan ko‘zlangan maqsad bunyod etiladigan boy ilmiy meros keyingi avlodlarga yetib borishi edi. Bu qal’alardan eng asosiysi Ihtiyoriddin qal’asidir. Bu qal’aning qurilish tarifi Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asarida quyidagicha keladi: Hazrat xoqoni sa’id (Shohrux Mirzo) 818-yili dorussaltana Hirotda bir metin istehkom ko‘tarish, mustahkam bir qal’a qurishga ishorat qildi. Bu qal’a shaharning shimol tarafidagi devorga qurilgan va Ixtiyoruddin hisori nomi bilan mashxur bo‘lgan. Amir sohibqiron (Temur) Hirotni fath qilgan vaqtida shahar devorlarini xarob qildi, ammo qal’ani ishonchli kishilarga topshirdi. Hazrat xoqoni said jahon saltanati taxtini sharafli qilgach, bu yili tuproq ustiga xom

g‘ishtdan qurilgan o‘sha qadimiy hisor o‘rniga tosh, ohak, ganch va pishiq g‘ishtdan bir qal’a qurishga buyurdiki, tuproq yuzida bu kabi mustahkam bir bino va bu kabi qattiq bir poydevorni hech bir mamlakatda bundan ko‘rkamroq qilib qurgan emaslar[662].

Vaziyat o‘z foydasiga o‘zgarishni boshlagach, Shohrux Mirzo qurilish va obodonlashtirish ishlariga kirishgan. Mamlakatda ko‘plab masjid, madrasa, kutubxona, xonaqoh, bozor, ko‘priklar barpo etiladi.

Shohruxning bir tomondan harbiy yurishlardagi yutuqlari, ikkinchi tomondan esa o‘zi va rafiqasi Gavharshod Begim qurdirgan imoratlar Hirotni o‘sha davrning eng muhim markazlaridan biriga aylantirgan. Bu davrda Hirotda ko‘plab madrasalar qurildi. Bular ichida Shohruxiya madrasasining o‘rni o‘ziga xosdir[663].

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asarida uning joylashgan o‘rni Hirot shahrining shimolidagi Ihtiyoriddin qal’asining janubiy etagida ekanligi keltiriladi[664].

Shohruh madrasasi va unga tutashgan xonaqohi 1410-yil qurib bitkazildi. Madrasa va xonaqoh o‘rtasida ochiq maydon, suffa va baland bir toq barpo qilindi. Ikki yonida esa ikki hashamatli minorasi bo‘lgan. Madrasaning eshik va devorlariga tilla suvi yuritilgan va lojuvardlar bilan bezatilgan. Madrasani bino qilishda eng mohir binokorlar va muhandislar tanlab olingan va ular madrasani pishiqligi va go‘zalligida kata mahorat ko‘rsatganlar[665]. Amir Temur davrida Hindiston, Suriya va yana boshqa hududlardan mohir hunarmandlar oilalari bilan Samarqandga olib kelingan edi. Madrasa va xonaqohni barpo etishda Shohrux Mirzo bevosita ularning xizmatlaridan ham foydalangan. Chunki ularning ko‘plari Hirotga taklif qilingan edi.

Abdurazzoq Samarqandiy 1410-yilda qurib bitkazilgan bu ikki majmuaga Chindan to Rumgacha bo‘lgan hududda ularga o‘xshashini topolmaysiz deya ta’rif beradi[666].

Madrasaga o‘sha davrning to‘rt mashhur olimlari mudarris etib tayinlanadi. Ular – Amir Sayyid Asileddin Husayniy, Mavlono Jaloliddin Yusuf Uvbahiy, Jaloliddin Yusuf Xalloj, Nizomiddin Abdurrahim Yor Ahmad va Xoja Nosiriddin Lutfulloh ibn Xoja Azizullohlardir[667]. Bu olimlarni madrasa mudarrisligiga Shohrux Mirzoning shaxsan o‘zi tayin etgan. Madrasa mudirligi esa shayxulislom Xoja Alouddin Ali Chishtiyga topshirildi. Shuningdek xonaqohga imom, muazzin, voiz, va boshqa ishlarni bajaruvchilar tayin etildi[668].

Madrasada shar’iy ilmlar o‘qitilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Shohrux shariat hukmlarida juda murosasiz edi. Bu hukmlarga amal qilinishiga jiddiy e’tibor qaratar, bundan tashqari u mamlakatda hanafiy mazhabini yoyilishiga katta e’tibor qaratar edi.

Islom dunyosining yetakchi lideri bo‘lish da’vosi bilan “Podshohi islom” (Islom podshosi) unvonini olgan Shohrux Mirzo madrasani tashkil etilishiga bir qancha sabablarni keltirish mumkin:

1. Avvalo, har qanday davlatni yuksak pog‘onalarga olib chiqadigan, dunyoniy eng rivojlangan mamlakatiga aylantiradigan vosita bu ilmdir. Sohibqironning vorisi Shohrux Mirzodek hukmdor buni juda yaxshi anglardi. Shuning uchun madrasalarni barpo etadi va ularga katta sarmoyalar ajratadi.
2. Islomiy aqidaviy birxillikni ta’minlash va bu madrasa Hanafiy va Shofe’iy mazhablarining fiqhiy qarashlarining ustun mavqeyini ta’minlash[669].

---

[662] O‘sha adabiyot. O‘sha erda.
[663] Yusuf Ziya Söylemez, *Timurlular Döneminde Herat*, Doktora Tezi, İnönü Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Malatya, 2023. **S. 179.**
[664] O‘sha adabiyot. – B. 524.
[665] O‘sha adabiyot. – B. 192.
[666] O‘sha adabiyot. O‘sha erda.
[667] O‘sha adabiyot. – B. 193.
[668] O‘sha adabiyot. – B. 194.
[669] Maria Eva Subtelny. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leyden-Boston: Brill, 2007. – B. 26.

3. Bu siyosatning asosiy sabablari orasida Hurufiylik kabi g‘ayri-ortodoksal harakatning o‘sib borishi edi. Temuriylar davlatining ilk bosqichdagi siyosiy barqarorligiga jiddiy xavf solgan[670]. Shohruh Mirzo Hirotdagi jome masjidlaridan birida namoz o‘qiyotgan vaqtda hurufiy Ahmad Lo‘r[671] tomonidan suiqasd qiligani bizlarga ma’lum. Shohrux Mirzo ularga qarshi qattiq kurash olib boradi.

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asarida Mirzo Abulqosim Bobur davrida Ihtiyoriddin qal’asida kutvol qilib tayinlangan Uvasbek tomonidan Shohruxiya madrasasi va xonaqohining belidagi ayvonchalari buzib tushirilganining ta’rifi keladi[672]. Lekin Abdurazzoq Samarqandiy bu madrasa va xonaqoh 1469-1470-yillarda ham yaxshi holatda ekanligi va madrasaning mudirligi o‘zining zimmasida ekanligini yozadi[673].

Xulosa o‘rnida aytish mumkunki tarixda Shohrux Mirzo tomonidan qurdirilgan oliy madrasaning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Chunki bu madrasani qurdirishga bevosita hukmdorning o‘zi bosh-qosh bo‘lgan, mudarrislarning eng saralarini o‘zi tayin etgan, uning mudirligi esa mamlakatning Shayxulislomiga topshirilgan va madrasaning qurilish, bezaklari va tarovatida tengi yo‘q bo‘lgan.

Temuriylar davrida siyosiy hayot bilan birga ilmiy sohada ham ko‘plab muvaffaqiyatlarga erishilgan. Madaniy hayotning eng yuqori cho‘qqisi bo‘lgan ta’lim-tarbiya faoliyatlariga katta ahamiyat qaratilgan. Shu munosabat bilan Amir Temur Hirotni egallaganidan so‘ng shaharning shukuhi Shohrux davrida o‘zining eng yuqori nuqtasiga yetgan. Albatta bunda Shohrux Mirzo va rafiqasi Gavharshodbegim tomonidan ko‘plab ilmiy dargohlar bino qilingani va unga yetarlicha mablag‘ ajratilgani va ta’limga davlat sisosati darajasida qaralgani ham sabab bo‘lgan.

[670] Maria Eva Subtelny. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leyden-Boston: Brill, 2007. – B. 107.
[671] G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. *Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – Bobur Xalqaro Jamoat Fondi. – B. 474.
[672] O‘sha adabiyot. – B. 312.
[673] O‘sha adabiyot. – B. 194.

III BO‘LIM. MARKAZIY OSIYO TARIXIY YODGORLIKLARI EPIGRAFIKASI, SAN’ATI VA ARXITEKTURASI

CHAPTER III. EPIGRAPHY, ART AND ARCHITECTURE OF CENTRAL ASIAN HISTORICAL MONUMENTS

МАДАНИЙ МЕРОСНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР

PRESERVATION OF CULTURAL HERITAGE: ACHIEVEMENTS AND PROBLEMS

Расулов Ғайрат Пардаевич,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси
“Ислом тарихи ва манбашунослиги IRCICA” кафедраси
мудири, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, PhD.

Ўзбекистоннинг бой маданий мероси унинг миллий ўзлигини белгиловчи асосий омил ҳисобланади. Мамлакатда 100 мингдан ортиқ араб, форс, туркий ва бошқа тиллардаги қўлёзмалар мавжуд бўлиб, улар тарихий, фан, ислом ва адабиётга оид гуруҳларга бўлинади. Бу мерос UNESCOнинг “Умумжаҳон маданий мерос рўйхати”га киритилган ва 2011 йилдан бери “Марказий Осиё халқларининг ёзма мероси” лойиҳаси доирасида нашр этилмоқда. Моддий меросга келсак, 2022 йил ҳолатига кўра, 8210 та объект давлат муҳофазасида, шундан 4797 таси археологик, 2097 таси архитектура, 694 таси монументал санъат ва 395 таси диққатга сазовор жойлардир. Ўзбекистон 1972 йилдаги UNESCO Конвенциясини ратификация қилган ва Ичан Қалъа, Бухоро тарихий маркази, Шаҳрисабз ва Самарқанд каби жойлар Жаҳон мероси рўйхатига киритилган. Бироқ, шаҳарсозлик фаолияти ва қурилиш туфайли муаммолар мавжуд: масалан, Шаҳрисабз 2016 йилда ҳавф остидаги рўйхатга киритилган. Ўзбекистон Конституциясининг 49-моддаси ва “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонун (2001 йил) бу соҳани тартибга солади. Президент фармонлари, жумладан 2018 йилги ПҚ-4068-сон қарор, музей-қўриқхоналар ташкил этиш ва халқаро ҳамкорликни кучайтиришни назарда тутади. Маданий меросни сақлаш нафақат тарихий аҳамиятга эга, балки туризм ва миллий ғурурни ошириш учун ҳам муҳимдир. Глобализация шароитида бу меросни ҳимоя қилиш давлат сиёсатининг устувор йўналиши бўлиб қолмоқда.

Юқорида таъкидлаганимиздек, Ўзбекистонда бугунги кунда ўрта асрлар даврига оид 100 мингдан ортиқ араб, форс, туркий ва бошқа тилларда ёзилган қўлёзмалар мавжуд. Уларни шартли равишда қуйидагича гуруҳлаш мумкин: 1. Тарихий манбалар. 2. Фан тарихига оид манбалар. 3. Ислом ва тасаввуфга оид манбалар. 4. Дипломатика ва элчилик алоқалари тарихига оид манбалар. 5. Тил ва адабиётга оид манбалар. Ўзбекистон Республикаси ФА Шарқшунослик институти фондида сақланаётган бу бой ёзма мерос ЮНЕСКОнинг “Умумжаҳон маданий мерос рўйхати”га киритилган. 2011 йилдан бошлаб тарихий манбаларнинг бир қисмини ЮНЕСКО ҳомийлигида “Марказий Осиё халқларининг ёзма мероси” рукни остида нашр қилиш йўлга қўйилди[674]. Ҳар бир халқнинг маданий тараққиёти, ўтмиши, дунё халқлари орасида тутган ўрни ва мавқеини ўрганишда ягона ва ўзгармас манба музейлар, архивлар, фондлар, илмий муассасалардир. Бугунги кунда дунёнинг барча ривожланган давлатлари нафақат фан-техника ютуқлари, моддий ресурсларнинг кўплиги, қудратли саноат ва ишлаб чиқариш қудрати билан, балки ўз халқининг миллий маънавий-ахлоқий қадриятлари билан ҳам танилган. Бу тасодифий эмас. Маълумки, маънавий қадриятлар ҳар бир халқнинг, халқнинг “шахс гувоҳномаси”, унинг миллий маданияти даражасини белгилаб берувчи маънавий “паспорт”дир.

[674] Каримова С. Ўзбекистонда ўрта асрлар даври ёзма манбаларининг ўрганилиши: натижалар ва вазифалар // Ўзбекистон тарихи ва маданияти. –Т., Tafakkur, 2011. – Б. 25-29.

Ўзбекистонда 7 минг 476 та моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объекти давлат муҳофазасига олинган бўлиб, шундан 4 минг 308 таси археология объектлари, 2 минг 79 таси архитектура объектлари, 694 таси монументал санъат асарлари, 395 таси диққатга сазовор жойлар ҳисобланади. Шу билан бирга, 2,5 млн. та моддий маданий мерос объекти ҳисобланган музей ашёлари ва коллекциялари сақланмоқда.

Ўзбекистон "Умумжаҳон маданий ва табиий меросини муҳофаза қилиш тўғрисида"[675]ги конвенцияни (Париж, 1972 йил 16 ноябрь) ратификация қилган. Ушбу Конвенция доирасида эса Ичан-қалъа (Itchan Kala), Бухоро тарихий маркази (Historic Centre of Bukhara), Шаҳрисабз тарихий маркази (Historic Centre of Shakhrisyabz), Самарқанд – маданиятлар чорраҳаси (Samarkand – Crossroad of Cultures) тарихий манзилгоҳлар (cultural site) ЮНЕСКОнинг Умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган (миллий қонунчиликдаги терминология ва мазмунидан келиб чиқиб, "cultural site" сўзлари "тарихий манзилгоҳ" деб таржима қилиш мақсадга мувофиқ).

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, объектларни жаҳон маданиятига қўшган ҳиссасини сақлаб қолиш аниқ таъсир чоралари мавжуд эмас. Бу ҳолат Умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган ҳудудларни ишончли муҳофаза қилишга салбий таъсир этмоқда.

"Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 49-моддасида "Фуқаролар Ўзбекистон халқининг тарихий, маънавий ва маданий меросини авайлаб асрашга мажбурдирлар. Маданият ёдгорликлари давлат муҳофазасидадир", деб белгилаб қўйилган"[676]. Бунинг мантиқий давоми сифатида маданий мерос объектлари муҳофазасига қаратилган қонунлар ва қонуности ҳужжатлари қабул қилинди.

Хусусан, "Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида" ҳамда "Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида"ги қонунлар, яна шу соҳага оид 20 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар шулар жумласидандир.

"Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида"ги Қонуннинг 32-моддасига асосан тарихий манзилгоҳ дейилганда унинг ҳудуди доирасида ўтмишда яратилган, тарихий, эстетик, ижтимоий-маданий, археологик, меъморий ёки шаҳарсозлик қимматига эга бўлган ва халқнинг ўзига хослигини, унинг жаҳон маданиятига қўшган ҳиссасини сақлаб қолиш учун муҳим аҳамиятга молик моддий маданий мерос объектлари жойлашган манзилгоҳлар тушунилади[677].

"Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2018 йил 19 декабрдаги ПҚ–4068-сон қарори 10-бандининг иккинчи хатбошига мувофиқ ЮНЕСКОнинг Умумжаҳон мероси рўйхатига тарихий-маданий қийматига кўра киритилган республикадаги ҳудудлар алоҳида муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ҳудудлар ҳисобланади ҳамда уларда режалаштирилган қурилиш ва ободонлаштириш ишларининг лойиҳалари Департамент ҳамда ЮНЕСКОнинг Умумжаҳон мероси маркази билан мажбурий тартибда келишилган ҳолда амалга оширилади"[678]. Глобаллашув ва интеграция фонида ҳар бир халқнинг миллий ўзлигини белгиловчи энг муҳим омил сифатида маданий меросни ўрганиш ва муҳофаза қилиш жаҳоннинг долзарб маданий муаммосига айланди. Ўзбекистонда миллий

[675] www.uza.uz
[676] www/forum.ziyouz.uz
[677] "Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида"ги 269-II-сон Қонун 30.08.2001. https://www.lex.uz/docs/25461
[678] www/uza.uz

маданият ўзига хослигини ҳимоя қилиш жаҳон маданиятининг глобаллашув тенденцияларидан четда қолмаслиги шарти билан Миллий хавфсизлик концепциясининг муҳим қисми ва давлат сиёсатининг асосий стратегик мақсадларидан бири сифатида қарайди[679]. Ушбу концепция узоқ муддатли, барқарор ҳаракатларни талаб қиладиган стратегиядир.

Шунингдек, ушбу қарорнинг 9-бандига асосан “Бухоро” (Бухоро шаҳри), “Самарқанд” (Самарқанд шаҳри), “Ичан қалъа” (Хива шаҳри), “Сармишсой” (Кармана тумани), “Шаҳрисабз” (Шаҳрисабз шаҳри), “Термиз” (Термиз шаҳри) ва “Қўқон” (Қўқон шаҳри) давлат музей-қўриқхоналари ташкил этилди.

Шу билан бирга, қарорнинг 11-бандига асосан давлатлараро қўшма лойиҳа доирасида Буюк ипак йўлининг мамлакатимиздан ўтган қисмини “Ипак йўли: Зарафшон дарёси воҳаси” ва “Ипак йўли: Фарғона – Сирдарё ҳавзаси” номи остида, 2-иловадаги «йўл харита»нинг 9-бандига асосан “Саҳродаги қасрлар” (Қорақалпоғистон Республикаси), “Хонбанди” (Жиззах вилояти), “Сармишсой қоятош расмлари” (Навоий вилояти), “Зарауцой қоятош расмлари”, “Қадимий Термиз” (Сурхондарё вилояти) объектларини ЮНЕСКОнинг Умумжаҳон мероси рўйхатига киритиш чораларини кўрилади.

Қайд этиш керак, юқорида келтирилган ҳудудлар (объектлар) ўз навбатида алоҳида муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ҳудуд мақомига эга бўлади.

Етказилган моддий зарар уч карра миқдорида қопланган тақдирда, озодликни чеклаш ва озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо қўлланилмайди”[680]. Бироқ бунда тарихий-маданий ҳудудларни бузиш ва уларга зарар етказиш бўйича жавобгарликни белгиламайди. Шу билан бирга, жиноят қасддан содир этилиши лозим.

Таҳлиллар кўрсатдики, объектлар хатловдан ўтказилганда 259 та объект буткул йўқотилган, объектларнинг атиги 2 608 тасининг (34,1 %) кадастр ҳужжатлари мавжуд, 2 232 тасига (29,5 %) муҳофаза белгилари ўрнатилган, холос.

2018 йилда ўтказилган хатлов натижаларида 259 та объект йўқотилгани аниқланган. (7575-хдфу, 11.09.2018 й.).“Миллий тикланиш” ДП ахборотига кўра, хатлов жараёнида 827 та моддий маданий мерос объекти йўқотилган.

Шунингдек, ЮНЕСКО ҳузуридаги Умумжаҳон мероси қўмитаси 2016 йил 13 июлдаги йиғилишида Шаҳрисабз тарихий маркази хавф остида турган Умумжаҳон мероси объектлари рўйхатига киритилди. Шунингдек, Самарқанд шаҳрида ўтказилган таҳлил натижаларида шаҳарнинг тарихий қиёфаси ва муҳитига салбий таъсир этадиган 159 та кўп қаватли бино ва иншоотлар қурилгани аниқланди. Халқаро экспертлар миссияси мониторинг натижалари Самарқанд шаҳри Умумжаҳон меросининг хавф остидаги объектлари рўйхатига киритилиши мумкинлиги ҳақида огоҳлантирилмоқда. Шу каби ҳолатлар Хива ва Бухоро шаҳарларида ҳам кузатилмоқда. “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонун[681] 32-моддасига асосан: “тарихий манзилгоҳ дейилганда унинг ҳудуди доирасида ўтмишда яратилган, тарихий, эстетик, ижтимоий-маданий, археологик, меъморий ёки шаҳарсозлик қимматига эга бўлган ва халқнинг ўзига хослигини, унинг жаҳон маданиятига қўшган ҳиссасини сақлаб қолиш учун муҳим аҳамиятга молик моддий маданий мерос объектлари жойлашган манзилгоҳлар тушунилади.

Тарихий манзилгоҳдаги табиий таркиб топган ва инсон қўли билан яратилган манзаралар уйғунлиги, тарихий манзилгоҳ тараққиёти даврида унга хос бўлиб қолган турли жиҳатлар,

[679] Изучение исторического и культурного наследия России как способ формирования общекультурных компетенций.
[680] www.nrm.uz
[681] www.akadmvd.uz

шунингдек бошқа қимматли элементлар сақлаб қолиниши керак”[682]. Худди шундай ҳолат, “Ўзбекистон Республикаси маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 64-моддасига асосан”[683] Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш қоидаларини қасддан бузиш – фуқароларга энг кам иш ҳақининг бир бараваридан уч бараваригача, мансабдор шахсларга эса – уч бараваридан беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади.

Бунда ҳам маъмурий жавобгарлик алоҳида муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ҳудудларга нисбатан татбиқ этилмайди. Бу ўз навбатида юқори сайёҳлик салоҳиятига эга бўлган тарихий шаҳарларимиз ва манзилгоҳларимиз қиёфасини бузилишига олиб келмоқда.

Юқорида кўрсатилган соҳага оид муаммоларни бартараф этиш бугунги кун тартибидаги энг муҳим масалалардан бўлиб қолмоқда. Самарқанд, Бухоро, Хива, Шаҳрисабз каби юртимизнинг тарихий шаҳарларидаги ўзига хос меъморий обидалар олис ўтмишнинг кўзгуси сифатида барчамиз учун қадрлидир. Шундай экан, кўп асрлик тарихга эга ушбу бебаҳо хазинамизни асраб-авайлаш, муҳофаза қилиш, илмий ўрганиш, мамлакатимиз, қолаверса, дунё миқёсида тарғиб қилиш барчамизнинг бурчимиздир.

Президентимиз турли вилоятларга ташрифи давомида ўша ҳудуднинг ўтмиш ёдгорликлари билан танишар экан, уни асраб-авайлаш, тиклаш ва таъмирлаш юзасидан ўз маслаҳатларини бериб келмоқда. Хусусан, Андижон вилоятидаги Жомъе меъморий мажмуаси, Арк ичи мадрасаси, Ховускон ота зиёратгоҳи, Бухоро вилоятидаги Чор Бакр мажмуаси, Абдухолиқ Ғиждувоний мақбараси, Қашқадарё вилоятидаги Абул Муин ан-Насафий, Хусам ота мажмуалари, Маҳмуд ибн Аминбой уйи, Самарқанд вилоятидаги Ҳазрати Хизр мажмуаси, Хўжа Аҳрор Валий мажмуаси, Сурхондарё вилоятидаги Султон Саодат мажмуаси, Наманган вилоятидаги Исҳоқхон тўра Ибрат мажмуаси ва бошқа кўплаб объектларда Юртбошимиз ташаббуслари билан таъмирлаш-тиклаш ишлари амалга оширилгани диққатга сазовордир.

Шу тариқа, мустақиллик йилларида тарихий-маданий меросни асраб-авайлаш, миллий-маънавий тикланиш борасидаги ишларнинг барчаси халқимизнинг ўз ўтмиши ва тарихига, тарихий маданияти ҳамда миллий қадриятларига ҳурматини ошириш ва халқимизда эртанги кунга ишончни ошириш учун хизмат қилади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш зарур-ки, Ўзбекистон маданий меросини муҳофаза қилиш миллий ва халқаро даражада муҳимдир. Ёзма манбалар ва моддий объектларнинг бойлиги UNESCO томонидан эътироф этилган бўлсада, шаҳарсозлик ва қурилиш туфайли йўқотишлар мавжуд. Конституция ва қонунлар асосида чоралар кўрилмоқда, аммо жиноий ва маъмурий жавобгарликни кучайтириш зарур. Президент ташаббуслари объектларни тиклашга ёрдам бермоқда. Келажакда архивларни рақамлаштириш ва халқаро ҳамкорликни ривожлантириш орқали меросни сақлаш миллий ўзликни мустаҳкамлаши мумкин.

* * *

[682] www.nmm.uz
[683] www.akadmvd.uz

ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИСЛОМ ЦВИЛИЗАЦИЯ МАРКАЗИНИНГ ИЧКИ ҚИСМИДАГИ “ҚУРЪОН ЗАЛИ” БЕЗАКЛАРИНИНГ РАМЗИЙ МАЪНОЛАРИ

SYMBOLIC MEANING OF THE DECORATIONS OF THE “QURAN HALL” IN THE INTERIOR OF THE CENTER OF ISLAMIC CIVILIZATION IN UZBEKISTAN

Булатов Саидахбор Собитович
Тошкент давлат педагогика университети профессори,
Россия халқаро педагогика фанлари академиясининг академиги,
педагогика фанлари доктори. (97) 344−19−52

Аннотатсия: Ўзбекистондаги ислом цвилизация марказининг ички қисмидаги “Қуръон зали” безакларининг рамзий маънолари тахлил қилинган ва улардан теғишли хулосалар ишлаб чиқилганлиги баён этилган.

Аннотация: Анализируются символические значения декора «Зала Корана» в интерьере Центра исламской цивилизации в Узбекистане и делаются соответствующие выводы.

Abstract: The symbolic meanings of the decorations of the “Quran Hall” in the interior of the Center of Islamic Civilization in Uzbekistan are analyzed and relevant conclusions are drawn from them.

Таянч сўзлар: Ўзбекистондаги Ислом цвилизация маркази мажмуаси, Қуръон зали, муқарнас, гумбаз, безаклар, шарафа, равоқлар.

Ключевые слова: Комплекс Центра исламской цивилизации в Узбекистане, зал Корана, мукарны, купол, украшения, почести, арки.

Keywords: Complex of Islamic Civilization Center in Uzbekistan, Koran hall, muqarnas, dome, decorations, honors, arches.

> “Улуғ аждодларимиз томонидан яратилган ва бугунги кунда бутун маърифатли дунёни ҳайратга солиб келаётган илмий мерос фақат бир миллат ёки халқнинг эмас, балки бутун инсониятнинг маънавий мулки бўлиб, бу бебаҳо бойлик янги ва янги авлодлар учун донишмандлик ва билим манбаи, энг муҳими, янги кашфиётлар учун мустаҳкам замин бўлиб хизмат қилиши шубҳасиздир.”[684]
>
> **Ш. Мирзиёев,**
> **Ўзбекистон Республикаси Президенти**

Дунё шиддат билан ривожланаётган бир вақтда Ўзбекистонда Ислом цвилизация марказини президентимиз томонидан барпо этилиши, дунёда бир катта кашфёт ва тарихий воқеа бўлди. Ўзбекистон халқига қувончли воқеа бўлди. Фақат Ўзбекистон халқи учун эмас балки, ислом олами учун бир тархий воқеа бўлди. Тарихи, қадриятлари, илм-фан, маданият дурдоналарини хар томонлама илмий ўрганиш ва таҳлил этиш ғоят муҳим. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси

[684] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Ўзбекистондаги ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори. 2017 йил 23 июнь // Маърифат. – Т., 2017. – 24-июнь. – 50 (9011)-сон.

ҳузурида Ўзбекистондаги Ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида" маърузасида "Улуғ аждодларимиз томонидан яратилган ва бугунги кунда бутун маърифатли дунёни ҳайратга солиб келаётган илмий мерос фақат бир миллат ёки халқнинг эмас, балки бутун инсониятнинг маънавий мулки бўлиб, бу бебаҳо бойлик янги ва янги авлодлар учун донишмандлик ва билим манбаи, энг муҳими, янги кашфиётлар учун мустаҳкам замин бўлиб хизмат қилиши шубҳасиздир"[685] деган фикрларини билдирди.

Мазкур қарор асосида Ўзбекистонда Ислом цивилизацияси марказини барпо этишда уни қандай нақш турлари билан безашга ҳам алоҳида эътибор қаратилди. Бу безаклар одатдагидек бўлмай, рамзийликка ва мантиқий ечимга эга, ўзида тарихимиз, давлатчилигимиз, илм-фанимизга хос фалсафий маънони мужассам этган. Бу эса хар бир нақш боболаримизнинг тенгсиз заковатидан дарак беради.

Президентимиз марказга аввалги ташриф чоғида: "Ушбу марказ миллий тарихимиз ва маданиятимизни тиклаш ва янада равнақ топтириш йўлида янги даврни бошлаб беради. Бу марказ Уч**инчи Ренессанснинг илмий пойдевори бўлиши керак" деган эдилар.**

"Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази мажмуаси безакларини рамзий ва мантиқий концептуал асосларини яратиш" фақат Ўзбекистон халқи учун эмас балки, дунё халқи учун чексиз маънавият хазинасидир. Ушбу маънавий меросни жаҳон ва Ўзбекистон халқларига миллий тимсоллар ва рамзлар орқали тўғри мантиқий тушунтириш, уни тарғиб этиш муҳум аҳамиятга эга. Шу ўринда Ислом цивилизацияси маркази мажмуаси безакларини рамзий ва мантиқий концептуал асосларини илмий асосда яратиш ва уни дунё халқларига тўғри ва асосли етказиш, Учинчи Ренессанс остоносида турган Янги Ўзбекистон қуришда ниҳоятда зарур муоммолардан бири бўлиб турибди.

Ўзбекистондаги Ислом цвилизация маркази мажмуаси биноси ички марказида Қуръон зали жойлашган бўлиб, у саккиз бурчакдан ташкил топган. Баландлиги 56 метр, дияметри 26 метрни ташктл топган. **Ўзбекистондаги Ислом цвилизация маркази мажмуаси биноси икки қаватдан иборат бўлиб, унинг юқори қисми гумбаз билан тугалланган. Гумбаз қубба шаклидаги том ҳисобланади.** Гумбаз–"осмон гумбази", "осмон қубба" шакллари бўлиб, инсон осмоннинг остида ва коинотнинг ҳомийлигида яшайди. Натижада, бутуннинг бир қисми бўлган инсон моддий ва маънавий ҳимояни ҳис қилган ҳолда, коинот билан узвий алоқада бўлади.[686]




1- расм. "Қуръон зали" безакларини кўриниши.

[685] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Ўзбекистондаги ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида" қарори. 2017 йил 23 июнь // Маърифат. – Т., 2017. – 24-июнь. – 50 (9011)-сон.

[686] Нозилов Д..А. Ўрта Осиё меъморчилигида одатлар, қойдалар ва рамзий ифодалар.Т.:"Санъат" журнали. Нашрёти 2011 йил, 60-61 -бетлар

Гумбазни ички қисми турли безаклар билан безалиб, қадимдан осмон образини англатган. Буддавийлик динига оид, сокрал аҳамиятга эга ступа-супалар катта-кичик бўлишидан қаътий назар, уларнинг юқори кисми гумбаз ҳолатига келтирилган. Гумбаз ўрта асрларда ҳам коинот билан қиёсланган. Зални ўртасида чорбоғ жойлашган бўлиб саккизта устуни мавжуд. Сакизта устун жаннатни саккиз устунидир. Чорбоғни марказида қуръони карим лавх устига қўйилган. Қуръон залини тепаси тўтиёй колоритда, пастки қисмлар 20 метргача мармар эса оч пушти рангли колоритда бажарилган. Пастки қисми оқ мармардан ишланган бўлиб улар турли нақшлар билан безалган.



2- расм. Гумбаз ости безаклари.

Шарафа биноларда девор билан шип оралиғидаги муқарнас асосида тузилган ҳажмли ҳошия безак бўлиб, у гумбаз билан шифтни уйғунлигини таъминлаган. Шарафа тўқ феруза рангда олиниши гумбаз ранги билан уйғунлигини таъминлаган. Шарафа айланма ритмик такрорланиши ва даврларни ритмик такрорланиб туришини билдиради. Бу эса инсон умрни ўткинчилилигини яъни “Умр бир лағзадир” деган маънони рамзий англатади. Шарафани доира шаклда такрорланиб туришининг умумий кўриниши “Даврлар халқаси”ни (русча, “Цепь времен”)[687] рамзий маъносини билдиради.

Пойгумбаз деразалар 16 та бўлиб, Қуръон залини табиий ёруғлик билан таъминлаб туради. Деразаларни ўн олтита олиниши даврни циклик айланиб туришини билдиради. Деразалар миллий нақшлар асосида витражлар ишланган. Витриждан ўтаётган ёруғликлар камалак ранглари жилосини тарқатиб турибди. Ушбу камалак ранглари дунё динларида осмон ва жаннат йўлларини рамзий ифодаланишини билдиради.

Муқарнасли шарафа шаклидаги ўзига хос кўринишга эга бўлиб, ўзбек миллий анъаналардан фойдаланиб замонавий кўринишда яъни интеграцион ёндошув асосида қандил бажарилган.

Қуръон зали учун танланган қандилнинг шакли Бухородаги XVI аср “Хўжа Зайниддин масжиди”даги гумбаз муқарнасли шарафасидан олинган.

Муқарнасли шарафали қандил коинотдаги галактиктикалар тизими яъни метогалактикани яъни (исломда 18 минг оламни) макети рамзий кўриниши акс эттирилган. Тилла ранг билан ёруғликни уйғунликда берилиши бамисоли оламни қуёш олтин нурлари яъни зиё тараётган ҳолда акс эттирилган. Муқарнасли шарафани гумбаз атрофида айланма ритмик ва даврни такрорланиб туришини рамзий акс эттирилган.


Муқаддас китобимизда “Бас, икки кунда етти осмонни барпо қилди ва ҳар бир осмонга (унга буюрилган) ишни (вазифаси)ни ваҳий қилди. Биз қуйи осмонни чироқлар (юлдузлар) билан безадик ва (уни офатлардан) сақладик. Бу қудратли ва билимли зотнинг тақдири (ўлчови)дир”дейилади (Қуръони карим. 41-нчи “Фуссилат” сураси, 9-12 оятлар).

[687] Рempель Л.И. Цеп Времен: Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Т.: Изд-во лит. 190 с.




3- расм. Муқарнасли шарафасимон қандил.

Ироқи муқарнаслар гумбаз ости цилиндирсимон гумбаз остидаги ички сферик сиртига саккизга бўлиниб ишланган ва безалган бўлиб, катта равоқ қисмларига бўртма чироқли ёритгичлар ўрнатилган. Ироқи муқарнасларни кичик равоқлари ичига ўзбек миллий ўсимликсимон нақшлар билан безалган. Ўсимликсимон нақшлар рамзида ифодаланган. Дунё гўзал яратилганлигини билдиради. Саккизта устунли ироқи муқарнас, “Ўн саккиз минг оламни саккизлик устунли чодирсимон модели” рамзида ифодаланган. Ушбу модел Ўзбекистон миллий тарихий ёдгорликларида ишлатилган. Ушбу анъана замонавий архитектураларимизда янгича ёндошув асосида фойдаланилган. Яъни ироқи муқарнаслар юлдузчаларни ўрнига ёритгичлар ўрнатиб, замонага мос интеграцион ёндашиб ишлаб чиқилган. Ушбу чироқлар коинотдаги чарақлаб турган юлдузларни оламини эслатиб туради. Гумбаз ости нақши Қуръони каримда “Раббингиз осмонлару ерни олти кунда яратган... – қуёш, ой-юлдузларни ўз амрига мусаҳҳар (муте) қилиб қўйган Аллоҳдир” деб нақшлар олами билан битилган. (Қуръони карим. Аъроф сураси, 54 – оят.)



4- расм. Ироқи муқарнаслар.

Қуръон залининг пастки қисмида гир айланган саккиста равоқлар ритмик жойлашган бўлиб, ҳар бир равоқда доирасимон кулча нақш билан безалган бўлиб, ўртасига эпиграфик нақшлар билан безатилган. Саккизта кулча, дунёни саккиз томонидаги жаннат тимсолида ифодаланган. Ўзбек миллий меъморчилигида анъана бўлиб келган 8 та равоқ дунёни саккиз томонини билдириб турса, иккинчидан дунёни равоқсимон устунли моделини билдиради. Равоқни тўрт томонида тўртта эшик бўлиб, оламнинг тўртта унсурдан яъни тупроқ, сув ҳаво ва оловдан ташкил топганлигини билдиради. Бундан ташқари сўфийликдаги тариқатнинг тўртта босқичлари яъни шариат, тариқат, маърифат ва ҳақиқат эшикларини билдиради. Бу билан хар бир инсон тариқат эшикларига кириб, хар биридаги ўнтадан талаб қилинган мезонларини бажариш кераклиги ишора қилинган. Яна тўртта равоқда Қуръони карим суралари ёзилган гиламлар бўлиб, ҳар бир равоққа иккитадан жами 8 та гиламга тўқиб ёзилган гиламлар осилган. Эшиклар ёғочдан ўйиб безалган. Равоқ ичкарилари турли рута ва ҳошия ва мунаббат нақшлар билан безалган.



5- расм. Қуръон залининг равоқлари ва безаклари.

Хулоса қилиб айтганда, Қуръон зали умумий колорити оч пушти рангда ишланган бўлиб, гумбази хаво рангда бажарилганлиги улар бир-бири билан уйғун бажарилган. Мантиқан ЎзИЦМ консепциясига мос ҳолда безалган. Инсонлар Қуръон залига кирар эканлар бамисоли илоҳий гўзаллик оламига киргандек бўлиб, ўзини бамисоли яллоҳни мўжизаларини кўргандай бўлади ва ўзгача хис туюғлар оламига кириб қолади.

Фойдалинган адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Ўзбекистондаги ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори. 2017 йил 23 июнь // Маърифат. – Т., 2017. – 24-июнь. – 50 (9011)-сон.

2. Қуръони карим. 41-нчи “Фуссилат” сураси, 9-12 оятлар.

3. Нозилов Д..А. Ўрта Осиё меъморчилигида одатлар, қойдалар ва рамзий ифодалар.Т.:”Санъат” журнали. Нашрёти 2011 йил, 60-61 -бетлар.

4. Ремпель Л.И. Цеп Времен: Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Т.: Изд-во лит. 190 с.

5. Булатов С. С., Саипова М.С. Бадиий таҳлил тамойиллари. (Тасвирий, амалий ва меъморчилик санъат асарлари мисолида). (монография)-Т.: “Фан ва технология”, 2016, 260 бет.

* * *

ТОШКЕНТДАГИ “МЎЙИ МУБОРАК” МАДРАСАСИ – ИСЛОМ МАДАНИЯТИНИНГ НОЁБ ЁДГОРЛИГИ

THE ‘MOYI MUBARAK’ MADRASA IN TASHKENT – A UNIQUE MONUMENT OF ISLAMIC CULTURE

Неъматулло Муҳамедов,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси
“Ислом тарихи ва манбашунослиги IRCICA”
кафедраси профессори, тарих фанлари доктори.

“Мўйи Муборак” номи билан аталадиган масжид, мадрасаларни юртимизнинг айрим вилоят ва туманларида учратиш мумкин. Хусусан, Тошкент шаҳрида “Мўйи Муборак” номи билан аталувчи мадраса мавжуд.

Тошкент мадрасалари тўғрисида архив, матбуот ёки ўша даврдаги рус ўлкашуносларининг маълумотлари, айниқса, мадрасалар сони борасида ҳар хил хабар ва талқинлар мавжуд. Хусусан, 1865–1868 йиллари Тошкентда бўлган А. Хорошхин “Очерки Ташкента” номли кундалигидаги маълумотда айрим мадрасаларнинг номи, вақф мулкларини келтириб ўтган бўлса, Н. Маев 1876 йили Тошкентда жами 11 та мадраса мавжудлигини таъкидлайди. “Туркестанские ведомости” газетасининг 1876 йилги 48-сонида босилган расмий маълумотда эса 13 та мадраса тилга олинган.

Бироқ XIX асрда Тошкентда яшаб ижод қилган муаррих Муҳаммад Солиҳхўжа эса ўзининг “Тарихи жадидайи Тошканд” асарида Тошкентдаги 20 та мадраса тўғрисида бирмунча батафсил маълумот бериб ўтган.

“Мўйи Муборак” мадрасаси XV асрда “Бароқхон” мадрасасининг қаршисида қурилган ва кейинчалик бузилиб кетган. 1856-1857 йилларда “Мўйи Муборак” мадрасаси қайта қурилади. Бу номнинг берилишига мадрасанинг махсус хоналаридан бирида махсус қувур шиша идишда сақланаётган пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.)нинг муборак мўйларининг сақланиши сабаб бўлган.

Тарихий манбаларда ушбу мадрасада Нақшбандия тариқатининг машҳур вакили Хожа Аҳрор Валий мударрислик қилганликлари эслатиб ўтилади. Мадраса, шунингдек, “Маҳватайи муллоён” (яъни, муллалар ва аҳли илмлар билан ўраб олинган жой) деб ҳам аталган.

Бу ҳақда ўз даврида Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармаси раиси, марҳум муфтий Зиёвуддинхон ибн Эшон Бобохон ҳазратлари шундай ёзиб қолдирганлар: *“Имом Қаффол Шоший номлари билан шуҳрат қозонган Ҳастимом маҳалласи ўз замонасида Тошкентнинг диний, илмий, маънавий ва маърифий маркази сифатида донг чиқарган. Ҳозирги Диний Идоранинг кутубхонаси жойлашган бино “Мўйи Муборак” мадрасасидир. Узоқ вақтлар ушбу мадрасада Пайғамбаримиз алайҳиссаломнинг муборак мўйлари сақланиб келингани учун шундай деб атаганлар. Илм маскани бўлган даргоҳда кўп вақт тасаввуф аҳлининг йирик намояндаларидан бири Хожа Аҳрор Валийдек зот мударрислик қилгани ҳақидаги маълумотлар китобларда ёзиб қолдирилган. “Мўйи Муборак” мадрасаси ва “Тилла Шайх” масжиди жойлашган ҳудудни “Маҳватайи муллоён”, яъни, муллалар ва аҳли илмлар билан ўраб олинган жой, деб атаб келганлар. Маҳаллий халқ уни сал бузиб “Маҳвота”, дея талаффуз қилади. Дарҳақиқат, XVI асрда “Маҳватайи муллоён” рўпарасида Бароқхон номи билан машҳур ҳукмдор Навруз Аҳмадхон томонидан “Бароқхон” мадрасаси ҳам қуриб*

битказилган. Бу эса Ҳастимом маҳалласи халқининг маънавий ҳаётида муҳим рол ўйнаганидан далолатдир”[688].

Тадқиқотчи Малика Бекназарованинг таъкидлашича[689], Ҳазрати Қаффол Шоший вафотидан сўнг бир мунча вақт ўтиб, Мўйи Муборак хонақоси барпо этилган ва сақланиб қолинмаган. Ушбу хонақо кейинчалик XIX аср ўрталарида пишиқ ғиштдан қайта қурилган. М.Е.Массоннинг фикрига кўра[690], мадраса 1856-57 йилларда Мирзо Аҳмад Қушбеги томонидан, бу борада Т.С Страмцованинг фикрича[691] мадраса 1851 йилда қурилган.

“Мўйи Муборак” мадрасасининг тарихи ҳам, меъморий ечими ҳам ўзгача. Тўғри тўртбурчак ҳовли уч томонидан ҳужралар билан ўралган. Бу девор кўпқиррали олти устунли айвоннинг ҳам орқа устуни бўлган. Айвон шифти ва устунлари нафис нақшлар билан безалган. Ҳовлининг ўрталарида 7х6 метр ўлчамли қабр бўлиб, устидаги гумбаз ҳужралар томидан кўтарилиб, кўриниб турган.

Мадраса 13 ҳужра ва бир масжиддан иборат бўлиб, XX аср бошларида икки мударрис – Имомхон Маҳдум ва Абдулмажидхон эшон кабилар талабаларга сабоқ беришган. Охирги вақтларда мадраса ҳовлиси ёпиб юборилган. Гумбаз ўрнига ёруғлик тушувчи чордоқ қурилиб, томи тунука билан қопланган.

1890 йилда Ҳастимом мажмуасида “Мўйи Муборак” мадрасаси ёнида Тиллашайх номини олган яна бир масжид қурилган. Бой-бадавлатлиги ва адолатлилиги билан ном қозонган Тиллашайх қашшоқларга ва етимларга силайи раҳм қилган. Илм-фан аҳлига эҳтиром билан муносабатда бўлган.

1930 йиллардан кейин масжид ёпилиб, артелга (касб-ҳунар эгалари бирлашмаси) айлантирилган. 1943 йилда Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назоратини ташкил этишга рухсат берилганида фаолиятини қайтадан бошлаган биринчи масжидлар қатори “Тилла Шайх” ҳам очилди. 1972-1973 йилларда масжид таъмирланиб, кенгайтирилади, қибла томонига туташтириб яна бир хонақоҳ қурилади ва аввалги меҳробининг икки ёнидаги девор олиниб, қўшиб юборилади. Табиийки, мажмуада бўлганлар Тилла Шайх ҳаёти билан қизиқади. Адиб Абдуқаҳҳор Иброҳимовнинг маълумотларига кўра, Ҳазрати Имом даҳасининг Парчабоф маҳалласида туғилган Тилла Шайх Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор авлодларидан бўлган.

“Мўйи Муборак” мадрасаси қисман таъмирланиб, қўшимча бинолар қурилди, кейин эса кутубхонага айлантирилди. Кутубхонанинг ташкил этилишига Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний бошқармаси асосчиси, марҳум Эшон Бобохон ибн Абдулмажидхон томонидан қолдирилган қўлёзмалар асос бўлган.

Ҳозир бу кутубхонада минглаб нусхада китоблар ва бир неча минг қўлёзмалар мавжуд. Шулар қаторида халифа Ҳазрати Усмон (р.а.) (644—656) даврида кийик терисига куфий хати билан ёзилган Усмон Мусҳафининг қўлёзмаси ҳам бор. ЮНЕСКО ташкилоти томонидан 2000 йилда ушбу Мусҳафнинг асл нусха эканини тасдиқловчи ҳужжат – сертификат берилган. Бугунги кунда “Мўйи Муборак” мадрасаси ҳам таъмирланиб, Мусҳафи Усмон музей-кутубхонасига айлантирилган.

Ҳозирда Тошкентдаги Ҳазрати Имом (Ҳастимом) мажмуаси “Имом Қаффол Шоший” мақбараси, “Бароқхон”, “Мўйи Муборак” мадрасаси, “Намозгоҳ” ва “Тилла Шайх”, “Ҳазрати Имом” масжидларидан иборат тарихий ансамбларни ўз ичига олган муқаддас зиёратгоҳга айланган.

* * *

[688] Бобохонов Ш. Шайх Зиёвуддинхон ибн Эшон Бобохон. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. Б. 265.

[689] Қаранг: http://oac.dsmi-qf.uz Бекназарова М. Тошкент шаҳридаги Ҳазрати Имом мажмуасининг меъморчилиги ва таъмирланиш тарихи // «Oriental Art and Culture» Scientific-Methodical Journal, 2023. –Б.679-691.

[690] Массон М.Е. Прошлое Ташкента. Известия АН УзССР, Ташкент, 1954. –С. 130.

[691] Страмцова Т.С. Архитектурный облик феодального Ташкента. Архив Глав НПУ, рукопись. 2007

МИСР МЕЪМОРЧИЛИГИГА МОВАРАУННАҲР ИМОРАТСОЗЛИК АНЪАНАЛАРИ ТАЪСИРИ

THE INFLUENCE OF MAVERANNAHR'S ARCHITEKTURAL TRADITIONS ON THE ARCHITECTURE OF EGYPT

Арипова Зухра Джахангировна
Международная исламоведческая академия Узбекистана,
и.о.профессор кафедры «Арабский язык и литература Ал-Азхар»,
доктор исторических наук
E-mail: aripova.zuxra@mail.ru.

В мировой истории XIII-XV веков Египет, благодаря деятельности мамлюков, занимал выдающееся положение среди восточных государств. В этот период, с 1250 по 1382 годы, страной правили бахриты - المماليك البحرية (“бахрийские мамлюки” – тюркские рабы, привезенные морским путем), а с 1382 по 1517 годы – бурджиты – “المماليك البرجية” (“кавказские мамлюки”). В связи с этим, актуальной задачей является исследование связей между историей мамлюков и историей народов Центральной Азии, что позволит внести новые данные в историю Узбекистана. Изучение социальной, политической, религиозной, экономической и культурной деятельности тюркских династий, правивших в других странах, их дипломатических отношений с другими государствами, а также роли мамлюков в мировой истории позволит молодым поколениям расширить свои знания не только о Центральной Азии, но и о других регионах мира.

В период мамлюков-Бахритов сооружения, построенные мамлюкскими султанами, внесли значительный вклад в преображение Каира. Прибыв в Каир, Ибн Хальдун признал его крупным центром ислама и символом «عمران » «умрана» (цивилизации)[692]. Потому что возведённые в городе сооружения свидетельствуют о большом вкладе в культурный подъём этого периода.

Стремясь к процветанию Египта и укреплению своей власти, мамлюкские султаны возводили множество памятников, используя средства благотворительных фондов и собственных средств. За период с 1250 по 1517 годы было возведено множество зданий, некоторые из которых, к сожалению, не дошли до наших дней, однако о них сохранились сведения в письменных источниках.

Мечеть эмира Кусуна была построена в 730 году хиджры (1330 год) за воротами Зувайла амиром Сайф ад-Дином Кусуном ас-Соки ан-Носири. В настоящее время она находится на территории цитадели Мухаммада Али. Кусун прибыл в Египет из деревни Баракад в Бухаре в 720 году хиджры (1320 год)[693]. Туюн (или Тулунхотин), сопровождая невесту – дочь Узбек-хана, прибыл в Египет для ее бракосочетания с Насиром Мухаммадом ибн Калауном. Благодаря своим умственным способностям и усердию, он быстро поднялся по служебной лестнице султанского дворца. В 727 году хиджры (1327 год) амир Сайф ад-Дин Кусун ас-Соки ан-Носири женился на дочери султана Насира ибн Калауна, заплатив за нее приданое в пятьдесят тысяч динаров[694]. Кроме того, Ибн Тотах, сын амира Сайфа ад-Дина Кусуна, женился на дочери султана ан-Насира, рожденной от его брака с дочерью Узбек-хана.

---

[692] عبد الرحمن ابن خلدون. مقدمة ابن خلدون. المحقق عبد الله محمد الدرويش. دمشق: دار يعرب. 2004.

[693] حسن عبد الوهاب. تاريخ المساجد الأثرية. ج.1. –القاهرة: دار الكتب المصرية، 1946، –ص.931

[694] تقى الدين أبو العباس أحمد بن علي بن عبد القادر العبيدي المقريزى. المواعظ والاعتبار بذكر الخطط والآثار. – بولاق: أوست. 2002.ج.2. – ص.703،27

В настоящее время от мечети Кусуна сохранились лишь северные ворота, окна, а также деревянная табличка с надписями, повествующими об истории строительства мечети и имени ее основателя. В ходе последующих реставрационных работ на левой стороне двери было обнаружено имя мастера – Ахмад ал-Харири и дата изготовления – 785/1383 год. Две деревянные двери, покрытые медью, были перенесены в Каирский музей исламского искусства. В 1342 году, во время правления султана Ахмада ибн Насира, эмиры устроили заговор против него, арестовали и заточили в Александрии, где он впоследствии скончался[695].

Эпоха Амира Темура и его потомков ознаменовала собой расцвет архитектуры Мавераннахра. Начиная с правления Амира Темура, средневековая архитектура претерпела значительные изменения. В период правления Тимуридов строительные работы и возведение архитектурных памятников достигли высокого уровня. Государство Тимуридов прославилось не только развитием науки и образования, но и строительством масштабных сооружений, мечетей, мавзолеев, прекрасных садов и гидротехнических сооружений. Амир Темур стремился превратить свою столицу Самарканд в один из красивейших городов мира. В период правления Тимуридов строительные работы велись в таких городах, как Самарканд, Ташкент, Бухара, Карши, Туркестан, Герат, Мешхед, Нишапур, Кабул и других. Характерной чертой архитектуры Тимуридов стали купола определенной формы, которые встречаются и в других сооружениях того времени. Синие купола таких сооружений Самарканда, как комплекс Шохи Зинда, мавзолея Шоди Мулка (1373 год), мавзолея Амир-Заде (1386 год) и медресе Улугбека (XV век), являются классическим примером тимуридской архитектуры[696].

Существует несколько архитектурных сооружений в Мавераннахре, которые оказали влияние на строительство в Египте. Монументальные луковичные купола Самарканда, одинаково эффектно выглядящие со всех сторон и имеющие длинные, выступающие «шеи», были одной из отличительных особенностей архитектуры Тимуридов[697]. Такую же форму купола использовал и амир Кусун в своей мечети. К сожалению, этот купол не сохранился до наших дней.

Мечеть эмира Сарыгтамиша ан-Насира была построена в 757 году хиджры (1357 год) по приказу эмира Сарыгтамиша ан-Насира[698]. Внутри мечети была основана медресе, где преподавали хадисы и ханафитский мазхаб. На церемонии открытия медресе присутствовали кади (судьи) всех четырех мазхабов и другие ученые. Эмир Сарыгтамиш назначил преподавателем фикха (исламского права) Каввама ад-дина ал-Иттикони и распорядился выделять ему ежемесячное жалование из вакуфа[699]. Мечеть расположена на улице ас-Салб в районе ас-Саййида Зайнаб, рядом с мечетью Ахмада ибн Тулуна. Главный фасад здания обращен на северную сторону, к улице. Купол мавзолея находится на южной стороне фасада. Этот купол имеет характерную луковичную форму, одинаково хорошо видимую со всех сторон, и напоминает купола самаркандских мечетей.

Мечеть-медресе-мавзолей султана ан-Насира Хасана является одним из самых известных археологических комплексов Каира. Являясь настоящей жемчужиной исламской архитектуры Востока, этот комплекс считается самым гармоничным памятником Каира и свидетельствует о высоком уровне развития архитектуры мамлюков. Он был построен султаном ан-Насиром Хасаном в период правления бахритов в 757-764/1356-1363 годах.

Комплекс включал в себя мечеть и медресе, где преподавали четыре мазхаба: шафииты, ханафиты, маликиты и ханбалиты, а также изучали Коран, хадисы и каллиграфию. Ранее на

---

695 سعاد ماهرمحمد. مساجد مصر وأولياؤها الصالحون.، ج3.– ص691-981.

696 Пугаченкова Г. А., Рempель Л. И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. М.: Искусство. 1965. – С. 253-254

697 https://e-tarix.uz/maqolalar/528-maqola.html

698 محمود أحمد. دليل موجز لأشهر الآثار العربية بالقاهرة.القاهرة: المطبعة الأميرية ، 8391–ص.131-531

699 إبراهيم بن محمد بن دقماق. كتاب الانتصار لواسطة عقد الأمصارفي تاريخ مصر وجغرافيتها. تحقيق محمد كمال الدين. –بيروت. المكتب التجاري للطباعة والتوزيع والنشر، 7102.. ج.5.– ص.74

месте мечети располагался базар, который назывался «Конский базар». Здесь, по приказу ан-Насира Мухаммада, был построен дворец для эмира Йилбуги ал-Яхьяви. Позже султан разрушил этот дворец и построил на его месте медресе. В настоящее время мечеть расположена на площади Салах ад-Дина (площадь Румайла) в районе Халифа в южной части Каира. Рядом с ней находятся несколько древних мечетей: ар-Рифаий, ал-Махмудия, Канибай ар-Раммах, Джавхар ал-Лала, Мухаммад Али, а также цитадель Салах ад-Дина с мечетью ан-Насира Калавуна, а также музей Мустафы Камала. Ее купол (в форме луковицы) своим великолепием напоминает характерные стили архитектуры Тимуридов. Существует большое сходство между куполом этой мечети и куполом мавзолея Амира Темура в Самарканде. Средневековый историкал-Макризи писал об этой мечети: «эта мечеть и ее купол настолько великолепны, что подобной мечети никогда не было построено в Египте, Сирии, Йемене и Ираке»[700]. Ибн Тагриберди также подтверждал это мнение, отметив, что «его минарет и купол являются лучшими среди всех построек в исламском мире»[701]. В строительстве этого мечеть-медресе-мавзолея принимали участие ремесленники и мастера из Центральной Азии.

При рассмотрении памятников этого периода можно заметить, что некоторые традиции архитектуры Мавераннахра оказали определенное влияние на египетское строительство. В частности, форма куполов Самарканда, отличающаяся луковичной формой и высокой степенью симметрии, стала характерной чертой архитектуры того времени. Этот стиль был одной из особенностей архитектуры Тимуридов. Об этом свидетельствуют большие сходства между куполами мечети Амира Кусуна, мечети Амира Саригтамиша ан-Насира, мечети Хасана ибн ан-Насира Мухаммеда ибн Калавуна и куполом мавзолея Амира Темура в Самарканде.

Хотя египетские мастера имели свои традиции, в Мавераннахре, особенно в Самарканде и Бухаре, искусство глазурованной плитки достигло невероятного расцвета. Некоторые исследователи предполагают, что элементы декора из изразцов, появившиеся в мамлюкских постройках, могли быть вдохновлены образцами из Средней Азии.

Зодчие Мавераннахра разработали инновационные методы строительства, которые позволяли возводить более высокие и монументальные сооружения. Прибывшие из Средней Азии мастера могли принести с собой эти навыки, что способствовало развитию архитектуры Каира.

* * *

СРЕДАЗКОМСТАРИС ФАОЛИЯТИГА БИР НАЗАР

BRIEF OVERVIEW OF THE ACTIVITIES OF SREDAZKOMSTARIS

Гафурова Иродахон Мухтаровна
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Илмий кенгаш илмий котиби, PhD

Ўзбекистон ҳудудидаги тарихий-маданий ёдгорликларга қизиқиш XIX аср ўрталарида чор Россияси истилосидан бошланган. XIX-XX аср бошларида Россия империясининг протекторатлари сифатида Бухоро ва Хива хонликларида, Туркистон ўлкасининг бошқа ҳудудларида 1895 йилда ташкил этилган “Туркестанский кружок любителей археологии”

[700] حسن عبد الوهاب. تاريخ المساجد الأثرية. ج.1. –القاهرة: دار الكتب المصرية، 6491، . – ص.561

[701] جمال الدين أبي المحاسن ابن تغري بردي. منتخابات حوادث الدهور في مدى الأيام والشهور. المحقق محمد كمال الدين عز الدين. القاهرة: عالم الكتب.0991..ج.2. – ص.912

(“Туркистон археология ихлосмандлари тўгараги”), “Русское археологическое общество” (“Россия археология жамияти”) ва бошқа илмий ташкилотлар томонидан уюштирилган илмий экспедициялар давомида Туркистон ўлкасидаги ислом ёдгорликлар тўғрисида илк илмий маълумотлар тўпланган[702].

Туркистон ўлкасидаги ислом ёдгорликлар тўғрисида илк илмий маълумотларни: Ўрта ва Шарқий Осиёни тарихий, археологик, лингвистик ва этнографик жиҳатдан ўрганиш бўйича рус Қўмитаси протоколларида[703], “Туркомстарис” (Туркестанский комитет по охране памятников старины, искусства и природы\Табиат, санъат, тарихий ёдгорликлар ҳимояси бўйича Туркистон қўмитаси)[704], кейинчалик, “Средазкомстарис хабарлари”да[705], Туркистон ведомостларида ва бошқа илмий ташкилотлар томонидан уюштирилган илмий экспедициялар ҳисоботлари ва маълумотларида кўришимиз мумкин. Ушбу ҳисоботлар, тўпланган маълумотлар вақфномалар[706] ва архив материаллари тадқиқотнинг манбавий асосини ташкил этган.

Ўзбекистон моддий, маданий ва маънавий меросини сақлаш учун “Туркомстарис” (22 май 1921 йил) кейинчалик, “Средазкомстарис” (1924 йил) ва охири “Узкомстарис” (1928-1932 йиллар) деб номланган. Мазур ташкилотнинг вазифаси: моддий маданий мерос, шу жумладан, археология мероси объектлари, музей ашёлари ва коллекциялари ҳамда маданий бойликларни муҳофаза қилиш, тарихий, илмий, бадиий ёки ўзгача маданий қимматга эга бўлган объектларни аниқлаш, улардан оқилона фойдаланилишини таъминлаш ҳамда алоҳида муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ва жаҳон маданий мероси объектлари жумласига киритилган ҳудудларда шаҳарсозлик ва бошқа хўжалик фаолиятларини уларнинг тарихий-маданий муҳити, табиий ландшафти ва ўзига хослигини сақлаб қолган ҳолда олиб борилишини мувофиқлаштириш, археология ашёлари давлат каталогини юритиш, археология тадқиқотларини амалга ошириш тартиби ва шартларига риоя қилиниши, археология ашёларининг ўз вақтида ҳисобга олиниши ва давлатга топширилишини назорат қилиш ҳамда уларни фан, маданият ва таълим муассасаларига бириктиришдан иборат бўлган. Унинг тузилмаси таркибига: архитектор, муҳандис, археолог ҳамда халқ усталари жамоаси кирган.

1924 йил 26 декабрда Туркомстарис қайта ташкил этилиб, Ўрта Осиё иқтисодий кенгашига бўйсинувчи Музой ишлари, қадимги ёдгорликлар, санъат ва табиатни муҳофаза қилиш Ўрта Осиё қўмитаси (Средазкомстарис) деб номланди[707]. Қўмита ўз фаолиятини Ўрта Осиё ва Қозоғистон ҳудудларида олиб борган. Янги ташкил этилган Средазкомстарис ўзидан аввалги Туркомстарис каби қадимги ёдгорликлар, санъат ва маданий осору атиқаларни сақлаш, муҳофаза қилиш ва ўрганиш, илмий экспедицияларни ташкил қилиш каби вазифаларни амалга оширган.

1925 йил май ойида Средазкомстарис ихтиёрида Самарқанд ва Зарафшон қадимги ёдгорликларини сақлаш ва ўрганиш вилоят комиссиялари; Тошкент шаҳридаги Ўрта Осиё бош музейи, Марказий бадиий музей, Биринчи ўзбек музейи, Ўрта Осиё инқилоб музейи; Самарқанд, Зарафшон, Еттисув вилоят музейлари; Хива, Қўқон, Фарғона, Наманган, Туркман, Қоракўл шаҳар музейлари ва Сирдарё губерния музейи бўлган[708].

---

[702] Протоколы заседаний и сообщений членов Туркестанского кружка любителей археологии. 1895-1915 гг.; Протоколы заседаний Русского Комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. –М.: Типография Императорской Академии наук, 1904, 1905.

[703] Протоколы заседаний Русского Комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. –М.: Типография Императорской Академии наук, 1904; 1905.

[704] Известия Туркестанского комитета по делам музеев охраны памятников старины, искусства и природы (Туркомстарис). 1921–1923.

[705] Известия Средне-Азиатского комитета по делам музеев охраны памятников старины, искусства и природы (Средазкомстарис) Выпуск №1, 1924.

[706] Ўзбекистон Марказий архиви. И–323 фонд, 1 ва 2-йиғма жилдлар.

[707] ЎзМДА, р-394 фонди, 1-рўйхат, 278-иш, 1-варақ.

[708] ЎзМДА, р-394 фонди, 1-рўйхат, 133-иш, 53-варақ.

1925-1926 йиллар мобайнида давлат бюджетидан Средазкомстарис учун 147 928 рубль ажратилган. Марказий бошқарув, вилоят комиссиялари, музейлари ва қўмитанинг бошқа ташкилотларига ушбу даврда сарфланган маблағ 82 257 рублни ташкил этди. Шу йилларда ислом ёдгорликларини таъмирлаш учун яна қўшимча 41 155 рубль олинган[709].

Самарқанд комиссияси штатида 1926-1927 йилларда 8 киши хизмат қилган. Комиссияга В.Л.Вяткин раислик қилган, ундан ташқари илмий котиб, муҳандис, рассом, археолог каби ходимлар бўлган. Бу йилларда М.Ф.Мауэр муҳандислик ва М.Е.Массон археолог вазифасини бажарган[710].

Бухоро шаҳри ва атрофи ислом обидаларига жуда бой бўлган, уларни муҳфаза қилиш ва келажак авлодга етказиш муҳим вазифа бўлган. Шу сабабли 1925 йил март ойида Бухоро ёдгорликларини сақлаш ва ўрганиш учун Средазкомстариснинг янги қисми Зарафшон (кейинчалик Бухоро) махсус комиссиси ташкил этилган[711]. Комиссиянинг асосий вазифаси ёдгорликларни ҳисобга олиш, сақлаш ва таъмирлашдан иборат бўлган.

1925-1926 йиллар бюджет сметаси бўйича 3 штатдан иборат (раис – Хоразм музейи директори, илмий ходим ва музей назоратчиси) Хоразм комиссияси ҳам тузилган[712].

Зарафшон ва Хоразм комиссияларининг ташкил этилиши бу ҳудудлардаги тарихий, меъморий ёдгорликларни сақлаш, таъмирлаш ва ўрганиш билан бирга қаторда Средазкомстарис таркибига Абдурауф Фитрат, М.Ю.Саиджонов ва Раҳмонов каби миллий вакилларни киритилиши ва В.Л.Вяткин ва И.И.Умняков каби олимлар тажрибасини ўрганиш имконини берган.

1925 йилда академик В.В.Бартольд ва археолог В.Л.Вяткин томонидан Самарқанд, Бухоро ва Шаҳрисабзга археологик экспедициялар уюштирилиб, шу жойларнинг ёдгорликлари аҳволи ўрганилган. В.В.Бартольднинг айтишича, таъмир ишлари ёдгорликларнинг тарихий-бадиий қийматига путур етказган, Гўри Амир мақбараси ва Шоҳизиндада ўзбошимчалик билан олиб борилган ишлар обидаларга салбий таъсир кўрсатган[713].

Средазкомстарис диққат марказида қадимги ислом меъморий ёдгорликларини муҳофаза қилиш, таъмирлаш ишлари бўлганлиги боис, турли илмий экспедициялар ташкил этган. 1925 йил майида Средазкомстарис раиси В.Л.Вяткин бошчилигидамуҳандис-меъмор М.Ф.Мауэр ва меъмор В.П.Засипкинлар билан Самарқанд шаҳридаги Тиллакори, Шердор, Улуғбек ва Нодир девонбеги мадрасалари, Гўри Амир, Оқсарой, Бибихоним, Ишратхона, Намозгоҳ, Хожа Абдидарун, Хожа Абдиберун, Чўпон ота, Руҳобод, Чалдухтарон мақбаралари, Улуғбек расадхоналари ўрганилган[714].

1926 йилда Самкомстарисга юборилган 60 000 рубль маблағ ҳисобидан бу ёдгорликларнинг баъзилари таъмирланган. Гўри Амир мақбарисини реставрацияси учун яна 299 860 рубль маблағ сўралган.

Средазкомстарис Ўрта Осиё республикаларидаги барча тарихий, меъморий ва санъат ёдгорликларини асраш, таъмирлаш ва ўрганишни, музейлар ишларини ҳар бир республикада етарли даражада йўлга қўйилишини тўла амалга ошира олмаган. Шу сабабли Средазкомстарис Ўрта Осиё иқтисодий кенгашининг 1926 йил 7 апрелдаги қарори билан тугатилган[715].

Хулоса қилиш айтганда, Средазкомстарис ўша даврда амалга оширган ишлари туфайли ҳозирги кунда кўпгина ёдгорликларнинг бирламчи кўриниши сақлаб қолинган.

* * *

[709] ЎзМДА, р-394 фонди, 1-рўйхат, 278-иш, 1-варақ.
[710] ЎзМДА, р-394 фонди, 3-рўйхат, 37-иш, 57-варақ.
[711] ЎзМДА, р-394 фонди, 1-рўйхат, 198-иш, 9-варақ.
[712] ЎзМДА, р-394 фонди, 3-рўйхат, 37-иш, 45-варақ
[713] Известия Средазкомстариса. – Т., 1925. Выпуск 1, -С. 269.
[714] ЎзМДА, р-394 фонди, 1-рўйхат, 199-иш, 100-варақ.
[715] ЎзМДА, р-394 фонди, 1-рўйхат, 9-иш, 6-варақ.

ТОШКЕНТ “ЭСКИ ШАҲАР” ҚИСМИ ТАРИХИНИНГ “ТОШКЕНТ РИСОЛАСИ”ДА АКС ЭТИШИ

THE PORTRAYAL OF THE «OLD CITY» PART OF TASHKENT’S HISTORY IN THE «TASHKENT TREATISE»

Обид Тангиров
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Тошкент шаҳрининг XIX аср охири – XX аср бошларидаги тарихини тадқиқ этишда “Туркистон тўплами” (Туркестанский сборник) асосий манбалардан ҳисобланади. Унда тўпланган ҳужжатлар орасида Тошкент тарихига оид қизиқарли маълумотлар акс этган асарлар жой олган. Шундай асарлардан бири ҳарбий-этнограф Александр Павлович Хорошхиннинг “Тошкент рисоласи”дир[716]. У Шарқ тилларини, жумладан туркий тилларни яхши ўзлаштирган.

А. Хорошкин 1866 йил бошларида Тошкентга келди. Тошкентда турли ҳарбий лавозимларда ишлаб, Ўрта Осиёдаги Россия империясининг босқинларида иштирок этган. Бу вақт давомида ўлка тарихини, хусусан Туркистон генерал-губернаторлиги маркази бўлган Тошкент тарихини тадқиқ этишга ҳам вақт ажратди. У 1875 йил империянинг Қўқон хонлиги ҳудудларига босқини пайтида маҳаллий аҳоли томонидан ўлдирилган. А. Хорошхин ёзган саёҳат кундаликларининг сақланиб қолишига укаси, генерал-лейтенант М.П. Хорошхин (1844-1898) сабабчи бўлган ва акасининг асарларини нашр эттирган.

А.Хорошхиннинг XIX асрнинг 60-70-йилларида Тошкент яшаб шаҳарнинг ижтимоий-этнографик ҳаёти тарихини ўрганади. Унинг Тошкент шаҳри бўйича тадқиқотларини олиб боришда маҳаллий аҳолидан бўлган зиёлиларнинг маълумотларига таянади. Хусусан, Тошкент шаҳрининг XIX аср 60-70-йилларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти тўғрисидаги маълумотларини асосан, маҳаллий аҳолидан бўлган танишлари мулло А., мулло Б. ва мулло С.[717]ларнинг маълумотларига суянган[718].

Аввало А.Хорошхин Тошкент шаҳрининг жойлашуви, суғорилиши, токзорлар билан ўралганлигига тўхталиб ўтади. Шаҳарнинг тўртта даҳага бўлинишига эътибор қаратиб, шимоли-шарқ томонида Шайхонтоҳур даҳаси, жанубий томонида Бешёғоч даҳаси, ғарбий томонида Кўкча даҳаси, шимоли-ғарбий томонида Себзор даҳаси жойлашганлиги кўрсатар экан, даҳа ўрнида баъзида юрт атамасини ишлатганлигига ҳам эътибор қаратиш мумкин. Ҳар бир даҳа маҳаллаларга бўлинган. Манбалардан маълумки, XIX аср охири – XX аср бошларида Тошкент шаҳри тахминан 18,2 км девор билан иҳота қилинган бўлиб[719], унинг 12 та дарвозаси бўлган. “Тошкент рисоласи”да эса Қўқон ва Қўймас дарвозалари оралиғида Йўлбарс номли дарвоза бўлганлиги, шаҳарнинг “янги шаҳар” қисмини қуриш чоғида бузиб юборилганлигини ёзади, Тахтапул дарвозасини 12 дарвозалар рўйхатида кўрсатмайди[720]. Шаҳар дарвозаларидан ташқари маълум жойларида тешиклар ҳам бўлган. Эҳтимол, Йўлбарс бошқа манбаларда кўрсатилмаган тешиклардан бири бўлиши мумкин. Тахтапул дарвозасини кўрсатмаганлиги, уни девор тешикларидан бири деб ҳисоблаган.

---

[716] Хорошхин. А.П. Очерки Ташкента // Туркестанский сборник. Том 116. – СПб., 1876.

[717] А.Хорошхин қўлёзма муаллифларининг норози бўлмаслиги учун исмларни тўлиқ келтирилмаганлигини ушбу китобида изоҳлаб ўтган.

[718] Хорошхин. А.П. Очерки Ташкента // Туркестанский сборник. Том 116. – СПб., 1876. – Б. 86.

[719] Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солиҳ тавсифида. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 17.

[720] Хорошхин. А.П. Очерки Ташкента // Туркестанский сборник. Том 116. – СПб., 1876. – Б. 81.

Шаҳарнинг тор кўчалари, транспорт воситалари бўлган туялар, эшаклар, уйларнинг кўча бўйлаб узлуксиз жойлашуви ҳақида ёзар экан, ҳовлилар ички ва ташқи ҳовлиларга бўлинишига эътиборни қаратади. Ички ҳовлилар аёллар учун қурилиб, ташқаридан келадиган эркаклар ички ҳовлига киритилмаслигини ёзади. Уйлар эса асосан, содда қурилган. Аммо ички безаклари ўзига хос бўлиб, ганч билан безатилганлиги А.Хорошхиннинг эътиборин тортган. Аммо жонли суратлар билан безатиш мутлақо мумкин эмаслиги ва бу ислом дини эътиқодида мумкинмаслигини келтиради. Хонани иситишда сандаллардан фойдаланилган бўлиб, мебеллар ишлатилмаган, балки унинг ўрнида кўрпачалардан фойдаланилган. Тошкент ҳовлиларининг яна бир муҳим жиҳати, ҳар бир уйларда меҳмонхона мавжудлиги бўлган. Аммо ҳовлидаги меҳмонхоналар сандаллар орқали эмас, тош печлар билан иситилган. Хонада бурчакда печ ёнида лойдан ишланган кувшинларда сувлар илиб турган ва меҳмонлар қўл ювишлари ва таҳорат олишларига шароитлар қилинган. Бу ҳолатни америкалик дипломат ва сайёҳ Южин Скайлер ҳам эътироф этиб, маҳаллий аҳолининг уйларида меҳмонхонасида ўртада хонтахта ва хонанинг бир бурчагида обдаста ҳамда қўл ювишга мулжалланган жой бўлганлигини ёзган[721]. Аёлларнинг ички ҳовлидаги хоналари ҳам ўзига хос тарзда бўлиб, асосан, турмуш учун ишлатиладиган буюмлар, гилам, шолча ва кўрпачалардан иборат бўлган. А.Хорошхин бой хонадонларда ички ҳовлиларнинг аёллар учун меҳмонхоналари ҳам алоҳида мавжуд бўлиб, турли маросимлар ва байрамларда фойдаланилганлигини келтиради[722]. Ҳовлиларда отхоналар, молхоналар қурилган.

Уйларнинг томларидаги болохона ёки баландхоналарида мевалар қуритилиб, қиши билан истеъмол қилинган ва бозорларда сотилган. Аҳолининг асосий чой бўлиб, шунингдек, таомлари ош (палов), гўштли шўрва, қовурдоқ ва бошқалар бўлган.

А.П. Хорошхин Тошкент шаҳрида XIX аср 60-70 йилларида 300 тача масжид фаолият кўрсатганлигини келтиради[723].

А.П.Хорошхин шаҳарда 17 та мадраса фаолият кўрсатсада, улар орасида Бароқхон, Бекларбеги, Эшонқули додхоҳ, Хўжа Аҳрор валий, Дарвешхон (Кўкалдош мадрасасини рисола муаллифи шундай кўрсатган[724]), Шукурхон мадрасалари йирик бўлганлигини кўрсатади.

1-жадвал. 1871 йилда Тошкент “эски шаҳар” ҳудудидаги катта мадрасалар[725].

Йирик мадрасалар	Мадраса мударрислари сони	Мадраса талабалари сони	Мадраса масжиди	Мадраса мактаби
Бароқхон	4 та	100 та	1 та	1 та
Бекларбеги	мударрислари кўрсатилмаган	200 та	1 та	1 та
Эшонқули додхоҳ	9 та	70 та	1 та	1 та
Хўжа Аҳрор валий	4 та	64 та	2 та	-
Дарвешхон	7 та	60 та	1 та	1 та
Шукурхон	2 та	60 та	-	-

Юқорида баъзи мадраса масжидининг йўқлиги, унинг ёнида алоҳида масжид бўлганлиги билан изоҳлаш мумкин. А.П. Хорошхин мулло Б.нинг (исмнинг тўлиқ берилмаганлиги

[721] Скайлер Ю. Туркистон: Туркистон, Қўқон, Бухоро ва Ғўлжага саёҳат қайдлари. Таржима ва изоҳлар муаллифи З. Саидбобоев. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019. – Б. 91.

[722] Хорошхин А. Очерки Ташкента // Туркестанский сборник, Т. 116. – СПб., 1876. – С. 85.

[723] Хорошхин А. Очерки Ташкента // Туркестанский сборник, Т. 116. – СПб., 1876. – С. 87.

[724] Мадрасанинг номланиши борасида таниқли тадқиқотчи Ў. Султоновнинг “Кўкалдош мадрасасининг қадимий вақфномаси ва унинг асосчиси хусусида” номли мақоласида алоҳида тўхталиб ўтилган (Султонов Ў. Кўкалдош мадрасасининг қадимий вақфномаси ва унинг асосчиси хусусида / Имом Бухорий сабоқлари. – 2008, – № 3. – Б. 134-136).

[725] Хорошхин А. Очерки Ташкента // Туркестанский сборник, Т. 116. – СПб., 1876. – С. 87.

юқорида кўрсатилди) маълумотларига таяниб, даҳалар бўйича тақсимлаганда Себзор даҳасида 8 та (Шукурхон, Бекларбеги, Шоҳбекбий, Исохўжа қози Тошкандий, Чамсанбий (Жуманбий), Наврўз Муҳаммад (Бароқхон), Мўйи Муборак, Ҳазрати имом), Кўкча даҳасида 2 та (А.Хорошхин Бўрихўжа эшон мадрасасини пишган ғиштдан қурилганлигини ва яна бир мадрасанинг лойдан бунёд бўлганлигини ёзади, аммо лойдан қад кўтарган мадрасани тилга олмайди, эҳтимол бу мадраса Чуқурхон бўлиши мумкин), Бешёғоч даҳасида 3 та (Хўжа Аҳрор валий, Кўкалдош, Саид Абулқосим), Шайхонтоҳур даҳасида 3 та (Эшонқули Лашкар қушбеги, Тахятак, Дегрез) мадраса мавжуд бўлганлигини келтиради[726].

Умуман А.П.Хорошхиннинг “Тошкент рисоласи” Тошкент “эски шаҳар” қисми тарихини ўрганишда муҳим манба ҳисобланади. Рисолада келтирилган маълумотлардан шуни англаш мумкинки, муаллиф шаҳарни яхши ўрганган. Ҳаттот тарихий обидаларнинг тарихи ва аҳамияти бўйича ҳам изланишлар олиб борган.

* * *

AMIR TEMUR DAVRI ARXITEKTURASI VA ME’MORCHILIGINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

ARCHITECTURE AND CHARACTERISTICS OF THE ERA OF AMIR TEMUR

Abduraxmonov Dostonbek Davron o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
abduraxmonovd744@gmail.com

Annotatsiya: Amir Temur davrida boshlangan yangi bosqichli arxitekturaviy konstruksiyalar hamda inshootlarning fan, taraqqiyot va sivilizatsiyada tutgan o‘rni beqiyos. Bu davr yangi yo‘nalish, yangi bosqich demakdir. Hozirgi zamon va fan tabiri bilan aytganda yangi bosqichni o‘rganish, uni asrab qolish hamda davom ettirish muhim vazifadir. Unda qo‘llanilgan bezak va konstruksiyalar sharq balki g‘arb qurilish va arxitektura tamaddunida muhim sanaladi. Ularning necha yuz yillar davomida o‘z chiroyini yo‘qotganligi uning mustahkam va zilzilabardoshligidan darak beradi.

Kalit so‘zlar: arxitektura, inshoot, naqqoshlik, struktura, loyiha, zilzilabardosh, joylashuv, mustahkamlik.

Sharq me’morchiligi hamda arxitektura san’atida o‘zining yuksak, noyob, chuqur va mukammal loyiha asosida rejab qurilgan bino va inshootlari bilan ajralib turuvchi me’moriy obidalar ko‘p, ammo bu tarixiy obidalarning eng asosiy qismi Temuriylar davri arxitekturasi va qurilishiga borib taqaladi. Shunday yuksak san’at va fan sohasining rivojlanishiga qo‘shilgan ulkan hissa hali hanuz o‘rganilmoqda va davomiy o‘rganilish yo‘lidadir. Bunday loyihalarni ishlab chiqish hamda qurdirish hozirgi kunda katta bilim, salohiyat, mablag‘ talab etadi.

Temuriylar davri arxitekturasi chuqur bilim va sinchkovlik bilan o‘rganilsa bitta fan sifatida o‘qish va o‘rganish mumkin.Temuriylar davri arxitekturasi Temuriylar saltanati vujudga kelishi bilan bog‘liq va shu saltanat bilan teng yoshda hisoblanadi. XIV-XVI asrlarda vujudga kelgan bu me’moriy uslub o‘zining takrorlanmasligi hamda hozirgi qurilish me’yoriy hujjatlariga to‘la javob berishi bilan ajralib turgan. Temuriylar saltanatining asosiy joylashuv hududlari Movorounnahr (hozirgi O‘zbekiston) va Katta Xuroson (Sharqiy Eron va Shimoliy Afg‘oniston) hududlarini tashkil

[726] Ўша манба, ўша бет.

qilgan asosiy qurilish va bunyodkorlik ishlari davlat poytaxti Samarqand shahrida olib borilgan. Bunday bunyodkorlik ishlari hali ham o‘z holicha, qayta rekonstruksiya va restavratsiya qilish yo‘li bilan o‘z jozibasi hamda viqori saqlab qolingan. Amir Temur uchun uning ko‘rsatmasi hamda buyrug‘iga ba’zi hollarda hozigi fan tili bilan aytganda loyihasi bilan qurulgan inshootlar, bunyodkorlik ishlari ham ijtimoiy ham siyosiy ahamiyatga ega edi. Bunga yaqqol misol sifatida Oqsaroy peshtoqiga yozilgan ‘’Agar bizning qudratimizga ishonch hosil qilishni hohlasangiz, bizning binolarimizga qarang!” deb bitilgan bitiklarni dalil keltirish joiz. Ushbu inshooatlarning o‘ziga xosligi shundaki ular baland, muhtasham ko‘rinishga, bezatishda esa noyob naqshlar hamda yangicha bezatish uslublariga egaligi bilan ajralib turadi. [727]



O‘rta Osiyoda me’morchilik rivoji Amir Temur vafotidan keyin ham, u yaratgan imperiya hududi ancha qisqargan va haqiqatda ikkiga bo‘lingan bo‘lsa ham mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishi, Samarqand va Hirotda madaniy kuchlarning bir joyda jamlanishi jadalligini yo‘qotmagan.

XV asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo me’morchiligi Amir Temurning nabirasi Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq. Rasmiy jihatdan u otasi Shohruhning Movarounnahr hokimi hisoblansa-da, aslida u Movarounnahrning mustaqil hukmdori edi. Ulug‘bek bobosi kabi harbiy yurishlardan ko‘ra ilm-fan va san’atga katta qiziqish ko‘rsatib, Sharqning eng yaxshi ilmiy kuchlarini Samarqandga to‘pladi, bu esa o‘z navbatida arxitektura tabiatiga ham ta’sir ko‘rsatdi[728].

Amir Temur davlatchiligining eng buyuk davomchilaridan Mirzo Ulug‘bekgina yuksak maqomga olib chiqa oldi va shu davlatga munosib siyosat olib borgani natijasida, Temuriylar davrida Samarqand gullab yashnagan. Buning natijasida Samarqandda san’at, madaniyat, fan va bunyodkorlik ishlari yuqori darajada olib borilgan deyish mumkin. Amir Temur boshlab bergan me’morchilik, siyosiy va boshqa ko‘plab sohalarni Mirzo Ulug‘bek davom ettirdi va davomchi bo‘la oldi. Binolar me’morchiligida balandligi 9 metr (eni 4 metr va chuqurligi 3 metr) gacha bo‘lgan qurilish uslubi amaliyotda kam uchraydi . Devorlarga gilamlar, kiygizlar, qurollar osilgan. Derazalar rangli oynali vitrajlar va ochiq panjaralar bilan bezatilgan. Sun’iy ravishda yoritish uchun devorga o‘rnatilgan bronza shamdonlardagi shamlar va oltin qandillar ishlatilgan.



Naqqoshlikda foydalaniladigan bezak turlari xilma-xildir. Xattotlik kufiy yozuvi bilan ifodalanadi (Alloh va Muhammad so‘zlari eng ko‘p ishlatilgan). Geometrik jihatdan girih, medalyon, spiral, romb va olti burchak shakli qo‘llanilgan. Gulli usulda bezatishda poya va gullar bir-biriga bog‘langan holda bo‘lgan. Qurilishda asosiy ishlatilgan ranglar „firuza-ko‘k“, bezatishda esa „ko‘k-oltin“ bo‘lgan. Temuriylar shoiri Alisher Navoiy havorang (moviyrang) va indigo ranglarini ajratadi. Shuningdek, me’morchilikda yashil, qizil, sariq, qora va oq ranglar(ganch) mavjud. Plitkalardan tozalangan yuza qismlari alebaster bilan qoplanishi mumkin.

[727] https://uz.wikipedia.org/wiki/Fayl:Mausoleum_of_Amir_Temur_(1).JPG
[728] https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=dYU6ItwAAAAJ&citation_for_view=dYU6ItwAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

Temuriylar me’morchiligi 16—18-asrlarda Markaziy Osiyo, Hindiston va Eronda yangi tashkil topgan uchta davlat me’morchiligining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, ularda bir qancha umumiy rivojlanish belgilari kuzatilgan. Bunda rivojlanayotgan savdo-sotiq, diplomatik aloqalar va hunarmandlar munosabati muhim rol o‘ynadi. Shunday qilib, 17-asr o‘rtalarida Buxorodagi Abdulazizxon madrasasining tashqi ko‘rinishi hind me’morchiligi manzarasi aks ettirilgan devoriy suratlar bilan bezatilgan. Bu ko‘rinish Agra shahridagi mashhur Toj Mahal maqbarasi qurilishida ishtirok etgan. Buxorolik 2ta o‘ymakor usta va Samarqandlik gumbaz quruvchisi tomonidan yaratilgan.

Inshootlarda qo‘llanilgan yodgorlik va konstruktiv yechimlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan bu uch madrasadan ma’lum bo‘lgan. Ulug‘bek homiyligi va ishtirokida aniq fanlar yuksak darajada rivojlangani uning yodgorlik binolarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Qurilmalar, materiallar va ulardan oqilona foydalanish, ularning yangi turlarini takomillashtirish qurilish jarayonini yuqori darajada tashkil etish bilan bog‘liq.

Mirzo Ulug‘bek 1420-29 yillari Samarqand yaqinidagi Obi-Rahmat tepaligiga rasadxona qurdirdi. Bino uch qavatli to‘garak shaklida bo‘lib, diametri 46-40 metr, balandligi 30 metrcha edi. Bu haqda Zaxiriddin Muhammad Bobur ham guvohlik beradi. Rasadxona haqida tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy quyidagicha yozadi: “Samarqandning shimoliy tomonida sal sharqqa og‘ishgan joy tanlandi, mashhur munajjimlar bu ishni boshlab yuborish uchun yulduz ko‘rsatgan hayrli kunni aniqlab berdilar. Bino qudrat asosi, ulug‘vorlik negizidek pishiq qurildi. Poydevor va ustunlar tog‘ asosidek shunday mustahkam qilindiki, ular to mashhar kunigacha na joyidan jilar va na qular edi. Baland qurilgan bu muhtasham imorat xonalarining ichiga solingan rasm va beqiyos suratlarda to‘qqiz falakning daraja, daqiqa, soniya va soniyaning o‘ndan bir ulushlari ko‘rsatilgan yetti qavat osmon gardishi, yetti sayyora va turg‘un yulduzlar tasvirlangan osmon gumbazi, iqlimlar, tog‘lar, daryolar, sahrolar, xullas olamga tegishli hamma narsalar tasvirlangan edi. Shundan keyin Quyosh va sayyoralarning harakatini kuzatish, ko‘rganlarni yozish va qayd qilishni boshlab yuborishga farmon berildi”.

XVI asrda g‘oyib bo‘lib tepalikka aylangan yodgorlik XIX asrning 70-yillarida rus o‘lkashunoslari tomonidan topilgan, faqat arxeolog V.L.Vyatkin tomonidan 1908-09 va 1914-yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida uning poydevori va qoyaning chuqurligidagi xandaq aniqlangan. Akademik T.N.Qori-Niyoziy va astronom G‘iyos Jalilovlarning tadqiqotlaridan ma’lumki, bu samoviy jismlarni kuzatishda qo‘llaniladigan sekstant qoldiq bo‘lib, shimoldan janubga meridional yo‘nalishda qurilganligi aniq. Ularning fikri V.N.Kastalskiy va V.P.Shexlovlarning tekshiruvlari bilan ham tasdiqlandi. Bu yerdagi rasadxonaning asosiy quroli radiusi 40,212 metr bo‘lgan juda katta burchak o‘lchash asbobi (vertikal doira) hisoblanadi. Asbobning hozirda saqlanib qolgan qismi tepalik tagidagi qoyaga o‘yib tor chuqur yarim doira shaklida o‘yilganligi aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Ulug‘bek Amir Temur “me’moriy asarlari”ning davomchisi sifatida Movarounnahr XV asr me’morchiligining alohida yo‘nalishiga, ya’ni mashhur olimlar, muhandislar va me’morlarning puxta o‘ylangan hisob- kitoblari asosida binolar qurishdagi ilmiy yutuqlarga rahbarlik qildi. Har bir strukturaning butun tarixi davomida olimlar matematik usullarda har bir elementning kuch darajasini aniqlashga harakat qilishgan. Bu, o‘z navbatida. Ulug‘bekga o‘zining ko‘pgina binolarini qariyb 500 yil davomida saqlab qolish imkonini berdi, ularning zilzilalar va noqulay tabiiy ta’sirlarga chidamliligini ta’minladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amir Temur Ko‘rogon. Temur tuzuklari -Toshkent: ‘’IJOD-PRESS’’ - 2019-160 bet
2. Amir Temur tarixi - I-II qism. Ibn Arabshoh -1991Toshkent, Mehnat nashriyoti - 324 bet
3. O‘G‘Li, ADD va Qizi, AGI, 2024. Amir Temur davri arxitekturasi Temuriylar sulolasi me’morchiligining boshlanish bosqichi. Stroitelstvo i obrazovanie , (Spetsvypusk 2), 34-37-betlar.

4. Abduraxmonov D. Boborahim mashrabning “mabdayi nur” asarlarida fors-tojikcha o ‘zlashmalar. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2024;2(15):15-21.

5. Abduraxmonov, D. (2024). Modernizm san’ati hamda uning o‘zbekistonda ilk bor qo‘llanilishi. Olim , 2 (5), 33-37. http://scholar-journal.org/index.php/s/article/view/92

6. Abduraxmonov, D. (2024).Bobur va uning hind arxitekturasiga qo‘shgan hissasihttps://doi.org/10.5281/zenodo.10714481

7. Boliyeva Roxila Xayrullayevna., Abduraxmonov Dostonbek Davron O‘G‘Li (2024). Zamonaviy pedagogning kasbiy kompitentligini rivojlantirishning metodlari

* * *

TURKISTONDAGI PRAVOSLAV CHERKOVLARI ARXITEKTURASI

ARCHITECTURE OF ORTHODOX CHURCHES IN TURKESTAN

Abduvaxidov Dilshod Narbotirovich,
Samarqand davlat universiteti.
PhD doktorant,

Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi nafaqat siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga, balki diniy-ma’naviy nazoratni o‘rnatishga ham xizmat qilgan. Bu bosqinchilik siyosatining muhim vositalaridan biri — pravoslav cherkovlari qurilishidir. Rossiya imperiyasi nafaqat harbiy inshootlar va boshqaruv tuzilmalarini, balki o‘zining diniy institutlarini ham bu hududda barpo etish orqali mahalliy jamiyatga ma’naviy jihatdan ta’sir o‘tkazishga intilgan. Mintaqada xristianlik inshootlarining qurilishi Rus pravoslav cherkovining Turkiston o‘lkasidagi faoliyatining ko‘rinmas, ammo kuchli vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Bu cherkovlar harbiy garnizonlar, fuqarolik markazlari va shahar maydonlarida qad rostlagan bo‘lib, imperiyaning o‘ziga xos “sivilizatsion missiyasi” timsoliga aylantirilgan. Cherkovlar orqali diniy xizmatlar ko‘rsatishdan tashqari, rus madaniyati, tili va qadriyatlarini singdirish, ruslashtirish siyosatini amalga oshirish maqsad qilingan edi[729].

Ayniqsa, ushbu cherkovlarning arxitekturaviy yechimi orqali Rossiya imperiyasining madaniy ustunligi va diniy mafkurasi ifodalangan. Ularning shakli, uslubi, joylashuvi, bezak elementlari va monumental tuzilmalari orqali siyosiy va diniy g‘oya vizual ravishda “materiallashtirilgan”. Bu jihat, ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Verniy (Olmaota), Pishpek (Bishkek) kabi markaziy shaharlarda qurilgan yirik cherkovlar misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi[730]. Shu boisdan, Turkistonda qurilgan pravoslav cherkovlari nafaqat diniy markaz, balki madaniy arxitekturaviy fenomen sifatida ham qimmatlidir. Ular o‘z davri ruhini, siyosiy kontekstini va mustamlakachilik mafkurasini o‘zida mujassamlashtirgan me’moriy yodgorliklar deb bemalol aytish mumkin.

XIX asr oxirlarida Turkistonda qurilgan pravoslav cherkovlari arxitekturasini Rossiya imperiyasi me’morchiligi tendensiyalarining mintaqaviy ifodasi deyish mumkin. Bu cherkovlarning asosiy arxitektura yo‘nalishlari — rus-vizantiya va eklektika bo‘lib, ular o‘zida diniy, siyosiy va estetik g‘oyalar sintezini ifodalaydi. Har ikki uslub ham Rossiya imperiyasining diniy mafkurasi va ma’naviy siyosatining muhim vositalaridan bo‘lgan. Rus-vizantiya uslubi XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining turli hududlarida pravoslav cherkovlarining milliy arxitektura uslubi sifatida keng tarqaldi. Bu uslub Vizantiya imperiyasi me’moriy an’analari, xususan Konstantinopol (hozirgi

[729] Мироненко, С.Г. Имперская политика и религия в Средней Азии. — Москва: Наука, 2003. — С. 29.

[730] Юровский, А.П. Русская архитектура в Средней Азии. — Санкт-Петербург: Искусство, 2001. — С. 64.

Istanbul)dagi Aya Sofiya sobori arxitekturasiga tayanadi, ammo unda rus xalq me’morchiligining elementlari bilan uyg‘unlashgan holda yangicha shakl hosil qilingan[731]. Turkistondagi ko‘plab cherkovlar, ayniqsa Pyotr sobori (Toshkent) hamda Voznesenskiy sobori (Verniy) ushbu uslubda qurilgan. Rus-vizantiya uslubining asosiy belgilari quyidagilardir:

- Gumbazli tuzilma — markaziy va to‘rt yordamchi gumbaz (ko‘pincha beshtalik kompozitsiyada); bu, pravoslavlikdagi muqaddas beshlikni ramziy anglatgan.
- Ulug‘vorlik va simmetriya — binolar monumental bo‘lib, imperiya qudratini ifodalovchi simvolik arxitekturadir.
- Yarim doira shaklidagi apsidalar, yuqori peshtoq, katta va keng zal hamda bezakli arkalar.
- Fasadlarda pravoslav xochlari, ikonalar, bibliyaviy naqshlar va chiroyli karnizlar.

Turkistonda rus-vizantiya uslubidagi cherkovlar ko‘pincha rus harbiylarining talabiga ko‘ra qurilgan, ularning shakli va ornamenti imperiya me’yorlariga qat’iy muvofiq bo‘lgan. Toshkentdagi sobor 1878-yilda Moskvadagi Epifaniya sobori namunasi asosida loyihalashtirilgan edi[732]. Eklektik uslub XIX asr oxirida shakllanib, bir necha me’moriy yo‘nalishlarning aralashmasidan iborat bo‘lgan. Bu uslubda barokko, neoklassika, rus yog‘och arxitekturasi, ba’zan esa sharqona bezak san’ati elementlari uyg‘unlashgan. Turkistonda qurilgan ayrim pravoslav cherkovlarida bu aralash uslub yaqqol namoyon bo‘lgan. Samarqanddagi Muqaddas Georgiy cherkovi — eklektik yondashuvning yorqin namunasi hisoblanadi. Uning arxitekturasida quyidagilar kuzatiladi:

- Klassik rus cherkov shakli saqlangan bo‘lsa-da, sharqona g‘isht uslubida qurilgan.
- Mahalliy ranglar – ko‘k tusdagi gumbazlar, sopol plitkalar, islomiy naqshga yaqin bezaklar.
- Binoda soddalashtirilgan ikonostas bo‘lsada, ammo devoriy rasmlar boyligi va interyerda ko‘p o‘zgarishlar mavjud.

Eklektika uslubi Turkistonda nafaqat estetika, balki pragmatik sabablar bilan ham tanlangan. Mahalliy materiallar (xususan, g‘isht va yog‘och), iqlim sharoiti, arzon ishchi kuchi, shuningdek, mahalliy aholining madaniy didiga muvofiqlik arxitekturaning birmuncha yumshoqlashgan shakllarini taqozo qilgan[733]. “Cherkovning o‘ziga xosligi uning diniy vazifasidadir, ammo uning g‘oyaviy kuchi — o‘sha muhitda qanday yashay olishida namoyon bo‘ladi” — degan edi arxitektor A.P. Zenkov Verniydagi soborni loyihalab bo‘lganida[734]. Bunday aralash uslub o‘z davrida Imperiyaning ideologiyasi bilan mahalliy an’analar o‘rtasidagi murosa mahsuli sifatida qaraladi. Umuman olganda, Turkistonda qurilgan pravoslav cherkovlarining arxitektura uslubi Rossiya imperiyasining diniy mafkurasi, madaniy ekspansiyasi va ma’naviy qarashlarining murakkab uyg‘unligidir. Rus-vizantiya uslubi orqali imperiyaning diniy-siyosiy ustunligi vizual ifoda topgan bo‘lsa, eklektika orqali bu g‘oyalar mahalliy ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirilgan.

Turkistonda qurilgan rus pravoslav cherkovlari arxitekturasi oddiy diniy bino yoki ibodat joyi bo‘lishdan ancha yuqori darajadagi ma’noga ega bo‘lgan. Bu inshootlar Rossiya imperiyasi tomonidan diniy mafkura, madaniy ustunlik va mustamlakachilik g‘oyalarini vizual shaklda namoyon etish vositasi sifatida barpo etilgan. Turkistonning markaziy hududlarida – Toshkent, Samarqand, Verniy, Xo‘jand kabi shaharlarda qurilgan cherkovlar ko‘pincha o‘zining balandligi, gumbazlarining ko‘lami, fasad bezaklarining boyligi bilan ajralib turgan. Ular mahalliy musulmon me’morchilik uslublaridan farq qilgan holda, rus imperatorlik madaniyati va pravoslav e’tiqodining kuchini timsoli ham bo‘lgan. Masalan, Toshkentdagi Pyotr va Pavel soborining gumbazlari masjid minoralaridan balandroq qilib qurilgan, bu orqali go‘yoki madaniy ustunlik ko‘rsatilgan. Cherkov joylashgan nuqta — ko‘pincha markaziy maydon, garnizon yoki ma’muriy binolar yaqinida bo‘lgan.

---

[731] Козлов, А.П. История православной архитектуры Средней Азии. — Ташкент: Турон, 2005. — С. 31.
[732] Архив Туркестанского генерал-губернаторства. Ф. 4, оп. 6, д. 172, л. 22.
[733] Юровский, А.П. Русская архитектура в Средней Азии. — Санкт-Петербург: Искусство, 2001. — С. 69.
[734] Зенков, А.П. Деревянное зодчество Верного. — Алма-Ата: Казиздат, 1929. — С. 48.

Bu diniy sohani siyosiy makon bilan uyg‘unlashtirish maqsadida amalga oshirilgan strategiya edi[735].

Shu bilan birga, mahalliy musulmon aholining e’tiqodiy va madaniy an’analariga qarama-qarshi ravishda, pravoslav cherkovlari ko‘p hollarda “tashrif qog‘ozi” sifatida ham qurilgan — ular orqali rus madaniyati, me’morchiligi, diniy estetikasi namoyish qilingan. Shu nuqtai nazardan, ushbu arxitektura ishi o‘z vaqtida “yumshoq kuch” (soft power) vazifasini bajargan deyish mumkin. Arxitektor A.P.Zenkov, Verniy shahridagi Voznesenskiy sobori qurilganida shunday degan: “Agar musulmonlar bizning e’tiqodimizni qabul qilmas ekan, hech bo‘lmaganda ular bizning madaniyatimizga qoyil qoladigan darajada cherkovlar quraylik”[736]. Turkistondagi ayrim cherkovlar eklektik elementlarga boyligi bilan mahalliy aholi madaniy qarashlariga yaqinlashtirilgan. Bu orqali vizual jihatdan begonalik kamaytirilgan va cherkovlar “xalq orasida uyg‘unlik yaratishga xizmat qilmoqda” degan rasmiy mafkura ilgari surilgan[737]. Shuningdek, cherkov binolari Turkiston shaharlaridagi pravoslav jamoalarining o‘ziga xos madaniy markazi bo‘lgan. Ular atrofida diniy maktablar, missionerlik jamiyatlari, kutubxonalar va boshqa ijtimoiy infratuzilma shakllangan. Shunday qilib, cherkov arxitekturasi o‘z vaqtida milliy o‘zlikni tashuvchisi rolini ham bajargan. Masalan, Verniy shahridagi sobor nafaqat ibodat joyi, balki o‘lkadagi ruslar uchun “kichik Rossiya” timsoli edi. Shu bois soborning devoriy rasmlarida imperatorlar suratlari, rus tarixidan lavhalar, Peterburg me’morchiligiga xos elementlar aks ettirilgan[738].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasida pravoslav cherkovlarining qurilishi tarixiy, diniy va siyosiy jihatdan murakkab, ko‘p qirrali jarayon bo‘lgan. Ushbu inshootlar imperiyaning mustamlakachilik siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, ular orqali Rossiya o‘zining diniy mafkurasini, madaniy ustunligini va davlat qudratini mintaqaga singdirishga uringan. Yuqorida aytilganidek, pravoslav cherkovlari o‘z davrida nafaqat ibodat joylari, balki imperiya mafkurasining arxitektura vositalari sifatida xizmat qilgan. Ular orqali pravoslavlik dini Turkiston muhitida mustahkamlanishga intilgan bo‘lsa-da, bu harakatlar ko‘pincha mahalliy musulmon aholining madaniy-diniy qarshiliklariga duch kelgan. Shu bilan birga, bu binolar mintaqadagi rus aholisining ijtimoiy-madaniy o‘zligini saqlab qolish, ular uchun “uy” atmosferasini yaratish vazifasini ham bajargan. Bugungi kunda ushbu cherkovlarning ayrimlari hali ham faoliyat yuritmoqda, boshqalari esa tarixiy yodgorlik sifatida saqlanmoqda. Ushbu me’moriy yodgorliklar orqali o‘rganilayotgan tarix — bu faqat pravoslavlik tarixi emas, balki mustamlaka, qarshilik va madaniy muloqot tarixi deb hisoblash mumkin.

* * *

[735] Юровский, А.П. Русская архитектура в Средней Азии. — Санкт-Петербург: Искусство, 2001. — С. 69.
[736] Зенков, А.П. Деревянное зодчество Верного. — Алма-Ата: Казиздат, 1929. — С. 34.
[737] Артемьев, С.Н. Архитектура и имперская политика в Туркестане. — Самарканд, 2003. — С. 91.
[738] Abdurahmonov, A.X. Turkistonda rus madaniyati va diniy siyosat. - Toshkent: Fan, 1999. 103 b.

TASAVVUF VA AHLOQ ILMINING MAZMUNI VA FALSAFIY TALQINI FARIDUDDIN ATTOR VA UNING “TAZKIRAT UL-AVLIYO” ASARI ASOSIDA

THE CONTENT AND PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF SUFISISM AND ETHICS ON THE BASIS OF FARIDUDDIN ATTAR AND HIS WORK “TAZKIRAT UL-AVLIYA”

Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Fariduddin Attorning hayot yo‘li, asarlari tahlili, badiiy ijodini yuksakligi, “Tazkirat ul-avliyo” ushbu asari nasrda bitilgan yagona va mashhur asar bo‘lib, unda tasavvuf shayxlari, avliyoullohlarning hayoti, kashfu karomatlari, turli tasavvufiy istilohlar shariat, tariqat, ma’rifat, tavakkul, rizo, sabr, shukr kabilarga ularning qarashlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “Tazkirat ul-avliyo”, mutavvakil va tazkiranavis, tasavvuf shayxlari, shariat, tariqat, ma’rifat, tavakkul, rizo, sabr, shukr, she’riyat, masal va naqllar, karomat, maqomat, holat horiqi odat, kashfu riyoziyot, firqa.

Kirish. Shayx Fariduddin Attor-Sharq tasavvuf adabiyotining buyuk siymosi, bir yelkasida Mavlono Jaloliddin Rumiydek, ikkinchi yelkasida Mir Alisher Navoiydek ustozlarni tikka ko‘tarolgan mo‘jizakor adib, daho ijodkor. Olti yashar Alisher “Qush tili”ni o‘qib, ne ahvolga tushgani sizga ma’lum. Buni qarangki, o‘n ikki yoshli Jaloliddin ham Attor qalamiga mansub “Asrornoma”ni o‘qib, ayni ahvolni boshdan kechirgan va umr bo‘yi shu kitobning shavqi, sururi bilan yashagan.

Buyuk shoir, mutavvakil va tazkiranavis F.Attor (Muhammad Abu Bakr ibn Ibrohim 1145-1230). U o‘z ijodi bilan fors tilidagi she’riyat, tasvvuf adabiyoti, tazkiranavislikka katta hissa qo‘shgan. U Nishopur Eron viloyatining Kadakon qishlog‘ida attor va tabib oilasida tug‘ilib o‘sdi. Otasi dorishunos do‘kondor, o‘z zamonasining obro‘ e’tiborli tabiblari bilan aloqada bo‘lgan. Fariddudin Mashhad va Nishopur madrasalarida tehsil oladi. Qur’on fiqh va hadisdan tashqari nujum, tabobat, falsafa, mantiq kabi bilimlarni ham egalladi. Otasi kabi dorifrushlik va attorlik kabi sohalarga ham qiziqadi. Yoshligidan Fariduddin so‘fiylar hayoti va faoliyatiga qiziqib, keyinchalik tasavvuf ta’limotiga bag‘ishlab qator masnaviylar yaratgan. Badiiy ijod bilan ham mashg‘ul bo‘ladi. Uning vafoti adabiyotlarda turlicha keltirib o‘tilgan. Hususan yirik tasavvufshunos Knish ma’lumotiga ko‘ra uning maqbarasi Alisher Navoiy tomonidan qurilgan. Unda vafot tarixi 586 hijriy, melodiy 1190 yil ko‘rsatib o‘tilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. Attorning “Bulbulnoma”, “Ushturnoma” asarlari ramziy-allegorik timsollar asosida yozilgan. “Javhar uz-zot”, “Xayloj”, “Asrornoma”, “Sharh ul-qalb”, “Musibatnoma” kabi dostonlari bevosita muhokama-mushohada, fikriy-shuuriy bayonlar tarzida bitilgan. Bundan tashqari, “Xusravnoma”ga o‘xshab majoziy ishqni kuylagan romantik-sarguzasht asari ham bor. Attorning 2 qismdan iborat “Javhar uz-zot” asarida butun ruhiy va moddiy olamlar yagonaligi ta’riflangan.

Iloh har bir zarrada mavjud, ammo uni oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin emas. Alloh o‘z borlig‘ida ham pinhonu ham paydo, barcha ashyolar yolg‘iz javhardan kelib chiqqan. “Asrornoma”da

bu fikr yanada aniqroq ifodalangan. Attor asarlarida xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalangan. “Mantiq ut-tayr” (1175, bu asar “Maqomoti tuyur” deb ham nomlangan) asari mashhur. Bolalik chog‘ida bu dostonni yod olib, uning ta’sirida (“Qush tili”) dostonini yozgan. Ushbu asar eng yirik adabiy yodgorligi hisoblanadi. Bundan tashqari, Attor “Pandnoma”, “Besarnoma”, “Devon”, “Vuslatnoma”, “Tazkirat ul-avliyo” kabi asarlar muallifi. Uning “Ilohiynoma” asari ham masnaviy yo‘lida bitilgan ishqiy-ma’rifiy, falsafiy-axloqiy dostondir. Masnaviyda 282 ta hikoyat va qissalar bayon etilgan.

Zero, tavhid mohiyati ham, haqiqat ham oxir oqibat inson mohiyati va haqiqati bilan izohlangan. Shoirning 96 bobdan iborat “Tazkirat ul-avliyo” asari nasrda bitilgan yagona va mashhur asar bo‘lib, unda tasavvuf shayxlari, avliyoulloxlarning hayoti, kashfu karomatlari bayon etilgan.

Fariduddin Attorning ijodida va tasavvuf namoyondalari to‘g‘risidagi kitoblari ichida alohida o‘rin tutadigan asari shubhasiz “Tazkirat ul-avliyo” dir. Asarning birinchi tahririda yetmish ikkita, ikkinchi mukammal tahririda esa to‘qson besh nafar eng yirik tasavvuf allomalarining qisqacha hayot va faoliyati, asosan, turli masalalarga oid fikr-mulohazalari bayon etilgan. [1; 6-b]

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maqolada tadqiqot metodologiyasi tadqiqot falsafasi va yo’nalishini (deduktsion yoki induktsion) belgilaydi. Ya’ni tadqiqot muammosining yechimiga olib boruvchi bosh rejasini tuzish, tadqiqot uchun zarur axborotni olish yo’llari, tadqiqot strategiyasini aniqlash bo’yicha ratsional qaror qabul qilish asosida qo’yilgan muammoning aniq yechimiga olib chiquvchi yo’lni belgilashni anglatadi.

Muallif asarning kirish qismida “Tazkirat ul-avliyo”ning yozilishiga asos bo‘lgan manbalar “Sharh ul-qulub”, “Kashf ul-asror”, “Ma’rifat un-nafs” [2;11-12-b] kabi manbalarga ishora qiladi.

Tazkirada allomalarning o‘z ilmiy-nazariy qarashlari va ta’limotini asoslash, tasdiqlash maqsadida tarixiy voqealar, hayotiy tajriba, o‘tmish mashoyixlarining ibratli kechmishlari hikoya, masal va naqllar bilan tasnif etilgan.

Ushbu kitob O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabridagi “2010–2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi” asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2012 yil 27 iyuldagi 1741-sonli xati bilan nashrga tavsiya etilgan. [3; 2-b]

“Tazkirat ul-avliyo”ning asosiy qismi ya’ni mashoyixlar fiqralariga bag‘ishlangan qismi Abu Muhammad Ja’fari Sodiq fiqrasi bilan boshlanib, Mansur halloj fiqrasi bilan yakunlanib, asarning xotimasi bilan yakunlangan.

Bunda muallif asarda tilga olingan mashoyixlar fiqra (karomat, maqomat, holat horiqi odat, kashfu riyoziyot) larni bayon etishda mashoyixlarning ulug‘ligi, tabarrukligiga e’tibor berilgan.

“Tazkirat ul-avliyo” asaridagi ba’zi mashoyixlar bilan to‘ldirilganligini, uni Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarida nazarda tutilmagan turkiy mashoyixlar hamda hind mashoyilari bilan boyitganini ta’kidlaydi. Eng e’tiborli jihati shundaki, Hazrat Navoiy o‘z asarini Jomiyning “Nafahot ul-uns”sida bo‘lmagan turkiy bilimdonlar bilan to‘ldirish bilan birga, ularning qahramonlik, vatanparvarlik, jasorat, dadillik va adolatparvarlik kabi xislatlarini, zulm va adolatsizlikka qarshi isyonkor jasoratlarini qalamga oladi. Bular to‘g‘risida aniq asoslarni ham keltirib o‘tadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqotchilar “Tazkirat ul-avliyo” asarining yozilishida foydalanilgan manbalar to‘g‘risida har-xil fikr bildirishgan. Jumladan, eronlik olimlardan Badiuzzamon Furozanfartomonidan Isfahoniyning “Hiliyat ul-avliyo” va Hujviriyning “Kashf ul-mahjub” asarlari [4;87-88-b], Muhammad Istiye’lomiy tomonidan Sulamiyning “Tabaqt us-sufiya”, Isvahoniyning “Hilliyat ul-avliyo”, Qushayriyning “Risolai Qushayriya” va Hujviriyning “kashf ul-mahjub” asarlari “Tazkirat ul-avliyo”ning shakllanishida asosiy o‘rin tutgan manbalar sifatida eslatib o‘tilgan bo‘lsa [5;233-234-b], Mahmud Obidiyning fikricha, “Tazkirat ul-avliyo”ning katta qismi “Kashf ul-mahjub” asaridan olingan. [6;12, 30-b].

“Fariduddin Attor to’grisida Alisher Nanoiy o’zining “Nasoyim ul-muhabbat (Muhabbat shabadalari) asarida quyidagilarni yozadi: “Alar shayx Majduddin Bag‘dodiyning murididurlar va “Tazkirat ul-avliyo” kitobikim, alarning musannafotidindur. Annng debochasida o’zlarini shayx Majduddinga irodatlarin zohir qilibdurlar va ba’zi debdurlarki, Uvaysiy ekandurlar va Mavlono Jaloluddin Rumiy so’zlarida mazkurdurki, shayx Mansur Halloj nuri yuz ellik yildan so’ngra shayx Fariduddin Attor ruhiga tajalli qildi va uning murabbiysi bo’libdur”.

Alisher Navoiy Fariduddiin Attor she’rlari na masnaviylarini juda yuqori baholab, ularda tayahid siri va haqoyiq ifoda etilganini tan oladi.

Xulosa qilib aytganda, Shayx Attor asarlari - Haq va haqiqatning mangu barhayot taronalaridir. Ularning asrlar osha insonlar qalbini zabt etib, ardoqlanib, sevib o‘qilayotgani sababi ham shunda. Shu tufayli shoirning ijodiy faoliyati evolyutsiyasiga tarixiy-sinergetik uslubda yondashuv uning ijodidagi hali bizga noma’lum bo‘lgan qirralarini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Fariduddin Attor “Tazkirat ul-avliyo” T.,G‘.G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2017. –B.6.
2. Fariduddin Attor “Tazkirat ul-avliyo” T.,G‘.G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2017. –B.11-12
3. Fariduddin Attor “Tazkirat ul-avliyo” T.,G‘.G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2017. –B.2.
4. Furuzonfar Badiuzzamon. Shayx Fariddudun Muhammad Attor Nishopuriy hayoti va asarlari tadqiqi (fors tilida). –Tehron, 1995-B. 87-88.
5. Komiljon Rahimov. Movarounnahr tasvvufi tarixi: ta’limotining shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar) T.:”Akademnashr” 2020.B 233-234.
6. Hujviriy, Ali ibn Usmon. Kashf ul-mahjub (fors tilida)/ Mahmud Obidiy tahriri ostida.- Tehron: Surush, 2007. Muharrir so‘zboshisi.- B.12,30.

КЎҲНА ХОРАЗМ ЗИЁРАТГОҲЛАРИ ТАЪРИФИ БИР АСАР МИСОЛИДА

DESCRIPTION OF THE OLD KHOREZM MAZORBAT AS A WORK OF ART

Ҳамидилло Лутфиллаев
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
Ислом тарихи ва манбашунослиги –ИРСИКА
кафедраси доценти

Ўзбекистоннинг тарихий ва маданий мероси бой бўлган қадимий ҳудудларидан бири Хоразм бўлиб, у нафақат меъморий ёдгорликлари, балки маънавий зиёратгоҳлари билан ҳам машҳур. Бу юрт асрлар давомида ислом илмлари, тасаввуф ва диний анъаналарнинг марказларидан бири сифатида шаклланган. Йиллар давомида яратилган ёзма манбаларда бу ҳақда бир қатор маълумотлар қайд этилган. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида №7700 рақами остида сақланаётган [Хоразм таърифи ва ундаги зиёратгоҳлар баёни] номли асарда айнан мазкур минтақадаги авлиёлар ва зиёратгоҳлар ҳақида маълумотлар берилган. Асар назмда ёзилган бўлиб, аввалги қисми кўпроқ ислом тарихида рўй берган воқеалар баёнига бағишланган. Кейинги мавзулар эса қуйидагича:

1. Ҳазорасп авлиёсининг зиёратининг баёни (41а-43а варақлар);
2. ҳазрати Норинжон бобо зиёрати (43а-46а варақлар);

3. ҳазрат Султон Увайснинг зиёрати (46а-51б варақлар);
4. ҳазрат Шайх Аббос зиёрати (51б-52б варақлар);
5. ҳазрат Сайид Моҳравий зиёрати (52б-55а варақлар);
6. Тоза Урганжни авлиёси зиёрати (55а-58а варақлар);
7. Кўҳна Урганж зиёратиға сафар қилмоқ ишорати (58а-59а варақлар);
8. Кот мавзесининг авлиёсини зиёрати (59а-59б варақлар);
9. Шоҳобод қалъаси авлиёсининг зиёрати (59б-61а варақлар);
10. Тошҳовуз қалъаси авлиёсининг зиёрати (61а-61б варақлар);
11. Ҳилолий қалъаси авлиёсининг зиёрати (61б-63б варақлар);
12. Гурлан қалъаси авлиёсининг зиёрати (63б-65б варақлар);
13. Манғит ва Қифчоқ авлиёсини зиёрати (65б-66а варақлар);
14. зерларға банд этмоқ ишорати (66а-67б варақлар);
15. Хўжа эли авлиёсининг зиёрати (67б-71а варақлар);
16. Кўҳна урганч авлиёларининг зиёрати (71а-81б варақлар);
17. Қўнғирот авлиёсининг зиёрати (81б-85а варақлар);
18. ҳазрати Ҳаким ота алайҳи ар-раҳма зиёратининг ишорати (85а-86б варақлар);
19. ҳазрати Сайид ота алайҳи раҳманинг зиёратини ишорати (86б-89а варақлар);
20. Ҳаким ота алайҳи ар-раҳманинг каромати ишорати (89а-97б варақлар).

Асарда пайғамбарлар, тасаввуф шайхлари ва ҳукмдорлар исмлари ҳамда жой номлари учрайди. Хусусан, тасаввуф пешволари исмлари “сайид”, “хўжа”, “эшон”, “бобо”, “ота”, “халфа” каби атамалар билан бирга ифодаланганини кўрамиз. Масалан, **“сайид” атамаси** - Сайид Алоуддин, Сайид Абдуллоҳ, Сайид Абдуллоҳ қози, Сайид Али, Сайид бобо, Сайид қаро, Сайид Моҳравий, Сайид ота, Сайид Сулаймон, Сайид Усмон, Сайид Ҳилолий, Сайид Ҳусайн Хоразм[ий].

“Хожа” атамаси - Зоҳирхожа, Киромийхожа, Қурро хожа, Маъсумхожа эшон, Султон хожа Аҳмад, Султонхожа эшон, Хожа Қорабоғий, Хожа Қулмуҳаммад, Хожа Обид, Хожа Офоқ, Хожа Фатҳуллоҳ, Хожа эшон, Эминхожа.

“Эшон” атамаси - Эшон Ҳофизиддин, Эшон Ҳудойдод, Эшон Эрназар, Эшонжон. Абдуллоҳ эшон, Аваз бобо Эшон, Амр эшон, Асғар эшон, Бобо эшон, Боқир эшон, Гадой эшон, Зокир эшон, Ийдмуҳаммад эшон, Имом эшон, Исо Саид эшон, Исҳоқ эшон, Камол эшон, Қобил эшон, Қурбонназар эшон, Латиф эшон ўғли Қосим эшон, Маъсумхожа эшон, Муҳаммадкарим эшон, Муҳаммадшариф эшон нўғой, Нурсаид эшон, Одина эшон, Отаниёз эшон, Пирим эшон, Рўзимуҳаммад эшон, Сафо эшон, Собир эшон, Султонхожа эшон, Талҳа эшон, Тоҳир эшон, Турсун эшон, Халфа Ражаб эшон, Хожа эшон, Хурус эшон, Ҳожи эшон, Ҳолмуҳаммад эшон, Шайх Боқиржон эшон, Шафоат эшон, Шокир эшон, Шоҳ Ҳусайн эшон.

“Азизон” атамаси - Амир Али Азизон, Бобо Азизон, Тошмуҳаммад Азизон, Ҳасанқули Азизон.

“Бобо” атамаси - Абдол бобо, Аваз бобо Эшон, Айрончи бобо, Акша бобо, Али бобо, Алий бобо, Арслонбобо, Аълам бобо, Бобо Азизон, Бобо Жабборий, Бобо Собир, Бобо Хуркон, Бобо эшон, Бобои Ворис, Бобойи Қанбар, Занги бобо, Мискин бобо,Охунд бобо, Сайид бобо, Саломат бобо, Тошқин бобо, Ҳазрат Норинжон бобо, Ҳусайн бобо, Шайх Норинжон бобо, Шодмон бобо, Юмалоқ бобо.

“Ота” атамаси - Бежо ота, Божгоник ота, Исмоил ота, Кўзи ота, Кўкчик ота, Қуч ота, Қўчқор ота, Маҳмуд ота, Сайид ота, Саъид Исмоил ота, Ҳазрати Ҳаким ота, Ҳаким ота.

“Шайх” атамаси - Бозор шайх, Музаффариддин шайх Аббос, Шайх Аббос, Шайх Аббос Музаффариддин, Шайх Аттор, Шайх Боқиржон эшон, Шайх Жалил, Шайх Жўнайд, Шайх Мажидиддин, Шайх Мансур, Шайх Масъуд, Шайх Мустафо,Шайх Мухтор, Шайх Мухтор

Валий, Шайх Нажмиддин, Шайх Норинжон бобо, Шайх Раҳмон, Шайх Рукниддин, Шайх Салмон, Шайх Саъид, Шайх Ҳасан, Шайх Ҳилолий, Шайх Раҳмон.

“Халфа” атамаси - Дилдон халфа, Халфа Ражаб эшон.

Ҳукмдорлар номлари – Чингиз, Чиғатой, Темур, Исфандиёрхон.

Жой номлари – Бадркент, Боқирғон, Бухоро, Ғиждувон, Ғозиобод, Гурлан қалъаси, Дарёи Жайҳун, Жайҳун, Карбало, Каъба, Каъбатуллоҳ, Кот мавзеси, Кўнаҳ Урганч, Кўҳна Урганч, Кушон, Куюктом, Қалъаи Кот, Қифчоқ, Мадина, Манғит, Самарқанд, Тоза Урганч, Тошҳовуз қалъаси, Туркистон, Файзобод, Фитнак, Хайбар, Хатои қалъаси, Хивақ, Хонқа, Хоразм, Ҳазорасп, Ҳилолий қалъаси, Шаҳри Антокия, Шоҳобод қалъаси, Яман.

Умуман олганда, ушбу асар орқали қадимги Хоразм диёрида яшаб ўтган кўпгина тасаввуф олимларнинг фаолияти ва уларнинг зиёратгоҳлари билан боғлиқ қимматли маълумотларни билиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Бабаджанов. Эпиграфика / Babajanov. Epigrafika – Бабаджанов Б.М. Эпиграфика в архитектурном ландшафте Хивы: мечети, погребальные комплексы, медресе, дворцы, ворота. Введение, чтение текстов, переводы. Чч. 1-2. Вена: Австрийская Академия наук. 2020.
2. Бартольд. Туркестан / Bartol›d. Turkestan – Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. В 9-ти т. – М.: Наука (изд. ВЛ), 1963. Т. 1.
3. Гражданкина. Строительные / Grajdankina. Stroitelnye – Гражданкина Н. С. Строительные материалы мавзолеев Миздахкана. Архитектурное наследие Узбекистана / Отв. ред. Г.А.
4. Искандерова А., Бабаджанов Б. Ўрта аср Хоразм архитектура ёдгорликларида безак элементлари // Имом Бухорий сабоқлари. №4. 2014. 66-70 б.
5. Юсупов К. Уникальный памятник архитектуры средневекового Миздахкана // «Археология Приаралья». Вып.4. Ташкент: Фан, 1990. Сс. 166 – 177.
6. Ягодин В. Художественные ценности земли Хорезма // «Санъат», 2009. № 4. С. 4 – 8.
7. Якубовский А. Ю. Городище Миздахкан. ЗКВ. Т.V. Л., 1930 С. 551–581.

* * *

ИСМОИЛ СОМОНИЙЛАР МАҚБАРАДАГИ ЭЗОТРИК РАМЗЛАРДА ЯШИРИНГАН ФАЛСАФА

THE PHILOSOPHY HIDDEN IN THE ESOTERIC SYMBOLS OF THE ISMAIL SOMANII MAUSOLEUM

Саипова Мадина Саидахбор қизи
архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Аннотация: Ушбу мақолада инсонларга ислом анъаналари, шунингдек, миллий маданий – тарихий жараённи кўрсатиб турувчи абадий манба бўлиб хизмат қилган Исмоил Сомонийлар мақбараси ҳақида умумий маълумотлар берилган. Мақбарани ўрганиш жараёнида бир қанча илмий фаразлар ёритилган.

Калит сўзлар: наҳл, сура, Шердор мадраса, ҳаттотлик, эпиграфика, хат турлари, пештоқ, араб ёзуви, сулс, куфий, тоқи, гулдаста, архитектура, ғоя, работ, рамз, тимсол, нақш, хона, илоҳий, мовий ранг, мантиқ, геометрик, безак.

“Улуғ аждодларимиз томонидан яратилган ва бугунги кунда бутун маърифатли дунёни ҳайратга солиб келаётган илмий мерос фақат бир миллат ёки халқнинг эмас, балки бутун

инсониятнинг маънавий мулки бўлиб, бу бебаҳо бойлик янги ва янги авлодлар учун донишмандлик ва билим манбаи, энг муҳими, янги кашфиётлар учун мустаҳкам замин бўлиб хизмат қилиши шубҳасиздир".[739]

Шавкат Мирзиёев

Инсонлар доим гўзалликка интилганлар ва гўзалик қалбидаги ҳикматлар оламнинг мантиқий асосларини ўрганиб келганлар. Пайғамбаримиз с.а.в. ҳам "Оллоҳ гўзал ва У гўзалликни севади" деганлар. Наққошлар ҳам Оллоҳ ва у яратган олам гўзаллигини гавдалантиришга интилгагнлар.

Нақш Оллоҳ яратган гўзалликнинг бир кўриниши бўлиб, у ислом уйғониш даврида, айниқса, ривож топган ва у мусулмон маданиятининг юксалишида етакчи ўрин эгаллаган[740]. "Оддий безак " даражасидан ислом ғояларини рамзий ифода этувчи ўзига ҳос санъатга айланган[741]. Сўфий-мусаввирлар ижодида нақш "одамнинг рамзий қиёфаси"ни акс эттириш ва муайан маънода унинг ғоялари ифодалаш воситасидир[742].

Амалий безак санъатида ҳам тасвирланган нақшлар шунчаки шакл бўлиб қолмасдан, балки муҳим этнографик манбалардан бири ҳам саналади. Ушбу нақшлар халқнинг диний тасаввурлари ва эътиқодлари билан бевосита боғлиқдир. Нақшлар ўз хусусиятларига кўра қуйидаги турларга бўлинади: геометрик, ўсимлик шаклидаги, зооморф (ҳайвон шаклидаги), антропоморф (одам) нақшлар, афсонавий мавжудодлар ва эпиграфик нақш турлари мавжуд[743].

IX-XII асрларда "аниқ фанлар юксалиши ва уларнинг меъморчилик соҳасидаги муваффиқиятларида меъморий умумийликда янада мукаммаликка эришиш учун ҳандасий нақшлардан кенг фойдаланилган бўлса" сўфийлик тариқати билан боғлиқ уйғониш давридаги санъат йўналишларида ислмий нақшларга эътибор берилди. Бу даврда ҳиссиётларга бой рамзий нақшлар беқиёс нозик ва гўзал такомилига эришди.

Доно аждодларимизнинг айниқса, обидалардаги тасвирларнинг рамзий ифодаси асрлар бўлибдики, дунё ҳамда ўзбек олимлари томонидан етарлича ечилмай келмоқда эди. Шулардан бири Бухородаги Исмоил Сомоний мақбарасининг қисмлари ва безакларининг рамзий тамонлари тўлиқ ўрганилмаган.

Ўрта Осиёда Сомонийлар даври меъморчилигининг нодир намуналаридан бири бўлган бу тарихий обида Исмоил Сомоний томонидан бунёд этилган. Исмоил Сомоний шахси ҳақида гапирадиган бўлсак, у Бухорода Сомонийлар давлатига асос солган йирик сиёсий арбоб ҳисобланади. Исмоил Сомоний 848-йил Бухоро шаҳрида туғилган, 874-йилда сомонийларнинг Бухородаги ноиби, 888-йилдан эса бутун Мовароуннаҳрга ҳоким бўлган. Исмоил Сомоний марказий ҳокимиятни мустаҳкамлаш сиёсатини олиб бориб, турли ерлардан уламолар, адиблар, уста ва ҳунармандларни Бухорога тўплаган. Маданият ривожига катта ҳисса қўшган. Бағдод халифаларидан ибрат олиб, ўзига улкан мақбара қурдирган. 893-йилда Тарозга юриш қилиб шимолий чегараларни мустаҳкамлаган. 900-йилда Мовароуннаҳр ва Хуросонни бирлаштирган.

Исмоил Сомоний мақбараси ўрта асрларнинг ривожланган даврида (IX-X аср), 864-868-йиллар оралиғида, ҳозирги Бухоронинг эски шаҳар қисмида қурилган. Иншоот қабр вазифасини бажарганлиги сабабли, унинг интерери уч поғонали (тўртлик – тўрт девор,

---

[739] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги йиғилишидаги Ўзбекистонда ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида номли" Тошкент шахри, 2017 йил 23 июнь маърузасидан. Маърифат газетаси, 2017 йил 24-июн, №50 (9011).

[740] Элмира Гул. Сўфизм ва нақш санъати // Санъат журнали. 2000. № 4.

[741] Шукуров Ш. Что такое культура ислама. // Литературная газета. 1991. № 22.

[742] Ремпель А. Искусство Среднего Востока. Избранные труды по истории и теории искуств. М. 1978. С.190.

[743] Саипова М. С. Рамзшунослик.(Дарслик). "Фан ва технологиялар нашрёт-матбаа", 2021, 18-19-бетлар.

саккизлик – девордан томга ўтиш қисми ва гумбаз – том кўринишдаги) бир хонали квадрат шаклни ташкил қилган.

Унинг қурилишида пишган ғишт, тош ва ёғочдан фойдаланилган. Мақбаранинг дизайнига тўхталадиган бўлсак, жимжима ғиштин безаклари чивиқли тўсиқ ёки қамиш, бўйра тўқимасини эслатади. Девор қалинлиги – 1,8 м., тарҳи – ташқариси 10,80×10,70 м., ичкариси 7,20×7,20 м. Усти гумбаз билан қопланган. Тўрт бурчаги устунсимон шаклда ишланган, гумбаз атрофига 4 кубба ўрнатилган. Девор тепасида кунгирасимон дарча (40 та). Ҳар бир дарча ҳошияланган. Равоқ тепасидаги қанос ғиштин тангачалар маржони билан чегараланган. Икки четига майда-майда ғиштдан чорсу тумор ясалган. Бино ичкариси ташқаридаги бино билан узвий боғлиқ бўлиб, услуб жиҳатидан бир хил. Ички девор гумбаз ости бағалидаги устма-уст равоқчалар – устунчаларга таянган. Равоқчалар 8 қиррали гумбаз асосини ташкил қилади. Қирралар бурчагига гумбазга тиргаклик қилувчи устунчалар ишланган. Археологик қазилма вақтида (1927) хона саҳнида 2 ёғоч сағана борлиги аниқланган. Исмоил Сомоний мақбараси 4 томони бир хил чордара шаклида, унинг тузилишида қадимий суғд меъморчилигининг анъаналари сақланиб қолган буюк меъморий асар[744].



1-расм. Бухородаги Исмоил Сомоний мақбараси.


Сомонийлар мақбараси – Бухоро ўрта аср хукмдорлари сулолавий қабристони, нодир меъморий иншоотдир. Мақбара Сомонийлар давлати асосчиси Исмоил Сомоний номи билан боғлиқ. Мақбара нафақат Бухоро, балки бутун Ўрта Осиё ўрта асрда қадимги, энг яхши сақланган меъморий ёдгорликлардан бири ҳисобланади. “Рудакий ва Абу Али ибн Сино каби алломаларни кўрган ёдгорлик – Бухородаги сомонийлар даврига мансуб мақбара. Шундай етук, ноёб ва нафис иншоот яратилган меъмор улуғ санъаткор бўлганлиги шубҳасиздир. Лекин меъморнинг номи ҳамон аниқланганича йўқ”[745] дейди Пўлат Зохидов.



2- расм. Мақбара қаносидаги безаклар.

[744] Булатов М. Мавзолей саминидов – жемчужина архитектурқ Средней Азии. Т., Изд-во литературы и искусства, 1976 с128.

[745] Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати. Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1978 йил, 25-бет.



3- расм. Мақбара қаносидаги икки безаклар.

Биз Сомонийлар мақбарасининг астрономик безакларини илмий таҳлил қилиб, қуйидаги хулосаларга келдик:

1-Илмий фаразимиз. Исмоил Сомонийлар бақбараси куб ва шар асосида қурилган бўлганлиги сабабли, мақбара куб шакли мустаҳкамлик рамзида ифодаланган (Кабага асосланиб қурилган) гумбаз шар шаклида бўлиб шар шакли коинотни (оламни билдиради) демак олам мукаммал яратилганлигини ифодаланган.

2-Илмий фаразимиз. 4 та эшиги сўфийликдаги тариқат босқичлари яъни 1-шариат, 2-тариқат, 3-маърифат ва 4-ҳақиқат босқичлари. Эшик тепасидаги квадрат ҳошиясида 40 та ҳалқа эса тариқат босқичларини яни 40 та мақомларини билдиради. Ҳар бир томондаги мақбара тепасидаги 10 та равоқсимон шаклида туйнуклар хар бир тариқат босқичларининг 10 тадан мақомларини билдиради. Халқа бирлашиш, бирлик рамзи.

3-Илмий фаразимиз. Мақбара аввал Исмоил Сомонийлар чиллахона вазифасини бажарган кейинчалик Исмоил Сомоний вафотидан кейин мақбарага айланган деган хулосага келдик.

4-Илмий фаразимиз. Ушбу икки квадратсимон безаклар 40 та чилтонлар уюшмасининг рамзий тамғаси бўлган. Ҳалқа бирлашиш, бирлик рамзи. Чилтонлардан бири Исмоил Сомоний бўлган. Чилтонларнинг ҳаммаси авлёлар бўлганлар. Уларнинг асосий вазифаси халқни қийналган қатламига маҳфий ҳолда чилтонлар уюшмаси раҳбарлигида ёрдам берганлар. Бу ёрдам сир сақланган.

5- Илмий фаразимиз. Меҳроб тепасидаги икки учбурчак бирликда тасвирланиши ва баргни қўшалоқ берилиши бирлик ва уюшма маъносини билдиради. Барглар эзгулик тимсолида берилган. Симметрик берилиши уюшма аъзоларини тили билан дил бирлигини билдиради. Икки учбурчакни тож сифатида берилиши улуғлик яъни икки олам саодати тимсолида берилган[746].

Хуллас, меъморий нақшлар даврлар ва жамиятнинг барча қатламлари учун хос маънавий олам ўртасидаги боғликлик мавжудлигини билдириб туради. Улар ислом анъаналари, шунингдек, миллий маданий – тарихий жараённи кўрсатиб турувчи абадий манба бўлиб қолади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги йиғилишидаги Ўзбекистонда ислом маданияти марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида номли” Тошкент шахри, 2017 йил 23 июнь маърузасидан. Маърифат газетаси, 2017 йил 24-июн, №50 (9011).

2.Элмира Гул. Сўфизм ва нақш санъати // Санъат журнали. 2000. № 4.

3. Шукуров Ш. Что такое культура ислама. // Литературная газета. 1991. № 22.

[746] Ушбу ҳулосалар Саипова Мадинанинг докторлик (DSc) диссертация қўлёзмасидан олинди. (Нашр қилинмаган)

4. Рempель А. Искусство Среднего Востока. Избранные труды по истории и теории искуств. М. 1978. С.190.

5.Саипова М. С. Рамзшуносник.(Дарслик). “Фан ва технологиялар нашрёт-матбаа”, 2021, 18-19-бетлар.

6. Булатов М. Мавзолей саминидов – жемчужина архитектурқ Средней Азии. Т., Изд-во литературы и искусства, 1976 с128.

7. Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати. Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1978 йил, 25-бет.

* * *

REGISTON MAYDONINING TARIXIY BINOLARI. BEZAK SAN‘ATI VA EPIGRAFIKA ASOSIDA TAHLIL

THE HISTORICAL MONUMENTS OF REGISTAN SQUARE. AN ANALYSIS BASED ON DECORATIVE ART AND EPIGRAPHY

O‘ktamov Madadjon O‘ktam o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika va ta’limda axborot texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
oktamovm03@mail.ru (91) 322-10-03

Fayzullayeva E’zoza O‘tkir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo‘nalishi talabasi
fayzullayevaezoza312@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Registon maydonining tarixiy binolari — Ulug‘bek, Sherdor va Tilla-Qori madrasalarining epigrafik yozuvlari va bezak san’ati chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada epigrafika va bezak san’atining o‘zaro bog‘liqligi orqali binolarning ma’naviy-ma’rifiy kontseptsiyasi yoritilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, Registon ansambli Markaziy Osiyo islomiy san’atining yuksak namunasi sifatida baholandi va uni asrash, tadqiq etish bo‘yicha takliflar berildi.

Kalit so‘zlar: Registon maydoni, epigrafika, bezak san’ati, Ulug‘bek madrasasi, Sherdor madrasasi, Tilla-Qori madrasasi, yozuv uslublari, islomiy me’morchilik.

Kirish Sharq uyg‘onish davrining eng yirik madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Samarqand shahri asrlar davomida Markaziy Osiyoda ilm-fan, san‘at va me‘morchilik rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Registon maydoni — bu nafaqat shahar markazi, balki butun musulmon Sharqining ilmiy, diniy va siyosiy markazi sifatida yuksak qadrlanadi. Bu maydon uchta muazzam madrasa bilan o‘ralgan -Ulug‘bek madrasasi (XV asr), Sherdor madrasasi (XVII asr) va Tilla-Qori madrasasi (XVII asr)(Baratova, Nafisa. «BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IJTIMOIY TAMOYILLARI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 18-20). Ushbu inshootlar me‘morchilik, badiiy bezak va epigrafik san‘atning yuksak namunalarini mujassam etgan. Ushbu maqolada Registon maydonidagi madrasa binolari epigrafik yozuvlar va bezak san‘ati asosida chuqur tahlil qilinadi hamda ularning mazmuniy va badiiy xususiyatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Registon majmuasiga oid ilmiy adabiyotlar orasida sovet va hozirgi zamon sharqshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida o‘ringa ega. Shuningdek, oxirgi yillarda O‘zbekistonning o‘zida ham yangi ilmiy ishlanmalar yuzaga chiqmoqda. Bartold V.V. ning “Turkistonning musulmon davridagi tarixi” asarida Registon maydoni haqida qisqacha tarixiy izohlar mavjud bo‘lsa-da, epigrafik mazmunlar chuqur ochilmagan.

Galina Pugachenkova va Lidiya Rempel kabi arxitektura tarixchilari Registon ansamblining me‘moriy shakllanishi, gumbazlar va portallarning tuzilishi haqida ko‘plab ilmiy tavsiflar bergan.

So‘nggi yillarda ba‘zi o‘zbek tadqiqotchilari (masalan, M. Jo‘rayev va Z. Karimov) tomonidan Registon majmuasidagi yozuvlar epigrafik jihatdan tahlil qilina boshladi. Ammo bu tadqiqotlar asosan matnlarni transliteratsiya qilish va tarjima qilish bilan cheklangan. Bezak san‘ati bilan yozuv mazmuni o‘rtasidagi semantik, estetik yoki ideologik aloqadorliklar kam yoritilgan. Mazkur maqola avvalgi manbalardan farqli o‘laroq, epigrafik yozuvlarning badiiy bezaklar bilan uyg‘unligiga e‘tibor qaratadi. Har bir yozuvning joylashuvi, yozuv shakli (kufiy, naskh, suls), naqshlar bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda ular orqali targ‘ib etilayotgan g‘oyalar chuqur tahlil qilinadi. Shu orqali, ushbu maqola Registon me‘moriy ansamblini faqat tarixiy obida sifatida emas, balki ma’naviyat markaz sifatida talqin qilishga urinadi.

Muhokamalar. Ulug‘bek madrasasining g‘oyaviy asosida ilm va ma’rifatga intilish, aql va tafakkurni qadrlash g‘oyasi yotadi. Buni madrasa peshtoqlaridagi yozuvlardan anglash mumkin. Jumladan “Ilmli kishining qadri ulug‘dir” mazmunidagi bayonotlar bitilgan.

Sherdor madrasasi esa o‘zining g‘oyaviy-kompozitsion tuzilmasida kuch, iroda va muvozanatni ifodalaydi. Sher tasviri bilan uyg‘unlashgan epigrafik yozuvlar Alloh qudrati va adolatini ta’kidlaydi. Bu madrasa fasadidagi yozuvlar ko‘pincha tasavvufiy ruhda yozilgan bo‘lib, insoniy kamolot, sabr-toqat, tavakkal va halollik g‘oyalari ilgari suriladi.

Tilla-Qori madrasasi esa chinakam diniy markaz bo‘lib xizmat qilgan. Undagi oltin suvi bilan yozilgan oyatlar, xususan “Allohu nurus-samovoti val arz” (Alloh osmonlar va yerning nuridir) oyati – bu joyning ahamiyatini ta’kidlaydi. Devorlardagi suls uslubidagi yozuvlar balandlik va muqaddaslik hissini uyg‘otadi. Yozuvlar orasidagi bo‘shliqning muvozanatli joylashtirilishi esa Xudo yaratgan olamdagi tartib va uyg‘unlikni aks ettiradi.

Registon maydonidagi madrasa binolarining epigrafika va bezak san’ati tahlili

Binoning nomi	**Epigrafik yozuvlar mazmuni**	**Yozuv uslubi**	**Bezak san’ati turi**	**Asosiy g‘oyaviy mazmun**
Ulug‘bek madrasasi	Qur’on oyatlari, hadislar, ilm-ma’rifatga oid iboralar	Naskh, kufiy	Girih, muqarnas	Ilm-fan, tafakkur, ma’naviy yetuklik
Sherdor madrasasi	Tasavvufiy hikmatlar, tavakkal, sabr-toqat, Allohning qudrati	Suls, kufiy	Arabeska, hayvoniy tasvir (sher)	Qudrat, iroda, sabr, ilohiy qudratga ishonch
Tilla-Qori madrasasi	Qur’on oyatlari, duo va zikrlar, masjidga xos ilohiy matnlar	Suls, naskh	Oltin suvi, arabeska, gumbazdagi muqarnas	Ruhoniy poklik, nurlanish, Allohga yaqinlik

Xulosa va takliflar. Registon maydoni binolari — Ulug‘bek, Sherdor va Tilla-Qori madrasalari — o‘z davrining eng yuksak ilmiy, diniy va estetik qarashlarini mujassam etgan betakror me’moriy obidalardir. Registon ansamblidagi har bir bino epigrafik yozuvlar orqali o‘zining ichki g‘oyaviy mohiyatini aks ettirgan. Yozuvlar Qur’on oyatlari, hadislar, tasavvufiy hikmatlar asosida tuzilgan bo‘lib, ular me’moriy tuzilma va bezak san’ati bilan uyg‘unlashgan. Ikkinchidan, yozuvlar faqat

estetik bezak emas, balki ideologik vosita sifatida xizmat qilgan. Ular orqali jamiyat ongiga ilm-fan, halollik, sabr, tavakkal va ilohiy adolat kabi qadriyatlar singdirilgan.

Uchinchidan, har bir yozuvning joylashuvi, uslubi (kufiy, naskh, suls) va bezak bilan uyg‘unligi alohida ramziy mazmunga ega bo‘lib, bu jihat binolarni nafaqat tarixiy obida, balki g‘oyaviy-ma’naviy makon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi. Ushbu yozuvlar asosida interaktiv multimedia vositalari va virtual sayohatlar tashkil qilish orqali yosh avlodda tarixiy merosga qiziqishni oshirish mumkin. Epigrafika va bezak san’ati o‘rtasidagi semantik bog‘liqlikni chuqur o‘rganish uchun ko‘p bosqichli ilmiy ekspeditsiyalar o‘tkazish zarur. Turistik maqsadlar uchun yozuv va naqshlarning mazmunini tushuntirib beruvchi mobil ilova yoki audioyo‘riqnoma ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. Registon epigrafikasiga oid xalqaro ilmiy ko‘rgazmalar va forumlar tashkil etilishi O‘zbekistonning madaniy merosini dunyoga keng targ‘ib qilishda muhim vosita bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdihakimov, Mirjalol. «IT SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 15-17.
2. Amirova, Zilola. «MATN BILAN ISHLASH DASTURLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 32-34.
3. Arabboyev, O‘lmas. «SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MUHANDISLIK ISHLARINI AVTOMATLASHTIRISH.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 35-38.
4. Baratova, Nafisa. «BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IJTIMOIY TAMOYILLARI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 18-20.
5. Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. «O‘RTA SINFLARDAGI BOLALARGA INFORMATIKA O‘QITISHNING KREATIV G‘OYALARI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 39-41.
6. Berdimuhammadov, Iskandar. «MOBIL ILOVALAR ISHLAB CHIQISH.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 21-23.
7. Berdishukurova, Munisa. «DASTURLASH TILLARINING RIVOJLANISHI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 24-26.
8. Boltayev, Farhod. «INTERNETDA ISHLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 46-49.
9. Boqiyeva, Farida, and Madadjon O‘ktamov. «MATEMATIKANI O‘QITISHDA MASALANING BAJARADIGAN FUNKSIYALARI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 50-52.
10. Boymurodova, Ozoda. «AXBOROT BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 11-14.
11. Ernazarova, Lola. «WEB-SAHIFANI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 53-55.
12. Eshonqulov, Muhammad. «WEB DASTURLASHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALAR.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 56-59.
13. Ibodov, Azizbek. «INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASINI FAN SIFATIDA TARIXI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 14-16.
14. Jurayeva, Gulchehra. «DASTURLASH ASOSLARI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 17-20.
15. Karimova, Iroda. «VIZUAL DASTURLASH TILIDA LOYIHALASH BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 21-24.

16. Madadjon, O‘ktamov. «Translation Problems and Literary Translation in Uzbek literature: research, problems and solution.» *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR* 1.7 (2025): 326-3AA31.

17. Mahmudova, Shohsanam. «ALGORITIMLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI.» *Молодые ученые* 3.6 (2025): 25-28.

18. Toshpo‘lotova, Jasmina, and O‘ktamov Madadjon. «Boshlangich talim yo‘nalishi talabalarini informatika fanini o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish.» *PEDAGOGS* 51 (2024): 115-119.

* * *

TERMIZ SHAHRIDA ME’MORCHILIKNING RIVOJLANISHI. UMUMIY VA MAHALLIY AN’ANALAR UYG‘UNLIGI. (VIII-XIII asrlar)

THE DEVELOPMENT OF ARCHITECTURE IN TERMEZ. THE HARMONY OF COMMON AND LOCAL TRADITIONS. (8th-13th centuries)

Feruza Makhmasobirova,
International Islamic academy of Uzbekistan,
Assistant professor of the Department of Islamic History and Source Studies, IRCICA

In the 7th century, the city of Termez a became part of the Arab Caliphate. From this century onward, as Islam spread throughout Central Asia, Muslim culture began to have a positive impact on architecture, artistic culture, and science. Local traditions and Islamic culture were combined, leading to significant progress.

As for the architecture of Termez in the early Middle Ages, from the 6th to the 8th centuries, as in monumental construction throughout Central Asia, Termez began to use wooden structures as well as wooden domes[747]. In the 9th–10th centuries, unbaked bricks and *pakhsa* (rammed earth) were also used in construction. According to Sh. Kamaliddinov, in the 10th century, the city’s streets, squares, and markets were paved with bricks[748]. Most of Termez’s buildings were made of fired bricks. In the 11th century, by order of Malikshah, the ruler of the Seljuks, the outer wall of the Termez fortress tower was also lined with fired bricks[749].

It can be seen that the preserved buildings in Termez mainly date from the 9th–12th and 14th–16th centuries. During the Mongol invasion, there was a slight stagnation in architecture, as in other regions. The construction of these buildings and their architectural decorations share common and similar features, and it can be said that they are mainly close to the architecture of Khorasan. This can be observed in the buildings constructed during the Ghaznavid and Seljuk periods in Termez.

[747] Medieval architecture in Termez // Termez is an ancient and modern city at the crossroads of major routes. Album, Tashkent, Sharq, 2001, p. 45

[748] KAMALIDDINOV SH. . *Istoricheskaya geografiya Yujnogo Sogda i Taxaristana* (Historical Geography of Southern Sogd and Toharistan). Tashkent, Fan, 1996p. 113

[749] ARSHAVSKAYA Z.A, RTVELADZE E.V, HAKIMOV Z.A, *Srednovekovie pamyatniki Syrxandar’i*, (Medieval Monuments of Surkhandarya), Tachkent, 1982, p.28

Overall, the architecture of this period represents a unique blend of the advanced traditions of Movarounnahr and Khorasan architecture, adapted to local conditions[750].

In medieval architecture, the following types of buildings existed:

1. Residential buildings – palaces, mansions, houses.
2. Public buildings – caravanserais, markets and shops, baths.
3. Religious buildings – mosques, madrasas, khanaqahs, mausoleums.

Domestic architecture – the construction of houses in Termez and its surroundings was traditionally dense. The walls of palaces, fortresses, and courtyards were made of straw and mud bricks. In the pre-Islamic period, the palaces and residences of local landowners were built with tall and thick *pakhsa* (rammed earth) walls, and the corner walls were erected with towers. For example, at the Bolaliktepa monument near Termez, walls up to 9 meters high have been discovered[751].

Living rooms were covered with beams. Wooden columns were used to span long and large rooms. Over time, the seismic resistance of buildings increased. From the early Middle Ages, it became customary to cover the doors and windows of city buildings with arches and to roof houses with domes and semi-domes.

The Termez-Shahs Palace (Palace of the Kings of Termez) served as the residence of the city’s rulers and is among the most remarkable examples of 11th–12th-century architecture. At its center there was a spacious courtyard with a square pool supplied with water through ceramic pipes. The palace featured a grand hall with a porch supported by four square columns. In the 12th century, its interior was decorated with *ganch* carvings and images of legendary creatures. In 1220, during Genghis Khan’s siege of Termez, the palace was destroyed along with many other buildings after strong local resistance.

The Kirk-Kiz (Kyrk-Kyz) fortress, dating from the 9th–10th centuries, stands in ruins in the Termez region. Scholars have proposed various functions for the structure: a noble palace outside the city, a girls’ madrasa, a khanaqah, or a caravanserai. According to the researcher Galina Pugachenkova, its location beyond medieval Termez suggests that it served as an outer defensive fortress. The rectangular, single-storey structure with only the corridors reaching two storeys in height, was built of unbaked bricks. Its smooth *façades*, punctuated by vertical light slits, massive corner towers, and deep arched *aywans (iwans)*, give it a distinctive appearance, while the main entrance features decorative niches arranged in two tiers with stepped brickwork[752].

A significant feature of Islamic architecture is the mausoleum (*maqbara*, plural *maqābir*). These structures were usually built to honor renowned individuals, scholars, or saints. Over time, additional buildings were often erected nearby, forming complete architectural complexes. Notable examples in Termez and its surroundings include the Hakim al-Tirmidhi mausoleum and the Sultan Saodat complex.

The Al-Ḥakīm al-Tirmidhī Complex. Northeast of the Qal’a (the old citadel) lies a memorial complex centered around the mausoleum of the renowned 9th-century Sufi scholar Abū Abdallah Muḥammad ibn ʿAlī al-Ḥakīm al-Tirmidhī (d. 255 AH / 868–869 CE). The complex originally included a *khānaqāh* (Sufi lodge) where al-Tirmidhī lived; after his death, a mausoleum was constructed beside it. According to V. A. Shishkin, the *khānaqāh* is the oldest part of the ensemble, dating to the 9th–10th centuries[753]. Galina Pugachenkova, in her work *Khiva, Shahrisabz, Termez*,

[750] Medieval architecture in Termez // Termez is an ancient and modern city at the crossroads of major routes. Album, Tashkent, Sharq, 2001, p. 46.

[751] ARSHAVSKAYA Z.A., RTVELADZE E.V., KHAKIMOV Z.A. *Srednevekovyye pamyatniki Surkhandari* (Medieval Monuments of Surkhandarya), Tashkent, 1982, p. 52.

[752] POUGATCHENKOVA, p. 24

[753] SHISHKIN V.A. *K istoricheskoy topografii Starogo Termeza* // Shishkin V.A. Vers la topographie historique du Vieux Termez // Actes de la section Ouzbékistan de l’Académie des sciences de l’URSS. Volume 1. Termez expédition du complexe archéologique 1936 Tachkent, 1940.

provides detailed information on the city's architectural monuments. Among the inscriptions is the name of a Karakhanid ruler, Abū al-Muẓaffar Aḥmad Tegin (likely Aḥmad Khidr), who ruled Transoxiana from 1085 to 1091, suggesting that interior decorative work in the *khānaqāh* dates from the 11th century[754]. The mosque's columns are built of patterned, painted bricks; a corridor leads from the mosque to the crypt, whose dome base carries Arabic inscriptions from 36 Qur'ānic sūras in monumental calligraphy[755]. Another mausoleum from the period under study stands in modern Sherabat district, near Termez. Built in the 11th–12th centuries, it commemorates Abū ʿĪsā al-Tirmidhī, a prominent scholar of hadith. The monument was first noted by D. N. Logofet in his book *On the Frontiers of Central Asia*[756].

Near Termez's northern gate once stood the Chorsutun Mosque, built in the 10th–11th centuries but now lost. In the 11th century, a brick minaret was rebuilt at one corner; an inscription on the tower dates it to 1032, when the mosque's *mihrab* was also restored[757]. Excavations by Shishkin in 1938 uncovered the plan, revealing only the lower walls and pillars, but enough to reconstruct its highly unusual original layout.

The Sultan Saodat Complex. This funerary complex was built gradually between the 11th and 17th centuries around the tombs of the Termez *Sayyids*—descendants of Ḥusayn, grandson of the Prophet Muḥammad, known locally as "Sultān Saodat" ("Lord of Happiness"). The complex reflects the growing genealogical prestige of the Prophet's family (*Ahl al-Bayt*) in Islamic society[758]. It includes a mosque, multiple mausoleums, and a *khānaqāh*. The oldest section, in the southwest corner, consists of three chambers dating from the 10th–11th centuries, while roughly 20 mausoleums make up the entire ensemble today.

Following the spread of Islam, madrasas became a defining element of Central Asian urban architecture. Eventually, madrasas were established across all major cities. Unfortunately, none from the medieval period survive in Termez; only one madrasa from the 17th–18th centuries remains in Denau, near Termez.

The Mausoleum of Zul-Kifl. Another notable monument from the pre-Mongol period is the Mausoleum of Zul-Kifl, located on the so-called "Prophet's Island" in the Amu Darya. Built between the 11th and 12th centuries, the mausoleum consists of several domed chambers constructed over different periods. For centuries, it has served as a unique pilgrimage site for Muslims worldwide. Local tradition associates the site with the Prophet Zul-Kifl, a figure mentioned in the Qur'ān, although this identification has not been scientifically verified.

In conclusion, one of the defining features of Islamic architecture is the development of new artistic and decorative styles. Because Islamic teachings prohibited the depiction of living beings, geometric *girrih* patterns, stylized Islamic motifs, and *kitaba* (Arabic inscriptions) became the dominant forms of ornamentation. With the rise of Kufic and later Naskh scripts, monumental calligraphy emerged as a central element of architectural decoration. This is evident in the architectural heritage of Termez — for example, the minaret of the Chorsutun Mosque and the Arabic inscriptions on the altar of the Hakim at-Tirmizi complex. Such inscriptions often include

[754] POUGATCHENKOVA G. *Termez, Shahrisabz, Xiva* (Termez, Shakhr-e-siabz, Khiva), Moscow, Isskustvo, 1976, p.32

[755] Rustam MUQIMOV. «Arkhitekturnyy kompleks Khakima Tirmizi v Starom Termeze. *Historical and cultural traditions of the Hakim Tirmizi's Epoch and its importance in the World Civilization* (in the Russian and English languages), Dushanbe, 2016 - p. 362

[756] D.N. LOGOFET *Na granitsakh Sredney Azii. Putevyye ocherki v 3-kh knigakh* (Aux confins de l'Asie centrale. Croquis de voyage en 3 livres), Frontière russo-afghane, livre 2. Saint-Pétersbourg, 1909.

[757] Medieval Architecture of Termez // *Termez: An Ancient and Modern City at the Crossroads of Great Routes.* Album. Tashkent: Sharq, 2001, p. 48.

[758] JALOLIDDIN MIRZO, *Sultan Saodat - hier ruhen die „Herrscher der Glücklichen",* online article, available : https://www.academia.edu/3624591/Sultan_Saodat_hier_ruhen_die_Herrscher_der_Gl%C3%BCcklichen_

verses from the Qur’an, hadiths, expressions of Islamic wisdom, as well as details about the date of construction, the patron, and the architect. In mausoleums, they may also record the name and lifespan of the person buried there. As a result, epigraphic inscriptions on Islamic architectural monuments serve not only as decorative elements but also as valuable historical sources.

* * *

ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLARINING MARKAZIY OSIYO ISLOM ME’MORIY OBIDALARI VA TARIXIY YODGORLIKLARIGA BO‘LGAN MUNOSABATI

ATTITUDE OF THE GOVERNOR-GENERALS OF TURKESTAN TO THE ISLAMIC ARCHITECTURAL AND HISTORICAL MONUMENTS OF CENTRAL ASIA DURING THE COLONIAL PERIOD OF THE RUSSIAN EMPIRE

Kamolova Muxlisa Farhod qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti,
O‘zbekiston tarixi kafedrasi tayanch doktoranti

O‘rta Osiyo hududiga islom dinining kirib kelishi hududda yangi madaniy jarayonlar boshlanishiga turtki bo‘ldi. Islom dinining izlari siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning yetakchi jabhalariga singib bordi. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklariga nisbatan bosqini arafasida islom dini, shariat qonun-qoidalari deyarli har bir sohada yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘lkada mahalliy aholining yerga bo‘lgan haq-huquqlari ham shariat qonun-qoidalari asosida boshqarilgan. Rossiya imperiyasi hududda hokimiyatni qo‘lga olgandan so‘ng islom dini o‘zidan qoldirgan boy madaniy meros, jumladan, islomiy qonun-qoidalar, muassasalar, tarixiy obidalarga nisbatan o‘z mustamlakachilik ruhidagi siyosatini yurgiza boshladi.

Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi boshlig‘i – general-gubernatorlarning o‘zlari Turkistondagi boyliklarning eng birinchi qaroqchilari va shaxsiy kolleksiyalarning tuzuvchilari edilar[759]. Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman Buxoro amirligiga nisbatan harbiy harakatlarni amalga oshirib, Samarqand shahri Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo‘shilgandan so‘ng, shahardan ko‘plab nodir tarixiy manbalar bilan bir qatorda tarixiy yodgorliklardan parchalar ham Sankt-Peterburgga tashib ketila boshlandi.

Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufmanning Samarqand shahrida qo‘lga kiritgan eng katta “o‘lja”laridan biri shubhasiz, Usmon Qur’onidir. 1869 yili 30 mayda Zarafshon okrugi boshlig‘i general-mayor A.K.Abramov Turkiston general-gubernatoriga Usmon Qur’onini Samarqanddagi Xo‘ja Ahror masjididan olganligi to‘g‘risida xabar beradi. Go‘yoki bu muqaddas kitob shahar aholisi uchun keraksiz, undan foydalanmaydi degan yolg‘on vajlar bilan aholidan tortib olingan. Usmon Qur’oni Samarqanddan Peterburgga olib ketilgan va Imperator Xalq kutubxonasiga topshirilgan[760].

[759] Алимова Д.И. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент, 2001. – 160 б.
[760] O‘zMA, I fond, 29-ro‘yxat, 23-ish, 29 varaqlar.

Bu xizmati uchun esa Rossiya imperiyasi Xalq maorifi vazirligi K.P.Kaufman nomiga minnatdorchilik xati ham yuborgan.

1871-yildayoq K.P.Kaufmanning maxsus yordamchisi sharqshunos A.L.Kun Peterburgga Samarqand arxitektura yodgorliklari parchalari solingan 15 qutini, Shahrisabzdan olingan kitoblar solingan ikkita qutini va Toshkentdagi arxitektura topilmalari solingan 1 ta qutini yuboradi[761].

1890 yillarning oxiri - 1900 yillarning boshlarida Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi madaniy boyliklarni qo‘lga kiritish tobora rejali tus olib, davlat ahamiyatiga ega bo‘la bordi. Chunonchi, bunday boyliklarni bevosita to‘plash bilan muzeylar shug‘ullanadigan bo‘ldi. Ayni vaqtda, xalqaro ahamiyat kasb eta borgan osori-atiqalar bozori kengaydi. Mazkur bozor o‘g‘irlangan qadimgi me’morchilik obidalari qoplamlari va qadimgi buyumlar hisobiga tobora kengayib borardi[762].

Ruslar shaharni arxeologik o‘rganish niqobi ostida islom tarixiy obyektlarini talay boshladilar. Masalan, 1895 yilda N. Veselovskiy boshchiligidagi ekspeditsiya a’zolari mahalliy to‘ralar bilan kelishib, Amir Temur maqbarasining nafis bezakli naqshinkor eshigini Peterburgga olib jo‘nadilar. Maqbaraning g‘arb tomonidagi eshigi tabaqasi ham o‘g‘irlab sotildi. Hozirda u Londondagi Viktoriya va Albert muzeyida saqlanyapti. Samarqandning arxeologik va me’moriy yodgorliklaridan qimmatbaho buyumlarni qazib olib yoki qo‘porib chet davlatlarga sotish ham keng avj oldi. M.Massonning yozishicha, qurolli o‘g‘rilar 1901 yili Ulug‘bek madrasasidan qimmatbaho toshni o‘g‘irlab chetga sotganlar. 1903 yili, imperator Aleksandr III ning muzeyi uchun, Amir Temur maqbarasi oynasidan bir qismini jo‘natish so‘raldi va oyna qo‘porilib, Peterburgga jo‘natildi. 1905 yilda Amir Temur maqbarasiga yana katta ziyon yetkazildi. Peshtoqdagi nafis yozuvli lavha o‘g‘irlandi va 1906 yilda Konstantinopolga sotildi. Uni Berlindagi Fridrix-Muzeumning direktori T.Bode o‘n ming frankka xarid qildi. Elchilik yozishmalaridan so‘ng, lavha Rossiyaga qaytarildi. Hozirda u Ermitajda saqlanmoqda. Lavhada: «Jahongir Amir Temur Ko‘ragonning qabri, xudo uni rahmat qilsin va abadiy jannatda bo‘lsin», degan yozuv bitilgan[763].

Samarqand shahrini talash shu bilan cheklanmasdan Rus muzeyi esa Turkiston ma’murlaridan Samarqanddagi “Go‘ri Amir maqbarasining qo‘shaloq eshigi qirqmasini” va Andijondagi zilziladan go‘yoki vayron bo‘lgan machitning o‘ymakor eshigini yuborishni ham so‘ragan[764].

Turkiston o‘lkasidagi mustamlaka ma’muriyati o‘lkadagi tarixiy obidalarning qarovsiz qolib vayron bo‘lishiga ataylab yo‘l qo‘ydilar. Samarqandda Rossiya imperiyasi hukmronlik tizimi o‘rnatilgandan so‘ng Afrosiyob yodgotligiga nisbatan olib borilgan shafqatsizlarcha qing‘irliklarni tarix unutgan emas. Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonov esa Samarqandda bo‘lganida jahonga mashhur obidalarning vayron bo‘layotgani sababli ularni tiklash zarurligi haqida gap ketganda obidalarni to‘pga tutish afzalroq degan. Podsho generallari jahon ommasi fikridan cho‘chibgina bunday rejani amalga oshirmadilar[765].

Turkiston general-gubernatorlari qadimiy tarixiy yodgorliklarga nisbatan qo‘llagan siyosatini islom dini va u bilan bog‘liq muassasalar, jumladan madrasalar, ularning vaqflari ustidan ham qo‘llay boshladi. Ma’lumki, madrasalar faoliyatining davomiy bo‘lishi ularga biriktiriladigan vaqflarga bog‘liq bo‘lgan. Turkiston ma’muriyati vakillari esa madrasalar, ularning binolari, vaqflarini olib qo‘ygan yoki buzib tashlagan. Masalan, Turkiston o‘lkasi o‘quv yurtlari bosh inspektorining 1895-

[761] Алимова Д.И. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент, 2001. – 356 б.

[762] Алимова Д.И. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент, 2001. – 356 б.

[763] https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/qayta-qurish-davri-matbuoti/amriddin-berdimurodov-toptalgan-meros-1989

[764] Алимова Д.И. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент, 2001. – 378 б.

[765] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. 1-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 318 б.

yil 12-iyundagi ma’ruzasida, Toshkent shahrining Ko‘kcha dahasidagi ikki qavatli, nufuzli eng qadimgi Shukurxon madrasasida dars o‘tilmaganligi va eskirganligi bahonasi bilan Turkiston general-gubernatori A.Vrevskiy ko‘rsatmasiga binoan buzib yuborilganligi, uning vaqfi bo‘lgan karvonsaroy Toshkentning Sebzor dahasidagi “Mo‘y muborak” madrasasasiga berilganligi qayd qilingan[766].

Madrasalarning moddiy ta’minotdan uzilishi ularning eskirib, vayrona holatiga kelishiga olib keldi. Turkiston general-gubernatorlari va rus amaldorlari esa har xil yo‘llar bilan madrasa qurishga doim qarshilik ko‘rsatdilar. Vaholanki, 1886-yilda Rossiya imperatori tomonidan tasdiqlangan “Nizom”da madrasa qurish va vaqf ta’sis etish Turkiston general-gubernatorining ruxsati bilan amalga oshiriladi, deyilgan. 1902-yil 14-iyunda Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori G.Arandarenko madrasa ochish masalasida Turkiston general-gubernatori N.A.Ivanovga maxsus xat bilan murojaat qilib, Farg‘ona viloyatining musulmonlaridan biri undan madrasa ochishga ruxsat so‘raganligini ma’lum qiladi. Xatda harbiy gubernator madrasa qurish uchun asos yo‘qligini har tomonlama isbotlashga uringan. Ushbu hujjatga N.A.Ivanov (1901-1904) 1902-yil 31-iyulda “Rad qilish kerak va bundan keyin ham rad qilinsin”, deb rezolyutsiya qo‘ygan. General-gubernatorning bu qarori faqat Farg‘ona viloyati uchun emas, balki butun o‘lka uchun qabul qilingan qaror edi[767].

Turkiston general-gubernatorlari madrasalar tarmog‘ining kengayishi mahalliy ma’muriyat va markaziy hukumatni jiddiy tashvishga solayotganligi uchun madrasalar qurishga to‘sqinlik qilish, mahalliy diniy maktablar va madrasalarning ta’sirini susaytirishga harakat qilishdi. Bu xavotir haqida Turkistonning butun mustamlaka davri mobaynida yaratilgan ko‘plab hujjatlar yaqqol guvohlik beradi. O‘lka general-gubernatorlari M.G.Chernyayev, N.O.Rozenbax, A.Vrevskiy, S.M.Duxovskoy, N.I.Mishenko, A.V.Samsonov, A.N.Kuropatkinlarning barchasi podsho hukumatiga yo‘llagan ma’ruzalarida mahalliy maktablar ustidan qat’iy siyosiy nazorat o‘rnatish zarurligini bir ovozdan ta’kidlab kelganlar[768].

Xulosa qilib aytganda, Turkiston general-gubernatorlari Rossiya imperiyasining mustamlakachilikka asoslangan siyosatini o‘lkada “mukammal” tarzda amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Rossiya imepriyasining Turkistondagi 50 yillik mustamlakachilik davri mobaynida Imperator xalq kutubxonasi va Peterburg muzeylari O‘rta Osiyoning noyob tarixiy yodgorliklari bilan boyidi. Ammo, necha asrlardan beri islom dini ostida yashayotgan xalqni “islomni inkor etish” siyosati orqali cheklamoqchi bo‘lishdi. Tarixiy yodgorliklar, madrasalar, muassasalarga nisbatan ularni talash, vaqfidan ajratib, moddiy manbasiz qoldirish, umuman e’tiborsiz qoldirish siyosatini olib bordilar. Ammo madrasalar kamayish o‘rniga ko‘paydi, eskilari o‘rniga yangilari qurildi, islom xalqni yanada birlashtirdi.

* * *

[766] Алимова Н.И. Чор Россиясининг Туркистонда миллий маданият соҳасида олиб борган сиёсати Тарих фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2004. – 36 б.

[767] Алимова Н.И. Чор Россиясининг Туркистонда миллий маданият соҳасида олиб борган сиёсати Тарих фан. номз. … дисс. – Тошкент, 2004. – 34 б.

[768] Бендриков К.Э. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 годы) – Москва.1960. – 189 с.

KAMOLIDDIN HUSAYN XORAZMIYNING SAMARQANDDAGI MAJMUASI: EPIGRAFIKA, ARXITEKTURA VA SAN'AT

THE COMPLEX OF KAMOLIDDIN HUSAYN KHOREZM IN SAMARKAND: EPIGRAPHY, ARCHITECTURE AND ART

Hamdamova Shoira Vohidovna,
Samarqand Davlat universiteti,
"Samarqand tamadduni" kafedrasi
1-kurs tayanch doktoranti,

Kirish

Markaziy Osiyo tasavvuf tarixida Mahdumi A'zam nomi bilan mashhur Kamoliddin Husayn Xorazmiy alohida o'rin tutadi. U XVI asrning yirik mutasavviflaridan bo'lib, Kubraviyya tariqatining yetakchilaridan sanaladi. Uning faoliyati nafaqat ruhiy-ma'naviy tarbiya, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayot bilan ham uzviy bog'liq edi.

Mahdumi A'zam 1517-yilda Samarqandga kelib, Registon maydoni yaqinidan yer sotib oladi va bu yerda masjid, xonaqoh, madrasa, hujralar hamda bemorlar uchun xonalarni o'z ichiga olgan majmuani barpo etadi[769]. O'sha paytdan boshlab bu yerda asosan ko'zi ojiz odamlar o'qib, ish topishiga ixtisoslashtirilgan akademiya qurilishi boshlandi. Akademiya hududida masjid, shuningdek, bemorlarni qabul qilish uchun binolar, Xonaqoh, madrasa, hujralar (xizmatchilar uchun xona), o'rtasida hovli bo'lgan katta bog', eshitishda nuqsoni borlar uchun davolovchi xona keyinchalik hovli burchaklaridan birida kichik qabriston barpo etilgan.Ushbu majmua tez orada diniy-ma'naviy va ma'rifiy markazga aylangan.

Ushbu majmua faoliyatining asosini esa Xonaqoh tashkil etardi. 1547-yilda tuzilgan vaqfnoma esa bu Xonaqohning tashkiliy, iqtisodiy va diniy asoslarini o'rganishda eng muhim hujjatlardan biridir[770]. Unda Xonaqohdagi zikr va ibodat tartiblari, muridlar faoliyati va Xonaqohga biriktirilgan yer-mulklar haqidagi ma'lumotlar batafsil qayd etilgan.

Xonaqohlar shayxning (jamoa boshlig'ining) ijtimoiy-siyosiy mavqeiga ko'ra, o'sha hududning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy vaziyatiga mos ravishda asrlar davomida shakllangan va o'zgarishlarga uchragan[771].

Bugungi kunda bu majmua "**Mahdumi Xorazmiy masjidi**" nomi bilan tanilgan bo'lib, Samarqand shahrida tarixiy yodgorlik sifatida saqlanmoqda.



[769] Kattayev,Komilxon. Tasavvuf allomalari. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. -280 b.
[770] Karimov,Elyor. The Kubraviyya vaqf (17th-19th centuries): written sources on the late history of the Kubravi sufi brotherhood in Central Asia.-Toshkent:Fan,2008.-75 b
[771] Nemtsova,Nina. Xanaka Sayfiddina Baxarzi v Buxare (K istorii arxitekturnogo kompleksa).-Buxoro:2003.-49 b

Tadqiqotda quyidagi yondashuvlar qo‘llanildi:1547-yilgi vaqfnoma (Florian Schwarz, Elyor Karimov), Komilxon Kattaevning “Mahdumi Xorazmiy va Xonaqoh tarixi” asari, “Tasavvuf allomalari” kitobi, shuningdek, Samarqand shahar rasmiy portali va turizm manbalaridan foydalanildi. Xonaqoh devorlari va peshtoqlaridagi Qur’on oyatlari, hadislar va tasavvufiy hikmatlarning amaliy ahamiyati va hovlidagi qabrtoshlardagi ma’lumotlar tahlilini taqdim etildi..Koshinkorlik, girih naqshlari, ganchkorlik va muqarnas san’atining ruhiy-ramziy mazmuni o‘rganildi. Turizm yo‘riqnomalari va mahalliy OAVdagi restavratsiya haqidagi ma’lumotlardan foydalanildi.

Natijalar


Xonaqoh devorlari va peshtoqlarida Qur’on oyatlari, hadislar va tasavvufiy hikmatlar suls va kufiy xat uslublarida bitilgan. Yozuvlar diniy muhitni mustahkamlash va muridlarni tarbiyalash vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

“Tasavvuf allomalari**”** kitobida qayd etilishicha, epigrafik yozuvlarda shoirona iboralar ham uchraydi. Bu yozuvlar muridlar uchun doimiy eslatma bo‘lib, ruhiy kamolot sari yetaklashga yordam bergan.

1547-yilgi vaqfnomada zikr va auradlarni qat’iy tartibda ado etish shart qilib qo‘yilgani ham epigrafik yozuvlarning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Shuningdek Xonaqohda 10 ta qabrtosh mavjud bo‘lib[772], ularni o‘qishga muyassar bo‘lgan Komilxon Kattayev ushbu qabrtoshlarning forsiyda yozilgan matniga asoslanib, ularning 3 tasi Shayx Husayn Xorazmiyning qizlari Inoq beka, Xadicha va Solihalarga, yana biri ayoli ya’ni Mahdumi A’zam Xabushoniyning qizlariga tegishliligini ta’kidlaydi. Qolgan qabrtoshlar esa Shayxning nabiralari, bitta kelini va bir begona kishining nomi bilan sifatlanadi.

Bugungi kunda majmuada saqlanayotgan qabrtoshlar yonida quyidagi yozuvni ko‘rishni mumkin[773].




Biroq tarixiy dalillarga tayanadigan bo‘lsak, Shayxning ikkinchi farzandi Shahobiddin Husayn otasi bilan Shomga safar qilib, o‘sha yerda vafot etganligini bilamiz. Bu haqida Shayxning katta farzandi Sharafiddin Husayn o‘zining “Jovdat ul-oshiqin” asarida xabar bergan. Shuningdek, o‘qilgan mavjud qabrtoshlar orasida Sharafidin Husaynga tegishlisi ham yo‘qligini inobatga oladigan bo‘lsak, epigrafik ma’lumotlarning naqadar muhim ahamiyat kasb etishini tushunamiz. Bunday kamchiliklar albatta bartaraf etilishi lozimdir

Arxitektura. Xonaqoh Samarqandning markazida, Registon maydonidan taxminan 100 metr sharqda joylashgan . U markaziy zal va uning atrofidagi hujralardan tashkil topgan bo‘lib, peshtoqlari baland, ayvonlari yog‘och ustunlar bilan mustahkamlangan. Vaqfnomada Xonaqohga biriktirilgan yerlar, bog‘lar va daromad manbalari belgilangan bo‘lib, bu uning iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda “Mahdumi Xorazmiy masjidi” sifatida saqlanayotgan inshootda ayvonli

[772] Kattayev Komilxon. Maxdumi Xorazmiy va xonaqohi tarixi. -Samarqand: “Zarafshon” nashriyoti,2003. -96-98 b.
[773] Surat you tube ijtimoiy tarmog‘idagi Xonaqoh faoliyati haqidagi ko‘rsatuvdan lavha sifatida kesib olingan.

me’moriy uslub, koshinkor bezaklar va muqarnas elementlari saqlanib qolgan.





San’at

Xonaqohning san’at unsurlari o‘z davrining nafis namunasi hisoblanadi. Peshtoqlarda muqarnas, devorlarda esa rang-barang koshinlar, girih va islimiy naqshlar keng qo‘llangan.

Girih naqshlari tasavvufda abadiylik va ilohiy birlik ramzi sifatida talqin qilingan. Islimiy naqshlar esa tabiat va hayotiylikni ifodalagan.Sayyohlik adabiyotlarida ushbu masjid ichki koshinlari va g‘oyat nafis naqshlari bilan ajralib turishi qayd etilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Mahdumi A’zam Xonaqosi Samarqand shahrining eng muhim diniy-ma’naviy markazlaridan biri bo‘lgan.U nafaqat zikr va ibodatlar uchun, balki ilmiy-ma’rifiy suhbatlar, adabiy majlislar va muridlar tarbiyasi uchun ham xizmat qilgan. Epigrafik yozuvlar muridlar uchun tarbiyaviy vosita bo‘lib, Qur’on oyatlari va tasavvufiy hikmatlar ruhiy muhitni mustahkamlagan.

Arxitektura jihatidan Xonaqoh Samarqand me’morchiligida muhim o‘rin tutadi. San’at unsurlari esa Temuriylar davri uslubini davom ettirgan bo‘lib, tasavvufiy ramzlar bilan boyitilgan.

Hozirda bu inshoot “Mahdumi Xorazm masjidi” nomi bilan mashhur. Mahalliy OAVda restavratsiya ishlari va memorial tashabbuslari haqida xabarlar ham berilgan



Rasm 1. Xonaqohning loyihasi



Rasm 2. Restavratsiyadan keying ko‘rinish

Xulosa

Kamoliddin Husayn Xorazmiyning Samarqanddagi Xonaqosi diniy-ma’naviy hayot, arxitektura va san’at tarixida alohida o‘rin tutadi.Bugungi kunda ushbu Xonaqoh masjid sifatida faoliyat yuritmoqda va restavratsiya ishlari amalga oshirilgan. U Markaziy Osiyo tasavvufiy merosining ajralmas qismi hisoblanadi.

2002-yilda Maxdumi Xorazmiy avlodlari tomonidan viloyat adliya boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan vaqf tashkil etilgan bo‘lib, Samarqand shahar hokimining 2003-yil 28.05-dagi qarori bilan masjid hududida davlat yodgorliklarini muhofaza qilish idoralari bilan kelishilgan holda muzey xizmati va yordamchi inshootlar qurish ko‘zda tutilgan. Loyiha doirasida masjidni restavratsiya qilish, Ko‘zi ojizlar reabilitatsiya markazi uchun kompyuter sinfi, memorial zal-muzey va boshqalarni

qurish ko‘zda tutilgan edi.Bugungi kunga qadar jamg‘arma tomonidan hududni obodonlashtirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi: mevali daraxtlar ekildi, hovuz uchun chuqur qazildi, alohida binolar barpo etildi, tarixiy bog‘ obodonlashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kattayev K. Maxdumi Xorazmiy va xonaqohi tarixi. “Zarafshon” nashriyoti, Samarqand, 2003.
2. Karimov E. The Kubraviyya vaqf (17th-19th centuries): written sources on the late history of the Kubravi sufi brotherhood in Central Asia.Tashkent, “Fan” publishers,2008
3. Schwarz F. An endowment deed of 1547 (953 h.) for a Kubravi khanaqah in Samarkand;
4. Kattayev,Komilxon. Tasavvuf allomalari. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
5. Lonely Planet. “Makhdumi Khorezm Mosque, Samarqand”.
6. Mahalliy OAV: restavratsiya va memorial tashabbuslar haqida xabarlar.

* * *

ҚЎҚОН ДУРДОНАСИ ПЕШТОҚИДАГИ БЕЗАКЛАРНИНГ РАМЗИЙ ТАҲЛИЛИ

SYMBOLIC ANALYSIS OF THE DECORATIONS ON THE FACADE OF THE KOKAN MASTERPIECE

Хошимова Умида Талат қизи,
Низомий номидаги ЎМПУнинг
мустақил тадқиқотчиси,

Аннотация: Айни пайтда обидаларимиздан ҳайратланиш ва уларга эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш, ёдгорликларни тадқиқ қилиш лозимлигини намоён бўлмоқда. Аммо уларни фақатгина илмийлик нуқтаи назаридан ўрганиш билан кифояланмай, аждодларимиз томонидан яратилган ажойиб меъморий обидалар ва бошқа санъат турларида мужассам бўлган бетакрор меросимизни унга қизиқувчи талаба, ўқувчи, ёшларга етказиш ҳам муҳим.

Аннотация: На данный момент очевидно, что нашими памятниками необходимо восхищаться и бережно к ним относиться, изучать памятники. Однако важно не только изучать их с научной точки зрения, но и донести до заинтересованных студентов, школьников и молодежи наше уникальное наследие, воплощенное в замечательных памятниках архитектуры и других видах искусства, созданных нашими предками.

Abstract: At the moment, it is evident that it is necessary to admire our monuments and treat them carefully, to study the monuments. However, it is important not only to study them from a scientific point of view, but also to convey our unique heritage embodied in the wonderful architectural monuments and other forms of art created by our ancestors to interested students, pupils and young people.

Калит сўзлар: рамз, рамзийшунослик, методлар, анализ-синтез методи, Худоёрхон саройи, қудрат, қадрият.

Ключевые слова: символ, символика, методы, метод анализа-синтеза, дворец Худоёрхана, власть, значение.

Keywords: symbol, symbolism, methods, analysis-synthesis method, Khudoyor Khan’s palace, power, value.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар ва бунёдкорлик ишлари натижасида халқимизнинг онгу тафаккури, дунёқараши ўзгармоқда. Юртимизда ҳуқуқий давлат, фуқаролик жамиятини барпо етишда “Миллий тикланишдан — миллий юксалиш сари” деган ҳаётбахш ғоянинг аҳамияти тобора ортиб бормоқда. Бу борада президент Ш. Мирзиёйевнинг 26.03.2021 йилдаги “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” PQ-5040- сонида “Маънавий-маърифий ва тарбиявий ишларни ташкил етишга доир хорижий тажрибани ўрганиш, шунингдек, бугунги мафкуравий жараёнларни илмий-амалий жиҳатдан атрофлича таҳлил қилиш ва баҳолаш”[774] тўғрисида алохида тўхталиб ўтилган. Албатта, жахон тажрибасини ўрганиб, амалиётда қўллаш орқали илм-салоҳиятимизни янада ривожлантиришимиз мумкин. Мамлакатимизда ендиликда барча ёналишда тадқиқотчи, изланувчи ёшлар ва олимларга кенг имкониятлар яратиб берилгани мамлакатдаги ислоҳотларнинг устувор ёналишларидан бири деса бўлади.

Айни пайтда обидаларимиздан ҳайратланиш ва уларга эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш, ёдгорликларни тадқиқ қилиш лозимлигини намоён бўлмоқда. Аммо уларни фақатгина илмийлик нуқтаи назаридан ўрганиш билан кифояланмай, аждодларимиз томонидан яратилган ажойиб меъморий обидалар ва бошқа санъат турларида мужассам бўлган бетакрор меросимизни унга қизиқувчи талаба, ўқувчи, ёшларга етказиш ҳам муҳим. Бу борада, рамзийшунослик соҳаси жаҳон тажрибаларидан андоза олган ҳолда, профессор Булатов С.С. томонидан ўтказилган тадқиқотлари натижасида талим тизимига фан сифатида кириб келди ва амалиётда ўз самарасини бериб келмоқда. Лекин, шуни ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, ушбу соҳадан бажарилиши керак бўлган ишлар, тўлдирилиши лозим бўлган камчиликлар ҳам топилади. Ушбу соҳани ривожлантириш, янада равнақ топиши учун методлардан фойдаланиб дарс жараёнларини ташкил етиб, талабаларда билим, малака, кўникмани ҳосил қилишим ҳам лозимдир. Бу борада, “Худоёрхон саройи”ни анализ-синтез методи орқали таҳли қилиб кўрамиз.


Қўқоннинг ҳақиқий марвариди ва шаҳарнинг асосий тарихий диққатга сазовор жойларидан бири - Худоёрхон саройи, уни халқ орасида «Қўқон ўрда» деб ҳам аташади. Тарихдан маълумки, бир ярим асрдан кўпроқ вақт мобайнида Қўқон хонлигида 29 дан ортиқ хон ўтирган, аммо енг қудратли ҳукмдор Худоёрхон 1845 йилда 12 ёшида тахтга ўтирган. 1871 йилда Худоёрхон катта сарой қурдиради.

Худоёрхон ўрдаси бош тарзи равоқлари, пештоқ ва гулдасталаридаги ҳандасавий нақшлар кошинлар, сиркори парчинлардан маҳорат билан яратилган. Пештоқ орқали тўртбурчак тарҳли дарвозахонага ўтилади, дарвозахона гумбази ўзаро кесишган равоқли асос устига қўйилган; гумбаз усти, ўз навбатида, қуббали мезана билан якунланган, ундаги панжарали дарчалар орқали ичкарига ёруғлик тушади. Ўрданинг бош тарзи, хоналар кошинлар, ўйма ганчкори нақшлар билан безатилган, шифтлари ҳовузакли бўлиб, уларга гуллар солинган, хоналарнинг тепа қисми шарафалар билан ҳошияланган, айрим хоналарнинг полига паркет терилган, айвонлар саҳнига мармар ётқизилган, деворларига равоқлар ишланиб, нақшлар билан зийнатланган.

Худоёрхон саройини мантиқий тахлил қилиш учун аввало синчковлик билан безакларни кўздан кечириш лозим. Сабаби, Худоёрхон саройи пештоқлари ва устунлари турфа хил безаклар билан безалган. Айрим маълумотларни инобатга оладиган бўлсак Тошкент шахридаги Кукалдош биноси фасадида сакланиб колган квадрат шаклидаги тўртта бир хил накшли безак “Аллоҳ” ва “Муҳаммад” сўзлари намоён бўлгани каби Худоёрхон саройида ҳам шу каби сўзларни ифодалаган безакларга дуч келамиз.


[774] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 26.03.2021 йилдаги ПҚ-5040-сон “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори.

Пештоқнинг чап бурчагидаги мезана гумбази остида жойлашган кошинли белбоғда الله –“ Аллоҳ” калимаси акс етган.



1- расм. Кошинли белбоғ.

Пештоқнинг чап мезана ва биринчи равоқ ўртасидаги тўғри тўртбурчак марказига кўфий хатида محمد-“Муҳаммад”, унинг атрофигаمالك الله –“Мулк Худоникидир” сўзлари битилган.



2-расм. Меъморий безак.

Шунингдек, пештоқнинг чап кунгураси томонидаги мезана кошинлари ўртасида иккита белбоғ ярим айланасида ҳам кўфий хатлардаги محمد الله –“Аллоҳ” ва “Муҳаммад” сўзлари 3 бора такрор ёзилган.

Юқоридаги анализ методи орқали таҳлил қилинган маълумотлардан қуйидаги хулосага келиш мумкин: ушбу қудратли Худоёрхон саройи ташқи кўриниши, ҳайбатидан қудратли ҳукмдор Худоёрхон тимсолини еслатиши мумкин, лекин бу сарой белбоғи ва пештоқидаги кўфий хатларда ёзилган битикларга кўра, ушбу сарой ва саройни қурдирган ҳукмдорлар қанчалик қудратли бўлмасин, аммо бутун оламни яратган Роббининг қудрати чексиздир. Қудратли шоҳлар келади-кетади, аммо буюк қудрат соҳиби абадийдир.

Худоёрхон саройида мохир уста наққошлар томонидан жуда бежирим, нафис ва ранг-баранг бўлган нақшу-нигорлардан фойдаланилганига гувоҳ бўлишимиз мумкин. Ҳар бир равоқ ва устунлардаги нақшлар айни бирини такрорламайди. Биз ушбу композицияни кўздан кечириб шуни англамоғимиз керакки, 19-асрда ҳали замонавий технологиялардан фойдаланмасдан туриб, гўзал саньат асарини яратган уста наққошлар махоратига тан бермасдан иложимиз йўқ. Бу нақшлар таҳлил қилиб, нақшларнинг турфалиги ва рангларнинг

кенг калоритини ўрганиб, далилларга асосланиб мантиқий ечимини ишлаб чиқиш лозим. Холбуки, биз аждодларимиз томонидан бизга мерос қолган, бизга етказиб бермоқчи бўлган маданият, маърифатни ўқувчиларга дарс жараёнларида турли методлардан фойдаланиб йетказишимиз лозимдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 26.03.2021 йилдаги ПҚ-5040-сон “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори.
2. Булатов С.С, Соипова М.С. “Бадиий таҳлил тамойиллари”, “Фан ва технология“ нашриёти, Т. 2016. 262 б.
3. «Ўзбекистон маданияти ва санъати форуми» жамғармаси. «Ўзбекистон обидаларидаги дурдона битиклар» энсиклопедия, «Ўзбекистон» нашриёти, Т.;- 2011 й.

Електрон адабиётлар

1. uz.wikipedia.org

* * *

ИСЛОМ ДУНЁСИ МАДАНИЙ МЕРОСИ ВА МАДАНИЙ ИФОДАЛАРИ: ХАТТОТЛИК, МУСИҚА, ШЕЪРИЯТ ВА БИРДАМЛИК

THE CULTURAL HERITAGE AND CULTURAL EXPRESSIONS OF THE ISLAMIC WORLD: CALLIGRAPHY, MUSIC, POETRY, AND UNITY

Акбаров Шохрух Дилшатович
Тошкент давлат шарқшунослик университети мустақил тадқиқотчиси

Аннотация: Мазкур мақолада Ислом дунёсига хос бўлган маданий мерос ва унинг ифодалари - хаттотлик, мусиқа ва шеърият каби санъат турлари орқали намоён бўлиши таҳлил қилинади. Шунингдек, ушбу маданий кўринишларнинг ислом жамиятларида ҳамжиҳатлик ва бирдамликни шакллантиришдаги роли кўриб чиқилади. Маданият ва санъат орқали Ислом цивилизациясининг маънавий юксалиши, халқлар ўртасидаги мулоқот ва бағрикенгликни мустаҳкамлашдаги аҳамияти таъкидланади.

Калит сўзлар: Ислом маданияти, хаттотлик, шеърият, мусиқа, бирдамлик, маданий мерос, цивилизация, бағрикенглик.

Бугунги кунда юртимизда Ҳурматли Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев бошчиликларида ислом илм-фани ва маънавий меросини чуқур ўрганиш, уни асраб-авайлаш ва ривожлантириш йўлида қатор йирик ташаббуслар амалга оширилмоқда.

Жумладан, Тошкент халқаро Ислом академияси ҳузурида АЙСЕСКОнинг махсус кафедраси ташкил этилди. Шунингдек, Имом ал-Бухорий, Имом ат-Термизий, Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказлари, Ислом цивилизацияси маркази, Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институти сингари муассасаларнинг фаолияти йўлга қўйилгани нафақат Ўзбекистон, балки бутун Ислом олами учун муҳим аҳамиятга эгадир.

Самарқандда ҳадис илмининг султони Имом Бухорий мажмуаси қурилмоқда. Бу йил юртимизда Имом Мотуридий таваллудининг 1155 йиллиги кенг нишонланмоқда.

Ўзбекистон Республикаси ва АЙСЕСКО ўртасида “Йўл харитаси” — яъни ҳамкорликни мустаҳкамлаш ва янги босқичга олиб чиқиш бўйича стратегик режа имзоланди.

Бу ҳужжатда қатор долзарб йўналишлар: илмий-тадқиқот лойиҳаларини амалга ошириш, ёш олим ва талабалар алмашинуви, маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва тиклаш бўйича қўшма ташаббуслар белгиланди.

Шубҳасиз, бу “Йўл харитаси” икки томонлама ишонч, ўзаро ҳурмат ва маданий дипломатиянинг янги босқичидир.

Ислом маданиятининг улуғвор мероси — бу **хаттотлик, мусиқа ва шеърият** каби санъат ва фанларнинг нурли уйғунлиги бўлиб, у нафақат ўтмишимизни ёритади, балки инсониятнинг маънавий тараққиёти учун муҳим маёқ бўлиб хизмат қилади.

Барчамизга яхши маълумки, атомлар ҳар қандай моддани ташкил этувчи энг асосий элементлар ҳисобланади. Атрофимиздаги ҳар бир нарса — ҳаво, сув, бинолар, ҳатто ўз танамиз — айнан шу кичик заррачалардан ташкил топган.

Худди шундай, бизнинг Ислом цивилизацияси меросимиз ҳам илм-фан ютуқларидан тортиб, нозик хаттотлик санъати, мусиқа, наср ва назмгача бўлган ҳар бир ифодаси орқали бизни руҳий ва маданий жиҳатдан бирлаштиради.

Ушбу маданий бойликлар — авлодларни, халқларни ва минтақаларни ўзаро боғлаб, билим, ижодкорлик ва маънавият асосида барпо этилган ягона тараққиётнинг чинакам тимсолига айланмоқда.

Шундай экан, маданият ҳам атомлар каби, инсониятнинг эзгулик, бирлик ва маънавиятини шакллантирувчи энг муҳим асосдир.

Биз фахр билан айта оламизки: Ислом дунёсида юзага келган илм-фан ва маданият ютуқлари бугунги замонавий дунё тараққиётининг асоси, илдизи ва дастуриламалидир.

Хаттотлик санъати — бу Илоҳий гўзалликнинг қоғоздаги акси, сабр меваси, мўъжиза ва жозиба ифодасидир.

У нафақат шакл орқали маънони, балки гўзаллик ёрдамида эътиқодни ифодалайди. Куфий, Насх, Сулус каби машҳур услублар асрлар давомида шаклланган бўлиб, Ислом цивилизациясида катта ўрин тутган.

Шарқ мамлакатларида, хусусан, Ўзбекистон заминида хаттотлик фан даражасигача кўтарилган. Бу борада ўзига хос мактаблар яратилган. Бизнинг хаттотликда эришган даражаларимиз ҳақида ноёб китобларимиз, бетакрор тарихий манбаларимиз, обидаларимиздаги ёзувлар ҳам сўзлаб турибди.

Қувонарлиси, бугунги кунда ҳаттотлик санъати анъаналарини асраб-авайлаб, уни давом эттираётганлар сафи ҳам кенгайиб бормоқда.

Шеърият инсон қалбининг овозидир. У орқали биз нафақат тарихни, балки келажак умидларини ҳам ҳис этамиз. Шеър сўзларни руҳга айлантириб, инсониятни эзгуликка чорлайди ва борлиқни қалб кўзи билан қарашга ундайди. Шеър ҳақиқатни сўзда яширин, қалбда севимли шаклда ифода этувчи машъалдир. Исломнинг буюк файласуфлари ва шоирлари ҳам “Аниқки, шеърда ҳикмат бор” дея бежиз таъкидламаганлар.

Биз бахтли авлодмизки, Мотуридий, Нақшбандий, Бухорий, Навоий каби буюк мутафаккирлардан тортиб, замонавий қалам аҳлигача бўлган бой маънавий меросга эгамиз.

Ишонч билан айтиш мумкиниқ, бугунги кунда шеърият, мусиқа ва санъат яна инсон қалбини қудратли қилиб, уни яхшиликка чорловчи кучли воситаларга айланмоқда.

Мусиқа бу туғма туйғуларнинг товуш орқали юзага чиқиши, инсон қалбини поклаш ва илҳомлантириш воситасидир. У миллат, дин, ирқ ёки тилдан қатъи назар, инсонларни ягона туйғу ва қадриятлар атрофида жипслаштириш хусусиятига эгадир.

Айтиш жоизки, агар ҳар биримиз яшаб турган заминда эзгулик ва маънавиятга йўналтирилган мусиқа ҳамда санъат ривожлантирилмаса, бу бўшлиқни бошқа — глобаллашув жараёнида пайдо бўлувчи ёт ғоялар эгаллайди ва бу аксарият ҳолларда миллий ўзликни, қадриятни, руҳий мушоҳадани йўқотишга олиб келади.

Шу боис, юртимизда ўтказилаётган Мақом санъати анжумани, Шарқ тароналари мусиқа фестивали, Бахши санъати ва бошқа халқаро мусиқий фестиваллар нафақат мазкур соҳада олиб борилаётган миллий сиёсатимиз ифодалари сифатида намоён бўлмоқда, балки бағрикенглик, миллатлараро ҳамжиҳатлик ва маънавий ривожланишнинг мустаҳкам белгиси сифатида ҳам эътироф этилмоқда.

Бизга юкланган улкан масъулият — бу маданий ифодаларни асраб-авайлаш, улар орқали оламга инсонийлик, бағрикенглик ва тинчлик даъватини етказишдан иборат.

Шунинг учун ҳам хаттотлик, шеърият ва мусиқа каби ифодалар — инсоннинг асл табиатини англатувчи, уни руҳий юксалишга бошловчи қуроллардир.

Биз ана шу ифодалар орқали ўзлигимизни сақлаймиз, келажакни маърифат ва бағрикенглик руҳида барпо этамиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Алиев Б.Г. — Ислом санъати тарихи. Тошкент: Фан, 2015.
2. Nasr, Seyyed Hossein. — Islamic Art and Spirituality. State University of New York Press, 1987.
3. Schimmel, Annemarie. — Calligraphy and Islamic Culture. New York University Press, 1984.
4. Гасымов Э.М. — Исламская поэзия: культурный контекст и особенности. Баку: Elm, 2012

* * *

IV BO‘LIM. MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MILLIY VA DINIY URF-ODAT, AN’ANALARIDAGI UMUMIYLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

CHAPTER IV. COMMONALITY AND ORIGINALITY IN THE NATIONAL, RELIGIOUS CUSTOMS AND TRADITIONS OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA

ВАЖНОСТЬ ВЗАИМОСОТРУДНИЧЕСТВА ДУХОВНЫХ УПРАВЛЕНИЙ МУСУЛЬМАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И АФГАНИСТАНА ПО ИЗДАНИЮ ФЕТВ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

THE IMPORTANCE OF MUTUAL COOPERATION BETWEEN SPIRITUAL DIRECTORATES OF MUSLIMS OF CENTRAL ASIA AND AFGHANISTAN IN ISSUING FATWAS: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Хайдаров Миродил Мирвахидович,
PhD., доцент кафедры «Социальные науки и право»
Международной академии исламоведения Узбекистана.
e.mail: mirodil.uz@mail.ru

ВВЕДЕНИЕ

Фетва является важным регулятивным средством общественно-политической жизни мусульман, посредством которой выносятся ответы на вопросы и разрешаются недопонимания, споры верующих. Главной задачей фетвы является решение проблемы, в этой связи с древних времен и по сей день исламские постановления являются востребованными, так как, как и все направления государственной и общественной деятельности, фундаментальная религиозно-духовная сфера ассимилируется с развитием общечеловеческих отношений.

Если исламское право впервые утвердилось в ряде стран Азии и Африки, то со временем она охватила Среднюю Азию, Закавказье, Север, а также частично на Восточную и Западную Африку и ряд стран Юго-Восточной Азии. Однако столь резкое и повсеместное распространение ислама и исламского права привело к появлению в нем все большего количества локальных черт. В результате возникли различные противоречия в исламском праве при толковании конкретных правовых институтов и при разрешении отдельных правовых споров. В результате в исламе возникли различные мазхабы, течения и секты.

Поэтому к любой проблеме, с которой мы сталкиваемся, будет подход фикха. Хотя многие из них уже изучены, время не стоит на месте, и новые проблемы также возникают синхронно со временем. С другой стороны, международные организации по фетвам и академии юриспруденции подробно изучают эти современные проблемы с помощью самых влиятельных и известных ученых мира и выносят по ним соответствующие постановления и фетвы.

МАТЕРИАЛ И МЕТОД

В сегодняшнем Узбекистане идет процесс обновления и кардинальных реформ во всех сферах общественно-политической жизни, в том числе и в духовной. На повестке дня стоят вопросы доведения до широкой общественности гуманистической сути исламской религии, провозглашающей ценности мира, дружбы и согласия, утверждения в жизни благородной идеи «Просвещение – против невежества». В этом контексте, в эпоху ускорения глобализации и развития информационных технологий важным является издание фетв на основе принципа гармонизации религиозных и светских научных данных.

Свои позитивные плоды приносит решение посредством фетв социальных и политических проблем, в особенности по предотвращению недопонимании и споров между мусульманами.

Духовенство каждой страны стремиться основываться на свои национальные интересы при трактовках норм шариата. В отдельных случаях нередко среди духовенства ведутся споры по интерпретации теологических норм. Более консервативные улемы удерживают буквальные предписания основных источников, а современные, используя метод аналогии пытаются расширить мусульманам возможности.

Различные социальные, экономические и политические изменения, происходящие в обществе, заставляют актуальность мусульманский союз, чем когда-либо.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев отметил в своём выступление: «Мы по праву гордимся нашими общими великими предками, вписавшими яркие страницы в древнюю историю тюркского мира. Для всех нас важнейшая задача – сохранить их бесценное наследие, глубоко изучать его и передать будущим поколениям».[775]

Можно подчеркнут, что при Управлении мусульман Узбекистана Центр фетв активно действует и практично сотрудничают с другими организациями в этом направлении.

В нескольких аятах Корана есть призыв к объединению мусульманской общины. Аллах сказал: «И крепко держитесь за вервь Аллаха и не разделяйтесь]Сура Аль Имран, аят 103[.

В другом аяте сказано: «Воистину, верующие — братья»]Сура аль-Худжурат, 10[.

Этой крепкой связью Аллах соединил сердца верующих мусульман. Аллах и Его посланник, да благословит его Аллах и приветствует, повелели правоверным исправно выполнять свои обязанности перед верующими братьями, и благодаря этому мусульман всегда объединяют взаимная любовь и согласие. Эти искренние чувства заставляют их заботиться друг о друге, и если они видят, как правоверные оказываются по разные стороны баррикад и начинают сражаться друг с другом, а их сердца переполняются взаимной враждой и ненавистью, то они всеми силами стремятся помирить поссорившихся братьев и потушить огонь их злобы и ненависти.

АНАЛИЗ

Одним словом, усилиями руководителей духовных управлении мусульман Центральной Азии и Афганистана, обладающих богатым наследием и научным потенциалом, отношения между центрами фетв постепенно улучшаются и приобретают конструктивный смысл.

С 23 по 26 октября 2024 года делегация во главе с председателем Управления мусульман Узбекистана, муфтием шейхом Нуриддином Халикназаром находилась с рабочим визитом в Афганистане.

Делегация Узбекистана провела переговоры с заместителем премьер-министра Афганистана Абдусаломом Ханафи, министром по делам иршода, хаджа и вакуфов Нур Мухаммадом Сакибом, министром высшего образования Недой Мухаммадом Надимом, заместителем губернатора провинции Балх Абдулхади Абу Идрисом и председателем Совета улемов Кабула Мухаммадом Рухони.

В ходе встреч стороны отметили, что в последние годы отношения между двумя государствами развиваются, укрепляются сотрудничество в различных направлениях, отношения добрососедства и дружбы.

В частности, афганская сторона подчеркнула, что инициативы, неоднократно выдвигавшиеся руководителем нашего государства перед мировым сообществом ради обеспечения мирной и спокойной жизни в Афганской стране, приносят свои положительные результаты. Особенно высоко была оценена помощь Узбекистана народу Афганистана и его действующим властям в вопросах социально-экономического развития, установления мира и решения актуальных проблем.

В свою очередь, шейх Нуриддин Халикназар отметил, что в новой эпохе развития нашей страны происходят масштабные изменения и в религиозно-просветительской сфере:

775 Саммит Организации тюркских государств (ОТГ), г. Самарканд – 11.11. 2022 г.

открываются новые мечети и медресе, действуют курсы по Корану, начал работу центр Фетв, увеличивается число совершающих хадж и умру, реализуются такие крупные проекты, как Центр исламской цивилизации. Было подчеркнуто, что исторический визит узбекских учёных в Афганистан является логическим продолжением этих обновлений.

Религиозные деятели, отмечая, что узбекский и афганский народы с давних времён объединяет единая вера и общие цели, обменялись мнениями о налаживании сотрудничества улемов, совместных научных исследованиях, образовательных и воспитательных программах, обмене опытом, повышении квалификации и развитии связей в религиозно-просветительской сфере.

Афганские представители признали, что Узбекистан издавна является страной науки и просвещения, родиной великих мыслителей, внёсших вклад в мировую цивилизацию, таких как Имам Бухари, Имам Термизи, Бахауддин Накшбанд. Было отмечено, что и в нынешние дни в этой стране бурно развиваются различные сферы, особенно религиозная. В частности, министр по делам иршода, хаджа и вакуфов Нур Мухаммад Сакиб с удовлетворением вспомнил свой визит в Узбекистан в марте 2024 года, оставивший у него глубокие впечатления.

В эти встречи Афганская сторона выразила благодарность руководству и народу Узбекистана от имени своего народа за строительство медресе Имама Бухари в провинции Балх, за создание свободной торговой зоны «Термезский международный торговый центр» на узбекско-афганской границе и за гуманитарную помощь.

Можно подчеркнут что визит узбекских улемов в Афганистан стал значимым событием, выведшим сотрудничество религиозных деятелей двух стран на новый уровень.

Пользуясь случаем, хотел бы внести следующие предложения по дальнейшему укреплению в деятельности духовных управлении мусульман Центральной Азии и Афганистана по изданию фетв:

Во-первых, традиции и образ жизни наших народов всегда были общими. Поэтому на сегодняшний день в эпоху глобализации и нарастающих угроз является важным создать межрелигиозный орган фетв наших государств, чтобы обеспечить религиозное единство и единство мусульман.

За последние пять лет сотрудничество Центр фетв при Управлении мусульман Узбекистана с учеными Казахстана и Кыргызстана по определению сроков Рамадана, первого дня Ураза-байрам и Курбан-байрам, а также разработка фетв в современных шариатских вопросах, повышение ответственности за издание фетв дает положительные результаты. Мы высоко ценим этот факт, что сегодня уважаемые лидеры духовных управлении введёт взаимное сотрудничества на этой сфере.

С созданием этого Совета по фетвам масштабы и география этой деятельности будут еще больше расширены, единство наших общих народов, инша Аллах, укрепится.

Во-вторых, в сегодняшнем сложном мире понятно, что доктрины Имама Мотуриди столь крепки и что шариатские вопросы ханафитской школы чрезвычайно популярны. Алхамдулиллях, наши народы издревле идут по пути имама Мотуриди в вероучении, и мазхаба Абу Ханифы в фикхе.

В целях внедрения учения имама Мотуриди и ханафитов в сознание наших народов в период, когда наша вера и мазхаб находятся под угрозой с разных сторон, проводить ежегодный форум ученых государств Центральной Азии и Афганистана, посвященный изучению и распространению учения имама Мотуриди, а также ханафитского мазхаба.

Не будет преувеличением сказать, что все эти произведения являются ярким символом нашего общего стремления к общему развитию и процветанию наших народов.

В-третьих, в Узбекистане созданы Центр исламской цивилизации и Международные научные центры Имама Бухари, Имама Термези и Имама Мотуриди для изучения трудов

исламских ученых. Мы знаем, что аналогичная работа ведется в братских странах. Поэтому предлагаю осуществить научные проекты, такие как перевод таких редких и уникальных произведений на родственные языки и доведение их до мусульман.

В-четвертых, Следует отметить также образовательное сотрудничество между наших стран. В сегодняшнюю эпоху глобализации возрастает ответственность религиозных деятелей. Поэтому внедрение обменов опытом в сфере повышения квалификации религиозных кадров даст хорошие результаты.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

На наш взгляд это будет важным шагом в реализации дальнейших совместных планов в том числе в сфере фетвотворчества стран Центральной Азии и Афганистана.

Стоит отметить, что с этим важно укреплять сотрудничество со многими международными организациями по фетвам и исследовательскими центрами по всему миру.

Статьи и тезисы, опубликованные автором по теме.

1. Хайдаров М.М. “Важность взаимосотрудничества центров по изданию фетв между тюркскими народами: проблемы и пути их решения” // Ислом тафаккури, 2022, 4-выпуск. С. 21-24.
2. Хайдаров М.М. “Сотрудничество ученых-исламоведов Узбекистана и России” // Periodica Journal Package. 2022. Декабр, 13-сон, Б. 184-187.
3. Хайдаров М.М. “История и необходимость следования за четырьмя мазхабом” // Имом Бухорий сабоқлари. 2023, 1-выпуск, С 69-73.
4. Хайдаров М.М. “Значение изучения норм исламского права и догматического богословия в борьбе против радикализма” // Ислом тафаккури, 2024. 1 специальный выпуск. С. 52-55.
5. Хайдаров М.М. “Значение сотрудничества духовных управлений мусульман Центральной Азии в вопросах вынесения фетв” // Ислом тафаккури, 2024. 4-выпуск. С. 42-45.
6. Хайдаров М.М. “The Relevance and Importance of Fatwas in Muslim Societies” // Web of Teachers: Inderscince Research: Volume: 3 Issue: 2. February – 2025. С. 149-159.
7. Хайдаров М.М. «العلاقات التعاونية بين علماء الإسلام في كل من أوزبكستان وروسيا: الماضي والحاضر» // Сборник “II Международного Болгарского форума «Богословское наследие мусульман России», Республика Татаристан, Болгар. 2020. 14-16 стр.
8. Хайдаров М.М. “*Важность сотрудничество центров по изданию фетв у тюркских народов: проблемы и пути их решения*” тезис. II-III Сборник международного научно-практического конференции: “Проблемы понимания ислама в эпоху глобализации” “Ҳилол Медиа”, Т., - 2023. 263 С, 160-161 стр.
9. Хайдаров М.М. “Тюркоязычные народы: методология и особенности издания фетв” тезис. Сборник V международного симпозиума: “Культура, отношения, философия тюркоязычных народов: история, сегодня и будущее” “Ҳилол Медиа”, Т., - 2024. С – 638, 620-623 стр.
10. Хайдаров М.М. “Принципы свободы вероисповедания и толерантности в учении ислама” тезис. Сборник XVII республиканского научно-практического конференции: “Актуальные проблемы религиоведения” Международная исламская академия Узбекистана. Т., - 2025, С – 392, 54-58 стр.

ИНТЕРНЕТ САЙТЫ

1. www.muslim.uz
2. www.islom.uz
3. www.fiqh.uz

* * *

MA'NAVIYAT VA AXLOQIY QADRIYATLAR: ISLOM TA'LIMOTI ASOSIDA SHAKLLANGAN MA'NAVIY-AXLOQIY ME'YORLAR VA ULARNING JAMIYATDAGI O'RNI

SPIRITUALITY AND MORAL VALUES: THE SPIRITUAL AND ETHICAL NORMS FORMED ON THE BASIS OF ISLAMIC TEACHINGS AND THEIR ROLE IN SOCIETY

Shukurov Yorqin Alidjanovich
O'zXIA, Arab tili va dabiyoti al-Azhar kafedrasi dotsenti

Insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar jamiyatning barqaror tayanchi bo'lib xizmat qilgan. Bu qadriyatlar shaxs kamoloti, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va madaniy merosning saqlanishini ta'minlaydi. Tarixiy jihatdan, ko'plab sivilizatsiyalar o'z ma'naviy-axloqiy asoslarini diniy ta'limotlar, falsafiy g'oyalar va ijtimoiy an'analar tizimidan olgan. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev, "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"[776], deya bejiz ta'kidlamaganlar. Markaziy Osiyo mintaqasida ming yillar davomida shakllangan boy ma'naviyat va madaniyatning markazida Islom dini va uning ta'limotlari turadi. Islom nafaqat diniy e'tiqod tizimi, balki hayot tarzi, axloqiy kodeks va sivilizatsion model sifatida mintaqa xalqlarining ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilab bergan.

Islom mohiyat e'tiboridan insonni Allohga itoatkorlik, jamiyatda halollik, adolat, mehr-shafqat, o'zaro hurmat va mas'uliyat ruhida tarbiyalashni maqsad qiladi[777]. Qur'oni Karim va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) sunnatlari islomiy axloqning asosiy manbalari hisoblanadi. Bu manbalarda ko'rsatilgan asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

1) Tavhid va Allohga itoatkorlik. Bu tamoyil yagona Allohga iymon keltirishni va Uning buyruqlariga so'zsiz itoat etishni talab qiladi. Tavhid (yakkaxudolik) Islom ma'naviyatining asosi bo'lib, insonning hayotdagi maqsadini belgilaydi. Tavhid aqidasi insonni faqat o'z nafsi yoki boshqa bashariy kuchlar istaklariga emas, balki oliy qudratga bo'ysunishga undaydi. Bu esa o'z-o'zini nazorat qilish, sabr-qanoat va xolislik kabi axloqiy fazilatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Islomning bu tamoyili nafaqat Qur'oni Karim oyatlarida, balki payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning muborak hadisi shariflarida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, tavhidga asoslangan axloqiy me'yorlar doimiy ravishda targ'ib qilingan.

Tavhid tamoyiliga asoslangan axloqiy tafakkur, Imom G'azzoliyning "Ihyou ulumid-din" ("Din ilmlarini jonlantirish") kabi asarlarida chuqur tahlil qilingan. Bu asarda insonning ruhiy poklanishi va Allohga yaqinlashishi uchun zarur bo'lgan amaliy qadamlar batafsil yoritib berilgan. G'azzoliyning fikriga ko'ra, qalbning Allohga bog'lanishi insonni barcha yomonliklardan, o'z nafsi qulligidan xalos qiladi. Bu esa o'z navbatida adolat, halollik va saxovat kabi ijobiy sifatlarni shakllantiradi.

Markaziy Osiyolik allomalar, xususan, Imom Buxoriy va Imom Termiziy asarlarida ham tavhidning amaliy va axloqiy ahamiyati chuqur o'rganilgan. Ularning hadis to'plamlari orqali islomiy axloqiy me'yorlar bevosita Payg'ambar (s.a.v.) sunnatlari asosida tushuntirib berilgan. Bu esa mintaqada tavhidga asoslangan ma'naviy-axloqiy tizimning mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

[776] Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, Toshkent, "O'zbekiston", 2021. – B. 45.
[777] Usmonov I. Islom va ma'naviyat, Toshkent: "Movarounnahr", 2019. – B. 32.

U insonning hayotdagi maqsadini belgilab, uni faqat o‘z nafsi yoki boshqa bashariy kuchlar istaklariga emas, balki oliy qudratga bo‘ysunishga undaydi. Bu esa o‘z-o‘zini nazorat qilish, sabr-qanoat va xolislik kabi axloqiy fazilatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

2) Halol va harom chegarasi. Islomda har bir ishning halol va harom ekanligi aniq belgilab qo‘yilgan. Bu tushunchalar shaxsiy axloqdan tortib, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlargacha bo‘lgan barcha sohalarni qamrab oladi. Halol yo‘l bilan topilgan mol-mulk va halol luqma insonning jismoniy va ma’naviy salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu, Islom falsafasiga ko‘ra, insonning qalbi va ruhi poklanishiga, hayotida baraka bo‘lishiga xizmat qiladi. Aksincha, haromdan saqlanish esa ochko‘zlik, zulm, yolg‘onchilik va boshqa illatlardan uzoqlashishga yordam beradi.

Qur’oni Karimning ko‘plab oyatlarida bu mavzuga to‘xtalib o‘tilgan. Masalan, “Ey iymon keltirganlar! Agar mo‘min bo‘lsangiz, Allohdan qo‘rqingiz va sudxo‘rlikdan qolgan narsalarni tark etingiz” (“Baqara” surasi, 278-oyat) oyati iqtisodiy sohadagi halol-harom chegaralarini aniq belgilab beradi.

O‘rta asrlarda yashab ijod qilgan Markaziy Osiyolik mutafakkirlar ham bu mavzuga katta e’tibor qaratishgan. Xususan, Imom G‘azzoliy o‘zining “Ihyou ulumid-din” asarida halol va haromning inson ruhiyatiga ta’sirini ilmiy va axloqiy jihatdan tahlil qilgan. Uning ta’kidlashicha, halol rizq insonning qalbini nurga to‘ldiradi, harom esa uning ma’naviy dunyosini xiralashtiradi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ham jamiyatdagi turli munosabatlarda, xususan adolat masalalarida halollik tamoyili asosiy mezonlardan biri sifatida ko‘rsatilgan.

3) Adolat va tenglik. Islom jamiyatida adolat oliy qadriyatlardan biri sanaladi. Hech kimga, hatto dushmanga ham adolatsizlik qilishdan qat’iy qaytarilgan. Barcha insonlar teng huquqli bo‘lib, ularning ijtimoiy mavqeyi, millati yoki jinsidan qat’i nazar hurmatga sazovor ekanligi ta’kidlanadi.

4) Mehr-shafqat, saxovat va birodarlik. Islom ta’limotida insonlarga mehr-shafqatli bo‘lish, muhtojlarga yordam ko‘rsatish, zakot va xayr-ehsonlar qilish juda qadrlanadi. Barcha musulmonlar bir-birining birodari ekanligi ta’kidlanib, bu o‘zaro hamjihatlik va hamdardlikni kuchaytiradi.

5) Ilm olish va ma’rifatparvarlik. Islomda ilm olish har bir musulmon uchun farz qilingan[3]. Ilm insonni jaholatdan xalos etadi, dunyo va oxirat saodatiga erishishiga yordam beradi. Bu tamoyil inson tafakkurini kengaytiradi, dunyoqarashini boyitadi va axloqiy kamoloti uchun zamin yaratadi.

6) Poklik va halollik. Jismoniy va ma’naviy poklik Islomda katta ahamiyatga ega. Tashqi ko‘rinishning ozodaligidan tortib, yurakdagi poklik va halol niyatlargacha barchasi qadrlanadi. Rostgo‘ylik va ishonchlilik kabi sifatlar insonning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlaydi.

7) Ota-onaga hurmat va qarindoshlik aloqalari. Ota-onaga itoatkorlik va ularni e’zozlash Islomdagi eng muhim ibodatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, qarindosh-urug‘lar bilan aloqalarni uzmaslik va ularga yaxshilik qilish ham kuchli axloqiy talabdir.

Markaziy Osiyo qadimdan Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan, ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli mintaqa bo‘lgan. Islomning bu hududga kirib kelishi mintaqa madaniyatining ajralmas qismiga aylandi va ko‘plab ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib kabi buyuk allomalar ilmiy-ma’rifiy va axloqiy merosi Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Ularning asarlarida ilm, halollik, adolat va insonparvarlik kabi g‘oyalar keng targ‘ib qilingan[4].

Markaziy Osiyoda rivojlangan tasavvuf tariqatlari (Naqshbandiya, Yasaviya va boshqalar) insonlarni ichki poklanish, axloqiy barkamollik va nafsni jilovlashga chaqirdi[5]. Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband kabi allomalar va ularning shogirdlari tarqatgan ma’rifat xalqlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitishda muhim rol o‘ynadi.

Islom ta’limoti oilaga alohida e’tibor qaratadi. Markaziy Osiyoda oila muqaddas hisoblanadi, ota-onaga hurmat va farzand tarbiyasi Islom axloqining asosiy talablaridan sanaladi. Mahalla esa

jamiyat hayotining muhim o‘zagiga aylanib, uning orqali ijtimoiy adolat va axloqiy me’yorlar saqlanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida, texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati yanada ortadi. Islom ta’limoti asosida shakllangan ma’naviy-axloqiy me’yorlar Markaziy Osiyo jamiyatlari uchun quyidagi jihatlarda dolzarb ahamiyatga ega:

Ayrim ekstremistik oqimlar Islom nomidan noto‘g‘ri talqinlar qilib, jamiyatda adovat tarqatmoqda. Bunday g‘oyalarga qarshi kurashda Islomning asl, tinchliksevar va bag‘rikenglikka asoslangan ta’limotini targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi[6].

G‘arb madaniyatining ba’zi salbiy ta’sirlari jamiyatda ma’naviy bo‘shliqni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirishda milliy va diniy qadriyatlarga asoslangan axloqiy me’yorlar muhim rol o‘ynaydi. Oila qadriyatlari, o‘zaro hurmat, halollik kabi Islomiy tamoyillar yosh avlodni to‘g‘ri yo‘naltirishda katta ahamiyatga ega.

Adolat, mehr-shafqat, saxovat va o‘zaro yordam kabi islomiy axloqiy qadriyatlar jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni, iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ishonch va hamkorlik muhitini yaratadi. Halol mehnat, halol daromad, zakot va xayr-ehsonlar ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari barqaror rivojlanish va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Globallashuv jarayonida milliy o‘ziga xoslikni saqlash har bir davlat uchun muhim vazifadir. Islom ta’limoti asosida shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar Markaziy Osiyo xalqlarining o‘zligini anglashida va o‘z madaniyatini qadrlashida muhim omil hisoblanadi.

Markaziy Osiyo jamiyatining ma’naviy-axloqiy qiyofasi ko‘p asrlik tarixiy jarayonlar, madaniy o‘zaro ta’sirlar va Islom ta’limotining chuqur ta’siri natijasida shakllangan. Tavhid, adolat, mehr-shafqat, ilm-ma’rifat, poklik va halollik kabi islomiy tamoyillar nafaqat shaxsning ma’naviy kamoloti uchun, balki jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy hamjihatlik va milliy o‘ziga xoslikni saqlash uchun ham mustahkam zamin yaratadi.

Bugungi murakkab davrda, jaholat va radikalizm tarqalgan bir sharoitda, Islomning asl, ma’rifatparvar va bag‘rikenglik ruhini targ‘ib qilish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosidan bahramand bo‘lish har qachongidan ham muhimdir. Islom ta’limoti asosidagi ma’naviy-axloqiy me’yorlarni zamonaviy jamiyat hayotiga uyg‘un holda tadbiq etish, yosh avlodni shu qadriyatlar ruhida tarbiyalash kelajak avlodlarimizning ham ma’nan boy, ham jismonan sog‘lom va ma’rifatli bo‘lib kamol topishini ta’minlaydi. Shunday ekan, Markaziy Osiyoda Islom sivilizatsiyasining ma’naviy-axloqiy merosini o‘rganish, targ‘ib qilish va hayotga tatbiq etish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1) Usmonov I. Islom va ma’naviyat. Toshkent, “Movarounnahr”, 2019.
2) Al-Buxoriy Al-Jomi’ as-sahih. Toshkent, “Adabiyot va san’at” nashriyoti. 2000
3) Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Toshkent, “Yozuvchi”, 1993.
4) Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2009.
5) Mo‘minov A. Islom ma’rifati va ekstremizmga qarshi kurash. Toshkent, “G‘afur G‘ulom”, 2017.
6) Imom G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din. Toshkent, “Movarounnahr”, 2010.
7) At-Termiziy. Sunan at-Termiziy. Toshkent, “Movarounnahr”, 2007.

* * *

BUXORO VOHASIDA YASHOVCHI MILLATLARNING MILLIY VA DINIY URF-ODAT, AN’ANALARIDAGI UMUMIYLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

COMMONALITY AND UNIQUENESS IN NATIONAL AND RELIGIOUS CUSTOMS AND TRADITIONS OF THE PEOPLES LIVING IN THE BUKHARA OASIS

Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Buxoro qadimdan etnik va diniy bag‘rikenglikning o‘ziga xos hududi bo‘lgan. Hozirgi vaqtda vohada turli etnik guruhlar va diniy jamoalar tinch-totuvlikda yashab kelmoqdalar. Haqiqatan ham, turli etnoslar va dinlarga mansub odamlar o‘rtasidagi aloqa, munosabat, muloqot, bahs-munozara va muzokaralar muhim o‘rin tutishiga e’tibor qaratish zarur. Chunki millatlararo totuvlik va birdamlikka erishishning asosiy yo‘li milliy va umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini rivojlantirish va mustahkamlashdir.

Buxoro vohasida uzoq tarixiy taraqqiyot davomida turli etnik guruhlar va din vakillari birgalikda yashab kelgan. Jumladan:

O‘zbeklar va tojiklar bu yerda asrlar davomida asosiy etnik guruhlar sifatida yashagan;

Yahudiylar alohida jamoa sifatida Buxoroda o‘zining madaniy merosini yaratgan. Buxoro yahudiylari madaniyati bu hududning muhim qismidir;

Turkman, arab, va boshqa kichik etnik guruhlar ham vohada uzoq zamonlardan beri yashab kelgan.

So`nggi asrlar tarixida keltirilgan va bizga ma’lum bo`lgan faktlarda ham bu kabi faktlar o`zini namoyon etgan. XIX asr oxirida Buxoro amirligida 27 ta beklik bo‘lib, ma’muriy jihatdan bekliklar amlokliklardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, bekliklar hududida aholi yashaydigan hududlar qishloq, mavze va daha nomlari bilan atalib kelingan[778].

Зардуштийлар бир кеча-кундузни беш қисмга бўлиб, ибодат қилганлар. Ибодатдан олдин ҳар бир диндор белбоғини ечиб юз - қўллари ва оёқларини сигирнинг тозаланган сийдиги, қум ва сув билан покланган, сўнгра муқаддас белбоғини боғлаб, “сидра”ни кийган ҳолда белбоғнинг олди тарафини қўли билан ушлаб турган. Унинг нигоҳи тақводорлик рамзи бўлган оловга қаратилган. Ибодат пайтида тақводор зардуштий махсус дуолар ўқиш билан бирга Аҳура Маздани мадҳ этиб, олқишлаб, Аҳриманни лаънатлаган. Бутун ибодат даври бир неча дақиқа давом этган. Зардуштийлар турмуш тарзи бўйича махсус тақдиқотлар олиб борган авесташунос олима М.Бойс таъкидлаганидек, “Зардушт ўзининг давомчиларига ўзига хос икки мажбуриятни, яъни кунига беш маҳал ибодат қилиш ва етти байрамни нишонлашни юклаган”[806].

Жамоага қабул қилиш маросими: Зардуштийлар тушунчасида ўғил болалар 7-15 ёшларида ибодатхонага чақирилиб, жамиятнинг тўла ҳуқуқли аъзолигига қабул қилинган. Бунинг учун 7 ёшдан 15 ёшгача бўлган болага маросим камарини - кусти (кушти) кийиш маросимини ўтказилган. Бунда уларнинг белига белбоғ боғланади (72 хил турли рангли ипдан эшилган арқон)[807]. Чунки, 15 ёшган етган навқирон йигит жамоада кўзлари тиниқ ва оқил, оёқлари чаққон, қадди-басти баланд инсон сифатида гавдаланади. Бундан ташқари уларга махсус оқ кийим сидра ҳам кийдирилган. Уларга илоҳий сўз ўргатилган ва иймон эътиқод йўлига жалб этилган[808].

Никоҳ маросими: Авестанинг жуда кўп ўринларида оила, оила аъзолари ва оила бошлиғининг вазифаси ва мажбуриятлари, оила - никоҳ муносабатлари махсус баён этилган.

Зардуштийлар жамоаси орасида никоҳ бир умрга муҳрланган, бир эркакка икки никоҳ ёки вақтинча никоҳ мумкин бўлмаган. Эр-хотиннинг бир - бирига хиёнати қаттиқ қораланган, бегона эркак билан жуфтлашган аёл бадном этилган, жазоланган ва никоҳдаги эр учун “ҳаром” ҳисобланган. Авестанинг “Видевдот” қисми тўртинчи фрагардида “кимнинг хотини бўлса, у хотинсиз ва дунёдан фарзандсиз ўтаётган кимсадан яхшироқдир”, дея таъкидланган. Авестада оила бутунлигини сақлаш, никоҳ тартиблари, эр-хотин мажбуриятлари, никоҳни бекор қилиш сабаб ва шартлари батафсил баён этилган. Авесташунос олим Х.Ҳомидовнинг таъкидлашича, Авестанинг алоҳида Яштларида Аҳура Мазда ёки Зардуштнинг келин - куёвларга даъвати ёки мурожаатлари келтирилган. Зардуштийлар таомилига кўра уйланмоқчи, ёки турмушга чиқмоқчи бўлган ҳар бир кишига йўл кўрсатмоқ ва моддий ёрдам бермоқ ҳар бир зардуштийнинг вазифаси ҳисобланган[809].

Зардуштийлик дини тартиб-қоидаларига кўра ўз ҳаётини бўйдоқ ўтказиш қораланган. Балоғатга етган қиз ота-она, жамоа райини писанд қилмай зурриёд қолдиришни истамай, қасддан турмушга чиқмай умргузаронлик қилиб юрса, у копга солиниб 25 дарра калтакланиш билан жазоланган. Зардуштийлик қонунларига кўра, эркаклар 17 ёшдан уйланиш ҳуқуқига эга бўлганлар. Агар эркак зурриёд қолдириш қобилиятига эга бўлса-ю, аммо уйланмаса, унга тамға босилиб, бадном қилиш мақсадида белига ҳар доим темир камар боғлаб юришга мажбур этилган. Авестада қайд қилинишича, эркак киши аввало уйланиш учун моддий ва маънавий томондан тўқ ва бақувват бўлмоғи лозим, бунинг учун у ўз вақтида тўйиб овқатланиши зарур, акс ҳолда эркак ўз хизмат ва бурчини бажара олмайди. Еб-ичмайдиган (оч) инсоннинг

---

[806] Б.Мери. Зороастрийцы. Верование и обычаи. – М.: Наука, ГРВЛ, 1988. - 303 с.
[807] https://travelask.ru/articles/parsy-stoykie-posledovateli-zoroastrizma.
[808] Авесто: Яшт китоби. / М.Исҳоқов таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. - 126 б.
[809] Ҳомидов Ҳ. Авестодан Шоҳномага. – Т.: Шарқ, 2007. - 320 б.

тоат-ибодат қилишга кучи етмайди. Эр - хотинлик вазифасини адо этишга қуввати етмайди, соғлом фарзандларни дунёга келтира олмайди[810] ва ҳ.к.

Зардуштийлик Ахлоқ кодекси мажмуи - “Видевдот”да оилада аёллар ва болалар соғлиғини сақлашга алоҳида аҳамият берилган. Жумладан, аёлларга ҳомиладорлик даври ва фарзандли бўлганидан сўнг алоҳида ғамхўрлик қилиш лозимлиги таъкидланади. Лекин зардуштийлик консепциясига кўра ҳайз кўрган аёл маросимий нопок ҳисобланган. Зардуштийларда ҳомилани тушириш ёки нобуд қилиш қаттиқ қораланган. Ҳомиланинг қасддан нобуд бўлишига сабабчи аёл жазоланган. Агар бу фожиага эркак алоқадор бўлса, уни қатл этиш ҳақида ҳукм чиқарилган. Дарвоқе, бу ўринда шуни ҳам қайд этиш жоизки, айнан зардуштийликда она қорнида ҳомиланинг шаклланиши, унинг жинсий бўлиниши борасида ҳам биринчилардан бўлиб маълумот берилган. Жумладан, Авестада ёзилишича аёл қорнидаги гўдак тўрт ой ўн кунликда шаклланиб вужудига руҳ инган бўлади. Оилада ҳомилани олдириб ташлаш оғир гуноҳ ҳисобланган. Зардуштийларда аёллар ҳомиладорлик вақти ва кейинчилик бола туғилганидан сўнг маълум “табу”ларга амал қилинган.

Замонавий зардуштийларга назар солинса, ҳозирда уларда туғилишнинг пастлиги кўзга ташланмоқда. Шунингдек, аралаш никоҳлар натижасида жамият тез қариб, уларнинг сони қисқариб бормоқда. Парсларнинг бошқа миллатга мансуб кишига турмушга чиқиши мумкин эмас. Ёш парслар учун никоҳ, яъни қаллиқ танлаш муаммоси айниқса долзарбдир. Ҳинд эътиқодларидан фарқли ўлароқ, уларда турмуш ўртоқлар ота-оналар томонидан танланмайди, у ўзи танлаганига турмушга чиқади[811]. Сўнгги пайтларда парслар орасида Интернетда танишиш ҳодисаси кенг тарқалмоқда. Ҳиндистоннинг қолган қисмидаги каби парслар жинси нисбати 1050 эркакдан 1000 аёлга тенг, бу ерда қизлар анча кам. Бундан ташқари, жамиятнинг қисқариш жараёни ёшларнинг хорижга кўчиб кетиши билан тезлашмоқда. Социологик таҳлиллар парсларнинг 30% дан ортиғи 60 ёшдан ошганини тасдиқлайди. Яқин келажакда ҳинд-парс жамоаси бутунлай йўқ бўлиб кетиши мумкин деган хавотирлар ҳам йўқ эмас[812].

Дафн маросими: Нариги дунё тўғрисидаги инсониятнинг дастлабки тасаввурлари Зардуштнинг жаннат ҳамда дўзах тўғрисидаги таълимоти орқали қонунийлаштирилди. Шу боисдан айнан зардуштийликда мураккаб ва ўзига хос дафн маросимлари тартиб - қоидалари ишлаб чиқилган.

Зардуштийларнинг дафн маросими ўликларни сукунат миноралари да қўйилиши орқали амалга оширилган. Бу зардуштийликда муқаддас унсурлар - олов, сув, ҳаво ва тупроқни ифлослантирмаслик учун шундай қилинган. Дафн қилиш жараёни ғайриоддий бўлиб - ўликлар текис томга ётқизилган, шунда қушлар ва ёввойи ҳайвонлар томонидан эт тозаланиб, ундан фақат суякларни қолади, кейин улар парчаланиб, ёмғир билан ювилиши учун минора марказида қолдирилган.

Савол туғилади - нега жасадни тупроққа кўммаслик ёки кремация қилиш керак эмас? Зардуштийликда инсон ўлгандан кейин инсон танаси ифлосланади ва ҳаром бўлади, деб ишонилган. Одамлар бу эътиқодга амал қилган ҳолда дафн этиш масаласини шу тарзда ҳал қилишган. Марҳумга фақат махсус одамлар – насулар (маййит хизматчилари) ва миноралар нинг қўриқчилари яқинлаша олган. Ҳатто қариндошлар ҳам дахмага чиқишга ҳақли бўлмай, улар бино остида қолишган. Даҳмалар, яъни “сукунат миноралари” эътиқод туфайли пайдо бўлган[813].

---

[810] Ҳомидов Ҳ. Авестодан Шоҳномага. – Т.: Шарқ, 2007. - 320 б.

[811] https://travelask.ru/articles/parsy-stoykie-posledovateli-zoroastrizma.

[812] Парсы. *http://генофонд.рф*.

[813] Уразова Р.Т. Ёвузлик рамзларининг тарихий-ижтимоий асослари ва ифода шакллари. Манбашунослик, тарихшунослик ва тарих тадқиқоти методи ва методологиясининг долзарб масалалари. Республика VI илмий-назарий конференцияси. – Тошкент, 2014. – Б.145-148.

Зардуштийлар тасаввурича ўлим – бу ёмонлик ифодаси, касаллик ва ўлимни келтирувчи сержаҳл Архимандир. Қазо қилган одамнинг танаси ҳаром ҳисобланган. Шу боис зардуштийлар ўзларининг дунёдан ўтган яқинларини ерга кўмишмаган, сувга ҳам ташлашмаган, балки зардуштийлик маросимларига мувофиқ ўлимдан сўнг уч кечаю кундуз ўликнинг руҳи нариги дунёга етиб боргунича, махсус хонага қўйилиб, пок нарсалардан маълум масофа узоқлигида сақланган. Бунда оловдан ўттиз қадам, сувдан ўттиз қадам узоқлаштирилган ва ҳатто яқин қариндошларидан ҳам четлатилган. Шу боис марҳум билан фақатгина ўлик хизматчилари – "насу"ларгина шуғулланганлар[814].

Юқоридаги фикрлардан қуйидаги хулосаларга келинди:

1) Ҳозирги даврга қадар сақланиб қолган ўзбек ва тожик эркакларининг тўй ва мотам маросим кунларида оқ яктак кийиб, белига белбоғ боғлаш анъанаси илдизлари айнан зардуштийликка бориб тақалади[815].

2) Зардуштийлик удумларга кўра, никоҳ маросимлари бошланишидан то якунига қадар оила, қариндош-уруғлар, маҳалла, қишлоқ оқсоқоллари маслаҳат ва йўл-йўриғи билан бажарилиши анъанага айланган. Бу борада ҳар бир муҳим тўй-тантаналар олдидан ҳозирга қадар *"маслаҳат оши, "сабзи тўғрар"* тадбирларининг ўтказилиши бунга ёрқин мисол бўла олади[816].

3) Асрлар давомида шаклланган зардуштийлик оила турмуш анъаналари кейинчалик ислом даврида ҳам оилавий маросимларда ўз кўринишларини йўқотмади ва ҳаттоки, бугунги кунда ҳам исломий анъаналар таркибида синкретик тарзда сақланиб қолган. Ўзбек оилалари турмуш маросим ва расм-русмларининг кўплари мазмун-моҳиятига кўра зардуштийлик дунёқараши билан вобастадир.

4) Янги бўшанган аёллар ва эмизикли болалар саломатлиги учун қўлланилган "табу"лар халқимизда ***"Қирқ кунлик чилла"*** кўринишида ҳозирда ҳам юртимизнинг баъзи ҳудудларда амалиётда қўлланилмоқда.

5) Дафн маросим билан боғлиқ одатни ҳозирги даврда зардуштийлар баъзи ҳолларда ўзларининг яшаш жойларидаги қонунчилик таъқиқлари туфайли тарк этишга мажбур бўлишмоқда. Мисол учун, зардуштий Фредди Меркурийнинг жасади, зардуштийлик анъаналарига зид равишда куйдирилди. Чунки Буюк Британия қонунлари, бошқа кўплаб мамлакатларда бўлгани каби, дафн қилиш усуллари сифатида фақат куйдириш ёки ерга кўмишга рухсат беради ва ҳ.к.

* * *

[814] Авеста: "Видевдот" китоби. / М.Исҳоқов тарж. – Т.: ТДШИ нашриёт - босмахона бўлими, 2007. - 96 б.
[815] Аширов А. Ўзбек халқининг қадимги эътиқод ва маросимлари. – Т.: Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2007. - 274 б.
[816] Аширов А. Авестодан мерос маросимлар: Ўзбек халқи турмуш тарзида зардуштийлик диний маросимлар анъанаси. – Т.: Мерос, 2001. - 30б.

XIV-XV ASRLARDA MOVAROUNNAHRDA ZIYORAT SHUKUHI

THE PRESTIGE OF PILGRIMAGE IN MAWARAUNNAHR DURING THE 14TH–15TH CENTURIES

Abduqodirov Jasurbek Jonyigit o‘g‘li
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Islom tarixi va manbashunosligi-IRCICA” kafedrasi o‘qituvchisi
abduqodirovjasurbek36@gmail.com

Tadqiqot natijasida shunisi ayon bo‘ldiki, bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan ziyoratdagi ba’zi bid’at amallarni bartaraf qilish o‘sha davr ulamolari uchun ham muhim hisoblangan. Ya’ni, ziyoratgohlarga borish haqida gap ketganda ziyorat amalini to‘g‘ri shakllarini tashkil etish dolzarb hisoblangan.

O‘sha davr ulamolari tomonidan amalga oshirilgan ziyorat amaliyotini tartibga solish ishlari haqidagi dalillarni ko‘plab manbalardan topish mumkin. Masalan, ko‘plab asarlarda ziyoratgohlarga tashrif buyurishning joizligi va to‘g‘ri xatti-harakatlar haqida batafsil tavsiyalar berilgan. Misol sifatida, XV asr oxirlarida yashagan faqih Fazlulloh ibn Ro‘zbexon (1457-1521) tomonidan yozilgan, XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr boshlari Movarounnahr tarixi haqida bayon qiluvchi “Mehmonnomayi Buxoro” asarini keltirish mumkin. Fazlulloh ibn Ro‘zbexon ziyorat amaliyoti haqida uzoq va batafsil bahs qiladi, qabrlarga ziyorat maqsadida tashrif buyurishni payg‘ambarlik an’anasi sifatida tasdiqlagan holda Markaziy Osiyodagi ziyorat urf-odatlarini bid’at va taqiqlangan amaliyotlar bilan to‘la deb ta’kidlaydi[817]. Unga ko‘ra bid’atning ba’zi misollariga quyidagilar kiradi: kishining tanasiga ziyorat joyidagi changdan surtishi, qabrni o‘pish va ziyoratgoh atrofida aylanish yokida tavof qilish[818].

XV-XVI asrlarda Movarounnahr va Xurosondagi ziyoratgohlarni (asosan mozorlar) ziyorat qilishning ishtirokchilari qatorida ayollar ham bo‘lgan, ammo o‘sha davr ulamolarining aksariyati buni ma’qul ko‘rishmagan[819]. Lekin, Temuriylar davridagi ayollar umuman olganda boshqa musulmon jamiyatlariga qaraganda ijtimoiylashuvi kuchliroq bo‘lgan. Ya’ni adabiy yig‘inlarda, marosimlarda ko‘rish mumkin edi[820].

Ziyoratgohlar bo‘yicha ko‘plab asarlarda ziyorat vafot etish haqida mulohaza yuritish va eng muhimi, qabr va oxiratda marhum/marhumaning azob-uqubatlarini yengillashtirish uchun marosimlarni o‘tkazish imkoniyati ekanligini ziyoratchiga tez-tez eslatib turilishini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, Temuriylar davridagi ziyorat amaliyotini deyarli bunday tarzdagi jarayon emas deyishimiz mumkin. Masalan, ziyoratga kelgan ziyoratchilarda ko‘tarinki hatti-harakatlar, ziyoratgohlarda sayr qilish va umumiy yengillik hissi mavjud bo‘lgan. Xususan, har kuni ziyoratgoh (mazor) dagi fuqaro va masokinga osh tarqatilib, ziyoratgoh har doim Qur’on tilovat qiluvchi odamlar bilan to‘lgan va u yerda har doim nur va yorug‘lik (ravnaq) mavjud bo‘lgan.[821] Hofiz

[817] Salikuddin, Rubina Kauser. 2018. Sufis, Saints, and Shrine: Piety in the Timurid Period, 1370-1507. Doctoral dissertation, Harvard University, Graduate School of Arts & Sciences, 55.
[818] Fazl Allah ibn Ruzbihan Khunji-Isfahani, Mihman’Namah-i Bukhara: Tarakh-i Pādishāhī-i Muḥammad Shaybānī, ed. M. Sutūdah (Tehran: Bungāh-i Tajumah va Nashr-i Kitāb, 1976), 333-4.
[819] Salikuddin, Rubina Kauser. 2018. Sufis, Saints, and Shrine: Piety in the Timurid Period, 1370-1507. Doctoral dissertation, Harvard University, Graduate School of Arts & Sciences, 59.
[820] Pricilla Soucek, “Interpreting the Ghazals of Hafiz,” RES: Anthropology and Aesthetics 43 (Spring, 2003): 130-131.
[821] Aḥmad ibn Ḥusayn ibn Alī Kātib, Tarīkh-i Jadīd-i Yazd, ed. I. Afshār (Tehran: Intisharāt-i Ibn Sīnā, 1345/1966), 158.

Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida shunday deyiladi: “Baxtiyor hazrat (Amir Temur) O‘trordan barcha zafar shiorlarli sultonlarni sarosimakorli Boboning (sulton) ketidan yubordi. O‘zi Xoja Ahmad Yassaviyning Tangri uni rahmat qilsin, nur bilan to‘la mozorlarini ziyorat qilish uchun Turkistonga qarab oftobdek yarqirab turga bayroqni ko‘tardi. U mamlakatning havosi g‘ayratli, qutli asar mavkabning g‘uboridan xushbo‘y (va) mushkli bo‘lgach, ul hazrat piri turkning[822] munavvar qabri tomon oshiqib (uni) ziyorat qildi va u jannatnishon ostonaga juda sadaqa hamda nazrlar berdi. Buyuk Amir Temur ko‘ragonning yangiliklaridan bo‘lgan mozor[823] boshidagi qozonni uch yuz qo‘y bilan to‘lg‘izib, ixlos sufrasiga qo‘ydi hamda ochlarni to‘yg‘azdi”[824].

O‘sha davr ziyorat an’analaridan keltirilgan misollarni, Markaziy Osiyo tarixida ziyoratga bag‘ishlab yozilgan ilk ziyoratnoma asar, Muin al-Fuqaroning “Tarixi Mullozoda” asarida ham ko‘rish mumkin. Muallif Buxoro ziyoratgohlariga tashrif buyurgan ziyoratchi uchun ehtimoliy marosimlarning yana bir ketma-ketligini beradi, bu esa ziyorat paytida sadaqa berishga alohida e’tibor qaratadi. Qachonki ziyoratni qasd qilgan shaxs uyini tark etganda quyidagi duoni o‘qishi kerak:

لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ وَحْدَهُ لَا شَرِيكَ لَهُ، لَهُ الْمُلْكُ وَلَهُ الْحَمْدُ، يُحْيِي وَيُمِيتُ وَهُوَ حَيٌّ لَا يَمُوتُ، بِيَدِهِ الْخَيْرُ وَهُوَ عَلَى كُلِّ شَيْءٍ قَدِيرٌ، هُوَ الْأَوَّلُ وَالْآخِرُ وَالظَّاهِرُ وَالْبَاطِنُ وَهُوَ بِكُلِّ شَيْءٍ عَلِيمٌ

“Allohdan o‘zga iloh yo‘qligiga guvohlik beraman. Allohning sherigi yo‘qdir, barcha mulk Unikidir, maqtovlar Ungadir, U tiriltiradi va o‘ldiradi, ammo O‘zi tirikdir, o‘lmaydi. Yaxshilik Uning ixtiyoridadir va U hamma narsaga qodirdir. U Avval va Oxirgidir, Zohir va Botindir. U zot har bir narsani bilguvchidir.”

Ziyoratgoh yoki qabristonga borish yo‘lida u mumkin bo‘lgan miqdorda ehson qilishi kerak bo‘ladi. Nihoyat, ziyoratchi qabr tomonga yetib kelgach, quyidagilarni o‘qishi kerak:

اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ خَيْرَ مَدْخَلِي، وَأَعُوذُ بِكَ مِنْ شَرِّهِ، رَبِّ أَدْخِلْنِي مُدْخَلَ صِدْقٍ وَأَخْرِجْنِي مُخْرَجَ صِدْقٍ وَاجْعَلْ لِي مِنْ لَدُنْكَ سُلْطَانًا نَصِيرًا، بِسْمِ اللَّهِ دَخَلْنَا وَعَلَى اللَّهِ تَوَكَّلْنَا

“Ey Allohim, men sendan kirish joyimni hayrli qilishingni so‘rayman va bunda yomonlikdan sening noming ila yomonliklardan panoh tilayman. Ey Robbim, meni kiradigan joyimga sodiqlik ila kiritib, chiqadigan joyimga sodiqlik bilan chiqargin va menga O‘z huzuringdan yordam beruvchi quvvat ato et. Alloh nomi ila kirdik va unga tavakkal qildik.”

Shundan so‘ng ziyoratchi maqbara yoki qabr joylashgan hududiga kirishi kerak.[825] Ushbu ketma-ketlik xayr-ehson qilish haqida eslatib o‘tish bilan bir qatorda, marhum/marhumaga kamroq e’tibor qaratilgan va unga maxsus salom berishni o‘z ichiga olmaydi. Aksincha, asosiy e’tibor ziyoratchiga va ushbu marosim harakati uchun Xudodan yaxshilik so‘rashga qaratilgan. Ushbu marosim tajribasida ziyoratgoh va uning avliyosi ushbu maskandagi muqaddaslik darajasini kuchaytiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi yoki J.Z. Smitning ta’biri bilan aytganda, u yer ziyoratchi o‘zining ehtiyojlarini yanada yaxshiroq eshitilishi uchun Yaratganga yanada yaqinroq his qilishi yuz beradigan joy deb qaraladi[826].

Bularning barchasi o‘sha davr musulmonlari uchun umumiy bo‘lgan marosimlar bo‘lib, ziyoratdan tashqari ularning hayotida ibodatning boshqa jihatlarida ham uchrashi mumkin edi. Ushbu marosimlarning qulayligi va umumiyligi, Temuriylar shaharlarining tabiiy landshaftida ziyoratgohlarning ko‘pligi bilan bir qatorda, o‘rta asrda Xuroson va Movarounnahr musulmonlari

[822] Xo‘ja Ahmad Yassaviy (1103-1166). Qarang: Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Sharafnomayi shohiy / Fors tilidan tarjima muallifi: S.Mirzayev, ilmiy muharrir, nashrga tayyorlovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi: akademik B.Ahmedov– Toshkent: Sharq, 1999. – B. 409.

[823] Bu yerda Amir Temur tarafidan Xoja Ahmad Yassaviyning mozoriga qurilgan muhtasham masjid haqida so‘z bormoqda. Temur Turkiston atrofidagi yerlarni shu mozorga vaqf qilib bergan edi. Qarang: O‘sha asar. – B. 409.

[824] Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Sharafnomayi shohiy / Fors tilidan tarjima muallifi: S.Mirzayev, ilmiy muharrir, nashrga tayyorlovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi: akademik B.Ahmedov– Toshkent: Sharq, 1999. – B. 311.

[825] Mū‘īn al-Fuqarā’, Tārīkh-i Mullāzāda, 12.

[826] J.Z. Smith, To Take Place, 103-104.

hayotida ziyoratning keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Ushbu omillar buni ziyorat marosimi ushbu ziyoratchilar uchun odat tusiga kirgan kunning tabiiy bir qismiga aylantirdi. Ziyoratni amalga oshirishda katta tayyorgarlik ko‘rish shart emas edi, chunki ular ziyorat uchun zarur bo‘lgan duolar va amaliyotlarning ko‘p qismini allaqachon bilishgan.[827]

* * *

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MILLIY VA DINIY URF-ODAT, AN’ANALARIDAGI UMUMIYLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

COMMONALITIES AND UNIQUENESS IN THE NATIONAL AND RELIGIOUS CUSTOMS AND TRADITIONS OF CENTRAL ASIAN PEOPLES

Xushnazarova Lobar Muxiddinovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xalqlari – o‘zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, turkman va boshqa millatlarning tarixiy shakllangan milliy va diniy urf-odatlari, ularning o‘zaro umumiy jihatlari va har bir xalq madaniyatidagi o‘ziga xos jihatlar tahlil qilinadi. Urf-odatlar va an’analar xalqlarning ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi boy madaniy meros sifatida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, urf-odat, an’ana, milliylik, diniy qadriyat, umumiylik, madaniyat, o‘ziga xoslik.

Markaziy Osiyo qadimdan sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan bo‘lib, bu hududda yashovchi xalqlar boy tarixiy, diniy va madaniy merosga ega. Har bir xalqning urf-odat va an’analari uning tarixiy taraqqiyoti, e’tiqodi, yashash tarzi va ijtimoiy tuzilmasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mintaqada islom dini asosiy e’tiqod sifatida qaror topgan bo‘lsa-da, har bir xalqning diniy urf-odatlari milliy ruh bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos madaniy hodisani vujudga keltirgan.

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining milliy va diniy urf-odatlaridagi umumiylik va o‘ziga xosliklar tarixiy-madaniy jihatdan o‘rganiladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining diniy urf-odatlarida Islom dini hal qiluvchi rol o‘ynaydi. VIII asrdan boshlab bu mintaqada islom dini keng yoyildi va asta-sekin har bir xalqning kundalik hayotiga, marosimlariga, axloqiy mezonlariga singib bordi. Natijada, ramazon hayiti, qurbon hayiti, nikoh va janoza marosimlari, bolaga ism qo‘yish, sunnat to‘yi kabi marosimlar barcha xalqlarda umumiy ko‘rinishda shakllandi.

Bundan tashqari, mintaqa xalqlarida qadimiy zardushtiylik, tengriyo‘lik kabi e’tiqodlardan ham ayrim urf-odatlar saqlanib qolgan. Masalan, **Navro‘z** bayrami islomdan avvalgi davrga borib taqaladi, biroq bugungi kunda u islomiy va milliy unsurlar uyg‘unligida nishonlanadi.

Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida quyidagi umumiy an’anaviy urf-odatlar mavjud:

1. To‘y va marosimlar: Nikoh va sunnat to‘ylari, kelin tushirish, kuyov salom, bo‘ydoq yig‘inlari ko‘pgina xalqlarda o‘xshash ko‘rinishda mavjud. Kelin oshi, kelin salom, duolar, diniy marosimlar umumiylik kasb etgan.

[827] Salikuddin, Rubina Kauser. 2018. Sufis, Saints, and Shrine: Piety in the Timurid Period, 1370-1507. Doctoral dissertation, Harvard University, Graduate School of Arts & Sciences, 78.

2. Mehmondo‘stlik: Har bir xalqda mehmon kutish, dasturxon yozish, choy marosimi katta e’tibor bilan amalga oshiriladi. Bu qadriyatlar Islomda tavsiya etilgan saxovat va bag‘rikenglik tushunchalari bilan uyg‘unlashgan.

3. Jamoaviylik ruhi: Qishloq yoki mahalla aholisi biror kishi uy qurayotgan bo‘lsa, xayriya, hashar, osh tarqatish kabi ko‘maklashish urfi mavjud.

Bu umumiyliklar diniy e’tiqod, ijtimoiy tuzum va tarixiy tajribalar birligi natijasida shakllangan.

Markaziy Osiyo xalqlarining umumiyliklaridan tashqari, har bir xalq o‘ziga xos urf-odatlari bilan ajralib turadi:

1. Qozoqlar – beshik toy, ko‘rpesh toy, at chabish, salem salom kabi an’analari bilan ajralib turadi. Ularning ko‘chmanchi turmush tarzi urf-odatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

2. Tojiklar – ko‘proq shaharlik madaniyatga ega bo‘lib, “gulgardoni”, “safedboshon” kabi marosimlari orqali estetik go‘zallikka urg‘u beriladi.

3. Qirg‘izlar – boz uyda kelin tushirish, ot ustida sovchi borish kabi an’analari bilan tanilgan.

4. O‘zbeklar – gap-so‘z boshi bilan nikoh o‘rnatish, palov to‘ylari, uyga kirishda duo qilish, kelinning yelkasiga duxoba yopish kabi urf-odatlar bilan ajralib turadi.

5. Turkmanlar – qiz uzatishda “kalta toy”, boy berish kabi marosimlarga alohida e’tibor qaratadi.

Har bir xalqning urf-odatlarida diniy e’tiqod umumiy bo‘lsa-da, tarixiy, etnografik va iqlimiy sharoitlarga ko‘ra an’analar turlicha ifodalanadi.

Bugungi globallashuv davrida urf-odat va an’analar ommaviy madaniyat ta’sirida o‘zgarishga uchramoqda. Ayni paytda, bu an’analarni saqlab qolish va yoshlarga yetkazish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Urf-odatlar:

1. yoshlar tarbiyasida milliy g‘urur va ijtimoiy mas’uliyat hissini uyg‘otadi;
2. diniy bag‘rikenglik, sabr-qanoat va mehr-oqibatni mustahkamlaydi;
3. milliy birligimiz va mintaqaviy totuvlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, madaniy turizm, xalqaro madaniyatlararo aloqalarda ham urf-odatlar muhim kommunikativ vosita hisoblanadi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixan o‘zaro yaqin, mushtarak ildizlarga ega. Ularning urf-odatlari va an’analari ko‘p jihatdan umumiy bo‘lsa-da, har bir xalqning o‘z tarixiy yo‘li, yashash sharoiti va ijtimoiy tuzilmasi o‘ziga xosliklarni vujudga keltirgan. Ana shu xilma-xillik – mintaqaning madaniy boyligidir. Shu bois, umumiylikni e’tirof etgan holda, har bir xalqning madaniy o‘ziga xosligini asrab-avaylash, uni yosh avlodga yetkazish har qachongidan ham muhimdir.

Globallashuv natijasida xalqaro madaniy almashinuvning kuchayishi, axborot texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi natijasida milliy va diniy urf-odatlar turli bosimlarga duch kelmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida an’anaviy qadriyatlardan uzoqlashish, g‘arbcha turmush tarziga taqlid qilish holatlari ko‘paymoqda.

Tahdidlar quyidagicha ko‘zga tashlanadi:

1. Urf-odatlarning tijoratlashtirilishi: ko‘plab qadriyatlar marketing vositasiga aylantirilmoqda (masalan, to‘ylar isrofgarchilikka sabab bo‘lishi).

2. Madaniyatsiz “zamonaviylik” niqobi ostida diniy va milliy marosimlar rad qilinmoqda.

3. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali begona madaniyatlar faol targ‘ib qilinmoqda, bu esa milliy o‘zlikni yo‘qotishga olib kelishi mumkin.

Shunga qaramay, bu holatlarda urf-odatlarning jamiyatda ijobiy resurs sifatida ishlatilishi imkoniyati mavjud. Masalan:

1. Urf-odatlar orqali yoshlar ongiga vatanparvarlik, oila qadriyatlari, bag‘rikenglik, odoblilik, sabr-toqat, o‘zaro hurmat kabi fazilatlar singdirilishi mumkin.

2. An’anaviy marosimlar xalqaro ko‘rgazmalar, festivallar orqali “madaniy diplomatiya” vositasi sifatida ishlatilmoqda (masalan, Navro‘zni YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilishi).

3. Urf-odatlar orqali mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish mumkin, chunki umumiy madaniyatlar xalqlar o‘rtasida ishonch va do‘stlikni mustahkamlaydi.

Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlari va diniy an’analari nafaqat madaniy meros, balki mintaqaviy barqarorlik, totuvlik va ma’naviy yuksalish uchun muhim omildir. Shunga ko‘ra quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Tadqiqotlar chuqurlashtirilsin: Har bir xalqning urf-odatlari bo‘yicha etnografik, sotsiologik va antropologik tadqiqotlar ilmiy asosda olib borilishi zarur.
2. Ta’lim tizimiga kiritilsin: Milliy va diniy an’analar asosida tuzilgan madaniyatshunoslik, tarix va ma’naviyat fanlarida urf-odatlar mazmunli tarzda yoritilishi lozim.
3. Digital arxivlar yaratilsin: Yo‘qolib borayotgan marosim va urf-odatlarni saqlash maqsadida audio, video va matnli hujjatlar shaklida raqamli platformalar yaratish dolzarbdir.
4. Xalqaro madaniy muloqot mustahkamlasin: Umumiy madaniyat asosida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida festival, ilmiy konferensiyalar va yoshlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Markaziy Osiyo xalqlari asrlar davomida bir hududda yashab kelgani bois ularning urf-odat va an’analari o‘zaro chambarchas bog‘langan. Diniy e’tiqod – ayniqsa, islom dini – bu xalq madaniyatining asosiy mezoniga aylangan bo‘lsa, milliy urf-odatlar bu e’tiqodni har bir xalq mentalitetiga moslashtirgan. Bugungi kunda bu boy merosni asrab-avaylash, uni zamonaviy sharoitda uyg‘un tarzda rivojlantirish – nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning ham kalitidir. Chunki milliy madaniyatini qadrlagan xalq – o‘zligini yo‘qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аҳмедов А. – *Марказий Осиё халқларининг урф-одатлари тарихи*. – Тошкент: Фан, 2018.
2. Бартольд В.В. – *Ислам и культура народов Средней Азии*. – Москва, 1991.
3. Муҳаммадиев А. – *Ўзбек халқининг миллий анъаналари ва урф-одатлари*. – Тошкент: Маънавият, 2015.
4. Атабаев М. – *Тожик халқи урф-одатлари тарихи*. – Душанбе, 2013.
5. UNESCO – *Intangible Cultural Heritage of Central Asia*. – Paris, 2020.

* * *

TARIXGA OID TERMINLARDA OMONIMIYANING IFODALANISHI

THE REPRESENTATION OF HOMONYMY IN HISTORICAL TERMINOLOGY

Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: xosiyatabduqahhorova655@gmail.com

Tilshunoslikda omonimiya hodisasi yuzasidan ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, J.Jileron, A.I.Smirnitskiy, A.A.Potebnya, I.V.Arnold, R.A.Budagov, L.A.Bulaxovskiy, V.V.Broun, V.V.Vinogradov, O.M.Jilyayeva, O.S.Axmanova, A.A.Reformatskiy, N.A.Abdurahmonov, M.Mirtojiyev, I.Qo‘chqortoyev, A.Hojiyev kabi olimlar ko‘plab tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Bu masalada V.P.Danilenko quyidagicha fikrni ilgari suradi: “terminologiyaga nisbatan omonimiya faqat sistemalararo hodisa sifatida xarakterlanadi. Yo ular turli termosistemalarning

atamalari, yoki ularning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan leksik-semantik usulda yasalgan umumiy adabiy tildagi so‘zlarga nisbatan omonim bo‘lib kelgan so‘zlardir” [1; 245].

A.A.Reformatskiy tomonidan fanlararo terminologik omonimiya o‘rganilgan bo‘lib, u bir termin muayyan tilning turli termosistemalariga mansub bo‘lishi mumkin va bu esa fanlararo terminologik omonimiyani tashkil etadi. [2; 103, 125]

Ilmiy manbalarda, omonimlar shaklan teng, ya’ni talaffuzi va yozilishi bir xil bo‘lgan alohida leksik birlik sifatida tan olinadi [3; 40]. Masalan, omonimlarning yuzaga kelishini quyidagi sabab va omillar bilan izohlash mumkin:

1) tilda azaldan mavjud bo‘lgan ayrim so‘zlarning shakllari tasodifan teng bo‘lib qoladi: baqa – qurbaqa, baqa – suv tegirmoni parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qismi;

2) bir ma’noli so‘z leksik ma’noning ko‘chishi oqibatida ko‘p ma’noli so‘zga aylanadi, keyinroq bosh ma’no va hosila ma’no o‘rtasidagi bog‘lanish unutilib, bir so‘z negizida ikki boshqa-boshqa leksema paydo bo‘ladi: kun – quyosh; kun sutka (kun chiqqandan yana kun chiqqungacha bo‘lgan vaqt);

3) boshqa tillardan o‘zlashtirilgan ayrim leksemalar o‘zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng bo‘lib qoladi: toy (fors-tojik) – katta to‘p qilib taxlab yoki bosib bog‘langan mol va shu tarzdagi mol o‘lchovi;

4) boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng bo‘lgan so‘zlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi: surat (arabcha) – rasm, surat(arabcha) – urf-odat;

5) leksemalarning yasalishi ham ba’zan omonimlarni keltirib chiqaradi: qo‘noq – tariq, qo‘noq (qo‘n+oq) – mehmon kabi [4; 41].

Omonimiya manbalarini o‘rganish natijasiga ko‘ra, shuni ta’kidlash joizki, u polisemiya natijasida turli yo‘llar bilan geografik terminlarda ham yuzaga kelgan. [5; 217]. Terminlarda omonimiyaning shakllanishi polisemantik hodisa bilan aloqadordir. Bu masalada I.Islomov *transterminlashuv* tushunchasiga to‘xtalgan. Biror sohaning boshqa bir sohaga butunlay ko‘chishi va sohalararo omonimiyaga aylanishi – *transterminlashuv* sanaladi. Olim geografik omonim terminlarning tadqiqi bilan shug‘ullanar ekan, ularni ikki guruhga bo‘ladi. Jumladan, tarixga oid terminlar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Bir so‘z turkumi doirasidagi omonim geografik terminlar;
2. Turli turkum doirasidagi omonim geografik terminlar.

Bunda bir va turli so‘z turkumi doirasidagi misollarni keltirish asosida tarixga oid terminlarga xos omonimiya jarayoni va uning yuzaga kelish sabablari ilmiy asoslangan. Ushbu tadqiqotda keltirilgan misollar ichida tarix oid aloqador omonimik birliklar ham mavjud:

Terminshunos olimlar terminologiyadagi omonimlik umumadabiy omonimlikdan quyidagi jihatdan farqlanishini aytadilar:

– terminologiyadagi omonimlik omonimlarning bir ko‘rinishidan, ya’ni so‘zning ma’no taraqqiyoti, uning ko‘p ma’noliligi natijasi sifatida yuzaga kelgan omonimlardan farqlanadi;

– terminologiyaga nisbatan omonimlik sistemalararo hodisa sifatida xarakterlanishi mumkin: ular yo turli terminologik sistemalarga oid terminlar bo‘ladi yoki leksik-semantik usulda hosil bo‘lgan, umumadabiy tildagi o‘zlariga asos bo‘lgan so‘zlarga nisbatan omonimga aylangan terminlar bo‘ladi. [6; 72].

Tadqiqotimizda tarixga oid terminlar ichida ko‘p bo‘lmasa-da, omonimlik hodisasi kuzatiladi. Jumladan:

DEVON I [*f.* – she’rlar to‘plami]. Muayyan bir shoirning radif va qofiyalarga rioya etgan holda alifbo sirasi bilan tartib etilgan she’rlarining (dostonlardan tashqari) to‘liq to‘plami. Navoiy devoni. Nodira devoni. Haqiqatan ham Navoiy forsiy devoni bilan Jomiydan so‘ng fors-tojik adabiyotini yangi bir bosqichga ko‘tardi. “UTA”. *Xufton namozidan so‘ng…poychiroq yoniga o‘tirib, Fuzuliy devonini varaqlar edi.* A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.

DEVON II [*f.* – davlat idorasi; sud mahkamasi] *tar.* **1** O‘tmishda Sharq musulmon mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyo xonliklarida amal qilgan oliy davlat amaldorlarining majlisi. Topdingiz, sohibi devon bugun menga nohaq ozor berdi. M. Osim, Ibn Sino qissasi. *Devon qurmoq. Oliy davlat amaldorlari majlisini o‘tkazmoq.*

2 Davlatning bosh idorasi va ayrim vazirliklarning mahkamalari, shunday mahkama binosi. *Ikkisi birga devonga kirdilar. Ishga ilgariroq kelgan mirzolar yozuv bilan mashg‘ul edilar.* A. Qodiriy, O‘tgan kunlar. *Kunduzlari O‘rda devonini boshqarish, ertalab va kechqurun o‘z uyida xususiy kishilarni qabul qilish, albatta, Anvar uchun og‘ir edi.* A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

3 Devonda ishlovchi ba’zi mansabdorlarning unvoni. *Xudoybergan devonning uyi ham Patrakda edi.* S. Siyoyev, Yorug‘lik. ..ilonning yog‘ini yalagan Madraim devon oldida jinka (pakana) ip esholmaydi. J. Sharipov, Xorazm. Mirzoyi devon Davlat oliy mahkamasini idora etuvchi amaldor, bosh mirzo.

4 Hozirda O‘zbekistonda Prezident tomonidan tuzilib rahbarlik qilinadigan, Prezidentning samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydigan ijro etuvchi hokimiyat idorasi.

DEVON III [*f.* – gilam to‘shalgan supa] s. t. Divan. *Devonda yonboshlab yotgan Abbosxon Saidiyning hurmatiga qimirlab qo‘ydi.* A. Qahhor, Sarob.

VAQF I [a. – xayriya maqsadlarida vasiyat qilingan mulk, vaqfiy mulk] *tar.* **1** Mulkdor shaxslar yoki davlat tomonidan diniy muassasa ixtiyoriga daromadidan foydalanib turish, ammo o‘zini sotmaslik sharti bilan o‘tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mulk (yer-suv, maktab, shifoxona, uy-joy, do‘kon va sh. k). *Madrasai oliyaning uch yuz oltmishta vaqf do‘konidan ijara haqiga oltinlar oqib turardi. K. Yashin, Hamza. Valixon madrasada diniy ta’lim olib, mudarris bo‘lib chiqqanda, otasi uni son-sanoqsiz vaqf mulklariga ega qilishni niyat qilgandi. Sh. Toshmatov, Erk qushi.*

VAQF II [a.— tik turish, to‘xtalish] **1** So‘zlash paytida, Qur’on suralarini o‘qiyotganda (har bir oyat oxirida) to‘xtash.

2 Musiqa asarlarini ijro etish paytidagi tinim, kichik pauza.

Sharhlarga e’tibor qaratilsa, yuqoridagi tarixga oid omonim terminlarning izohidan kelib chiqib, ot, fe’l va boshqa so‘z turkumlari doirasida omonimlik hosil qilishini guvohi bo‘ldik. Demak omonimlar bir so‘z turkumi doirasidagi omonimlik va turli so‘z turkumi doirasidagi omonimlikni hosil qiladi.

Bundan tashqari O‘TILdagi tarixga oid terminlarda umumiste’mol va boshqa soha terminlari omonimiya hodisasi kuzatiladi. Xususan, *Bolish I* (tanga pul) – *Bolish II* (yostiq ma’nosida), Daha I (qishloq) – *Daha II* (harbiy bo‘linmaning nomi) – *Daha III* (Ipak qurtining uyquga kirish pallasi), *Saroy I (*yirik qabilalar uyushmasi*)*– *Saroy II* (uy, boshpana; qasr; karvonsaroy; yopiq bozor), *Amin I* (halol, ishonchli; vakil qilingan; nazoratchi) – *Amin II* (O‘rta Osiyo xonliklarida daha boshlig‘I yoki qishloq oqsoqoli), *Baqir I* (qizil mis) – *Baqir II (zarb qilingan chaqa pul) – Baqir III* (paqir, chelak) kabi. Sohalar orasidagi omonimiya turli soha doirasida bo‘lganligi sababli jiddiy muammoni yuzaga keltirmaydi. Omonimlarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga qo‘llash, ma’noni aniq ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания / В.П.Даниленко. – М.: Наука, 1977. – 245 с.

2. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы / А.А.Реформатский // Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1968. – С. 103-125.

3. Mamatqulova R. Ijtimoiy sohaga oid omonim terminlarning izohli lug‘atdagi talqini. – Toshkent: 2008. – B. 40.

4. Mamatqulova R. Ijtimoiy sohaga oid omonim terminlarning izohli lug‘atdagi talqini. B. 41. http://www.newjournal.org/

5. Исломов И.Х. Ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талқини: Филол. фан. докт. … дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 217.
6. Даниленко В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977. – С 72.

* * *

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI ILMIY-MA'NAVIY MEROSINING BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDAGI BEQIYOS RO'LI

THE INVALUABLE ROLE OF THE SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE OF CENTRAL ASIAN THINKERS IN SHAPING A WELL-ROUNDED GENERATION

Pulatova Shaxnoza Maxmudjanovna
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Mumtoz sharq tillari fakulteti, Filalogiya va tillarni o'qitish (arab tili) 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Matibayeva Raziya
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi «Arab tili va adabiyoti al-Azhar» kafedrasi prof. v.b., t.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, shuningdek, mutafakkirlarning ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullarinining bugungi kundagi ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, odob, barkamol avlod, insonparvarlik, yosh avlod, ma'anivma'rifiy meros, falsafiy qarashlar, ezgu g'oyalar.

Hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri o'z fikri, dunyokarashi, zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo'lgan yangi avlod tarbiyasidir. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanok yangi tarixiy sharoitlarda o'zgarib borayotgan jamiyatga munosib har tomonlama yetuk va barkamol yoshlarni tarbiyalash kun tartibidagi dolzarb muammolardan biri sifatida belgilandi. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaxo merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga aloxida e'tibor karatishimiz kerak [1]. Istiqlol yillarida Vatanimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarida o'zlikni anglash, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviy hayotni yuksaltirishda hukumatimiz tomonidan uzoqni mo'ljallab ishlab chiqilgan maxsus dasturlar bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buyuk ajdodlarimizning hayoti va bebaho me'rosini o'rganish, qadamjolarni obod etish va asrab-avaylash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. O'tmish tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimda Turon, o'rta asrlarda Turkiston, Movarounnahr deb yuritilgan bizning zamin azaldan svilizatsiya markazlaridan biri bo'lgan. Ayniqsa, 9-12 asrlardagi madaniy yuksalish Sharq uyg'onish davri – Sharq renessansi

sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. O‘rta asrlarda Sharq ilm-fani rivojida xalifa Ma’mun ibn Xorun ar-Rashid zamonida (813-833) Bag‘dodda tashkil etilgan “Baytul hikma” alohida o‘rin tutgan. “Baytul hikma” me’rosini o‘rganganda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (786-850) nomi birinchilar qatorida tilga olinadi. Xalifalik akademiyasining mudiri bo‘lgan al-Xorazmiy o‘nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini birinchilardan bo‘lib asoslab berdi va amaliyotga tatbiq etdi. Bu esa matematika va astranomiya fanlari rivojida keskin burilish yasadi.[3] Bag‘dod akademiyasining yana bir Movarounnahrlik namoyondasi Ahmad Farg‘oniy (797-865)o‘zining “Astranomiya asoslari”deb nomlangan fundamental asrada olamning tuzilishi, yerning o‘lchovi haqidagi dastlabki ma’lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko‘rinishiga ega ekanligi xususidagi dalillari keyinchalik buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb,Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.Yillar o‘tishi nilan yana ilm-fan va madaniyat o‘chog‘i Bag‘doddan Movarounnahrga ko‘chdi.1004-yilda xorazmshoh Ali ibn Ma’mun tomonidan Gurganchda akademiya tashkil etiladi. Xorazm Ma’mun akademiyasi” ning asosini Abu Nasr ibn Iroq (10 a-1034), Abdulhayr ibn Hammor (991-1048),Abu Sahl Masihiy (970-1011), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) kabi allomalar tashkil etishgan Ma’mun akademiyasida to‘plangan olimlarning to‘liq ro‘yxati bizgacha yetib kelmagan. Lekin tarxichi Abu Mansur as-Salibiy (961-1038) ning yozishicha, Gurganchda to‘plangan faqat arabiynavis adiblarning o‘zi 200 ga yaqin bo‘lgan. Yuqorida biz tilga olgan har bir mutafakkirning qoldirgan ilmiy me’rosi o‘sib kelayotgan yosh avlodning kamol topishi uchun munosib o‘rin egallaydi. Mutafakkirlarimiz bola tarbiyasi va uning kamoloti to‘g‘risida o‘z asarlarida to‘xtalib, yoshlarni odob-axloqi, jismoniy barkamolligi, aqlan yetuk, mehnatsevarligi va vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelgan. Xususan, bolalarni mehnatga tayyorlash va mehnatsevarlik ko‘nikma va malakalarini shakllantirib, barcha tarbiya shahobchalarini tarkib toptirib borishning muhim omili ekanligi ta’kidlab kelingan.[2] Chunki mehnat qilgan kishi o‘zgalar mehnatini qadrlay oladi va to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi deb hisoblashgan. Bundan tashqari Markaziy Osiyoning eng ko‘zga ko‘ringan mutafakkiri Abu Nasr Farobiy ham ijodiy faoliyatida barkamol avlod tarbiyasi uchun alohida me’ros qoldirgan. Farobiy jamiyatda yashayotgan har bir kishini yoshligidan boshlab biror kasbni o‘rganish uchun harakat qilishi va kelajakda shu kasb orqali jamiyatga foyda keltiri kerak,deb biladi. Har bir kasbni egallash jarayonida muayyan harakatlar, takrorlash, mashq qilish yo‘li bilan ko‘zlangan maqsadga erishish mumkinligini aytib o‘tgan. Hattoki, o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida “Axloqiy fazilatlar va razilliklar,axloqiy harakatlarni, ishlarning bir necha takrorlanishida va uzoq davom etish jarayonida vujudga keladi va mustahkamlanadi. Agar qilinayotgan ish xayrli bo‘lsa, undan fazilat kelib chiqadi, agar yomon bo‘lsa undan razillik kelib chiqadi”,- deb ta’kidlagan.[4] Abu Nasr Farobiy bolalarni yoshligidan boshlab mehnat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hamda o‘ziga yoqqan ishiga mashg‘ul bo‘lib asta-sekin o‘zi qiziqqan biron bir kasbni egallashi zarurligi hamda barcha hunarlarni bir to‘la egallab bo‘lmasligini ofodalab,shunday deydi: “Har bir kishiga biriktirilgan ma’lum bir ish bo‘lishi kerak,toki u kishi o‘ziga biriktirilgan ishni kechiktirmasdan o‘z vaqtida bajarsin”. Bizga ma’lumki, ma’naviy-axloqiy barkamol avlodni tarbiyalash,ta’lim berish xech qachon bir vaqtning o‘zida yuzaga kelmaydi. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zarurat natijasida vujudga keladi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, mutafakkirlarimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Uzoq va boy tarixga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo xalqlari o‘zining ta’limtarbiyaga oid boy me’rosini yaratib, takomillashtirib yoshlarni insonparvarlik, mehnatsevarlik va umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Bu fikrlarimizga aynan xos bo‘lgan buyuk mutafakkir olim Burxoniddiy Marg‘inoniydir. Burxoniddiy Marg‘inoniyning axloqiyhuquqiy tarbiyaga oid qarashlarida iymon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g‘oyalari bugungi kundagi barkamol avlod uchun har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat

qilgan. Shu jihatdan qaraganda islom ta'limotining yirik namoyondasi Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qoldirgan ko'plab asarlarida, jumlada, "Al-jome as-sahih" kitobida yoshlarni insonparvarlik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o'rin egallaydi. Uning ijodiy faoliyatida va qoldirgan ilmiy me'roslarida ta'lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ularni to'g'ri foydalanish – ta'lim jarayonida barkamol avlodga qo'llash o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish ularning ijodi va ta'lim- tarbiyaga oid qarashlarni pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari mutafakkir-olimlarning ilmiy me'rosi haqiqatdan ham olamshumul. Bu jumlamizga misol qilib oladigan bo'lsak, arab tili grammatikasining asoschisi sifatida tan olingan Mahmud Zamaxshariy (1075- 1144) tarixda birinchi bo'lib ko'p tilli lug'at- arabcha-forscha-turkiy lug'atni tuzgan edi. Bundan tashqari biz yuqorida ta'kidlagan buyuk mutafakkir olim Abu Nasr Farobiy (873-950) jahon tarixida birinchi bo'lib nota yaratgan. U ixtiro qilgan cholg'u asbobi – qonun hamon sozandalarimiz qo'lidan tushmaydi. Beruniy zamondoshi, Foroblik Javhariy (940-1008) o'zi yasagan qanotlar bilan uchish mumkinligini Leonardda Vinchidan 500 yil odin tajribada sinab ko'rgan. Yuqorida keltirilgan ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etgadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasida keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sharqdagi uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Rayhon Beruniylar o'zlarining ta'limiy qarashlarida birinchi o'ringa inson shaxsini qo'yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zaryr deb hisoblaydilar. Aqliy ta'limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga matematika, astranomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmiy fanlarni kiritadilar. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Nega aynan Movarounnahrdan chiqqan mutafakkirlar Bag'dod Akademiyasida yuksak sharaf va mavqega sazovor bo'lganlar? Nega butun bir 11 asrni g'arb olimlari "Beruniy asri" deya e'tirof etganlar? Nega dunyoning nurli nuqtalaridamasalan, Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug'bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg'oniy kabi vatandoshlarimizga haykallar o'rnatilgan? Kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktab, ma'daniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak.

Foyalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh .Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr

Abdulla Avloniy. Tanlanga asarlar.2-jild. "Turkiy guliston yoxud axloq", - T,;Ma'naviyat, 2006.

Alixonto'ra Sog'uniy. Baytul-hikma va uning ilmiy-ma'rifiy merosi**.** Toshkent: Fan, 2018.

Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.

* * *

MAHALLIY URF-ODATLARNING ISLOMIY QADRIYATLAR BILAN SINTEZI: TO‘Y MAROSIMLARI VA NIKOH UDUMLARI

THE SYNTHESIS OF LOCAL CUSTOMS AND ISLAMIC VALUES: WEDDING CEREMONIES AND MARRIAGE TRADITIONS

Muxlisa Ergashova
Imom Termiziy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi
Email: ergashovamuhlisa97@gmail.com

Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy-madaniy hayoti qadimdan boy urf-odatlar va diniy qarashlar sinteziga asoslangan. Islom dini VII asrda mintaqaga kirib kelgach, qadimiy turkiy va eroniy madaniyat qatlamlari bilan uyg‘unlashdi. Ayniqsa, to‘y va nikoh marosimlarida mahalliy udumlarning islomiy qadriyatlar bilan qo‘shilib ketishi jamiyat hayotida muhim o‘rin egalladi. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlik, oila institutining mustahkamlanishi va milliy-madaniy xotiraning saqlanishiga xizmat qildi[828].

Islomdan avval Markaziy Osiyo xalqlarida nikoh va to‘y marosimlari ko‘plab urf-odatlarga asoslangan edi. Jumladan, qalin berish, qiz uzatishda elchilar yuborish, kuyov tomonidan sovg‘a-salomlar taqdim etish, keng jamoaviy ziyofat uyushtirish shular jumlasidandir[829].

Islom dini kirib kelgach, ushbu odatlar Qur’on va sunnat tamoyillari bilan uyg‘unlashdi. Qur’onda nikohning muqaddasligi va maqsadi quyidagicha izohlanadi: “Uning belgilari jumlasidan sizlarga o‘zingizdan juftlar yaratib qo‘ydi, toki ulardan osoyishtalik topasizlar va orangizda mehr-muhabbat hosil qildi”[830].

Shu tariqa qadimiy udumlar islomiy nikoh huquqlari – ijab va qabul, guvohlar ishtiroki hamda mahr berish bilan qo‘shilib, yangi marosim shaklini oldi[831].

Islomiy qadriyatlarning to‘y marosimlariga ta’siri ikki yo‘nalishda ko‘rinadi:

Huquqiy jihatdan – nikohning shar’iy shartlarini ta’minlash: kelin va kuyovning roziligi, guvohlarning ishtiroki, mahrning belgilanishi. Bu jihatlar fiqhiy manbalarda, jumladan, Burhoniddin al-Marg‘inoniy asarida batafsil sharhlangan[832].

Madaniy jihatdan – to‘ylarda Qur’on tilovati, duolar o‘qilishi, imom tomonidan nikohni o‘qitish odat tusiga kirdi. Shu bilan birga, qadimiy an’analar – sep tayyorlash, kuyov tomonidan to‘yona berish, qo‘shnilar va qarindoshlar ishtirokida keng ziyofat uyushtirish saqlanib qoldi[833].

Masalan, qadimda mavjud bo‘lgan “qalin” to‘lash odati islomda “mahr”ga aylantirildi va shar’iy majburiyat sifatida mustahkamlandi[834].

Nikoh marosimida islomiy huquqiy talablar bilan milliy odatlar uyg‘unlashib ketganini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

- Ijab va qabul – kelin va kuyovning roziligi ochiq aytilishi. Bu qadimiy “elchi yuborish” udumi bilan birgalikda qo‘llanilgan.

[828] Saidov A. *Islom huquqi asoslari.* Toshkent, 2004. 42-b.
[829] Abdurahmonov A. *O‘zbek xalqining urf-odatlari va marosimlari.* Toshkent, 1998. 115-b.
[830] Qur’oni karim. Rum surasi 21-oyat.
[831] Abu Hanifa. *al-Fiqh al-Akbar.* Qohira, 1897. 213-b.
[832] Burhoniddin al-Marghinoniy. *al-Hidoya fi sharh Bidayat al-Mubtadi.* Qohira, 1906. 98-b.
[833] Hojiahmedov A. *Islom va milliy an’analar sintezi.* Samarqand, 2015. 177-b.
[834] Qur’oni karim. Niso, 4-oyat.

- Guvohlar – fiqhda majburiy bo‘lib, mahalliy marosimlarda oqsoqollarning ishtiroki bilan uyg‘unlashgan[835].
- Mahr – qadimiy moddiy sovg‘a berish odati diniy asos bilan mustahkamlangan.
- To‘y ziyofati (valima) – hadisda sunnat sifatida targ‘ib qilingan. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) “Valima qiling, hatto bir qo‘y bilan bo‘lsa ham” (Imom Buxoriy, Sahih) deb marhamat qilgan[836].

Shunday qilib, diniy va milliy udumlar bir-birini inkor etmay, balki bir-birini boyitgan.

Bugungi kunda ham Markaziy Osiyo xalqlarida nikoh va to‘y marosimlari diniy va milliy udumlarning uyg‘un shaklida o‘tkazilmoqda. Masjidda nikoh o‘qilishi, Qur’on oyatlari tilovati va duolar qilinishi bilan bir qatorda, milliy odatlar – sep ko‘rsatish, sovg‘a-salom almashish, kuyovning to‘yona berishi davom etmoqda[837].

Shu bilan birga, zamonaviy davrda davlat tomonidan to‘y va marosimlarni ixchamlashtirish, isrofgarchilikni kamaytirish bo‘yicha qabul qilinayotgan qarorlar ham islomiy qadriyatlarning asosiy talabi – me’yoriylik va tejamkorlik bilan uyg‘unlashmoqda[838].

Mahalliy urf-odatlarning islomiy qadriyatlar bilan sintezi Markaziy Osiyo xalqlarining oila va jamiyat hayotida chuqur iz qoldirgan. To‘y va nikoh marosimlarida qadimiy turkiy va eroniy udumlar Qur’on va hadisda belgilangan diniy tamoyillar bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos milliy-diniy marosim tizimini shakllantirgan. Bu sintez jarayoni nafaqat madaniy merosni saqlash, balki islomiy qadriyatlarni mustahkamlash hamda jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Mahalliy urf-odatlarning islomiy qadriyatlar bilan sintezi Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan jarayondir. Nikoh va to‘y marosimlarida kuzatiladigan qadimiy an’analar va shar’iy talablardagi uyg‘unlashuv inson hayotining eng muhim bosqichi – oila qurish jarayonini nafaqat diniy, balki ma’naviy va ijtimoiy jihatdan ham mustahkamlagan. Islomning nikohga oid asosiy talablari – ijab va qabul, guvohlarning ishtiroki, mahrning belgilanishi kabi shartlar mahalliy turkiy va eroniy an’analar bilan qo‘shilib, o‘ziga xos marosim tizimini shakllantirdi.

Mazkur sintezning asosiy xususiyati shundaki, u milliy qadriyatlarni inkor etmagan, balki ularni yangi mazmun bilan boyitgan. Masalan, qadimiy qalin berish odati islomiy mahrga aylangan, oqsoqollar va elchilar ishtiroki esa fiqhiy guvohlik talabi bilan uyg‘unlashgan. Shu tariqa diniy va milliy an’analar bir-birini to‘ldirib, oila institutining barqarorligi hamda jamiyatning ma’naviy birligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Bugungi kunda ham mazkur jarayon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. To‘y marosimlarida Qur’on tilovati va diniy duolar milliy odatlar – sep tayyorlash, sovg‘a-salom almashish, keng jamoaviy ziyofatlar bilan yonma-yon amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan to‘y va marosimlarni ixchamlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar ham Qur’oni karim va hadisda targ‘ib qilingan me’yoriylik, isrofdan tiyilish va tejamkorlik qadriyatlari bilan uyg‘unlashmoqda.

Umuman olganda, mahalliy urf-odatlar va islomiy qadriyatlar o‘rtasidagi sintez madaniy merosning uzviyligini saqlab qolishga, diniy qadriyatlarni hayotga chuqur singdirishga, shuningdek, milliy o‘zlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va diniy an’analarining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan mustahkam ijtimoiy-madaniy tizimdir.

* * *

[835] Abu Hanifa. *al-Fiqh al-Akbar.* Qohira, 1897. 229-b.
[836] Imom al-Buxoriy. *Sahih al-Buxoriy.* Bayrut, 1992. 341-b.
[837] Karimov I. A. *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch.* Toshkent, 2008. 54-b.
[838] Normurodova M. *Markaziy Osiyo xalqlari marosim madaniyati.* Toshkent, 2019. 127-b.

DINIY QADRIYATLAR VA ILMIY TARAQQIYOT: YOSHLAR TARBIYASIDAGI MUHIM JIHATLAR

RELIGIOUS VALUES AND SCIENTIFIC PROGRESS: KEY ASPECTS IN THE EDUCATION OF YOUTH

Olimova Sarvaraxon Sobitxon qizi
Qo‘qon unversiteti
Maxsus pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi
E-mail: sarvaraolimova7@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada diniy qadriyatlar va ilmiy taraqqiyotning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Islom dinining ilmga bo‘lgan yondashuvi Qur’oni karim oyatlari va sahih hadislarga tayangan holda ochib beriladi. Tarixiy manbalar asosida Markaziy Osiyo allomalari – Imom al-Buxoriy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi mutafakkirlarning ilm-fanga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Maqolada diniy qadriyatlar yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishida muhim rol o‘ynashi, ilmiy taraqqiyot esa ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishi ta’kidlanadi. Islom dini ilmga chorlovchi din ekanligi, diniy va dunyoviy ilmlar bir-birini to‘ldirishi ilmiy va diniy manbalar asosida asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada Qur’on va hadislarda keltirilgan ilmga oid oyatlar va Rasulullоh sallolohu alayhi vassalamning hadislari orqali yoshlarni ilmga rag‘batlantirish g‘oyasi ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar. Islom dini, ilmiy taraqqiyot, yoshlar tarbiyasi, Qur’on, hadis, Markaziy Osiyo allomalari, ilm-ma’rifat, zamonaviy fan, ma’naviy tarbiya.

Abstract. This article analyzes the role of religious values and scientific progress in the education of young people. The approach of the Islamic religion to science is revealed based on the verses of the Holy Quran and authentic hadiths. Based on historical sources, the contribution of Central Asian scholars - such thinkers as Imam al-Bukhari, Khorezm, Beruni, Ibn Sina - to science is highlighted. The article emphasizes that religious values play an important role in the spiritual and moral development of young people, and scientific progress equips them with modern knowledge. The fact that Islam is a religion that calls for knowledge, and that religious and secular sciences complement each other, is substantiated on the basis of scientific and religious sources. The article also puts forward the idea of encouraging young people to knowledge through the verses about science in the Quran and hadiths and the hadiths of the Prophet Muhammad (peace and blessings of Allah be upon him).

Key words. Islam, scientific progress, youth education, Quran, hadith, Central Asian scholars, science and enlightenment, modern science, spiritual education.

Аннотация. В данной статье анализируется роль религиозных ценностей и научного прогресса в воспитании молодёжи. Подход исламской религии к науке раскрывается на основе аятов Священного Корана и достоверных хадисов. На основе исторических источников освещается вклад в науку учёных Центральной Азии - таких мыслителей, как Имам аль-Бухари, Хорезм, Беруни, Ибн Сина. В статье подчёркивается, что религиозные ценности играют важную роль в духовном и нравственном развитии молодёжи, а научный прогресс вооружает её современными знаниями. На основе научных и религиозных источников обосновывается тот факт, что ислам - это религия, призывающая к знаниям, и что религиозные и светские науки дополняют друг друга. В статье также выдвигается идея побуждения молодёжи к

знаниям через аяты о науке в Коране и хадисы и хадисы Пророка Мухаммада (мир ему и благословение Аллаха).

Ключевые слова. Ислам, научный прогресс, воспитание молодежи, Коран, хадисы, ученые Центральной Азии, наука и просвещение, современная наука, духовное образование.

Kirish.

Hozirgi davr yoshlarini har tomonlama rivojlantirish va yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda diniy qadriyatlar va ilmiy taraqqiyotning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Islom dini paydo bo‘lgan ilk davrlardanoq ilm olish va uni tarqatishga alohida e’tibor qaratgan. Qur’oni karimda va hadislarda ilmga undovchi oyat va rivoyatlar ko‘pligi buning yaqol misolidir. Ilimning sharafi, ulug‘ligiga shubxa yo‘q. Chunki u insoniylikka xos xususiyatdir. Inson ko‘p jihatlalarda boshqa mavjudotlar bilan sherikdir, lekin ilmda sherik emas. Vaholanki, Alloh taollo Odam alayhissalomning fazlini ilm bilan ko‘rsatdi. Shuning uchun ham farishtalarga xazrati Odam alayhissalomga sajda qilishni buyurdi[839]. Ayniqsa, islom sivilizatsiyasi shakllanib borgan sari, ilm-fan, ta’lim-tarbiya sohasi uning ajralmas va asosiy poydevorlaridan biriga aylangan. Bu holat butun musulmon dunyosida, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o‘zining yorqin ifodasini topdi. Tarixiy manbalar shundan dalolat beradiki, Markaziy Osiyo hududi — Buxoro, Samarqand, Termiz, Xorazm kabi shaharlarda ilm-fan ravnaqi uchun zarur bo‘lgan muhit yaratilgan. Bu yerda yuzlab madrasalar, kutubxonalar faoliyat yuritgan, ulamolar yetishib chiqqan. Ularning ilmiy ishlari nafaqat musulmon dunyosiga, balki butun bashariyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Islom sivilizatsiyasi Markaziy Osiyoda faqatgina diniy bilimlar emas, balki tabiiy fanlar, tibbiyot, falsafa, matematika, astronomiya kabi ko‘plab sohalarning rivojiga ta’sir ko‘rsatgan. Diniy qadriyatlar, asosan, insonning ma’naviy rivojlanishi, axloqiy tarbiyasi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga asos bo‘lsa, ilmiy taraqqiyot ularga zamonaviy bilimlarni egallash va hayotda muvaffaqiyatli bo‘lish imkoniyatini beradi. Yurtimiz yoshlarini yetuk insonlar qilish kelajakda ham yurtimizdan Imom Al Buxoriy, Xorazimiy, Beruniy, Imom At Termiziy va shu kabi ko‘plab allomalar yetishib chiqishi uchun bugungi kunda diniy bilimlar va taraqqiy etgan sohalarni birgalikda o‘rganish hamda ular asosida kelajakda yanada ko‘plab yurtimiz faxr bilan tilga oladigan shaxslarni yetishtirish bu millatning asosiy maqsadidir. Umuman olganda dunyodagi barcha dinlar yaxshilik, ilm, marifat va ezgu amallarni targ‘ib etadi. Bulardan ayni bizning diyorimizda keng qamrovga ega bo‘lgan Islom dini ilm olishga va dunyoni yanada yaxshi tushunishga intilishga undaydi. Aslida ilm dunyoviy yoki diniy bo‘ladimi insoni komillikga yetaklaydi. Qaysi yurtda insonlar o‘z tarixini, dinini va milliy qadryatlarini unutib borar ekan u yurtning yuksalishi taraqqiy etishi mushkuldir. Bugungi zamonaviy dunyo shiddat bilan o‘zgarib, ilm-fanning yangi yutuqlari hayotimizning har bir jabhasiga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, biotexnologiya, axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyalar sohasi yosh avlodning tarbiyasi, tafakkuri va hayot tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda yoshlarni faqat an’anaviy bilimlar bilan emas, balki zamonaviy, amaliy, analitik va kreativ yondashuvlar asosida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Material va metodlar

Ushbu maqolani tayyorlashda fundamental, tarixiy, diniy va zamonaviy ilmiy manbalarga tayangan holda tahliliy yondashuv qo‘llanildi. Islom dinining ilmga bo‘lgan munosabati Qur’oni Karim oyatlari va sahih hadislarga asoslangan holda o‘rganildi. Ayniqsa, ilmga undovchi oyatlar (Toho, Anfol, Oli Imron, Rum, Toriq suralari) va hadislar (Imom Buxoriy, Imom Muslim, Abu Hurayra rivoyatlari) asosiy manba sifatida tanlab olindi.

Tadqiqot natijalari

Zamonaviy ilm-fan yoshlarning hayotga bo‘lgan qarashini, muammolarga yondashuv uslubini o‘zgartiradi. Masalan, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo‘nalishlari

[839] Imom Zarnujiy. Ilm olish sirlari. Toshkent. Munir. 2023. – B. 9.

orqali o‘qiyotgan yoshlar faqat nazariy bilim emas, balki amaliy, tajribaga asoslangan fikrlash tarzini egallaydilar. Bu esa ularni ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli, ijobiy muhitda yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Raqamli savodxonlik ham yoshlar tarbiyasining ajralmas bo‘lagiga aylangan. Har kuni millionlab axborot oqimi bilan yuzma-yuz kelayotgan yoshlar, shubhasiz, tanqidiy fikrlash, axborotni saralash, haqiqat va yolg‘onni ajrata olish ko‘nikmalariga muhtoj. Shu bilan birga, raqamli muhitda axloqiy qadriyatlarni saqlash, boshqalarga nisbatan hurmat, odob va mas’uliyatli munosabat kabi sifatlar ham yoshlar tarbiyasining tarkibiy qismiga aylangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, islom dini va ilm-fan o‘rtasidagi uyg‘unlik azaldan mavjud bo‘lib, yoshlar tarbiyasida ushbu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi. Qur’oni Karimda ilm olishga undovchi oyatlar, xususan, Toxo surasi, Anfol surasi va yana bir qancha hadislar bayon etiladi. Bu oyatlar nafaqat diniy ilmlarni, balki har qanday foydali ilmga intilishni targ‘ib qiladi. Payg‘ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamning: “Kim ilm talab qilish yo‘liga tushsa, Alloh unga jannat yo‘lini yengillashtiradi” degan hadislari orqali ilm ahamiyati yuksak qadrlangan. Ushbu hadislar asosida ko‘plab musulmon olimlar, xususan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar nafaqat diniy balki dunyoviy ilmlarni ham chuqur o‘rganib, butun bashariyat rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar.

Bugungi zamonaviy adabiyotlarda ham din va ilmiy taraqqiyot bir-biriga zid emasligi, aksincha, bir-birini to‘ldirishi ko‘rsatib berilgan. Jumladan, frantsuz olimi Lui Pastorning “Iymon hech qanday taraqqiyotga to‘siq bo‘lmaydi, chunki har bir taraqqiyot Xudoning yaratgan narsalaridagi ajoyibotlarni ochib beradi” degan so‘zlari ilm va iymon uyg‘unligini ilmiy nuqtai nazardan tasdiqlaydi. Tarixiy adabiyotlar esa arkaziy Osiyo hududida Buxoro, Xorazm, Samarqand, Termiz kabi ilmiy markazlar orqali diniy va dunyoviy bilimlar keng rivojlangani, yoshlarning komil inson bo‘lib shakllanishida ilmiy muhit asosiy o‘rin egallaganini isbotlaydi.

Yurtimiz o‘rta asr allomalari o‘z zamonlarining diniy bilimlarini o‘rganish barobarida o‘sha asrlarda kirib kelayotgan yangi fan va sohalarni ham o‘rganishgan. Buning natijasida ular dunyo tanigan sharqning eng porlagan yulduzlariga aylanishdi. Qur’oni Karim Toxa surasi 114 – oyatida “va Robbim, ilmimni ziyoda qilgin” deyilgan[840]. Bu oyatdan namoyon bo‘ladiki Alloh taolodan ilm so‘rash har banda uchun qilishi zarur bo‘lgan amaldir. Alloh taolo ilmli va ilmsiz odamni solishtirib Anfol surasining 22-oyatida shunday marxamat qiladi “Allohning xuzurida jonzotlarning eng yomoni, albatta, karu-saqov bo‘lib aql yurtmaydiganlardir”. Bu oyat jismonan saqov yoki karlar haqida emas balki ilmsizlikni shunchaki qabul qilib bu dunyoda ilmga ergashmasliklari va ular yaratiliqdagi eng yomon jonzot ekanliklari ta’kidlanmoqda. O‘tgan asrning mashxur olimlaridan biri Pastor shunday deb yozadi: “Iymon xechqanday taraqqiyotga to‘siqinlik qilmaydi, chunki xar bir tarqqiyot xudoning yaratgan narsalaridagi ajoyibotlarni ochib beradi. Agar men bugun kechagidan ko‘ra ilmliroq bo‘lsam, Allohga bo‘lgan ishonchim ham kechagidan mustaxkamroq bo‘ladi[841]”.

Bazi insonlar fikriga ko‘ra diniy ilm taraqqiyotni to‘sadi va joxiliyatga sabab bo‘ladi. Lekin bu fikr qotib qolgan fikrlardan bo‘lib chin islomiy tarbiya taraqqiyotni yuksalishiga va yoshlarda salohiyatni baland bo‘lishiga chorlaydi. Islom–ilm dini ekanligini faqatgina joxillar inkor etishlari mumkin. Masalan bir mamlakatning rivoji uchun o‘sha yurtdagi buzg‘unchiliklar, karrupsion holatlar bartaraf etilishi va qonun qoidalar o‘z o‘rnida ishlashi kerakligini yaxshi bilamiz. Islom dini esa bu masalalarni keragidan ortiq bayon etgan. Biz juda yaxshi bilgan irqchilikni yo‘q qilish masalasi yevropa mamlakatlarida yaqin asrlardan shakillangan bo‘lsa, Islom dini kirishi bilanoq bu irqchilikga nuqta qo‘yganligini guvohi bo‘lamiz.

---

[840] Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Munir nashriyoti. Toshkent. – B. 208.

[841] Xaitov L. Falsafa. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro.2023. – B. 312.

Islom dini kishini ilm olishiga nisbatan qilgan harakatlarini yuqori baholaydi buni bir misolini ushbu hadis oraqali yaxshi anglaymiz. Abu Hurayra roziallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda “Nabiy sololloh alayhi vasallam: Kim ilm talab qilish yo‘liga tushsa, Alloh unga jannatning yo‘lini yengillashtiradi“ dedilar[842]. Ilmga da’vatning bundan ortig‘i bo‘lmasa kerak. Shu o‘rinda aytib o‘tish zarurki insonlar oyatlarda va hadislarda kelgan ilmni faqat diniy ilm deb tushunib qolishlari mumkin. Bu esa notog‘ri fikr! Oyat va hadislarda zikri kelgan ilm hamma foydali ilmlarni o‘z ichiga oladi. Agar oyat va hadislarda faqat diniy ilmlar ko‘zda tutilgansa, bu narsa alohida qayd qilinadi. Misol uchun, Humayd ibn Abdurahmon dedilar: Men Muoviya roziyallohu anhuni bunday deb aytayotganlarini eshitdim: “Men Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamni: “Alloh kimga yaxshilikni ravo ko‘rsa, uni dinda faqih (din olimi) qilib qo‘yadi. deb aytayotganlarini eshitdim[843]. Kim islomning ilmga munosabatini aniq bilmoqchi bo‘lsa, tarixga nazar solsin, Islomga amal qilingan paytda xar bir musulmon yurtida ko‘plab allomalar yetishib chiqganligi guvohi bo‘lamiz.

Yurtimiz tarix olimlari ham dunyo ilm-faniga katta hissa qo‘shganlar. Ular astronomiya, tibbiyot, matematika, falsafa, geografiya kabi sohalarda ko‘plab kashfiyotlar qilishgan. Ibn Sino – (Avitsenna) tibbiyotning asoschisi, Al- Xorazmiy – algebra va algoritmlar fanining otasi, Al- Beruniy – geografiya va astronomiya sohasida iz qoldirgan olim. Musulmonlar Qur’on va hadislardan ilhomlanib, bilim olish va uni boshqalarga ulashishni asosiy maqsad qilib qo‘yganlar. Alloh taollo Qur’onda tafakkur qilish, o‘rganish va koinot sirlarini ochishga da’vat etgan. Bu esa zamonaviy fan va texnologiyalarni rivojlantirish Islom qadryatlariga mos ekanini anglatadi. Zamonaviy fanlar din asoslariga teskari emas, balki din bilan mos keladi. Chunki Qur’oni Karimda Alloh taollo dunyoni, koinotni va borliq mavjudodni o‘rganishga chaqiradi. Qur’oni Kariming Oli Imron surasi 190 - oyatida “Osmon va yerning yaratilishida, tun va kunning o‘rin almashib turishida aql egalari uchun alomatlar bordir[844]”. Rum surasi 22-oyatda esa bunday deyiladi.” Va osmonlaru yerning yaratilishi hamda tillaringiz va ranglaringizning turlicha bo‘lishi Uning oyatlaridandir.Albatta, bunda olimlar uchun oyatlar bordir[845].” Bu oyat zamonaviy ilmiy izlanishlarga asos bo‘luvchi ko‘rsatmadir. Tibbiyot ilmi inson hayotini saqlab qolish va sog‘lom hayot kechirishga xizmat qiladi. Janobi Payg‘ambarimiz Rasulullo sallallohu alayhi vasallam: “Ikki ne’mat borki, ko‘pchilik insonlar uning qadriga yetmaydilar. Ular – sihat-salomatlik va xotirjamlikdir», – dedilar” (Imom Buxoriy rivoyatlari).

Bir kuni “Payg‘ambarlarning otasi” bobomiz Ibrohim alayhissalom so‘radilar:

– Ey, Parvardigori olam! Dard kimdan?

Alloh taolo:

– Mendan, – dedi.

Ibrohim alayhissalom yana so‘radilar:

– Davo kimdan?

Alloh taolo yana:

– Mendan, – dedi.

Shunda Ibrohim alayhissalom:

– Unda shifokorga ne hojat? – dedilar.

Alloh taolo:

– Shifokor – qo‘liga davo yuborilgan kishidir, – deb marhamat qildi[846].

Janobi Payg‘ambarimizning aytgan muborak so‘zlaridan oladigan xulosamiz – qaysi bir dard-kasallikni Alloh taolo yuborgan bo‘lsa, demak, uning shifosini ham yuborgan. Shifosini esa davolovchi, tabib, shifokorlarning qo‘llari orqali yuborar ekan!

---

[842] Muslim ibn Hajjaj an-Naysaburiy. Sahih Muslim, Kitob: Zikr va Duolar, Bob: Ilm yo‘lida yurishning fazli, Hadis № 2699

[843] Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy, Kitob: Ilm, Hadis. 14-bob. Qomuslar Bosh tahririyati. Toshkent. 1991. – B. 20.

[844] Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Munir nashriyoti. Toshkent. – B. 49.

[845] Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Munir nashriyoti. Toshkent. – B. 271.

[846] Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy, Kitob: Ar-Riqoq, Hadis № 6412.

Bundan tashqari Qur’on oyatlarida insonning o‘ziga nazar solishga undash va qanday vujudga kelganini tafakkur qilishga da’vat bor. “Inson nimadan yaratilganiga nazar solsin. U otilib chiquvchi suvdan yaralgandir. U (suv) sulb(umurtqa) va taroib (ko‘krak suyagi) orqasidan chiqadir.” (Toriq surasi, 5-7-oyatlar)[847]. Bundan ko‘rinib turibdiki Islom barcha ilmlarning boshidir.

Xulosa. Bugungi kunda ham yoshlarni shunday allomalar izidan borishga yo‘naltirish, ularning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish, diniy va dunyoviy ilmlarni birgalikda o‘rgatish, barkamol avlod tarbiyasida samarali vositadir. Ilmni faqat diniy yoki dunyoviy yo‘nalishda ajratish noto‘g‘ri yondashuv bo‘lib, islom nuqtayi nazaridan har qanday foydali bilimga intilish rag‘batlantirilgan. Shunday ekan, jamiyatda sog‘lom, bilimli, vatanparvar va ma’naviy jihatdan yetuk yoshlarni tarbiyalashda diniy qadriyatlar va zamonaviy ilm-fan yutuqlari uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu esa nafaqat yoshlarning, balki butun jamiyatning taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi. Zamonaviy ilm-fan nafaqat texnik yoki tabiiy fanlarni o‘z ichiga oladi, balki inson psixologiyasi, sog‘liqni saqlash, ekologiya, ijtimoiy adolat kabi sohalarda ham chuqur tahlillar olib boradi. Jumladan, psixologiya va neyrobiologiya fanlari orqali yoshlarning rivojlanish bosqichlari, stressga chidamliligi, axloqiy qaror qabul qilish mexanizmlari ilmiy asosda o‘rganilmoqda. Bu esa tarbiyaviy yondashuvni ham yanada ilmiy va individual tarzda olib borish imkonini beradi. Diniy qadriyatlar bilan zamonaviy ilm-fan uyg‘unlashganda esa aynan mukammal natijaga erishiladi. Ilm-fan vositasida tafakkur va kashfiyot ruhi rivojlansa, diniy-ma’naviy qadriyatlar bu jarayonni axloqiy mezonlar bilan muvozanatlab turadi. Masalan, tibbiyotda erishilgan yutuqlar inson salomatligini saqlashga xizmat qilsa, diniy manbalar sog‘liq – Alloh bergan ne’mat ekanini, unga e’tiborli bo‘lish farz ekanini eslatadi. Shuningdek, sun’iy intellekt va robototexnika imkoniyatlari ortib borayotgan bir paytda, bu texnologiyalarni insoniyat foydasiga yo‘naltirishda axloqiy mezonlar – halollik, mas’uliyat, adolat asosiy yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan ham bugungi kunda yoshlarga zamonaviy fan va texnologiyalarni chuqur o‘rgatish bilan birga, ularning ma’naviy, axloqiy va milliy qadriyatlar asosida shakllanishini ta’minlash zarur. Zero, ilmiy taraqqiyot insoniyatga katta imkoniyatlar ochadi, ammo bu imkoniyatlar faqat axloqiy barqarorlik, diniy va madaniy asoslar bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy foyda keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Imom Zarnujiy. Ilm olish sirlari. Toshkent. Munir. 2023. – B. 9.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Munir nashriyoti. Toshkent. – B. 208.
3. Xaitov L. Falsafa. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro.2023. – B. 312.
4. Muslim ibn Hajjaj an-Naysaburiy. Sahih Muslim, Kitob: Zikr va Duolar, Bob: Ilm yo‘lida yurishning fazli, Hadis № 2699
5. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy, Kitob: Ilm, Hadis. 14-bob. Qomuslar Bosh tahririyati. Toshkent. 1991. – B. 20.
6. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Munir nashriyoti. Toshkent. – B. 49.
7. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Munir nashriyoti. Toshkent. – B. 271.
8. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy, Kitob: Ar-Riqoq, Hadis № 6412.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhamad Yusuf. Iymon. Toshkent. Hilol. 2022. B-40.

* * *

[847] Shayx Muhammad Sodiq Muhamad Yusuf. Iymon. Toshkent. Hilol. 2022. B-40.

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MILLIY VA DINIY URF-ODATLARIDA UMUMIYLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

COMMONALITIES AND DISTINCTIVENESS IN THE NATIONAL AND RELIGIOUS TRADITIONS OF CENTRAL ASIAN PEOPLES

Hafiza Hasanova,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Dilshodaxon Muminova,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyoning besh davlati (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston)da shakllangan milliy va diniy urf-odatlarning umumiy ildizlari hamda hududiy o‘ziga xos ko‘rinishlari tahlil qilinadi. Navro‘z, hayitlar, mehmondo‘stlik, dasturxon madaniyati, hayot davri marosimlari (tug‘ilish, sunnat, nikoh, motam) hamda ot-ulov o‘yinlari kabi an’analar bo‘yicha qiyosiy misollar, shuningdek UNESCO Nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan elementlar haqidagi ma’lumotlar keltiriladi

Kalit so‘zlar: Navro‘z, palov madaniyati, mehmondo‘stlik, mahalla, sunnat to‘y, beshik to‘y/besik toi, kelin salom, tushoo kesuu/tusau kesu, shashmaqom

Markaziy Osiyo qadimdan chorrahada joylashgani bois turli sivilizatsiyalar ta’sirida bo‘lgan: qadimgi eroniy (Zardushtiylik davri), turkiy ko‘chmanchi madaniyat, islom sivilizatsiyasi hamda mahalliy dehqonchilik an’analari. VIII–X asrlardan boshlab islom dini va hanafiy mazhabi hududda mustahkam ildiz otib, keyinchalik tasavvuf (Yassaviya, Naqshbandiya) orqali ma’naviy hayotning uzviy qismiga aylandi. Ushbu tarixiy qatlamlar hudud xalqlarining urf-odatlarida umumiyliklar yaratgan bo‘lsa, tabiiy-sharoit, xo‘jalik turi (ko‘chmanchi–yarim ko‘chmanchi–o‘troq), til va etnik tarkib farqlari mahalliy o‘ziga xosliklarni shakllantirdi.

I. Umumiyliklar

1. Mehmondo‘stlik va dasturxon odobi. Choy va non bilan qarshi olish, dasturxonni markaziy ijtimoiy makon sifatida ko‘rish barcha xalqlarga xos. Qozog‘iston va Qirg‘izistonda qimiz, qatiq va qurt; O‘zbekistonda somsa, palov, nonushta uchun qaymoq–qaymoqva; Tojikiston va Turkmanistonda sho‘rpo, atola, tandir non – umumiy dasturxon madaniyatining turli ko‘rinishlari sifatida uchraydi.

2. Hayot davri marosimlari. Tug‘ilishdan keyingi “qirq” (ona-bolaning 40 kun parvarishi va “qirqdan chiqarish”), beshik/besik marosimi, sunnat to‘y, nikoh va motam marosimlarining asosiy tuzilishi o‘xshash: diniy duo, qo‘shni-mahalladosh ishtiroki, sadaqa va osh tarqatish.

3. Din va taqvimiy bayramlar. Ramazon va Qurbon hayitlarida xayriya, ziyorat va kechirimlilik amaliyoti keng tarqalgan. Bahor bayrami – Navro‘z barcha mamlakatlarda umumxalq sayiliga aylangan; u 2009-yilda UNESCO Nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan, 2016-yilda ko‘pmillatli element sifatida kengaytirilgan.[848]

4. Jamiyatni birlashtiruvchi institutlar. “Mahalla”, “aul/jamoa”, “qishloq oqsoqollari” kabi o‘zini-o‘zi boshqarish an’analari barcha hududlarda ijtimoiy birdamlik va o‘zaro yordam (hashar, maraka, osh)ni ta’minlaydi.

[848] UNESCO. Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity: Nowruz (inscribed 2009; extended 2016).

II. O‘ziga xosliklar (mamlakatlar kesimida misollar)

O‘zbekiston. ‘Palov madaniyati’ 2016-yilda UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, to‘y-marosimlardan motamgacha bo‘lgan keng kontekstda amal qiladi: oshpazlar sulolasi, oshga choy, salatlar va non tortish tartiblari shakllangan.[849] “Kelin salom”, “beshik to‘y”, “fotiha to‘y”, “sunnat to‘y” kabi marosimlar milliy libos, doira–karnay-surnay jo‘rligida o‘tkaziladi. Xalq og‘zaki ijodida “Askiya” (latifago‘ylik) musobaqalari mashhur (UNESCO, 2014). Navro‘zda “sumalak” tun bo‘yi ayollar hamjamiyati tomonidan pishiriladi; jarayon hamkorlik, xayr-baraka ramzidir.

Qozog‘iston. Ko‘chmanchi turmush merosi nikoh marosimlarida aniq ko‘rinadi: “Qyz uzatu” (kuyov uyiga kuzatish) va “Betashar” (kuyov tomon kelinni jamoaga tanishtirishi) – o‘ziga xos rasm-rusumlar. “Tusau kesu” (bolaning ilk qadamlarida oyog‘iga bog‘langan bog‘ni kesish) marosimi rivojlangan. Navro‘zda yetti mahsulotdan tayyorlanadigan “Nauryz kozhe” ichimligi tayyorlanadi; ot-ulov o‘yinlari (“Kökpar” – uloq-ko‘pkari) va kurash ko‘rgazmalari o‘tkaziladi.

Qirg‘iziston. Yurt (boz uy) – ko‘chmanchi madaniyatning markazi. “Kuda tüsüü” va “Kelin alıp kachuu” (hozirgi huquqiy islohotlar bilan keskin cheklangan) atrofida marosimlar tarixan mavjud bo‘lgan. “Tushöö kesüü” (bolaning oyoq bog‘ini kesish) va ot o‘yinlari “Kök-boru/ulak tartysh” keng tarqalgan. “Aitysh” – badiiy she’riy bellashuv an’anasi bugun ham festivallar orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

Tojikiston. Fors-tojik madaniy qatlam kuchli: Navro‘zda “haft sin” yoki “haft meva” kabi dasturxon bezaklari, “sumanakpaz” marosimi keng tarqalgan. Nikohda “Shirinī-khorī” (shirinlik tatish orqali nikohga rozilik), “muborakbod” urfi bor. Musiqa va marosimlarda “Shashmaqom” o‘zbek-tojik umumiy merosi sifatida alohida o‘rin tutadi (2003 yilda UNESCO tomonidan E’tirof etilgan, 2008 yilda Ro‘yxatga ko‘chirilgan).[850]

Turkmaniston. “Dutar” va bag‘shi-baxshi ijrochiligi, milliy to‘y liboslari (alvon ipak va kulonjlar), “gelinlik” rasm-rusumi ajralib turadi. “Nowruz bayramy”da milliy taomlar – “semene”, “dograma” va tandir nonlari tayyorlanadi. Qabilaviy (Teke, Yomut, Ersari) naqshlar gilamchilik va liboslarda saqlanib keladi.

III. Qiyosiy ko‘rinish (ba’zi marosimlarning hududiy variantlari)

Marosim	Hududiy nom/variant(lar)	Izoh (umumiy mazmun)
Tug‘ilishdan keyingi 40 kun	Qirqdan chiqarish (O‘z., Toj.), Kyrkynan/qyrqyna (Qoz., Qirg‘.), qyrkdan çykarmak (Turkm.)	Ona-bola 40 kun parvarish; 40 qoshiq suv bilan ‘qirq chiqarish’, duolar, sadaqa.
Bolaning ilk qadam marosimi	Tusau kesu (Qoz.), Tushöö kesüü (Qirg‘.)	Bola erkin yursin degan niyatda bog‘ kesiladi; poygalar o‘tkaziladi.
Beshik marosimi	Beshik to‘y (O‘z.), Besik toi (Qoz.), Beshik toyu (Qirg‘.)	Go‘dakni beshikka solish, alla aytish, qarindoshlar ishtiroki.
Nikoh marosimi	Kelin salom (O‘z.), Betashar (Qoz.), Kuda tüsüü (Qirg‘.), Shirinī-khorī (Toj.)	Diniy nikoh, qarindosh-urug‘ salomi, sovg‘a-salom, umumiy ziyofat.
Bahor bayrami	Navro‘z (O‘z., Toj., Turkm.), Nauryz (Qoz.), Nooruz (Qirg‘.)	Yangi yil; sumalak; xalq sayillari.

IV. Diniy urf-odatlar va amaliyotlar

Ushbu hududda musulmonlar ko‘pchilikni tashkil etadi va kundalik hayotda hanafiy fiqh an’anasi hukmron. Ramazonda ro‘za, taroveh, iftorliklar; Qurbon hayitda qurbonlik go‘shtini ulashish, qo‘ni-qo‘shniga tarqatish marosimlari umumiydir. Mahalla va jamoa miqyosida “sadaqa

[849] UNESCO. Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity: Culture of Palov in Uzbekistan (inscribed 2016).
[850] UNESCO. Shashmaqom music of Uzbekistan and Tajikistan (Proclaimed in 2003; incorporated into the Representative Li

osh" va "maraka"lar ham diniy, ham ijtimoiy birdamlik vazifasini bajaradi. Tasavvufiy meros (Yassaviy va Naqshbandiy tariqatlari) axloq va ruhoniy tarbiyada katta ta'sir ko'rsatgan.

V. Zamonaviy o'zgarishlar va merosni asrash

Globalizatsiya, urbanizatsiya va migratsiya natijasida marosimlar ixchamlashmoqda, ayrim unsurlar qayta talqin qilinmoqda (masalan, to'y marosimlarida isrofgarchilikni kamaytirish tashabbuslari). Shu bilan birga, UNESCO ro'yxatlariga kiritish, milliy bayramlarni davlat darajasida nishonlash, madaniy festivallar (Navro'z sayillari, osh bayramlari, aitysh/aşıq festivallari) merosning barqarorligini ta'minlamoqda. Raqamli muhitda an'anaviy taomlar retsepti, marosim qo'shiqlari va udumlari ommalashib, yoshlarga yangi uslubda yetmoqda.

Xulosa

Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlari tarixiy qatlamlarning qo'shilishi natijasida vujudga kelgan umumiy madaniy maydonni ko'rsatadi: mehmondo'stlik, hamjihatlik, xayriya va tabiat bilan uyg'unlik g'oyalari buning negizidir. Shu bilan birga, geografik va xo'jalik omillari, til va etnik tarkib farqlari marosimlarda o'ziga xos rang-baranglikni yaratadi. Merosni ilmiy asosda hujjatlashtirish, ta'lim va targ'ibot tizimiga integratsiya qilish, ortiqcha isrofdan xoli "maqbul marosim" tajribalarini kengaytirish dolzarbdir.

Adabiyotlar ro'yxati

[1] UNESCO. Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity: Nowruz (inscribed 2009; extended 2016).

[2] UNESCO. Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity: Culture of Palov in Uzbekistan (inscribed 2016).

[3] UNESCO. Shashmaqom music of Uzbekistan and Tajikistan (Proclaimed in 2003; incorporated into the Representative Li

* * *

O'ZBEK ALLALARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA ULARNI TA'LIMGA INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI

THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF UZBEK PROVERBS AND THE CHALLENGES OF INTEGRATING THEM INTO EDUCATION

Husanova Shohsanam Erkinovna
O`ZDJTU o`qituvchisi
Elektron manzil: shoxsanamxusanova746@gamail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalq allalarining tarbiyaviy, estetik va lingvistik ahamiyati yoritilib, ularni zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiyalashda uchrayotgan dolzarb muammolar tahlil etiladi. Allalar ona tilini o'rgatish, milliy qadriyatlarni singdirish, bolalarning emotsional rivojlanishiga ko'maklashish vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, allalarning o'quv dasturlaridagi o'rni, metodik ta'minot yetishmovchiligi va raqamli resurslar kamligi kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar

alla, og'zaki ijod, tarbiya, til o'rgatish, maktabgacha ta'lim, metodika

Kirish

O'zbek xalqining boy madaniy merosi orasida allalar alohida o'rin tutadi. Alla — bu faqatgina bolaning uyquga ketishiga xizmat qiluvchi qo'shiq emas, balki xalqning axloqiy-ruhiy qarashlarini,

orzu-umidlarini, estetik dunyoqarashini ifodalovchi muhim og‘zaki ijod shaklidir. Ayniqsa, allalar orqali bola dastlabki nutq elementlarini o‘zlashtiradi, musiqiy tinglov sezgisini rivojlantiradi va ona tilining fonetik xususiyatlariga moslashadi. Bugungi kunda esa ushbu bebaho merosni maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida to‘laqonli qo‘llashda bir qator muammolar kuzatilmoqda.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining qadimiy va nafis shakllaridan biri bu — allalardir. Ular asosan onaning o‘z farzandiga mehr-muhabbatini ifodalovchi, tinchlantiruvchi va ma’naviy jihatdan yuksaltiruvchi kuyli she’r shaklida bo‘ladi. Allalar o‘zining soddaligi, musiqiyligi, semantik teranligi, axloqiy-ruhiy ta’siri bilan avlodlar ongida chuqur iz qoldirib kelmoqda.

Biroq, globallashuv, raqamli madaniyat va zamonaviy texnologiyalar ta’siri ostida allalarning kundalik hayotdagi va ta’limdagi o‘rni tobora chekinib bormoqda. Aynan shuning uchun bugungi kunda allalarning tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy asosda ochib berish va ularni ta’lim tizimiga samarali integratsiya qilish dolzarb masala sanaladi.

Allalar bolani nafaqat uyquga yotqizish uchun aytiladigan kuy, balki bola shaxsini shakllantirishga xizmat qiluvchi ko‘p qirrali tarbiya vositasidir. Ular orqali ona o‘z hissiyotlarini, mehrini, hayotga bo‘lgan qarashlarini ifodalaydi. Alla matnlarida quyidagi tarbiyaviy funksiyalar kuzatiladi:

Allalarda tez-tez “yaxshilik”, “halollik”, “mehnat” kabi tushunchalar uchraydi. Masalan:

“Alla bolam, allayo,
Yaxshi bola bo‘lgino,
Mehnat qilib ulg`ayib,
Halol yo‘lni tutgino”

Allalarda xalqona qadriyatlar – mehr-oqibat, sabr-toqat, ota-ona hurmati kabi tushunchalar chuqur ifodalangan.

Bolaga hotirjamlik, muhabbat, xavfsizlik hissi beradigan allalar ruhiy barqarorlikni ta’minlaydi. Bu esa bola ruhiyatining sog‘lom shakllanishiga xizmat qiladi.

Allalardagi ohangdorlik, takroriylik, poetik obrazlar bolaning eshitish, tushunish va tovush sezgirligini kuchaytiradi.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim dasturlarida allalar alohida mavzu sifatida ko‘zda tutilmagan. Ular ko‘pincha faqat musiqa yoki badiiy ijod darslarida cheklangan doirada ishlatiladi.

Allalarni o‘rgatishda qo‘llaniladigan maxsus dars ishlanmalari, tinglab tushunish mashqlari, fonetik tahlil topshiriqlari mavjud emas yoki kam uchraydi. Bu esa pedagoglar uchun amaliy muammolarni keltirib chiqaradi.

Ko‘plab o‘qituvchilar allalarning tarbiyaviy va lingvistik imkoniyatlarini yetarlicha tushunmaydi, ularni darsda qo‘llash usullarini bilmaydi. Bu esa ularning ta’lim jarayonidagi samarasini pasaytiradi.

Allalarni multimedia shaklida, video va audio formatda uzatish imkoniyati cheklangan. Bu esa bugungi axborot makonida faol o‘rgatuvchi vosita sifatida ularning rolini susaytiradi.

O‘zbek xalq allalari — bu millatning yurak sadosidir. Ular orqali bola dastlabki til birliklarini o‘zlashtiradi, axloqiy me’yorlarni anglaydi, milliy qadriyatlarni singdiradi. Shu bois, allalarning tarbiyaviy va lingvodidaktik imkoniyatlarini chuqur o‘rganib, ularni maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimiga keng ko‘lamda kiritish zarur.

Buning uchun quyidagi choralarni ko‘rish maqsadga muvofiq:

Allalar asosida tuzilgan dars ishlanmalari, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi;

O‘qituvchilarga maxsus malaka oshirish kurslarida allalarni ta’limga tatbiq qilish metodikasi o‘rgatilishi;

Allalarni raqamlashtirish, mobil ilovalar va interaktiv dars vositalari shaklida yaratish;

Hududiy allalarni to‘plash, tahlil qilish va ularni maktabgacha yoshdagi bolalarga moslashtirish.

Shu yo‘l bilan biz xalq og‘zaki ijodining bu bebaho xazinasi — allani bugungi ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilamiz va yosh avlod ongiga milliy ruhni singdirishda samarali natijalarga erishamiz.

Allalarning o‘ziga xos til xususiyatlari — takroriylik, soddalik, musiqiylik, fonosemantika — ularni bolalar uchun qulay va qiziqarli o‘rgatuvchi vositaga aylantiradi. Biroq bu imkoniyatlar hali hanuz ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmaydi. Birinchidan, allalar haqida mavjud bo‘lgan ilmiy va metodik materiallar son jihatdan kam va ularning hududiy xususiyatlari inobatga olinmagan. Masalan, Buxoro, Andijon yoki Qoraqalpog‘iston hududlariga oid allalar mazmun va ohang jihatidan sezilarli darajada farqlanadi. Bu esa ularni yagona o‘quv resursiga aylantirishda murakkablik tug‘diradi. Ikkinchidan, pedagoglarning allalarni o‘qitishdagi metodik tayyorgarligi yetarli emas. Aksariyat tarbiyachilar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari allalarni faqat folklor namunasi sifatida ko‘rib, ularni til o‘rganish yoki axloqiy tarbiya vositasi sifatida qo‘llamaydi. Uchinchidan, raqamli resurslar yetishmovchiligi allalarning zamonaviy a’limda qo‘llanishini cheklaydi. Hozirgi paytda sun’iy intellekt va multimedia vositalari yordamida allalarni interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyati kamdan-kam hollarda mavjud.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek allalari xalq madaniyatining betakror namunasi bo‘lishi barobarida, pedagogik resurs sifatida ham katta salohiyatga ega. Ularni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish orqali bola nafaqat til o‘rganadi, balki estetik zavq, axloqiy tushunchalar va milliy qadriyatlarga daxldorlikni his eta boshlaydi. Shu sababli, allalarni ta’limga integratsiyalash bo‘yicha tizimli yondashuv, ilmiy asoslangan metodikalar va raqamli platformalarning yaratilishi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Ismoilov M. (tahr.). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent: Fan, 2000.
2. Safarov O. Alla — xalqning yurak nidosi. Toshkent, 2014.
3. Mamatqulova D. “Allalarning lingvopoetik xususiyatlari”. Filologiya masalalari, 2021.
4. Ergashova N. “Maktabgacha ta’limda og‘zaki ijod namunalarini qo‘llash muammolari”. Ta’lim va innovatsiya, 2022.
5. Kitob.uz va ZiyoNET elektron kutubxonalari.

* * *

ЎРТА ОСИЁ АНЪАНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ ҲАЁТГА ИНТЕГРАЦИЯ ҚИЛИШ

INTEGRATION OF CENTRAL ASIAN TRADITIONAL VALUES INTO MODERN LIFE

Булгакова Шахноза Алишеровна,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси

Ўрта Осиё халқлари азал-азалдан бой тарихий ва маданий меросга эга. Бу мероснинг асосини асрлар оша шаклланиб келган, авлоддан авлодга ўтиб келаётган қадриятлар ташкил этади. Бу қадриятлар нафақат ўтмишнинг акси, балки бугунги кун ва келажак учун ҳам муҳим аҳамият касб этади. Глобаллашув ва замонавийлашув жараёнлари жадаллашиб бораётган бир пайтда, миллий ўзига хосликни сақлаб қолиш ва уни замонавий ҳаётга мослаштириш ҳар қачонгидан ҳам долзарб масалага айланмоқда.

Ўрта Осиё халқларига хос бўлган қадриятлар оила муқаддаслиги, оқсоқолга ҳурмат, меҳмондўстлик, маҳаллачилик, аҳиллик ва ҳамжиҳатлик каби тамойилларга асосланади. Бу қадриятлар жамиятдаги ижтимоий муносабатларни тартибга солишда, одамлар ўртасидаги ўзаро ҳурмат ва ишончни мустаҳкамлашда муҳим рол ўйнайди. Замонавий дунёда, ахборот

технологиялари ва виртуал алоқалар кенг тарқалган бир пайтда, юзма-юз мулоқот ва самимий муносабатларнинг аҳамияти янада ошмоқда.

Ўрта Осиё халқларига хос бўлган қадриятлар оила муқаддаслиги, оқсоқолга ҳурмат, меҳмондўстлик, маҳаллачилик, аҳиллик ва ҳамжиҳатлик каби тамойилларга асосланади. Бу қадриятлар жамиятдаги ижтимоий муносабатларни тартибга солишда, одамлар ўртасидаги ўзаро ҳурмат ва ишончни мустаҳкамлашда муҳим рол ўйнайди. Замонавий дунёда, ахборот технологиялари ва виртуал алоқалар кенг тарқалган бир пайтда, юзма-юз мулоқот ва самимий муносабатларнинг аҳамияти янада ошмоқда.

Анъанавий қадриятларнинг замонавий ҳаётга интеграциясининг ёрқин намунаси оила ва маҳалла институтининг қайта жонланишидир. «Маҳалла – тинчлик, ҳамжиҳатлик ва ижтимоий барқарорликнинг асосий бўғинидир»[851]. Бугунги кунда маҳалла нафақат маъмурий бирлик, балки ижтимоий муаммоларни ҳал қиладиган, ёшларни тарбиялайдиган ва аҳолига кўмак берадиган самарали механизмга айланмоқда. Масалан, Ўзбекистонда маҳаллалар «Обод маҳалла»[852] ва «Яшил макон»[853] дастурлари орқали инфратузилмаси яхшиланиб, ободонлаштириш ишлари олиб борилмоқда. Шунингдек, «Темир дафтар»[854], «Аёллар дафтари»[855] ва «Ёшлар дафтари»[856] каби тизимлар орқали аҳолининг ижтимоий муҳофазаси ва бандлигини таъминлашда асосий марказга айланмоқда. Бу ташаббуслар замонавий даврда маҳалланинг аҳамияти нақадар юқори эканини яққол кўрсатади.

Меҳмондўстлик – халқимизнинг ўзига хос хусусиятидир. Замонавий туризм индустриясида бу қадрият туристларни жалб қилишда муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда. «Ўзбек меҳмондўстлиги нафақат урф-одат, балки ўзаро ҳурмат ва инсонпарварликнинг ёрқин кўринишидир»[857]. Сайёҳлар нафақат тарихий обидаларни томоша қилиш, балки халқимизнинг самимияти ва меҳмондўстлигидан баҳраманд бўлиш учун ҳам ташриф буюрмоқдалар. Бухородаги анъанавий меҳмон уйлари ёки Самарқанддаги ош маросимлари сайёҳлар учун айнан шундай тажрибани тақдим этади. Масалан, сайёҳлар Бухоронинг «Малика» меҳмон уйида яшаб, маҳаллий оиланинг турмуш тарзи билан яқиндан танишиши, Самарқанддаги «Ош маркази»да эса палов тайёрлаш жараёнида иштирок этиши мумкин. Бу каби тажрибалар уларнинг саёҳатига миллий ранг-баранглик бағишлаб, унутилмас таассурот қолдиради. Бу эса ўз навбатида, туризмни ривожлантириш ва мамлакатнинг ижобий имижини шакллантиришга хизмат қилади.

Анъанавий қадриятларни замонавий ҳаётга мослаштириш фақатгина ижтимоий соҳа билан чекланиб қолмайди. У иқтисодиёт, таълим ва маданиятда ҳам ўз аксини топмоқда. Асрлар давомида ривожланиб келган миллий ҳунармандчилик турлари – кулолчилик, заргарлик, гиламдўзлик, сўзаначилик бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. «Ҳунармандчилик – миллий иқтисодиётнинг муҳим қисми бўлиб, у анъаналарни сақлаган ҳолда замонавий талабларга мослашиши лозим»[858]. Замонавий дизайн ва технологиялар билан бойитилган бу ҳунармандчилик маҳсулотлари халқаро бозорларда юқори талабга эга бўлмоқда. Масалан, Қўқондаги кулолчилик мактабида анъанавий маҳсулотлар билан бирга замонавий санъат асарлари ҳам яратилмоқда. Бу каби мисоллар бухоролик заргарларнинг миллий нақшларни

---

[851] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. - Б. 25.
[852] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 18 мартдаги ПҚ-172-сонт Қарори
[853] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 майдаги ПФ-90-сон Фармони
[854] Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 31 майдаги 313-сон Қарори
[855] Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 31 мартдаги 145-сон Қарори
[856] Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 июндаги 312-сон Қарори
[857] Қаҳрамонов А. Миллий қадриятлар ва глобал жамият. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2018. - Б. 112.
[858] Қўшбоев Ш. Ҳунармандчилик: тарихи ва тараққиёт йўллари. – Т.: Фан, 2019. - Б. 45.

замонавий тақинчоқларга ўйган ҳолда яратаётганида ҳам намоён бўлади. Қўлда тўқилган гиламлар, анъанавий ранглар ва услублар замонавий интерьер учун мос келадиган тарзда яратилмоқда.

Мумтоз адабиёт ва мусиқа мероси замонавий санъат намуналари билан уйғунлашиб, янгича мазмун ва шакл касб этмоқда. «Классик мусиқани замонавий аранжировкалар билан уйғунлаштириш ёшларнинг миллий санъатга бўлган қизиқишини оширади»[859]. Миллий чолғу асбобларида ижро этилаётган замонавий мусиқалар, миллий рақслар асосида яратилган замонавий балет постановкалари бунга мисол бўла олади. Замонавий бастакорлар мақом ва этно-фьюжн жанрларини бирлаштириб, ўзгача мусиқий асарлар яратмоқдалар. Бу эса ёшларнинг миллий мусиқага қизиқишини ошириб, унинг дунё саҳнасида ўз ўрнига эга бўлишига хизмат қилмоқда. Шунингдек, алишер навоий шеъриятига замонавий бастакорлар томонидан куй басталаниб, замонавий эстрада хонандалари томонидан ижро этилиши адабиётни кенг оммалаштиришда муҳим рол ўйнамоқда.

Ахборот технологиялари даврида миллий қадриятларни ёшлар онгига сингдиришнинг янги усуллари пайдо бўлмоқда. Виртуал музейлар, тарихий воқеликларга асосланган компьютер ўйинлари, миллий адабиётни тарғиб қилувчи электрон китоблар ва аудиофайллар ёшлар учун миллий меросни ўрганишда янада қизиқарли бўлиб бормоқда. «Рақамли маданий мерос – бу анъаналарни сақлаш ва тарғиб қилишнинг энг самарали йўлидир»[860]. Масалан, Ўзбекистонда яратилган виртуал музейлар ёки тарихий шахслар ҳақидаги анимацион филмлар ёш авлодга тарихимизни замонавий ва қизиқарли тарзда етказиб бермоқда. Масалан, Ўзбекистонда яратилган виртуал музейлар ёки «Амир Темур»[861] каби тарихий шахслар ҳақидаги анимацион филмлар ёш авлодга тарихимизни замонавий ва қизиқарли тарзда етказиб бермоқда. Шунингдек, «Навоий»[862] асарлари асосида яратилган мобиль иловалар ва «Берунийнинг ҳикматлари»[863] мавзусидаги подкастлар миллий адабиёт ва илмий меросни кенг омма, айниқса, ёшлар ўртасида оммалаштиришга хизмат қилмоқда. Бу каби рақамли маҳсулотлар аждодларимизнинг бой меросини ўрганиш ва уни ҳаётга татбиқ этиш учун қулай имкониятлар яратмоқда.

